

DAVLAT VA HUQUQ

ГОСУДАРСТВО И ПРАВО – STATE AND LAW

ILMIY JURNAL

1 (01) – 2026

MUASSIS:

Davlat va huquq instituti

Tahrir kengashi raisi:

Akmal SAIDOV

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi akademigi

Bosh muharrir:

Murodjon TURG'UNOV

Davlat va huquq instituti

direktori

Xalqaro tahrir kengashi a'zolari:

Taliya XABRIYEVA

(Rossiya Federatsiyasi)

Aslan ABASHIDZE

(Rossiya Federatsiyasi)

Magomed GULUZADE

(Ozarbayjon Respublikasi)

Adel ABDULLIN

(Rossiya Federatsiyasi)

Nikita MOLCHAKOV

(Rossiya Federatsiyasi)

Ubaydulla MINGBOYEV

(O'zbekiston Respublikasi)

Bahrom ABDUHALIMOV

(O'zbekiston Respublikasi)

Salom SAMADOV

(O'zbekiston Respublikasi)

Mirzayusuf RUSTAMBOYEV

(O'zbekiston Respublikasi)

Rustam XATAMOV

(O'zbekiston Respublikasi)

Bosh muharrir o'rinbosari:

Akbarshox Teshaboyev

Mas'ul kotib:

Muxriddin Xasanov

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Tulyaganov Abdumannop

Davlat va huquq instituti ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

Toshqulov Jo'raboy

Davlat va huquq instituti nazariy-tarixiy, davlat-huquqiy va konstitutsiyaviy-huquqiy fanlari bo'limi boshlig'i

Turdiboyeva Ra'no

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining o'rinbosari

Azizov Nig'monjon

Davlat va huquq instituti nazariy-tarixiy, davlat-huquqiy va konstitutsiyaviy-huquqiy fanlari bo'limi katta ilmiy xodimi

Oqyulov Omonboy

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti bosh ilmiy xodimi

Baratov Mirodiljon

Davlat va huquq instituti fuqarolik-huquqiy va xalqaro huquq fanlari hamda xalqaro tashkilotlar bo'limi boshlig'i

Teshaboyev Akbarshox

Davlat va huquq instituti Ma'muriy-huquqiy, jinoiy-huquqiy fanlar bo'limi boshlig'i

Mamasiddiqov Muzaffar

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi boshlig'i

Xolmuminov Jumanazar

Toshkent Davlat Yuridik universiteti professori

Abdullayev Javlon

Oliy Majlis qonunchilik palatasi Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi raisining o'rinbosari

Talapov Baxritdin

Namangan davlat universiteti huquqshunoslik fakulteti dekani

Otajonov Abrorjon

Toshkent davlat yuridik universiteti professori

Toshpo'latov Akrom

Parlament tadqiqotlari instituti direktori

Mirazov Davron

Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig'i

Tillaboyev Mirzatilla

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktorining birinchi o'rinbosari

G'ofurov Asqar

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi o'rinbosari

Xujamova Kamola

Guliston Davlat Universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

Umaraxunov Irkin

O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining Malaka oshirish instituti rektori

Yusupov Sardorbek

Toshkent davlat yuridik universiteti kafedra mudiri

Isoqov Luqmonjon

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida kafedra boshlig'i

Raxmatullayev Shavkatjon

Davlat va huquq instituti ilmiy kotibi

MUNDARIJA

TABRIKLAR

Sh.Ayupov. Qutlov	4
A.Saidov. Ilm-fan va huquq taraqqiyoti uyg'unligi sari muhim qadam	6

DAVLAT VA HUQUQ INSTITUTI FAOLIYATI TO'G'RISIDA AXBOROT

M.Turg'unov. Davlat va huquq instituti faoliyatiga nazar	9
---	---

DAVLAT-HUQUQIY FANLAR

J. Toshqulov. Davlat va huquqqa oid mavzulardagi ilmiy izlanishlarning asosiy qoidalari	24
Sh.Shayzakov. O'zbekiston tarixida fuqarolik sud hujjatlarini apellyatsiya tartibida tekshirish institutining o'ziga xos xususiyatlari	29
Z.Muqimov. Tarixiy-huquqiy fanlar o'quv kurslari emasmi?	34
E.Murodova. Zamonaviy huquqiy davlatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalalari	40
A.Dadasheva. O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati mexanizmlarining tadrijiy rivojlanishi	44
Э.Курбанова. Трансформация правоохранительной функции государства в Республике Узбекистан в условиях глобализации	48

FUQAROLIK-HUQUQIY FANLAR

A.Odinayev. Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llash nazariyasi va amaliyoti: muammo, mulohaza taklif	54
R.Turdiboyeva. Mehnat huquqlarini himoya qilish yo'nalishlari: hozirgi holat va istiqboldagi ishlar	59
J.Xolmo'minov. Iqlim o'zgarishi sharoitida suv resurslarini ekologik-huquqiy muhofaza qilish va undan foydalanishning ilmiy-nazariy muammolari	63
H. Quchqarov. Mehnat huquqlarini himoya qilishning usullari	70
R.Ruziyev. Yuridik shaxslarni tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi	76
Z.Babakulov. Transchegaraviy metaversda tovar belgisi huquqi: yurisdiksiya muammosi va funksional model zarurati	80
Д.Авазбекова. Механизмы защиты прав ребёнка в семейном законодательстве Республики Узбекистан	87
M.Beg'amov. Talim va yuridik xizmatlar sohasiga sun'iy intellektni joriy etishda davlat-xususiy sheriklik: huquqiy muammolar va yechimlar	90
A.Mamadaliyev. Huquqni suiiste'mol qilishdan kelib chiqadigan fuqarolik-huquqiy oqibatlariga oid doktrinalar tahlili	94
S. Tursunboyev. O'zbekiston Respublikasi prokuratura va tergov institutlarining tarixiy-huquqiy taraqqiyoti (milliy va jahon tajribasining qiyosiy tahlili asosida)	100

JINOIY-HUQUQIY FANLAR

A.Tulyaganov. Shaxsga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra javobgarlikdan ozod qilishning mohiyati va huquqiy ahamiyati	106
A.Abdullayev. Oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha xorijiy tajriba	111
V.Xomidov. Olib qo'yish tergov harakatining huquqiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari	115
M.Nuraliyev. Procedure for registering evidence at the stage of pre-trial proceedings	118
A.Ortiqov. Odam savdosi va Odam o'g'irlash jinoyatining viktimligi va jinoyatlarni sodir etuvchi shaxslarning kriminologik tavsifi	124
A. Payziyev. Qizil va sariq toifadagi mahallalarda narkojinoyatlarga qarshi kurashish: muammo va yechimlar	130
S.Shomirzaev. Oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish: qiyosiy-huquqiy tahlil va Markaziy Osiyo davlatlari tajribasi	134
U.Tallibayev, S.Tursunova. Urbanlashgan muhitda voyaga yetmaganlarning g'arazli-zo'ravonlik delinkventligi: latentlik jabrlanuvchini tanlash omili sifatida	140
X.Kuchkarov. Yuqori sud bosqichida taraflar tengligini ta'minlash masalalari	144
Sh.Axmedov. Voyaga yetmaganlarning yo'l harakati sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarligi	149

HALQARO-HUQUQIY FANLAR

M.Baratov. Misrdagi turizmning o'ziga xos xususiyatlari	154
L.Isoqov. Migratsiya huquqida diplomatik va konsullik himoyasining zamonaviy ahamiyati	159
T.Xujanov. O'zbekistonning demokratik rivojlanishida bola huquqlarini ta'minlash masalalari	165
A.Esemuratov. Zamonaviy xalqaro huquqda migratsiya jarayonlarini boshqarish: shartnomaviy va institutsional yondashuvlar	169
B. Akramxodjayev. Saudiya Arabistoni: turizm sohasiga oid ayrim ma'lumotlar	173
A.Saidov, Sh.Azizov. Globallashtirish sharoitida barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlari tamoyillarining o'zaro uyg'unligi	178

AMALIY-HUQUQIY FANLAR

A.Teshaboyev. Sun'iy intellekt orqali sodir etilayotgan jinoyatlar: zamonaviy tahdidlar, huquqiy muammolar va ularga qarshi kurash masalalari	182
E. Rustamov. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikni huquqiy tartibga solish va iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari	187
B. Xudoyberdiyev. Qurolli kuchlar harbiy xizmatchilarni huquqiy himoya qilishga oid qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratini ta'minlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish (Yaponiya va Janubiy Koreya davlatlari tajribasi asosida).....	193
M.Xadjayev. Yo'l-transport hodisalarini oldini olishda "avariya o'choqlari"ning o'rni va ahamiyati	197
M.Xasanov. Sun'iy intellekt tushunchasi, turlari va huquqiy tabiati	200
Ф. Усарова. Новый этап системы махалли в послании президента Олий Мажлису и народу Узбекистана	204



Hurmatli ilm ahli, qadrli olimlar, tadqiqotchilar va aziz yurtdoshlar!

Mamlakatimizda ilm-fan taraqqiyoti, ayniqsa, huquqshunoslik ilmiy maktablarini rivojlantirish hamda davlat va jamiyat hayotining huquqiy asoslarini mustahkamlash yo'lida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar yangi ilmiy platformalar va nufuzli akademik maydonlarni shakllantirishni taqozo etmoqda. Zero, har qanday demokratik davlatning taraqqiyoti, eng avvalo, ilm-fan, qonun ustuvorligi va adolat tamoyillariga tayanadi. Shu bois bugungi kunda davlat va huquq masalalarini ilmiy asosda o'rganish, milliy qonunchilikni zamon talablari asosida takomillashtirish hamda huquqiy tafakkurni yuksaltirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ana shunday mas'uliyatli va sharaflı vazifalarni amalga oshirish yo'lida Davlat va huquq instituti tomonidan "Davlat va huquq" ilmiy-huquqiy jurnalining ilk soni nashr etilayotgani yurtimiz ilmiy hayotidagi muhim voqealardan biridir. Ushbu jurnalning tashkil etilishi nafaqat huquqshunoslik fanining rivoji, balki mamlakatimizda ilmiy fikr, tahliliy yondashuv va akademik muloqot muhitini yanada mustahkamlash yo'lidagi muhim qadam sifatida alohida e'tirofga loyiqdir.

Bugungi murakkab va tezkor davr huquq tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, kibernetika, ekologik xavfsizlik, inson huquqlari va xalqaro hamkorlik bilan bog'liq yangi huquqiy munosabatlar zamonaviy ilmiy yondashuvlarni talab qilmoqda. Endilikda huquqshunoslik faqatgina qonunlarni sharhlovchi emas, balki jamiyat taraqqiyotining strategik yo'nalishlarini belgilashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy sohaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, mazkur jurnal davlat boshqaruvi, konstitutsiyaviy islohotlar, sud-huquq tizimi, xalqaro huquq, raqamli huquq, intellektual mulk, inson huquqlari hamda boshqa dolzarb yo'nalishlarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni birlashtiruvchi nufuzli akademik maydonga aylanishiga ishonaman.

Ayniqsa, jurnal faoliyatida ilmiy xolislik, akademik halollik va yuqori sifat mezonlariga qat'iy amal qilinishi nihoyatda muhimdir. Chunki bugungi kunda ilm-fanning haqiqiy qadri faqat maqolalar soni bilan emas, balki ularning ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati va jamiyat taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasi bilan belgilanadi. Shu ma'noda jurnal sahifalarida chuqur tahliliy maqolalar, amaliy takliflar, qonunchilikdagi mavjud bo'shliqlarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy qarashlar va innovatsion yondashuvlar keng o'rin olishi zarur.

Mazkur jurnalning yana bir muhim jihati shundaki, u yosh olimlar va mustaqil izlanuvchilar uchun ham mustahkam ilmiy maktab vazifasini o'taydi. Yangi avlod tadqiqotchilarining ilmiy fikri, intilishi va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Chunki ilm-fan taraqqiyoti davomiylikni, ustoz va shogird an'alarini, ilmiy maktablarning uzviy rivojlanishini talab qiladi. Ishonchim komilki, jurnal yoshlarning ilmiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda, ularni xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan integratsiyalashuviga ko'maklashishda muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, jurnalning xalqaro miqyosdagi nufuzi va e'tiborini oshirish masalasi ham dolzarb ahamiyatga ega. Bugungi kunda ilmiy nashrlarning xalqaro indeksatsiya bazalariga kirishi, xorijiy ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilishi va maqolalarning xalqaro standartlar asosida tayyorlanishi muhim talab hisoblanaadi. Shu bois tahririyat jamoasi oldida katta va mas'uliyatli vazifalar turibdi. Ilmiy ekspertiza sifati, ochiqlik, shaffoflik va akademik etika tamoyillariga asoslangan faoliyat jurnalning nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Alohida ta'kidlash joizki, bugungi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Ilmiy tadqiqotlarni davlat boshqaruvi bilan uyg'unlashtirish, qarorlar qabul qilishda ilmiy asoslangan yondashuvlarni keng joriy etish, qonunchilikni zamon talablari asosida takomillashtirish yo'lida bunday ilmiy-huquqiy jurnallarning o'rni beqiyosdir. Mazkur jurnal davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan ilmiy takliflar, konseptual qarashlar va ilg'or tajribalarni ommalashtirish orqali ushbu jarayonlarga munosib hissa qo'shadi, deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, jurnalning tashkil etilishida fidokorona mehnat qilgan barcha tashabbuskorlarni, tahririyat jamoasini, mualliflar va ilmiy hamkorlarni samimiy muborakbod etaman. Sizlarning zahmatli mehnatingiz natijasida yurtimiz huquqshunoslik ilm-fani rivojiga xizmat qiladigan yana bir nufuzli ilmiy maydon shakllanmoqda.

Tilagim shuki, "Davlat va huquq" ilmiy-huquqiy jurnali milliy huquqshunoslik maktabining rivojiga, ilmiy tafakkur yuksalishiga, qonun ustuvorligi va adolat tamoyillarining mustahkamlanishiga munosib hissa qo'shsin. Jurnal sahifalarida chop etiladigan har bir ilmiy maqola jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan muhim ilmiy xulosa va amaliy takliflarga aylansin.

Barchangizga mustahkam sog'liq, ilmiy izlanishlaringizda ulkan muvaffaqiyatlar, tahririyat faoliyatiga esa yuksak nufuz va barqaror taraqqiyot tilayman.

Hurmat bilan,

Shavkat AYUPOV,

O'zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti



Ilm-fan va huquq taraqqiyoti uyg'unligi sari muhim qadam

“Davlat va huquq” ilmiy-huquqiy jurnalining ilk soniga tabrik

Hurmatli tahririyat a'zolari, qadrli olimlar, yuridik fanlar namoyandalari, aziz ilmiy jamoatchilik vakillari!

Mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida kechayotgan chuqur transformatsiya jarayonlari huquqiy tafakkurni yanada boyitishni, yuridik ilm-fanning nazariy va amaliy salohiyatini yuksaltirishni hamda uning oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'ymoqda. Zero, bugungi globallashuv, raqamlashuv va keskin geosiyosiy o'zgarishlar sharoitida davlat va huquq institutlarining barqaror rivojlanishi, avvalo, mustahkam ilmiy-nazariy asoslar, chuqur tahliliy yondashuvlar hamda zamon talablariga javob bera oladigan ilmiy maktablar mavjudligi bilan belgilanadi.

Shu ma'noda, “Davlat va huquq” ilmiy-huquqiy jurnalining ilk soni nashr etilayotgani mamlakatimiz ilmiy-huquqiy hayotida nihoyatda muhim va quvonarli voqeadir. Mazkur jurnalning ta'sis etilishi mamlakatimizda yuridik ilm-fanni yangi bosqichga olib chiqish, huquqiy tafakkurni yanada yuksaltirish, huquqiy madaniyatni mustahkamlash hamda milliy huquqshunoslik maktabining intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim voqea sifatida alohida e'tirofga loyiqdir.

Bugungi kunda huquqshunoslik fani oddiygina nazariy soha bo'lib qolmay, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, inson huquqlarini ta'minlash, qonun ustuvorligini mustahkamlash, iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishning muhim ilmiy tayanchiga aylanmoqda. Chunki zamonaviy dunyoda hech bir davlat kuchli ilm-fan va puxta huquqiy asoslarsiz barqaror taraqqiyotga erisha olmaydi.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, inson qadri tamoyilini hayotga chuqur tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish kabi ulkan vazifalar huquqshunos olimlar, tadqiqotchilar va amaliyotchi muta-

xassislar zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va sharaflı vazifalarnı yuklaydi. Shu nuqtai nazardan, "Davlat va huquq" jurnali ta'sis etilishi nafaqat ilmiy nashr sifatida, balki mamlakatimiz huquqiy taraqqiyotining konseptual g'oyalari shakllanadigan nufuzli intellektual platformalardan biri sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jurnal, avvalo, huquqshunoslik sohasida olib borilayotgan fundamental va amaliy tadqiqotlar natijalarini tizimli ravishda umumlashtirish, yangi ilmiy g'oya va konsepsiyalarni shakllantirish, dolzarb masalalarni professional muhokama maydoniga olib chiqish, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Ayniqsa, qonunchilikni takomillashtirish, huquqni qo'llash amaliyotidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy yondashuvlarni rivojlantirishda bunday nashrlarning ahamiyati beqiyosdir.

Bugungi murakkab va shiddat bilan o'zgarayotgan davr davlat va huquq institutlari oldiga mutlaqo yangi talablarni qo'ymoqda. Xususan:

- inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish;
- qonun ustuvorligini ta'minlash;
- korrupsiyaga qarshi kurashish;
- odil sudlov tizimini takomillashtirish;
- davlat xizmatlari samaradorligini oshirish;
- ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish;
- raqamli boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish

kabi ustuvor vazifalar chuqur ilmiy tahlil va zamonaviy konseptual yondashuvlarni talab etmoqda.

Ayniqsa, "Inson qadri uchun" tamoyili davlat siyosatining bosh mezoniga aylangan bugungi sharoitda huquqshunoslik fanining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'siri yanada ortib bormoqda. Chunki inson huquq va erkinliklarining samarali kafolatlanishi faqat normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bilan cheklanmay, balki jamiyatda yuksak huquqiy madaniyatni qaror toptirish, huquqiy ong va huquqiy tafakkurni yuksaltirish, shuningdek, ilmiy asoslangan yondashuvlarni hayotga keng tatbiq etishni ham talab etadi.

"Davlat va huquq" jurnalining eng muhim jihatlaridan biri shundaki, u nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlarning real hayot va huquqni qo'llash amaliyoti bilan uyg'unligi har qanday huquqiy tizim samaradorligining muhim shartlaridan biridir. Shu sababli jurnal sahifalarida e'lon qilinadigan ilmiy maqolalar, tahliliy materiallar va ilmiy xulosalar davlat organlari, qonun chiqaruvchi hamda ijro etuvchi tuzilmalar faoliyatini yanada takomillashtirishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Shu bilan birga, jurnal nafaqat milliy huquq tizimining dolzarb masalalarini yoritish, balki xalqaro tajriba, qiyosiy-huquqiy tahlillar va ilg'or xorijiy amaliyotni o'rganish uchun ham muhim ilmiy maydon bo'lishi lozim. Chunki bugungi globalashuv davrida huquqiy tizimlarning o'zaro integratsiyalashuvi, xalqaro huquqiy standartlarning milliy qonunchilikka uyg'unlashuvi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ayniqsa, xalqaro huquq, inson huquqlari, ekologiya huquqi, raqamli huquq, axborot va kiberxavfsizlik, xalqaro iqtisodiy huquq, transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurash kabi yo'nalishlarda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Zero, XXI asr insoniyat taraqqiyotining mutlaqo yangi bosqichini boshlab bergan raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va global axborot almashinuvi asri sifatida tarixga kirmoqda. Bu esa huquq tizimi oldiga mutlaqo yangi masalalarni qo'ymoqda. Xususan:

- sun'iy intellektning huquqiy maqomi;
- algoritmik javobgarlik;
- raqamli dalillar;
- kiberjinoyatchilik;
- dipfeyk texnologiyalari;
- shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish;
- raqamli suverenitet;
- elektron demokratiya

kabi masalalar bugungi huquqshunoslikning eng dolzarb va istiqbolli yo'nalishlariga aylanmoqda.

Shu nuqtai nazardan, "Davlat va huquq" jurnali yangi ilmiy yo'nalishlarni shakllantirish, zamonaviy huquqiy konsepsiyalarni ishlab chiqish, raqamli transformatsiya sharoitida huquq tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha ilmiy qarashlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishonchim komilki, mazkur jurnal huquqiy davlat qurish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, inson huquqlarini ta'minlash, demokratik institutlarni mustahkamlash va zamonaviy milliy huquqshunoslik maktabini yanada rivojlantirish yo'lida muhim intellektual maydonga aylanadi.

Fursatdan foydalanib, jurnalning tashkilotchilari, tahririyat hay'ati a'zolari, mualliflar hamda barcha ilmiy jamoatchilik vakillarini ushbu qutlug' voqea bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Sizlarga mustahkam sog'liq, yuksak ilmiy salohiyat, cheksiz ijodiy ilhom, katta muvaffaqiyatlar va yangi ilmiy yutuqlar tilayman.

"Davlat va huquq" jurnali doimo ilmiy haqiqat, adolat, xolislik va yuksak akademik qadriyatlarga xizmat qilsin!

Mamlakatimiz huquqshunoslik fani taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib, milliy huquqiy tafakkurning nufuzli minbarlaridan biriga aylansin. Uning har bir soni ilm-fan rivoji, huquq ustuvorligi va adolat qaror topishiga xizmat qilsin.

Yangi nashrning ilk qadami qutlug', faoliyati esa uzoq umrli va barakali bo'lsin!

O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi akademigi,
yuridik fanlar doktori, professor

Akmal Saidov

So'nggi yillarda mamlakatda o'quv-pedagogik jarayonga innovatsion ilg'or va xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirish va professor-o'qituvchilar mehnatini rag'batlantirish, shuningdek ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashni nazarda tutadigan yuridik ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha bir qator aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Davlat va huquq instituti faoliyatiga nazar

TURG'UNOV Murodjon Tursunboyevich,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Davlat va huquq instituti direktori,
yuridik fanlar doktori, professor


Yangi O'zbekiston taraqqiyotida huquqiy davlat, adolatli jamiyat va inson qadrini ta'minlash g'oyalari markaziy o'rin egallaydi. Bu jarayonda huquqshunoslik fani, ilmiy tahlil, qonunchilik tashabbuslari va huquqiy madaniyatni yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, davlat va jamiyat boshqaruvida qabul qilinayotgan qarorlarning ilmiy asoslangan bo'lishi, qonunchilikning zamonaviy talablarga mos rivojlantirilishi hamda inson huquqlari ustuvorligini ta'minlashda ixtisoslashgan ilmiy muassasalarining o'rne beqiyosdir.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti aynan shunday strategik vazifalarni amalga oshiruvchi yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalaridan biri hisoblanadi. Institut davlat, huquq va siyosiy-huquqiy yo'nalishlarda fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, yurisprudensiya sohasida ilmiy izlanishlarni muvofiqlashtiruvchi bosh ilmiy markaz sifatida faoliyat yuritadi. Institut Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 675-son qarori bilan tashkil etilgan.

Institutning huquqiy islohotlardagi o'rnini gapiradigan bo'lsak, institut faoliyatining aso-



siy mazmuni mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli huquqiy islohotlarni ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlashdan iborat. Institut jamiyat va davlat qurilishi, sud-huquq, ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi islohotlarga o'zining munosabati va ekspert yordamini ko'rsatish va shu bilan birga, qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash, davlat boshqaruvi organlari uchun tahliliy hujjatlar ishlab chiqish kabi vazifalarni bajarib kelmoqda. Institut jamoasi quyidagi tartibda tashkil topgan:



Ayniqsa, 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya institut faoliyati uchun yangi ilmiy va amaliy vazifalarni belgilab berdi. Konstitutsiyada inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgani huquqiy tadqiqotlarning mazmunini yanada boyitdi. Shu bois institut tomonidan konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirish, milliy qonunchilikni yangilash va huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan ko'p vektorli ilmiy faoliyat olib borilmoqda.

Institut tomonidan davlat va jamiyat uchun dolzarb bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy muammolar yechimiga qaratilgan ilmiy takliflar tayyorlangan. Xususan, 2023-yilda 63 ta, 2024-yilda 82 ta, 2025-yilda esa 102 ta taklif Prezident qarorlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari loyihalari bo'yicha taqdim etilgan. Bu ko'rsatkichlar institutning huquqiy siyosatni ilmiy ta'minlashdagi ishtiroki yildan-yilga kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyati va natijalariga to'xtaladigan bo'lsak, institut ilmiy jamoasi tomonidan institutning ilmiy faoliyati keng qamrovli bo'lib,

davlat va huquq nazariyasi, konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, jinoyat huquqi, fuqarolik huquqi, xalqaro huquq, inson huquqlari, davlatchilik tarixi va huquqiy madaniyat kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.



Institut ilmiy jamoasi 13 nafarni tashkil qilishiga qaramasdan, ilmiy faoliyatining dastlabki besh yili, ya'ni 2021–2025-yillar davomida jami 568 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shundan: ilmiy maqolalar soni 269 tani tashkil qiladigan

bo'lsa (shundan 171 tasi respublika, 98 tasi xorijda nashr etildi), ma'ruzalar va ma'ruza tezislari - 209 tani (shu jumladan, respublika anjumanlarida - 84 ta, xalqaro va xorijiy konferensiyalarda - 125 ta) tashkil etdi. Shu davr mobaynida ilmiy maqolalar bilan bir qatorda institut jamoasi tomonidan 46 ta monografiya, 13 ta ilmiy to'plam, 12 ta darslik, 15 ta o'quv qo'llanma va 4 ta lug'at chop etildi.

Institut milliy va xalqaro hamkorlik doirasi-da: "Barqaror rivojlanish markazi" NNT, Huquqiy siyosat tadqiqot instituti, Chirchiq davlat pedagogika instituti, Bojxona instituti, T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti, Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent shahar "Sharoit plus" no-gironlar jamoat birlashmasi NNT kabi respublika hamda Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Qonunchilik va qiyosiy huquqshunoslik instituti, Rossiya Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti, Qozog'iston Davlat tarixi instituti, Anqara inqiroz va siyosiy tadqiqotlar markazi kabi o'quv, ilmiy va jamoat tashkilotlari bilan memorandum, kelishuv va shartnoma asosida ilmiy-tadqiqot, o'quv, o'quv-uslubiy sohalarida faol integratsiyani yo'lga qo'ygan. Institut tashabbusi bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetida Yuridik klinika tashkil etildi va faoliyat ko'rsatmoqda.



Institut xodimlari xorijning nufuzli ilmiy markazlarida o'tkazib kelinayotgan yirik ilmiy anjumanlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, institut direktori M.T.Turg'unov, ilmiy kotibi Sh.M.Raxmatullayev, bo'lim boshlig'i M.Borotov, katta ilmiy xodim R.Nazarov va boshqalar Turkiya Respublikasining Istanbul va Anqara; Tojikiston Respublikasining Dushanbe va Xo'jand; Qozog'is-



ton Respublikasining Ostona, Olmaota, Chimkent va Turkiston; Rossiya Federatsiyasining Moskva, Sankt-Peterburg, Qozon va Ufa; Qirg'iz Respublikasining Bishkek va Cho'lpon-Ota; Belarusning Minsk; Fransiyaning Parij va Bordo; Portugaliyaning Lissabon; Shvetsiyaning Stokgolm va Lund kabi shaharlarida o'nlab xalqaro konferensiyalarda ilmiy ma'ruzalar bilan qatnashib kelmoqda.



Institut faoliyatida davlat va huquq tarixini o'rganish alohida o'rin tutadi. Nazariy-tarixiy, davlat-huquqiy va konstitutsiyaviy-huquqiy fanlar bo'limi O'zbek milliy davlatchiligi va huquqining genezisi, evolyutsiyasi, huquqiy merosi va

davlat-huquqiy institutlarining tarixiy taraqqiyotini hamda Sharq xalqlari huquqiy ta'limotlarining nazariy-metodologik asoslarini kompleks tadqiq etish kabi yo'nalishlarda tadqiqot olib borib, O'zbekiston hududida qadimda va o'rta asrlarda faoliyat ko'rsatgan davlatlar, ularning davlat tuzumi, boshqaruv organlari va huquqiy tizimini o'rganishga bag'ishlangan o'quv qo'llanma va monografiyalar tayyorlangan.

Jumladan, "O'zbekiston hududida ilk davlatchilikning paydo bo'lishi shart-sharoitlari va omillari", "O'zbekiston hududida qadimgi davr davlatchiligi va huquq tarixini o'rganishning metodologik masalalari" kabi tadqiqotlar milliy davlatchilik tarixini ilmiy asosda tahlil qilishga xizmat qiladi. Bu izlanishlar orqali tarixiy davlatchilik an'analari, boshqaruv madaniyati, huquqiy institutlar va ularning bugungi milliy huquqiy tizim bilan bog'liq jihatlari o'rganilmoqda.

Ma'muriy-huquqiy va jinoiy-huquqiy fanlar bo'limi tomonidan ijtimoiy va madaniy sohalarining huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha muhim natijalarga erishilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining ayrim moddalarini yangi tahrirda ishlab chiqish, ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning huquq va burchlarini aniq belgilash, voyaga yetmaganlarni javobgarlikdan yoki jazodan ozod etish va ularga nisbatan majburiy choralarni qo'llash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlangan.

Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar huquqni qo'llash amaliyotini insonparvarlik, adolat va qonuniylik mezonlari asosida takomillashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ma'muriy va jinoiy qonunchilikni ilmiy-nazariy tahlil qilish, xorijiy tajribani o'rganish va milliy amaliyotga mos xulosalar ishlab chiqish institutning amaliy ahamiyatga ega faoliyat yo'nalishlaridan biridir.

Xalqaro huquq va Jahon savdo tashkiloti masalalarini tahlil qiladigan bo'lsak, institutning Fuqarolik-huquqiy va xalqaro huquq fanlari hamda xalqaro tashkilotlar bo'limi tomonidan O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyasi, Jahon savdo tashkiloti standartlariga moslashuvi va xalqaro huquqiy hamkorlik masalalari o'rganilgan. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi bilan bog'liq amaliy va huquqiy masalalar bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.





Tadqiqotlarda texnik tartibga solish qonunchiligini JST standartlariga mutanosiblashtirish, import mahsulotlari ta'sirida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, xalqaro savdoda sun'iy intellektdan foydalanish, logistika, valyuta munosabatlari va mintaqaviy integratsiya jarayonlari tahlil qilingan. Mazkur yo'nalishda "O'zbekiston va Jahon savdo tashkiloti: nazariy-amaliy, huquqiy masalalar va istiqbollari" nomli monografiya tayyorlangani institutning xalqaro huquqiy integratsiya jarayonlaridagi ilmiy ishtirokini ko'rsatadi.

Davlat va huquq institutida 2025-yil aprel oyidan boshlab "O'zbekiston hududida davlat va huquqning genezisi, evolyutsiyasi va istiqbollari" mavzusida fundamental tadqiqot loyihasi amalga oshirilmoqda. Ushbu loyiha akademik Akmal Saidov rahbarligida bajarilayotgan bo'lib, umumiy moliyalashtirish hajmi 4,5 milliard so'mni tashkil etadi.

Loyiha doirasida Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar, Shayboniylar davridagi o'zbek milliy davlatchiligi va huquq tarixini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida o'rganish ko'zda tutilgan. Bu jarayonda sulolalar faqat siyosiy voqealar nuqtai nazaridan emas, balki institutsional rivojlanish, boshqaruv tizimi, sud va qonunchilik institutlari, huquqiy tafakkur taraqqiyoti bilan bog'liq holda tahlil qilinmoqda.

Loyiha natijalari sifatida bibliografiya, xrestomatiya, monografiya, o'quv qo'llanmalar tayyorlash, shuningdek, Scopus va Web of Science bazalaridagi jurnallarda maqolalar chop etish, intellektual mulk obyektlarini rasmiylashtirish rejalashtirilgan. 2025 yil dekabr holatiga ko'ra, loyiha doirasida 12 ta maqola, 2 ta monografiya va 2 ta xrestomatiya nashr qilingan bo'lib, respublika miqyosida bitta ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.

Institut faoliyatida ilmiy anjumanlar, konferensiyalar, seminarlar va davra suhbatlari muhim o'rin tutadi. Faoliyatining dastlabki besh yilida institut tomonidan bir qator respublika va xalqaro miqyosdagi anjumanlar tashkil etilgan. Bunda Davlat va huquq instituti xalqaro tashkilotlar, davlat organlari, ilmiy muassasalar va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda o'nlab xalqaro va respublika miqyosida konferensiya, davra suhbatlari, seminar va kollokviumlar tashkil etdi. Mazkur tadbirlar mazmunan bir nechta asosiy yo'nalishlarga ajraladi.



1. Konstitutsiyaviy islohotlar va demokratik davlatchilik masalalari bo'yicha.

2022–2023-yillarda institut faoliyatining asosiy qismi Konstitutsiyaviy islohotlar jarayonini ilmiy jihatdan ta'minlashga qaratilgan. Jumladan: “Konstitutsiyaviy islohotlar: fuqarolik jamiyati institutlarining o'rne va maqomi” (2022-yil 11-may); “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish: bugungi holat va istiqbollar” (2022-yil 6-iyun); “Konstitutsiyaviy islohotlar va fuqarolik jamiyati institutlari: taklif va tavsiyalar” (2022-yil 8-iyun); “Inson – jamiyat – davlat” konstitutsiyaviy tamoyilini amalga oshirish” mavzusidagi Urganch xalqaro anjumani (2022-yil 20-iyun). Ayniqsa, Urganch shahrida bo'lib o'tgan xalqaro anjuman natijasida qabul qilingan “Urganch deklaratsiyasi” institutning faqat muhokama maydoni emas, balki huquqiy siyosatni shakllantirishga ta'sir etuvchi ekspert markaz sifatidagi o'rnini namoyon qildi.

2. Inson huquqlari va inklyuziv rivojlanish masalalari bo'yicha.

Institutning xalqaro faoliyatida inson huquqlari mavzusi yetakchi o'rin egallagan. Bu yo'nalishda BMT tizimi, YUNESKO, YEXHT, YUNISEF va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Misol sifatida: “Gender tenglikni ta'minlash va barqaror rivojlanish” (2021); “Jahon Konstitutsiyalarida nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlariga oid qoidalarining aks ettirishi” (2022); “Inson huquqlarini himoya qilish

sohasida huquqiy ta'limdagi tizimlilik” (2022); “Обеспечение достоинства и прав человека – высшая цель конституционных реформ” (2023).

2025-yilda Shvetsiyaning Lund universitetida tashkil etilgan xalqaro konferensiya doirasida nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlariga bag'ishlangan maxsus panel sessiyasining o'tkazilishi institutning xalqaro ilmiy maydondagi nufuzi ortib borayotganligini ko'rsatadi. Bu tadbirda O'zbekistonning inklyuziv jamiyat qurish tajribasi xalqaro ekspertlar e'tiboriga havola qilingan.

3. Ma'muriy huquq va sud-huquq islohotlari bo'yicha.

2021-yilda institutning faol yo'nalishlaridan biri ma'muriy huquq va ma'muriy sud ishlarini takomillashtirish masalalari bo'ldi. Xususan: “Ma'muriy huquqning nemis doktrinasi va Markaziy Osiyo davlatlarida ma'muriy tartib-taomillar institutining shakllanishi”; “O'zbekiston Respublikasida ma'muriy sud ishlarini yuritishning dolzarb masalalari”; “Ma'muriy tartib-taomillarni takomillashtirish: milliy va xorijiy tajriba”. Bu tadbirlar Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) bilan hamkorlikda o'tkazilgan bo'lib, O'zbekistonda ma'muriy adliya institutini takomillashtirishga xizmat qildi.

4. Saylov huquqi va fuqarolik jamiyati institutlari yo'nalishi bo'yicha.

2021-yilda mamlakatdagi prezidentlik saylovlari munosabati bilan mazkur sohada bir qator xalqaro anjumanlar tashkil qilindi: “Prezident saylovining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari: O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi”; “Fuqarolik jamiyati institutlari va saylov”; “Yoshlar va saylov: elektoral madaniyatni oshirishning dolzarb masalalari”; “Qonun ijodkorligi jarayonida jamoatchilikning ishtiroki” kabi mavzularni o'z ichiga olgan.

Ushbu tadbirlar mamlakatda demokratik saylov madaniyatini shakllantirish va fuqarolarning



siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan ilmiy muhoqot maydoni vazifasini bajardi.

5. Xalqaro hamkorlik geografiyasining kengayishi borasidagi tadbirlar.

Tahlillar institutning xalqaro hamkorlik doirasi yildan-yilga kengayganligini ko'rsatadi. Hamkorlar qatorida: Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ); BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP); YUNESKO; YEXHT; AQSH xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID); Konrad Adenauer fondi; Fridrix Ebert jamg'armasi; Lund universiteti (Shvetsiya); Rossiya Xalqlar do'stligi universiteti; Moskva davlat yuridik universiteti; Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi; Qirg'iziston Milliy fanlar akademiyasi kabi nufuzli tashkilotlar mavjud.

2023-yilda Ostona shahrida o'tkazilgan "Markaziy Osiyoda davlat va huquq: tarixi va hozirgi holati" konferensiyasi hamda 2025-yilgi xalqaro tadbirlar institutning Markaziy Osiyo huquqshunoslik maktabi shakllanishida muhim ishtirokchiga aylanayotganini ko'rsatadi.

6. Yangi ilmiy yo'nalishlar: raqamlashtirish va globallashuv yo'nalishi bo'yicha.

2025-yilga kelib institut faoliyatida yangi mavzular bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borishga ehtiyoj yuzaga keldi. "Raqamlashgan jamiyatda inson kapitalini rivojlantirish: imkoniyat va istiqbolari"; "Globallashuv sharoitida Yangi O'zbekiston davlati va huquqining rivojlanishi: yangicha yondashuvlar va tendensiyalar" mavzularida konferensiya va davra suhbatlari amalga oshirildi.

Diqqatga sazovor tomoni shundaki, 2025-yil may oyida xalqaro konferensiyada 36 ta tashkilotdan 1000 nafarga yaqin ishtirokchining qatnashishi, 98 ta ilmiy maqolaning kelib tushishi va 8 ta yakuniy tavsiya qabul qilinishi institutning ilmiy tashkiliy salohiyati yuqori darajaga yetganligini ko'rsatadi.



2021–2025-yillarda Davlat va huquq institutining xalqaro ilmiy anjumanlari tahlili shuni ko'rsatadiki, institut mamlakatdagi konstitutsiyaviy islohotlar, inson huquqlari, xalqaro huquq, ma'muriy huquq, saylov tizimi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha fundamental ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda qonunlarni yaratishda o'zining aniq tarixiy faktlarga asoslangan holda takliflari bilan ishtirok etib kelmoqda. Anjumanlar geografiyasi va hamkorlar tarkibining kengayishi institutning xalqaro akademik maydondagi nufuzi oshib borayotganligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda raqamli huquq, inklyuziv rivojlanish va globallashuv sharoitida davlatchilik masalalarining tadqiq etilishi institut faoliyatining zamonaviy tendensiyalarga mos ravishda diversifikatsiyalanayotganini ko'rsatadi. Bu esa Davlat va huquq institutining nafaqat milliy, balki mintaqaviy va xalqaro huquqiy tadqiqotlar markazi sifatidagi ahamiyatini yanada mustahkamlamoqda.

Kadrlar tayyorlash va ilmiy salohiyatni rivojlantirish sohasidagi faoliyat tahlili. 2021–2025-yillarda Davlat va huquq institutining muhim yutuqlaridan biri ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va institutsional jihatdan mustahkamlash bo'ldi. Xususan, 2022-yilning ikkinchi yarmidan institutda Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutining tashkil etilishi huquqshunoslik sohasida yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlashning yangi bosqichini boshlab berdi.

Institutda 12.00.01 – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi, huquqiy ta'limotlar tarixi hamda 12.00.13 – Inson huquqlari ixtisosliklari bo'yicha tayanch doktorantura, doktorantura, stajyor-tadqiqotchilik va mustaqil izlanuvchilik institutlarining yo'lga qo'yilishi mamlakatda aynan mazkur sohalar bo'yicha ilmiy maktablarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

2022-yilning 2-yarim yilligidan boshlab institutda ilmiy izlanuvchilar kontingenti o'sa boshladi. 2025-yil holatiga ko'ra, institutda jami 39 nafar izlanuvchi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan bo'lib, ularning 10 nafarini xotin-qizlar tashkil etadi. Bu ko'rsatkich institutda gender muvozanatini ta'minlash va ayol olimlarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilayotganligini ko'rsatadi.

2025-yil oxiriga kelib, institutda 12 nafar tayanch doktorant; 1 nafar stajyor-tadqiqotchi; 26 nafar mustaqil izlanuvchi faoliyat yuritgan. Bu ho-

lat institutda faqat shtatdagi tadqiqotchilar emas, balki mamlakatning turli ilmiy va ta'lim muassasalari vakillarini ham ilmiy tadqiqotlarga jalb etish mexanizmi shakllanganligidan dalolatdir.

Ilmiy kadrlar tayyorlash samaradorligi. 2025-yil natijalariga ko'ra 12 nafar tayanch doktorantdan 4 nafari o'qishni muvaffaqiyatli yakunlab, dissertatsiya himoyasiga tavsiya etilgan. Shuningdek, mustaqil izlanuvchilardan 4 nafari ham tadqiqot ishlarini muvaffaqiyatli yakunlab, himoyaga tavsiya etilgan. Bu ko'rsatkichlar institutda ilmiy rahbarlik, monitoring va ilmiy seminarlar tizimi muayyan samara berayotganligini anglatadi. Ayni vaqtda 2025-yilda 3 nafar tayanch doktorantning o'qishdan chetlatilganligi ilmiy tayyorgarlik sifatiga yuqori talab qo'yilayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 2026-yil uchun yangi qabullar ham kadrlar zaxirasi barqaror shakllanayotganligini tasdiqlaydi: 3 nafar yangi tayanch doktorant; 4 nafar yangi mustaqil izlanuvchi qabul qilingan.

Tahlillar institutda ilmiy maktab shakllanayotganini ham ko'rsatadi. Ayniqsa, ustoz-shogird an'anasi asosida tayyorlangan tadqiqotchilarning muvaffaqiyatli himoyalari buning yaqqol misolidir. Jumladan: bo'lim boshlig'i M.X. Baratov rahbarligida A. Teshaboyev 2023-yilda PhD dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi; professor J. Toshqulov rahbarligida Q. Umidullayev 2025-yilda DSc dissertatsiyasini himoya qildi. Bu holat institutda ilmiy rahbarlik instituti samarali faoliyat ko'rsatayotganini ko'rsatadi.

Ilmiy salohiyatning o'sishi. 2021–2025-yillarda institut xodimlari tomonidan bir qator yuqori darajadagi dissertatsiyalar himoya qilindi. Xususan: institut direktori M. Turgunovning 2021-yilda DSc dissertatsiyasini himoya qilishi; R.T. Hakimovning 2023-yilda xalqaro huquq sohasidagi DSc dissertatsiyasi; Q. Umidullayevning 2025 yilda davlat boshqaruvi samaradorligi sohasidagi DSc dissertatsiyasi; E. Kunbanovanning voyaga etmaganlar huquqbuzarliklari bo'yicha PhD dissertatsiyasi institutning ilmiy salohiyati muntazam o'sib borayotganligini ko'rsatadi. Binobarin, institut direktori yu.f.d. M. Turgunov, ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari yu.f.d. A. Tulyaganov professor ilmiy unvoniga hamda bosh ilmiy xodim, f.f.d. M. Usmonov "katta ilmiy xodim" ilmiy unvoniga ega bo'ldilar.

Ayniqsa, himoya qilingan dissertatsiyalar mavzulari davlat boshqaruvi, xalqaro huquq, inson

huquqlari, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va profilaktika kabi dolzarb yo'nalishlarni qamrab olganligi bilan ahamiyatlidir.

Umuman olganda, 2021–2025-yillarda Davlat va huquq institutida kadrlar tayyorlash tizimi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutining tashkil etilishi, doktorantura va mustaqil izlanuvchilik tizimining yo'lga qo'yilishi, ilmiy daraja himoyalari-ning ko'payishi hamda ustoz-shogird maktabining shakllanishi natijasida institut huquqshunoslik sohasida yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlovchi yetakchi markazlardan biriga aylanmoqda. Shu bilan birga, inson huquqlari va davlat-huquq nazariyasi sohalarida yangi avlod tadqiqotchilarning shakllanishi institutning kelgusi ilmiy taraqqiyoti uchun mustahkam kadrlar zaxirasini yaratayotganini anglatadi.

Davlat va huquq instituti faoliyatining yana bir muhim yo'nalishi fan va ta'lim integratsiyasini ta'minlashdir. Institut oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat boshqaruvi idoralari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda huquqiy bilimlarni rivojlantirish, yosh tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy kadrlar tayyorlash va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

2021–2025-yillarda Davlat va huquq instituti fan va ta'lim integratsiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi. Bu davrda institut Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, Bojxona instituti, Toshkent davlat yuridik universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti va boshqa ta'lim muassasalari bilan hamkorlik shartnomalari imzolab, ilmiy-ta'limiy hamkorlikning barqaror tizimini shakllantirdi.

Ta'lim muassasalari bilan integratsiya institut ilmiy salohiyatini ta'lim jarayoni bilan uyg'unlashtirish, yosh kadrlarni tayyorlash va huquqshunoslik sohasida zamonaviy ilmiy maktabni shakllantirishga xizmat qildi. Ayniqsa, Chirchiq davlat pedagogika universiteti bilan hamkorlikdagi "Yuridik klinika" faoliyati yo'lga qo'yilganligi hamda institut ilmiy xodimlarining oliy ta'lim muassasalaridagi faol ishtiroki mazkur yo'nalishning eng samarali natijalari sifatida baholanishi mumkin.

So'nggi yillarda Davlat va huquq institutining ilmiy salohiyati nafaqat fundamental tadqiqotlar, balki mamlakat huquqiy siyosati, qonunchilik ijod-

korligi va ilmiy attestatsiya jarayonlaridagi bevosita ishtirokida ham namoyon bo'lmoqda. Institut xodimlarining respublika va xalqaro darajadagi ekspert, ilmiy maslahat va tahririyat kengashlariga jalb etilganligi muassasaning huquqshunoslik sohasidagi yetakchi ilmiy markaz sifatidagi o'rnini ko'rsatadi.

Institut olimlarining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Yurisprudensiya fanlari bo'yicha Ekspert kengashidagi ishtiroki mamlakatda yuridik fanlar bo'yicha ilmiy daraja va unvonlar berish tizimini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, institut ilmiy xodimlarining ilmiy unvonlarga talabgorlar uchun maxsus imtihon komissiyalari tarkibiga kiritilgani huquqshunoslik sohasidagi ilmiy kadrlar sifatini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Institut xodimlari qonunchilikni takomillashtirish jarayonlarida ham faol qatnashmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F-5464-son Farmoyishi asosida tashkil etilgan fuqarolik qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha idoralararo komissiyada ishtirok etishi hamda yangi tahrirdagi Fuqarolik kodeksi loyihasini ishlab chiqishda qatnashishi bunga yaqqol misoldir.

Institut olimlari mamlakatdagi deyarli barcha yetakchi yuridik ilmiy kengashlar tarkibida faoliyat yuritmoqda. Jumladan: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti; Toshkent davlat yuridik universiteti; Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi; O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi; Sudyalar oliy kengashi; Qoraqalpoq davlat universiteti; Huquqni muhofaza qilish akademiyasi huzuridagi ilmiy kengashlarda ishtirok etmoqdalar.

Bu holat institutning davlat va huquq nazariyasi, konstitutsiyaviy huquq, inson huquqlari, xalqaro huquq, fuqarolik huquqi va boshqa ixtisosliklar bo'yicha mamlakat ilmiy maktablarini rivojlantirishda muhim o'rin tutayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, institut xodimlari davlat boshqaruvi va huquqni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq muhim ekspert tuzilmalarida ham ishtirok etmoqdalar. Xususan: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ilmiy-maslahat kengashi; Konstitutsiyaviy sud ilmiy-maslahat kengashi; Sudyalar oliy kengashi; Bosh prokuratura huzuridagi Jamoatchilik kengashi; Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Xalqaro

arbitraj sudi; Parlament tadqiqotlari instituti Ilmiy-ekspert kengashi; Innovatsion rivojlanish agentligi Huquq fanlari bo'yicha ilmiy-texnik kengashi kabi nufuzli tuzilmalarda ekspert sifatida faoliyat olib bormoqda.

Mazkur ishtirok huquqiy qarorlar qabul qilish jarayonlariga akademik yondashuvlarni kiritish va ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq etish imkonini bermoqda.

Institut olimlarining O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi, Atamalar komissiyasi, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi hamda Millatlararo munosabatlar qo'mitasi huzuridagi ekspert kengashlardagi ishtiroki esa institut ilmiy xodimlarining faoliyati huquq sohasidan tashqari ijtimoiy-gumanitar va davlat boshqaruvi yo'nalishlarini ham qamrab olganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, institut xodimlarining O'zbekiston va xorijda nashr etiladigan yuridik jurnallar tahrir hay'atlari tarkibida faoliyat yuritishi milliy yuridik fanning xalqaro ilmiy maydonga integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, institut xodimlarining ekspert, ilmiy kengash va tahririyatlar faoliyatidagi ishtiroki muassasaning ilmiy natijalari amaliyot bilan uzviy bog'langanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, institutning ilmiy salohiyati ilmiy-maslahat komissiyalari va ishchi guruhlardagi ishtiroki mamlakatda yuridik fanlar rivojini muvofiqlashtirishga yordam bermoqda. Shu bilan birga, monografiyalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy-metodik sharhlar va konferensiya materiallari orqali yuridik ta'lim mazmuni boyitilmoqda. Bu faoliyat: huquqiy islohotlarni ilmiy jihatdan ta'minlash; qonunchilikni takomillashtirish; yuqori malakali ilmiy kadrlarni tayyorlash; sud-huquq amaliyotini ilmiy asoslash; milliy huquqshunoslikning xalqaro nufuzini oshirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

Davlat va huquq instituti bugungi kunda mamlakatimizda huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayoniga ilmiy asos yaratishdagi ishtiroki institut faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Institutning faoliyati faqat ilmiy maqolalar yoki monografiyalar nashr etish bilan cheklanmaydi. U qonunchilikni takomillashtirish, davlat boshqaruvi organlariga tahliliy takliflar berish, inson huquqlari madani-

yatini shakllantirish, yosh tadqiqotchilarni tayyorlash, xalqaro huquqiy jarayonlarda O'zbekiston manfaatlarini ilmiy jihatdan asoslash kabi keng qamrovli vazifalarni o'z ichiga oladi.

2021–2025-yillarda institut tomonidan amalga oshirilgan ishlar uning mamlakat huquqiy taraqqiyotidagi o'rnini yanada mustahkamlaganini ko'rsatadi. Ilmiy nashrlar sonining ortishi, qonunchilikka oid takliflarning ko'payishi, fundamental loyihalarning yo'lga qo'yilishi, xalqaro anjumanlar va ilmiy hamkorlikning kuchayishi Davlat va huquq institutini Yangi O'zbekiston huquqiy tafakkurining muhim jihatlarini keng ommaga yoritishda namoyon bo'lmoqda.

Institutda O'zbekiston Respublikasida yuridik fanlarni rivojlantirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyati yo'lga qo'yilgan. Kengash 114 kishidan iborat mamlakat huquqshunos olimlarining o'ziga xos hamjamiyati bo'lib, unga akademik A.Saidov rahbarlik qiladi. Kengash huquqshunoslik fanlarining dolzarb muammolarini muhokama qilib, yuridik fanlar bo'yicha PhD va DSc ilmiy darajalari uchun mavzularni muvofiqlashtirib boradi.

2025-yil 12-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq institutida O'zbekiston Respublikasida yuridik fanlarni rivojlantirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi huzuridagi Ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengash bilan hamkorlikda ushbu kengashlarning navbatdagi qo'shma yig'ilishi tashkil etildi.

Mazkur tadbirda kengash a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti ilmiy xodimlari, O'zbekistondagi yuridik va turdosh oliy o'quv yurtlari, vazirlik hamda idoralari vakillari bilan bir qatorda mamlakatimizning akademik hamjamiyati va tahliliy markazlari, sohaning yetakchi olimlari, shuningdek yosh tadqiqotchilar ishtirok etdi.

Maqsad – "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yili da amalga oshirishga oid davlat dasturi va yuridik fanlar oldida turgan vazifalar ijrosi yuzasidan huquqshunoslik fani oldida turgan dolzarb vazifalarni muhokama qilish, sohadagi ilmiy-amaliy ishlar rejasini tuzishga oid taklif-tavsiyalarni ishlab chiqish.

Asosiy vazifalar: mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy islohotlarning keyingi istiqbollari belgilashga oid huquqiy ishlanmalar samarasini oshirish borasidagi ishlarni tashkil etish, qo'yilgan muammolar yuzasidan soha mutaxassislarining ilmiy xulosalarga asoslangan fikr-mulohazalarini tinglash, mazkur yo'nalishdagi xalqaro tajriba va amaliyotni o'rganish, tahlil etish, ularni amalga oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'zaro uyg'unlashtirish, bu boradagi aniq vazifalarni kelishib olish, ilm-fan rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan taniqli huquqshunos olimlarni xotirlash tadbirlarini o'tkazish hamda huquqshunoslik fanlarini rivojlantirishga hissa qo'shadigan adabiyotlarni nashr etish rejalarini muhokama qilish.



Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan so'nggi yillarda mamlakatimizdagi fan va ta'lim sohasidagi tub islohotlar natijasida qayta tiklangan Fanlar akademiyasi tizimidagi institutlar va boshqa tadqiqot markazlari, xususan, Davlat va huquq instituti, huquqshunoslar tayyorlovchi yuridik universitetlar, akademiyalar, fakultetlar va yuridik texnikumlar va litseylarning professor-o'qituvchilari va huquqshunoslar oldiga qator dolzarb vazifalar qo'yilganligi ta'kidlandi. Unga ko'ra:

Birinchidan, mamlakatimiz Prezidentining "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" kitobidagi maqsadlar, g'oyalar va islohotlar ruhi asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilangan yetti yo'nalish hamda yuzta maqsadni o'zida mujassamlashtirgan, yuridik prognozlash usullariga asoslangan holda, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik konsepsiyasini ishlab chiqish dolzarbligicha qolayotganligi va bu boradagi ishlarni jadallashtirish zarurligi.



Ikkinchidan, milliy konstitutsiyaviy taraqqiyotimiz va tajribamiz, konstitutsiyashunoslikning rivojlanishiga doir xalqaro huquq va ilg'or xorijiy tajribani chuqur o'rganish asosida mamlakatimizda konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirish borasida asoslantirilgan, hayotimizda, jamiyatimizda va davlatimiz rivoji talab etayotgan takliflarni ishlab chiqish.

Uchinchidan, kodifikatsiya nazariyasi va amaliyotini chuqur o'rganish, yuridik prognozlash asosida qonunchiligimizni tizimlashtirish, bunda mumkin qadar havolaki normalardan voz kechish.

To'rtinchidan, yuridik ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini va yuridik fanlar bo'yicha dasturlarni qayta ko'rib chiqish, to'ldirish va tasdiqlash masalalari ko'rib chiqildi.

Ayniqsa, huquqshunoslik sohasida malakali kadrlar tayyorlash, fundamental, amaliy va in-



novatsion loyihalarni amalga oshirish – bugungi kun, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar talabidir.

Mazmunli o'tgan muvofiqlashtiruvchi kengash tadbiri davomida shu kabi masalalar muhokama qilindi. Anjuman doirasida akademik A.Saidov qalamiga mansub "Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi" darslik-xrestomatiyasi taqdimoti o'tkazildi.

2025-yil 29-iyul kuni Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazida "Zamonaviy dunyoda inson huquqlarini himoya qilish: O'zbekiston va Rossiya tajribasi" mavzusi-da huquqiy kollokvium bo'lib o'tdi.

Unda respublikamizning ko'zga ko'ringan ilmiy markazlari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Davlat va huquq institutining ilmiy xodimlari hamda doktorantlari ishtirok etdi. Kollokvium ishida O'zbekiston Respublikasida yuridik fanlarni rivojlantirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengashning a'zolari ham qatnashdi.



Ushbu e'tiborga loyiq bo'lgan tadbir Rossiya Federatsiyasining Inson huquqlari bo'yicha vakili, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi raisi Tatyana Moskalkova-ning mamlakatimizga tashrifi doirasida tashkil etildi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori, akademik Akmal Saidov tadbirni ochar ekan, Tatyana Moskalkova rahbarligidagi Rossiya Federatsiyasining Inson huquqlari bo'yicha vakili delegatsiyasi a'zolarini va boshqa ishtirokchilarni samimiy qutladi. Ushbu huquqiy kollokvium joriy yilda Ikkinchi jahon urushidagi g'alabaning 80 yilligi va BMT tashkil etilganining 80 yilligi, shuningdek, YEXHTning Xelsinki bitimi 50 yilligi nishonlanayotgan muhim davrda o'tkazilayotgani bilan g'oyat ahamiyatli ekanini ta'kidladi. Shuningdek, 30-iyul sanasi butun dunyoda – Xalqaro do'stlik kuni hisoblansa, mamlakatimizda ushbu kun Xalqlar do'stligi kuni sifatida keng nishonlanadi.

O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasi- da birinchi bo'lib inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar tizimini yaratdi. Bu tizimga Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) va Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmeni), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakil instituti hamda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi kiradi.

O'zbekistonning inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar tajribasi xalqaro hamjamiyat va ilmiy doiralar tomonidan ijobiy baholanib, turli mamlakatlarda o'rganish uchun qiziqish uyg'otmoqda. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasining 56-moddasida belgilanganidek, "Inson

huquqlari bo'yicha milliy institutlar inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to'ldiradi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko'maklashadi. Davlat inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yarata-di". Tadbir davomida Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi ijrosi doirasida erishilgan yutuqlar haqida ham so'z yuritildi. Inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi milliy tajriba, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini yanada rivojlantirish istiqbol-lari, sohaga oid qonunchilikdagi yangiliklar va O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

2023 yilning iyun oyida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti hamda Rossiya Federatsiyasi Hukumati huzurida-gi Qonunchilik va qiyosiy huquqshunoslik institu-ti o'rtasida hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi.



2025-yil 22-oktabr kuni Rossiya Fanlar akademiyasining Davlat va huquq institutida Rossiya Fanlar akademiyasining Davlat va huquq instituti va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Davlat va huquq instituti o'rtasi-da ilmiy hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi.

Hujjat Rossiya Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti direktori, Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi, yuridik fanlar doktori, professor A.N.Savenkov va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti direktori, yuridik fanlar doktori, professor M.T.Turg'unov tomonidan tantanali ravishda imzolandi.

Bitimda yuridik fanlar sohasida ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, qonun ustuvorligini ta'min-





lash, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish rejalari belgilangan; u umumiy ilmiy makonni rivojlantirish va mustahkamlashga, qonun ijodkorligi va ilmiy kadrlar tayyorlash sohasida qo'shma ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazishga qaratilgan.

Tadbirda Rossiya Fanlar akademiyasi a'zolari – Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi, yuridik fanlar doktori, professor A.N. Savenkov, Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi, yuridik fanlar doktori, professor A.G. Lisitsin- Svetlanov, O'zbekiston Respublikasi elchixonasi vakillari, shuningdek, Rossiya Fanlar akademiyasining xorijiy a'zosi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, yuridik fanlar doktori, professor, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori A.X. Saidov ishtirok etdi.

Shuni ham mamnuniyat bilan ta'kidlash lozimki, ushbu uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori, akademik A.X. Saidov Rossiya fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti 100 yilligiga bag'ishlab chiqarilgan faxriy medal bilan taqdirlandi, mazkur mukofot tantanali ravishda A. Saidovga topshirildi.




Davlat va huquq instituti, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi hamkorligida "Globallashuv sharoitida Yangi O'zbekiston davlati va huquqining rivojlaniishi: yangicha yondashuvlar va tendensiyalar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi. Soha mutaxassislari va tadqiqotchilar ishtirokida O'zbekiston va xalqaro tashkilotlar hamkorligining samaradorligi va rivojlanish istiqbollari bilan bog'liq masalalarni BMT va JST misolida muhokama qilishga doir masalalar ko'rib chiqildi. Anjumanda TDYUU, CHDPU, TDAU, IIV akademiyasi, Bojxona instituti, SamDU, NamDU, FarDU, TermDU professor-o'qituvchilari, Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya, Shvetsiya Qirolligi oliy ta'lim muassasalarining etakchi mutaxassislari, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro universitetlar, sud, prokuratura, mudofaa, bojxona, ichki ishlar sohasi vakillari, akademik hamjamiyat hamda xorijiy ekspertlar ishtirok etdi.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya yakunida Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik memorandumini imzolandi.



O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi va Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti o'rtasida o'zaro manfaatli memorandum imzolandi. Mazkur memorandum orqali ikkala tashkilot samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, manfaatli yo'nalishlarda o'zaro tajriba almashish hamda sa'y-harakatlarni birgalikda amalga oshirish uchun huquqiy asos yaratish orqali sarmahsul ilmiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilishi ta'kidlandi.

IIV Akademiyasi hamda Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti imzolanayotgan ushbu



hujjatda davlat ta'lim standartlariga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash hamda o'quv jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etishda ilmiy va amaliy hamkorlik qilish, o'quv jarayonlari hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar va talabalar uchun dolzarb mavzularda master-klass mashg'ulotlarini tashkil etish, ilmiy faoliyat uchun zarur bo'lgan ilmiy, amaliy, o'quv-uslubiy va boshqa adabiyot (material)larni birgalikda tayyorlash hamda nashr etish maqsadida imzolandi.

Institut jamoasining O'zbekiston Respublikasida kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtiroki.

Institut xodimlari tomonidan jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, amalga oshirilayotgan sud-huquq, konstitutsiyaviy va ma'muriy islohotlarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida ommaviy axborot vositalarida faol targ'ibot ishlari olib borildi. Xususan, televideniye va radio dasturlarida chiqishlar, intervyular, ekspertlik sharhlari,



nufuzli ijtimoiy-siyosiy gazetalar va ilmiy-ommabop nashrlarda maqolalar, tahliliy materiallar, huquqiy tushuntirishlar hamda internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan chiqishlar soni mingga yaqinni tashkil etdi. Mazkur chiqishlarda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati, inson huquqlari va erkinliklarini

ta'minlash, qonun ustuvorligi, huquqiy davlat va adolatli jamiyat barpo etish, yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, shuningdek, davlat va huquq sohasidagi dolzarb ilmiy-amaliy masalalar keng yoritildi.



Institut jamoasi 2021 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik jarayonida faol ishtirok etdi. Jumladan, institut direktori M.Turg'unov va bo'lim boshlig'i M.Baratov Farg'ona va Toshkent viloyatlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni uyushqoqlik bilan o'tkazish yuzasidan siyosiy partiyalar va OAV vakillari hamda mahalliy Kengash deputatlari uchun tashkil etilgan o'quv kursi respublika trener (murabbiy) lariga rahbarlik qildi. Jarayon 2021-yil 24-fevral – 2021-yil 12-may oraliq muddatida amalga oshirildi. Ushbu aksiya doirasida respublika miqyosida 7 mingdan ziyod soha vakillari (5 ta siyosiy partiya yetakchilari, faollari, tarafdorlari; viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari, OAV vakillari) qamrab olindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar 2022-yil 20-mayda tashkil etilgan bo'lib Konstitutsiyaviy komissiyaga Institut jamoasi tomonidan Konstitutsiyaning muqaddimasi va 65 ta moddasiga 114 ta taklif – O'zFA Prezidiumi, “mening konstitutsiyam.uz” portaliga joylashtirish hamda bevosita Konstitutsiyaviy komissiyaga xat orqali yuborildi. Loyiha yuzasidan takliflarning eng salmoqlisi 17-moddaga (7 ta taklif), 41-moddaga (5 ta) kiritilgan takliflar bo'ldi. Shuningdek, 18 ta moddaga (3 tadan), muqaddima va 21 ta moddaga – 2 tadan, qolgan 34 ta moddaga 1 tadan taklif kiritildi.

Turdosh tashkilotlar bilan hamkorlikda, mamlakatimizdagi konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirishga ko'maklashish maqsadida, shuningdek xorijiy mamlakatlardagi va O'zbekistondagi konstitutsiyaviy islohotlarni qiyosiy o'rganishga ko'maklashuvchi qator ilmiy anjumanlar o'tkazildi. Natijada bosh Qomusimiz loyihasining 100 ga yaqin moddasi bo'yicha kelib tushgan 300 dan ziyod takliflar umumlashtirilib, Konstitutsiyaviy komissiyaga ko'rib chiqish uchun yuborildi.

Institut Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi, O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi va Barqaror rivojlanish markazi NNT tomonidan mamlakatimiz akademik hamjamiyati va NNTlar ishtirokida amalga oshirilishi nazarda tutilgan “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunining loyihasi va referendumga oid targ'ibot tadbirlari o'tkazish, axborot-tahliliy materiallar tayyorlash bo'yicha tegishli reja ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasiga taqdim etildi va tasdiqdan o'tkazildi. Reja asosida Institut ilmiy xodimlari tomonidan 2023-yil fevral-mart oylarida respublika hududlari bo'ylab 82 ta davra suhbatlari o'tkazildi. Tadbirlar doirasida “Brayl” alifbosidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi ko'zi ojizlar jamiyatlari rahbarlariga tarqatildi va taqdimoti o'tkazildi. Hamkor tashkilotlar bilan birga 20 dan ortiq tadbirlar, shu jumladan 12 tasi xalqaro miqyosda o'tkazildi. Konstitutsiyaviy qonun loyihasi va referendumga bag'ishlangan posterlar, infografikalar hamda ijtimoiy videoroliklar tayyor-

landi va tarqatildi, jumladan Facebook, Instagram, Telegram kanallariga joylandi. Tadbirlarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati senatorlari va Qonunchilik palatasi deputatlari, akademik hamjamiyat, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari hamda xorijiy ekspertlar, Toshkentdagi diplomatik korpus vakillari ishtiroki ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-fevraldagi PQ-46-son qarori bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha ishlab chiqilgan “Nazorat-reja”siga asosan “Yo'l xaritasi”ning I. “Yoshlarning inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xabardorligini oshirish” yo'nalishi bo'yicha 2-band – “Inson huquqlari”, “Ayollar huquqlari”, “Bola huquqlari” o'quv va maxsus kurslarini joriy etish topshirig'i yuzasidan “Inson huquqlari”, “Ayollar huquqlari”, “Bola huquqlari” bo'yicha o'quv va maxsus kurslar joriy etiladigan professional va oliy ta'lim tashkilotlarining aniq ro'yxatini shakllantirish hamda tegishli o'quv dasturlarini takomillashtirish choralari ko'rish yuzasidan tegishli takliflar bilan ishtirok etildi. “O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklari”, “Inson huquqlari”, “Bola huquqlari”, “Ayollar huquqlari”, “Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari” turkum qo'llanma va risolalar chop etish uchun O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta'lim dasturining to'rtinchi bosqichini amalga oshirish bo'yicha Milliy komissiya ishchi organi – Markazga taqdim etildi.

“Yo'l xaritasi”ning II. Davlat organlari xodimlarining inson huquqlari va gender tenglik sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish yo'nalishi bo'yicha 10-band - O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalariga oid to'plamlarni davlat tilida chop etish topshirig'i yuzasidan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (BMT Bosh Assambleyasi Rezolyutsiyasi, 1948-yil 10-dekabr); Bola huquqlari to'g'risida konvensiya (1989-yil 20-noyabr); Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr); Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi konvensiya (Nyu-York, 1984-yil 10-dekabr); Inson huquqlari umumjahon islom deklaratsiyasi (1981-yil 19-sentabr); Islomda inson huquqlari to'g'ri-

sidagi Qohira deklaratsiyasi (1990-yil 5-avgust), Islomda bola huquqlari to'g'risidagi pakt (2005-yil 28-iyun) xalqaro shartnomalar chop etish uchun O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta'lim dasturining to'rtinchi bosqichini amalga oshirish bo'yicha Milliy komissiya ishchi organi – Markazga yuqorida nomlari qayd etilgan to'plamlarni davlat tiliga hamkorlikda tarjima qilib, chop etish uchun topshirildi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti so'nggi yillarda mamlakatimizda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, qonunchilikni takomillashtirish hamda inson huquqlarini ta'minlash sohasidagi islohotlarni ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi etakchi ilmiy markaz sifatida o'z o'rnini mustahkamladi. Institut tomonidan amalga oshirilgan fundamental va amaliy tadqiqotlar, qonunchilikka kiritilgan takliflar, ilmiy nashrlar hamda davlat dasturlari ijrosidagi ishtirok mamlakat huquqiy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi.

Shu bilan birga, institut milliy va xalqaro miqyosdagi ilmiy hamkorlikni kengaytirish, yuridik fanlarni rivojlantirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyatini tashkil etish, ilmiy anjumanlar va kollokviumlar o'tkazish, xorijiy ilmiy muassasalar bilan memorandumlar imzolash orqali huquqshunoslik sohasidagi ilmiy muloqot va tajriba almashinuvini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu esa milliy huquqshunoslik fanining xalqaro ilmiy makonga integratsiyalashuvini yanada kuchaytirdi.

Eng muhimi, institut jamoasi mamlakatda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy, sud-huquq va inson huquqlari sohasidagi islohotlarda bevosita ishtirok etib, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, yosh kadrlarni tayyorlash va aholi huquqiy ongini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlarni amalga oshirmoqda. Bu esa Davlat va huquq instituti-ning Yangi O'zbekistonning huquqiy taraqqiyoti, qonun ustuvorligi va adolat tamoyillarini qaror toptirish yo'lidagi muhim ilmiy-tahliliy institutlardan biri ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.



Davlat va huquqqa oid mavzulardagi ilmiy izlanishlarning asosiy qoidalari

TOSHQULOV Jo'raboy,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Davlat va huquq institutining bo'lim boshlig'i,
yuridik fanlar doktori, professor

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv sharoitida davlat va huquq sohasida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishning nazariy va metodologik asoslari tahlil etilgan. Ilmiy izlanishlarning sifati va samaradorligini ta'minlovchi asosiy qoidalar, jumladan, ilmiy etika talablariga rioya qilish, plagiatga yo'l qo'ymaslik, fanlararo yondashuvdan foydalanish, tadqiqot maqsadi va vazifalarini aniq belgilash, metodologiyani to'g'ri tanlash hamda ishonchli manbalarga tayanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy bahs-munozaraning ahamiyati, iqtibos keltirish madaniyati, xorijiy tajribani tanqidiy o'rganish, sotsiologik tadqiqotlar natijalaridan foydalanish va nazariya bilan amaliyot uyg'unligini ta'minlashning dolzarb jihatlarini ochib berilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, ilmiy tadqiqot, ilmiy etika, metodologiya, davlat va huquq, plagiat, ilmiy manbalar, fanlararo yondashuv, xorijiy tajriba, nazariya va amaliyot.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и методологические основы проведения научных исследований в области государства и права в условиях глобализации. Особое внимание уделяется ключевым принципам, обеспечивающим качество и эффективность научных исследований, включая соблюдение требований научной этики, предотвращение плагиата, применение междисциплинарного подхода, четкое определение цели и задач исследования, обоснованный выбор методологии и использование достоверных источников. Кроме того, анализируются значение научной дискуссии, соблюдение правил цитирования, критическое изучение зарубежного опыта, использование результатов социологических исследований, а также вопросы обеспечения взаимосвязи теории и практики.

Ключевые слова: глобализация, научное исследование, научная этика, методология, государство и право, плагиат, научные источники, междисциплинарный подход, зарубежный опыт, теория и практика.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations of research in the field of state and law in the context of globalization. Particular attention is given to the key principles that ensure the quality and effectiveness of scholarly research, including adherence to academic ethics, prevention of plagiarism, the application of an interdisciplinary approach, the clear formulation of research aims and objectives, the appropriate selection of methodology, and the use of reliable sources. The article also explores the significance of academic debate, proper citation practices, the critical examination of foreign experience, the use of sociological research findings, and issues related to strengthening the relationship between theory and practice.

Keywords: globalization, scientific research, academic ethics, methodology, state and law, plagiarism, scholarly sources, interdisciplinary approach, foreign experience, theory and practice.

Globallashuv davrida har qanday davlatning, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va huquqiy taraqqiyotini ilm-fanning rivojlanishisiz tasavvur etib bo'lmaydi¹. Ilm-fanning rivojlanishi ko'p jihatdan ilmiy izlanishlarni amalga oshirishda ilmiy jamoatchilik tomonidan umume'tirof etilgan qoidalarga og'ishmay rioya qilishdir.

Ilmiy tadqiqot olib borishning muhim qoidalaridan biri izlanish obyekti (predmeti)ga u yoki bu darajada aloqador bo'lgan mavzularda izlanish olib borganlarning fikr-mulohazalari, xulosalari bilan tadqiqotchining hisoblashishi, boshqalarning fikrini hurmat qilishidir. Agar O'zbekiston hududida davlat va huquqning paydo bo'lishi hamda rivojlanishi mavzusida ilmiy izlanishlar olib borilayotgan bo'lsa, tadqiqotchi (tadqiqotchilar) nafaqat o'zidan oldin bu masalada izlanishlar olib borgan va olib borayotgan huquqshunoslarning, ijtimoiy-gumanitar fanlarning boshqa vakillarining tadqiqot obyekti (predmeti) to'g'risidagi fikr-mulohaza va xulosalariga o'z munosabatini bildirishi ilmiy etikaning muhim talabidir. Tadqiqotchi boshqalarning fikriga qo'shilsa yoki qo'shilmasa buni asoslab berishi shart. Asoslash yuzaki emas chuqur va atroflicha asoslantirilgan bo'lishi lozim.

Ilmiy tadqiqotning yana bir muhim qoidasi – ko'chirmachilik bilan shug'ullanmaslik. Ming afsuski, keyingi yillarda ushbu illat respublikamizda chuqur ildiz otib borish xavfi ilmiy jamoatchilikni xavotirga solmoqda. Texnik taraqqiyotning zamonaviy yutuqlaridan o'zining g'araz maqsadlarida foydalanishga harakat qilayotganlar doirasi yildan yilga kengayayotgani hech kim uchun sir emas². Bu illatning ilk nuqtasi maktabdan boshlanib oliy o'quv yurtlarida avj olmoqda, magistratura va doktoranturada o'zining yuqori cho'qqisiga chiqishi mumkinligi ham sir bo'lmay qolish ehtimoli yo'q emas.

Ilmiy tadqiqotlarning uchinchi muhim ahamiyatga ega qoidasi – fanlararo muloqotdir. Davlat va huquq sohasida ilmiy tadqiqot olib boruvchilar faqat mavzu bo'yicha davlatshunoslar va huquqshunoslarning fikr-mulohazalariga tayan-gan va ular bilan hisoblashgan holda izlanishlarni amalga oshirsalar tadqiqotdan ko'zlangan

maqsadga erishishi va undan kelib chiqadigan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishi, chuqur va atroflicha asoslantirilgan xulosalar chiqarishi hamda taklif-tavsiyalar berishi amri mahol. Chunki davlat va huquqqa oid mavzularda ilmiy izlanishlar davlatshunoslar va huquqshunoslar bilan bir qatorda faylasuflar, tarixchilar, sharqshunoslar, sotsiologlar, siyosatshunoslar, manbashunoslar, etnograflar o'zlarining fanlari obyekti va predmeti, o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalaridan kelib chiqib davlat va huquqning u yoki bu qirralari, muammolarini o'rganishadi, tegishli xulosalar chiqarishadi, taklif va tavsiyalarini berishadi. Ularning fikr-mulohazalarini davlatshunos va huquqshunos tadqiqotchilar tomonidan hisobga olmaslik ilmiy etikaga ham to'g'ri kelmaydi, bunday tadqiqotni tom ma'nodagi, davr talabiga javob beradigan tadqiqot deyish ham mumkin emas.

Ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishning to'rtinchi asos qoidasi – tadqiqotning maqsadi va undan kelib chiqadigan vazifalarini aniq belgilab olish. Bu izlanuvchi uchun o'ta muhim ahamiyat kasb etuvchi masala bo'lib, u aynan o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari doirasida izlanadi, xulosa chiqaradi, taklif va tavsiyalar beradi. Tadqiqotchidan uning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalaridan boshqa muammolar va ularning yechimi haqida fikr-mulohaza bildirishni, o'z qarashlarini bayon qilishni talab qilish "insofsizlik" bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotning obyekti, predmeti, izlanuvchining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib ilmiy izlanishning metodologiyasini to'g'ri tanlash ilmiy tadqiqot ishlarining beshinchi tayanch qoidasidir. Har bir fanning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda qanday metodologiya – tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari bilan bog'liq masalalarga yondashuv turini, tadqiqot prinsiplari va metodlarini to'g'ri tanlash, ulardan o'z joyida foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. O'tmishda ilmiy izlanishlarda foydalanilgan yondashuvlar, prinsiplar va metodlar xilma-xil bo'lgan. Bu holat hozir ham saqlanib qolmoqda, kelajakda ham uning saqlanib qolishini inkor etib bo'lmaydi. Bu borada tadqiqotchining dunyoqarashi hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'tmishda va hozirgi davrda dunyoqarashning mifologik, diniy, falsafiy,

¹ Qarang: Семёнова Н.И. Наука в условиях глобализации // Управление наукой и наукометрия. 2006. №1. – С. 276-294.

² Qarang: Плещенко В.И. О плагиате в научных публикациях и выпускных работах // Высшее образование в России. 2018. №8-9. – С. 62-70.

ilmiy kabi shakllari bo'lgan, ular hozirgi davrda ham amalda. Tadqiqotchilarning dunyoqarashi bir xil emas. Biriga mifologik dunyoqarash xos bo'lsa, boshqasiga diniy dunyoqarash xos, uchinchi falsafiy fikrlasa, to'rtinchisi ilmiy fikrlaydi. Tadqiqotchining dunyoqarashi tadqiqot prinsiplari va metodlarini tanlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Dunyoqarashi dunyoviy va diniy bo'lgan tadqiqotchilar tadqiqot prinsiplari va metodlarini tanlashda bir-biridan keskin farq qiladi. Dunyoqarashi dunyoviy bo'lgan tadqiqotchi davlat va huquqning paydo bo'lishi va rivojlanishi, mohiyati, tiplari, shakllari, maqsadi, vazifalari, funksiyalari kabi mavzularda izlanishlar olib borishda mavzuga oid muammolarning sabablarini yerdan, insonlararo munosabatlardan izlaydi, ularning yuzaga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy-ma'rifiy shart-sharoitlariga e'tiborini qaratadi, ilmiy izlanishlarning xolislik, tizimlilik, tarixiylik kabi prinsiplaridan, umumfalsafiy, umumilmiy va maxsus metodlaridan foydalanadi. Davlat va huquq masalalarini diniy dunyoqarash sohibi bo'lgan tadqiqotchi g'ayritabiiy kuchlar, Alloh, Xudo erk-irodasi, xohish-istagi bilan bog'lab ularni izohlaydi, ularning o'zgarmas va abadiy ekanligini, insonlar qanchalik harakat qilmasinlar, amaldagi davlat va huquqni o'zgartira olmasliklarini kishilar ongiga singdirishga harakat qiladilar.

Umuman ilmiy izlanishlar, shu jumladan, davlat va huquq masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlarni oltinchi qoidasi – bu tadqiqotni asl va ishonchli manbalar hamda ma'lumotlarga tayanib amalga oshirishdir. Bular qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning qaysi tilda ishlab chiqilgan bo'lsa, o'sha tildagi asl nusxasi, davlat va huquq bilan bog'liq masalalar voqe bo'lgan davrda yashab ijod etgan, masalalar yechimini topish jarayonining ishtirokchilari, davlat va jamoat arboblarning fikr-mulohazalari, qarashlari, o'gitlari, esdaliklari bayon etilgan asarlari, moddiy manbalar (muhrlar, tangalar, davlat saroylari qoldiqlari, yozishmalar), voqealarning bevosita guvohi bo'lgan tarixchilar, siyosatshunoslar, davlatshunoslar va huquqshunoslarning asarlari, sud hujjatlari huquqiy mazmundagi shartnomalar (nikoh shartnomasi, oldi-sotdi shartnomasi, ijar shartnomasi, qarz shartnomasi, davlatlararo shartnomalar va boshqalar), jo'g'rofiy xaritalar, statistik ma'lumotlar kabilardir.

Shuni alohida qayd etish lozimki, tadqiqotchilar har doim ham asl manbalardan turli sabablariga ko'ra foydalanish imkoniyatiga ega bo'lavermaydi. Jumladan, davlat va huquq tarixi, davlat va huquq haqidagi ta'limotlar tarixi kabi fanlar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib boruvchilar ushbu muammoga ko'proq duch keladi. Bu holat ko'pincha, manba yozilgan tilni tadqiqotchining bilmasligi, manbadagi huquqiy hujjat matnidagi yozuvlarning o'chib ketganligi, tadqiqotchi yashab ijod etgan davrga to'la yetib kelmaganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Lekin ko'p hollarda tadqiqotchi o'zini qiziqtirgan masalalar bo'yicha ma'lumotlarni asl manba asosida bitilgan ikkinchi yoki uchinchi manbalardan topish imkoniyatidan foydalanadigan hollar ko'p uchraydi. Bunday holatga duch kelgan tadqiqotchi o'z qo'lida bo'lgan manbaning ishonchliligiga amin bo'lishi lozim. Uni boshqa manbalar, tadqiqotlar bilan taqqoslab o'rganishi, o'zini qiziqtirgan masalalar unda aniq, to'liq, buzib bayon qilinmaganligiga ishonch hosil qilgandan so'ng undan tadqiqot manbai sifatida foydalanishi mumkin. Uzoq o'tmishga oid qonunlar, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash hujjatlari, davlat va huquq masalalariga bag'ishlangan asarlar ular bitilgan tildan boshqa tillarga tarjima qilingan va nashr etilgan bo'lsa, bunday manbalarning so'nggi nashridan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki manbalarning so'nggi nashrida avvalgi nashrdagi nuqsonlarga barham beriladi, kamchiliklar tugatiladi, tarjimada yo'l qo'yilgan xatolar tuzatiladi.

Shuningdek, tadqiqotchini qiziqtirgan masalalar bo'yicha asl manbalar, ularning tarjimalari bo'lmasa, ushbu manbalarning mazmuni bayon etilgan ikkinchi hatto uchinchi darajali manbalarga murojaat qilish mumkin. Masalan, davlatchilik va huquq tarixidagi eng qadimgi manbalardan biri bo'lgan huquq manbalaridan biri hisoblangan "Avesto"ning mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solgan kitobi bizgacha yetib kelmagan. Lekin, ushbu munosabatlar bilan bog'liq nizolarni ko'rib hal qilish va tegishli qarorlar qabul qilishga oid sud amaliyoti bayon qilingan ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan "MATAKDAN I HAZAR DATASTAN" ("Книга тысячи судебных решений" – "Mingta sud qarorlari kitobi") deb nomlangan sasoniylar davlatida tuzilgan to'plam bizgacha yetib kelgan. Ushbu to'plam A.G. Perixanyan tomonidan rus tiliga tarjima qilinib, Yere-

vanda Armaniston SSR Fanlar akademiyasi nashriyotida “Сасанидский судебник” nomi ostida 1973-yilda nashr etilgan³. Oʻtgan yillar davomida ushbu manbaning ishonchliligiga jiddiy eʼtirozlar bildirilmagan. Undan oʻquv va ilmiy izlanishlar jarayonlarida muhim manba sifatida foydalanib kelinmoqda.

Har qanday fan doirasida, shu jumladan, davlat va huquq sohasida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqotlarni bahs-munozarasiz tasavvur qilish mushkul. Tadqiqotda bahs-munozaraning mavjudligi – ilmiy izlanishlarning yettinchi qoidasidir. Har bir tadqiqotchi oʻzi izlanish olib borayotgan mavzuga oid muhim masalalar boʻyicha ungacha boʻlgan tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarga oʻz munosabatini bildirishi ilmiy etikaning talablaridan biridir. Agar tadqiqotchi ungacha bildirilgan fikr-mulohazalarga toʻliq qoʻshilsa, qoʻshilish sabablarini, qisman qoʻshilsa, nima uchun qisman qoʻshilishini, qoʻshilmasa, qoʻshilmasligining asoslarini tegishli dalillar bilan isbotlab berishi kerak. Afsuski, keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida masalaga bunday yondashuvni uchratish amri mahol boʻlib qolmoqda. Koʻpchilik hollarda tadqiqotchilar oʻzi oʻrganayotgan mavzuga oid adabiyotlarda bildirilgan fikr-mulohazalarni keltirib oʻtishadi. Lekin ularga oʻz munosabatini bildirmasdan bizning fikrimizcha mana bunday boʻlishi kerak, deyish bilan chegaralanishadi. Tadqiqotda koʻtarilayotgan muammolar va ularning yechimlari boʻyicha boshqa tadqiqotchilar bilan bahs-munozaraga kirishmaydi. Mutlaq koʻpchilik, ayniqsa, yosh tadqiqotchilar atoqli olimlar bilan bahs-munozaraga kirishmaslikka harakat qiladi. Yoshlar, asosan, atoqli ustozlarning bildirgan fikr-mulohazalarini qoʻllab-quvvatlash bilan cheklanishadi. Masalaga bunday yondashuv ilm-fanning rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Ilmiy izlanishlarda boshqa izlanuvchilarning ishlaridan iqtibos keltirishni toʻgʻri aks ettirish – ilmiy tadqiqotning sakkizinchi qoidasidir⁴. Har bir tadqiqotchi izlanish mavzusini tanlashdan oldin va tadqiqotni amalga oshirish jarayonida mavzuga u yoki bu darajada aloqador boʻlgan maqolalar, risolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar va

ularning avtoreferatlari bilan tanishib chiqadi, ularda bildirilgan fikr-mulohaza va maʼlumotlarni toʻplaydi, tizimlashtiradi, oʻzining nuqtayi nazaridan maʼqul boʻlgan fikr-mulohazalar va maʼlumotlarni iqtibos koʻrinishida oʻz tadqiqotida bayon qiladi. Ilmiy ishlarda iqtibos keltirishning ikki turi keng tarqalgan: boshqa tadqiqotchining fikr-mulohazalari va maʼlumotlarini qanday boʻlsa aynan shunday keltirish; ularning qisqacha mazmunini keltirish, bayon qilish. Birinchi turdagi iqtibos keltirishda iqtibos oluvchi boshqa tadqiqotchi ishida oʻz aksini topgan fikr-mulohazalar va maʼlumotlarni hech qanday oʻzgarishsiz koʻchirib olib, qoʻshtirnoq ichida oʻz ilmiy ishinining matnida bayon qiladi va qaysi manbadan olinganini koʻrsatadi. Iqtibos keltirishning ikkinchi turida fikr-mulohazalar va maʼlumotlar oʻz aksini topgan matn toʻliq koʻchirib olinmasdan ularning qisqagina mazmun-mohiyati bayon qilinadi va “Qarang” yoki “Bu haqda batafsil qarang” soʻzlariidan keyin iqtibos olingan manba koʻrsatiladi. Shu yerda soʻnggi yillarda ilmiy tadqiqot ishlarida tez-tez uchrab turadigan salbiy amaliyot koʻzga tashlanmoqda. Bu boshqa tadqiqotchilarning ishlaridagi fikr-mulohazalar va maʼlumotlarni “oʻgʻirlab” olib goʻyoki oʻziniki etib koʻrsatishga urinishlardir. Bunday nojoʻya xatti-harakatlarga barham bermasdan ilm-fanni rivojlantirish bir muncha mushkul boʻladi. Shu munosabat bilan bizning fikrimizcha, Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi va Jinoyat kodekslariga intellektual mulkni oʻgʻirlaganlik uchun javobgarlik belgilovchi moddalarni kiritish maqsadga muvofiq. Ularda intellektual mulkning mulkning alohida turi ekanligiga urgʻu berilishi va uning mazmun-mohiyati huquq normasining dispozitsiyasida oʻz aksini topishi lozim. Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi va Jinoyat kodekslariga koʻchirmachilik uchun kuchaytirilgan javobgarlik belgilovchi alohida moddalarni kiritish kerak, deb hisoblaymiz.

Davlat va huquqqa oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishning toʻqqizinchi qoidasi – ushbu sohada xorijiy mamlakatlar erishgan tajribani ilmiy tahlil qilish, ularning erishgan yutuqlaridan foydalanish, yoʻl qoʻygan kamchiliklarini takrorlamaslikni ilmiy asoslab berishdir.

³ Ushbu manba haqida batafsil qarang: Периханян А.Г. Сасанидский судебник. Ереван: Изд-во АН Армянской ССР, 1973. – 572 с.

⁴ Qarang: Тихонова Е.В., Кириллова О.В. Культура цитирования: поведение цитирующих авторов vs доверие к результатам научных исследований. Научный редактор и издатель. 2022;7(2):166-181. <https://doi.org/10.24069/SEP-22-58>.

Globallashuv sharoitida O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati a'zolari bilan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy va huquqiy sohadagi aloqalari yildan yilga rivojlanib mazmunan boyib bormoqda. Shu munosabat bilan mustaqillik yillarida respublikamizda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarida xorijiy, ayniqsa, rivojlangan davlatlarning davlat-huquqiy sohalarida erishilgan yutuqlarini o'rganish, ulardan hozirgi kundagi dolzarb va o'tkir muammolarni hal qilishda o'zimizning milliy xususiyatlarimizni hisobga olib tanqidiy foydalanishni ilmiy asoslab berishga alohida urg'u berilmoqda. Lekin bu masalada ham jiddiy kamchiliklar, muammoga yuzaki yondashuvlar borligiga ko'z yumib bo'lmaydi. Xususan, ko'pchilik hollarda xorij tajribasini o'rganish yuzaki, nomigagina amalga oshirilayotganligi, undan oldimizda turgan muammolar yechimini topishda qanday foydalanish, ulardan nimalarni olish mumkin va nimalarni olish mumkin emasligi haqidagi chuqur tahlillarga asoslangan, atroflicha mushohada natijasi bo'lgan taklif va tavsiyalarni ilmiy tadqiqot ishlaridan topish qiyin bo'lib qolayotgani ilmiy jamoatchilik uchun sir emas.

Ilmiy izlanishlarda, ayniqsa, ijtimoiy fanlarda, shu jumladan, yuridik fanlar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarida ularda ko'tarilgan muammolar va ularning yechimi haqida jamoatchilik fikrini bilish maqsadida mamlakat aholisining turli qatlamlari o'rtasida so'rovnoma o'tkazish, ular natijalarini ilmiy tahlil qilish, asoslantirilgan xulosalar chiqarish va taklif-tavsiyalar tayyorlash hozirgi zamon ilm-faniga chuqurroq kirib borayotgan ilmiy tadqiqotlar amaliyotining o'ninchi qoidasidir. Bu borada ham o'ziga xos yechimini kutayotgan muammolar yo'q emas. Jumladan, so'rovnomalarda maktab o'quvchisi ham javob beradigan savollar uchraydi: Konstitutsiya qachon qabul qilingan? Konstitutsiya nechta moddadan iborat? Mehnat kodeksini o'qigansizmi? O'zbekiston qonunchiligi bo'yicha necha yoshga kirganlar nikohdan o'tishi mumkin? kabilar. Ko'pchilik hollarda so'rovnoma natijalari hisob-kitob qilinib to'g'ri javoblar, no-

to'g'ri javoblar, javob berishga qiynalganlar foizi chiqariladi, xolos. Natijalar chuqur va atroflicha tahlil qilinmaydi, o'tkazilgan boshqa so'rovnoma natijalari bilan taqqoslanmaydi, so'rovnoma bo'yicha ijobiy yoki salbiy javoblarning yillar bo'yicha dinamikasi yoki pasayish diagrammasi ko'rsatilmaydi, natijalar jinslar, yoshlar, kasblar kabi kesimlarda qiyosiy tahlil qilinmaydi. Nomi-ga "so'rovnoma o'tkazdingmi, o'tkazdim" qabilida ish tutiladi. Natijada, yuzaki, yetarlicha asoslantirilmagan xulosa chiqariladi, amaliyotga tatbiq etilishi mushkul bo'lgan taklif-tavsiyalar beriladi. Oqibatda, so'rovnoma o'tkazishga ketgan vaqt, mehnat va mablag' behuda ketadi.

Davlat va huquqqa oid mavzularda ilmiy izlanishlarning o'n birinchi qoidasi – nazariyani amaliyot bilan bog'lab olib borishdir. Umumiy qoidaga ko'ra, amaliyotda o'zini oqlamagan nazariya tom ma'nodagi nazariya emas, muammo haqidagi g'oyalar, fikr-mulohazalar, qarashlarning bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lmagan oddiy yig'indisidir. Mashhur nemis faylasufi Gyote ta'kidlaganidek, "Nazariya quruqdir, do'stim, lekin yashnar hayot daraxti".

Yuridik fanlardan birinchi navbatda soha va amaliy fanlar bo'yicha amalga oshiriladigan ilmiy izlanishlarda nazariya bilan amaliyot bog'liqligi yaqqol namoyon bo'ladi. Nazariy-tarixiy fanlarda bunday holatni bevosita ko'rish birmuncha mushkul. Ushbu fanlarda nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi bilvosita bo'lishi mumkin. Nazariy xulosalarni, taklif va tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etishni amalga oshirish uzoq vaqttni va murakkab mexanizm hamda jarayonni talab qiladi.

Xullas, globallashuv sharoitida davlat va huquq sohasida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda yuqorida bayon etilgan qoidalarga amal qilish foydadan xoli bo'lmaydi, zamon talabiga javob beradigan ilmiy izlanishlarni amalga oshirish, asoslantirilgan xulosalar chiqarish, milliy davlatchiligimiz va huquqimizni rivojlantirish bo'yicha taklif-tavsiyalar tayyorlashga yordam beradi, degan umiddamiz.



O'zbekiston tarixida fuqarolik sud hujjatlarini apellyatsiya tartibida tekshirish institutining o'ziga xos xususiyatlari

SHAYZAKOV Shodiyor Ibragimovich,

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi markaz
boshlig'i, yu.f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston tarixida fuqarolik sud hujjatlarini apellyatsiya tartibida tekshirish institutining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos belgilarining qisqartirilgan, ammo mazmunan saqlangan tahlili beriladi. Unda qadimgi va o'rta asrlardagi shikoyat qilish amaliyoti, qozi sudlari, devoni mazolim, xon va amirlarga murojaat qilish orqali sud qarorlarini qayta ko'rib chiqishning dastlabki elementlari, chor Rossiyasi va sovet davri tajribasi, shuningdek mustaqillikdan keyingi fuqarolik protsessual islohotlarning mazmuni yoritiladi. Maqola apellyatsiya instansiyasining sud xatolarini bartaraf etish, sud hujjatlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatligini tekshirish hamda shaxsning sud orqali himoyalanih huquqini ta'minlashdagi ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: apellyatsiya instituti, fuqarolik sud hujjatlari, sud qarorlarini qayta tekshirish, O'zbekiston tarixi, qozi sudlari, devoni mazolim, fuqarolik protsessual huquqi, apellyatsiya shikoyati, apellyatsiya protesti, sud nazorati, sud islohotlari, Fuqarolik protsessual kodeksi, odil sudlov, sud himoyasi, huquqiy kafolatlar.

Аннотация: В статье в сокращённом виде, без утраты основного содержания, анализируются становление и развитие института апелляционной проверки судебных актов по гражданским делам в истории Узбекистана. Особое внимание уделено историческим формам обжалования судебных решений, реформам периода Российской империи и советского законодательства, а также современному процессуальному регулированию апелляционного производства в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: апелляция, гражданские судебные акты, история Узбекистана, казийские суды, гражданский процесс, судебная защита, правовые гарантии.

Fuqarolik sud hujjatlarini apellyatsiya tartibida tekshirish instituti sud himoyasi huquqining amaliy kafolatlaridan biridir. U birinchi instansiya sudi tomonidan qabul qilingan, hali qonuniy kuchga kirmagan sud hujjatlarini yuqori instansiya sudida tekshirish orqali sud xatolarini bartaraf etish, ish uchun ahamiyatli faktik va huquqiy holatlarni qayta baholash hamda yakuniy qarorning

qonuniy, asosli va adolatli bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli apellyatsiya instituti faqat protsessual mexanizm emas, balki odil sudlov sifatini belgilovchi muhim huquqiy kafolat sifatida baholanishi lozim.

O'zbekiston tarixida mazkur institut bugungi nom va shaklda birdaniga paydo bo'lmagan. Uning ildizlari qadimgi va o'rta asrlarda mansabdor

shaxslar, qozilar yoki mahalliy sudlov organlari qaroridan yuqori turuvchi hukmdorga, devoni mazolimga yoxud boshqa vakolatli shaxsga murojaat qilish amaliyotiga borib taqaladi. Albatta, bunday murojaatlar zamonaviy ma'nodagi apellyatsiya bilan aynan bir xil emas edi. Biroq ular sud qarorini qayta ko'rib chiqish, adolatni tiklash va nizoni yuqori darajada hal etishning dastlabki protsessual-huquqiy elementlarini ifodalagan.

Qadimgi va o'rta asrlarda O'zbekiston hududida shakllangan davlatlar huquqiy tartiboti, asosan, shariat qoidalari, urf-odatlar va hukmdor farmonlari asosida amal qilgan. Fuqarolar o'rtasidagi nizolar hamda fuqarolar bilan hokimiyat vakillari o'rtasida yuzaga kelgan masalalar qozilar, muftiylar, a'lamlar, beklar va oliy hukmdor vakillari tomonidan ko'rib chiqilgan. Tarixiy manbalarda Amir Temur davrida devoni mazolim, adliya ishlari, harbiy sud va shariat qozisi faoliyatining alohida tizim sifatida mavjud bo'lgani qayd etiladi¹. Bu holat o'sha davrda huquqiy nizolarni faqat bir pog'onada emas, balki muayyan nazorat va yuqori murojaat tartibi orqali hal etish imkoniyati bo'lganini ko'rsatadi.

Amir Temur davlatida adolatni ta'minlash siyosiy-huquqiy boshqaruvning muhim mezoni sifatida ko'rilgan. Har bir shahar va viloyatda qozilar hamda muftiylar arizachilarni qabul qilgan, sud va sudlov ishlarini yuritgan². Fuqarolar quyi mansabdor shaxslar qarori yoki harakatidan norozi bo'lsa, sudga, devoni mazolimga yoki bevosita oliy hukmdorga murojaat qilishlari mumkin bo'lgan. Shu jihatdan qaror ustidan shikoyat qilish huquqining tarixiy asoslari apellyatsiya institutining funksional ildizlari sifatida talqin qilinadi.

Islom huquqiy an'analari sudlov institutlarining shakllanishi Markaziy Osiyo hududida ham o'ziga xos ko'rinish kasb etgan. Ayrim ilmiy manbalarda mintaqaviy hududida sud ishlarini yuritishning ayrim elementlari Yevropadagi protsessual institutlardan ancha ilgari shakllangani qayd

etiladi³. Xonlik va amirliklar davrida qozi kalon, quyi qozilar, askar qozisi, muhtasiblar va boshqa vakolatli shaxslar shariat normalariga rioya etilishi, meros, oila, nikoh, mulkiy nizolar va boshqa fuqarolik-huquqiy masalalarni ko'rish ustidan nazorat olib borgan⁴.

Qozi sudlaridan yuqori alohida sud pog'onasi mavjud bo'lmagan sharoitda ularning qaror yoki hukmlari yuzasidan, odatda, oliy hukmdorga — xon yoki amirga shikoyat qilish mumkin bo'lgan. Agar shikoyat asosli deb topilsa, hukm bekor qilingan yoki ish qayta ko'rib chiqilgan⁵. Mazkur tartib zamonaviy apellyatsiya ishlab chiqilgan protsessual model bo'lmasa-da, unda sud qaroriga nisbatan yuqori nazorat, shikoyat, qayta ko'rib chiqish va adolatni tiklash kabi belgilar mavjud edi.

XIX asr ikkinchi yarmida O'rta Osiyoda chor Rossiyasi hukmronligi o'rnatilishi bilan sud tizimida ikki qatlamli, ya'ni imperiya sudlari va mahalliy qozi-biy sudlari birgalikda amal qilgan murakkab model yuzaga keldi. 1864-yil 20-noyabrda sud nizomlari prokuratura va sud ishlari yuritish tartibiga oid qator qoidalarni belgilab berdi; prokuratura sudlar qoshida tashkil etilgan bo'lsa-da, ularga bo'ysunmagan hamda nazorat funksiyasini amalga oshirgan⁶.

1886-yil 12-iyundagi "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi Nizom qabul qilingach, o'lka sudlari bilan bir qatorda qozi va biy sudlari ham saqlab qolindi. Taraflar qozi sudining hukmi yoki qaroridan norozi bo'lgan taqdirda rus sudlariga, ayrim oilaviy-nikoh masalalari bo'yicha esa uezd boshlig'iga murojaat qilish imkoniga ega bo'lgan. Mahalliy aholining fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha rus sudlariga murojaat qilish huquqi ham e'tirof etilgan; shu bilan birga, bunday ishlarni ko'rishda mahalliy urf-odatlarini inobatga olish lozimligi belgilangan⁷.

Sovet davrida esa sud qarorlarini qayta ko'rish asosan kassatsiya va nazorat tartiblari orqali amalga oshirildi. O'zbekiston SSRning 1927 va

¹ Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi: eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar / Mas'ul muharrir B. Ahmedov. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 180-181.

² Muxitdinova F.A. Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi. Darslik. – Toshkent: TDYul nashriyoti, 2011. – B. 88.

³ Мец А. Мусульманский Ренессанс. 2-е изд. / Пер. с нем.; предисл., библиогр. и указ. Д.Е. Бертельса; отв. ред. В.И. Беляев. – Москва: Наука, 1973; Сокоит М.Н. Институты правосудия в исламе. – Тегеран, 1325 г. хиджри; Буриев И.Б. Судебные институты государственности досоветского Таджикистана. – Душанбе: Дониш, 2010.

⁴ Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi: eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar / Mas'ul muharrir B. Ahmedov. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 297-298.

⁵ Adolat yo'lida 70 yil. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – B. 21-22.

⁶ Mahbubov M. Создание и развитие органов прокуратуры в Узбекистане: дис. ... докт. юрид. наук. – Ташкент, 1993. – С. 23.

⁷ Pol'atov B.X. Sudlarda jinoyat ishlarini ko'rinishida prokurorning protsessual faoliyati. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2004. – B. 307.

1938-yillardagi Grajdanlik protsessual kodekslarida kassatsiya tartibida shikoyat qilish instituti joriy etildi. 1963-yil 23-martda tasdiqlanib, 1964-yil 1-yanvardan kuchga kirgan GPKda ham kassatsiya va nazorat tartibida shikoyat qilish qoidalari mavjud edi⁸. Ushbu modelda zamonaviy apellyatsiyaga xos bo'lgan faktik va huquqiy holatlarni qayta tekshirish imkoniyatlari cheklangan bo'lib, sud nazorati ko'proq qonuniyligni tekshirishga qaratilgan edi.

Mustaqillikdan keyingi davrda fuqarolik protsessual qonunchiligi milliy sud-huquq islohotlari asosida yangilandi. 1997-yilda Fuqarolik protsessual kodeksi qabul qilingach, sud qarorlarini qayta ko'rish institutini zamonaviy demokratik standartlarga moslashtirish jarayoni boshlandi. O'zbekistonda apellyatsiya tartibida ish yuritish dastlab FPKning 37-bobiga 2000-yil 14-dekabrda gi 163-II-son Qonun bilan kiritildi⁹. Bu o'zgarish sudda fuqarolik ishlarini qayta ko'rishning yangi kafolati sifatida shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 55-moddasi har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, boshqa tashkilotlar va mansabdor shaxslarning qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqini kafolatlaydi¹⁰. Shu konstitutsiyaviy asos apellyatsiya tartibini nafaqat oddiy protsessual bosqich, balki inson huquqlarini ta'minlash mexanizmi sifatida baholashga imkon beradi.

2020–2024-yillarda sud qarorlarini qayta ko'rish tizimi yana muhim o'zgarishlarni boshdan kechirdi. 2020-yil 24-iyuldagi PF–6034-son Farmon va 2021-yil 12-yanvarda qabul qilingan protsessual qonunlar bilan tumanlararo, tuman va shahar sudlari qarorlarini viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda apellyatsiya tartibida qayta ko'rish, apellyatsiya tartibida ko'rilgan qarorlarni Oliy sudda kassatsiya tartibida tekshirish, ayrim

hollarda esa takroran kassatsiya tartibida ko'rib chiqish tartiblari belgilandi. Biroq bu model Oliy sud vakolatlarining haddan tashqari markazlashuviga, viloyat sudlari imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmasligiga va ishlarni yangidan ko'rish uchun quyi sudlarga yuborish holatlarining ko'payishiga sabab bo'ldi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida 2023-yil 16-yanvardagi PF–11-son Farmon qabul qilindi. Farmon sudlarda fuqarolar va tadbirkorlarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish imkoniyatlarini kengaytirish, tortishuv va taraflar tengligi tamoyillarini to'liq ro'yobga chiqarish, sudlarning xolisligini amalda ta'minlashga qaratildi¹¹. 2023-yil 25-dekabrda gi Qonun bilan esa FPKda apellyatsiya instansiyasining protsessual maqomi yanada mustahkamlandi: shikoyat va protest berish muddati yigirma kundan bir oyga uzaytirildi, shikoyat berish subyektlari doirasi kengaytirildi, apellyatsiya shikoyatini qaytarish, qabul qilishni rad etish, ish yuritishni tugatish kabi masalalar aniq tartibga solindi¹².

Yangi tartibning muhim jihati shundaki, yuqori instansiya sudlarining ishni yangidan ko'rish uchun quyi sudlarga qaytarish amaliyoti cheklantirilib, ularga ish bo'yicha yakuniy qaror qabul qilish mas'uliyati yuklatildi. Bu fuqarolar sarsongarchiligini kamaytirish, sud ishlarini oqilona muddatlarda ko'rish va yagona sud amaliyotini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy manbalarda "apellyatsiya" atamasi lotinchadan appellatio — "shikoyat", "murojaat" ma'nolari bilan bog'lanadi va birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan qarorini yuqori instansiya sudida mohiyatan ko'rib chiqish shakli sifatida izohlanadi¹³. Ayrim mualliflar apellyatsiya institutining tarixiy shakllanishini qadimgi Rimda gi sud jarayonlari va keyinchalik paydo bo'lgan restitutio in integrum hamda appellatio amaliyoti bilan bog'laydi¹⁴. Boshqa manbalarda esa apel-

⁸ O'zSSR Oliy Sovetining Vedomostlari. – 1963. – № 9. – 31-moddasi.

⁹ O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda gi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual, xo'jalik protsessual va fuqarolik protsessual kodekslariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi 163-II-son Qonuni.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. URL: <https://lex.uz/docs/6445145>

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvarda gi "O'dil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-11-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.01.2023-y., 06/23/11/0033-son. URL: <https://lex.uz/uz/docs/6358976>

¹² O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda gi "Sud qarorlarining qonuniyligi, asosligi va adolatligini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son.

¹³ Fuqarolik protsessual huquqi. Maxsus qism. Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik / Mas'ul muharrir Z.N. Esonova. – Toshkent: TDYul nashriyoti, 2013. – B. 234; Власов А.А. Гражданское процессуальное право. Учебник. – Москва, 2003. – С. 233.

¹⁴ Курас Т.Л. Апелляция в российском гражданском процессе: история и современность // Власть. – 2015. – С. 36–42.

lyatsiya yuqori sud tomonidan faktik va yuridik asoslar bo'yicha quyi sud qarorini tekshirish va yangi sud muhokamasi orqali qaror qabul qilish tartibi sifatida tavsiflanadi¹⁵.

Yuridik adabiyotlarda apellyatsiyaning mazmuni borasida yagona yondashuv mavjud emas. Ayrim olimlar uni shikoyat shakli, boshqalari quyi sud faoliyati ustidan nazorat usuli, yana bir guruh mualliflar esa sud ishini qayta ko'rish bosqichi sifatida talqin qiladi. Biroq mazkur qarashlarning umumiy jihati shundaki, apellyatsiya sud hujjatining qonuniyligi, asosiligi va adolatligini ta'minlash, sud xatolarini bartaraf etish hamda sudga murojaat qilish huquqini real amalga oshirishga xizmat qiladi¹⁶.

Apellyatsiya tartibida ish yuritishning qo'zg'atilishi protsess ishtirokchilarining tashabbusiga bog'liq. Yuqori instansiya sudi o'z tashabbusi bilan birinchi instansiya sudidan ishni talab qilib olib, sud hujjatini apellyatsiya tartibida tekshira olmaydi. Shikoyat berish yoki protest keltirish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning tashabbusi apellyatsiya ish yurituvini harakatga keltiruvchi asos hisoblanadi¹⁷.

Fuqarolik protsessual huquqida apellyatsiya shikoyati yoki protestini keltirish uchun bir nechta zaruriy elementlar mavjud. Birinchidan, apellyatsiya subyekti — shikoyat berish yoki protest keltirish vakolatiga ega bo'lgan shaxslar doirasi aniq bo'lishi lozim. Amaldagi FPKga ko'ra, taraflar, uchinchi shaxslar, ishda ishtirok etmagan bo'lsa-da, huquq va majburiyatlari sud hujjati bilan hal etilgan shaxslar, ularning huquqiy vorislari va vakillari, prokuror hamda qonunda nazarda tutilgan boshqa subyektlar apellyatsiya tartibida murojaat qilishi mumkin.

Ikkinchidan, subyektiv tomoni, ya'ni mazkur subyektlarning vakolat doirasi va protsessual layoqati aniqlanishi shart. Masalan, vakil yoki advokat apellyatsiya shikoyati berishi uchun bunday vakolat ishonchnomada aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Prokuror esa qonunda belgilangan hollarda

va vakolati doirasida protest keltiradi. Uchinchidan, apellyatsiya obykti mavjud bo'lishi zarur: bunday obyekt birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori, ajrimi yoki qonunda shikoyat qilinishi mumkin bo'lgan boshqa sud hujjatidir. Masalan, sud buyrug'i apellyatsiya shikoyati obykti bo'la olmaydi.

To'rtinchidan, obyektiv tomoni — apellyatsiya tartibida tekshirilishi mumkin bo'lgan fuqarolik-huquqiy nizo, tegishli sudlovlilik, belgilangan muddatga rioya qilish va shikoyatni rasmiylashtirish talablari bilan bog'liqdir. Adabiyotlarda apellyatsiya shikoyati berishning obyektiv, subyektiv va formal asoslari mavjudligi alohida ko'rsatiladi: obyektiv asos sud hujjati va muddatga, subyektiv asos shikoyat beruvchi shaxsning huquq va layoqatiga, formal asos esa shikoyatning qonunda belgilangan tartibda rasmiylashtirilishiga taalluqlidir¹⁸.

FPKda apellyatsiya instansiyasi birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan berilgan apellyatsiya shikoyati yoki protesti, shuningdek birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan ajrimi ustidan berilgan xususiy shikoyat yoki xususiy protest bo'yicha sud hujjatining qonuniyligi, asosiligi va adolatligini tekshiradi. Oliy sud Plenumining tegishli tushuntirishlarida ham apellyatsiya tartibida ish qo'zg'atish huquqi va uning subyektlari, shu jumladan taraflar, uchinchi shaxslar, arizachi, manfaatdor shaxslar, hakamlik muhokamasi taraflari, vakillar va boshqa shaxslar bo'yicha aniq yo'nalishlar berilgan¹⁹.

Apellyatsiya instansiyasi sudining eng muhim xususiyati — u oddiy nazorat organi emas, balki ishni mohiyatan qayta tekshirishga vakolatli sud bosqichidir. Sh.Sh. Shoraxmetov apellyatsiya tartibida sudda ko'rishni fuqarolarning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilishning qo'shimcha kafolati, birinchi instansiya sudidagi xato va kamchiliklarni tuzatishning samarali vositasi sifatida baholaydi²⁰. R.A. Xusaino-

¹⁵ Понимаш Я.И. Понятие и признаки апелляционного обжалования в гражданском процессуальном законодательстве России и стран англосаксонской правовой семьи // Вестник ЧелГУ. – 2015. – № 25 (380). – С. 15–22.

¹⁶ Филатова М.А. Европейские стандарты правосудия по гражданским делам и их значение для российской правовой системы // Стандарты справедливого правосудия / Под общ. ред. Т.Г. Морщаковой. – Москва, 2012. – С. 29–63.

¹⁷ Кучкаров Х.З. Jinoyat ishlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko'rilishini takomillashtirish: yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024. – B. 95.

¹⁸ Борисова Е.А. Апелляция в гражданском (арбитражном) процессе. 3-е изд. – Москва: Городец, 2008. – С. 119; Караваева Е.В. Вопросы апелляционного производства в гражданском процессе: дис. ... канд. юрид. наук. – Саратов, 2005. – С. 71.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2021-yil 20-apreldagi "Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini apellyatsiya tartibida ko'rish amaliyoti to'g'risida"gi 14-son qarori. URL: <https://sud.uz>

²⁰ Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2007. – 384 b.

va esa apellyatsiyani birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori yoki ajrimining qonuniy, asosli va adolatli ekanligini aniqlash maqsadida ish uchun ahamiyatli faktik va yuridik holatlarni qayta tekshirish tartibi sifatida izohlaydi²¹.

Amaldagi tartibga ko'ra, apellyatsiya instansiyasi ishni ko'rib chiqish natijasida hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni o'zgarishsiz qoldirishi, to'liq yoki qisman bekor qilib yangi qaror qabul qilishi, o'zgartirishi, arizani ko'rmasdan qoldirishi yoki ish yuritishni tugatishi mumkin. Xususi shikoyat yoki protest bo'yicha esa ajrimni o'zgarishsiz qoldirish, bekor qilish, masalani mazmunan hal etish yoki materiallarni sudlovlikka ko'ra boshqa sudga yuborish vakolatlari mavjud. Ushbu vakolatlar apellyatsiya instansiyasining sud xatolarini faqat aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, ularni bartaraf etish va ish bo'yicha yakuniy protsessual natijani shakllantirish imkoniga ega ekanini ko'rsatadi.

D.J. Suyunova apellyatsiya tartibida ish yuritishning vazifasi ko'p qirrali bo'lib, u moddiy va protsessual qonunchilikka rioya qilinishini tekshirish, quyi sudlar amaliyotining shakllanishiga ta'sir ko'rsatish hamda shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilganini ta'kidlaydi²². E.A. Stepanova esa apellyatsiya sudi o'z ko'rishiga taraflar o'rtasidagi oddiy fuqarolik-huquqiy nizoni emas, balki birinchi instansiya sudining yakuniy hujjati mavjud bo'lgan sud ishini qabul qilishini alohida ko'rsatadi²³. Bu fikr apellyatsiya instansiyasining ikki tomonlama vazifasini ochadi: bir tomondan, u nizoni mohiyatan qayta ko'radi, ikkinchi tomondan, birinchi instansiya sud hujjatini baholaydi.

Shuningdek, 2024-yil 30-sentabrdagi Qonun bilan sudlarda ishlarni ko'rishda prokuror vakolatlarini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirishlar kiritilishi sud qarorlarini qayta ko'rish bosqichlarining yanada aniqlashtirilishiga, apellyatsiya, kassatsiya va taftish tartiblarining amaliy muvozanatini mustahkamlashga xizmat qildi²⁴. Natijada sud ishlarni ko'rishning haddan tashqari markazlashuvi kamaytirilib, o'rta bo'g'in sudlarining sud nazorati

funksiyasi kuchaydi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tarixida fuqarolik sud hujjatlarini apellyatsiya tartibida tekshirish institutining o'ziga xosligi uning tarixiy davomiyligi va zamonaviy protsessual mazmunida namoyon bo'ladi. Qadimgi va o'rta asrlarda qozi sudlari, devoni mazolim, xon va amirlarga murojaat qilish amaliyoti zamonaviy apellyatsiyaning bevosita huquqiy shakli bo'lmasa-da, sud qarorini yuqori darajada tekshirish va adolatni tiklash g'oyasining tarixiyildizlarini ifodalaydi.

Chor Rossiyasi davrida qozi-biy sudlari bilan rus sudlari o'rtasidagi aralash tizim, sovet davrida esa kassatsiya va nazorat tartiblarining ustuvorligi sud hujjatlarini qayta ko'rish mexanizmlarining bosqichma-bosqich rivojlanishiga zamin yaratdi. Mustaqillikdan keyin esa apellyatsiya instituti FPKda mustaqil protsessual bosqich sifatida shakllanib, 2000-yildan boshlab fuqarolik ishlari bo'yicha sud qarorlarini qayta ko'rishning muhim kafolatiga aylandi.

Hozirgi bosqichda apellyatsiya instansiyasi birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan sud hujjatlarini shikoyat yoki protest asosida tekshiruvchi, sud hujjatining qonuniyligi, asosiligi va adolatligiga baho beruvchi, ishning faktik hamda huquqiy holatlarini qayta ko'rib chiqishga vakolatli mustaqil sud bosqichidir. Uning zaruriy elementlari sifatida subyekt, subyektiv tomon, obyekt va obyektiv tomonning mavjudligi talab etiladi.

Apellyatsiya institutining asosiy maqsadi — birinchi instansiya sudlari tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni belgilangan muddatda va qonuniy tartibda bartaraf etish, sud qarorlarining barqarorligi bilan shaxsning sud himoyasi huquqi o'rtasida oqilona muvozanatni ta'minlash, fuqarolar, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan huquq hamda manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Shu bois apellyatsiya instituti "Yangi O'zbekiston — yangi sud" tamoyili doirasida odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytiruvchi asosiy protsessual kafolatlardan biri bo'lib qolmoqda.

²¹ Fuqarolik protsessual huquqi. Maxsus qism / Mas'ul muharrir Z.N. Esonova. – Toshkent: TDYuL nashriyoti, 2013. – B. 235.

²² Suyunova D.J. Apellyatsiya instansiyasi xorijiy tajribasida // Sudlar faoliyatini raqamlashtirish: joriy va istiqboldagi vazifalar mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: TDYuU, 2022. – B. 181.

²³ Степанова Е.А. Апелляция в России: историко-правовой аспект и перспективы развития: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург, 1999. – С. 20.

²⁴ O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga sudlarda ishlarni ko'rishda prokurorning vakolatlarini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni.

Tarixiy-huquqiy fanlar o'quv kurslari emasmi?

MUQIMOV Ziyodulla Yusupovich,

Samarqand davlat universiteti,
yuridik fanlar doktori, professor

Annotatsiya: Mazkur maqolada yuridik ta'lim tizimida tarixiy-huquqiy fanlarning o'rni, ularning bo'lajak huquqshunoslarda davlat va huquq taraqqiyoti haqidagi tizimli tasavvurni shakllantirishdagi ahamiyati, shuningdek, o'quv rejalarida mazkur fanlar soatlari qisqartirilishi bilan bog'liq metodik va ilmiy-amaliy muammolar tahlil qilinadi. Tarixiy-huquqiy fanlar "qo'shimcha" yoki "ikkinchi darajali" kurslar emas, balki yuridik kasb tafakkurining tarixiy xotira, huquqiy madaniyat va davlatlilik an'alariga tayanuvchi mustahkam asosini tashkil etishini asoslaydi. Maqolada "O'zbekiston davlati va huquqi tarixi", "Chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi" hamda "Rim huquqi" fanlarini asossiz birlashtirish yoki ularning auditoriya yuklamasini keskin qisqartirish yuridik ta'limning mazmuniy izchilligiga salbiy ta'sir etishi mumkinligi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: tarixiy-huquqiy fanlar, yuridik ta'lim, O'zbekiston davlati va huquqi tarixi, Rim huquqi, chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi, kredit-modul tizimi, o'quv rejasi, malaka talablari, huquqiy madaniyat, davlatchilik tarixi.

Аннотация: В данной статье анализируются роль историко-правовых дисциплин в системе юридического образования, их значение в формировании у будущих юристов системного представления о развитии государства и права, а также методические и научно-практические проблемы, связанные с сокращением количества учебных часов, отводимых на данные дисциплины в учебных планах. Автор обосновывает, что историко-правовые дисциплины не являются "дополнительными" или "второстепенными" курсами, а составляют прочную основу юридического профессионального мышления, опирающегося на историческую память, правовую культуру и традиции государственности. В статье показано, что необоснованное объединение таких дисциплин, как "История государства и права Узбекистана", "История государства и права зарубежных стран" и "Римское право", либо резкое сокращение их аудиторной нагрузки может отрицательно повлиять на содержательную последовательность юридического образования.

Ключевые слова: историко-правовые дисциплины, юридическое образование, история государства и права Узбекистана, римское право, история государства и права зарубежных стран, кредитно-модульная система, учебный план, квалификационные требования, правовая культура, история государственности.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida tarixiy xotirani mustahkamlash, milliy davlatchilik an'analarini ilmiy asosda o'rganish va ularni yosh avlod ongiga chuqur singdirish masalasi nafaqat tarix fani, balki yuridik fanlar oldida ham dolzarb vazifa sifatida turibdi. "O'zbekiston Respublikasida tarix fani sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da o'zbek xalqi va davlatchiligining kishilik sivilizatsiyasi tarixida tutgan o'rnini ilmiy jihatdan asoslab berish va xalqaro hamjamiyatga yetkazish zarurligi ta'kidlanadi¹. Ushbu vazifa tarixiy-huquqiy fanlarning yuridik ta'limdagi o'rnini qayta baholashni, ularni o'quv rejalardan chetga surish emas, aksincha, zamonaviy metodika asosida mustahkamlashni talab etadi.

Yuridik ta'limni isloh qilish bo'yicha so'ngi hujjatlarda ham ta'lim sifati, amaliyot bilan bog'liqlik, ilm-fan va ta'lim integratsiyasi alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilanmoqda². Biroq ta'lim sifati faqat yangi texnologiyalar, klinik ta'lim, dual ta'lim yoki amaliy mashg'ulotlar bilan chegaralanmaydi. Huquqshunos mutaxassisni shakllantirishda tarixiy-huquqiy tafakkur, huquqiy institutlarning genezisini anglash, milliy va jahon huquqiy tizimlari rivojini qiyosiy ko'ra olish ham muhim o'rin tutadi. Shu sababli tarixiy-huquqiy fanlarning o'quv rejasidagi mavqeini mas'uliyat bilan belgilash yuridik ta'limning strategik masalalaridan biridir.

Maqolaning asosiy maqsadi – tarixiy-huquqiy fanlar o'quv kurslari yuridik ta'limda mustaqil va zarur fanlar ekani, ularning qisqartirilishi yoki bir-biriga mexanik tarzda qo'shilishi huquqshunos kadrlar tayyorlash jarayonida nazariy va metodik uzilishlarga olib kelishi mumkinligini asoslashdir. Mulohazalar avvalo uzoq yillik pedagogik tajriba, yuridik fakultetlarda tarixiy-huquqiy fanlarni o'qitish amaliyoti va amaldagi malaka talablari bilan bog'liq kuzatuvlarga tayaniladi³.

Huquqshunoslik faqat amaldagi normani bilishdan iborat emas. Norma muayyan tarixiy sharoitda, ma'lum ijtimoiy ehtiyojlar, davlat boshqaruvi shakllari, mulk munosabatlari, sud hokimiyati va huquqiy madaniyat ta'sirida shakllanadi. Shu bois bo'lajak huquqshunos avvalo huquqiy

institutlarning tarixiy ildizini, ularning paydo bo'lish sabablarini, rivojlanish bosqichlarini va zamonaviy huquq tizimiga ta'sirini bilishi lozim. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablar alohida belgilangan bo'lib, bu talablar yuridik ta'limning mazmuniy puxtaligini ham nazarda tutadi⁴.

Tarixiy-huquqiy fanlar talabalarda huquqning faqat matn sifatidagi emas, balki ijtimoiy institut sifatidagi tabiatini anglashga yordam beradi. "O'zbekiston davlati va huquqi tarixi" milliy davlatchilik tajribasini, qadimgi davlat tuzilmalaridan boshlab mustaqillik davrigacha bo'lgan huquqiy taraqqiyot bosqichlarini o'rgatadi. "Chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi" esa jahon huquqiy tizimlari, davlat boshqaruvi shakllari va huquqiy madaniyatlarining qiyosiy rivojini ko'rsatadi. "Rim huquqi" bo'lsa, kontinental huquq tizimining tarixiy asosi sifatida xususiy huquq institutlarini chuqur tushunishga xizmat qiladi.

Shu ma'noda tarixiy-huquqiy fanlarni "umumiy ma'lumot beruvchi" yoki "kirish xarakteridagi" kurslar darajasiga tushirib qo'yish to'g'ri emas. Ular huquq nazariyasi, konstitutsiyaviy huquq, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi, ma'muriy huquq va protsessual fanlar uchun tarixiy-metodik poydevor vazifasini bajaradi. Masalan, mulk huquqi, majburiyat, shartnoma, delikt, vorislik kabi institutlarning ildizlari Rim huquqi orqali yoritilmasa, ularning bugungi fuqarolik-huquqiy mazmuni ham to'liq anglashilmaydi⁵.

Bundan tashqari, tarixiy-huquqiy fanlar milliy huquqiy ongni shakllantirishda ham o'ziga xos o'rin tutadi. O'zbek davlatchiligi tarixini inkor etuvchi yoki uni yuzaki talqin qiluvchi qarashlarga ilmiy javob berish uchun nafaqat tarixchilar, balki huquqshunoslar ham puxta manbashunoslik, tarixiy-huquqiy tahlil va qiyosiy metodga ega bo'lishlari kerak. Zero, davlat va huquq tarixi jamiyatning siyosiy-huquqiy xotirasidir.

Kuzatuvlarimizga ko'ra, tarixiy-huquqiy fanlar yuridik oliy ta'lim muassasalari o'quv rejalari-ga kiritilganiga qariyb 80–85 yil bo'lgan. Bu davr mobaynida mamlakatimizning ko'plab yetakchi

¹ O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi: "O'zbekiston Respublikasida tarix fani sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" loyihasi, 17.03.2021. URL: <https://regulation.gov.uz/uz/d/31751>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrda PF-232-son Farmoni. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7864099>.

³ Muqimov Z. "Tarixiy-huquqiy fanlar o'quv kurslari emasmi?" – SamDU, 2026.

⁴ O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>.

⁵ Nicholas B. An Introduction to Roman Law. Oxford, 1962; Borkowski A., du Plessis P. Textbook on Roman Law. Oxford, 2020.

huquqshunos olimlari aynan tarixiy-huquqiy yoʻnalishda ilmiy maktab yaratganlar. Oʻzbekistonning davlat va huquq tarixi boʻyicha darsliklar, oʻquv qoʻllanmalar, manbalar majmuasi yaratilgan. Shunday ekan, mazkur fanlarga faqat oʻquv yuklamasini qisqartirish nuqtai nazaridan qarash ilmiy meros va pedagogik tajribaga yetarlicha eʼtibor bermaslik boʻladi⁶.

Oliy taʼlim davlat taʼlim standarti oʻquv rejalarini va fanlar dasturlari mazmuniga umumiy talablar qoʻyadi, kadrlar tayyorlash sifati, taʼlim mazmuni va bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini nazarda tutadi⁷. Demak, oʻquv rejalarini ishlab chiqishda faqat soatlar sonini mexanik qisqartirish emas, balki har bir fan boʻyicha shakllantiriladigan kompetensiyalar, kasbiy tafakkur va ilmiy dunyoqarashning mazmuniy natijasi hisobga olinishi lozim.

Soʻnggi yillarda ayrim oʻquv rejalarida “Oʻzbekiston davlati va huquqi tarixi”, “Chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi” hamda “Rim huquqi” fanlarini bir blokka birlashtirish, auditoriya soatlarini keskin kamaytirish, maʼruza yuklamasini qisqartirish yoki ayrim kurs ishlarini bekor qilish holatlari kuzatilmoqda. Bunday yondashuv talabalarning mustaqil taʼlimiga haddan tashqari katta yuk yuklaydi, biroq murakkab tarixiy-huquqiy materialni ustoz rahbarligida izchil oʻzlashtirish imkonini kamaytiradi.

Kredit-modul tizimi oʻz mohiyatiga koʻra talabaning mustaqil ishini kuchaytiradi. Biroq bu tizim murakkab nazariy fanlarda auditoriya mashgʻulotlarini asossiz kamaytirish degani emas. Aksincha, kredit-modul tizimida maʼruza, seminar, mustaqil taʼlim va baholash oʻzaro bogʻlangan boʻlishi kerak. Talaba mustaqil ishlashi uchun avvalo metodik yoʻnalish, asosiy manbalar, muammoli savollar va tahlil uslubini olishi zarur. Tarixiy-huquqiy fanlarda bu vazifani malakali professor-oʻqituvchi ishtirokisiz toʻliq bajarish qiyin.

Shu jihatdan oʻquv rejasida tarixiy-huquqiy fanlar soatlari qisqartirilsa, ularning mazmuni ham, metodik yuki ham qayta ishlab chiqilishi, yagona konsepsiya va dastur asosida muhokama qilinishi lozim. Aks holda uchta mustaqil kursni bitta nom ostida oʻqitish, aslida, mazmuniy inte-

gratsiya emas, balki mavzularning qisqarishi va tarixiy-huquqiy tafakkurning soddalashtirilishiga olib keladi.

Tarixiy-huquqiy fanlarni birlashtirish masalasiga ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak. Chunki “Oʻzbekiston davlati va huquqi tarixi” milliy tarixiy-huquqiy taraqqiyotni, “Chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi” qiyosiy tarixiy tajribani, “Rim huquqi” esa xususiy huquqning klassik asoslarini oʻrganadi. Ularning predmeti, manbalari, metodlari va didaktik vazifalari bir-biriga yaqin boʻlsa-da, aynan bir xil emas.

Agar ushbu uchta kurs mexanik tarzda qoʻshilib, umumiy nom ostida qisqartirilgan soatlarda oʻqitilsa, talaba na milliy davlatchilik tarixini yetarli oʻrganadi, na jahon huquqiy tizimlarining rivojini qiyosiy tahlil qila oladi, na Rim huquqining zamonaviy fuqarolik huquqiga taʼsirini anglaydi. Natijada tarixiy-huquqiy fanlar oʻzining asosiy maqsadi — huquqshunos tafakkurini tarixiy, qiyosiy va nazariy asosda shakllantirish vazifasini toʻliq bajara olmaydi.

Rim huquqining oʻquv rejasidagi oʻrni alohida eʼtiborga loyiq. Oʻzbekiston huquq tizimi koʻplab belgilari bilan romano-german huquq oilasiga yaqin boʻlganligi sababli Rim huquqini chuqur oʻrganish fuqarolik huquqi, shartnoma huquqi, mulk huquqi va majburiyat huquqi institutlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega⁸. Bu kursni boshqa tarixiy fanlarga qoʻshib yuborish, xususiy huquq nazariyasining tarixiy ildizlarini yetarli oʻrganmaslik xavfini tugʻdiradi.

Chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi ham alohida metodik yondashuvni talab qiladi. U faqat “boshqa davlatlar tarixi” emas, balki davlat-huquqiy institutlarning turli sivilizatsiyalar, siyosiy rejimlar va huquqiy oilalarda qanday shakllanganini oʻrgatadigan qiyosiy fan hisoblanadi. Mazkur kurs orqali talaba davlat shakllari, huquq manbalari, sud tizimlari, konstitutsiyaviy rivojlanish va huquqiy madaniyatlar xilma-xilligini anglaydi.

Oʻzbekiston davlati va huquqi tarixi esa milliy huquqiy merosni ilmiy asosda oʻrganishning tayanch kursidir. U qadimgi davrlar, oʻrta asrlar, xonliklar va amirliklar, chor Rossiyasi, sovet

⁶ Muqimov Z. Oʻzbekiston davlati va huquqi tarixi. Darslik. — Samarqand: SamDU nashri.

⁷ Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi 343-son qarori. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-361387>.

⁸ David R., Jauffret-Spinozi C. Les grands systèmes de droit contemporains. Paris, 2002; Zweigert K., Kötz H. Introduction to Comparative Law. Oxford, 1998.

davri va mustaqillik bosqichidagi davlat-huquqiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu kurs talabalarda O'zbekiston davlatchilik an'analari, huquqiy institutlar va siyosiy-huquqiy tajriba haqida tizimli tasavvur hosil qiladi. Shu bois uni boshqa kurslar ichida "erib ketadigan" mavzular yig'indisiga aylantirish ilmiy jihatdan o'zini oqlamaydi.

Alohida e'tibor qaratgan masalalardan biri — "xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi" iborasining qo'llanishidir. "Xorijiy" so'zining kelib chiqishi va semantikasi yuzasidan turli fikrlar mavjud bo'lsa-da, o'zbek tilining an'anaviy ifoda imkoniyatlaridan kelib chiqib "Chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi" nomini maqsadga muvofiq deb bilamiz. Bu taklifning mohiyati fan nomining aniq, tushunarli va ona tilimizga yaqin bo'lishini ta'minlashdan iborat.

Fan nomi oddiy texnik masala emas. Nom fan predmeti, o'qitish metodikasi va talabaning dastlabki tasavvurini shakllantiradi. "Chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi" nomi mazkur kursning milliy huquq tarixi bilan qiyosiy aloqasini, ya'ni O'zbekiston davlati va huquqi tarixidan tashqaridagi davlat-huquqiy tajribani o'rganishini ravshanroq ifodalaydi. Shu sababli fanlar nomini belgilashda ham til madaniyati, ilmiy aniqlik va metodik izchillik inobatga olinishi lozim.

Agar muayyan sabablarga ko'ra uchta tarixiy-huquqiy kursning auditoriya soatlarini qisqartirish zarur deb topilsa, bunday qaror konseptual tarzda asoslanishi kerak. Masalan, Turkiya yoki ayrim boshqa mamlakatlar tajribasida "Huquq tarixi" nomi ostida integratsiyalashgan kurs o'qitilishi mumkin. Biroq bunday integratsiya avvalo yagona dastur, qiyosiy metodika, darslik va o'quv-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgandan keyingina samarali bo'ladi. Aks holda nomni o'zgartirish mazmuniy yangilanishni emas, faqat formal qisqartirishni anglatadi.

Ilmiy aniqlik masalasi manbalar bilan ishlashda ham ko'rinadi. Sobiq sovet davrida ayrim darsliklarda O'rta Osiyo xalqlarining huquqiy manbalari faqat Qur'on, unga berilgan sharhlar va "Hidoya"dan iborat degan tor yondashuvlar uchragan. Bunday qarashlar tarixiy-huquqiy manbalar xilma-xilligini to'liq aks ettirmagan. Bugun

esa milliy davlatchilik va huquqiy merosni keng manbashunoslik asosida o'rganish zarur. Bu vazifa tarixiy-huquqiy fanlarni kuchaytirishni talab qiladi⁹.

Kredit-modul tizimi ta'lim jarayoniga erkinlik, moslashuvchanlik va talaba faolligini olib kiradi. Shu bilan birga, mazkur tizimni noto'g'ri talqin qilish tarixiy-huquqiy fanlar kabi murakkab kurslarda salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Xususan, fan o'qituvchisini yakuniy baholash jarayonidan chetlashtirish, baholashni mutaxassis bo'lmagan shaxslar yoki tasodifiy komissiyalar zimmasiga yuklash metodik izchillikni buzadi.

Tarixiy-huquqiy fanlarda baholash faqat faktarlarni eslab qolishni tekshirish emas. U talabaning huquqiy institutlar evolyutsiyasini tahlil qila olishi, tarixiy manbani sharhlay olishi, milliy va jahon tajribasini qiyoslay olishi, huquqiy hodisalarni davr ruhida tushuntira olishini aniqlashi kerak. Bunday kompetensiyalarni adolatli baholash uchun fan metodikasini biladigan mutaxassis professor-o'qituvchi ishtiroki zarur.

Shu o'rinda PF-232-son Farmonda belgilangan ta'lim — tadqiqot — amaliyot integratsiyasi g'oyasi tarixiy-huquqiy fanlar uchun ham dolzarbdur¹⁰. Tarixiy manbalar bilan ishlash, qadimgi va o'rta asr huquqiy hujjatlarini tahlil qilish, sud va boshqaruv institutlarining rivojini o'rganish talabaning tadqiqotchilik ko'nikmalarini oshiradi. Demak, tarixiy-huquqiy fanlar amaliyotdan uzilgan nazariy kurslar emas; ular huquqiy fikrlash va tadqiqot madaniyatini shakllantiruvchi tayanch fanlardir.

Kredit-modul tizimi sharoitida tarixiy-huquqiy fanlar bo'yicha o'quv-metodik majmualar, elektron resurslar, manbalar to'plami, xaritalar, xronologik jadvallar, kazus va qiyosiy tahlil topshiriqlari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Shunda mustaqil ta'lim formal ko'rsatkich emas, balki mazmunli ilmiy izlanish shakliga aylanadi. Bunday yondashuv xalqaro ta'lim standartlarida ham ko'zda tutilgan kompetensiyaviy natijalarga yaqinlashadi¹¹.

60420100 — Yurisprudensiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari yuridik kadrlar tayyorlashning kasbiy faoliyat sohalari, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish uchun asos bo'ladigan

⁹ Tarix fani konsepsiyasi loyihasida o'zbek davlatchiligining tarixiy o'rnini ilmiy asoslash vazifasi ko'rsatilgan. URL: <https://regulation.gov.uz/uz/d/31751>.

¹⁰ PF-232-son Farmonda yuridik ta'lim — tadqiqot — amaliyot integratsiyasi asosiy vazifalar qatorida belgilangan.

¹¹ UNESCO. International Standard Classification of Education ISCED 2011. URL: <https://uis.unesco.org/sites/default/files/documents/international-standard-classification-of-education-isced-2011-en.pdf>.

talablarni belgilayd¹². Bunday hujjatlar yuridik ta'limni standartlashtirishda muhim bo'lsa-da, ularni ishlab chiqishda soha mutaxassislari, fan professor-o'qituvchilari va amaliyot vakillari fikri chuqur hisobga olinishi lozim.

Bizning asosiy e'tirozi shundaki, ayrim o'quv rejalarida tarixiy-huquqiy fanlar soatlari yilma-yil o'zgarib, barqaror pedagogik tizim shakllanishiga xalaqit bermoqda. Bir o'quv yilida ko'proq, keyingi yilda esa ancha kam auditoriya soati belgilanishi fan dasturlarining izchilligini buzadi. Yuridik ta'lim kamida 4–5 yilga mo'ljallangan barqaror konsepsiyaga ega bo'lishi, o'quv rejalaridagi keskin o'zgarishlar esa ilmiy asos va keng muhokamaga tayanishi kerak.

O'quv rejasida iqtisodiy nazariya, jinoyat-ijroiya huquqi, kriminalistika, kriminologiya, islom huquqi, Rim huquqi, siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi kabi fanlarning o'zni masalasi ham jiddiy tahlil qilinishi lozim. Huquqshunos mutaxassis sud, prokuratura, advokatura, notariat va boshqa yuridik sohalarida ishlashi mumkin ekan, uning nazariy, tarixiy, protsessual, kriminalistik va qiyosiy-huquqiy tayyorgarligi muvozanatli bo'lishi zarur¹³.

Yuridik ta'lim faqat tor amaliy ko'nikmalar yig'indisi emas. Huquqshunos davlat, jamiyat, shaxs, mulk, javobgarlik, adolat, protsess, sud hokimiyati kabi tushunchalarning tarixiy va nazariy asoslarini bilmasa, amaldagi normani ham keng ijtimoiy-huquqiy kontekstda talqin qila olmaydi. Shu ma'noda tarixiy-huquqiy fanlarning qisqarishi boshqa fanlar mazmuniga ham bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqishda fanlar o'rtasidagi "ichki raqobat"ga yo'l qo'ymaslik kerak. Har bir kafedra yoki mutaxassislik "ko'rpani o'ziga tortishi" emas, balki yuridik kadr tayyorlashning umumiy manfaatidan kelib chiqishi lozim. Ta'lim standarti, malaka talabi va o'quv rejalarini ilmiy muhokama, taqqoslash, ekspertiza va amaliy ehtiyojlar asosida ishlab chiqilgandagina samarali bo'ladi¹⁴.

Birinchidan, "O'zbekiston davlati va huquq tarixi" barcha yuridik oliy ta'lim muassasalari

uchun mustaqil va majburiy tayanch kurs sifatida saqlanishi lozim. Bu fan milliy davlatchilik va huquqiy merosni o'rganish, talabalarda Vatanga sadoqat, tarixiy xotira va huquqiy madaniyatni shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, "Chet mamlakatlar davlati va huquq tarixi" qiyosiy-huquqiy tafakkurni shakllantiruvchi fan sifatida alohida metodik maqomga ega bo'lishi kerak. Mazkur fan orqali talaba turli huquqiy oilalar, davlat boshqaruvi shakllari, sud-huquq tizimlari va konstitutsiyaviy rivojlanish bosqichlarini o'rganadi. Qiyosiy yondashuv bo'lajak huquqshunosning milliy huquqni kengroq ko'rishiga yordam beradi¹⁵.

Uchinchidan, "Rim huquqi"ni tarixiy-huquqiy fanlar blokida yo'qotib yubormaslik zarur. Rim huquqi xususiy huquq tarixining klassik manbasi bo'lib, shartnoma, mulk, vorislik va majburiyat institutlari nazariyasini tushunishda muhim o'rin tutadi¹⁶. Shu sababli bu fan kamida xususiy huquq fanlari bilan uzviy bog'langan alohida modul sifatida o'qitilishi kerak.

To'rtinchidan, agar tarixiy-huquqiy fanlar integratsiyalashgan holda o'qitilishi zarur deb topilsa, avvalo "Huquq tarixi" nomidagi konseptual kurs dasturi, yagona darslik, o'quv-uslubiy majmua va baholash mezonlari ishlab chiqilishi lozim. Bunda integratsiya fanlarning mazmunini qisqartirish emas, balki ularni mantiqan bog'lash, qiyosiy tahlilni kuchaytirish va talabaning mustaqil izlanishiga yo'l ochish maqsadida amalga oshirilishi kerak.

Beshinchidan, yakuniy nazorat va baholashda fan o'qituvchisi yoki shu soha mutaxassisi ishtiroki majburiy bo'lishi lozim. Tarixiy-huquqiy fanlar bo'yicha bilimni baholashda matnni yodlash emas, balki tarixiy manba, huquqiy institut, davlatchilik shakli va qiyosiy-huquqiy bog'liqlikni tahlil qila olish mezon sifatida olinishi kerak.

Oltinchidan, tarixiy-huquqiy fanlarning zamonaviy o'qitilishi raqamli resurslar, arxiv hujjatlari, tarixiy xaritalar, huquqiy manbalar bazasi, elektron testlar va keyslar bilan boyitilishi mumkin. Biroq texnologiya fanning mazmunini almashtirmaydi; u faqat mazmunni

¹² 60420100 – Yurisprudensiya bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talabi. Toshkent, 2024. URL: https://api.uwed.uz/upload/file_manager/14-09-2024/60420100.pdf.

¹³ 60420100 – Yurisprudensiya malaka talabi kasbiy faoliyat sohalarini va o'quv reja ishlab chiqish asoslarini belgilaydi.

¹⁴ Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni va bitiruvchi tayyorgarligiga umumiy talablarni belgilaydi. Qarang: VMQ 343-son.

¹⁵ Twining W. General Jurisprudence: Understanding Law from a Global Perspective. Cambridge, 2009.

¹⁶ Watson A. Roman Law and Comparative Law. Athens: University of Georgia Press, 1991.

chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qiluvchi vosita bo'lishi kerak¹⁷.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy-huquqiy fanlar yuridik ta'lim tizimining oddiy qo'shimcha kurslari emas, balki huquqshunos shaxsini shakllantiruvchi ilmiy, metodik va tarbiyaviy tayanchdir. Bu fanlar bo'lajak yuristga davlat va huquqning paydo bo'lishi, rivojlanishi, huquqiy institutlarning tarixiy ildizi va milliy davlatchilik tajribasini anglash imkonini beradi. Shuning uchun ularni o'quv rejasida asossiz qisqartirish yoki bir-biriga mexanik tarzda qo'shib yuborish yuridik ta'limning mazmuniy sifatiga zarar yetkazishi mumkin.

Yuridik ta'limni isloh qilish jarayonida amaliyot, klinik va dual ta'lim, sun'iy intellekt texnologiyalari va zamonaviy o'qitish usullarini joriy etish zarur. Biroq bu jarayon tarixiy-huquqiy tayanchni

zaiflashtirish hisobiga emas, balki uni zamonaviy kompetensiyalar bilan uyg'unlashtirish asosida amalga oshirilishi kera¹⁸. Huquqshunos amaldagi normani bilishi bilan birga, uning tarixiy ildizini, ijtimoiy vazifasini va qiyosiy-huquqiy o'rnini ham tushunishi lozim.

Demak, "O'zbekiston davlati va huquqi tarixi", "Chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi" va "Rim huquqi" fanlarini o'qitish masalasi faqat o'quv soatlari masalasi emas. Bu — yuridik ta'limning mazmuni, huquqshunosning tarixiy xotirasi, milliy davlatchilikni ilmiy anglash va huquqiy madaniyatni rivojlantirish masalasidir. Mazkur fanlar saqlanishi, yangilanishi, metodik jihatdan boyitilishi va malakali mutaxassislar tomonidan o'qitilishi yuridik ta'lim sifatining muhim kafolatlaridan biri bo'lib qoladi¹⁹.



¹⁷ PF-232-son Farmon: yuridik ta'limda amaliy komponentlarni kengaytirish tarixiy-huquqiy tayanch bilan uyg'unlashishi lozim.

¹⁸ PF-232-son Farmonning 1-ilovasida yuridik ta'lim va ilm-fanni isloh qilish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlangan.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-637.

Zamonaviy huquqiy davlatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalalari

MURODOVA Elmira Muxiddin qizi,

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti
„Davlat va huquq asoslari“ kafedrası o'qituvchisi,
murodova_elmira@tersu.uz

Annotatsia: Maqolada zamonaviy huquqiy davlatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishning kontseptual muammolarini tadqiq qilinadi. Metodologiya sifatida huquqiy normalarni tizimli talqin qilish, qiyosiy-huquqiy tahlil va ilmiy manbalarni sintez qilishdan foydalanilgan. Asosiy natija sifatida ta'lim, ommaviy axborot va davlat xizmatlari sifatini bog'lovchi ko'p darajali mexanizm asoslangan.

Kalit so'zlar: huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy davlat, huquqiy ijtimoiylashuv, huquqni qo'llash, yuridik ta'lim, huquqiy kommunikatsiya

Аннотация: Цель данной статьи — выявить теоретические основы и практические механизмы повышения правовой осведомленности и правовой культуры в условиях современного правового государства. В исследовании используется нормативно-правовой анализ, сравнительный подход и доктринальное обобщение. В результате предложена гармоничная модель правовой социализации, институциональной коммуникации и качества правоприменения.

Ключевые слова: правовое сознание, правовая культура, правовое государство, правовая социализация, правоприменение, юридическое образование, правовая коммуникация

Kirish

Zamonaviy huquqiy davlat konsepsiyasida huquq ustuvorligi nafaqat normativ hujjatlarning mukammalligi, balki ushbu normalarning jamiyat tomonidan anglanishi va kundalik xulq-atvorga singishi bilan baholanadi. Shu ma'noda huquqiy ong va huquqiy madaniyat huquqiy tizimning "yumshoq infratuzilmasi" bo'lib, ularning pastligi qonunlarning formal ijrosi bilan real ijtimoiy tartib o'rtasida tafovutni kengaytiradi. Ilmiy adabiyotlarda huquqiy ong odatda shaxs va guruhlarining huquq haqidagi bilimlari, qadriyatli munosabati hamda huquqiy xulqni ichki asoslash qobiliyati sifatida izohlanadi; huquqiy madaniyat esa bundan kengroq bo'lib, institutlar faoliya-

ti, huquqiy muloqot uslublari, nizolarni hal etish amaliyoti va huquqiy qadriyatlarning ijtimoiy uzatilishini qamrab oladi¹. Biroq muammo shundaki, ko'plab tadqiqotlar huquqiy ongni ko'proq ta'lim va targ'ibot bilan bog'laydi, huquqiy madaniyatni esa abstrakt "umumiy saviya" sifatida ta'riflash bilan cheklanadi; natijada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishning institutsional mexanizmlari, ularning o'zaro sabab-oqibat aloqalari hamda baholash mezonlari etarli darajada aniq belgilab berilmaydi. Shuningdek, huquqni qo'llash amaliyotidagi sifat masalasi, davlat xizmatlarining fuqaroga yo'naltirilganligi va sud-huquq tizimiga ishonch kabi omillar huquqiy madaniyatga bevosita ta'sir qilsa-da, ular ko'pincha alohida yo'na-

¹ Islomov Z. M. Davlat va huquq nazariyasi. Toshkent, Adolat, 2007. 544 b.

lishlar sifatida ko'rib chiqiladi va yagona konseptual modelga jamlanmaydi².

Maqolaning maqsadi huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning nazariy asoslarini aniqlash, ularning zamonaviy huquqiy davlat institutlari bilan funksional bog'lanishini ko'rsatish va amaliy mexanizmlarni tizimlashtirishdan iborat.

Ushbu maqsad quyidagi vazifalar orqali ochib beriladi: birinchidan, huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalarining farqli va tutash jihatlari huquq nazariyasi doirasida aniqlashtirish; ikkinchidan, huquqiy ijtimoiylashuvning asosiy kanallarini va ular orqali huquqiy qadriyatlarning uzatilish mexanizmini asoslash; uchinchidan, huquqni qo'llash sifati va institutsional ishonchning huquqiy madaniyatga ta'sir yo'llarini tizimlashtirish; to'rtinchidan, amaliyot uchun integratsiyalashgan takliflar paketini konseptual model ko'rinishida bayon etish.

Asosiy qism

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishi hamda rivojlanishi huquqiy davlat barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu hodisaning mazmunini to'liq anglash uchun huquqiy ongning nazariy jihatlari bilan bir qatorda, uning jamiyat hayotida qanday namoyon bo'lishi, huquqiy madaniyat bilan o'zaro bog'liqligi hamda huquqni qo'llash amaliyoti bilan aloqadorligini ilmiy jihatdan tahlil qilish zarur. Bu tahlil davomida davlat va huquq nazariyasi metodlaridan foydalaniladi.

Shu maqsadda huquq nazariyasiga asoslangan doktrinal yondashuv qo'llanilib, normativ-huquqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy usul va analitik umumlashtirish metodlari orqali huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanish mexanizmlari tizimli ravishda o'rganildi.

Ma'lumki, huquq nazariyasi va davlat-huquqiy institutlar haqidagi doktrinal yondashuvga tayan-gan holda quriladi. Avvalo normativ-huquqiy tahlil usuli qo'llanib, huquqiy ong va huquqiy madaniyat bilan bog'liq kategoriyalar, ularning huquqiy davlat konsepsiyasidagi o'рни hamda institutlar faoliyatida namoyon bo'lish shakllari tizimli talqin qilindi. Ushbu usul tanlanishining sababi shundaki, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, garchi ijtimoiy hodisa bo'lsa-da, huquq tizimi tomonidan belgilangan me'yorlar va kafolatlar orqali shakllanadi; demak, normativ qatlamni

aniqlashtirmasdan turib, amaliy mexanizmlarni asoslash metodik jihatdan to'liq bo'lmaydi.

Qiyosiy-huquqiy yondashuv yordamida, huquqiy madaniyatni oshirishga doir umumiy nazariy tamoyillarni turli huquqiy an'analarning institutsional echimlari bilan tenglashtirish im-koni paydo bo'ladi. Maqsad – boshqa tizimdagi "o'xshash institutlar"dan to'liq nusxa olish emas, balki, fuqaroga tushunarli huquqiy axborot, sudga murojaat qilish qulayligi, ma'muriy tartib-taomil-larning aniqligi va huquqiy yordamning kirish-liligi kabi umumiy mezonlar asosida kontseptu-al xulosalarga kelish. Doktrinal sintez usuli esa, huquqiy ongning kognitiv va aksiologik tarkibiy qismlarini huquqiy madaniyatning institutsional tarkibiy qismlari bilan birlashtirishga yordam be-radi va natijada o'rta darajadagi izohli model vu-jdga keladi.

Empirik ma'lumot to'plash ko'zda tutilmagan bo'lsa ham, tadqiqotda analitik umumlashtirish usuli ishlatildi. Natijada huquqni qo'llash amali-yotida ilmiy manbalarda ko'p uchraydigan tipik muammolar – protsessual standartlarning barqa-rorligi, qarorlar asosining ravshanligi, idoraviy tartib-taomillarning shaffofligi va murojaatlarni ko'rib chiqish madaniyati – huquqiy madaniyat-ga ta'sir qiluvchi institutlararo mexanizm sifatida tizimlashtirildi.

Umuman, tanlangan metodlarning majmua-si maqoladagi asosiy maqsadga to'g'ri keladi. U tushunchaviy aniqlikni, institutsional tahlilni va amaliy tavsiyalarni bir-biriga bog'lab turuvchi uzviy mantiqiy zanjir yaratadi. Tadqiqot jarayoni-da huquqiy ong va huquqiy madaniyat o'rtasida-gi farqni aniqroq belgilash zarurati yuzaga keldi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, huquqiy ong asosan individ va ijtimoiy guruhlar darajasida shakllanib, u huquqiy bilim, huquqqa nisbatan baho berish hamda huquqqa muvofiq harakat qilishga ichki tayyorgarlikning birligi sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni shaxs huquqni biladi, uni qadrlaydi va unga amal qilishni majburiyat emas, balki ichki ehtiyoj sifatida qabul qiladi.

Huquqiy madaniyat esa bu jarayonning jami-yat miqyosida qanday namoyon bo'lishi bilan bog'liq. U huquqiy institutlar faoliyati, odamlar-ning huquqiy masalalarda qanday muloqot qilishi, nizolarni qanday hal etishi, huquqiy xizmatlardan qay darajada foydalanishi hamda huquqni qo'l-lashda adolat va asoslantirish qanchalik ta'min-

² Марченко М. Н. Теория государства и права. Москва, Проспект, 2019. 656 с.

lanishi orqali ko'rinadi. Shu sababli huquqiy ong ko'proq shaxsning ichki qarashlari bilan bog'liq bo'lsa, huquqiy madaniyat jamiyatdagi umumiy huquqiy muhitning darajasini ifodalaydi. Bu esa huquqiy madaniyatni baholashda nafaqat odamlarning fikri, balki institutlar faoliyati ham muhim ekanini ko'rsatadi.

O'rganishlar huquqiy ongning shakllanishi bir nechta yo'nalish orqali kechishini ham ko'rsatdi. Eng avvalo, huquqiy bilim berish bilan bog'liq ta'limiy omil muhim hisoblanadi. Bunda faqat qonunlarni yodlash emas, balki huquqiy fikrlash, dalil keltirish, adolat tushunchasini anglash va protseduralarga hurmat bilan qarashni shakllantirish zarur. Shu bilan birga, huquqiy ong faqat ta'lim orqali emas, balki amaliy tajriba orqali ham shakllanadi. Fuqarolarning davlat organlariga murojaat qilishi, sud jarayonida ishtirok etishi, shartnoma tuzishi yoki turli rasmiy tartib-taomillardan o'tishi jarayonida orttirgan tajribasi huquqqa bo'lgan munosabatga kuchli ta'sir qiladi. Agar bu jarayonlar tushunarli va adolatli bo'lsa, odamda qonunga nisbatan ishonch ortadi, aks holda esa befarqlik yoki ishonchsizlik paydo bo'lishi mumkin. Huquqiy ongning shakllanishida axborot va muloqot muhiti ham katta rol o'ynaydi.

Davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari orqali huquqiy ma'lumotlarning ochiq va tushunarli berilishi odamlarning huquqqa bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Ta'lim, amaliy tajriba va axborot muhiti bir-biriga bog'liq holda ta'sir qiladi va ularning uyg'unligi huquqiy madaniyatning barqaror rivojlanishiga olib keladi. Tahlillar shuni ham ko'rsatdiki, huquqiy madaniyat darajasi ko'p jihatdan huquqni qo'llash sifati bilan belgilanadi. Qonunlarning mavjudligi etarli emas, ularni qo'llash jarayoni ham tushunarli, izchil va adolatli bo'lishi kerak. Qarorlarning asoslantirilishi, protseduralarning aniq belgilanishi, o'xshash vaziyatlarda bir xil yondashuvning qo'llanishi, fuqarolarga hurmat bilan munosabatda bo'lish kabi omillar odamlarning qonunga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Aksincha, tartib-taomillar murakkab yoki tushunarsiz bo'lsa, yoki qonunlar turlicha qo'llansa, odamlar huquqni qadriyat sifatida emas, balki majburiy to'siq sifatida qabul qila boshlaydi. Shu sababli huquqiy madaniyatni oshirish faqat targ'ibot bilan emas, balki huquqni qo'llash jarayonini yanada ochiq, sodda va adolatli qilish bilan

bog'liq bo'lishi kerak. Olib borilgan tahlillar asosida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan yagona yondashuv ishlab chiqildi.

Ushbu yondashuv huquqiy savodxonlikni oshirish, fuqarolarning huquqiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish hamda huquqni qo'llash jarayonida shaffoflik va xolislikni kuchaytirishni o'z ichiga oladi. Bu yo'nalishlar bir-biriga bog'liq bo'lib, ularning biridagi o'zgarish boshqasiga ham ta'sir qiladi. Natijada jamiyatda huquqqa bo'lgan ishonch ortadi va huquqiy xulq-atvor tobora ongli va ixtiyoriy tus oladi. Shu tariqa, huquqiy madaniyatni faqat ma'naviy holat sifatida emas, balki huquqiy institutlar faoliyati, fuqarolarning tajribasi va jamiyatdagi huquqiy muhit bilan bog'liq bo'lgan murakkab tizim sifatida ko'rish zarurligi aniqlandi.

Bu yondashuv huquqiy davlatni mustahkamlash jarayonida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni birgalikda rivojlantirish muhim ekanini ko'rsatadi. Olingan natijalar huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o'zaro aloqasini faqat "bilim ko'payishi" orqali izohlash etarli emasligini ko'rsatadi. Huquq nazariyasida huquqiy ongning tarkibiy tuzilishi, ayniqsa uning kognitiv va qadriyatli jihatlarini masalasi keng muhokama qilingan. Biroq ushbu yondashuvlar amaliyotga tatbiq etilganda ko'pincha ta'limiy chora-tadbirlar bilan cheklanadi va huquqni qo'llash sifati huquqiy ongni shakllantiruvchi mustaqil omil sifatida ikkinchi planga tushib qoladi.

Bizning modelda esa tajribaviy kanal alohida ajratildi: fuqarolar uchun huquqning "haqiqiy mazmuni" ko'p hollarda normativ matnda emas, balki murojaatiga berilgan javobda, sud qarorining asoslantirilishida, idoraning muloqot uslubida namoyon bo'ladi. Shu bois huquqiy ongni oshirish bo'yicha konsepsiyalar huquqni qo'llash madaniyati bilan uyg'unlashmasa, kutilgan natija qisqa muddatli bo'lib qoladi.

Huquqiy davlat nazariyasida institutlarning legitimligi va fuqarolarning ishonchi masalasi markaziy o'rinda turadi³. Xususan, xalqaro adabiyotlarda huquq ustuvorligi ko'rsatkichlari nafaqat normativ bazaning mavjudligi, balki sudlar mustaqilligi, protsessual kafolatlar va huquqiy himoyaga kirish imkoniyati kabi amaliy mezonlar orqali baholanadi⁴. Bu pozitsiyani huquqiy madaniyat masalasi bilan bog'lab tahlil qilinganda, shun-

³ Raz E. The Authority of Law: Essays on Law and Morality. Oxford, Oxford University Press, 2009. 336 p.

⁴ Fuller L. L. The Morality of Law. New Haven, Yale University Press, 1969. 202 p.

day xulosa kelib chiqadiki, huquqiy madaniyatni oshirishning “ko‘rinmas” mexanizmi fuqarolar-ning institutlar bilan kundalik aloqasida ishlaydi: u erda adolatlilik va tushunarlilik standartlari qanchalik yuqori bo‘lsa, shunchalik huquqiy qadriyatlar ichkilashtiriladi. Bizning natijalar ushbu g‘oyani rivojlantirib, huquqiy madaniyatni institutlararo kommunikatsiya sifati bilan bog‘laydi, ya‘ni davlat organlarining huquqiy axborotni soddada tilda etkazishi, qarorlarni tushuntirishi, protseduralarni oldindan aytib berishi huquqiy ongning kognitiv qatlamini mustahkamlash bilan birga, qadriyatli qatlamni ham oziqlantiradi.

Rossiya huquqshunosligida huquqiy ong va huquqiy madaniyat muammosi ko‘pincha jamiyatning huquqiy rivojlanish darajasi va huquqiy tarbiya bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy masala sifatida ko‘riladi⁵. Mazkur yondashuvning kuchli tomoni shundaki, u huquqiy madaniyatni keng ijtimoiy kontekstga joylaydi va huquqiy qadriyatlarning avlodlararo uzatilishini tushuntiradi. Biroq u ba‘zan institutsional dizaynning aniq elementlarini, masalan, ma‘muriy tartib-taomillarning fuqaroga qulayligi, qarorlarni shikoyat qilish mexanizmlarining ishlashi, huquqiy yordam xizmatlarining sifati kabi “texnik” ko‘rinadigan, ammo mazmunan madaniyatni belgilovchi omillarni etarlicha ochmaydi. Bizning taklif etilgan uch pog‘onali model aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga urinadi: huquqiy tarbiya va huquqiy amaliyotni bir-birini kuchaytiruvchi tizim sifatida ko‘rsatish orqali huquqiy madaniyatni oshirishning boshqariladigan nuqtalarini aniqlaydi.

O‘zbekiston huquqshunosligida huquqiy ongni yuksaltirish masalasi ko‘pincha huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning zarur sharti sifatida talqin qilinadi. Bu erda asosiy urg‘u huquqiy ta‘lim, huquqiy targ‘ibot va yuridik kadrlar tayyorlashga qaratiladi. Ushbu yondashuvning ilmiy va amaliy ahamiyati katta, ammo zamonaviy sharoitda huquqiy axborotning ko‘payishi o‘zi etarli emasligi tobora ravshanlashmoqda: fuqarolar ko‘p ma‘lumot olishi mumkin, lekin agar institutlar bilan muloqotda protsessual noaniqlik yoki tushuntirish etishmasa, bu ma‘lumot huquqiy xulqqa aylanmasligi ehtimoli yuqori. Shuning uchun maqolada taklif etilgan integratsiyalashgan model huquqiy savodxonlikni davlat xizmatlarining huquqiy dizayni bilan bog‘laydi; bunda “fuqaroga yo‘naltirilganlik” huquqiy madaniyatni oshirishning normativ shiori emas, balki huquqiy

ongning tajribaviy kanali orqali ishlaydigan real mexanizm sifatida tushuniladi.

Xalqaro tadqiqotlarda huquqiy madaniyat tushunchasi ko‘pincha “huquqiy ongning kollektiv shakli” yoki “huquqning kundalik hayotdagi ishlash uslubi” sifatida izohlanadi⁶. Ushbu nuqtai nazar bizning natijalar bilan mos tushadi, chunki unda huquqiy madaniyat faqat qonunlarga hurmat bilan emas, balki huquqiy institutlarning odatiy ishlash tartibi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, bunday yondashuv ba‘zan normativ mezonlarni chetga surib, har qanday mavjud amaliyotni “madaniyat” deb qabul qilish xavfini tug‘diradi.

Bizning tahlilda esa huquqiy madaniyatni baholashda protsessual adolatlilik, asoslantirish, shaffoflik va kirishlilik kabi mezonlar markazga qo‘yiladi; bu mezonlar huquqiy davlat g‘oyasining institutsional minimumi sifatida qaraladi va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning yo‘nalishini aniq belgilab beradi.

Xulosa

Tadqiqot zamonaviy huquqiy davlat sharoitida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalasi ko‘p omilli va institutsional xususiyatga ega ekanini asoslab berdi. Huquqiy ong shaxs va guruhlar darajasida huquqiy bilim, qadriyat va motivatsiyaning birligi sifatida, huquqiy madaniyat esa ushbu birlikning institutlar, protseduralar va huquqiy muloqot orqali jamiyat miqyosida takror ishlab chiqarilishi sifatida konseptual aniqlashtirildi. Huquqiy ijtimoiylashuvning ta‘limiy, tajribaviy va kommunikativ kanallari o‘zaro bog‘liq ekani, ayniqsa tajribaviy kanal orqali huquqni qo‘llash sifati fuqarolarning ishonchi va huquqiy xulqini belgilashi ko‘rsatildi. Maqola natijasi sifatida huquqiy savodxonlikni rivojlantirish, huquqiy xizmatlarga kirishlilikni oshirish va huquqni qo‘llashda shaffof hamda asoslantirilgan qarorlar standartini mustahkamlashni birlashtiruvchi uch pog‘onali integratsiyalashgan model taklif etildi. Ushbu model nazariy jihatdan huquqiy ong va huquqiy madaniyat o‘rtasidagi o‘rta darajali bog‘lanishni ochib beradi, amaliy jihatdan esa huquqiy tarbiya va institutsional islohotlarning uyg‘unligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu modelning samaradorligini baholash uchun huquqiy xizmatlar tajribasi, protsessual adolatlilikni idrok etish va institutlarga ishonch o‘rtasidagi bog‘lanishlarni empirik tadqiqotlar orqali chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

⁵ Керимов Д. А. Методология права. Москва, Норма, 2011. 560 с.

O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati mexanizmlarining tadrijiy rivojlanishi

DADASHEVA Aqida Abdujabbarovna,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti professori,
yuridik fanlar doktori
Aqida777@mail.ru

Annotatsia: Maqolada O'zbekistonda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar barobarida qabul qilinayotgan qonunlar va qarorlarning tatbiq etilishida fuqarolik jamiyatining huquqiy ongi va madaniyatining muhimligi, davlat boshqaruvi va hokimiyat organlarining samarali faoliyat yuritishida jamoatchilik nazorati omili juda muhim ahamiyat kasb etishi tahlil qilingan.

Bundan tashqari, muallif unda davlat organlari rahbar-xodimlarining qonunlarga qat'iy amal qilib, o'z zimmalaridagi vazifa va majburiyatlarini mas'uliyat bilan ado etishlarida bu institutning ta'sir doirasi nihoyatda yuqoriligi bayon etilgan fikrlarni tahlil etgan.

Kalit so'zlar: Islohotlar, qonunchilik, jamoatchilik nazorati, huquqiy asoslar, huquqiy ong va madaniyat, ta'sir doirasi, majburiyatlar, jamiyat, fuqarolik jamiyati.

Аннотация: В данной статье анализируется значение правовой осведомленности и культуры гражданского общества в реализации законов и решений, принятых в процессе комплексных реформ, проводимых в Узбекистане. Фактор общественного контроля имеет большое значение для эффективного функционирования государственного управления и органов власти. Утверждается, что сфера влияния этого института чрезвычайно высока в обеспечении строгого соблюдения государственными должностными лицами законов и ответственного исполнения своих обязанностей.

Ключевые слова: Реформы, законодательство, общественный контроль, правовая основа, правовое сознание и культура, сфера влияния, обязательства, общество, гражданское общество.

O'zbekistonda keng qamrovli islohotlar davrida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati, nodavlat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalarining o'рни va rolini kuchaytirish lozim. Mamlakatda kechayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga nisbatan mas'uliyat,

tashabbuskorlik, daxldorlik hislari har bir inson ongida shakllanishi kerak. Fuqarolar har qanday qonunbuzilish holatlariga murosasiz bo'lsa, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlariga ko'pchilik bo'lib baho bersa, o'z fikr-mulohazalarini emin-erkin bayon etsa, ana o'shanda chinakam qonun ustuvorligi ta'minlanadi¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yilgi yangi tahrir, 36-moddasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. URL: <https://lex.uz/docs/6445145>.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan pragmatik, ochiq-oshkora va shaffoflikka asoslangan yangi bosqichdagi islohotlar samarasi tufayli jamiyatimizda jamoatchilik nazoratining ham ta'sir doirasi kengaymoqda, davlat tizimlarida jamoatchilik kengashlari faoliyati shakllantirilib, faollashmoqda. Bu ham demokratiyaning bir ko'rinishidir².

2018-yilda qabul qilingan "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'RQ-474-son Qonun bu sohani tartibga soluvchi asosiy hujjatdir. Ushbu qonunda nazorat subyektlari — fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari (mahallalar), nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), ommaviy axborot vositalari; obyektlari — davlat organlari va mansabdor shaxslar; shakllari — jamoatchilik ekspertizasi, jamoatchilik fikrini o'rganish, jamoaviy murojaatlar, monitoring; natijalari — bayonnoma, xulosa yoki ma'lumotnoma shaklida bo'lib, tavsiya xususiyatiga ega, lekin davlat organlari ularni ko'rib chiqishi shartligi belgilab qo'yilgan. Bu yerda eng muhimi masalaga yechim topilishi va natijadorlikdir³.

Respublikada olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarda inson qadrini yuksaltirish va kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda aynan ta'sirchan jamoatchilik nazoratining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga oid masalalarga e'tibor berilgan. Ammo bu yerda jamoatchilik nazoratining zamonaviy shakllari, ya'ni jamoaviy murojaatlar asosida dasturlarni tekshirish, ayrim davlat funksiyalariga fuqarolarning ham faol jalb etilishi, OAV rolini kuchaytirish kabi masalalar ham belgilab o'tilgan⁴.

Jamoatchilik nazorati islohotlarning samaradorligini oshirishda quyidagi amaliy natijalarga erishish imkonini berdi. Fuqarolik murojaatlari tizimida Prezidentning Virtual va Xalq qabulxonalari orqali millionlab murojaatlar ko'rib chiqilgan. Bu tizim korrupsiya va ma'muriy suiiste'mollik holatlarini aniqlashda, davlat xizmatlari sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynamoqda⁵.

Parlament nazorati va jamoatchilik eshituvlari: Oliy Majlis va mahalliy Kengashlarda islohotlarning ijrosi bo'yicha jamoatchilik eshituvlari o'tkazilmoqda. 2021 yilning o'zida 1630 dan ortiq parlament so'rovi yuborilgan. Siyosiy partiyalar tomonidan 2025 yilda 1714 ta jamoatchilik nazorati tadbiri o'tkazilgan, ularda 450 dan ziyod normativ-huquqiy hujjatlar muhokama qilingan. NNTlar soni va faoliyati 2017–2021 yillarda 20 foizga o'sgan. Ular davlat dasturlarini monitoring qilish, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik eksperti-zasida ishtirok etmoqda. 2024 yilda NNT vakillari Oliy Majlis qo'mitalari majlislarida ishtirok etish huquqiga ega bo'ldi⁶.

Jamoatchilik nazorati korrupsiya holatlarini ochishda, masalan, ijtimoiy tarmoqlar orqali, budget sarflarining ochiqqligini ta'minlashda samarali ishlamoqda. Raqamli xizmatlar GovTech indeksi bo'yicha Markaziy Osiyoda birinchi o'ringa ko'tarilgan va ochiq budgetlar orqali fuqarolar nazorati kuchaygan. Davlat xaridlari va dasturlarning ijrosida jamoatchilik monitoringi kengaymoqda⁷.

Oxirgi yillarda islohotlarning ijrosida fuqarolarning ishtiroki oshgan, davlat organlari faoliyatiga OAV orqali o'z subyektiv fikr-mulohazalari bilan faol qatnashmoqdalar. Bunda jamoatchilik nazorati hokimiyat va xalq o'rtasidagi begonlashuvning oldini olishga, ozchilik va ko'pchilik despotizmiga qarshi turishga xizmat qilmoqda. Dunyo tajribasi ham shuni ko'rsatadiki, jamoatchilik nazoratidan samaraliroq nazorat tizimi yo'q. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va OAV orqali jamoatchilik reaksiyasi ko'plab kamchiliklarni tezkor hal etishga yoki ularga ahamiyat berishga imkon bermoqda.

Hozirgi kunda jamoatchilik nazoratining samarali bo'lishi uchun quyidagi elementlar hal qiluvchi ahamiyatga ega:

Huquqiy va institutsional asoslarning takomillashtirilishi. Bunda qonun normalarining amaliyotda qo'llanishi, javobgarlik mexanizmlari,

² Dadashova A.A. Mahalliy ijroiya organlari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazorati mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. — Toshkent: "Yangi kitob" nashriyoti, 2020. — 314 b.

³ O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'RQ-474-son Qonuni, 12.04.2018-y. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2018-y., 03/18/474/1062-son. URL: <https://lex.uz/docs/3679092>.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6181-son Farmoni, 04.03.2021-y. URL: <https://lex.uz/docs/5319756>.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4904-son Farmoni, 28.12.2016-y. URL: <https://lex.uz/docs/3089924>.

⁶ O'zbekiston Respublikasining "Parlament nazorati to'g'risida"gi O'RQ-403-son Qonuni, 11.04.2016-y. URL: <https://lex.uz/docs/2929477>.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 148-modda; O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/2304138>.

qonun buzilishi uchun javobgarlik masalalari e'tirof etiladi.

Fuqarolarning faol ishtiroki, jamoaviy murojaatlar portali, ya'ni meningfikrim.uz, jamoatchilik kengashlari, mahallalar orqali keng jalb qilish muhimdir. Bunda tatbiq etilishi muhim bo'lgan jarayon jamoatchilik ekspertizasi va fikr o'rganishning zamonaviy shakllari, onlayn platformalar va ilovalar hisoblanadi⁸.

Davlat organlarining ochiqligi va shaffofligi, axborotning o'z vaqtida taqdim etilishi, raqamli platformalar orqali monitoring qilib borilishi, OAV orqali ko'tarilgan masalalar va muammolarning yechimi hamda natijasi yuzasidan hisobotlar berib borilishi muhimdir.

Fuqarolik jamiyati institutlari bilan sheriklik, ijtimoiy sheriklik, NNTlarning davlat dasturlari ijrosining amaldagi holatini tekshirishdagi ishtiroki va faoliyat ijobiy baholansa, rag'batlantirish mexanizmlarini tatbiq etish muhim.

Rivojlangan davlatlarda jamoatchilik nazorati, ya'ni public oversight, fuqarolik nazorati, accountability mechanisms jarayoni demokratik tizimning asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. U davlat hokimiyatining shaffofligini, hisobdorligini (accountability) va samaradorligini ta'minlab, korrupsiyaning oldini olish, fuqarolar ishonchini oshirish va yaxshi boshqaruvni (good governance) rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, Skandinaviya mamlakatlari — Shvesiya va Norvegiyada jamoatchilik nazorati markazlashgan, lekin qulay tizimga ega. Fuqarolar va NNTlar davlat dasturlarining ijrosini doimiy monitoring qiladi, bu esa yuqori ishonch va samaradorlikni ta'minlaydi. Buyuk Britaniyada Parlament nazorati va OAVning kuchli roli orqali hisobdorlik yuqori, lekin jarayon ba'zan qimmatga tushadi. AQSh va Kanadada mustaqil auditorlar (Auditor General), fuqarolik jamiyati va raqamli ochiq ma'lumotlar orqali nazorat amalga oshiriladi. Bu korrupsiyaning oldini olish va fuqarolar huquqlarini himoya qilishda samarali mexanizmdir. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari fuqarolik jamiyatining global va milliy darajadagi monitoringi orqali hukumatlarning qarorlarini demokratik yo'l bilan hal qilishga hissa qo'shadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi

shuni ko'rsatdiki, jamoatchilik nazorati — bu faqat nazorat emas, balki demokratiyaning hayotiy qismi, fuqarolik jamiyatining davlat bilan hamkorligi va jamiyatning o'zini o'zi boshqarish qobiliyatidir. U hokimiyatni xalqqa yaqinlashtiradi, korrupsiyani kamaytiradi, ishonchni oshiradi va uzoq muddatli taraqqiyotni ta'minlaydi⁹.

O'zbekistonda monitoring va baholashning tizimliliigi, nazorat natijalarining davlat organlari tomonidan majburiy ko'rib chiqilishi, hisobotlar tayyorlash va jamoatchilikka taqdim etish jarayonini olib borish muhimdir. Bu jarayonda rag'batlantirish va himoya qilish muhim, chunki jurnalistlar va faollar faoliyatini himoya qilish va ijtimoiy tarmoqlarda faollikni qo'llab-quvvatlash shart. Fuqarolarda nazorat madaniyatini rivojlantirish va jamoatchilik nazoratining ahamiyatini ijtimoiy roliklar orqali tushuntirish ijobiy samara berish imkoniyatini shakllantiradi.

Bu elementlarning o'zaro bog'liqligi va to'liq amalga oshirilishi islohotlarning uzoq muddatli samarasini ta'minlaydi. Amaliyotda jarayon emas, balki natijaga yo'naltirilgan nazorat muhim. O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Jamoatchilik nazorati qanchalik kuchli bo'lsa, davlat shunchalik xalqchil, erkin va adolatli bo'ladi". Bu tamoyil yangi Konstitutsiyada ham mustahkamlangan va islohotlarning samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi¹⁰.

Yuqorida sanab o'tilgan muhim elementlar amalda qo'llansa va ular doimiy ravishda tatbiq etib borilsa, quyidagi natijalarga erishishimiz mumkin:

Birinchidan, jamoatchilik nazorati islohotlarning ajralmas qismiga aylanadi, chunki u fuqarolar, mahallalar, nodavlat tashkilotlar va OAVni davlat organlari faoliyatini monitoring qilish, ekspertiza o'tkazish va takliflar berishga jalb etadi. Bu orqali davlatning xalqparvarligi oshadi — qarorlar qabul qilishda fuqarolar fikri inobatga olinadi, hokimiyat va xalq o'rtasidagi ishonch mustahkamlanadi.

Ikkinchidan, jamoatchilik nazorati korrupsiya va ma'muriy suiiste'mollikka qarshi samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Prezidentning virtual

⁸ World Bank. GovTech Maturity Index (GTMI). URL: <https://www.worldbank.org/en/programs/govtech/gtmi>

⁹ O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'RQ-474-son Qonuni, 6-7-moddalar. URL: <https://lex.uz/docs/3679092>

¹⁰ Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiya qabul qilingan kun munosabati bilan O'zbekiston xalqiga bayram tabrigi // "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2024-yil 7-dekabr, 249-son.

qabulxonalari, jamoaviy murojaatlar, budget sarflarining ochiq monitoringi va davlat xaridlaridagi nazorat orqali ko'plab kamchiliklar aniqlanib, hal etilmoqda. Bu esa davlat mablag'larining samarali sarflanishini ta'minlaydi va korrupsiya darajasini pasaytiradi.

Uchinchidan, fuqarolarning ishtiroki kengayishi islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy samarasini oshirmoqda. Mahallalar, NNTlar va fuqarolarning faol ishtiroki tufayli hududiy dasturlar sifati yaxshilanmoqda, ijtimoiy muammolar tezroq hal etilmoqda va inson kapitalining rivojlanishiga hissa qo'shilmoqda. Natijada, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy himoya va umumiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish ishlarida yutuqlar bilan bir qatorda amaliyotda ayrim kamchiliklar ham

saqlanib qolmoqda. Huquqiy mexanizmlarning to'liq ishlashi, nazorat natijalarining majburiy ko'rib chiqilishi va fuqarolar faolligini rag'batlantirish masalalari hali ham takomillashtirishni talab etadi. Buning uchun qonun normalarining amaliyotda qo'llanishini kuchaytirish, raqamli platformalarni rivojlantirish va jamoatchilik nazoratini shakllantirish zarur¹¹.

Muammoni OAV orqali e'lon qilishda ushbu muammoga taklif va tavsiyalar bilan izohlab o'tilsa, samaraliroq bo'ladi va OAV orqali chiqishi mazmunliroq bo'ladi. Aynan muammoning yechimiga bog'liq yechimli taklif va tavsiyalar bo'lsa, ayni muddao bo'lar edi.

Jurnalistik surishtiruvga davlat tomonidan grant ajratilsa, OAV mutaxassislariga kelajakda motivatsiya va ishning samarali yakuniga erishish uchun muhim sarmoya sifatida ko'mak bo'lar edi¹².



¹¹ Saidov A.X. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi: Darslik-xrestomatiya. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti, 2025. – 796 b.; Dadasheva A.A. O'zbekiston Respublikasi – konstitutsiyaviy islohotlar davr talabi // Academic Research in Educational Sciences. – 2022. – 124-bet.

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4473-son qarori, 04.10.2019-y.; Dadasheva A.A. Mahalliy ijroiya organlari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazorati mexanizmlarini shakllantirish. – Toshkent, 2020.

Трансформация правоохранительной функции государства в Республике Узбекистан в условиях глобализации

КУРБАНОВА Эльмира Асадовна,

Старший научный сотрудник
Института государства и права
Академии наук, д.ф.ю.н. (PhD)

Annotatsia: Maqolada globallashuv sharoitida O'zbekiston Respublikasida davlatning huquqni muhofaza qilish funksiyasining transformatsiyasi masalalari tahlil qilingan. Zamonaviy globallashuv jarayonlari, ularning huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga ta'siri, shuningdek transmilliy jinoyatchilik, odam savdosi, giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi hamda raqamli texnologiyalar rivoji bilan bog'liq yangi tahdid va xavflar ko'rib chiqilgan. Milliy qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va davlatning huquqni muhofaza qilish funksiyasini amalga oshirish mexanizmlarini modernizatsiya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot yakunida qonuniylikni, jamoat xavfsizligini va inson huquqlarini ta'minlash maqsadida O'zbekiston huquqni muhofaza qilish tizimining zamonaviy global jarayonlarga moslashtirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: davlatning huquqni muhofaza qilish funksiyasi, globallashuv, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, transmilliy jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik, inson huquqlari, jamoat xavfsizligi.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности трансформации правоохранительной функции государства в Республике Узбекистан в условиях глобализации. Анализируются современные глобализационные процессы, их влияние на деятельность правоохранительных органов, а также новые вызовы и угрозы, связанные с транснациональной преступностью, торговлей людьми, незаконным оборотом наркотиков и развитием цифровых технологий. Особое внимание уделяется вопросам совершенствования национального законодательства, укрепления международного сотрудничества и модернизации механизмов реализации правоохранительной функции государства. Делается вывод о необходимости адаптации правоохранительной системы Узбекистана к современным глобальным процессам в целях обеспечения законности, общественной безопасности и защиты прав человека.

Ключевые слова: правоохранительная функция государства, глобализация, правоохранительные органы, транснациональная преступность, торговля людьми, наркоторговля, цифровизация, международное сотрудничество, права человека, общественная безопасность.

Введение: Правоохранительная функция государства в Республике Узбекистан в условиях глобализации претерпевает существенные изменения как по содержанию, так и по формам реализации. Рассуждая о феномене глобализации, известный социолог Энтони Гидденс подчеркивал, что “социологи используют термин глобализация для обозначения таких транснациональных процессов, которые способствуют развитию социальных связей и углублений взаимозависимости между странами. У этого социального явления есть множество следствий... Будет неверно понимать глобализацию всего лишь как развитие всемирных сетей, состоящих из социальных и экономических систем.... У этого явления есть и локальные аспекты, напрямую влияющие на нашу повседневную жизнь”¹. Современные глобализационные процессы, сопровождающиеся развитием цифровых технологий, усилением международной взаимозависимости государств, ростом транснациональной преступности и иных глобальных угроз, оказывают значительное влияние на систему государственного управления и правового регулирования. В этой связи особую актуальность приобретает совершенствование правоохранительной деятельности, адаптация ее механизмов к новым вызовам и расширение международного сотрудничества в сфере обеспечения законности и правопорядка. В подобных условиях правоохранительная функция государства приобретает особое значение как один из ключевых механизмов обеспечения национальной безопасности и защиты прав граждан.

В современной юридической науке отсутствует единый подход к пониманию правоохранительной функции государства, поскольку ученые по-разному трактуют ее сущность, содержание и основные направления реализации. Так, по мнению В. Мелехина, “правоохранительная функция государства есть функция по установлению и охране правопорядка. И она представляет собой деятельность государства по обеспечению неукоснительного выполнения государственных предписаний

гражданами и государственными органами. В то же время, Р.Б. Позднякова отмечает наличие правоохранительных функций, направленных на охрану права собственности и права на жилище в жилищной сфере. Рассмотрение категории “правопорядок” в самом широком смысле этого слова как правовой режим, установленный всей совокупностью правовых норм права, позволяет отнести к объекту правоохранительной деятельности государства все права и правовые установления, включая права собственности и права на жилище”².

Правоохранительная функция государства реализуется через деятельность специальных органов, направленную на поддержание общественного порядка, обеспечение защиты прав и свобод граждан, а также профилактику и пресечение противоправных деяний. “Под правоохранительными органами понимаются специальные государственные органы, созданные в целях обеспечения законности и правопорядка, охраны права и действующие на основании и в соответствии с Конституцией и другими законами”³. Через систему правоохранительных органов государство осуществляет деятельность, направленную на укрепление законности, поддержание правопорядка и обеспечение общественной безопасности. В условиях современных глобализационных процессов особую актуальность приобретает повышение результативности работы правоохранительных структур, совершенствование их организационно-правовых основ, а также приспособление к новым формам транснациональных вызовов и угроз.

Основная часть: Правоохранительная функция государства всё в большей степени приобретает международный и кооперационный характер. Если ранее правоохранительная функция государства была сосредоточена преимущественно на поддержании внутреннего правопорядка и борьбе с традиционной преступностью, то сегодня появляются новые вызовы, противодействие которым требует усилий как на национальном, так и на международном уровнях.

¹ Гидденс Энтони. Социология / при участии К.Бердсолл: пер. С. англ. Изд. 2-е, полностью перераб. и доп. – М.: Едиториал УРСС, 2005. –С.55-57. (– 632 с.).

² Зырянов С.М. Правоохранительная функция государства. // <https://cyberleninka.ru/article/n/pravookhranitelnaya-funktsiya-gosudarstva>.

³ Volkova, K. A. (2017). Kontseptsii “pravookhranitelnaya deyatel'nost'” i “pravookhranitel'nyy organ” i ikh osnovnye kharakteristiki [The concepts of “law enforcement activity” and “law enforcement agency” and their main characteristics]. Scientific Research, 2(13). <https://cyberleninka.ru>.

Процессы глобализации существенно трансформируют (от лат. *transformatio* – преобразование, преобразование) содержание правоохранительной функции государства. В современных условиях ни одно государство уже не способно эффективно обеспечивать общественный порядок и безопасность исключительно за счёт внутренних ресурсов и механизмов. Транснациональный характер современных угроз требует постоянного взаимодействия с международным сообществом, согласования национального законодательства с международными правовыми стандартами и учёта рекомендаций международных институтов. В этой связи государства активно развивают механизмы международного взаимодействия, включающие: обмен оперативной, криминалистической и аналитической информацией; участие в международных договорах и конвенциях, а также сотрудничество в рамках таких международных организаций, как Шанхайская организация сотрудничества, Организация Объединённых Наций, Интерпол и других специализированных структур; создание межгосударственных следственных групп; совершенствование механизмов экстрадиции и взаимной правовой помощи по уголовным делам; тесное международное сотрудничество; обмен информацией и совместную выработку механизмов противодействия современным угрозам.

Согласно «данным Национального комитета по статистике, в январе-марте 2026 года 1 631 234 гражданина Узбекистана выехали за границу с туристическими целями. Этот показатель увеличился почти на 111,6 тысячи человек по сравнению с соответствующим периодом прошлого года»⁴. Наряду с этим усиливается региональное трансграничное сотрудничество, направленное не только на обеспечение безопасности государственных границ, но и на формирование стабильного социально-экономического пространства в приграничных территориях. Важное место занимает совершенствование инфраструктуры пограничного контроля, развитие миграционного регулиро-

вания, упрощение законных процедур пересечения границы и повышение уровня жизни населения приграничных регионов. Кроме того, «для гармонизации миграционных потоков и развития регионов необходим комплексный подход, включающий внедрение инновационных стратегий управления миграцией. Основные задачи: 1) создать механизмы обмена данными между разными вариантами, чтобы быстро реагировать на миграционные вызовы; 2) разработать правовые нормы, регулирующие миграционные процессы и защищающие права мигрантов; 3) интегрировать миграционную политику в условиях снижения темпов развития территорий, демографических, экономических и социальных факторов. Следовательно, международное сотрудничество в сфере миграционной политики – важнейший фактор воздействия и развития регионов»⁵. Отдельное внимание уделяется внедрению принципов интегрированного управления границами, основанных на согласованности действий государственных органов, использовании современных цифровых технологий и международных стандартов безопасности. При этом особое значение приобретают вопросы соблюдения прав и свобод человека, гуманизации правоохранительной деятельности, обеспечения гендерного равенства и недопущения дискриминации при реализации мер безопасности.

В условиях глобализации правоохранительная функция государства приобретает особое значение в сфере противодействия торговле людьми, которая представляет собой одну из наиболее опасных форм транснациональной преступности. «По данным ООН, ежегодно в мире жертвами торговли людьми становятся около 2,7 миллиона человек. По данным международных экспертов, годовой доход от этого преступления превышает 7 миллиардов долларов США. Вызывает тревогу тот факт, что 80 процентов жертв торговли людьми – женщины и дети. Ежегодно 600-800 тысяч женщин и детей вывозятся в зарубежные страны и продаются»⁶. Для Республики Узбекистан противодей-

⁴ Данные Национального комитета по статистике. // <https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/67835-uch-ojda-1-6-milliondan-zijod-zbekistonliklar-chet-elga-safar-ilgan-3>.

⁵ Рахимова М.А. Влияние региональной экономической интеграции на социально-демографические процессы в Узбекистане. // <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyaniye-regionalnoy-ekonomicheskoy-integratsii-na-sotsialno-demograficheskie-protsessy-v-uzbekistane>.

⁶ Борьба с торговлей людьми, ставшей серьезной проблемой для народов мира, остается в центре внимания. // <https://gov.uz/ru/paxtachi/news/view/115187>.

ствие торговле людьми является важным направлением реализации правоохранительной функции государства, направленной на защиту прав человека, обеспечение общественной безопасности и предупреждение организованной преступности. К сожалению, эта проблема не обошла стороной и Республику Узбекистан. “В 2025 году в Узбекистане зафиксировано 177 случаев, связанных с торговлей людьми. Из них 92 случая связаны с сексуальной эксплуатацией, остальные – трудовая эксплуатация и торговля младенцами. ... В январе-марте 2026 года выявлено 57 случаев, связанных с торговлей людьми”⁷. За последние годы Республика Узбекистан достигла значительных результатов в сфере защиты прав человека и противодействия торговле людьми. В стране совершенствуется национальное законодательство, развиваются механизмы защиты и реабилитации жертв, а также укрепляется деятельность правоохранительных органов в данной сфере. Наряду с этим Республика Узбекистан развивает международное взаимодействие с иностранными государствами и международными организациями в сфере противодействия торговле людьми. Осуществление данных мероприятий способствует укреплению сотрудничества между правоохранительными органами и повышению эффективности механизмов защиты лиц, пострадавших от торговли людьми.

В современных реалиях еще одной транснациональной угрозой, оказывающей негативное влияние на безопасность государств и стабильность общества, является незаконный оборот наркотических средств. “По данным Организации Объединенных Наций, в мире более 300 миллионов людей попали под воздействие наркотических веществ. Ежегодно около 600 тысяч человек становятся жертвами наркомании”⁸. В нашей стране “в последние годы в показатель выявления преступлений, связанных с незаконным оборотом наркотиков, вырос в 2,5 раза, объем конфискованных наркотических средств – в 2 раза, уничтоженных

синтетических наркотиков – в 7 раз. Только в прошлом году органами правопорядка было раскрыто более 15 тысяч наркопреступлений, уничтожено почти 3,5 тонны наркотических средств, в том числе 120 килограммов синтетических наркотиков, прекращена деятельность 14 тайных нарколабораторий и 72 крупных интернет-магазинов”⁹. Использование преступными группами зашифрованных средств коммуникации, бесконтактных способов распространения наркотиков и сложных финансовых схем требует совершенствования методов противодействия незаконному обороту наркотических средств. Это обуславливает необходимость внедрения современных технологий и новых подходов в деятельности правоохранительных органов по борьбе с наркопреступностью.

В условиях глобализации усиливается внедрение цифровых технологий: электронные базы данных; системы видеонаблюдения; биометрическая идентификация; электронное уголовное судопроизводство; использование искусственного интеллекта и аналитических платформ. “Примечательно, что на сегодняшний день МВД оказывает около 60 видов услуг, 95 процентов из которых предоставляются в полностью цифровом формате. Ранее разрозненные 72 базы данных были объединены в единую систему “Безопасный город”, к которой подключены 14 центров управления и более 20 министерств. В прошлом году свыше 148 тысяч административных дел были рассмотрены в дистанционном порядке, что избавило граждан от хождения по инстанциям”¹⁰. Особое значение приобретают вопросы кибербезопасности и защиты персональных данных. Как отмечал Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев: “киберпреступность растет, число ее видов увеличилось с 18 до 62. Особую обеспокоенность вызывают кража персональных данных, имитация голоса и внешности с помощью искусственного интеллекта, распространение вредоносных файлов,

⁷ Более половины случаев торговли людьми приходится на сексуальную эксплуатацию – МВД. // <https://www.gazeta.uz/ru/2026/04/14/human-trafficking/>.

⁸ Мирзиёев Ш.М. Приветствие участникам Международного форума “Противодействие транснациональным наркоугрозам во имя здоровья и безопасности общества”. // <https://president.uz/ru/lists/view/9118>.

⁹ Мирзиёев Ш.М. Приветствие участникам Международного форума “Противодействие транснациональным наркоугрозам во имя здоровья и безопасности общества”. // <https://president.uz/ru/lists/view/9118>.

¹⁰ Министерство внутренних дел признано самым образцовым за положительные результаты в сфере оказания государственных услуг. // <https://gov.uz/ru/iiv/news/view/168688>.

а также вывод похищенных средств за рубеж в криптовалюту... Для оперативного раскрытия и пресечения таких преступлений сотрудникам правоохранительных органов необходимо в совершенстве владеть кибертехнологиями и инструментами искусственного интеллекта”¹¹. “За 12 месяцев 2025 года в республике было совершено 155 002 преступления, из которых 76 852 (49,6%) составили киберпреступления. Для обеспечения внедрения цифровых технологий в деятельность по профилактике правонарушений в 5 471 опорный пункт проложен оптоволоконный кабель, в результате чего судами обеспечено дистанционное проведение 148 032 административных дел”¹². Государство формирует новые механизмы цифрового контроля и реагирования на киберугрозы.

Глобализация усиливает социальную мобильность и информационное влияние, особенно на молодежь. Поэтому государство уделяет больше внимания: раннему предупреждению правонарушений; работе инспекторов-психологов; правовому воспитанию; профилактике радикализации несовершеннолетних; взаимодействию семьи, школы и махаллы. Так, в 2025 году “в махаллах было создано более 20 тысяч “образцовых безопасных улиц” и около 50 тысяч “безопасных подъездов”, в местах массового скопления людей установлены тысячи камер видеонаблюдения, а также камер с функцией распознавания лиц и автомобильных номеров. Около 300 тысяч объектов взяты под техническую охрану, установлены десятки тысяч тревожных кнопок и современных домофонных комплексов, решены бытовые и социальные проблемы граждан, которые могли совершить правонарушение или стать его жертвой”¹³. Согласно данным МВД Республики Узбекистан в 2025 году “выявлено 74 057 несовершеннолетних, находившихся без надзора, из которых 14 638 были помещены в центры социально-пра-

вовой помощи, а 16 – в учебно-воспитательные учреждения. Уровень преступности среди несовершеннолетних снижен на 11 процентов, или на 316 случаев (с 2 870 до 2 554). 6 347 несовершеннолетних были возвращены к обучению, 6 347 привлечены к занятиям спортом, 5 839 – к факультативным кружкам, 667 – к деятельности в сфере малого бизнеса, а 1 435 направлены в центры “Баркамол авлод”¹⁴.

Сегодня правоохранительная деятельность всё активнее основывается на принципах открытости, законности, цифровой прозрачности и общественного контроля. “Широкое внедрение в деятельность по направлению раннего предупреждения правонарушений в общественных местах махаллей современных информационно-коммуникационных технологий и технологий искусственного интеллекта, системы электронного контроля за эффективностью мер, принимаемых ведомствами и учреждениями, ответственными за социальную профилактику”¹⁵ позволяет повысить эффективность борьбы с преступностью, однако одновременно ставит новые задачи по обеспечению защиты персональных данных, соблюдению права на частную жизнь и недопущению злоупотреблений со стороны государства.

Одновременно с этим в мировой практике наблюдается тенденция гуманизации правоохранительной деятельности и усиления приоритета прав и свобод человека. Если ранее правоохранительная функция преимущественно ассоциировалась с применением мер государственного принуждения и наказания, то в настоящее время всё большее значение приобретают профилактика правонарушений, социальная адаптация, правовое просвещение населения и предупреждение причин преступности. Государства постепенно переходят от исключительно репрессивной модели правоохранительной политики к более сбалансирован-

¹¹ Мирзиеев Ш.М. Критически рассмотрена деятельность органов правопорядка, определены новые задачи по обеспечению общественной безопасности. // <https://president.uz/ru/lists/view/8882>

¹² Узбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва уларнинг профилактикаси бўйича 2025 йилда амалга оширилган ишлар ҳолати тўғрисидаги Ахбороти // https://api-portal.gov.uz/uploads/11/2026/03/06/cf201c57-d2e4-4832-8164-ebdfee6d9e71_media_.pdf.

¹³ Информация об итогах расширенного заседания Республиканского межведомственного координационного совета по созданию безопасной среды в махаллах и раннему предупреждению правонарушений. // <https://gov.uz/ru/iiv/news/view/157884>

¹⁴ Узбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва уларнинг профилактикаси бўйича 2025 йилда амалга оширилган ишлар ҳолати тўғрисидаги Ахбороти // https://api-portal.gov.uz/uploads/11/2026/03/06/cf201c57-d2e4-4832-8164-ebdfee6d9e71_media_.pdf.

¹⁵ Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-1 “О дополнительных мерах по внедрению целостной системы адресной работы в направлении создания безопасной среды в махаллах республики” от 05.01.2026 г.

ной системе, ориентированной на предупреждение правонарушений, защиту личности, восстановление социальной справедливости и укрепление доверия общества к государственным институтам.

Заключение: В условиях современных глобализационных процессов правоохранительная функция государства претерпевает существенные изменения, обусловленные развитием международного сотрудничества, цифровых технологий, транснационализацией преступности и усилением универсальных стандартов защиты прав человека. Для Республики Узбекистан данные процессы имеют особое значение, поскольку модернизация правоохранительной системы выступает одним из ключевых направлений проводимых государственно-правовых реформ.

Проведённый анализ показывает, что трансформация правоохранительной функции в Узбекистане выражается не только в совершенствовании деятельности правоохранительных органов, но и в изменении самого содержания государственной политики в сфере обе-

спечения законности и правопорядка. В этой связи правоохранительная деятельность всё в большей степени основывается на координации усилий государств, использовании международно-правовых механизмов и адаптации национального законодательства к общепризнанным международным стандартам.

Таким образом, трансформация правоохранительной функции государства в Республике Узбекистан представляет собой сложный и многогранный процесс, направленный на формирование современной, гуманистической и эффективной системы обеспечения правопорядка. Дальнейшее совершенствование данной функции требует обеспечения баланса между интересами государственной безопасности и защитой прав человека, расширения международного сотрудничества, развития цифровых технологий и укрепления правовой культуры общества. Именно такой подход позволит создать устойчивую и адаптивную модель правоохранительной деятельности, отвечающую современным глобальным вызовам и стратегическим целям развития государства.



Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llash nazariyasi va amaliyoti: muammo, mulohaza va takliflar

ODINAYEV Adham Sa'dulloyevich,

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig'i o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor adliya katta maslahatchisi

Annotatsia: Maqolada majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llashda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar, majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llashni tartibga soluvchi milliy va xalqaro huquq normalari, shuningdek ularni amalga oshirishni takomillashtirisha oid takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: shartnoma, jarima, majburiyatni bajarmaganlik uchun foiz, kreditor, qarzdor, kompensatsiya, bajarilmagan majburiyat, buzilgan majburiyat, yo'qotish, kompensatsiya, qat'iy javobgarlik, pul majburiyati, tavakkalchilik, mulkiy yo'qotish.

Аннотация: В статье рассматриваются социальные отношения, возникающие при применении гражданско-правовой ответственности за нарушение обязательств, а также нормы национального и международного права, регулирующие применение гражданско-правовой ответственности за нарушение обязательств, с предложениями по совершенствованию их реализации.

Ключевые слова: договор, неустойка, штраф, пеня, кредитор, должник, компенсация, невыполненное обязательство, нарушенное обязательство, убыток, компенсация, безвинная ответственность, денежное обязательство, риск, имущественная утрата.

Dunyoda jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlarini tiklash, iqtisodiy barqarorlikni hamda shartnomaviy majburiyatlarda taraflar o'rtasidagi ekvivalentlikni ta'minlashda fuqarolik-huquqiy javobgarlik institutiga alohida e'tibor qaratib kelinadi.

Fuqarolik-huquqiy shartnoma munosabatlari taraflarning zimmalaridagi majburiyatlarning bajarilmasligi mazkur majburiyatni buzgan tomonga nisbatan mulkiy ko'rinishdagi javobgarlikni qo'llashga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida, majburiyatni bajarmagan tarafga buzilgan huquqlarni tiklash hamda qo'shimcha mulkiy majburiyatni yuklashga oid choralar ko'rilishiga olib keladi.

Dunyodagi bir qator yetakchi kompaniyalarga fuqarolik-huquqiy majburiyatlarni buzganlik

uchun yirik miqdorda jarimalar qo'llanilmoqda. Xususan, fuqarolik-huquqiy da'volar bo'yicha 2024-yilda AQShning Indiana shtatida joylashgan Cummins kompaniyasi 2 mlrd. dollar, Irlandiya-ning Endo International kompaniyasi 464,9 mln. dollar, AQShning JP Morgan & Co. kompaniyasi 366,2 mln. dollar, Morgan Stanley kompaniyasi 268,1 mln. dollar, Royal Bank of Canada, City National Bank kompaniyalari 65 mln. dollarlik fuqarolik-huquqiy jarimaga tortilgan¹. Bundan ko'rinadiki, majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaslik, oqibatda qarzdor tomonga katta miqdordagi qo'shimcha mulkiy sanksiya qo'llanilishiga olib kelishi hamda taraflar o'rtasida turli nizolar ko'payishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, majburiyatlarni buzganlik uchun

¹ Исследование: самые крупные корпоративные штрафы в 2024 году на данный момент // <https://binarki-opciony.com/novosti/post/samye-krupnye-korporativnye-shtrafy>.

fuqarolik-huquqiy javobgarlikka oid qonunchilikni takomillashtirish hamda uning izchilligini ta'minlash dolzarbdir.

Jahonda majburiyatlarni buzganlik uchun "aybga asoslangan javobgarlik nazariyasi (Fault-based liability)" (Fransiya, Germaniya va Italiya), "aybsiz javobgarlik (Strict liability / Objective liability)" (Germaniya), "shartnoma va delikt javobgarligi (Contractual vs Tort Liability)" (Anglo-sakson huquq tizimi davlatlari), "iqtisodiy samaradorlikni buzish doktrinasida (efficient Breach Doctrine)" (AQSh), "shartnoma oldi javobgarligi (Culpa in contrahendo)" (Germaniya va Yevropa xususiy huquqi), "insof va odobli muomala majburiyati (Good Faith and Fair Dealing)" (AQSh), "tuzatuvchi adolat nazariyasi (Corrective Justice)" (Germaniya va Fransiya), "oldini oluvchi javobgarlik (Preventive Liability)" (Yaponiya va Germaniya), "huquq va iqtisodiyot yondashuvi (Law and Economics)" (AQSh) kabi nazariyalar, modellar va doktrinalar amal qiladi.

Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlarda majburiyatlarni buzganlik uchun qo'llaniladigan javobgarlik choralari optimallashtirish, ommaviy-huquqiy va xususiy-huquqiy javobgarlikni qo'llashda uyg'unlikni ta'minlash, fuqarolik huquqini ijtimoiylashuvdan kelib chiqib javobgarlikni cheklash tendensiyalari kuzatilmoqda.

O'zbekistonda majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalari borasida muayyan ilmiy doktrina shakllangan va qonunchilik tizimi yaratilgan. Bugungi kunda fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikka oid ishlar soni dinamikasi ham turlichadir. Xususan, O'zbekistonda fuqarolik-huquqiy javobgarlik shakllaridan bo'lgan zararni qoplash va neustoykani undirishga oid ishlar soni 2022-yilda 34290, 2023-yilda 37736, 2024-yil 29270 tani tashkil etgan. 2022-2024-yillarda sudlar tomonidan 119 498 ta (iqtisodiy sudlarda – 101 296, fuqarolik sudlarida – 18 202) ishlar ko'rilib, 103 094 tasi (86%) qanoatlantirilgan, 16 404 ta (14%) ishlar esa turli sabablar bilan rad etilgan, ko'rmasdan qoldirilgan yoki ish yuritish tugatilgan².

Bu esa o'z navbatida, milliy fuqarolik huquqi doktrinasida shakllangan fuqarolik-huquqiy javobgarlik majburiyatni buzgan qarzidor zimmasiga yuklatiladigan qo'shimcha mulkiy sanksiya bo'lishi, zararni qoplash buzilgan huquqni tiklash chorasi hisoblanishi va kompensatsiya delikt majburiyatlarida amal qilishi kabi yondashuvlarni muvofiqlashtirishni talab etadi.

Keyingi yillarda raqamli tijoratdagi shartnomaviy munosabatlar, raqamlashtirishning fuqarolik muomalasiga faol ta'siri natijasida javobgarlik subyektlarini aniqlash hamda ularga nisbatan javobgarlik ijrosini ta'minlash muammosi yuzaga kelmoqda.

Bundan tashqari, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining yangi tahririni tayyorlash ustida ish olib borilayotgan hozirgi sharoitda majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llashga nisbatan "aybli javobgarlik" konsepsiyasi hamda fuqarolik huquqiy javobgarlikka nisbatan huquqiy javobgarlikning boshqa turlarida amal qiluvchi ijtimoiylashuv va insonparvarlashuv modelini qo'llash istiqbollari belgilash zarur.

Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llashga oid munosabatlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlar va universitetlarda, jumladan, Utrecht Centre for Accountability and Liability Law (UCALL) (Niderlandiya) – majburiyat va javobgarlik, atrof muhit muhofazasi, korporativ CPR, AI va avtonom tizimlar bilan bog'liq yurisdiksiya muammolarini tadqiq etadi; European Centre of Tort and Insurance Law (ECTIL) (Vena, Avstriya) – Yevropa va xalqaro asoslarda delikt, sug'urta huquqi va majburiyatlarning chegaralarini o'rganadi, terrorizm va salomatlik sohasidagi kompensatsiyalar mavzusini qamrab oladi; European Group on Tort Law ("Tilburg Group") (Yevropa mamlakatlari) – "Principles of European Tort Law" ni tayyorlash, delikt chegaralari va standartlarini birxillashtirish ustuvor vazifalarini o'rganadi³.

O'zbekiston Respublikasining bugungi rivojlanish bosqichida hamda fuqarolik qonunchiligini rivojlantirish konsepsiyasi negizida majburiyat-

² O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining rasmiy so'rovga javob sifatida bergan 2025 yil 22 iyuldagi 07-13/25-25245-sonli xati.

³ <https://www.icj.org/wp-content>; <https://nonews.co/directory/wordbook/sheffen-court>; <https://www.icc-cpi.int>; <https://www.mjusticia.gob.es>; <https://www.jstor.org>; <https://www.sweetandmaxwell.co.uk>; <https://www.academia.edu>; <https://www.taylorfrancis.com>; <https://www.cambridge.org>; <https://cljbooks.rutgers.edu>; <https://academic.oup.com>; <https://www.law.virginia.edu>; <https://ink.library.smu.edu.sg>; <https://www.researchgate.net>.

larni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llash muammolarini hal etishda avvalo sivilistikada quyidagi vazifalar bajarilishi kerak:

majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik tushunchasiga nisbatan ilmiy yondashuvlarning talqinini amalga oshirish;

majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik ifodalanishining o'ziga xos jihatlarini aniqlash;

majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikning rivojlanish genezisini ochib berish;

fuqarolik-huquqiy javobgarlik asosi sifatida majburiyatlarning buzilishini tahlil qilish;

majburiyatlar buzilishining oqibatlarini yoritib berish;

sababiy bog'lanish va aybning majburiyatlar buzilishida ifodalanishini ko'rib chiqish;

majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik turlarining tahlilini o'tkazish;

majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik chorasi sifatida neustoyka qo'llashni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

zararni qoplash va burchni asl holidan bajarishni fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari sifatida tadqiq etish;

qit'a huquqi mamlakatlarida majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikning qo'llanilishini o'rganish;

anglo-sakson huquqi mamlakatlarida majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikning namoyon bo'lishini tadqiq qilish;

musulmon huquqida fuqarolik-huquqiy javobgarlik muammolarini o'rganish;

majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llashga oid qonunchilikni takomillashtirishga oid takliflarni shakllantirish;

majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikka oid huquqni qo'llash amaliyotining tahlilini o'tkazish.

Tadqiqot davomida 4 890 nafar prokuratura, 104 nafar sud va adliya tizimi xodimlari ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, javobgarlarning katta qismi (1854 nafar) amaliyotda real ijro deyarli uchramasligini qayd etgan. Aksariyat hollarda pullik kompensatsiya bilan cheklaniladi, bu esa majburiyatlarning asl maqsadini ta'minlamaydi. Masalan, tovar yetkazib berish shartnoma-

si buzilganda faqat pul to'lanishi, ammo tovarning yetkazilmasligi mijoz huquqlariga putur yetkazadi. Xorij amaliyotida (Germaniya, Fransiya, Niderlandiya) real ijro fuqarolik javobgarligining asosiy usuli hisoblanadi.

So'rovda qatnashganlarning 1275 nafari javobgarlikni isbotlash murakkabligini, 1480 nafari esa sud amaliyotidagi qarama-qarshiliklarni asosiy muammo sifatida ko'rsatgan. Shu bilan birga, 1745 kishi ayb faqat ba'zi hollarda muhim deb hisoblagan. Bu amalda aybning mavqei noaniq ekanligini ko'rsatadi. Germaniya, Avstriya va Shveysariya qonunchiligida ayrim majburiyat turlari (masalan, xavfli faoliyat, ishlab chiqarishdagi xavflar) uchun aybdan qat'i nazar javobgarlik prinsipi qo'llaniladi.

So'rov natijalariga ko'ra, xodimlarning 1548 nafari zarar miqdorini shartnomada belgilangan formula asosida hisoblashni afzal deb hisoblagan, 1372 kishi esa iqtisodiy ekspertizani ustun deb ko'rsatgan. Shu bilan birga, 1952 kishi zarar qoplanishi shart, boshqa choralardan almashtirib bo'lmassligini qayd etgan. Bu amalda zararni aniqlashda yagona yondashuv mavjud emasligini ko'rsatadi. Buyuk Britaniya va AQSh amaliyotida zararni hisoblashning qonuniy metodologiyasi mavjud bo'lib, u "expected loss" va "actual loss" tushunchalari asosida ishlaydi. Germaniyada esa zarar qoplanishi kreditorni majburiyat bajarilgandagi holatga qaytarishi shartligi prinsipiga tayanadi. Real ijroni kuchaytirish, ayb va isbotlash mexanizmlarini aniq belgilash, zararni hisoblashning yagona uslubini joriy qilish – so'rovnoma ko'rsatilgan asosiy muammolarni bartaraf etishning asosiy yo'llari hisoblanadi.

Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni tushunish va talqin etishga nisbatan xorijiy yurisdiksiyalarda ham bir qator ilmiy-amaliy va nazariy yondashuvlar shakllangan. Xorijiy huquqiy fanlarda umum qabul qilingan kategoriya bo'lib, bu javobgarlik, jumladan zararni qoplash va neustoykani undirishdan tashqari, shartnomani bekor qilish, real bajarish, sinallagmatik (ikki tomonlama) shartnomada bajarishni to'xtatib turish yoki bajarishdan bosh tortish (exceptio non adimpleti contractus), pul majburiyatlarida yillik foizlar va bahoni kamaytirishni ham o'z ichiga oladi.

Bu yondashuv BMTning 1980-yil 11-apreldagi "Tovarlar xalqaro oldi-sotdi shartnomalari

to'g'risida"gi Vena Konvensiyasi⁴, UNIDRUAning⁵ xalqaro tijorat shartnomalari prinsiplari, shuningdek Yevropa shartnoma huquqi prinsiplari⁶ kabi uyg'unlashtirilgan xususiy-huquqiy hujjatlarda aks etgan.

Fuqarolik javobgarlikning ikki asosiy funksiyasini – reparativ (zararni qoplash) va preventiv-tarbiyaviy funksiyalarini birlashtirish mazkur huquqiy institutga mustahkam mazmun baxsh etadi, adolat g'oyasini tiklaydi va noqonuniy harakatlar oqibatida yuzaga kelgan salbiy ta'sirlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida keltirilgan zararni to'liq qoplash majburiyatini yuzaga keltiradi.

Majburiyatlarni buzish holatida qo'llaniladigan fuqarolik-huquqiy javobgarlik – bu shartnoma yoki qonun bilan belgilangan qoidalarga rioya qilinmaganida yuzaga keladigan huquqiy reaksiya bo'lib, uning asosiy xususiyati moddiy (mulkiy) xususiyatdagi sanksiyalarni tatbiq etish bilan bog'liqdir. Bunday javobgarlikning vazifasi faqat qarzdorni jazolashdan iborat emas, aksincha, qarzdorning harakatlari yoki harakatsizligi oqibatida kreditorning buzilgan mulkiy manfaatlarini tiklashga qaratilgan.

Fuqarolik huquqida majburiyatlar instituti keyingi yillarda faol rivojlanmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kreditlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi F-5464-sonli 2018-yil

23-noyabrdagi PQ-4026-son qarori, 2019-yil 5-apreldagi farmoyishi bilan tasdiqlangan Fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi hamda 2021-yil 15-sentyabrdagi "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6313-son va 2023-yil 29-apreldagi "Kreditlarning garov bilan ta'minlangan talablarini qanoatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-63-son Farmonlarining qabul qilinishi munosabati bilan fuqarolik-huquqiy javobgarlik institutini takomil-

lashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

O'z.RFKning majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikka bag'ishlangan 24-bobi o'tgan asrning oxirlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib qabul qilingan bo'lib, o'tgan yillar mobaynida bir muncha "eskirgan" hamda zamonaviy chaqiriqlar hamda internet tar-mog'ining rivojlanishi bilan bog'liq masalalarni qamrab olmagan. Shu nuqtai nazarda O'z.RFKning 24-bobini yangi tahrirda belgilash va uning tuzilishini xorijiy mamlakatlar, eng avvalo qo'shni mamlakatlar fuqarolik kodekslaridan kelib chiqib qayta shakllantirish lozim bo'ladi.

Agar amaldagi O'z.R.FKning 24-bobiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bunda "majburiyatlarni buzish tushunchasi", "majburiyatni buzish oqibat-lari", "shartnomani bekor bo'lganlik uchun javobgarlik", "yo'qotishlar uchun javobgarlik", "qarzdorning o'z xodimlari tomonidan yetkazilgan zarari uchun javobgarlik", "majburiyatda tavakkalchilik" va shu kabi bir qator moddalar va qoidalar mavjud emasligi ko'zga tashlanadi.

Amaldagi qonunchilik, sud amaliyoti va ilmiy doktrina tahlili asosida majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni rivojlantirishning qator tendensiyalarini ajratish mumkin: 1) fuqarolik qonunchiligiga insofilik tamoyilining kiritilishi; 2) majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlikning samarali modelini izlash jarayoni hali ham davom etmoqda; 3) fuqarolik-huquqiy javobgarlik konstruksiyasida oqibatlarni oldindan ko'ra bilish mezonini inobatga olish va sababiy bog'lanishni subyektivlashtirish; 4) fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralarining kompensatsion yo'naltirilganligi – kreditorning ijro manfaatini himoya qiladi (performance interest); 5) fuqarolik-huquqiy javobgarlikning dispozitiv tamoyillarining rivojlanishi; 6) fuqarolik-huquqiy javobgarlik instituti rivojlanishining tendensiyalaridan biri – shartnomadan tashqari javobgarlik doirasining kengayishi va shartnomaviy hamda delikt javobgarligi o'rtasidagi o'zaro aloqaning mustahkamlanishidir.

⁴ Xalqaro tovar sotish shartnomalari to'g'risidagi BMT Konvensiyasi (inglizcha nomi: United Nations Convention on Contracts for the International Sale of Goods), ba'zan Vena konvensiyasi deb ham ataladi, bu xalqaro savdo uchun yagona huquqiy asos yaratishga qaratilgan ko'p tomonlama shartnomadir. 2023 yil dekabr holatiga ko'ra, mazkur konvensiyani 97 ta davlat ratifikatsiya qilgan bo'lib, ular dunyo savdosining uchdan ikki qismini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996 yil 30 avgustdagi 294-I-sonli "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro tovarlar oldi-sotdisi shartnomalari to'g'risidagi konvensiyasiga qo'shilish haqida"gi qaroriga asosan qo'shilgan. (O'zbekiston Respublikasi uchun 1997 yil 1 dekabrda kuchga kirgan), <https://lex.uz/acts/2634626>.

⁵ Международный институт унификации частного права, сокращённо UNIDRUA (fr. UNIDROIT); Источник – <https://ru.wikipedia.org>

⁶ https://www.uaipit.com/uploads/legislacion/files/1415358888_5EN_Principles_of_European_Contract_Law_parts_I_and_II_31_07_1998.pdf.

Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llashga oid nazariy va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xulosalar, taklif hamda tavsiyalarni bildiramiz:

1. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik – bu moddiy (mulkiy) sanksiyalar turlaridan biri bo'lib, u qarzdor (ya'ni, zarar yetkazuvchi shaxs) uchun uning mulkiy huquqlari sohasida salbiy oqibatlar yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi va shu orqali jabrlanuvchiga uning huquqi buzilgunga qadar mavjud bo'lgan holatni to'liq yoki qisman tiklash imkonini beradi.

2. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik: 1) Huquqbuzarlik uchun davlat tomonidan qo'llaniladigan mulkiy sanksiyadir; 2) Javobgarlik real majburiyatni ijro etishdan farq qiladi; 3) Javobgarlik sanksiyaning amalga oshgan shakli sifatida namoyon bo'ladi; 4) Sanksiya va javobgarlik o'rtasida farqlar mavjud; 5) Fuqarolik-huquqiy javobgarlikni alohida huquqiy institut sifatida shakllantirish maqsadga muvofiq.

3. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning ikki asosiy funksiyasini – reparativ (zararni qoplash) va preventiv-tarbiyaviy funksiyalarini birlashtirish mazkur huquqiy institutga mustahkam mazmun baxsh etadi, adolat g'oyasini tiklaydi va noqonuniy harakatlar oqibatida yuzaga kelgan salbiy ta'sirlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida keltirilgan zararni to'liq qoplash majburiyatini yuzaga keltiradi.

4. Javobgarlik asosi sifatida aybga nisbatan yondashuvni o'zgartirish hamda barcha turdagi majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlikni belgilashda ayb mezonini inobatga olish lozim bo'ladi. Shu sababli, Fuqarolik kodeksidagi majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim daraja-

da bajarmaganlik uchun javobgarlik asosi sifatida aybni belgilash, fors-major holatlarini ham barcha uchun bir xilda amal qilishini nazarda tutish o'rinli bo'ladi.

5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksini takomillashtirish, ya'ni "Yuridik shaxslar organlari va mansabdor shaxslarining fidutsiar (ishonchli) javobgarligi", "Bir xil turdagi majburiyatlar bo'yicha talablarni qondirish", "Majburiyat bo'yicha kreditorning huquqlarini himoya qilish", "Majburiyatni buzishning huquqiy oqibatlari", "Shartnoma bekor qilinganda yetkazilgan zararlarni qoplash", "Qarzdorning o'z xodimlari uchun javobgarligi", "Majburiyatda tavakkalchiligi xavfi", "Shartnomada nazarda tutilgan holatlar ro'y berganda vujudga keladigan mulkiy yo'qotishlarni qoplash" nomli yangi moddalar kiritish maqsadga muvofiq.

6. Fuqarolik qonunchiligida real ijroni asosiy chora sifatida belgilash va faqat o'ta favqulodda holatlarda (imkonsizlik, huquqiy to'siqlar) pullik kompensatsiya bilan almashtirish mumkin. Majburiyatni asl holda bajarish to'g'risidagi qarorlarni ijro organlari orqali samarali ta'minlash bo'yicha sudlarning vakolatini kuchaytirish zarur.

7. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikda aybning ahamiyati aniq belgilanishi kerak. Xususan, obyektiv javobgarlik (aybdan qat'i nazar) va subyektiv javobgarlik (aybga asoslangan) holatlarini huquqiy normalarda aniq ajratish lozim.

8. Zararni hisoblashning yagona uslubiy qoidalarini, ya'ni metodologiyasini ishlab chiqish. Sudlarda iqtisodiy ekspertizani majburiy tartibda tayinlash, shartnomalarda zararni hisoblash formulalarini qonun darajasida belgilangan me'yorlarga moslash lozim.



Mehnat huquqlarini himoya qilish yo'nalishlari: holat va istiqbollar

TURDIBOYEVA Ra'no Eshovna

yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri o'rinbosari

Annotatsia: Maqolada munosib mehnat tamoyillarini ilgari surish, inson huquqlarini, xususan, xotin-qizlar va bola huquqlarini ta'minlash, ushbu sohalarga oid milliy qonunchilikni xalqaro standartlardan kelib chiqqan holda takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning ayrim jihatlarini yoritilgan, zarur tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: mehnat huquqlari, munosib mehnat, mehnatga haq to'lash, gender neytrallik, oilaviy majburiyatlar, mehnat xavfsizligi.

Аннотация. В статье освещаются некоторые аспекты работы, проводимой для продвижения принципов достойного труда, обеспечения прав человека, в частности прав женщин и детей, и совершенствования национального законодательства в этих областях на основе международных стандартов, а также приводятся необходимые рекомендации.

Ключевые слова: трудовые права, достойный труд, оплата труда, гендерная нейтральность, семейные обязанности, безопасность труда.

Yangi O'zbekistonda "Inson qadri uchun" ezgu maqsadiga mos ravishda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish, munosib mehnat tamoyillarini ilgari surish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, ushbu sohalarga oid milliy qonunchilikni xalqaro standartlardan kelib chiqqan holda takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar o'zining samarali natijalarini bermoqda va xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak baho berib kelinmoqda.

Shulardan eng e'tiborlisi – yangi tahrirda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Mehnat kodeksining qabul qilinganligidir.

2023-yilda umumxalq referendumini orqali qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaning 42-moddasida:

har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiena talblariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamситishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalaniш huquqiga ega ekanligi;

mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanishi;

shuningdek, homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishi mustahkamlab qo'yilgan.

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli ekanligi qayd etilgan¹.

Mazkur moddada davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqa-

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // Qonunchilik ma'lumotlar bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son. // URL.: <https://lex.uz/ru/docs/6415145>.

rishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashi kafolatlangan.

E'tiborli jihatlardan yana biri – O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) Konvensiyalari asosida mehnat va ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarini huquqiy tartibga solishning asosiy tamoyillarini belgilash va aniqlashtirishga qaratilgan yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi (2022-y.) qabul qilinganligidir. Quyida Kodeksdagi asosiy yangi jihatlariga to'xtalib o'tamiz.

Yangi Mehnat kodeksiga ayollar va erkaklar mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash, mehnat huquqlari ta'minlanishining va mehnat majburiyatlari bajarilishining kafolatlangani, ayniqsa, xotin-qizlarga mehnat munosabatlarida, mehnatga haq to'lash kabi masalalarda erkaklar qatori bir xil munosabatda bo'lish bo'yicha normalar kiritildi.

Bu yangi Mehnat kodeksining 4-, 20-, 95-, 244-, 392-moddasidan 410-moddalarini o'z ichiga olgan 18 ta normalarda o'z aksini topgan.

Jumladan, Kodeksning 4-moddasiga muvofiq, mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash prinsipi belgilanib, unga ko'ra har kim mehnat huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishda teng imkoniyatlarga ega ekanligi qayd etildi.

20-moddasiga asosan, mehnat huquqlari va majburiyatlariga ega bo'lish layoqati (mehnatga oid huquq layoqati) hamda mehnatga oid muomala layoqati O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari uchun teng ravishda e'tirof etiladi.

95-modda bilan davlat: kasb egallashda va ishga ega bo'lishda, mehnat qilish va bandlik sharoitlarida, mehnatga haq to'lashda, xizmat pog'onalari bo'yicha ko'tarilishda har kimga imkoniyatlar tengligi yaratilishi kafolatlanganligi, 244-modda bilan teng qiymatli mehnat uchun erkaklar va ayollarga teng miqdorda haq to'lanishi ta'minlanganligi e'tiborga va e'tirofga molikdir, albatta.

Shuningdek, yangi Mehnat kodeksining 392-moddasidan 410-moddasigacha, ya'ni 18 ta modda ayollarning va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul shaxslarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari, belgilangan imtiyoz va kafolatlariga bag'ishlangan.

Jumladan, eski Mehnat kodeksida mehnat sharoiti noqulay ishlarda, shuningdek yer osti ishlarida ayollar mehnatini qo'llanishi taqiqlangan edi.

Yangi Mehnat kodeksida ushbu taqiq olib tashlangan bo'lib, 393-moddaga ko'ra, noqulay mehnat sharoitlariga ega bo'lgan ishlarda ayollarning mehnatidan foydalanish cheklanadigan ayrim ishlar tavsiyaviy ro'yxatini tasdiqlanishi belgilangan.

Kodeksning 397-moddasi "Uch yoshga to'lmagan bolaning ota-onasidan birining (vasiysining) qisqartirilgan ish vaqti davomiyligiga bo'lgan huquqi" deb nomlanib, unda tegishli me'yorlar mustahkamlab qo'yildi.

Unga ko'ra uch yoshga to'lmagan bolaning budjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlarda ishlaydigan ota-onasidan biriga (vasiysiga) haftasiga o'ttiz besh soatdan oshmaydigan ish vaqti davomiyligi belgilanadi.

Shuningdek, ushbu moddada uch yoshga to'lmagan bolaning budjetdan moliyalashtirilmaydigan ish beruvchilarda ishlaydigan ota-onasidan biriga, vasiysiga qisqartirilgan ish vaqti davomiyligi jamoa kelishuvlarida, jamoa shartnomasida yoki ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda qabul qilinadigan ichki hujjatlarda belgilanishi mumkin.

Kodeksda ijtimoiy va huquqiy himoyaga muhtoj ishchilarning ayrim toifalari – ayollar va oilaviy majburiyatlarni bajarish bilan shug'ullanadigan shaxslar, 18 yoshga to'lmagan ishchilar, nogironlar, o'rindoshlik asosida ishlovchilar, yakka tartibdagi tadbirkorlar mehnatini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari aks etgan.

Masalan, 403-moddaga asosan ish beruvchi homilador ayollarga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida antenatal (tug'ruqqacha) parvarishlash (perinatal skrining va tashxis, majburiy tibbiy ko'rik va boshqa majburiy tibbiy muolajalar) uchun o'rtacha ish haqi saqlangan holda qo'shimcha bo'sh kunlarni berishi lozim bo'ladi.

405-moddaga asosan ikki yoshga to'lmagan bolani parvarishlash ta'tili nafaqat onaga, balki bolaning otasi, buvisi, buvasi yoki bolani haqiqatda parvarishlayotgan boshqa qarindoshlariga ham, shuningdek vasiysiga berilishi mumkin.

Kodeksda professional faoliyatini oilaviy majburiyatlar bilan uyg'unlashtirgan xodimlar mehnatini tartibga solishda "gender neytrallik"

tamoyili ta'minlangani ham alohida e'tiborga mo-lik masala hisoblanadi.

Shu maqsadda ayollarning fiziologik xususiyatlariga bog'liq bo'lmagan bolalarni tarbiyalashga oid kafolatlar (ta'tilga chiqish, qisqartirilgan ish vaqti va hk.) nafaqat onaga, balki otaga va ularga tenglashtirilgan shaxslarga (vasiyga) ham berildi.

Shuningdek, Kodeksda xodimning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'diradigan ishlarni bajarishdan bosh tortish tartibi, transport xodimlari, o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari va professional sportchilar, shuningdek chet ellik ishchilar mehnatini tartibga solishning xususiyatlari, mehnat munosabatlarining vujudga kelishi uchun asoslarni kengaytirish, tanlovdan o'tish va lavozimga saylash, vakolatli davlat organi tomonidan xodimni ishga yuborish, chet el fuqarosini ishga qabul qilishda mehnat qilish huquqini tasdiqlash, safarbarlik va shu kabi bir qator normalar mustahkamlandi.

Bundan tashqari Kodeksda mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklikka bag'ishlangan alohida bo'lim kiritilgan. Ushbu sheriklik xodimlar, ish beruvchilar, davlat organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi bo'lib, bu tizim ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish masalalari yuzasidan xodimlar, ish beruvchilar va davlat manfaatlarini muvofiqlashtirishni ta'minlashga qaratilgan².

Yuqoridagilarga muvofiq, Mehnat kodeksi sohadagi qator muammolarni bartaraf etishga xizmat qiluvchi muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi va mamlakatimizda ijtimoiy soha va iqtisodiyotni rivojlantirish, jumladan, investitsiya muhitini yaxshilash, ish bilan taminlashning zamonaviy shakllari hamda kasb-hunarga o'qitish tizimlarini joriy etish borasidagi keng ko'lamli islohotlarga to'liq mos keluvchi tarixiy hujjat hisoblanadi.

Ushbu Kodeks yurtimizdagi har bir shaxsning mehnat huquqlari himoyasi kafolatlarini kuchaytiradi, mehnat huquqlarini tartibga solishdagi bo'shliqlar va qarama-qarshiliklarni bartaraf etadi.

Yana bir muhim masala. Bugungi kunda O'zbekiston tomonidan Xalqaro mehnat tashkilotining jami ratifikatsiya qilingan konvensiyalari soni 25 taga yetdi.

2024-yilning o'zida Xalqaro mehnat tashkilotining quyidagi 5 ta konvensiyasi:

Xodimlarni ish joyidagi havoning ifloslanishi, shovqin va tebranishlar tufayli yuzaga keladigan kasbiy xavf-xatardan himoya qilish to'g'risidagi 148-son Konvensiyasi (Jeneva, 1977-yil 20-iyun) O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 6-maydagi O'RQ-840-son Qonuni bilan;

Ish haqini himoya qilish to'g'risidagi 95-son Konvensiyasi (Jeneva, 1949-yil 1-iyul) O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 12-martdagi O'RQ-918-son Qonuni bilan;

Ishlayotgan erkaklar va ayollar uchun teng munosabatlar va teng imkoniyatlar: oilaviy majburiyatlarga ega ishchilar to'g'risidagi 156-son Konvensiyasi (Jeneva, 1981-yil 23-iyun) O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 19-iyundagi O'RQ-932-son Qonuni bilan;

Haq to'lanadigan ta'tillar to'g'risidagi 132-son Konvensiyasi (1970-yilda qayta ko'rib chiqilgan) (Jeneva, 1970-yil 24-iyun) O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-noyabrdagi O'RQ-994-son Qonuni bilan;

To'liqsiz ish vaqti sharoitlarida ishlash to'g'risidagi 175-son Konvensiyasi (Jeneva, 1994-yil 24-iyun) O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 12-sentabrdagi O'RQ-962-son Qonuni bilan;

Mehnat xavfsizligi va gigienasi hamda ishlab chiqarish muhiti to'g'risidagi 155-sonli Konvensiyasi (Jeneva, 1981-yil 22-iyun) O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 2-oktabrdagi O'RQ-969-son Qonuni bilan ratifikatsiya qilindi.

Ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda barcha sohalarida fuqarolarning munosib mehnat qilishi, ular uchun qulay mehnat sharoitlarini ta'minlashga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, faqatgina qonunchilik bazasini mustahkamlash emas, balki belgilangan qonunchilik talablariga rioya etilishini nazorat qilish hamda targ'ibot ishlarini kuchaytirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Davlat mehnat inspeksiyasi va kasaba uyushmalari tomonidan fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish bo'yicha nazorat va targ'ibot tadbirlari olib bormoqda.

Shuningdek, Ijtimoiy mehnat masalalari bo'yicha respublika komissiyasining, Odam savdosiga qarshi va munosib mehnat masalalari bo'yicha respublika komissiyasining faoliyat yuritayotgani, Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlik-

² O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 2022-yil 28-oktabr. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>.

da O'zbekistonda munosib mehnat bo'yicha mamlakat dasturini ishlab chiqilishi mehnat sohasida inson qadrini oshirish, barcha fuqarolar uchun adolatli va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi fikrlar va tahlillardan kelib chiqib, ish beruvchilar tomonidan mehnat to'g'risidagi qonunchilik, mehnatni muhofaza qilish qoidalari hamda mehnat standartlari talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshirishdagi ishlar samaradorligi va natijadorligini yanada oshirish yuzasidan istiqbolda quyidagi yo'nalishlarni yanada kuchaytirish zarur:

1) ishchilar mehnat qilayotgan obyektlarda davlat mehnat inspektorlarining nazoratini kuchaytirish maqsadida davlat mehnat inspektorlari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlarni sutkaning istalgan vaqtida, oldindan xabardor qilmasdan va ogohlantirmasdan o'tkazish mexanizmlarini joriy etish;

2) ish beruvchilar bilan xodimlar o'rtasidagi muvozanatli mehnat munosabatlarini yanada qo'llab-quvvatlash hamda mehnat sohasidagi nizolarni mediatsiya usulida hal etish imkoniyatlarini kengaytirish;

3) ishlab chiqarish faoliyatida zararli ishlab chiqarish omillari xavfini minimallashtirish hamda xodimning hayoti va sog'lig'i ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan targ'ibot va nazorat tadbirlarini kuchaytirish;

4) tashkilotlardagi mehnat sharoitlarining davlat ekspertizasidan o'tkazilishi hamda sertifikatsiyalash jarayonlaridagi shaffoflikni oshirish hamda ushbu yo'nalishda mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik (tripartizm) taraflarining faolligini qo'llab-quvvatlash;

5) ish joylaridagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarini oldini olish hamda xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash maqsadida mehnat xavfsizligi standartlarini ishlab chiqish va ularga qat'iy rioya qilinishi ustidan ta'sirchan nazorat mexanizmlari o'rnatish;

6) barcha tashkilotlarda mehnat huquqlari va mehnat muhofazasi ta'minlanganlik holati onlayn reyting asosida baholab borish;

7) qishloq xo'jaligi tarmog'ida ish beruvchilar va mavsumiy ishchilar o'rtasida mehnat shartnomalarini tuzishni soddalashtirish bo'yicha mehnat qonunchiligini takomillashtirish;

8) umumiy ovqatlanish, tikuv-to'qimachilik va xizmat ko'rsatish sohalaridagi majburiy mehnat, munosib mehnat sharoitlarini yaratish bilan bog'liq muammolarni aniqlash yuzasidan mustaqil jamoatchilik faollari bilan hamkorlikda muntazam monitoringlar o'tkazib borish³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida" 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son Farmonida ham aholining mehnat qilish huquqlarini ta'minlash, mehnat qonunchiligini takomillashtirish hamda mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha maqsad va vazifalar belgilangan⁴.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy adolat amalda bo'lsa, jamiyat hayoti yengillashadi va iqtisodiyot samarali rivojlanadi. Yanada muhimi, qashshoqlik, tengsizlik va ijtimoiy tanglik kamayadi. Shu munosabat bilan BMT Bosh kotibi Antonio Guterrish 2023 yildagi ma'ruzasida bu borada inklyuziv va ko'p tomonlama yondashuvni kuchaytirish, qaytadan global birdamlikka erishish, mamlakatlar hukumatlari va xalqlari o'rtasidagi ijtimoiy shartnomani, shuningdek, har bir jamiyat shartnomasini – inson huquqlarini ta'minlashga qamrovdor yondashgan holda, tubdan yangilashga chaqirgani bejiz emas.

Mamlakatimizda ushbu yo'nalishda allaqachon izchil ish olib borilmoqda. Negaki, biz barpo etayotgan Yangi O'zbekiston – har bir fuqarosi uchun g'amxo'rlik qiladigan ijtimoiy davlat va adolatli jamiyat bo'ladi.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 20-dekabrda PF-223-son Farmoni. Hujjat matni ushbu havolada: <https://lex.uz/uz/docs/7271094>.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida" 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son Farmoni. Hujjat matni ushbu havolada: <https://lex.uz/docs/805078>.

Iqlim o'zgarishi sharoitida suv resurslarini ekologik-huquqiy muhofaza qilish va undan foydalanishning ilmiy-nazariy muammolari

XOLMO'MINOV Jumanazar Toshtemirovich

Toshkent davlat yuridik universiteti
professori, yuridik fanlar doktori

Annotatsia: Maqolada munosib mehnat tamoyillarini ilgari surish, inson huquqlarini, xususan, xotin-qizlar va bola huquqlarini ta'minlash, ushbu sohalarga oid milliy qonunchilikni xalqaro standartlardan kelib chiqqan holda takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning ayrim jihatlarini yoritilgan, zarur tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: mehnat huquqlari, munosib mehnat, mehnatga haq to'lash, gender neytrallik, oilaviy majburiyatlar, mehnat xavfsizligi.

Аннотация. В статье освещаются некоторые аспекты работы, проводимой для продвижения принципов достойного труда, обеспечения прав человека, в частности прав женщин и детей, и совершенствования национального законодательства в этих областях на основе международных стандартов, а также приводятся необходимые рекомендации.

Ключевые слова: трудовые права, достойный труд, оплата труда, гендерная нейтральность, семейные обязанности, безопасность труда.

Tabiat boyliklari orasida suv alohida ahamiyatga ega bo'lib, u tirik mavjudotning yashash hayot manbaidir. Zero, insoniyat hayoti davom etishi uchun suvni va suv manbalarini, avvalo, chuchuk suvdan tejamkorlik asosida foydalanishlari hamda ularni muhofaza qilishlari lozim bo'ladi.

Bu borada muqaddas Qur'oni Karimda ham suvdan oqilona foydalanishga alohida e'tibor berilgan. Muborak kitobda bitilishicha, tabiat obyektlari, jumladan, suv boyliklari va manbalari Yaratganning mulki hisoblanib uni muhofaza etadi¹.

Zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"-da² tabiat muhofazasiga alohida o'rin ajratilganligi ham o'ta muhimdir. Bu ta'limotga ko'ra qadimgi

ajdodlarimiz ona tabiatni nihoyatda e'zozlaganlar, o'z hayotlarini tabiat bilan, yer, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi bilan chambarchas bog'liq holda tasavvur etganlar. "Avesto" ta'limoti suvni asrab-avaylab foydalanish lozimligiga da'vat etgan va odamlar shu ta'limotga asoslanib suv boyliklariga nisbatan oqilona munosabatda bo'lganlar.

Ichimlik suvining inson organizmi uchun foydali tomonini sharqning mutafakkir olimlari yaxshi bilishgan. Masalan, Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari"³ kitobining birinchi jildida "Suvning sifati" haqida ko'pgina ma'lumotlar keltirilgan, suvning inson hayoti uchun zarur tabiat boyliklaridan biri ekanligi, suvning xususiyatlarini yaxshilaydigan bir necha usullarni bayon qilgan

¹ Quroni Karim. Alouddin Mansur tarjimai. Toshkent, 2007. Lotinchada tayyorlangan. B. 341-356-bet.

² Avesto to'g'risidagi ma'lumotlar "Avesto" tarixiy-adabiy yodgorlik. A.Mahkam tarjimai. – T.: Sharq, 2001

³ Ibn Sino, Abu Ali Tib qonunlari: (Uch jildlik saylanma). (Tuzuvchilar: U. Karimov, H. Hikmatullaev). J. 1. T.; A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 304 b.

va suvni toza saqlash, uni qaynatib ichish kerakligi xususida odamlarga foydali g'oyalarni uqtirib o'tgan.

Suvni muhofaza qilishning huquqiy manbai asosida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya-sining 68-moddasida: "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir. Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin"⁴ deb belgilab qo'yilganligi ham muhim ahamiyatga ega.

Bu borada, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Shuningdek, tobora o'tkir tus olayotgan iqlim o'zgarishi muammolariga ham alohida to'xtalmoqchiman. Jumladan, Orol dengizi qurishining salbiy oqibatlari jahon hamjamiyatining doimiy diqqat markazida bo'lishi lozim. Biz Orolbo'yi ekotizimini qayta tiklash bo'yicha ishlarni izchil davom ettiryapmiz. So'nggi yillarda dengizning qurigan tubida 2 million gektar maydonda sho'rga chidamli cho'l o'simliklari ekildi. 2030-yilgacha ushbu hududning 80 foiz qismida yashil qoplamalar hosil qilinadi. Yana bir muhim muammo – bu suv resurslarining taqchilligidir.

Respublikamizning asosiy suv ta'minoti, shu jumladan, ekinlarni sug'orish 55 ga yaqin suv omborlari hisobidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, O'zbekiston suv resurslari milliy boyligini 500 ta tabiiy ko'l hamda 1448 ta buloq tashkil etishi ham e'tiborga molik. Bugungi kunda aholi jon boshiga suvdan foydalanish me'yori sutkasiga 115-240 litr bo'lib, bu dunyodagi o'rtacha ko'rsatkichdan past hisoblanadi. Misol uchun, Birlashgan Arab Amirliklarida kuniga 700, Rossiyada 400, AQShda 200, Germaniyada esa 130 litr suv sutkalik normani tashkil qiladi. O'zbekiston hududidagi 97 ta yer konida 64 million kub metr, ya'ni 700 tonna

umumiy yer osti suv zaxiralari mavjud. Bular asosan Toshkent, Samarqand, Surxondaryo, Naman-gan, Andijon va Farg'ona viloyatlarida joylashgan. Buxoro va Navoiy viloyatlarida o'rtacha suv zaxiralari bo'lsa, Qoraqalpog'iston va Xorazmda chuchuk suvlar deyarli mavjud emas va yerosti chuchuk suvlari respublika bo'ylab teng tarqalmagani eng katta muammolardan biridir⁵.

Bundan bir necha yil muqaddam, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev alohida ta'kidlaganidek, "qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish bo'yicha ustuvor vazifa – avvalo, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishdir"⁶, - degan fikrlari alohida e'tiborga molik.

Suv resurslarini ekologik-huquqiy muhofaza qilish va undan foydalanishning huquqiy asoslarini takomillashishiga ham katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida"gi qarori⁷, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-son "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish Konsepsiyasi"⁸, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini 2020-2030-yillarda rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi⁹ farmoni va boshqalar juda muhim ahamiyatga ega bo'lib iqlim o'zgarishlari sharoitida mamlakatimizda suv resurslaridan oqilona foydalanish va uni ekologik muhofaza qilish masalasi zamonaviy yechimining asosi bo'lib qolmoqda.

Suvni ekologik huquqiy muhofaza qilishdan maqsad suv resurslari va ularning manbalari-dan oqilona foydalanish, suvni tabiiy xossalari-ni saqlash, uni ifloslanishdan, zaharlanishdan, tarkibi buzilishidan himoya qilish, ayniqsa, suvni sanitariya talablariga mosligi va unda yashay-digan tabiiy mavjudotni ekologik normal holatini ta'minlashdan iborat bo'lishi lozim. Suvni huquqiy

⁴ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, "Adolat", 2023.

⁵ Ibodinova S. Dunyoni qamrab olayotgan suv muammosi. Bizni nima qutqaradi, qanday oqibatlar kutmoqda? <https://www.ekogazeta.uz/xabarlar/5868>

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal demokratik partiyasining syezdidagi ma'ruzasi. Demokratik islohatlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir. // Xalq so'zi. 2016-yil. 2-noyabr №216 (6651).

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida"gi qarori. // Xalq so'zi gazetasi. 2017-yil. 22-apreldagi 80-son, (6774).

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-son "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish Konsepsiyasi. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.06.2019 y., 06/19/5742/3297-son.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini 2020-2030 yillarda rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. <https://krminwater.uz/19/02/2020/73/>.

muhofazasi to'g'risida gapirganda "Suv muhofazasi", "Suvni huquqiy ekologik muhofaza qilish", "Suvdan foydalanish huquqini himoya etish" kabi tushunchalar ma'nosini to'g'ri tushunish va farqlash lozim bo'ladi.

"Suvni huquqiy muhofaza qilish" jarayoni esa tabiatni muhofaza qilish, ekologik, suv va suvdan foydalanish to'g'risidagi qonunlar talablariga asosan suv manbalaridan oqilona foydalanish, uni tabiiy xossasini saqlash, ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik hamda suv resurslarini, manbalarini muhofaza qilishga qaratilgan boshqa tadbirlarni amalga oshirishda, suv, sanitariya to'g'risidagi qonun talablarini buzilishiga qarshi kurashish, suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi huquqbuzarliklarni oldini olish bilan bog'liq va boshqa holatlarni o'z ichiga oladi. Amaldagi 2025-yil 30-iyulda qabul qilingan "Suv kodeksi"ning V bo'lim, "Suvni va suv obyektlarini muhofaza qilish, suvning zararli ta'sirining oldini olish"ga, 22-bob "Suvni va suv obyektlarini muhofaza qilish", – deb nomlanib, 115-122-moddalarni o'z ichiga olganligini ko'rish mumkin¹⁰.

Bundan tashqari, hozirgi paytda aholi yashash joylarini ichimlik suvi bilan ta'minlash va uni muhofaza qilish maqsadida hukumat tomonidan ham bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ushbu masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-noyabr "Aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish va uning sifatini yaxshilash uchun O'zbekiston Respublikasining suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi¹¹, "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini 2020-2030-yillarda rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-oktabr PQ-343-son "Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi¹² qarori ham qabul qilinganligi ham muhim ahamiyatga ega.

Shunday ekan, suv resurslaridan oqilona foy-

dalanish va uni muhofaza qilish har xil vosita va usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ana shunday usullardan biri suv manbalarini huquqiy ekologik muhofaza qilishdir, ya'ni suv resurslarini qonun va boshqa huquqiy normalari yordamida, uning tozaligini ta'minlash, ifloslanishdan saqlash, foydalanish rejimi (tartibi)ni talab darajasida ta'minlash hamda suv resurslari mavjud manbalarni saqlash yoki ularni yomon holatdan himoya qilish shular jumlasidandir.

Iqlim o'zgarishlari sharoitida suv resurslaridan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishning asosiy usullariga suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, suv iste'molini rejalashtirish va hisobga olish, suv xo'jaligi infratuzilmasini modernizatsiya qilish va bozor tamoyillarini joriy etish kiradi. Bu usullar suvdan samarali foydalanish, uning sarflanishini kamaytirish va suv resurslarini uzoq muddat davomida saqlashga qaratilgan.

1. Suvdan foydalanish huquqini turli xil ma'nolarda tushunish mumkin:

1) suvdan foydalanish huquqi suv huquqining asosiy instituti bo'lib, turli sohalaridagi me'yoriy huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan huquqiy normalar yig'indisidir;

2) suvdan foydalanish huquqi suvdan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari yig'indisidir;

3) suvdan foydalanish huquqi suvdan foydalanuvchilarning subyektiv huquq va vakolatlarini amalga oshirish mexanizmini, ularni amaliyotda qo'llash jarayonini o'zida mujassamlashtiruvchi huquqiy munosabatdir¹³.

Markaziy Osiyo bo'yicha suv xo'jaligini muvofiqlashtirish davlat komissiyasi 2025-2026-yillar sug'orishlararo davri uchun suv olish limitlari va suv omborlari ish rejimi bo'yicha kelishuvga keldi. Kelishuvga ko'ra, Amudaryoda umumiy suv limiti 55,4 milliard kub metr etib belgilandi. Shundan 15,9 milliard kub metri oktabr-aprel oylariga to'g'ri keladi. Davlatlar kesimida taqsimot: Tojikiston – 9,82 mlrd kub m; Turkmaniston – 22 mlrd kub m; O'zbekiston – 22 mlrd kub m (o'tgan

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 30-iyulda qabul qilingan Suv kodeksi. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.07.2025 y., 03/25/1076/0672-son

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-noyabr "Aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish va uning sifatini yaxshilash uchun O'zbekiston Respublikasining suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.11.2019 y., 06/19/5883/4074-son

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-oktabr PQ-343-son "Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2023 y., 07/23/343/0812-son

¹³ Suv huquqi. Darslik. // yu.f.d., prof. J.T. Xolmominovning umumiy tahriri ostida. – T.: TDYul, 2011. – B.338.

yilgi bilan bir xil). Shuningdek, sanitar-ekologik maqsadlarda 800 mln kub metr suv belgilangan: Dashogʻuz viloyati – 150 mln kub m; Xorazm viloyati – 150 mln kub m; Qoraqalpogʻiston – 500 mln kub m. Bu miqdor Orolboʻyi ekotizimi va ichimlik suvi taʼminotini qoʻllab-quvvatlashga yoʻnaltiriladi. Sirdaryo daryosida vegetatsiya davri uchun umumiy suv olish limiti 4,22 mlrd kub metr etib belgilandi. Davlatlar kesimida: Qozogʻiston – 460 mln kub m; Qirgʻiziston – 47 mln kub m; Tojikiston – 365 mln kub m; Oʻzbekiston – 3,34 mlrd kub m (oʻtgan yilgi bilan bir xil). Bu koʻrsatkichlar prognoz qilingan oqimlar, suv omborlaridagi mavjud zaxiralar va ekologik talablar asosida shakllantirilgan. Suv omborlaridagi holat 2024-yil 1-oktabr holatiga koʻra, suv omborlaridagi umumiy zaxira 15,52 mlrd kub metrni tashkil etdi. 2026-yil uchun asosiy suv omborlariga kutilgan oqim: Toʻqtagʻul suv ombori – 2,93 mlrd kub m (normaning 98%); Andijon suv ombori – 884 mln kub m (normaning 95%); Chorvoq suv ombori – 1,07 mlrd kub m (normaning 75%). Umumiy yonbosh oqim, yaʼni asosiy daryoga keladigan “qoʻshimcha suvlar” normaning 71%, yaʼni 12,77 mlrd kub metr boʻlishi kutilmoqda¹⁴.

2. Suv obyektidan suv olish usuliga, suvlarning va suv obyektlarining holatiga taʼsir etilishiga qarab suvdan foydalanish suvdan umumiy va maxsus foydalanishga boʻlinadi: a) suvdan umumiy foydalanish – jismoniy shaxslar tomonidan suvlarning va suv obyektlarining holatiga taʼsir etuvchi maxsus inshootlar va qurilmalarni qoʻllamagan holda oʻz ehtiyojlarini hamda boshqa ehtiyojlarni qondirish maqsadida suvdan foydalanish;

Suv kodeksining 54-moddasiga asosan, suvdan umumiy foydalanish jumlasiga quyidagilar kiradi: oʻzining ichimlik va xoʻjalik-maishiy ehtiyojlari uchun suv olish; choʻmilish; baydarda va motorsiz qayiqda suzish; chorva mollarini sugʻorish; sport va havaskorlik yoʻli bilan baliq ovlash. Suvdan umumiy foydalanish ushbu Kodeksda va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ruxsatsiz va cheklovlarisiz amalga oshiriladi. Tanho foydalanishga berilgan suv obyektlarida suvdan umumiy foydalanishga va suv isteʼmoliga ushbu suv obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlar tomonidan suv xoʻjaligi organlari, ekologiya,

atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi organlari bilan kelishilgan holda (ichki sugʻorish va kollektor-drenaj tarmoqlariga oid qismida) belgilangan shartlarga koʻra yoʻl qoʻyiladi, zarur boʻlganda esa bunday suvdan foydalanish qonunchilikka muvofiq taqiqlanishi mumkin.

b) suvdan maxsus foydalanish – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan suvlarning va suv obyektlarining holatiga taʼsir etuvchi maxsus inshootlar va qurilmalarni qoʻllagan holda amalga oshiriladigan suvdan foydalanish. Amaldagi Suv kodeksining 55-moddasiga koʻra, suvdan maxsus foydalanish jumlasiga quyidagilar kiradi: toʻsuvchi inshootlardan, nasoslardan, nasos stansiyalaridan, sifonlar va suv koʻtaruvchi boshqa qurilmalardan foydalangan holda suv olish; suv transportida suzish; gidroelektrostansiyalar uchun suvdan foydalanish; oqova suvlarni suv obyektlariga oqizish. Suvdan maxsus foydalanish ushbu Kodeksning 56-moddasida belgilangan hollarda ruxsatnoma asosida amalga oshiriladi.

3. Suv obyektlaridan foydalanuvchi subyektlar soniga qarab, tanho yoki birgalikda foydalanish farqlanadi: a) tanho foydalaniladigan suv obyekti – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik yoki jismoniy shaxslarga butunlay yoki qisman foydalanishga berilgan suv obyekti; b) birgalikda foydalaniladigan suv obyekti – tanho foydalanishga berilmagan suv obyekti. Suv obyektlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qishloq va suv xoʻjaligi, sanitariya nazorati, tabiatni muhofaza qilish, geologiya va mineral resurslar organlari bilan kelishilgan holda foydalanishga beriladi.

Suv kodeksining 9-moddasiga koʻra, suv obyektlari tanho yoki birgalikda foydalanishda boʻlishi mumkin. Suv obyekti suv xoʻjaligining foydalanuvchi tashkilotlariga va suvdan foydalanuvchilarga nazarda tutilgan talablar va shartlarga rioya etilgan taqdirda bitta yoki bir nechta maqsadda foydalanishga beriladi. Suv obyekti tegishliligi boʻyicha suv xoʻjaligi organlari, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi organlari, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi organlari, togʻ-kon sanoati va geologiya organlari bilan kelishuvga koʻra qonunchilikda belgilangan tartibda foydalanishga beriladi. Oqova suvlarni oqizish uchun suv obyek-

¹⁴ Markaziy Osiyoda suv limitlari kelishildi-oʻtgan yilga nisbatan qanchalik oʻzgardi? <https://sputniknews.uz/20251204/central-asia-suv-limitlar-53940772.html>.

tidan foydalanishga faqat ekologiya va sanitariya talablari hamda shartlariga rioya etilgan taqdirda yo'l qo'yiladi. Suv obyektlari bitta yoki ayni bir vaqtda bir nechta maqsadda foydalanishga berilishi mumkin. Suv obyektlari tanho foydalanish uchun yuridik va jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki boshqa vakolatli davlat organi tomonidan to'liq yoki qisman beriladi. Tanho foydalanishga berilmagan suv obyekti birgalikda foydalaniladigan suv obyektidir. Suvdan foydalanuvchilar birgalikda foydalaniladigan suv obyektidan suv olishda o'zaro manfaatlarni inobatga olishi, suvdan foydalanish huquqi amalga oshirilishini qiyinlashtirmasligi va bir-biriga zarar yetkazmasligi shart. Vaholanki, suvdan foydalanuvchi subyektlarning o'z huquq va majburiyatlari mazmunini yaxshi anglab yetishlari hamda unga rioya qilishlari suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza etish, suv qonunchiligi talablarini bajarishga xizmat qiladi.

Suvdan va suv obyektlaridan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish sohasidagi xavflarni sug'urta qilish fuqarolik qonunchiligida, tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikda, sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilikda, ushbu Kodeksda va boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Suvdan va suv obyektlaridan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish sohasidagi xavflarni sug'urtalashning asosiy maqsadi suvning va suv obyektlarining ifloslanishi, avariya, boshqa sug'urta hodisasi yuzaga kelishi oqibatida uchinchi shaxslarning hayotiga, sog'lig'iga, mol-mulkiga va (yoki) atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplashdan iboratdir. Suvdan va suv obyektlaridan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish sohasidagi xavflarni sug'urta qilishning asosiy prinsiplari, obyektlari, subyektlari va tartibi Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 15-iyunda qabul qilingan Senat tomonidan 2021-yil 27-avgustda ma'qullangan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilanadi.

Suv resurslaridan noqonuniy foydalanganlik va u to'g'risidagi qonun talablarini buzganlik uchun asosan intizomiy, fuqarolik, ma'muriy va jinoiy-huquqiy javobgarliklar mavjud.

Intizomiy-huquqiy javobgarlik – mehnat intizomini buzish oqibatida suv resurslaridan oqilona foydalanmagan taqdirda yoki suv to'g'risidagi qonun talablari buzilganda paydo bo'lishi mumkin. Suv va suvdan foydalanish, uni muhofaza qilish talablarini buzganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi¹⁶ning 312-moddasiga asosan, xodimga mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi intizomiy jazo choralari qo'llaydi.

Suv qonunchiligini buzganlik uchun belgilangan fuqarolik-huquqiy javobgarlik huquqbuzar zimmasiga jabrlangan tomon ko'rgan zararni natura shaklida (real qoplash) yoki pul shaklida qoplash majburiyatini yuklatilishidan iboratdir. Bunday zarar suvni muhofaza qilish bo'yicha huquqiy talablarning buzilishi natijasida yetkaziladi.

Masalan: 2025-yil davomida qarzдорligi bor 70 mingta iste'molchi tarmoqdan uzildi, 148 mingta holatda 392 mlrd so'mlik qarz sudlarga topshirildi. Reydlar davomida 11,2 mingta qoidabuzarlik (shundan 4,7 mingtasi noqonuniy ulanish) aniqlanib, 84,4 mlrd so'm zarar hisoblandi, shundan 39,4 mlrd so'm qismi undirildi. Mahalliy hokimliklar, prokuratura organlari hamda MIB bilan hamkorlikda debitor qarzдорliklar yil boshiga nisbatan 445,9 mlrd so'mga (yoki 49 foizga) qisqartirildi. Ya'ni 2025-yil 1-yanvar holatida 908,8 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 462,9 mlrd so'mni tashkil etmoqda. Tahlillarga ko'ra, 1 mln so'mdan ortiq qarzдорlar soni 58,8 mingta (46 foiz)ga yoki 154 mlrd so'mga kamaytirildi. Shuningdek, qarzдорligi bir yildan oshgan iste'molchilar soni 137,1 mingta (32 foiz) ga yoki 85 mlrd so'mga qisqartirildi¹⁷.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik ko'proq suv to'g'risidagi qonunlarni buzish yoki undan oqilona foydalanmaslik oqibatida keltirilgan yoki yetkazilgan zarar natijasida kelib chiqadi. Jumladan, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar zarar xarajatlari to'lashda aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar va boshqa xodimlar belgilangan tartibda moddiy javobgar bo'ladilar. Mazkur javobgarlikning xususiyati shundaki, O'zbekiston Respublikasi Fuqa-

¹⁵ O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 4.11.2021y., 03/21/730/1089-son

¹⁶ O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. Rasmiy nashr: Toshkent. <https://lex.uz/docs/6257288>.

¹⁷ "O'zsvta'minot" AJ matbuot kotibining 2025-yil davomida amalga oshirgan ishlar sarhisobida qayd etilgan ma'lumotnomasi. 2025-yilda aholining ichimlik va oqova suv xizmatlaridan qarzдорligi 49 foizga qisqardi. <https://www.gazeta.uz/uz/2026/01/10/suv/>.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. Rasmiy nashr. - Toshkent, <https://lex.uz/docs/111189>.

rolik kodeksining 14-moddasi, 324-339-moddalari talablaridan kelib chiqib¹⁸, Suv kodeksi talablarini buzganlik oqibatida yetkazilgan zarar to'lanadi, qoplanadi va qaytariladi.

Suv resurslarini muhofaza qilishning huquqiy chora-tadbirlari sifatida ma'muriy-huquqiy javobgarlik qo'llanilib, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida aniq ko'rsatilgan¹⁹. Suvdan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy jazo choralari qo'llash tuman, shahar hokimliklari huzuridagi ma'muriy komissiya, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, tuman, shahar sudlari, ichki ishlar organlari, davlat inspeksiyasi organlari tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 72-,74-,75-,76-moddalariga ko'ra fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining olti baravaridan o'n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – o'n besh baravaridan yigirma bir baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Ushbu moddaning to'rtinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasini qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravaridan yigirma bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – yigirma bir baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida²⁰ atrof tabiiy muhitni ifloslantirish (196-modda), suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish (203-modda) uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Suv havzalari ifloslanishining ijtimoiy xavfi yuqoriligi sabab O'zbekiston Respublikasi JKning 196-moddasida ushbu qilmish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. JKning 196-moddasi 1-qismida bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. O'sha qilmishlar odam o'lishiga sabab bo'lsa, muayyan huquqdan mahrum qilib, bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi o'z ifodasini topgan.

Ta'kidlash joizki, keyingi 30 yil mobaynida kishilar tabiatdan insoniyat tarixi davomida olganidan ko'ra uch baravar ko'p boyliklarni o'zlashtirdi, natijada chiqindilar miqdori keskin ko'payib ketdi. Qurg'oqchil mintaqada joylashgan mamlakatimizda suv resurslari ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik va ekologik barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omil sanaladi. BMT tomonidan suv muammosiga bag'ishlab o'tkazilgan sammitlarda barqaror rivojlanishning asosi sifatida beshta masala – suv va kanalizatsiya, energiya, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi va bioxilma-xillik alohida o'rin tutishi ta'kidlandi. Bunda suv muammosi boshqa muammolarni hal qilishning asosi ekani tufayli ham birinchi o'rinda turibdi. Insonning yetarli va xavfsiz ichimlik suvi bilan ta'minlangani uning barcha huquqlarini amalga oshirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Suvga bo'lgan huquqlar doirasida unga nisbatan qo'llanadigan yetarlilik, xavfsizlik va ochiqlik kabi talablar muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir inson ichimlik suvi bilan ta'minlangan bo'lishi shart, odamlarni toza suv bilan ta'minlamayotgan davlat organlari va mansabdor shaxslar inson huquqlarini buzgan hisoblanadilar. Shu bois, ichimlik suviga faqatgina iqtisodiy tovar emas, balki ijtimoiy va madaniy ne'mat sifatida qarash lozim.

BMT va Jahon Banki kabi xalqaro tashkilotlarning tahliliy ma'lumotlariga ko'ra, 2050-yilga qadar Markaziy Osiyo aholisi soni 100 milliondan oshishi kutilmoqda. Bunda, eng ko'p aholiga ega bo'luvchi davlat sifatida O'zbekiston (taxminan 50 million kishi) e'tirof etilmoqda. Aholi sonining oshishi esa, mutanosib ravishda suv resurslariga bo'lgan ehtiyojni ham oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonga suv resurslarining 80 foizi boshqa davlatlar hududlaridan keladi, 20 foizi mamlakatda hosil bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, iqlim o'zgarishlari ta'sirida 2030-yilga borib O'zbekiston 7 mlrd kub metr suv yetishmovchiligi muammosiga duch kelishi mumkin. Suv resurslari bilan bog'liq bugungi kun sharoitlari va istiqbolda kutilayotgan chaqiriqlar O'zbekistonda suvdan foydalanish sohasida samarali davlat boshqaruvini yo'lga qo'yishni taqozo etmoqda. Bunda, tashkiliy-huquqiy cho-

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – T.: <https://www.lex.uz/acts/97664>

²⁰ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Rasmiy nashr. – Toshkent: <https://www.lex.uz/acts/111453>.

ra-tadbirlarni amalga oshirish, suvdan oqilona foydalanish bo'yicha ommaviy madaniyatni shakllantirish va O'zbekistonga qo'shni bo'lgan davlatlar bilan o'zaro manfaatli suv diplomatiyasini olib borish talab etiladi. Alohida ta'kidlash o'rinliki, bu sohada qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Suv kodeksi xalqaro suv huquqi normalarini milliy suv qonunchiligiga singdirish hamda O'zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, iqlim o'zgarishlari sharoitida suv resurslarini muhofaza qilish va undan foydalanishning ekologik-huquqiy ahamiyatiga oid ilmiy-nazariy fikrlar va amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimizning geografik va ekologik xususiyatlarni inobatga olib quyidagilarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega, deb o'ylaymiz.

Birinchidan, Suv resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish prinsiplari, suvni tejaydigan zamonaviy texnologiyalar keng joriy qilish, suv bilan bog'liq qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilishga doir va boshqa ko'plab chora-tadbirlarni amalga oshirish;

ikkinchidan, suv resurslarini ekologik-huquqiy muhofaza qilish va foydalanishning asosiy maqsadi va vazifalari fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqlarini ta'minlash va kafolatlash hamda suvga oid boshqa ekologik-gigiyenik va sanitariya-epidemiologik talablarini bajarilishini ta'minlash;

uchinchidan, suvdan foydalanish va uni ekologik-huquqiy muhofaza qilishni rag'batlantirish amaldagi ekologik-huquqiy normalar asosida tartibga solinishi, suvdan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarning o'z huquq va majburiyatlarini, jumladan, suv resurslarining tabiiy ekologik xossasini saqlash, ifloslanishining, uni gidrologik va gidrogeologik rejimini buzilishini oldini olish, kimyoviy, fizikaviy va biologik xossalari pasayishining oldini olish va boshqa bir qator ekologik tadbirlar va talablarga rioya qilish;

to'rtinchidan, O'zbekistonda tomchilatib sug'orish tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'lib, hali bu borada tajriba katta emas.

Balki, tegishli vakolatli organlar qaysi mintaqalar va ekinlarni tomchilatib sug'orish mumkinligini xorijiy tajriba asosida o'rganib borishi, bu jarayonda esa katta tajriba to'plashi tabiiy. Chunki tomchilatib sug'orishga mos ekinlarni ekib, daromadni oshiradi, suvni tejaydi. Masalan, Isroilda tomchilatib sug'orish yordamida meva-sabzavot ishlab chiqarish 60-70 foizgacha ko'payganligi o'z isbotini topgan bo'lib bu esa qonunchilikda ham o'z ifodasini topishi va amaliyotda qo'llanilishi;

beshtinchidan, Orol dengizi fojiasining keng ko'lam kasb etgan og'ir oqibatlarini Orolbo'yi aholisi, ushbu hududning iqtisodiyoti, ijtimoiy soha va atrof-muhitiga tahdid solayotgan ko'plab xavf-xatarlarni samarali bartaraf etishga qaratilgan yangi, keng qamrovli yordam dasturi talablarini o'zida ifodalashi;

oltinchidan, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan Suv kodeksi xalqaro suv qonunchiligi andozalariga mos bo'lib suv bilan bog'liq barcha munosabatlarni huquqiy tartibga solganligi, soha-ga oid Prezident tomonidan qabul qilingan farmon va qaror, hukumat qarorlari talablarini o'zida ifoda etib, bugungi kundagi iqlim o'zgarishlarining ekologik xususiyatlari inobatga olinganligi bilan ekologik huquqiy-targ'ibot-tashviqot ishlari-ni keng qamrovda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

yettinchidan, suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025-2028-yillarga mo'ljallangan dasturiga muvofiq, joriy yilda 10 mlrd. kub metr, 2026-yilda 12 mlrd. kub metr, 2027-yilda 13 mlrd. kub metr, 2028-yilda esa 14 mlrd. kub metr suvni iqtisod qilish vazifasi qo'yilgani alohida e'tiborga molik jarayondir. Bu borada Prezidentimizning qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni yaxshilash, xalqimizni suv bilan ta'minlash, dehqonlarimizga zarur shart-sharoitlar yaratib berish borasida olib borayotgan ulkan sa'y-harakatlari, avvalo, suv resurslarini samarali boshqarish va undan oqilona foydalanish orqali butun mintaqada suv muammosini hal etish alohida e'tiborga loyiq bo'lib, bu esa o'zining amaliy natijalarini berayotganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat huquqlarini himoya qilishning usullari

QUCHQAROV Hamidullo Abdurasulovich

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Ilmiy innovatsion tadqiqotlarni muvofiqlashtirish va ilmiy xodimlarni tayyorlash markazi katta prokurori
Yuridik fanlar falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsia: maqolada mehnat huquqlarini himoya qilishning usullari masalasi nazariy va amaliy jihatdan milliy va xorijiy tajriba asosida tahlili qilingan.

Muallif fikrimizcha mehnat huquqini himoya qilish usuli xodimlarning buzilgan mehnat huquqlarini tiklash, huquqni amalga oshirish sohasidagi to'siqlarni bartaraf etish, huquqbuzarlik natijasida yetazilgan zarar o'rnini qoplash yoki kompensatsiya qilish, shuningdek, mehnat huquqlarining buzilishini oldini olishga qaratilgan alohida o'ziga xos xususiyatdagi harakatlar majmuidan iboratdir.

Kalit so'zlar: mehnat qilish, moddiy-huquq, protsessual-huquq, manfaatlarni himoya qilish, protsessual vositalar, vakolatli shaxs, arizachi, da'vogar, shikoyatchi, mansabdor shaxs, nojo'ya hatti-harakat.

Аннотация: в статье вопрос о способах защиты трудовых прав проанализирован с теоретической и практической точек зрения на основе национального и зарубежного опыта.

По мнению автора, способ защиты трудовых прав представляет собой совокупность специфических действий, направленных на восстановление нарушенных трудовых прав работников, устранение препятствий в сфере реализации прав, возмещение или компенсацию ущерба, причинённого правонарушением, а также предупреждение нарушений трудовых прав.

Ключевые слова: трудовая деятельность, материальное право, процессуальное право, защита интересов, процессуальные средства, уполномоченное лицо, заявитель, истец, жалобщик, должностное лицо, неправомерное действие.

Abstract: The article analyzes the issue of methods for protecting labor rights from both theoretical and practical perspectives, based on national and foreign experience.

According to the author, a method of protecting labor rights is a set of specific actions aimed at restoring violated labor rights of employees, eliminating obstacles in the exercise of rights, compensating or reimbursing damage caused by a violation, as well as preventing violations of labor rights.

Keywords: labor activity, substantive law, procedural law, protection of interests, procedural means, authorized person, applicant, plaintiff, complainant, official, unlawful act.

Mehnat sohasidagi huquqbuzarliklar — bu ish beruvchi yoki ishchi tomonidan mehnat qonunchiligiga zid harakatlar yoki harakatsizliklardir. Ular ishchilarning huquqlarini buzishga olib kela-di va qonun bilan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Mehnat sohasidagi huquqbuzarliklar ijtimoiy hodisa bo'lib, unga butkul barham berish imkon-sizdir. Biroq huquqbuzarlikka qarshi kurashish, uni oldini olish, aybdorlarni jazolash orqali jami-yatdagi muvozanatni ta'minlash mumkin. Umu-

man olganda, ijtimoiy munosabat subyektlarining buzilgan huquqlari u yoki bu usullari orqali himoya qilinadi. Himoyadan ko'zlangan asosiy maqsad buzilgan huquqni asl holiga (dastlabki ko'rinishiga) qaytarish, buning imkoni bo'lmaganida huquqni tiklash bo'yicha muqobil choralarni ko'rishdir.

Mehnat sohasidagi huquqbuzarliklar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi, ishga qabul qilishdagi huquqbuzarliklar, mehnat shartnomasi bilan bog'liq buzilishlar, ish vaqti va dam olish huquqini buzish, ish haqi to'lash bilan bog'liq huquqbuzarliklar, mehnat muhofazasi qoidalarini buzish, o'z o'rnida ishchilar tomonidan intizomiy huquqbuzarliklar (ishga kechikish yoki kelmaslik, ish vazifalarini bajarmaslik hamda ish joyida ichki tartibni buzish) natijasida vujudga keladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida "usul" so'zi biror narsani yuzaga chiqarish, amalga oshirish yo'li; harakat tarzi, xili, tartibi; biror ish, mashg'ulot kabilarga xos bo'lgan, unda qo'llanuvchi asosiy xatti-harakat, yo'li degan ma'nolarni anglatishi keltirib o'tilgan¹.

Yuqoridagi ta'rifdan kelib chiqib, mehnat huquqlarini himoya qilishning asosiy usullari deganda qonunlar bilan belgilangan yoki ruxsat berilgan tartib-taomillarni tushunishimiz mumkin. Ya'ni mehnat munosabatlari subyektlari o'z huquqlarini qonun bilan taqiqlamagan usullar yordamida himoya qilishi mumkin.

1995-yilda qabul qilingan Mehnat kodeksidan farqli ravishda yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 529-moddasida mehnat huquqlarini himoya qilishning asosiy usullari sifatida xodimlarning mehnat huquqlarini o'zi himoya qilishi, mehnat to'g'risidagi qonunchilikka, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati hamda tekshiruvi, mehnat to'g'risidagi qonunchilikka, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazorati, mehnat huquqlarining yarashtiruv-vositachilik tartib-taomillari orqali himoya qilish, mehnat huquqlarining mehnat nizolarini ko'rib chiquvchi organlar tomonidan himoya qilish kabilar ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek xodimlarga mehnat huquqlarini himoya qilish usulini tanlash, qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan o'z mehnat huquqlarini himoya qilish huquqi kafolatlanishi mustahkamlangan.

Amaldagi Fuqarolik kodeksining 11-moddasida huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug'diradigan harakatlarning oldini olish, bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash, shaxsning o'z huquqini o'zi himoya qilishi, zararni to'lash, neustoyka undirish, ma'naviy ziyonni qoplash, huquqiy munosabatni bekor qilish yoki o'zgartirish, davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining qonunga zid hujjatini sudning qo'llamasligi kabilar fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari sifatida e'tirof etilgan².

Xorijiy mamlakatlarda jumladan Germaniyada mehnat huquqlarini himoya qilishning asosiy usullari alohida qonun bilan tartibga solingan masalan "Adolatsiz ravishda ishdan bo'shatishdan himoya qilish to'g'risida"gi alohida qonun mavjud³. Qonunda davlat va xususiy sektorda mehnat qilayotgan xodimlar huquqlarini himoya qilish usullari ko'rsatilgan.

Bizningcha yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 529-moddasida mehnat huquqlarini himoya qilishning asosiy usullarining bevosita belgilanganligi mehnat sohasida huquqi buzilgan tarafning o'z huquqlarini himoya qilishi uchun yetarli sanaladi va bu o'rinda qonunni samarali qo'llay olish masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Xuddi shuningdek, Rossiya Mehnat kodeksining 352-moddasida mehnat huquqlarini xodimlarning o'zlari, kasaba uyushmalari tomonidan himoya qilinishi, mehnat qonunchiligiga rioya etilishi ustidan davlat nazorati, sud himoyasi himoyaning usullari sifatida mustahkamlangan⁴.

Mehnat huquqini himoya qilish usullari haqida olimlar turlicha fikr yuritadi. A.A.Shuvalova "Huquqni himoya qilish" tushunchasi ikkilamchi tabiatga ega bo'lib, u ham moddiy-huquqiy, ham protsessual-huquqiy jihatlarni o'z ichiga olishini, moddiy huquq nuqtai nazaridan, har bir himoya

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. <https://izoh.uz/uz/word/usul>

² Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 й., 2-сонга илова; 30.12.2025 й., 03/25/1109/1241-сон). <https://lex.uz/mact/111189>.

³ <https://www.mayr-arbeitsrecht.de/wp-content/uploads/2016/05/Protection-Against-Unfair-Dismissal-Act.pdf>.

⁴ Трудовой Кодекс Российской Федерации 30 декабря 2001 года N 197-ФЗ. <http://www.consultant.ru>.

qilish harakati ikkinchi shaxsga nisbatan moddiy-huquqiy ta'sir choralari qo'llashdan, ya'ni moddiy huquq normalarida nazarda tutilgan usullardan foydalanishdan iboratligini, boshqa tomondan, huquq va qonuniy manfaatlarni himoya qilish muayyan tartib, shakl va protsessual vositalar orqali amalga oshirilishini, shuningdek, himoyaning protsessual jihati protsessual huquq asosida, tegishli huquqiy munosabatlar doirasida amalga oshirilishini va bu jarayonda vakolatli shaxs (arizachi, da'vogar, shikoyatchi), yurisdiksiya organi (mansabdor shaxs) va huquqbuzar ishtirok etadi, shuningdek uchinchi shaxslar ham qatnashishi mumkinligini, moddiy huquq nuqtai nazaridan himoya huquqi vakolatli shaxsga qonun bilan belgilangan shaklda va huquqiy vositalar orqali huquqbuzarga nisbatan qonunga zid bo'lmagan majburiy ta'sir choralari qo'llash imkoniyatini beradi. Bu choralarga o'zini o'zi himoya qilish yoki davlat himoyasi ham kirishini ta'kidlaydi⁵.

Bizning fikrimizcha mehnat huquqini himoya qilish usuli xodimlarning buzilgan mehnat huquqlarini tiklash, huquqni amalga oshirish sohasidagi to'siqlarni bartaraf etish, huquqbuzarlik natijasida yetazilgan zarar o'rnini qoplash yoki kompensatsiya qilish, shuningdek, mehnat huquqlarining buzilishini oldini olishga qaratilgan alohida o'ziga xos xususiyatdagi harakatlar majmuidan iboratdir.

Yu.Tursunovning fikricha, mehnat qilish huquqlarini himoya qilish usuli va vositalari qonun hujjatlari bilan belgilangan bo'lib, huquqlarni tan olish, shartnoma (bitim)ni haqiqiy emas deb topish, huquq buzilishi yuz berishidan oldingi holatni qayta tiklash, yetkazilgan moddiy va ma'naviy zarar o'rnini qoplash, aybdorni muayyan harakatlarni amalga oshirishga majbur qilish kabi ko'rinishlarda amalga oshirilishi mumkin⁶.

A.I. Beshpalova esa mehnat qilish huquqlarini himoya qilish usuli sifatida mehnat kodeksida belgilangan moddiy asoslari mavjud bo'lsada biroq barcha hollarda ham taraflarning huquq va manfaatlarini himoyalash funksiyasi yetarlicha

amalga oshirilmasligi mumkin va bu protsessual asoslar bilan mustahkamlanishini talab etadi,, xozirgi zamonaviy huquqshunoslikda esa yana bir yangi mexanizm mediatsiya tartib-taomili ushbu moddiy asoslarni ta'minlashga xizmat qilishini ta'kidlaydi⁷.

Bizning fikrimizcha, Yu.Tursunov, A.I. Beshpalova va A.A.Shuvalovalarning yondashuvlari asosli.

Masalan, amaldagi Mehnat kodeksining 561-moddasiga muvofiq mehnat shartnomasi qonuniy asossiz bekor qilingan, g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazilgan, mehnat shartlari o'zgartirilgan yoxud ishdan chetlashtirilgan hollarda yakka tartibdagi mehnat nizosini ko'rib chiquvchi organ xodimni avvalgi ishiga tiklaydi, shuningdek avvalgi mehnat shartlarini tiklaydi.

Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilishning qonuniyligi to'g'risidagi masalani hal qilayotganda sud xodim bilan mehnat munosabatlarini tugatishning asosliligiga baho beradi⁸.

Himoya usuli xodimlarning toifalari nisbatan turlicha qo'llanilishi mumkin. Sh.Ismoilov o'ttizga yaqin ayrim toifadagi xodimlar mehnatini maxsus huquqiy tartibga solish zaruratini ta'kidlaydi⁹.

Masalan, 422-moddasiga asosan ota-onadan biri (ota-ona o'rnini bosuvchi shaxs), shuningdek mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organlar hamda bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar, agar ishni davom ettirish o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning hayotiga va sog'lig'iga, xavfsizligiga hamda ma'naviy jihatdan kamol topishiga tahdid solayotgan bo'lsa yoki ularga boshqacha tarzda ziyon yetkazishi mumkin bo'lsa, bunday shaxslar bilan mehnat shartnomasini bekor qilishni talab qilishga haqli va ushbu normani mehnat shartnomasini bekor qilishni huquqni himoya qilish usuli sifatida baholash mumkin.

Mehnat munosabatlarini tartibga solish usuli orqali ish beruvchi xodimlarning huquqini ta'minlashga erishishi mumkin. Amaldagi Mehnat kodeksining 119-moddasida ishga qabul qilishni qonun-

⁵ Шувалова А.А. Формы защиты трудовых прав и правовых интересов работников / ПРАВО И ГОСУДАРСТВО: теория и практика. 2016. № 2(134). -С. 94-96.

⁶ Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодексига шарҳлар. -Т.: ТДҲОИ нашриёти, 2008. - Б. 935.

⁷ Бешпалова А.И. Формы защиты трудовых прав: эффективность и перспективы развития / Вопросы Российской юстиции. Выпуск № 21.

⁸ Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.10.2022 й., 02/22/798/0972-сон; 30.12.2025 й., 03/25/1109/1241-сон. <https://lex.uz/uz/docs/6257288>.

⁹ Ismailov, Sh.A. (2018) "Problems of legal regulation of differentiation in the labor sphere," Review of law sciences: Vol. 2: Iss. 1, Article 14. Available at: https://uzjournals.edu.uz/rev_law/vol2/iss1/14.

ga xilof ravishda rad etishga yo'l qo'yilmasligi belgilangan bo'lib, shuningdek ushbu moddada ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etish shakllari belgilangan. Shuningdek, 120-modda ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etishning huquqiy oqibatlari, 320-modda esa ish beruvchining xodimni mehnat qilish imkoniyatidan g'ayriqonuniy ravishda mahrum qilganligi natijasida unga yetkazilgan ziyonning o'rnini qoplash majburiyati belgilangan.

Bizning fikrimizcha, mehnat munosabatini o'rnatish – xodimning mehnat qilishga doir huquqini avvalo ishga joylashtirish bo'yicha davlat kafolatlari ta'minlash hamda vakolatli organlar tomonidan qonunda belgilangan tartibda tasdiqlash va amalga oshirish. Shuningdek, mehnat munosabati sudning hal qiluv qarori, yuqori turuvchi organ yoki ish beruvchining qarori, prokuror protesti, mehnat inspektori yozishmasi, yoki mediativ kelishuv talablari asosida o'rnatilishi mumkin.

Himoya usuli sifatida mehnat munosabatlari ishga tiklash haqida gapirganda avvalo XMTning 158-Konvensiyasi 10-moddasida agar vakolatli organlar mehnat shartnomasining adolatsiz bekor qilinganligini aniqlasa, xodimni ishga tiklash, yetkazilgan zararni kompensatsiya qilish to'g'risida qaror chiqarishi yoki tavsiya qabul qilishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan¹⁰.

Ishga tiklash mehnat huquqidagi himoyaning o'ziga xos usuli sanaladi. Amaldagi Mehnat kodeksida ishga tiklash tartibi va asoslari belgilangan. Biroq ishga tiklash tushunchasiga qonuniy ta'rif berilmagan.

Mehnati kodeksining 561-moddasi birinchi qismiga muvofiq mehnat shartnomasi qonuniy asossiz bekor qilingan, g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazilgan, mehnat shartlari o'zgartirilgan yoxud ishdan chetlashtirilgan hollarda yakka tartibdagi mehnat nizosini ko'rib chiquvchi organ xodimni avvalgi ishga tiklaydi, shuningdek avvalgi mehnat shartlarini tiklaydi.

Shuningdek, himoya usuli sifatida ishga tiklashning moddiy-huquqiy asoslari mavjud bo'lib, Mehnat kodeksining 564-moddasiga muvofiq o'zi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilingan xodimga, ishdan g'ayriqonuniy ravishda chetlashtirilgan

xodimga yoki g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazilgan xodimga ish haqi to'lash bilan bog'liq holda mansabdor shaxs tomonidan ish beruvchiga zarar yetkazilgan taqdirda, sud yetkazilgan zararning o'rnini qoplash majburiyatini mehnat to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor bo'lgan mansabdor shaxs zimmasiga yuklatadi. Bunday majburiyat mansabdor shaxs xodimni ishga tiklash to'g'risidagi mehnat nizolari bo'yicha komissiya yoki sudning qarorini kechiktirgan taqdirda ham yuklatiladi.

Bunda moddiy zararning o'rnini qoplash miqdori mansabdor shaxsning uch oylik maoshidan ortiq bo'lmasligi kerak.

Shuningdek Mehnat kodeksi 565-moddasi talablariga muvofiq xodimning mehnat huquqlari buzilishi unga ma'naviy va (yoki) jismoniy azob-uqubatlar yetkazishga sabab bo'lgan hollarda, sud ish beruvchi tomonidan xodimga yetkazilgan ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish to'g'risida xodimning talabiga ko'ra qaror chiqarishga haqli. Ma'naviy ziyonning miqdori sud tomonidan belgilanadi.

2023-yil 20-nyabrdagi 26-sonli "Sudlar tomonidan mehnat shartnomasini bekor qilishni tartibga soluvchi qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining qarorining 62-bandida sudlar ushbu toifadagi nizolarni ko'rishda mehnat shartnomasi bekor qilinishining yoki boshqa ishga o'tkazishning asosililigini isbotlab berish majburiyati MKning 174-moddasiga ko'ra ish beruvchiga yuklatilishini nazarda tutishlari lozimligi, shuningdek xodimni ishga tiklashda unga yetkazilgan zararni qoplash majburiyati ish beruvchiga yuklanishi belgilangan.

Sudlarning e'tibori MK 174-moddasining beshinchi qismiga ko'ra, xodimga yetkazilgan moddiy zararni qoplash:

majburiy progul vaqti uchun so'zsiz haq to'lash. Bunda xodimning pulga oid talablari to'liq miqdorda qanoatlantiriladi (MKning 546-moddasi);

mehnati shartnomasini bekor qilinganligi ustidan shikoyat qilish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni (mutaxassislarining maslahatlari, ish yuritishga doir xarajatlar va boshqalar) to'lashdan iborat ekanligiga qaratilishi, shuningdek,

¹⁰ Termination of Employment Convention, 1982 (No. 158). <https://www.ilo.org>.

ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish miqdori ish beruvchining harakatlarini baholashni hisobga olgan holda sud tomonidan belgilanishi, lekin xodimning o'rtacha oylik ish haqidan kam bo'lishi mumkin emasligi belgilangan.

Sud, xodimga yetkazilgan ma'naviy zararni qoplash masalasini hal etishda qaysi holatlarda va ish beruvchining qaysi harakatlari (harakatsizligi) oqibatida unga zarar yetkazilganligi, ish beruvchi aybining darajasi, mehnat shartnomasini bekor qilish yoki boshqa ishga o'tkazishda qonun ochiq-oydin buzilgan-buzilmaganligini aniqlashi, xodim qanday ma'naviy va jismoniy azoblar chekanini belgilashi, bu zararlarni u qancha summada qoplashini baholamog'i va muayyan nizoni hal qilish uchun muhim bo'lgan boshqa holatlarni e'tiborga olishi lozim.

Sud ish beruvchiga har qanday mehnat huquqining buzilishi oqibatida (qonunga xilof ravishda mehnat shartnomasini bekor qilish yoki boshqa ishga o'tkazish, asossiz intizomiy chora qo'llash, tegishli tibbiy tavsiyalar asosida boshqa ishga o'tkazishni rad qilish, mehnat shartnomasi bekor qilingach, ish beruvchi xodimning mehnat daftarchasini bermasligi yoki o'z vaqtida bermaganligi va boshqalar natijasida yetkazilgan ma'naviy va jismoniy azoblar) xodimga yetkazilgan ma'naviy zararni qoplash majburiyatini yuklashi mumkin.

Ish beruvchi tomonidan xodimga yetkazilgan ma'naviy zarar miqdori qanoatlantirilgan moddiy zarar, jumladan xodimga majburiy progul vaqti uchun beriladigan haq miqdoriga bog'liq holda qoplanishi mumkin emas.

Xodimning iltimosiga ko'ra sud uni ishga tiklash o'rniga uch oylik ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda qo'shimcha tovon (majburiy progul vaqti uchun ish haqi, ma'naviy zarar, mehnat shartnomasini bekor qilinganligi ustidan shikoyat qilish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlardan tashqari) undirib berishi mumkin¹¹.

Bu buzilgan huquqni tiklashning muqobil ko'rinishi bo'lib faqatgina mehnat huquqiga xos institutdir.

Fikrimizcha, buzilgan huquqlarni tiklash ilgari mavjud bo'lgan hamda noqonuniy tarzda bekor qilingan yoki o'zgartirilgan mehnat munosabatlarning o'z holiga qaytarilishidir.

Huquqshunos olim va amaliyotchi X.Yodgorovning ta'kidlashicha, ishga tiklash – xodimni mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilingunga yoki xodim g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazilgan paytga qadar bo'lgan avvalgi huquqiy holatiga qaytarishdir¹². M.Gasanovning fikricha, ish beruvchining ishga (lavozimga) tiklash majburiyati ishga tiklangan xodimga ayni u ilgari bajarib kelgan ishning (lavozim) berilishini anglatadi¹³. Har ikkala olim ishga tiklash deganda avval mavjud bo'lgan va buzilgan mehnat huquqining o'z holiga qaytarilishini ko'rsatib o'tadi.

Oliy sud Plenumining hozirda o'z kuchini yo'qotgan 1998-yil 17-apreldagi 12-sonli qarorining 41-bandida 1995-yilda qabul qilingan Mehnat kodeksining 106-moddasining 2-bandida bo'yicha mehnat shartnomasini bekor qilishlikka, qonunlarga asosan shu ishni ilgari bajarib kelgan xodimni ishga tiklashga ish beruvchining majburiyati hisoblangan hollarda yo'l qo'yilishi, bunday hollarga mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy bekor qilingan xodimni, sudning hal qiluv qarori, yuqori turuvchi organ, ish beruvchi o'zining qarori, shuningdek mehnat haqidagi qonunlarga rioya qilish ustidan nazorat olib boruvchi (masalan, prokuror protesti, mehnat inspektori yozishmasi) organlar talabi bo'yicha avvalgi ishga tiklash kabilar kirishi ko'rsatib o'tilgan edi¹⁴.

Amaldagi plenum qarorida bunday mazmundagi norma mavjud emas, bizningcha bu to'g'ri yondashuv bo'lib, plenum qarori huquq manbai sanalmaydi va faqatgina sudlar uchun majburiy harakterga ega sanaladi.

Yangi Mehnat kodeksining 559-moddasi mazmuniga muvofiq mehnat shartnomasini bekor qilish asoslaridan qat'i nazar, ishga tiklash to'g'risidagi mehnat nizolari bevosita sudda ko'rib chiqiladi.

Yakka tartibdagi mehnat nizosini ko'rib chiqish haqidagi da'vo bilan sudga xodim yoki kasaba

¹¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди пленумининг қарори, 20.11.2023 йилдаги 26-сон. <https://lex.uz/docs/6684613>

¹² Меҳнат ҳуқуқий муносабатларидан келиб чиқадиган низолар: амалий қўлланма // Практическое пособие по спорам вытекающим из трудовых правоотношений: практическое пособие / Х. Ёдгоров, Г. Зиганшина, Ш. Ахатова. – Тошкент: Baktriapress, 2016. Б-6.

¹³ Гасанов М, Соколов Е. Ўзбекистоннинг меҳнат тўғрисидаги қонун ҳужжатлари. Саволлар ва жавоблар – Т.: "Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси", 1999. – Б 354.

¹⁴ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарори, 17.04.1998 йилдаги 12-сон. <https://lex.uz/docs/1444779>.

uyushmasi qo'mitasi, davlat mehnat inspeksiya-sining mansabdor shaxslari, ish beruvchi, qonun-chilikda belgilangan tartibda adliya organlari va prokuror murojaat qilishga haqli.

V. P. Skobelev Belorussiyada ishga tiklash de-ganda, mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravish-da bekor qilingan yoki xodim g'ayriqonuniy ra-vishda boshqa ishga o'tkazilgan hollarda, u ish beruvchining o'zi tomonidan, sud yoki boshqa vakolatli organ tomonidan avvalgi ishga tiklani-shi va ishda bo'lmagan vaqtlari uchun ya'ni maj-buriy progul davri uchun kompensatsiyalarni oli-shi tushunilishini ta'kidlaydi¹⁵.

Germaniyaning Adolatsiz ravishda ishdan bo'shatishdan himoya qilish va Mehnat to'g'risi-dagi konstitutsiyaviy qonunlariga ko'ra, ijtimoiy asoslanmagan holda ishdan bo'shatilgan xodim mehnat shartnomasida kelishilgan sharoitdagi so-biq ishga qayta tiklanishga haqli¹⁶.

E'tiborli jihati shundaki, mehnat shartnoma-si bekor qilinayotgan xodim huquqlari, uni ish-ga tiklash masalasi alohida qonun bilan tartibga solinadi. Buyuk Britaniyaning Mehnat huquqlari to'g'risidagi qonuniga asosan, ishga tiklash to'g'risidagi buyruq – ish beruvchi arizachi (so-biq xodim) bilan mehnat shartnomasi bekor qilinmagandek munosabatda bo'lishga majburi-ligini ta'minlovchi buyruqdir. Mehnat tribunali ishga tiklash to'g'risidagi qarorida xodim ishdan

bo'shash va ishga tiklanishi oralig'ida olishi lozim bo'lgan yoki olishi kutilgan har qanday to'lovni unidirish, barcha huquq va imtiyozlarni (mehnat staji va pensiya huquqini ham ichiga olgan) tiklash masalasini ko'rsatadi. Tribunal qarori u qa-bul qilingan kundan e'tiboran ijro qilinadi¹⁷.

Shu bilan birga xodimlarning mehnat hu-quqlarini himoya qilishning nizolashilayotgan huquqni tan olish, huquqni buzilishiga xavf tug'di-ruvchi harakatlarni oldini olish, mehnat munosa-batlarini o'zgartirish, ish beruvchining buyrug'i, davlat organi yoki mansabdor shaxslarning qaror-lari va harakatlari (harakatsizligi)ni g'ayriqonuniy deb topish, majburiyatni bajarishni ta'minlash kabi usullari ham amaliyotda keng qo'llaniladi.

Fikrimizcha xulsa sifatida aytish mumkinki, xodimlar mehnat huquqlarini himoya qilish usu-li deganda Mehnat kodeksida belgilangan mod-diy huquqiy asoslarni qo'llagan holda protses-sual tartibda yoki nizolarni muqobil hal etishning boshqa tartib-tamoillari asosida buzilgan huquqni tiklash, uni amalga oshirish, bu jarayondagi to'siqlarni bartaraf etish, mehnat huquqning bu-zilishi natijasida yetkazilan zarar o'rnini qoplash, shuningdek, sodir etilishi mumkin bo'lgan nojo'ya xatti-harakat va huquqbuzarliklar keltirib chiqa-rishi mumkin bo'lgan oqibatlarni oldini olishga qaratilgan va o'ziga xos xarakterga ega bo'lgan huquqiy xatti-harakatlar yig'indisi tushuniladi.



¹⁵ Скобелев В. П. Споры о восстановлении на работе лиц, уволенных по соглашению сторон: о некоторых проблемах правоприменительной прак-тики в Республике Беларусь // Журнал юридической антропологии и конфликтологии. 2025. № 2(11). С. 75–88.

¹⁶ Visser J. et al. Trade unions in the balance // Geneva: International Labour Organization's Bureau for Workers' Activities (ACTRAV). – 2019. – P.14

¹⁷ Walters D. Labour inspection and health and safety in the EU // The European Trade Union Institute's (ETUI) Health and Safety at Work Magazine. – 2016. – T. 14. – P. 14.

Yuridik shaxslarni tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi

RUZIYEV Rustam Djabbarovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti "Fuqaroviy-huquqiy fanlar" kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

Annotatsia: Maqolada O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining tegishli normalari asosida yuridik shaxslarni tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish institutining nazariy-huquqiy hamda amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida yuridik shaxslarning vujudga kelish asoslari va usullari, muassislarning huquqiy maqomi, ta'sis hujjatlarining mazmuni va ahamiyati, ularga o'zgartirish kiritish tartibi hamda davlat ro'yxatidan o'tkazishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish asoslari, yuridik shaxslarning huquqlarini sud tartibida himoya qilish masalalari hamda qayta ro'yxatdan o'tkazishning huquqiy asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: yuridik shaxs, mulkdor farmoyishi, vakolatli organ farmoyishi, mulkdor vakili, davlat ro'yxatiga olish, operativ boshqarish huquqi subyektlari, yuridik shaxs muassisi, ta'sis hujjatlari.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретико-правовые и практические вопросы создания и государственной регистрации юридических лиц в соответствии с нормами Гражданского кодекса Республики Узбекистан. Особое внимание уделено анализу оснований и способов возникновения юридических лиц, правового статуса учредителей, содержания и юридического значения учредительных документов, порядка внесения в них изменений, а также организационно-правового механизма государственной регистрации. Исследованы основания отказа в государственной регистрации, вопросы судебной защиты прав юридических лиц и правовые аспекты их перерегистрации.

Ключевые слова: юридическое лицо, распоряжение собственника, распоряжение уполномоченного органа, представитель собственника, государственная регистрация, субъекты права оперативного управления, учредитель юридического лица, учредительные документы.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (keyingi o'rinlarda "O'zR FK" qisqartmasidan foydalaniladi) 42-moddasining birinchi qismi mazmunidan kelib chiqib ta'kidlash joizki, yuridik shaxslar bular: 1) mulkdor tomonidan farmoyish berish; 2) mulkdor ruxsati bilan uning tomonidan vakil qilingan shaxs yoki vakolatli organning farmoyishi asosida; 3) qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda xabardor qilish yoki yuridik shaxs muassislarning murojaati asosida vujudga ke-

ladi¹. Mazkur asoslar va usullar muassislarning maqomiga, yuridik shaxsning ash-yoviy va majburiyatli huquqlari bilan uzviy bog'liq. Qonunda ayrim tashkiliy-huquqiy toifadagi yuridik shaxslar uchun ularni tashkil etishning alohida maxsus tartibi va usullari ham nazarda tutilishi mumkin. Qoidaga ko'ra farmoyish berish orqali odatda davlat tashkilotlari hisoblangan yuridik shaxslar tashkil etiladi.

Yuridik shaxslarning mulkdor ruxsati bilan

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (2025-yil 12-maygacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan). Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, 2025. – 616 b.

uning tomonidan vakil qilingan shaxs yoki vakolatli organing farmoyishi asosida ruxsat berish tartibida tashkil etilishi esa xususiy tartibda jismoniy shaxslar (fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan va xorijiy davlatlar fuqarolari) va yuridik shaxslar arizasiga asosan vakolatli davlat organi ruxsati (roziligi) bilan amalga oshiriladi. Yuridik shaxslarning ro'yxatga olinishi maqsadga muvofiq emas degan vaj bilan rad etilishiga yo'l qo'yilmaydi. Biroq, istisno tariqasida yuridik shaxslarning tashkil etilishida ba'zi tur va toifadagi tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun ruxsat berish tartibi saqlanib qolinadi. Masalan, tog'-kon ishlari bilan shug'ullanish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori talab qilinsa, auditorlik firmalarini tashkil etish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi litsenziyasini olish kerak bo'ladi.

Xabardor qilish yoki yuridik shaxs muassisi yoxud muassislari murojaati asosida yuridik shaxsning tashkil etilishi deganda ta'sischi yoxud ta'sischilar (jismoniy yoki yuridik shaxslar) tomonidan erkin tarzda tashkil qilish anglashiladi. Qonunga ko'ra bunda davlat organi yuridik shaxsni e'tirof qilishga majbur hisoblanadi. Yuridik shaxsning bunday usulda vujudga kelishi uchun uchinchi shaxslar, jumladan, davlat organlarining roziligi yoki ruxsati talab etilmaydi.

O'zR FK 42-moddasining ikkinchi qismida "Mulkdorlar yoki operativ boshqarish huquqi subyektlari yoki ular vakil qilgan shaxslar yuridik shaxslarning muassislari hisoblanadi" deb qayd etiladi. Bunga ko'ra, mulkdor yoki operativ boshqarish, ya'ni ashyoviy huquq egasi, shuningdek, ular vakil qilgan shaxs yuridik shaxsni tashkil etishda muassis sifatida qatnashadi.

Ma'lumki, qonun hujjatlari bilan birga yuridik shaxsning ta'sis hujjatlari, ya'ni ustav hamda ta'sis shartnomasi yuridik shaxs faoliyatining huquqiy asosini belgilab beradi. Mazkur hujjatlarida yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shaklini inobatga olgan holda uning huquq va manfaatlari hamda fuqarolik muomalasida huquqiy layoqati aniqlab beriladi. Masalan, to'liq va kommandit shirkatlarda ta'sis shartnomasi, nodavlat notijorat tashkilotlari va davlat unitar korxonalarida ustav ularning ta'sis hujjati hisoblanadi. O'z navbatida, notijorat tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar o'zlariga tegishli alohida nizomlar doirasida ish yuritadilar. Misol uchun, tibbiyot markazlari va ularning

hududlar kesimida ish olib boruvchi bo'linmalari faoliyati bevosita O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan nizomlar asosida tartibga solinadi.

Ma'lumki, ta'sis shartnomasi konsensual shartnoma hisoblanib, yuridik shaxsning tashkiliy va xo'jalik ishlari bo'yicha faoliyati doirasida muassislari bilan munosabatlarini belgilab beradi. Yuridik shaxs uni tashkil etgan muassis tomonidan tasdiqlab beriladigan ustav asosida ish yuritadi. Bunda ustav yuridik shaxsning huquqiy maqomi va faoliyati to'g'risidagi maxsus qonun hujjatlari me'yorlariga zid bo'lmasligi talab etiladi.

Ta'kidlash joizki, barcha tur va toifadagi yuridik shaxslarning ta'sis hujjatlarida belgilanishi shart bo'lgan talablar ro'yxati mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- yuridik shaxsning nomi;
- yuridik shaxsning manzili;
- yuridik shaxsning faoliyat tartibi;
- yuridik shaxs tashkiliy-huquqiy shakliga oid boshqa zarur talablar.

Ta'sis hujjatlarida yuridik shaxsning faoliyat predmeti va maqsadining nazarda tutilishi uning maxsus huquq layoqatiga egaligini anglatadi. Aytish lozimki, yuqorida ko'rsatilgan talablar yoxud shartlar davlat korxonalariga nisbatan ham joriy qilinadi.

Yuridik shaxs huquqiy maqomining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi me'yorlarning ta'sis hujjatlarida belgilanishi lozim bo'lib, ular jumlasiga yuridik shaxsning tashkil qilinishi, birgalikda faoliyat yuritish tartibi, mulkiy tusdagi, xususan, foyda va zararlarni taqsimlashga oid masalalar kiradi. Zero, ushbu shartlar muhim shartlar bo'lganligi bois, ularning ko'rsatilmaganligi ta'sis shartnomasini tuzilmagan deb hisoblashga asos bo'lishi mumkin. Muassis muhim shartlar qatori-da ta'sis hujjatlariga qonun doirasida huquqiy normalarga zid bo'lmagan boshqa shartlarni ham kiritish huquqiga ega.

Ta'sis hujjatlari qonun hamda ularning o'zida nazarda tutilgan tartibga ko'ra o'zgartirilishiga yo'l qo'yiladi. Xususan, ustavni o'zgartirish qoidaga ko'ra, yuridik shaxsning oliy organi yoki uning ta'sischilari tomonidan qaror qabul qilish, ayrim hollarda esa sud qarori bilan o'zgartirilishi nazarda tutiladi. Uchinchi shaxslar uchun ta'sis hujjatidagi bunday o'zgartirishlar davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan e'tiboran, qonun hujjatlarida belgilangan

alohida hollarda esa, o'zgartirishlar qabul qilinganligi haqida ro'yxatga oluvchi organga xabar berilgan paytdan boshlab kuchga kiradi. O'zgartirishlar kiritilganligi xususida xabar topib, ularni hisobga olgan holda ish yuritilgan bo'lsa, yuridik shaxs ham, uning muassislari ham o'zgarishlarining ro'yxatdan o'tkazilmaganligini bahona qilib, ta'sis hujjatlaridagi avvalgi me'yorlarni qo'llash yuzasidan talab qo'yishga haqqi yo'q.

Yuridik shaxsni tashkil etish bilan bog'liq jarayonning oxirigi bosqichini O'R FK 44-moddasida belgilangan tartibda amalga oshirilib, vakolatga ega bo'lgan davlat organi tomonidan muayyan bir tashkilotni fuqarolik huquqining subyekti ekanligi haqida qaror qabul qilish bilan tavsiflanadi. O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxslarni hisobga olish yagona davlat reyestri O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tomonidan hududlar kesimida o'zining joylardagi organlarida ro'yxatga olinadi. Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 2016-yil 28-oktabrdagi PQ-2646-son qarori² va O'zR VMning "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 2016-yil 28-oktabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 9-fevraldagi 66-son qarori bilan tasdiqlangan "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida" nizom³ qoidalari asosida amalga oshiriladi. Mazkur nizomga muvofiq auditorlik, sug'urta tashkilotlari, sug'urta brokerlari, birjalar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlariga muvofiq tashkil etiladigan aksiyadorlik kompaniyalari, jumladan, davlat aksiyadorlik kompaniyalari va xoldinglar, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar va qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlarda ro'yxatdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, soliq va statistika organlarida hisobga qo'yish orqali amalga oshiriladi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi va

viloyatlarda tashkil etiladigan bozorlar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tashkilotlar – Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi hamda viloyatlar adliya boshqarmalari tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganlaridan tashqari tadbirkorlik subyektlari, jumladan, xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar, tumanlar va shaharlar hokimliklari huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan miqdorda davlat boji to'lanadi. Qonun hujjatlarida tadbirkorlikning ayrim subyektlari uchun davlat boji to'lovi bo'yicha imtiyozli stavkalar belgilanishi mumkin. Misol uchun, davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik uchun dehqon xo'jaliklari, shuningdek, davlat korxonalari negizida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlari davlat bojidan ozod qilinadi va hakoza.

Notijorat tashkilotlarning ta'sis hujjatlari, davlat boji to'lovi va miqdori, muddati va boshqa shunga o'xshash o'ziga xos jihatlarni hisobga olgan holda davlat ro'yxatidan o'tkazish adliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish quyidagi holatlarga ko'ra rad etilishi mumkin:

- ro'yxatdan o'tkazish uchun qonunda nazarda tutilgan hujjatlar taqdim qilinmaganida;
- taqdim etilgan hujjatlar to'liq bo'lmaganida;
- hujjatlar tegishli bo'lmagan organga taqdim etilganida;
- tashkil qilinayotgan yuridik shaxs muassisi yoki ulardan biri tugatish arafasida yoki tugatish jarayonida bo'lganida;
- ta'sis hujjatlarida, muhr va shtamp eskizlarida ko'rsatilgan firma nomi bir xil yoki adashtirish darajasida o'xshash bo'lgan firma nomi mavjud emasligi haqidagi ma'lumotnomada ko'rsatilgan nom bilan nomutanosibligi aniqlanganida;
- ta'sis hujjatlarida, muhr va shtamp eskizlarida ko'rsatilgan tashkiliy-huquqiy shaklning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tashkiliy-huquqiy shakllarga mos kelmasligi ma'lum bo'lganida;
- ta'sis hujjatlarida O'zbekiston Respublikasi-

² QHMMB, 31.07.2018 y., 06/18/5483/1594-son.

³ QHMMB, 15.05.2024 y., 09/24/2821/0347-son.

da taqiqlangan faoliyat turlari ko'rsatilganida;

- ro'yxatga olish chog'ida ustav jamg'armasi-ning miqdori O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan miqdorga mos kelmaganida;

- xorijiy investitsiya asosidagi yoki ishtirokidagi korxonalarni ro'yxatga olishda xorij investitsiya ulushi miqdori O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan miqdorga mos bo'lmaganida;

- xorijiy investitsiya asosidagi yoki ishtirokidagi korxonalarni ro'yxatga olishda yuridik shaxs muassislari tarkibida xorijiy yuridik shaxs ishtirok etmaganida.

Yuridik shaxsni tuzish maqsadga nomuvofiq deb uni ro'yxatdan o'tkazmaslikka yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni, qonunda yuridik shaxslarni "murojaat etish" asosida tashkil etish tartibini o'rnatilgan bo'lib, bunga ko'ra ro'yxatga oluvchi organ faqat taqdim etilgan ta'sis hujjatlar va ta'sischilar xatti-harakatining qonun normalariga mosligini tekshiradi, xolos.

Yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli-dan qat'iy nazar, yuridik shaxsni tashkil etayotgan shaxslarning davlat ro'yxatidan o'tkazish mud-

datini buzganlik yoki umuman rad etganlik uchun sudga shikoyat qilishlari mumkinligi nazarda tutilgan. Yuridik shaxs ro'yxatga kiritilgan paytdan e'tiboran tashkil etilgan hisoblanadi. Bu yuridik shaxsning ro'yxat raqami, tashkiliy-huquqiy shakli, mulkchilik shakli, pochta manzili, yuridik shaxsiga tegishli kodi, tarmoq kodi va soliq to'lovchining alohida identifikatsiya raqami aks ettirilgan ro'yxatga olish guvohnomasini berish bilan tasdiqlanadi. Shu bilan birga ro'yxatga olingan yuridik shaxsga "Ro'yxatga olindi" belgisi tushirilgan, ro'yxatga oluvchi organ muhri bilan tasdiqlangan ta'sis hujjatlar hamda eskizi bilan birga muhr va shtamp tayyorlash uchun ruxsatnoma ham taqdim etiladi.

O'zR FK 49-moddasiga muvofiq yuridik shaxsni qayta ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi imperativ qoida belgilangan. Unga ko'ra qayta ro'yxatdan o'tkazish yuridik shaxslarning ta'sis hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda yuridik shaxs nomi, ustav fondi, muassislar tarkibi, yuridik manzil, rahbariyat tarkibi va boshqa o'zgarishlar ro'y berishi hisobga olinib, qonunda mazkur jarayon uchun belgilangan miqdordagi davlat boji to'lanadi.



Transchegaraviy metaversda tovar belgisi huquqi: yurisdiksiya muammosi va funksional model zarurati

BABAKULOV Zafar Qurbonnazarovich

Jamoat xavfsizligi universiteti professori,
yuridik fanlar doktori (DSc)

Annotatsia: Mazkur maqolada metavers, Web3 va NFT ekotizimi sharoitida tovar belgisi huquqini muhofaza qilishda yurisdiksiyani belgilash masalasi kompleks ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. Virtual muhitning hududiy chegaralardan xoli ekanligi, server infratuzilmasining turli mamlakatlarda tarqoq joylashuvi, foydalanuvchilarning identifikatsiya darajasining pastligi va raqamli maydonda bir vaqtning o'zida bir nechta milliy huquq tizimlarining qo'llanilishi an'anaviy yurisdiksiya qoidalarining amaliy samaradorligini keskin pasaytirayotgani asoslab beriladi. AQSh doktrinasining zamonaviy qarashlari Goldsmit va Vuning "suverenitetning raqamli transformatsiyasi", Ostin, Dinvudi va Trimblning "ko'p huquqli tizimlar" konsepsiyasi, shuningdek, Myurreyning "ta'sir + maqsadli yo'naltirish (effects+ targeting)" modeli metaversda yurisdiksiyani belgilashda yangi mezonlar va huquqiy algoritmlar shakllantirayotgani ko'rsatiladi. Maqolada yurisdiksiya muammosiga innovatsion yondashuv sifatida "Kompleks funksional yurisdiksiya doktrinasini" taklif qilinib, unda yurisdiksiyani server manzili yoki texnik IP-ko'rsatkichlarga emas, balki tovar belgisiga yetkazilgan zarar eng kuchli aks etgan hududga, platformaning qaysi bozorga maqsadli yo'naltirilganiga, onlayn foydalanuvchilar oqimi tendensiyalariga va raqamli iqtisodiy faoliyatning amaliy markaziga bog'lash zarurligi nazariy jihatdan asoslanadi. Taklif etilayotgan doktrina metaversdagi huquqbuzarliklarni hal etishda an'anaviy hududiylikdan funksional va ta'sirga asoslangan yondashuvga o'tish zarurligini namoyon etadi.

Kalit so'zlar: metavers, NFT, tovar belgisi huquqi, yurisdiksiya, transchegaraviy huquqbuzarlik, maqsadli yo'naltirish (targeting), ta'sir doktrinasini (effects doctrine), internet huquqi, kollizion huquq, raqamli aktivlar, virtual tovarlar, intellektual mulk.

Аннотация. В статье представлено комплексное научно-теоретическое исследование проблемы определения юрисдикции при защите прав на товарные знаки в условиях метавселенной, Web3 и NFT-экосистемы. Обосновывается, что отсутствие территориальных границ виртуальной среды, распределённость серверной инфраструктуры по разным государствам, низкий уровень идентифицируемости пользователей и одновременное применение нескольких национальных правовых систем значительно снижают эффективность традиционных юрисдикционных правил. Показано, что современные подходы американской доктрины концепция "цифровой трансформации суверенитета" Голдсмита и Ву, теория "мультиюрисдикционного применения" Остина, Динвуди и Тримбл, а также модель Мюррея "effects +targeting" формируют новые критерии определения юрисдикции в метавселенной. В качестве инновационного решения предлагается "Доктрина комплексной функциональной юрисдикции", согласно которой юрисдикция должна определяться непо месту нахождения сервера или IP-адресу, а по рынку, где вред товарному знаку проявляется наиболее существенно, по целевой аудитории платформы, по тенденциям пользовательского онлайн-трафика и фактическому центру цифровой экономической

активности. Данная доктрина демонстрирует необходимость перехода от традиционного территориального подхода к функциональной, эффект-ориентированной модели разрешения правонарушений в метавселенной.

Ключевые слова: метавселенная, NFT, товарный знак, юрисдикция, трансграничное правонарушение, targeting, doctrine of effects, интернет-право, коллизионное право, цифровые активы, виртуальные товары, интеллектуальная собственность.

Kirish. Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti, virtual muhitlarning global miqyosda ommalashuvi va Web3 ekotizimining kengayishi jamiyatda yangi raqamli munosabatlarni yuzaga keltirmoqda. Shunga mos ravishda shakllanayotgan metavers konsepsiyasi moddiy va raqamli voqeliklarning uyg'unlashuviga asoslangan bo'lib, unda foydalanuvchilar virtual identifikatsiyaga ega bo'ladi, raqamli obyektlardan foydalanadi, tadbirkorlik faoliyatini yuritadi va mulkiy munosabatlarga kirishadi. Bu keng qamrovli raqamli fazoda virtual tovarlar – avatar elementlari, virtual kiyimlar, 3D-obyektlar, raqamli san'at asarlari, NFTlar va virtual ko'chmas mulk kabi raqamli aktivlar markaziy o'rinni egallaydi.

Virtual tovarlar bozorining jadal o'sishi, foydalanuvchilarning raqamli individuallikni namoyon etish istagi va metavers iqtisodiyotining kengayishi natijasida tovar belgisiga oid huquqlarni muhofaza qilish masalasi yangi bosqichga ko'tarildi. An'anaviy intellektual mulk doktrinasi real dunyodagi tovarlar va xizmatlar bilan bog'liq munosabatlar uchun mo'ljallangan bo'lib, virtual muhitdagi dinamik, tez o'zgaradigan va tarmoqlararo xilma-xillika ega iqtisodiy jarayonlarni qamrab olish imkoniyati cheklangan.

Metavers platformalarida brendlar ostida taklif qilinayotgan virtual tovarlar, foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontent, logotip va vizual identifikatsiya elementlarining erkin nusxalanishi, qayta ishlanishi yoki anonim tarzda noqonuniy foydalanilishi tovar belgisi huquqlari uchun mutlaqo yangi tahdidlar va huquqiy muammolarni keltirib chiqarayotgani bilan ahamiyatlidir. Shu bilan birga, metaversning geografik chegaralarga bo'ysunmasligi, serverlar turli davlatlarda joylashganligi, huquqbuzarlarning anonimligi va turli yurisdiksiya normalarining bir vaqtda amal qilishi huquqni qo'llashni yanada murakkablashtiradi.

Shu holatlarda tovar belgisini muhofaza qilishning ilmiy-doktrinal asoslarini qayta ko'rib chiqish, huquqiy normalarni raqamli muhitga moslashtirish va metavers iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda zamonaviy huquqiy yondashuvlarni ishlab chiqish tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Metavers sharoitida tovar belgilarini himoya qilishning ahamiyati, birinchi navbatda, raqamli iqtisodiyotda kechayotgan jadal transformatsiya jarayonlari va virtual aktivlar bozorining tez sur'atlarda o'sib borishi bilan izohlanadi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli platformalar, blokcheyn, VR/AR va NFT kabi texnologiyalar rivoji natijasida virtual tovarlar aylanmasi kengaymoqda, ularning iqtisodiy qiymati ortib bormoqdava brendlarning virtual muhitda ham strategik aktiv sifatida namoyon bo'layotgani tovar belgisi huquqini muhofaza qilishni zamonaviy ilmiy va amaliy zaruratga aylantirmoqda.

So'nggi yillarda kompyuter o'yinlari, VR/AR texnologiyalari, blokcheyn hamda NFT platformalarining jadal rivojlanishi virtual tovarlar bozorining keskin o'sishiga sabab bo'ldi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda global virtual tovarlar bozori hajmi 80 milliard AQSh dollaridan oshgan va ushbu ko'rsatkich 2027-yilga borib 135 milliard dollargacha o'sishi prognoz qilinmoqda¹. Bu raqamlar virtual tovarlar segmentini raqamli iqtisodiyotning eng tez sur'atlarda rivojlanayotgan sohalaridan biriga aylantirmoqda.

Metavers iqtisodiyoti ham global darajada katta iqtisodiy qiymat yaratishi kutilmoqda. "McKinsey & Company" tahlillariga ko'ra, 2030-yilgacha metavers ekotizimining umumiy bozor hajmi 1,5 – 1,8 trillion dollarga yetishi mumkin. Uning tarkibida alohida segment sifatida virtual tovarlar va raqamli aktivlar bozori 200–300 milliard dollarga o'sishi kutilayotgani ushbu sohaning strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda².

¹ Statista Virtual Goods Market Revenue Worldwide (2023). <https://www.statista.com/statistics/261675/virtualgoods-revenue-worldwide/>. Statista Market Insights Virtual Goods Forecast 2027. <https://www.statista.com/outlook/dmo/digital-content/games/virtual-goods/worldwide>

² Statista Market Insights Virtual Goods Forecast 2027. <https://www.statista.com/outlook/dmo/digitalcontent/games/virtual-goods/worldwide>. McKinsey Metaverse Report Metaverse Market Forecast. <https://www.mckinsey.com/featured-insights/mckinsey-explainers/what-is-themetaverse>.

Virtual tovarlar bozorining eng yirik va tez o'sib borayotgan tarmoqlaridan biri – bu kompyuter o'yinlari va o'yin dasturlari doirasida amalga oshiriladigan virtual xaridlar segmentidir. Global darajada tan olingan videoo'yinlar sanoati, kipersport va raqamli bozorlar bo'yicha tadqiqotlar olib boruvchi analitik kompaniya "Newzoo"ning 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, faqat o'yin ichi virtual xaridlar bozori hajmi 68 milliard dollarga yetgan. "Fortnite", "Roblox" va "Minecraft" kabi ommaviy platformalarning o'zida virtual tovarlar bo'yicha yillik savdolar 5-6 milliard dollarni tashkil etishi mazkur raqamlarning asosiy qismi hisoblanadi. Masalan, Roblox platformasida 2022-yil davomida foydalanuvchilar tomonidan sotib olingan virtual tovarlar hajmi 2,9 milliard dollar bo'lgan³.

Virtual moda va avatarlar uchun raqamli kiyim-kechak bozori ham jadal sur'atlarda o'smoqda. Dunyodagi eng yirik va nufuzli xalqaro konsalting va auditorlik kompaniyasi "Deloitte"ning 2022-yilgi tahlillarida qayd etilishicha, virtual kiyim-kechak bozori hajmi 1,8 milliard dollarni tashkil etgan⁴. "Future Market Insights" taxminlariga ko'ra, 2030-yilgacha ushbu segment 9,6 milliard dollargacha ko'payishi kutilmoqda⁵.

Foydalanuvchilar o'ziga xos avatarlar, virtual kiyimlar, 3D-obyektlar yoki raqamli san'at orqali raqamli individuallikni shakllantirishga intilayotgani brendlar uchun virtual fazoda faoliyat yuritishni strategik zaruratga aylantirmoqda. Ayni vaqtda, bunday raqamli obyektlarning mulkiy tabiati va ularga nisbatan huquqlarni belgilash masalalari huquqshunoslar oldiga butunlay yangi vazifalarni qo'yimoqda.

Shu bilan birga, an'anaviy tovar belgisi huquqining virtual muhitga to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etib bo'lmazligi dolzarblikni yanada oshirmoqda. Metaversdagi raqamli obyektlar real dunyodagi tovar va xizmatlardan farq qilib, bir necha o'ziga xos xususiyatlarga ega: ularni bir necha soniyada nusxa ko'chirish mumkin, foydalanuvchilar tomonidan osonlikcha o'zgartiriladi yoki qayta ishlanaadi, turli virtual platformalar o'rtasida hech qanday cheklovlarsiz ko'chirilib yuboriladi va eng muhimi bir vaqtning o'zida bir nechta davlat yurisdiksiyalari hududida muomalada bo'lishi mumkin. Bu xususiyatlar intellektual mulk huquqlarining

an'anaviy qoidalar bilan to'liq qamrab bo'lmaydigan holatlarni keltirib chiqaradi. Shu sabab huquqiy doktrina "virtual foydalanish", "avatar tashqi ko'rinishida tovar belgisini qo'llash" yoki "NFT ko'rinishida raqamli takrorlangan brend elementlaridan foydalanish" kabi yangi huquqiy kategoriyalarni shakllantirish zaruratiga duch kelmoqda.

Metaversda yuzaga kelayotgan huquqbuzarliklarni baholash va huquqni qo'llashni murakkablashtirayotgan eng jiddiy masala bu yurisdiksiya muammosidir. Aniq bir huquqbuzarlik bir davlatda ro'yxatdan o'tgan tovar belgisiga, boshqa davlatdagi serverda joylashgan platforma orqali, uchinchi davlatda yashovchi anonim foydalanuvchi tomonidan sodir etilishi mumkin. Bunday holatlarda qaysi sud vakolatli ekanini, qaysi qonun qo'llanilishi lozimligini, eng muhimi esa huquqbuzarning shaxsini qanday aniqlash mumkinligini belgilash juda qiyin. Shu jihatdan yurisdiksiya masalasi metaversda tovar belgisini muhofaza qilishning eng murakkab transchegaraviy yo'nalishlaridan birini tashkil etadi.

Bundan tashqari, virtual muhitda brend us-tidan nazorat qilish imkoniyatlari sezilarli darajada cheklanib, unga doir xatarlar keskin oshgan. Metavers platformalarida korxona logotipiyoki vizual uslubi noqonuniy tarzda o'zgartirilishi, masxaraomuz yoki tahqirlovchi shaklda qayta ishlani-shi, hatto zo'ravonlik yoki axloqqa zid g'oyalarni targ'ib qiluvchi kontentda qo'llanilishi mumkin. Bunday holatlar tovar belgisining iste'molchi-ni chalkashtirishdan himoya qilish funksiyasini susaytiribgina qolmay, balki brendning obro'si, qadr-qimmati va unga nisbatan ishonch darajasi-ga ham jiddiy zarar yetkazadi.

Mazkur virtual munosabatning dolzarbligini oshirayotgan yana bir muhim omil NFT va blokcheyn texnologiyalari bilan bog'liq huquqiy noaniqliklardir.

Hozirda ko'plab brendlar NFTlar orqali virtual tovarlar taklif qilayotgan bo'lsada, amaliyotda bir qator savollar ochiq qolmoqda, ya'ni NFT mulkiy huquqni beruvchi ayrim obyekt sifatida qaraladimi yoki faqat raqamli tasvirning texnik ko'rinishimi; NFTda aks etgan logotipdan foydalanish tovar belgisidan foydalanish deb kvalifikatsiya qilinadimi;

³ Roblox Annual Report 2023. <https://ir.roblox.com/financials/annualreports/default.aspx>

⁴ Deloitte Digital Fashion 2022 Report. <https://www2.deloitte.com/global/en/pages/consumerbusiness/articles/digital-fashion.html>.

⁵ Future Market Insights Virtual Clothing Market Forecast 2030. <https://www.futuremarketinsights.com/reports/virtual-clothing-market>

token egaligi bilan kontent muallifligi o'rtasidagi huquqiy munosabat qanday tartibga solinadi. Ushbu masalalar bo'yicha yagona huquqiy yondashuv mavjud emasligi NFT-texnologiyasi orqali sodir etilayotgan tovar belgisi huquqbuzarliklarini to'g'ri baholash va kvalifikatsiya qilishni yanada murakkablashtirmoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar metaversda tovar belgisini muhofaza qilish borasida transchegaraviy, innovatsion va ilmiy jihatdan asoslangan maxsus huquqiy mexanizmlar zaruratini yaqqol namoyon qilmoqda. Bu esa davlatlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, virtual platformalar javobgarligini belgilash, intellektual mulkni himoya qilishning yagona global standartlarini ishlab chiqish kabi keng qamrovli vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Shuning uchun ham metaversda tovar belgisiga oid huquqlarni muhofaza qilish masalasi nafaqat texnik yoki amaliy muammo, balki intellektual mulk huquqining zamonaviy doktrinasida shakllanayotgan eng dolzarb va strategik yo'nalishlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq, mazkur muammolar qatorida, ayniqsa, hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda eng ko'p muhokama qilinib, eng murakkab va to'liq hal etilmagan masala – bu yurisdiksiya muammosidir. Bu muammoning dolzarb bo'lib borishi bir nechta fundamental omillar bilan izohlanadi.

Avvalo, metavers hududiy chegaralardan mustaqil virtual makon hisoblanadi. Tovar belgisiga bo'lgan huquq esa tabiatan hududiy xarakterga ega bo'lib, u faqat ro'yxatdan o'tkazilgan davlat hududida himoyalanaadi. Virtual platformalarning global tabiati, serverlarning turli davlatlarda tarqoq joylashgani va foydalanuvchilarning turli yurisdiksiyalarda joylashishi klassik "huquqbuzarlik sodir etilgan joy" (lex loci delicti) tamoyilini amalda qo'llab bo'lmasligini anglatadi. Bu holatda huquqbuzarlik qayerda yuz bergani haqidagi savolning o'zi ochiq qoladi, ya'ni voqeaga AQShda ro'yxatdan o'tgan tovar belgisining o'zi asos bo'lyaptimi? Yoki Germaniya hududida joylashgan server orqali amalga oshirilgan raqamli harakat hal qiluvchi hisoblanadimi? Agar huquqbuzar Janubiy Koreyadan ulangan bo'lsa, bu holat yurisdiksiyani belgilaydimi? Yoki aksincha, zararining aynan Yaponiya bozorida namoyon bo'lishi yurisdiksiyani belgilashda asosiy omil sifatida qabul qilinadimi? Mana shunday ko'p qirrali va o'ta

murakkab tuzilma an'anaviy yurisdiksiya qoidalarining tatbiq etilishini keskin cheklab, amaliy huquqiy bo'shliqlarni keltirib chiqarmoqda.

Yurisdiksiya muammosining yana bir keskinlashtiruvchi jihati huquqbuzarni aniqlash borasidagi amaldagi imkoniyatlarning cheklanganligidir. Metaversda foydalanuvchilar nikneym yoki psevdonim ortida harakat qilishi, VPN orqali geografik joylashuvini yashirishi, blokcheyn texnologiyasidagi anonimlikdan foydalanishi yoki boshqa davlatning IP manzili orqali ulanishi mumkin. Bunday sharoitda huquqbuzarning shaxsini aniqlash o'ta qiyin bo'lib, natijada qaysi davlat sudiga tegishli bo'lishi mumkinligi ham noaniq bo'lib qolmoqda.

Garchi AQSh, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarda metaversga oid alohida huquqiy loyihalar muhokama qilingan bo'lsada, hozirgacha universal "Metavers uchun yurisdiksiyani belgilash modeli" mavjud emas. Shuningdek, amaldagi xalqaro intellektual mulk bitimlari BIMT, TRIPS, Parij Konvensiyasi metavers sharoitida yuzaga kelayotgan transchegaraviy huquqbuzarliklarni qamrab olmagan. Ushbu holat metaversda yurisdiksiyani belgilash borasidagi huquqiy bo'shliqni yanada chuqurlashtirmoqda.

Yurisdiksiya muammosining dolzarbligini yanada yorqin tasvirlash uchun quyidagi amaliy misolni ko'rib chiqish mumkin. Masalan, Nike tovar belgisi AQShda ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsin. "Metacity" nomli metavers platformasi-ning serverlari esa Germaniyada joylashgan deb tasavvur qilamiz. Bir koreyalik foydalanuvchi Nike logotipini o'zgartirib, NFT sifatida sotmoqda. Bu NFTni Yaponiya bozoridagi iste'molchilar sotib olmoqda va bu Nike'ning obro'siga zarar yetkazmoqda. Bunday vaziyatda qator savollar paydo bo'ladi: huquqbuzarlik qayerda sodir bo'ldi? Nike qaysi sudga murojaat qilishi kerak? Qaysi davlat qonuni qo'llaniladi? Server infratuzilmasi Germaniyada bo'lgani uchun yurisdiksiya aynan shu davlatga tegishlimi? Yoki NFT tranzaksiyalari blokcheyn tarmog'ida amalga oshirilgani bois, huquqiy munosabatning aniq "joyini" belgilash umuman imkoniyatsiz holatga aylanadimi?

Klassik huquqning hech bir mexanizmi bunday vaziyatlarga aniq va ishonchli yechim taqdim etolmaydi. Shu sababli yurisdiksiya masalasi metaversda tovar belgisini muhofaza qilishning

eng murakkab, tahliliy va ilmiy jamoatchilikda eng ko'p muhokama qilinayotgan masalalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu muammoning hal etilmaganligi o'z navbatida global miqyosda intellektual mulk huquqini samarali tatbiq etish imkoniyatlarini cheklab, davlatlar o'rtasida transchegaraviy huquqiy hamkorlikni kuchaytirish, virtual platformalarning majburiyatini belgilash va raqamli muhit realliklariga moslashtirilgan yangi xalqaro standartlarni ishlab chiqish zaruratini keskin ravishda kun tartibiga chiqarmoqda.

AQSh huquqshunoslari tomonidan metaversda tovar belgisiga oid yurisdiksiya muammosi alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib borayotgani kuzatiladi. Internet haqidagi ilk "chegara-siz kiberfazo" konsepsiyasiga tanqidiy yondashgan Jek Goldsmit (JackGoldsmith) va Tim Vu (Tim Wu) o'zlarining "Who Controls the Internet? Illusions of a Borderless World" maqolasida "raqamli muhit aslida davlatlar suverenitetidan xoli emasligini, aksincha, milliy hududiy nazorat vositalari orqali yanada "milliy hududga moslashtirayotganini" ta'kidlaydilar. Ular Yahoo! va Google kabi platformalarga nisbatan Fransiya, Xitoy va boshqa davlatlar tomonidan qo'llangan huquqiy choralar misolida kibermakonda ham milliy sudlar va milliy huquq me'yorlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib qolayotganini ko'rsatadilar. Mazkur yondashuv metaversda yurisdiksiya muammosini "hech kim boshqarmaydigan global fazo" sifatida emas, balki turli davlat sudlari va huquq tizimlari kesishadigan murakkab huquqiy maydon sifatida baholash zarurligini asoslab beradi.

Intellektual mulk, xususan tovar belgisi huquqining hududiy tabiatiga oid ilmiy munozaralarda Grem Ostin (Graeme W. Austin) va Grem Dinvudi (Graeme Dinwoodie) kabi AQSh olimlari yangi nazariy modellarni ilgari surmoqdalar. Grem Ostinning ta'kidlashicha, "global savdo, internet va metavers sharoitida iste'molchi ongi va brend haqidagi axborot milliy chegaralar bilan cheklanmasligi natijasida tovar belgisi buzilishi "ko'p hududli tabiat" kasb etmoqda. Shu bois turli

davlatlarning tovar belgisi qonunchiligi bir vaqtning o'zida qo'llanilishi ehtimoli oshib bormoqda"⁶. Grem Dinvudi esa bu jarayonni "cheklangan hudud" deb atab, ko'p davlat huquqini qamrab olgan nizolarni yagona jarayonda ko'rib chiqish, yurisdiksiya va qo'llaniladigan huquqni aniqlashda eng kuchli bog'liqlik tamoyilidan foydalanishni taklif qiladi. Unga ko'ra, "yurisdiksiyani faqat server joylashgan hudud yoki foydalanuvchi IP-manzili bilan bog'lash emas, balki huquqbuzarlik oqibati eng kuchli namoyon bo'lgan bozorni inobatga olish maqbul yechim hisoblanadi"⁷.

AQSh professori Marketa Trimbl (Marketa Trimble) internetda bir vaqtda bir nechta huquq tizimining qo'llanilishi muammosini "amal qilishi mumkin bo'lgan huquq normalari ko'pligi" doirasida tahlil qiladi. U hududiy cheklash mavjud bo'lmagan hollarda keng qamrovli kontent bir necha davlat huquqiga bir vaqtning o'zida tushib qolishi mumkinligini ta'kidlab, kollizion-huquqiy yondashuvlar orqali amal qilishi mumkin bo'lgan huquq tizimlari doirasini qisqartirish va eng maqbul yurisdiksiyani belgilash mezonlarini ilgari suradi. Metaversda tovar belgisi buzilishi yuzaga kelganda, Marketa Trimblning mazkur yondashuvi yurisdiksiyani belgilashda faqat "huquqbuzarlik sodir etilgan joy"ga emas, balki transchegaraviy ta'sir doirasiga, platformaning muayyan bozorga "yo'naltirilganligi"ga va hududiy cheklash qo'llangan-qo'llanmaganiga qarab baholash lozimligini ko'rsatadi⁸.

Metavers, NFT va tovar belgisi huquqi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni to'liq yoritgan olimlardan biri Maykl D. Myurreydir (Michael D. Murray). Uning 2023-yilda nashr etilgan "Trademarks, NFTs, and the Law of the Metaverse" nomli ishi⁹ dastavval AQSh sudlari Lenxem qonuni normalarini metaversda ham tatbiq qilayotganini ta'kidlaydi. Biroq amaliyotda ko'p hollarda yurisdiksiyani belgilashda asosiy mezon sifatida aynan AQSh bozoriga yetkazilgan zarar va amerikalik iste'molchining chalkashi ko'rib chiqilmoqda. Maykl D. Myurrey bu tendensiyaning "ta'sir doktri-

⁶ Graeme W. Austin. The Territoriality of United States Trademark Law. Intellectual Property And Information Wealth, Peter Yu, ed., Praeger Press, 2007. Arizona Legal Studies Discussion Paper No. 06-20. Victoria University of Wellington Legal Research Paper No. 28/2013. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=896620

⁷ Dinwoodie, Graeme B. Developing a Private International Intellectual Property Law: The Demise of Territoriality? Vanderbilt Journal of Transnational Law, Vol. 47, 2014, pp. 939-1003. https://www.academia.edu/60488136/Developing_a_Private_International_Intellectual_Property_Law_The_Demise_of_Territoriality

⁸ Marketa Trimble. The role of geoblocking in the Internet legal landscape. Journal promoted by the Law and Political Science Department. IDP No. 23 (December, 2016) | ISSN 1699-8154.

⁹ Michael D. Murray, Trademarks, NFTs, and the Law of the Metaverse, 6 Ariz. L. J. Emerging Tech. 3 (2023), <http://azlawjet.com/2023/10/v6a3/>.

nasi” zarar yetgan bozorga bog’langan yurisdiksiya modeli kuchayib borayotgani sifatida baholaydi. Ya’ni NFT orqali tovar belgisi buzilgan hollarda bir vaqtda bir nechta davlat huquqi qo’llanilishi mumkin bo’lsada, amalda nizolar asosiy ta’sir yuz bergan davlat sudida ko’rib chiqilmoqda.

Shu bilan birga AQSh doktrinasida “maqsadli yurisdiksiya” modelining ahamiyati ortib bormoqda. Jek Goldsmit va Tim Vu, Trimbl, Dinvudi ishlarida keltirilgan tahlillar onlayn muhitda, jumladan, metaversda yurisdiksiyani aniqlash endi server joylashgan davlat yoki foydalanuvchining IP-manzili kabi klassik texnik mezonlarga emas, balki platformaning qaysi bozorga ochiq va ongli ravishda yo’naltirilganiga tayanadi. Ilmiy doktrinaga ko’ra:

Interfeysning qaysi tilda ishlayotgani;

Reklama kompaniyalari qaysi davlat iste’molchilariga qaratilgani;

To’lov qaysi mamlakat valyutasi va banklarini qo’llab-quvvatlashi kabi omillar platformaning real iqtisodiy faoliyati qayerda shakllanayotganini ko’rsatadi. Shu sababli metaversda yurisdiksiyani belgilash “harakat qayerda amalga oshirildi?” degan texnik savoldan ko’ra, “ta’sir va zarar qayerda namoyon bo’ldi va faoliyat qaysi bozorga qaratilgan?” degan huquqiy savolga asoslanadi.

Shunday qilib, yuqoridagi ilmiy mulohazalarni umumlashtirgan holda ta’kidlash mumkinki, AQSh doktrinasida metaversda tovar belgisiga oid yurisdiksiya muammosi uchta asosiy konseptual yo’nalish kesishmasida shakllanmoqda.

Birinchi yo’nalish J. Goldsmit va T. Vu tomonidan asoslangan nazariya bo’lib, unga ko’ra internet va metavers “chegarasiz kiberfazo” emas, aksincha, davlat suvereniteti raqamli muhitda ham saqlanib, yangi shaklda namoyon bo’lmoqda; milliy hududiy nazorat yo’qolmaydi, faqat texnika va huquqiy mexanizmlar orqali qayta shakllanadi.

Ikkinchi yo’nalish G. Ostin, G. Dinvudi va M. Trimbl tomonidan ishlab chiqilgan “cheklangan hududiylik” va “ko’p huquq tizimlari qo’llanilishi” doktrinasi bo’lib, ular global raqamli muhitda tovar belgisiga bo’lgan huquqning buzilishi ko’p hududli tabiat kasb etishini, shu bois yurisdiksiyani aniqlashda eng kuchli bog’liqlik tamoyiliga tayanish lozimligini ta’kidlaydilar.

Uchinchi yo’nalish M. Myurrey tomonidan ilgari surilgan “ta’sir + maqsadli yo’naltirish” (effects + targeting) modeli bo’lib, metaversda yuris-

diksiyani belgilashda server yoki IP-manzil emas, balki “zarar eng kuchli namoyon bo’lgan bozor”, “iste’molchining virtual muhitda chalkashi va platformaning qaysi bozorga ochiq tarzda yo’naltirilgani” hal qiluvchi mezon sifatida e’tirof etiladi.

Shu tariqa, AQSh doktrinasi hozircha “Metavers uchun muvofiq yurisdiksiyaning optimal huquqiy modeli”ni to’liq shakllantirmagan bo’lsada, amaldagi ilmiy yondashuvlar metaversdagi tovar belgisi huquqbuzarliklarini baholashda an’anaviy hududiylik prinsipini qayta ko’rib chiqish zarurligini aniq ko’rsatmoqda.

Zamonaviy tahlillar “maqsadli yo’naltirish” va “oqibatning yuzaga kelishi” doktrinalarini integratsiya qilish, platformaning qaysi bozorga yo’naltirilganligi va zararining qayerda namoyon bo’layotganini asosiy mezon sifatida qabul qilish, shuningdek, NFT, blokcheyn va virtual mulkka xos huquqiy xususiyatlarni hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi.

Yuqoridagi doktrinal tahlillar metavers, NFT muomalasi va keng qamrovli raqamli munosabatlar sharoitida an’anaviy hududiy yurisdiksiya qoidalari o’z amaliy qiymatini yo’qotib borayotganini yaqqol ko’rsatadi. Virtual muhitda huquqiy munosabatlarning makon bilan bog’liqligi inkor etiladi, chunki foydalanuvchilar geografik nuqtai nazardan tarqoq, serverlar turli davlatlarda joylashgan, huquqbuzarliklar esa bir vaqtningo’zida bir nechta bozorda iqtisodiy oqibat keltirishi mumkin. Shu bois, yurisdiksiyani belgilashda real dunyoda ishlagan modellarni tatbiq etish huquqiy jihatdan samarasiz, amaliy jihatdan esa deyarli imkoni bo’lmagan vazifaga aylanmoqda.

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida “Kompleks funksional yurisdiksiya doktrinasi”ni ilmiyyechim sifatida taklif etish mumkin. U kollizion huquq qoidalari (lex locidelicti, lex loci protectionis), internet huquqiga oid “maqsadli yo’naltirish” va “oqibatning yuzaga kelishi” doktrinalari hamda davlat suverenitetining raqamli muhitda transformatsiyasiga doir zamonaviy nazariyalar sinteziga asoslanadi.

Birinchi, Goldsmit va Vu tomonidan ilgari surilgan “Suverenitetning onlayn muhitda qayta modellenishi” g’oyasi ushbu modelning konseptual poydevorini tashkil etadi. Unga ko’ra, davlat suvereniteti raqamli makonda yo’qolmaydi, balki yangi shaklda namoyon bo’ladi. Yurisdiksiya mod-

diy joylashuvga emas, balki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini zarar ko'rgan virtual hududga bog'lanadi. Bu esa metaversda milliy huquqning "yangi raqamli hududiyiligi" shakllanishiga olib keladi.

Ikkinchidan, Ostin, Dinvudiva Trimbl tomonidan ishlab chiqilgan huquqbuzarlikning ko'p davlat huquqi bilan bog'liqligiga ko'ra, metaversdagi tovar belgisi buzilishi bir vaqtning o'zida bir nechta huquq tizimi bilan bog'lanishi mumkin. Shuning uchun ham metaversda huquqbuzarlik sodir etilgan aniq joyni belgilash texnik vositalar nuqtai nazaridan ham, an'anaviy huquqiy mezonlar asosida ham amaliy jihatdan imkonsizdir. Virtual muhitda harakatlar serverlar o'rtasida tarqoq, blokcheyn tarmoqlari orqali markazlashmagan va foydalanuvchilarning IP-manzili yoki joylashuvi yashirilgan bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda yurisdiksiyani belgilash uchun klassik "harakat sodir etilgan joy" tushunchasi o'z ahamiyatini yo'qotadi. Shu bois yurisdiksiyani aniqlashda "eng kuchli bog'liqlik markazi" tamoyilini ustuvor mezon sifatida qo'llash zarur. Ushbu bog'liqlik markazi texnik infratuzilma bilan emas, balki huquqbuzarlikning qaysi jamiyatda eng sezilarli ta'sir qilgani, qaysi bozorda zarar namoyon bo'lgani va iqtisodiy munosabatlar qaysi segmentda oqibat keltirgani bilan belgilanadi.

Uchinchidan, integrativ modelning amalda ishlash mexanizmi Myurreyning "ta'sir + maqsadli yo'naltirish" (effects + targeting) doktrinasi bilan mustahkamlanadi. Ushbu doktrina yurisdiksiyani belgilashda harakatning formal texnik manbas-

ini emas, balki huquqbuzarlik natijasida vujudga kelgan real iqtisodiy oqibatlarni va platformaning qaysi auditoriyaga ong'li ravishda yo'naltirilganini asosiy mezon sifatida qabul qiladi. Shu ma'noda, yurisdiksiyani aniqlashda quyidagi funksional ko'rsatkichlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi:

Zarar eng kuchli tarzda namoyon bo'lgan bozor, ya'ni iste'molchining chalkashishi va brend obro'siga ta'sir aynan qayerda ro'y bergani;

interfeys, xizmatlar va marketing materiallarining maqsadli auditoriyasi, jumladan, til, dizayn qaysi bozorga qaratilgani;

reclama strategiyalarining geografik yo'nalishi va ularning qaysi davlat iste'molchilarini qamrab olayotgani;

to'lov infratuzilmasi, valyuta operatsiyalari va bank integratsiyasining manzili, ya'ni tranzaksiyalar qaysi davlat moliyaviy tizimida amalga oshirilayotgani; NFT aylanmasining maqsadli bozori, tokenlar real iqtisodiy muomalada qaysi segmentga qaratilgani;

foydalanuvchilarning iqtisodiy faoliyati va raqamli munosabatlarining amaliy markazi, ya'ni virtual savdo, iste'mol va xizmatlar aylanmasi qayerda shakllanayotgani.

Ushbu omillar yurisdiksiyani aniqlashda texnik "harakat amalga oshirilgan joy" mezonini endi yetakchi mezon sifatida qo'llanilmasligini ko'rsatadi. Aksincha, yurisdiksiya real iqtisodiy oqibat yuzaga kelgan joyga, zararining geografiyasiga va platformaning ong'li ravishda yo'naltirilgan bozoriga bog'lab belgilanishi huquqiy jihatdan maqbul yechim hisoblanadi.



Механизмы защиты прав ребёнка в семейном законодательстве Республики Узбекистан

AVAZBEKOVA Diyoraxon Latifjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

Annotatsia: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi oila qonunchiligida bola huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining kompleks huquqiy tahlili amalga oshiriladi. Voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan asosiy huquqiy vositalar, jumladan, vasiylik va homiylik organlari faoliyati, sud himoyasi, aliment majburiyatlari, shuningdek ota-ona huquqlarini cheklash va bekor qilish institutlari atroficha ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: bola huquqlari, oila huquqi, huquqlarni himoya qilish, vasiylik va homiylik, aliment, sud amaliyoti, qiyosiy huquq.

Аннотация: В данной статье проводится комплексный научно-правовой анализ механизмов защиты прав ребёнка в семейном законодательстве Республики Узбекистан. Рассматриваются ключевые правовые инструменты обеспечения прав и законных интересов несовершеннолетних, включая деятельность органов опеки и попечительства, судебную защиту, алиментные обязательства, а также институт ограничения и лишения родительских прав. Особое внимание уделено анализу судебной практики по делам, связанным с воспитанием детей и взысканием алиментов.

Ключевые слова: права ребёнка, семейное право, защита прав, опека и попечительство, алименты, судебная практика, сравнительное право.

Современное развитие общества, цифровизация социальных отношений и трансформация института семьи обуславливают необходимость усиления механизмов защиты прав ребёнка. В условиях роста числа семейных споров, вопросов опеки, алиментных обязательств и обеспечения интересов несовершеннолетних государство уделяет особое внимание совершенствованию семейного законодательства. В Республике Узбекистан защита прав ребёнка рассматривается как одно из приоритетных направлений государственной политики, закреплённое в конституционных нормах, семейном законодательстве и специальных нормативно-правовых актах.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью комплексного анализа пра-

вовых механизмов, направленных на обеспечение прав ребёнка, а также выявления эффективности действующих правовых инструментов и их соответствия международным стандартам. Особую значимость приобретает исследование взаимодействия национального законодательства с международными правовыми актами, регулирующими защиту прав детей.

Новизна работы заключается в систематизации механизмов защиты прав ребёнка в семейном законодательстве Республики Узбекистан с учётом современных тенденций развития права, правоприменительной практики и международного опыта.

Целью исследования является анализ правовых механизмов защиты прав ребёнка, за-

креплённых в семейном законодательстве Республики Узбекистан, выявление проблем их реализации и формирование предложений по совершенствованию правового регулирования.

Стоит отметить, защита прав ребёнка в Республике Узбекистан основывается на принципе приоритета интересов ребёнка. Данный принцип закреплён в Конституции Республики Узбекистан, а также в семейном законодательстве, регулирующем отношения между родителями и детьми. Основным нормативным актом в данной сфере является Семейный кодекс Республики Узбекистан, который устанавливает правовые основы защиты личных и имущественных прав несовершеннолетних. Одним из ключевых механизмов защиты прав ребёнка является законодательное закрепление его правового статуса. Ребёнок признаётся самостоятельным субъектом семейных правоотношений, обладающим определёнными правами и интересами, которые подлежат защите государством. К числу основных прав ребёнка относятся право на воспитание в семье, право на заботу и защиту со стороны родителей, право на образование, право на выражение своего мнения, а также право на защиту от насилия и жестокого обращения¹.

В ходе рассматривания, важно заметить тот факт, что существенным элементом механизма защиты прав ребёнка является деятельность органов опеки и попечительства. Данные органы осуществляют контроль за условиями жизни и воспитания детей, принимают меры по защите их прав в случае угрозы интересам ребёнка, участвуют в судебных процессах, связанных с определением места жительства ребёнка, лишением или ограничением родительских прав, усыновлением и другими вопросами семейного характера². Одним из наиболее важных инструментов защиты прав ребёнка выступает судебная защита. Судебные органы рассматривают широкий круг дел, связанных с нарушением прав несовершеннолетних. В частности, суды решают вопросы взыскания алиментов, определения порядка общения ре-

бёнка с родителями, лишения родительских прав, установления опеки и попечительства, а также защиты имущественных интересов ребёнка.

Также стоит отметить, алиментные обязательства родителей являются важным механизмом обеспечения материального благополучия ребёнка. Семейное законодательство Республики Узбекистан устанавливает обязанность родителей содержать своих несовершеннолетних детей независимо от того, проживают ли они совместно или раздельно. При уклонении от исполнения алиментных обязательств законодательство предусматривает меры ответственности, включая судебное взыскание алиментов и применение мер принудительного исполнения³. Отдельное значение имеет институт лишения и ограничения родительских прав. Данные меры применяются в случаях, когда родители не выполняют свои обязанности по воспитанию ребёнка, злоупотребляют родительскими правами, жестоко обращаются с детьми или создают угрозу их жизни и здоровью. Применение таких мер направлено прежде всего на защиту интересов ребёнка и обеспечение его безопасного развития.

Ещё важным направлением защиты прав ребёнка является обеспечение его права выражать собственное мнение. Согласно семейному законодательству, при решении вопросов, затрагивающих интересы ребёнка, суд или иные органы обязаны учитывать мнение ребёнка, достигшего определённого возраста. Данный механизм способствует реализации принципа участия ребёнка в принятии решений, касающихся его жизни. В последние годы в Республике Узбекистан особое внимание уделяется совершенствованию системы государственной защиты детей. Принятие новых нормативных актов, реформирование системы органов социальной защиты и внедрение современных механизмов мониторинга условий жизни детей способствуют повышению эффективности защиты прав несовершеннолетних. Кроме того, важную роль играет международное со-

¹ Семейный кодекс Республики Узбекистан, утверждённый Законом Республики Узбекистан от 30 апреля 1998 г. № 607-1, введён в действие с 1 сентября 1998 г. // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан.

² Закон Республики Узбекистан от 7 января 2008 г. № ЗРУ-139 "О гарантиях прав ребенка" // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан.

³ Гражданский процессуальный кодекс Республики Узбекистан, утверждённый Законом Республики Узбекистан от 22 января 2018 г. № ЗРУ-460, введён в действие с 1 апреля 2018 г. // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан.

трудничество в сфере защиты прав ребёнка. Республика Узбекистан является участником международных договоров, направленных на обеспечение прав детей, включая Конвенцию о правах ребёнка. Положения международных актов интегрируются в национальное законодательство и оказывают влияние на развитие семейно-правовых институтов⁴. Среди современных вызовов, связанных с защитой прав ребёнка, можно выделить вопросы цифровой безопасности, дистанционного общения родителей с детьми, защиту персональных данных несовершеннолетних, а также проблемы, возникающие в трансграничных семейных отношениях. В условиях цифровизации общества формируются новые механизмы защиты прав детей, включая правовое регулирование использования информационных технологий и социальных сетей.

Анализ правоприменительной практики показывает, что одним из проблемных аспектов остаётся недостаточная информированность родителей о правах ребёнка и механизмах их защиты. Кроме того, определённые сложности возникают при реализации судебных решений, связанных с воспитанием ребёнка и обеспечением алиментных обязательств. В связи с этим актуальным является развитие профилактических механизмов защиты прав ребёнка, включая повышение правовой культуры населения, развитие медиации в семейных спорах, а также укрепление взаимодействия государственных органов и общественных организаций.

Обобщая вышеизложенные необходимо сделать вывод о том, что механизмы защиты прав ребёнка в семейном законодательстве Республики Узбекистан представляют собой комплекс правовых, организационных и институциональных мер, направленных на обеспечение благополучия несовершеннолетних. Основу данной системы составляют нормы семейного законодательства, деятельность органов опеки и попечительства, судебная защита, алиментные обязательства родителей, а также меры ответственности за нарушение прав ребёнка. Аннулируя вышеупомянутое можем сказать, что национальное законодательство в значительной степени соответствует международным стандартам защиты прав детей. Вместе с тем дальнейшее совершенствование правового регулирования требует учёта современных социальных изменений, включая цифровизацию семейных отношений и развитие новых форм взаимодействия родителей и детей. В целях повышения эффективности защиты прав ребёнка представляется целесообразным усиление профилактических мер, расширение применения медиации в семейных спорах, совершенствование механизмов исполнения судебных решений, а также развитие программ правового просвещения населения. В перспективе важным направлением развития является дальнейшая гармонизация национального законодательства с международными стандартами и внедрение инновационных правовых механизмов защиты прав несовершеннолетних.



⁴ Конвенция о правах ребенка: принята резолюцией 44/25 Генеральной Ассамблеи ООН от 20 ноября 1989 г. // Организация Объединенных Наций. // https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/childcon.shtml (дата обращения: 08.05.2026).

Talim va yuridik xizmatlar sohasiga sun'iy intellektni joriy etishda davlat-xususiy sheriklik: huquqiy muammolar va yechimlar

BEG'AMOV Muxriddin Kamoliddin o'g'li

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti "Davlat va huquq asoslari" kafedrasida katta o'qituvchisi, Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsia: Ushbu maqolada ta'lim tizimi va yuridik xizmatlar sohasiga sun'iy intellekt (AI) hamda raqamli platformalarni davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlari orqali joriy etishning huquqiy muammolari tahlil qilingan. An'anaviy infratuzilma loyihalaridan farqli o'laroq, intellektual mulk himoyasi, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va raqamli loyihalarni moliyalashtirish kafolatlari kabi masalalarning qonunchilikdagi bo'shliqlari yoritilgan va ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Davlat-xususiy sheriklik, sun'iy intellekt, legal-tech, ta'lim huquqi, intellektual mulk, raqamli platformalar, investitsiya.

Аннотация: В данной статье анализируются правовые проблемы внедрения искусственного интеллекта (ИИ) и цифровых платформ в систему образования и сферу юридических услуг через механизмы государственно-частного партнёрства (ГЧП). В отличие от традиционных инфраструктурных проектов, освещаются пробелы в законодательстве в таких вопросах, как защита интеллектуальной собственности, безопасность персональных данных и гарантии финансирования цифровых проектов, а также выдвигаются предложения по их совершенствованию.

Ключевые слова: Государственно-частное партнёрство, искусственный интеллект, легал-теч, образовательное право, интеллектуальная собственность, цифровые платформы, инвестиции.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda ta'lim tizimiga investitsiya kiritish tushunchasi o'zining klassik ko'rinishidan (bino qurish, moddiy-texnik bazani yangilash) to'liq transformatsiya bo'lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va sun'iy intellekt (AI) echimlarini joriy etish bosqichiga o'tdi¹. Ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish, xususan, aholi va ma'lum ijtimoiy qatlamlar uchun huquqiy savodxonlikni oshiruvchi sun'iy intellektga asoslangan ochiq platformalarni (Legal-tech

modullarini) yaratish davlatdan o'ta yirik moliyaviy resurslar va texnologik ekspertizani talab qiladi. Buni samarali hal etishning yagona amaliy vositasi – davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlari orqali IT-kompaniyalar va xususiy investorlarni jalb qilishdir. Ammo O'zbekiston Respublikasining amaldagi DXSH qonunchiligi ko'proq an'anaviy moddiy obyektlarga moslashtirilgan bo'lib, raqamli ta'lim loyihalari va nomoddiy aktivlar (dasturiy ta'minot, ma'lumotlar bazasi, AI

¹ O'zbekiston Respublikasining „Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida“gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2019-y., 03/19/537/3114-son.

algoritmami) bo'yicha sheriklik munosabatlarini tartibga solishda orqada qolmoqda. Bu esa sohaga innovatsion investitsiyalar oqimini jiddiy sekinlashtirmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. DXSH mexanizmlarining umumiy huquqiy asoslari milliy olimlarimizdan O.Oqyulov, M.Borotov va boshqalar tomonidan an'anaviy fuqarolik-huquqiy munosabatlar doirasida tadqiq etilgan bo'lsada², aynan axborot texnologiyalari va sun'iy intellektga asoslangan ta'lim loyihalarida DXSHni qo'llash masalasi to'g'ridan-to'g'ri chuqur ochilmagan. Xorijiy olimlardan E.Savas va D.Grimseylar DXSHning ijtimoiy sohadagi o'rnini tahlil qilishgan³, biroq ularda intellektual mulk huquqlarining investitsiya obyektiga aylanishi masalasi ochiq qolgan. Ushbu tadqiqotning yangiligi shundan iboratki, u investitsiya obyektini moddiy ashyodan nomoddiy raqamli texnologiyaga ko'chirgan holda, axborot xavfsizligi, tijorat siri va mualliflik huquqi himoyasini DXSH bitimlarining ajralmas qismi sifatida kompleks tahlil qiladi.

Tadqiqot maqsadi. Ta'lim va huquqiy savodxonlik yo'nalishida sun'iy intellekt hamda raqamli platforma loyihalarini DXSH asosida amalga oshirishga to'squinlik qilayotgan amaliy huquqiy bo'shliqlarni aniqlash hamda milliy qonunchilikni real biznes ehtiyojlariga moslashtirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqishdan iborat.

An'anaviy DXSH va raqamli ta'lim loyihalari o'rtasidagi tafovutlar. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son Qonuni qabul qilingandan so'ng, mamlakatda xususiy kapitalni ijtimoiy sohalarga, xususan, ta'lim tizimiga jalb qilishning huquqiy fundamenti yaratildi. Biroq amaliyot va yuridik tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu qonun normalari va uning ostki qonun hujjatlari ko'proq klassik, ya'ni moddiy infratuzilma obyektlariga (binolar qurish, o'quv kampuslarini ta'mirlash, moddiy-texnik bazani yangilash) mo'ljallangan.

Ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari jadal ketayotgan bir davrda, yuridik xizmatlar va huquqiy ta'limni osonlashtiruvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va sun'iy intellekt kabi nomoddiy obyektlarni moli-

yalashtirish mexanizmlari qonunchilikda ochiq qolmoqda. Huquqiy savodxonlikni oshiruvchi virtual modullar, aholi (shu jumladan, mehnat migrantlari va talabalar) uchun real vaqt rejimida yuridik maslahat beruvchi ochiq AI platformalarini yaratish kabi loyihalarga xususiy investitsiyalarni jalb qilishda an'anaviy DXSH shablonlari ishlaymaydi.

Birinchidan, investitsiya obyektining nomoddiy xususiyati va uni baholash muammosi. An'anaviy DXSH loyihasida xususiy sherik (investor) ma'lum bir inshootni quradi, uni ekspluatatsiya qiladi va belgilangan muddatdan so'ng davlat balansiga o'tkazadi⁴. Ammo sun'iy intellektga asoslangan o'quv platformalarida "investitsiya objekti" bu – dasturiy kodlar yig'indisi, algoritmlar (neyrotarmoqlar) va raqamlashtirilgan ma'lumotlar bazasidir. Dasturiy ta'minotni qanday qilib davlat mulkiga o'tkazish, tizimni doimiy yangilab borish xarajatlarini (serverlar ijarasi, bulutli texnologiyalar, dasturchilar va data-tahlilchilar mehnati) loyiha qiymatiga kiritish O'RQ – 537-son Qonunning davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim shartlarini tartibga soluvchi 28-moddasi doirasida o'zining aniq ifodasini topmagan. Xususiy investor o'zi yaratgan sun'iy intellekt arxitekturasining qaysi qismi bo'yicha to'liq mulkdor bo'lib qolishi va qaysi qismi davlatga o'tishi borasidagi noaniqliklar bitim tuzish jarayonida jiddiy risklarni keltirib chiqarmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, qonunchilikdagi investitsiya objekti tushunchasini raqamli iqtisodiyot talablari asosida kengaytirish talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining IV bo'limi normalarida intellektual faoliyat natijalari va intellektual mulk muhofazasi kafolatlangan bo'lsa-da, maxsus qonunda (DXSH to'g'risidagi qonunda) IT-mahsulotlar bo'yicha sheriklik munosabatlarining alohida yuridik mexanizmi ishlab chiqilmagan.

Ikkinchidan, shaxsga doir ma'lumotlar muhofazasi va tijorat manfaatlarini o'rtasidagi ziddiyat. Ta'lim va yuridik xizmat ko'rsatuvchi raqamli platformalar, xususan, aholining huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan sun'iy intellekt modullari o'z faoliyati davomida millionlab foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini, yu-

² Fuqarolik huquqi. Darslik. / O. Oqyulov va boshq. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2015. – 672 b.

³ Savas E. S. Privatization and Public-Private Partnerships. – New York: Chatham House Publishers, 2000. – P. 112-115.

⁴ Grimsey D., Lewis M. K. Public Private Partnerships: The Worldwide Revolution in Infrastructure Provision and Project Finance. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2004. – P. 88-92.

ridik so'rovlari va xatti-harakatlar tarixini yig'adi (Big Data). O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ – 547-son Qonunining 27-1-moddasiga asosan, O'zbekiston fuqarolarining shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berishda ularning jisman O'zbekiston hududida joylashgan texnik vositalarda saqlanishi (lokalizatsiya) qat'iy talab etiladi⁵.

Biroq ko'plab xorijiy va yirik mahalliy IT-investorlar o'zlarining sun'iy intellekt neyrotarmoqlarini xalqaro bulutli serverlarda (masalan, AWS, Microsoft Azure) saqlaydi. Bundan tashqari, investor uchun loyihaning rentabelligi (qoplanishi) ko'pincha ushbu yig'ilgan ma'lumotlarni anonimlashtirgan holda tijoratlashtirishga bog'liq bo'ladi. Davlat esa milliy xavfsizlik va raqamli suverenitet nuqtai nazaridan ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga berishni cheklaydi. DXSH bitimlarida davlat siri, tijorat siri va foydalanuvchi ma'lumotlarini qayta ishlash chegaralari standart qoliplarga tushmaydi. Bu esa "Data-maxfiylik" (Data privacy) borasida davlat va xususiy sherik o'rtasida jiddiy huquqiy mojarolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Uchinchidan, sun'iy intellektni o'qitish (training) jarayonidagi mualliflik huquqi. Yana bir jiddiy yuridik ochiqlik shundan iboratki, yuridik maslahat beruvchi yoki ta'lim beruvchi AI ni o'qitish uchun davlat o'zining ulkan arxiv bazalarini (sud qarorlari, qonun hujjatlari loyihalari, ta'lim dasturlari) xususiy sherikka taqdim etishi kerak. Davlatning axborot resurslari asosida "aqlli" bo'lgan algoritm kelajakda kimning mulki hisoblanadi? Agar xususiy sherik ushbu muvaffaqiyatli modelni franchayzing asosida boshqa davlatlarga (masalan, qo'shni respublikalarga) sotmoqchi bo'lsa, O'zbekiston davlatining ushbu foydadan ulush olish mexanizmlari amaldagi qonunchilikda belgilanmagan. Demak, DXSH shartnomalarida ochiq kodli (open-source) arxitektura va intellektual mulk eksporti kabi maxsus shartlarni kiritish zarurati paydo bo'lmoqda.

Xorijiy tajriba va qonunchilikni takomillashtirish yo'nalishlari. Rivojlangan davlatlar (Buyuk Britaniya, Singapur, Janubiy Koreya) tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli iqtisodiyot sharoitida infratuzilma tushunchasi o'zgargan va ular an'anaviy DXSH modelidan "Raqamli

davlat-xususiy sheriklik" (Digital PPP) modeliga o'tishgan⁶. Ushbu modelning asosiy xususiyati shundaki, u moddiy aktivlardan ko'ra, ma'lumotlar bazasi, sun'iy intellekt algoritmlari, dasturiy kodlar va ochiq axborot tizimlarini yaratishga qaratilgan investitsiyalarni huquqiy jihatdan himoya qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim va yuridik xizmatlar sohasiga innovatsion IT-investorlarni jalb qilish va yuqorida sanab o'tilgan huquqiy ziddiyatlarni bartaraf etish uchun qonunchilikka quyidagi konseptual o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunining 28-moddasiga (Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim shartlari) maxsus band qo'shish zarur. Unga ko'ra, investitsiya obyekti dasturiy ta'minot va sun'iy intellekt tizimlari bo'lgan taqdirda, axborot xavfsizligi, dasturiy kodning (Source code) ochiqligi yoki yopiqligi, shuningdek, shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash huquqlarini taqsimlash bitimning muhim sharti sifatida e'tirof etilishi qonunan mustahkamlanishi lozim.

Ikkinchidan, Fuqarolik kodeksining intellektual mulk huquqiga oid IV bo'limi hamda DXSH qonunchiligi o'zaro uyg'unlashtirilib, "Birgalikdagi intellektual mulk" (Joint Intellectual Property) tushunchasini DXSH doirasida batafsil ochib berish kerak. Agar ta'lim yoki yuridik sun'iy intellekt platformasi davlat budjeti, davlat ma'lumotlar bazasi va xususiy sherikning texnologik algoritmi yordamida yaratilsa, undan kelajakda keladigan tijorat foydasi (masalan, tizimni chet elga eksport qilish orqali olingan foyda) huquqiy jihatdan aniq proporsiyalarda taqsimlanishiga oid "Moslashuvchan mulk" (Flexible ownership) mexanizmini joriy etish taklif qilinadi.

Uchinchidan, yuridik va ta'lim sohasida sun'iy intellektni qo'llash bilan bog'liq DXSH loyihalarini amaliyotga joriy etishdan oldin ularni testdan o'tkazish uchun "Maxsus huquqiy rejim" (Regulatory Sandbox – tartibga solish qumdoni) qoidalarini DXSH qonunchiligiga tatbiq etish lozim. Bu orqali investorlar shaxsiy ma'lumotlar va mualliflik huquqi bo'yicha qattiq sanksiyalarga

⁵ O'zbekiston Respublikasining „Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida“gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.07.2019-y., 03/19/547/3363-son.

⁶ Savas E. S. Privatization and Public-Private Partnerships. – New York: Chatham House Publishers, 2000. – P. 112-115.

tushib qolmasdan, o'zining AI loyihalarini ta'lim tizimida cheklangan doirada sinab ko'rish huquqiga (daxlsizlik kafolatiga) ega bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ta'lim va yuridik xizmatlar sohasiga sun'iy intellekt hamda raqamli platformalarni davlat-xususiy sheriklik asosida joriy etish — shunchaki texnologik ehtiyoj emas, balki jamiyatning huquqiy savodxonligini oshirishdagi strategik qadamdir. An'anaviy infrazuzilma obyektlariga qaratilgan amaldagi DXSH mexanizmlari axborot texnologiyalari va intellektual mulkka asoslangan innovatsion loyihalarni to'liq qamrab ololmaydi.

Mavjud huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish va sohaga xususiy IT-investorlarni keng jalb qilish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuniga raqamli loyihalar va sun'iy intellekt tizimlarini investitsiya obyekti sifatida e'tirof etuvchi "Raqamli

davlat-xususiy sheriklik" (Digital PPP) tushunchasini kiritish;

Ikkinchidan, DXSH bitimlarini tuzishda fuqarolarning shaxsga doir ma'lumotlarini muhofaza qilish, ma'lumotlarni lokalizatsiya qilish (Data privacy) hamda yaratilgan dasturiy ta'minotning intellektual mulk huquqini taqsimlash ("Birgalikdagi intellektual mulk") mexanizmlarini qonuniy kafolatlash;

Uchinchidan, loyihalarni amaliyotga keng joriy etishdan oldin yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yuridik xavflarni yumshatish maqsadida, "Tartibga solish qumdoni" (Regulatory Sandbox) kabi maxsus huquqiy rejimlarni qonunchilikka tatbiq etish.

Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi mamlakatimiz ta'lim tizimini raqamlashtirishni tezlashtiradi va yuridik innovatsiyalar uchun xavfsiz investitsion muhitni yaratib beradi.



Huquqni suiiste'mol qilishdan kelib chiqadigan fuqarolik-huquqiy oqibatlariga oid doktrinalar tahlili

MAMADALIYEV Avvolbek Ziyotdinovich

Odil sudlov akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi (DSc),
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsia: Mazkur maqolada fuqarolik huquqida huquqni suiiste'mol qilishdan kelib chiqadigan fuqarolik-huquqiy oqibatlarning doktrinal talqini hamda ularni qo'llashda sud diskresiyasining ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda huquqni suiiste'mol qilish institutining huquqiy tabiati, uning fuqarolik huquqidagi cheklovchi mexanizmi sifatidagi o'rni hamda mazkur holatlarda qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralarining mazmuni o'rganiladi. Ilmiy adabiyotlarda shakllangan turli nazariy yondashuvlar huquqiy himoyadan bosh tortish, zararni qoplash va huquqiy holatni tiklash kabi oqibatlarning huquqiy tabiati hamda ularning o'zaro nisbati tahlil qilingan. Shu bilan birga, sud diskresiyasining huquqni suiiste'mol qilish holatlarini baholash va undan kelib chiqadigan fuqarolik-huquqiy oqibatlarni belgilashdagi o'rni ochib berilgan. Muallif tomonidan mazkur institutni "huquq chegarasi" doktrinasida talqin qilish taklif qilinib, huquqni suiiste'mol qilishdan kelib chiqadigan oqibatlarni ierarxik va kompleks model asosida qo'llash zarurligi asoslab berilgan. Bunda huquqiy himoyadan bosh tortish, zararni qoplash va huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash choralari o'zaro bog'liq tiklovchi va kompensatsiyaviy mexanizmlar sifatida qoraladi.

Kalit so'zlar: huquqni suiiste'mol qilish, fuqarolik-huquqiy oqibatlar, sud diskresiyasi, huquqiy himoyadan bosh tortish, zararni qoplash, huquqiy holatni tiklash, insofilik va oqilonalik tamoyillari, huquq chegarasi doktrinasida, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, kompensatsiyaviy mexanizmlar.

Аннотация. В данной статье анализируются доктринальные толкования гражданско-правовых последствий злоупотребления правом в гражданском праве, а также значение судебной дискреции при их применении. В исследовании рассматриваются правовая природа института злоупотребления правом, его роль как ограничительного механизма в гражданском праве и содержание мер правового воздействия, применяемых в подобных случаях. На основе научной литературы проанализированы различные теоретические подходы к правовой природе и соотношению таких последствий, как отказ в правовой защите, возмещение убытков и восстановление правового состояния. Наряду с этим раскрывается роль судебной дискреции в оценке фактов злоупотребления правом и определении гражданско-правовых последствий, вытекающих из него. Автор предлагает интерпретировать данный институт в рамках доктрины "границы права" и обосновывает необходимость применения последствий злоупотребления правом на основе иерархической и комплексной модели. При этом отказ в правовой защите, возмещение убытков и восстановление состояния, существовавшего до нарушения права, рассматриваются как взаимосвязанные восстановительные и компенсационные механизмы.

Ключевые слова: злоупотребление правом, гражданско-правовые последствия, судебная дискреция, отказ в правовой защите, возмещение убытков, восстановление правового состояния, принципы добросовестности и разумности, доктрина границы права, гражданско-правовая ответственность, компенсационные механизмы.

Fuqarolik huquqida subyektiv huquqlarni amalga oshirish erkinligi fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi mustaqillik prinsipining asosiy ifodasi hisoblanadi. Biroq mazkur erkinlik mutlaq xususiyatga ega emas, chunki u insofilik, oqilonalilik, adolat va boshqa shaxslarning huquq hamda qonuniy manfaatlariga rioya qilish talablari bilan chegaralanadi. Aynan shu nuqtada huquqni suiiste'mol qilish instituti fuqarolik huquqining muhim cheklovchi mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur institutning asosiy muammosi esa nafaqat huquqni suiiste'mol qilish holatini aniqlash, balki undan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarining tabiati, hajmi va qo'llash tartibini belgilash bilan bog'liqdir. Ayniqsa, sud tomonidan huquqiy himoyadan bosh tortish, zararni qoplash, huquqiy holatni tiklash va boshqa tiklovchi yoki cheklovchi choralarni qo'llashda sud diskresiyasining o'zni alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, huquqni suiiste'mol qilish ko'p hollarda qonuniy shaklga ega bo'lgan, ammo mazmunan insofsiz xulq-atvor sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli mazkur masala sivilistik doktrinada ham, huquqni qo'llash amaliyotida ham bahsli va dolzarb muammo sifatida saqlanib qolmoqda.

Sud diskresiyasi doktrinasi huquqni suiiste'mol qilish holatlarida huquqni himoya qilishdan bosh tortish institutining amalga oshirilishida asosiy o'rin tutadi. Bu doktrina sudning har bir ish bo'yicha mustaqil baholash va qaror qabul qilish imkoniyatini ta'minlaydi, lekin shu bilan birga u huquqni himoya qilish huquqi bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, agar sud muayyan huquqiy munosabatni huquqni suiiste'mol qilish sifatida baholasa, shaxsning sud orqali o'z subyektiv huquqini himoya qilish imkoniyati to'liq yoki qisman cheklanishi mumkin. Bu esa sud himoyasi huquqining amalga oshirilishi ma'lum darajada sudning baholovchi xulosasi va qaroriga bog'liq ekanini anglatadi. Sud har bir nizoni ko'rib chiqish jarayonida shakllangan baholash mezonlariga tayanib, huquqni himoya qilishdan bosh tortish yoki uni cheklash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Ayni shu nuqtada olimlar o'rtasida ikki xil nuqtayi nazar yuzaga keladi.

Bir tomondan, I.A. Pokrovskiy kabi klassik huquqshunoslar sudlarga insofilik tushunchasini mustaqil ravishda talqin qilish va huquqni suiiste'mol qilish holatlarini baholash vakolatini berish noo'rin deb hisoblaydilar. Uning fikricha, "noaniq va baholovchi kategoriyalarni sud ixtiyoriga topshirish sud amaliyotida bir xillikning yo'qolishiga, fuqarolik muomalasida noaniqlik va hatto sud tomonidan o'zi ham suiiste'mol qilish holatlarining yuzaga kelishi ehtimoliga olib kelishi mumkin. Bu pozitsiya sud vakolatlarining ortiqcha keng talqin qilinishi huquqiy aniqlik va huquqiy barqarorlik tamoyillariga putur etkazishi mumkin, degan xavotirga asoslanadi¹.

Bunga qarama-qarshi, zamonaviy huquqshunoslar sud diskresiyasini zarur va obyektiv hodisa sifatida qabul qiladilar. D.V. Murzin insofilik tushunchasi universal qat'iy qoidalar bilan to'liq qamrab olinmaydigan, har bir holatga xos individual mazmunga ega kategoriya ekanini ta'kidlaydi. Shu bois, uni oldindan qat'iy qoidalar bilan cheklash amalda samara bermaydi, aksincha, sudlarni har bir ishda ushbu tushunchani mustaqil talqin qilishga majbur etadi. Amaldagi qonunchilik va sud organlarining tushuntirishlari faqat umumiy yo'nalishni belgilab beradi, xolos².

M.A. Yegorova ham shu pozitsiyani qo'llab-quvvatlaydi va "insofsiz xulq-atvor" hamda "huquqni suiiste'mol qilish" kabi kategoriyalarni oldindan qat'iy belgilab bo'lmashligini aytadi. Uningcha, "mazkur tushunchalarga aniq huquqiy baho berish faqat muayyan ish doirasida, sud tomonidan va qonun bilan belgilangan chegaralarda amalga oshirilishi mumkin. Bu esa sud diskresiyasining zarurligini yanada kuchaytiradi³.

S.F. Inoyatova esa bu ikki pozitsiyaning o'rtasida barqaror yondashuvni taklif etadi. Uning fikricha, "huquqni suiiste'mol qilish holatlarini aniqlash va tegishli huquqiy ta'sir chorasini tanlash sudning baholovchi faoliyati bilan bog'liqdir. Biroq bu vakolat mutlaq ixtiyoriylikni anglatmaydi. Sud qonun normalari, konstitutsiyaviy prinsiplar va huquqni qo'llash mezonlari doirasida harakat qilishi shart. Shu ma'noda, huquqni himoya qilishdan bosh tortish instituti huquqni qo'llash

¹ Покровский И.А. Основные проблемы гражданского права. М.: Статут, 2013. – С. 349.

² Мурзин Д.В. Отказ в защите права – последний довод справедливости // Вестник Федерального арбитражного суда Уральского округа. 2009. № 3 (11). С. 136-142.

³ Егорова М.А. Содержание категории "отказ в защите права" как санкции за злоупотребление правом // Гражданское право 2014. № 5. С. 10-14.

jarayoni sifatida amal qiladi va sudning asosiy vazifasi jazolash emas, balki huquqiy bog'liqlikni tiklashdan iboratdir⁴.

Shuni qayd etish joizki, sud diskresiyasi huquqni suiiste'mol qilishdan kelib chiqadigan fuqarolik-huquqiy oqibatlarni belgilashda muhim ahamiyatga ega, chunki huquqni suiiste'mol qilish holatining mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash hamda undan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarni belgilash ko'p jihatdan sudning baholash vakolatiga bog'liq. Agar sud muayyan harakatni huquqni suiiste'mol qilish sifatida baholasa, bu faqat huquqiy himoyadan mahrum qilish bilan cheklanmasdan, balki fuqarolik huquqiga xos tiklovchi va kompensatsiyaviy ta'sir choralari-ni, jumladan zararni qoplash, huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash yoki huquqni amalga oshirishni cheklash kabi oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, shartnomaviy munosabatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 869-moddasiga muvofiq, kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi bo'yicha litsenziat tomonidan sotilayotgan tovarlarning sifati shartnomaga mos kelmagan taqdirda litsenziar subsidiar javobgar bo'ladi, litsenziatga esa litsenziar mahsulotini tayyorlovchi sifatida qo'yiladigan talablar bo'yicha litsenziar litsenziat bilan solidar javobgarlik hisoblanadi. Demak, bunday munosabatlarda ham sud taraflarning xatti-harakatlarini baholash orqali huquqni suiiste'mol qilish holatini aniqlab, undan kelib chiqadigan tegishli fuqarolik-huquqiy oqibatlarni belgilaydi.

Bu masala yuzasidan sivilistik doktrinada birbiridan farq qiluvchi yondashuvlar shakllangan. Jumladan, I.A. Pokrovskiy sudlarga insofilik va huquqni suiiste'mol qilish kabi baholovchi kategoriyalarni keng talqin qilish vakolatini berish huquqiy aniqlik nuqtai nazaridan xavfli ekanini ta'kidlab, bunday holat sud amaliyotida noaniqlik va subyektivizmga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi. Biroq bu pozitsiyaga qarama-qarshi ravishda, D.V. Murzin va M.A. Yegorova sud diskresiyasini huquqni suiiste'mol qilish institutining tabiiy va zarur elementi sifatida baholab, insofilik va huquqdan maqsadga zid foydalanish kabi kategoriyalarni oldindan qat'iy qoidalar bilan to'liq belgilash mumkin emasligi sababli, har bir

aniq ishda ularni baholash sud vakolati doirasi-da amalga oshirilishi lozimligini ta'kidlaydilar. Bizningcha esa, mazkur ikki yondashuvni mutlaqlashtirish ham to'g'ri emas. Bir tomondan, I.A. Pokrovskiy ilgari surgan pozitsiya sud diskresiyasini keskin cheklashga olib kelishi mumkin, bu esa huquqni suiiste'mol qilish holatlarida adolatli qaror qabul qilish imkoniyatini kamaytiradi. Chunki huquqni suiiste'mol qilish holatlari ko'pincha standart huquqiy modellarga mos kelmaydi va ularni baholashda sudning muayyan darajadagi ixtiyori zarur bo'ladi. Ikkinchi tomondan, D.V. Murzin va M.A. Yegorova tomonidan ilgari surilgan yondashuvni mutlaqlashtirish ham muayyan xavflarni keltirib chiqaradi, chunki sud diskresiyasining haddan tashqari kengayishi huquqiy aniqlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ayniqsa, bu muammo huquqni suiiste'mol qilishdan kelib chiqadigan fuqarolik-huquqiy oqibatlarni belgilashda yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki ayrim holatlarda bunday harakatning oqibati sifatida huquqiy himoyadan mahrum qilish etarli bo'lishi mumkin. Biroq boshqa vaziyatlarda huquqni suiiste'mol qilish natijasida boshqa shaxsning mulkiy manfaatlarini buziladi, moddiy zarar kelib chiqadi. Shu nuqtai nazardan, huquqni suiiste'mol qilishdan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarni yagona universal model bilan tushuntirish mumkin emas.

Zararni qoplash doktrinasini fuqarolik huquqida huquqni suiiste'mol qilish holatlarida muhim o'rin tutadigan va ilmiy bahslarga sabab bo'lib kelayotgan masaladir. Ushbu doktrina huquqni suiiste'mol qilish natijasida yuzaga kelgan salbiy oqibatlarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, u zarar, xarajatlar, yo'qotishlar va boshqa shikastlanishlarni qoplashning huquqiy asoslari, shartlari hamda mexanizmlarini qamrab oladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 14-moddasiga muvofiq, huquq buzilgan shaxs o'ziga etkazilgan zararining to'la qoplanishini talab qilishga haqli. Bunda zarar tushunchasi haqiqiy zarar hamda boy berilgan foydani o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra, agar shaxs o'z huquqidan insofsiz foydalanib boshqa shaxsga zarar etkazgan bo'lsa, bunday harakatlari faqat huquqni himoya qilishdan mahrum qilish bilan cheklanmasdan, balki mazkur normaga muvofiq zararni qoplash majburiyatini ham yuzaga

⁴ Inoyatova S.F. Fuqarolik huquqlarini himoya qilishni rivojlantirish paradigmasi: Avtoreferat. – Toshkent, 2025. – B.14. Elektron manba: <https://justy.uz/books/fuqarolik-huquqlarini-himoya-qilishni-rivojlantirish-paradigmasi> (murojaat qilingan sana: 2026-yil 3-mart).

keltirishi mumkin, bu esa huquqni suiiste'mol qilishdan kelib chiqadigan fuqarolik-huquqiy oqibatlarining kompensatsiyaviy xususiyatini namoyon etadi.

Fuqarolik huquqi doktrinasida bu masala qonunchilikda aniq mustahkamlanguncha uzoq vaqt davomida bahsli bo'lib kelgan, chunki zarar-ni undirish imkoniyati, uning huquqiy tabiati va qo'llash shartlari yuzasidan turli qarashlar mavjud. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, huquqni suiiste'mol qilish tushunchasining o'zida zarar-ni qoplashga doir bevosita ko'rsatma mavjud emas, shuning uchun bu holatlarda zarar-ni qoplash faqat umumiy fuqarolik-huquqiy normalar (masalan, delikt javobgarligi) asosida amalga oshirilishi mumkin.

I.V. Sazanova ushbu masalaga umumiy fuqarolik-huquqiy javobgarlik mezonlari asosida talqin qiladi. Uning ta'kidlashicha, "huquqni suiiste'mol qilish holatlarida zarar-ni undirish umumiy delikt normalari zarar, sababiy bog'lanish va aybdorlik shartlari mavjud bo'lgandagina mumkin. Biroq u bu elementlar har doim ham to'liq shakllanmasligini ham qayd etadi, chunki suiiste'mol qilish formal jihatdan qonuniy harakat bo'lib qolishi mumkin. Shu bois, I.V. Sazanova zarar-ni qoplashni huquqni suiiste'mol qilishning to'g'ridan-to'g'ri oqibati emas, balki qo'shimcha javobgarlik shakli sifatida ko'radi, bu esa huquqbuzarlik tarkibining mavjudligiga bog'liq.

A.Yu. Ivanov esa qarama-qarshi pozitsiyani ilgari surib, huquqni suiiste'mol qilish mexanizmini delikt javobgarligi institutlari bilan aralashtirmaslik zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bunday holatlarda shaxs o'z huquqini amalga oshirayotgan bo'ladi va uning harakati formal jihatdan qonuniy hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, huquqni suiiste'mol qilishning asosiy oqibati sifatida zarar-ni qoplash emas, balki sud tomonidan huquqni himoya qilishdan bosh tortish chorasi qo'llanilishi lozim⁵. Demak, A.Yu. Ivanov zarar-ni qoplashni alohida javobgarlik shakli sifatida baholaydi va uni huquqni suiiste'mol qilish oqibatlari bilan tenglashtirishga qarshi chiqadi. Bu yondashuv huquqning ichki chegaralarini ta'kidlaydi va zarar qoplashni ikkilamchi chora sifatida ko'radi.

A.V. Volkov mazkur masalaga yanada kengroq yondashib, huquqni suiiste'mol qilishni huquqbuzarlik (delikt) sifatida baholaydi. Uning fikricha, "bunday holatlarda zarar-ni qoplash fuqarolik-huquqiy sanksiya sifatida qo'llanilishi lozim. Shu bilan birga, u "zarar", "xarajatlar", "yo'qotishlar", "shikastlanish" kabi tushunchalarni o'zaro yaqin mazmundagi kategoriyalar sifatida ko'rib, ularning barchasi huquqbuzarlik natijasida yuzaga kelgan salbiy oqibatlarni ifodalashini ta'kidlaydi⁶. A.Yu. Volkovning qarashlari zarar qoplashni huquqni suiiste'mol qilishning to'g'ridan-to'g'ri sanksiyasi sifatida talqin qiladi, bu esa delikt javobgarligining keng talqiniga asoslanadi.

Shu tariqa, fuqarolik huquqida huquqni suiiste'mol qilishdan kelib chiqadigan oqibatlarining doktrinal talqini yagona yondashuv bilan cheklanmaydi. I.V. Sazanova zarar-ni qoplashni umumiy javobgarlik shartlari bilan bog'lasa, A.Yu. Ivanov uni mazkur institutdan ajratish zarurligini asoslaydi, A.V. Volkov esa aksincha, uni to'g'ridan-to'g'ri sanksiya sifatida baholaydi. Bu esa huquqni suiiste'mol qilish institutining murakkab va ko'p qirrali huquqiy tabiatga ega ekanligini ko'rsatadi.

S.F. Inoyatova zarar-ni qoplash masalasida mutlaq "to'liq qoplash" tamoyilidan ko'ra "oqilona qoplash" tamoyilini ilgari suradi. Uning fikricha, "fuqarolik-huquqiy ta'sir choralari muomala ishtirokchilarining insofli xulq-atvorini rag'batlantirishi lozim. Shu bois, zarar-ni qoplash jazo emas, balki huquqiy barqarorlikni tiklashga qaratilgan mos mexanizm sifatida qo'llanilishi kerak. S.F. Inoyatova bu tamoyilni huquqni suiiste'mol qilish holatlaridagi zarar-ni qoplashning tiklovchi tabiati bilan bog'laydi, ya'ni u jazo chorasi emas, balki huquqiy tartibning muvozanatini qayta tiklashga xizmat qiladi⁷. Bu yondashuv A.V. Volkovning sanksiyaga oid fikridan farqli o'laroq, A.Yu. Ivanovning himoyadan bosh tortishni ustun qo'yishi va I.V. Sazanovanning umumiy shartlarga tayanishi bilan o'zaro bog'liq keladi, chunki u zarar qoplashni individual holatlarga moslashtirishni taklif etadi.

Fuqarolik huquqida huquqni suiiste'mol qilishning oqibatlari sifatida odatda uchta yo'nalish ko'rsatiladi: huquqiy himoyadan mahrum qilish,

⁵ Иванов А.Ю. Возмещение вреда, причинённого в ходе конкуренции: вопросы частного права // Вестник Высшего Арбитражного Суда РФ. 2006. № 2. С. 158-160.

⁶ Волков А.В. Возмещение убытков в качестве санкции за злоупотребление правом // Гражданское право. 2015. № 3. С. 3-5.

⁷ Inoyatova S.F. Fuqarolik huquqlarini himoya qilishni rivojlantirish paradigmasi: Avtoreferat. – Toshkent, 2025. – B.14. Elektron manba: <https://justy.uz/books/fuqarolik-huquqlarini-himoya-qilishni-rivojlantirish-paradigmasi> (murojaat qilingan sana: 2026 yil 3 mart).

zararni qoplash va huquqiy holatni tiklash. Mazkur institut sivilistik doktrinada huquqiy muvozanatni ta'minlash mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Biroq ushbu oqibatlarining huquqiy tabiati va o'zaro nisbati masalasida yagona nazariy yondashuv shakllanmagan. Ilmiy adabiyotlarda I.V. Sazanova, A.Yu. Ivanov, A.V. Volkov va S.F. Inoyatova kabi mualliflar turlicha konsepsiyalarni ilgari surgan bo'lsalarda, mazkur masala hali ham ilmiy polemika predmeti bo'lib qolmoqda.

Avvalo, zararni qoplashni faqat umumiy delikt normalari doirasida tushuntirishga qaratilgan yondashuv muayyan cheklovlariga ega. Bu qarashga ko'ra, kompensatsiya faqat klassik delikt tarkibi, ya'ni zarar, sababiy bog'lanish va ayb mavjud bo'lgan hollarda qo'llanilishi mumkin. Biroq bunday talqin huquqni suiiste'mol qilish institutining o'ziga xos xususiyatini etarlicha hisobga olmaydi. Chunki mazkur holatlarda harakat formal jihatdan qonuniy bo'lishi mumkin, biroq uning natijasida boshqa shaxsning manfaatlariga zarar etkaziladi. Agar kompensatsiya faqat delikt tarkibi bilan cheklansa, huquqni suiiste'mol qilishning moddiy-huquqiy oqibatlari to'liq namoyon bo'lmaydi. Shu bois, bunday yondashuv huquqni suiiste'mol qilishdan kelib chiqadigan fuqarolik-huquqiy ta'sir choralari ortiqcha tor doirada talqin qilishga olib keladi.

Shu bilan birga, huquqni suiiste'mol qilishning asosiy oqibati sifatida faqat huquqiy himoyadan bosh tortishni ko'zda tutuvchi pozitsiyaga qo'shilib bo'lmaydi. Albatta, mazkur chora huquqning ichki chegaralarini ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq u har doim ham buzilgan manfaatlarini to'liq tiklash imkonini bermaydi. Agar huquqdan insofsiz foydalanish natijasida boshqa shaxsga moddiy zarar etkazilsa, faqat himoyadan mahrum qilish chorasini bilan cheklanish adolatni ta'minlashga etarli bo'lmasligi mumkin. Bunday holatlarda fuqarolik huquqining tiklovchi va kompensatsiyaviy funksiyalari amalga oshmay qoladi.

Boshqa bir yondashuv esa huquqni suiiste'mol qilishni deliktga yaqin hodisa sifatida baholab, zararni qoplashni mazkur institutning asosiy sanksiyasi sifatida ko'radi. Biroq bu pozitsiyani ham mutlaqlashtirish maqsadga muvofiq emas. Chunki huquqni suiiste'mol qilish har doim ham to'liq ma'nodagi huquqbuzarlik sifatida namoyon bo'lavermaydi. Agar uni barcha holatlarda delikt sifatida baholasak, mazkur institutning o'ziga xos

xususiyati subyektiv huquq doirasidagi insofsiz xulq-atvorni baholash e'tibordan chetda qolishi mumkin. Shu sababli zararni qoplashni faqat sanksiya sifatida talqin qilish mazkur institutning tiklovchi tabiatini cheklab qo'yadi.

Ayrim mualliflar tomonidan ilgari surilgan proporsional kompensatsiya g'oyasi esa nazariy jihatdan mutanosib yondashuv hisoblanadi. Biroq mazkur konsepsiya ham muayyan masalalardan xoli emas. Chunki "oqilonalik" va "mutanosiblik" kabi baholovchi kategoriyalar amaliyotda turlicha talqin qilinishi mumkin. Masalan, bir shaxs o'z mulkidan foydalanish huquqiga tayanib, qo'shni uchastkaga tutash hududda baland devor yoki inshoot qurishi mumkin. U formal jihatdan o'z mulk huquqini amalga oshirayotgan bo'ladi, biroq agar mazkur inshoot qo'shnining uyiga tabiiy yorug'lik tushishini to'ssa yoki uning uchastkasidan normal foydalanish imkoniyatini cheklasa, bunday harakatning "oqilona" yoki "mutanosib" ekanligi masalasi bahsli bo'lib qoladi. Ayrim hollarda bunday harakat mulkdorning qonuniy huquqidan foydalanishi sifatida baholanishi mumkin bo'lsa, boshqa hollarda esa u qo'shnining huquq va manfaatlariga zarar etkazuvchi huquqni suiiste'mol qilish sifatida talqin qilinishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, huquqni suiiste'mol qilishdan kelib chiqadigan fuqarolik-huquqiy oqibatlarni yagona universal model bilan tushuntirish mumkin emas. Aksincha, mazkur institutning huquqiy oqibatlari kompleks xarakterga ega. Ular bir vaqtning o'zida preventiv, tiklovchi va kompensatsiyaviy funksiyalarni qamrab oladi. Demak, huquqni suiiste'mol qilish holatlarida zararni qoplash na mutlaq sanksiya, na ikkinchi darajali chora sifatida qaralishi kerak. U mazkur institutdan kelib chiqadigan fuqarolik-huquqiy ta'sir choralari muhim elementlaridan biri hisoblanadi.

Bizningcha, mazkur masalaning eng maqbul yechimi huquqni suiiste'mol qilishni "huquq chegarasi" doktrinasi doirasida talqin qilish bilan bog'liq. Bu yondashuvga ko'ra, huquqni suiiste'mol qilishdan kelib chiqadigan fuqarolik-huquqiy oqibatlar tiklovchi tabiatga ega bo'lishi lozim. Zararni qoplash esa mazkur tizimda asosiy kompensatsiyaviy mexanizm sifatida qo'llanilishi mumkin, ammo u har bir ishning faktik holatlari, kelib chiqqan zararining xususiyati va suiiste'molning ijtimoiy oqibatlarini hisobga olgan holda sud diskresiyasi orqali individuallashtirilishi lozim.

Xulosa. Nazarimizcha, zararni qoplash doktrinasi huquqni suiiste'mol qilishdan kelib chiqadigan fuqarolik-huquqiy oqibatlarini tushuntirishda ierarxik va kompleks model asosida talqin qilinishi lozim. Bunda, avvalo, sud tomonidan huquqiy himoyadan bosh tortish chorasi qo'llanilib, subyektiv huquqning insofsiz amalga oshirilishi cheklanadi va huquqning ichki chegaralari ta'minlanadi;

ikkinchidan, agar bunday suiiste'mol natijasida boshqa shaxsning huquq va qonuniy manfaatlariga zarar etkazilgan bo'lsa, Fuqarolik kodeksining umumiy qoidalariga asoslangan holda zararni qoplash mexanizmi ishga tushirilishi mumkin;

uchinchidan esa, zarur hollarda huquqiy ho-

latni tiklashga qaratilgan qo'shimcha ta'sir choralari uquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug'diradigan harakatlarning oldini olish yoki taqiqlash kabi mexanizmlar qo'llanilishi mumkin. Shu tariqa, zararni qoplash mazkur institutda mustaqil jazo chorasi sifatida emas, balki huquqni suiiste'mol qilish natijasida buzilgan huquqiy tartib va manfaatlar muvozanatini tiklashga xizmat qiluvchi asosiy kompensatsiyaviy element sifatida namoyon bo'ladi hamda u har bir ishning faktik holatlari, kelib chiqqan zararining xususiyati va suiiste'molning ijtimoiy oqibatlarini hisobga olgan holda sud tomonidan alohida tarzda qo'llanilishi lozim.



O'zbekiston Respublikasi prokuratura va tergov institutlarining tarixiy-huquqiy taraqqiyoti

(milliy va jahon tajribasining qiyosiy tahlili asosida)

TURSUNBOYEV Sardor Murodjon o'g'li.

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsia: mazkur maqolada prokuratura va tergov institutlarining tarixiy-huquqiy taraqqiyoti jahon va milliy tajriba misolida tarixiy-qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda Pyotr I davrida shakllangan rus prokuraturasi modeli, Temuriylar davlatida mavjud bo'lgan nazorat-sudlov institutlari, Turkiston general-gubernatorligi davrida joriy etilgan sud-prokuratura tizimi, sovet davrida tergov va prokuror nazorati funksiyalarining birlashtirilishi, mustaqillik yillaridagi institutsional islohotlar hamda so'nggi yillarda tergovning tashkiliy jihatdan prokuraturadan ajratilishi va raqamlashtirilishi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: prokuratura instituti, tergov, tergovga qadar tekshiruv, qonuniylik ustidan nazorat, sovet prokuraturasi, mustaqillik davri islohotlari, protsessual rahbarlik, raqamli tergov tizimi.

Аннотация. В данной статье историко-правовое развитие институтов прокуратуры и следствия исследуется посредством историко-сравнительного анализа на примере мировой и национальной практики. В исследовании освещены российская модель прокуратуры, сформировавшаяся при Петре I, надзорно-судебные институты, существовавшие в государстве Тимуридов, судебно-прокурорская система, введенная в период Туркестанского генерал-губернаторства, объединение функций следствия и прокурорского надзора в советский период, институциональные реформы периода независимости, а также организационное отделение следствия от прокуратуры и его цифровизация в последние годы.

Ключевые слова: институт прокуратуры, следствие, доследственная проверка, надзор за законностью, советская прокуратура, реформы периода независимости, процессуальное руководство, цифровизация следственной деятельности.

Huquqiy davlat qurilishining muhim sharti bo'lgan qonuniylikni ta'minlash tizimida prokuratura va tergov instituti markaziy o'rinlardan birini egalaydi. Zamonaviy huquqshunoslikda prokuratura na-faqat jinoiy ta'qibni amalga oshiruvchi, balki qonun-larning bir xilda va aniq bajarilishi ustidan umumiy nazoratni yurituvchi, shuningdek tergov faoliyatiga protsessual rahbarlik qiluvchi institut sifatida qara-ladi¹.

Ushbu institutning bugungi tashkiliy-huquqiy qiyofasi bir zumda shakllanmagan, balki ko'p asr-lik tarixiy-huquqiy taraqqiyot jarayonida, turli dav-

latchilik bosqichlarida — qadimgi markazlashgan davlat boshqaruvi tizimlaridan tortib, mustamlakachilik davri islohotlari, sovet davridagi markaz-lashgan model va, nihoyat, mustaqillik yillaridagi in-stitutsional va raqamli islohotlargacha bo'lgan yo'lni bosib o'tgan.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, so'nggi yillarda O'zbekistonda tergov institutining tashkiliy jihatdan prokuraturadan ajratilishi, prokurorning tergovga protsessual rahbarlik funksiyasining takomillashti-rilishi hamda sud-tergov faoliyatining raqamlashti-rilishi amalga oshirilmoqda. Bunday islohotlarning

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 144-moddasi; "Prokuratura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (1992-yil 9-dekabrda 746-XII-son, 2001 yil 29 avgustdagi 257-II-son tahriri), 1-modda. Manba: <https://lex.uz/acts/106197>

ilmiy asoslangan yo'nalishlarini belgilash uchun institutning tarixiy ildizlarini chuqur o'rganish zarurati tug'iladi.

Maqolada tarixiy-qiyosiy va formal-huquqiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan holda prokuratura-tergov institutining jahon huquqiy tafakkurida paydo bo'lishi, Turkiston va O'zbekiston hududidagi rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy tendensiyalari izchil tarzda tahlil qilinadi.

Tarixan prokurorlik lavozimlarining dastlabki ko'rinishlari G'arbiy Yevropa mamlakatlarida o'rta asrlardayoq qiro'l manfaatlarini sud jarayonida himoya qiluvchi mansabdorlar sifatida uchraydi. Biroq Markaziy Osiyo va jumladan Turkiston mintaqasi huquqiy tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatgan model rus imperiyasi prokuraturasi bo'lib, u Pyotr I islohotlari davrida shakllangan.

1722-yil 12-yanvarda Pyotr I ning Hukmron Senatga yo'llagan farmoni bilan Rossiyada prokuratura institutini ta'sis etdi. Farmonga ko'ra, Senat huzurida general-prokuror va ober-prokuror, har bir kollegiyada esa alohida prokuror lavozimi joriy etilib, ular general-prokurorga hisobot berishlari belgilandi².

1722-yil 27-aprelda qabul qilingan "General-prokuror lavozimi to'g'risida"gi Farmon prokurorning vazifa va vakolatlarini batafsil belgilab berdi — unda prokuror davlat ishlarining qonuniyligini kuzatuvchi mansabdor shaxs sifatida ta'riflangan³.

1722-yil 18-yanvarda Pyotr I birinchi general-prokuror etib Pavel Yagujinskiyni tayinlar ekan, uni "davlat nazorati yurituvchi ko'z" sifatida tavsiflagan edi. Mazkur tamoyil — prokuraturaning davlat va jamiyat manfaatlarini qonuniylik nuqtai nazaridan kuzatib boruvchi institut sifatidagi mohiyati — keyingi uch asrdan ortiq davr mobaynida turli davlatlarda prokuratura tizimining nazariy asosini tashkil etdi⁴.

Shu tariqa shakllangan rus prokuratura modeli XIX asrda Rossiya imperiyasi hududining kengayishi bilan birga Markaziy Osiyo, shu jumladan Turkiston o'lkasiga ham tarqaldi. Biroq bundan oldin, mintaqaning o'zida ham nazorat-sudlov vazifalarini bajaruvchi mahalliy institutlar mavjud bo'lganini alohida ta'kidlash lozim.

Prokuratura institutining mohiyatini ilmiy jihatdan tushunish uchun uning ikki asosiy nazariy modelini farqlash muhim ahamiyatga ega. Birinchi model — kontinental Yevropa (ayniqsa, frank-german) huquqiy tizimlarida shakllangan "magistratura" modeli bo'lib, unda prokuror sudya bilan bir xil korpusga mansub, ayblov funksiyasini bajaruvchi mansabdor sifatida qaraladi. Ikkinchi model esa — rus imperiyasi va keyinchalik sovet davlatchiligidan shakllangan "oliy nazorat" modeli bo'lib, unda prokuratura ijro hokimiyatidan ham, sud hokimiyatidan ham nisbatan mustaqil, qonuniylik ustidan keng qamrovli nazoratni amalga oshiruvchi alohida davlat organi sifatida tashkil etiladi. O'zbekiston prokuraturasi tarixan va bugungi kunda ham, asosan, ikkinchi modelga — "oliy nazorat" an'anasiga mansub bo'lib, shu bilan birga so'nggi islohotlar doirasida prokurorning tergovdagi rolini tobora aniqroq protsessual shakllarga solish tendentsiyasi kuzatilmoqda.

Bugungi prokuratura va tergov institutlarining ayrim vazifalariga o'xshash funksiyalar Movarounnahr davlatchiligi tarixida, xususan Amir Temur va Temuriylar davlatida ham mavjud bo'lgan. Markazlashgan davlat boshqaruvi tizimida devon, qozilik, muhtasiblik kabi institutlar qonuniylik va odil sudlovni ta'minlashga xizmat qilgan⁵.

Har bir shahar va viloyatda faoliyat yuritgan qozilar arizachilarni qabul qilish, nizolarni hal etish va jinoiy ishlar yuzasidan hukm chiqarish vazifasini bajargan, lashkar va fuqaro ahli uchun alohida qozilar tayinlangan. Shayxulislom musulmonlarni nojo'ya ishlardan saqlash, sadrlar diniy va vaqf ishlarini nazorat qilish bilan shug'ullangan, muhtasib esa bozorlarda savdo odobi, tarozi va narx-navo ustidan nazorat olib borgan — bu vazifa o'zining mohiyatiga ko'ra bugungi iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va iqtisodiy nazorat funksiyalariga yaqin turgan⁶.

Davlat devonining turli bo'g'inlarida faoliyat yuritgan mansabdorlar o'z ishlari yuzasidan bevosita oliy hukmdorga hisobot berish majburiyati orqali markaziy hokimiyat nazoratida bo'lgan, bu esa zamonaviy ma'nodagi vertikal bo'ysunish va hisobdorlik

² Pyotr I ning 1722-yil 12(23)-yanvardagi Hukmron Senatga yo'llagan farmoni. Manba: Prezident kutubxonasi (prlib.ru), <https://www.prlib.ru/history/618969>.

³ 1722-yil 27-apreldagi "General-prokuror lavozimi to'g'risida"gi Farmon. Manba: MDU tarix fakulteti elektron nashri, <https://www.hist.msu.ru/ER/etext/genprok.htm>.

⁴ Pyotr I ning 1722-yil 18-yanvardagi Senatga murojaati (P.I.Yagujinskiyni birinchi general-prokuror etib tayinlashi munosabati bilan). Manba: "Rossiyskaya gazeta", 12.01.2022, <https://rg.ru/2022/01/12/12-ianvaria-1722-goda-ukazom-petra-i-uchrezhdena-rossijskaia-prokuratura.html>

⁵ Amir Temur davlatida qozilik va devon tizimi haqida qarang: "Buyuk bobomiz Amir Temur saltanatida mansabdor shaxslarning huquqiy maqomi", Markaz, <https://uzmarkaz.uz/uzc/news/buyuk-bobomiz-amir-temur-saltanatida-mansabdor-shaxslarning-huquqiy-maqomi>.

⁶ Muxtasib va qozilarning nazorat vazifalari haqida: elib.buxdu.uz, "Amir Temur va temuriylar davrida ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot", <https://www.elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/14644-2021-08-02-07-57-52>.

tamoyilining tarixiy ko'rishlaridan biri sifatida baholanishi mumkin⁷.

Shu bilan birga, ushbu davr institutlarini bugungi prokuratura va tergov tizimi bilan to'liq tenglashtirib bo'lmaydi — ular diniy-shar'iy va ma'muriy vazifalarning uyg'unlashuvi asosida faoliyat yuritgan, ayni paytda sud, ayblov va ijro funksiyalari ko'p hollarda bir mansabdor shaxs qo'lida jamlangan edi. Shunga qaramay, qonuniylik, nazorat va hisobdorlik kabi umumiy tamoyillarning mavjudligi mintaqada davlatchiligida ushbu sohaga doir madaniyatning chuqur tarixiy ildizlarga ega ekanini ko'rsatadi.

1867-yilda Rossiya imperiyasi tarkibida Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilishi bilan mintaqada yangi ma'muriy-huquqiy tartib o'rnatila boshlandi. General-gubernatorlik o'ziga xos maqomga ega bo'lib, uning ma'muriyati Ichki ishlar vazirligiga emas, balki Harbiy vazirlikka bo'ysungan, bu esa mintaqadagi sud-huquq tizimining markaziy Rossiyadagidan farqli tartibda rivojlanishiga olib keldi⁸.

1886-yilda qabul qilingan "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi Nizom mintaqada sud tizimida ikki bosqichli — umumimperiya miqyosidagi sudlar va mahalliy (qozi) sudlari birga mavjud bo'lgan dualistik modelni joriy etdi. Mustamlaka hokimiyatiga, diniy masalalarga yoki davlat tartibiga qarshi sodir etilgan jinoyatlar imperiya sudlari, chunonchi okrug sudlari va ularda faoliyat yurituvchi prokurorlar nazoratiga o'tkazilgan bo'lsa, aholi o'rtasidagi maishiy va ko'pgina fuqarolik nizolari an'anaviy qozi sudlari ixtiyorida qoldirildi⁹.

1886-yilgi Nizom asosida mintaqada mirovoy sudya lavozimi joriy etilib, uning vakolatlari 1898-yilgi sud islohoti bilan yakuniy tartibga solindi. Prokuror nazorati aslida mana shu umumimperiya sud tizimi doirasida — okrug sudlari huzurida faoliyat yurituvchi prokurorlar orqali amalga oshirilgan, biroq bu tizim mahalliy aholining katta qismini qamrab olmagan, chunki qozi sudlari doirasidagi ishlar prokuror nazoratidan tashqarida qolgan¹⁰.

Shu tariqa, Turkiston general-gubernatorligi davrida mintaqaga rus imperiyasi prokuratura modeli dastlab qisman, aynan mustamlaka ma'muriyati

manfaatlarini himoya qilish vazifasida olib kildi. Bu tajriba, bir tomondan, mintaqada zamonaviy ma'nodagi prokurorlik-nazorat tushunchasining shakllanishiga asos solgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, tizimning tom ma'noda umumxalq manfaatlarini ko'zlagan institutga aylanishi uchun yanada uzoq davr va tubdan boshqa siyosiy-huquqiy sharoit talab qilindi¹¹.

Shuningdek, ushbu davr tajribasining yana bir muhim jihati — mahalliy (qozi) sudlari doirasida saqlanib qolgan an'anaviy tergov-surishtiruv amaliyotining imperiya prokurorlari nazoratidan chetda qolgani bo'lib, bu hol ikki xil huquqiy madaniyatning — mahalliy shar'iy-odatiy va import qilingan imperiya-pozitiv huquqining — uzoq davr mobaynida parallel mavjud bo'lishiga olib keldi. Keyinchalik, sovet davridagi huquqiy islohotlar aynan ushbu dualizmni tugatish va yagona, markazlashgan sud-tergov-prokuratura tizimini barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

1917-yil inqilobidan so'ng eski sud-prokuratura tizimi bekor qilindi, qonuniylik ustidan nazorat vazifasi turli revkom va favqulodda organlar o'rtasida tarqoq holda amalga oshirildi. Biroq inqilobdan keyingi dastlabki yillardagi institutsional bo'shliq va nazorat tizimidagi tarqoqlik yangi markazlashgan nazorat organiga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi.

1922-yil 28-mayda Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (VTsIK) tomonidan "Prokuror nazorati to'g'risida"gi Nizom tasdiqlanib, RSFSR Davlat prokuraturasi tashkil etildi. Mazkur sana rasmiy ravishda sovet prokuraturasi tizimining tashkil topgan kuni sifatida e'tirof etiladi va u prokuror nazoratining yagona markazlashgan, vertikal bo'ysunuvchi tizim sifatidagi zamonaviy modeliga asos soldi¹².

Keyingi yillarda bu model ittifoqdosh respublikalarga, shu jumladan O'rta Osiyo mintaqasiga ham tatbiq etila boshlandi. O'zbekiston SSR doirasida prokuratura va tergov organlari faoliyatini yanada markazlashtirish maqsadida 1928-yil 1-dekabrda qabul qilingan "Sud organlarini tashkillashtirish to'g'risidagi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarorga asosan tergov va

⁷ Muxtasib va qozilarning nazorat vazifalari haqida: elib.buxdu.uz, "Amir Temur va temuriylar davrida ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot", <https://www.elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/14644-2021-08-02-07-57-52>.

⁸ Turkiston general-gubernatorligining 1867-yilda tashkil topishi va uning ma'muriy-hududiy tizimi to'g'risida: ResearchGate, "XIX asrning 60-yillari ikkinchi yarmida Turkiston general-gubernatorligining tashqi siyosatdagi faoliyati tarixidan", <https://www.researchgate.net/publication/367106170>.

⁹ 1886-yilgi "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi Nizom va unga asosan joriy etilgan sud islohoti, shariat (qozi) sudlarining saqlanib qolgani to'g'risida: ResearchGate, "Sudebno-pravovaya reforma v Turkestane: shariatskiye sudi (sud kozi)", <https://www.researchgate.net/publication/355152979>.

¹⁰ 1886-yilgi Nizom asosida mirovoy sudya institutining joriy etilishi va uning 1898-yilgi islohot bilan yakunlanishi to'g'risida: "Izvestiya Altayskogo gosudarstvennogo universiteta", 2018, № 2(100), 15–22-betlar, <https://doi.org/article/4a33c096fc2c4d3f9768ec8298069b45>.

¹¹ Turkiston general-gubernatorligi ma'muriyatining Ichki ishlar vazirligiga emas, Harbiy vazirlikka bo'ysunishi xususiyati to'g'risida: Kirgizstan in sistema gosudarstvennogo ustroystva, <https://vestnik.krsu.kg/article/download/5676>.

¹² VTsIK ning 1922-yil 28-maydagi "Prokuror nazorati to'g'risida"gi Nizomi — RSFSR Davlat prokuraturasi tashkil topgan sana. Manba: crimescience.ru, <https://crimescience.ru/news/28-maya-1922-goda-den-obrazovaniya-prokuratury-sssr.html>.

surishtiruv organlarining rahbariyati birlashtirildi hamda O'zbekiston SSR Prokurori boshchiligidagi Davlat prokuraturasi tashkil etildi. Ushbu qarorning alohida moddasida tergov organlariga nisbatan umumiy nazoratni amalga oshirish vazifasi mustahkamlangan edi¹³.

Sovet prokuratura tizimining yanada markazlashuvi 1933-yil 20-iyunda SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Xalq Komissarlari Kengashining qarori bilan SSSR Prokuraturasining tashkil etilishi orqali amalga oshirildi — bundan buyon ittifoqdosh respublikalar prokuraturalari, shu jumladan O'zbekiston SSR prokuraturasi ham, bevosita SSSR Prokuroriga bo'ysunadigan yagona vertikal tizimga birlashtirildi. 1936-yil 20-iyulda esa RSFSR Prokuraturasi qayta tashkil etilib, prokuratura organlarining ikkinchi darajali — umumittifoq va respublika bosqichlaridagi — tuzilmasi yakuniy shaklini oldi¹⁴.

Ilmiy-tanqidiy nuqtai nazardan shuni ham e'tirof etish lozimki, 1930-yillarning ikkinchi yarmi va 1940-yillarda prokuratura va ichki ishlar organlarining vakolatlari ayrim hollarda sud nazoratidan tashqari, tezkor va ommaviy tartibda amalga oshiriladigan noqonuniy jazo choralari uchun asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu tarixiy tajriba, teskari ma'noda, nazorat, tergov va ayblov funksiyalarining bir qo'lda mutlaq markazlashuvi inson huquqlari uchun qanchalik xatarli bo'lishi mumkinligini ko'rsatuvchi muhim saboq sifatida baholanishi, va bu holat keyinchalik funktsiyalar muvozanatini ta'minlashga qaratilgan islohotlar zarurati uchun tarixiy asos bo'lganini ta'kidlash o'rinlidir.

1950–1980-yillarda sovet prokuraturasi faoliyatida nisbiy barqarorlashuv kuzatildi — prokuror nazorati protsessual jihatdan aniqroq tartibga solindi, tergov, ayniqsa og'ir jinoyatlar bo'yicha dastlabki tergov, prokuratura tizimi doirasidagi maxsus tergov bo'linmalari tomonidan olib borildi. Shu bilan birga, partiya-davlat boshqaruvi tizimidagi umumiy markazlashganlik prokuraturaning chinakam mustaqil, faqat qonunga bo'ysunuvchi institut sifatida shakllanishiga to'stinlik qilishda davom etdi — bu holat

mustaqillik davrida hal etilishi lozim bo'lgan asosiy institutsional muammolardan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, sovet davrida shakllangan prokuratura modelini yangi konstitutsiyaviy tartibga moslashtirish zarurati yuzaga keldi. 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida"gi Qonun prokuratura organlarining faoliyatini birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralik tamoyillari asosida tashkil etishni belgilab berdi hamda prokurorning tergovga qadar tekshiruv va tergov yuritish borasida bergan ko'rsatmalarining barcha tegishli organlar uchun majburiyligini mustahkamladi¹⁵.

2001-yil 29-avgustda qabul qilingan Qonun bilan "Prokuratura to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda tasdiqlandi. Unda O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi Bosh prokuror rahbarlik qiladigan yagona markazlashgan tizim sifatida ta'riflanib, quyi turuvchi prokurorlarning yuqori turuvchi prokurorlarga va Bosh prokurorga bo'ysunishi hamda hisobdorligi tamoyili yanada aniq ifodalandi¹⁶.

Ushbu davrda prokuratura o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov yurituvchi organlar ustidan qonuniylikni ta'minlash nazoratini hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirishni davom ettirdi. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tish, tadbirkorlik erkinligini kengaytirish kabi omillar prokuraturaning "umumiy nazorat" funktsiyasini bosqichma-bosqich qisqartirish va uni asosan qonuniylik va inson huquqlarini himoya qilish yo'nalishiga yo'naltirish zaruratini kun tartibiga qo'ydi¹⁷.

2000-yillar va 2010-yillarning boshlarida amalga oshirilgan qator tashkiliy islohotlar doirasida prokuraturaning tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatiga aralashuvi sezilarli darajada cheklandi, tekshiruvlarni o'tkazish tartibi qat'iy reglamentga solindi hamda prokuratura organlarining faoliyatini baholashda jinoyatchilikka qarshi kurashish va inson huquqlarini himoya qilish ko'rsatkichlariga ustuvor

¹³ 1928-yil 1-dekabrda "Sud organlarini tashkillashtirish to'g'risidagi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarorga asosan tergov va surishtiruv organlari rahbariyatini birlashtirish hamda O'zbekiston SSR Prokurori boshchiligidagi Davlat prokuraturasining tashkil etilishi to'g'risida: Toshkent davlat yuridik instituti elektron nashri, <https://api.ziyouet.uz/uploads/books/26622/5b35d199285ce.pdf>.

¹⁴ SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Xalq Komissarlari Kengashining 1933 yil 20 iyundagi qaroriga asosan SSSR Prokuraturasi tashkil etilib, u ittifoqdosh respublikalar prokuraturalarini o'ziga bo'ysundiruvchi yagona markaz sifatida shakllandi; 1936 yil 20 iyulda esa RSFSR Prokuraturasi qayta tashkil etildi. Manba: Vikipediya (rus.), "Generalnaya prokuratura SSSR", https://ru.wikipedia.org/wiki/Generalnaya_prokuratura_SSSR; "Prokuratura RSFSR. 1936–1991", <https://guides.rusarchives.ru/funds/prokuratura-rsfsr-1936-1991>.

¹⁵ Prokuratura organlarining birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralik tamoyillari asosida faoliyat yuritishi to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda 746-XII-son "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri), 3-modda, <https://nrm.uz>

¹⁶ 2001-yil 29-avgustda 257-II-son Qonun bilan tasdiqlangan "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri, 1-modda: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001 yil, № 9–10, 18-modda, <https://oldparliament.gov.uz/uz/laws/adopted/98/3540/>

¹⁷ Prokuratura organlarining tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov yurituvchi organlar ustidan nazorat hamda muvofiqlashtirish funktsiyasi to'g'risida (4-modda, 2019 yil 23 maydagi O'RB-542-son Qonun tahriri): <https://www.lex.uz/acts/106197>.

ahamiyat berila boshlandi. Mazkur jarayon prokuraturaning sovet davridan meros bo'lib qolgan "barcha sohalarini nazorat qiluvchi" institutdan "ixtisoslashgan, jinoiy-protsessual vazifalarga yo'naltirilgan" institutga aylanish yo'lidagi dastlabki, lekin muhim qadam bo'ldi.

So'nggi yillardagi islohotlarning o'ziga xos jihati shundan iboratki, tergov funktsiyasi tashkiliy jihatdan prokuratura tizimidan asta-sekin ajratilib, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Soliq, bojxona organlari tizimidagi ixtisoslashgan tergov bo'linmalariga yuklandi. Prokuratura esa o'z navbatida tergovga nisbatan protsessual rahbarlik va qonuniylik ustidan nazoratni amalga oshiruvchi institut sifatidagi vazifasini saqlab qoldi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, Bosh prokuror va unga bo'ysunuvchi prokurorlar jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini ta'minlash maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatni, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi — bu norma prokuraturaning tergov jarayonidagi rolini "bevosita boshqaruvchi"dan "protsessual nazoratchi va muvofiqlashtiruvchi"ga aylantirgan institutsional o'zgarishni aks ettiradi¹⁸.

Tergovning raqamlashtirilishi borasida muhim qadam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Ishni sudga qadar yuritishda yagona idoralararo elektron hamkorlik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-105-son Qarorini ko'rsatish mumkin. Ushbu qaror asosida surishtiruv, tergov va prokuratura organlari faoliyati yagona elektron tizimga o'tkazilib, jinoyat ishlari bo'yicha hujjat aylanmasi, muddatlarga rioya etish va protsessual qarorlar ustidan nazorat elektron shaklda amalga oshirila boshlandi¹⁹.

Prokuratura tergov institutining tarixiy taraqqiyotini baholashda uning xalqaro huquqiy standartlarga mosligi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlarga nisbatan munosabat bo'yicha sakkizinchi kongressida (Gavana, 1990-yil)

qabul qilingan "Prokurorlar roli to'g'risida"gi Yo'riqnoma (Gavana yo'riqnomalari) eng muhim hujjatlardan biri hisoblanadi. Unda prokurorlarning kasbiy mustaqilligi, xolisligi, inson huquqlarini himoya qilish borasidagi vazifalari hamda tergovga nisbatan nazorat funktsiyasini qonun doirasida, shaxs huquq va erkinliklarini cheklashga yo'l qo'ymagan holda amalga oshirishi belgilab berilgan²⁰.

Ushbu standartlar nuqtai nazaridan qaraganda, O'zbekiston prokuratura-tergov tizimining tarixiy evolyutsiyasi — sovet davrining markazlashgan "umumiy nazorat" modelidan prokurorning faqat jinoiy-protsessual sohadagi aniq belgilangan vakolatlariga asoslangan nazorat modeliga o'tish yo'nalishida borayotgani — xalqaro tendentsiyalar bilan umumiy uyg'unlikka ega. Xususan, tergovning tashkiliy jihatdan ixtisoslashgan organlarga topshirilishi va prokurorning asosan protsessual nazoratchi sifatidagi roli kuchaytirilishi ko'pgina rivojlangan huquqiy tizimlarda ham kuzatiladigan umumiy tendentsiyadir.

Shu bilan birga, milliy tajriba o'ziga xos jihatlarni ham saqlab qolmoqda — jumladan, prokuraturaning yagona markazlashgan, vertikal bo'ysunishga asoslangan tuzilishi, shuningdek prokurorning jinoyatchilikka qarshi kurashni muvofiqlashtiruvchi organ sifatidagi roli. Ushbu xususiyatlar, bir tomondan, tizimning barqarorligi va samarali boshqarilishini ta'minlasi, ikkinchi tomondan, prokuror mustaqilligi va hisobdorlik mexanizmlarini yanada takomillashtirishni talab qiladi — bu esa xalqaro ekspertlar tomonidan ko'p hollarda tavsiya etiladigan yo'nalishdir.

Tergov institutining prokuraturadan tashkiliy jihatdan ajratilishi va bir nechta idora (Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Soliq va bojxona organlari) tizimida parchalanib joylashishi, amaliyotda prokuror nazoratining barcha tergov bo'linmalari ustidan bir xilda samarali amalga oshirilishi borasida qator metodologik masalalarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, turli idoralar tergov bo'linmalarining protsessual faoliyatini yagona standartlarga moslashtirish, tergov sifati mezonlarini birxillashtirish hamda prokuror ko'rsatmalarining

¹⁸ Ichki ishlar vazirligi tizimida islohotlar va raqamli infratuzilmaning joriy etilishi to'g'risida: IIV Malaka oshirish instituti o'quv majmuasi, <https://ipkmvd.uz/media/pdf/kitoblar/JIEX.pdf>.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi, 2020 yil, № 2 (45), tergov va surishtiruv harakatlari tartibi va taktikasiga oid tadqiqotlar to'plami, <https://sudacademy.uz/uploads/magazines/a0246dfb55f878976aa0c2f97cc48d93.pdf>.

²⁰ BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlarga nisbatan munosabat bo'yicha sakkizinchi kongressida (Gavana, Kuba, 1990-yil 27-avgust – 7-sentabr) qabul qilingan "Prokurorlar roli to'g'risida"gi Yo'riqnoma (Gavana yo'riqnomalari) prokurorlarning mustaqilligi, xolisligi va inson huquqlarini himoya qilish borasidagi vazifalarini belgilab bergan. Manba: OHCHR, <https://www.ohchr.org/en/resources/educators/human-rights-education-training/13-guidelines-role-prosecutors-1990>.

ijro etilishi ustidan amaliy nazoratni kuchaytirish dolzarb vazifalar sifatida qolmoqda²¹.

Ikkinchi muhim yo'nalish — sudgacha bo'lgan bosqichda shaxs huquqlarining kafolatlanishi masalasidir. Ushlab turilganlik muddatlariga rioya etilishi, himoya huquqining ta'minlanishi, tergovda majburlash usullarining qo'llanilishiga yo'l qo'ymaslik kabi masalalar prokuror nazoratining markaziy yo'nalishlaridan biriga aylanishi lozim. Jinoyat-protsessual qonunchiligida prokurorning tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov yurituvchi organlar uchun majburiy ko'rsatmalar berish vakolati aynan shu maqsadga — qonuniylik va inson huquqlarini himoya qilishga — xizmat qilishi kerak²².

Uchinchi yo'nalish — raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish bilan bog'liq. Yagona idoralararo elektron hamkorlik tizimi joriy etilgan bo'lsa-da, uning barcha tergov va surishtiruv organlari, sudlar hamda advokatura bilan to'laonli integratsiyalashuvi, elektron dalillar bilan ishlash tartibining takomillashtirilishi, sun'iy intellekt asosidagi tahliliy vositalardan tergov sifatini oshirish va ish yuritish muddatlarini qisqartirishda foydalanish imkoniyatlari kelgusi islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi mumkin.

To'rtinchi yo'nalish — kadrlar tayyorlash va ilmiy-uslubiy ta'minot masalasidir. Prokuror va tergov xodimlarining xalqaro standartlar, raqamli texnologiyalar hamda inson huquqlari sohasidagi bilimlarini muntazam oshirib borish, shuningdek prokuratura-tergov institutining tarixiy-nazariy asoslarini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish zarur — bu esa amaldagi islohotlarning ilmiy jihatdan asoslangan tarzda davom ettirilishiga xizmat qiladi.

O'tkazilgan tarixiy-huquqiy tahlil shuni ko'rsatadiki, prokuratura va tergov instituti bir marotabalik qaror natijasida emas, balki uzoq davom etgan evolyutsion jarayon natijasida shakllangan. Temuriylar davridagi qozilik-devon tizimidan boshlab, Turkiston general-gubernatorligi davrida joriy etilgan dualistik sud-prokuratura modeligacha, sovet davridagi qat'iy markazlashgan "umumiy nazorat" tizimidan to mustaqillik yillaridagi institutsional islohotlar va

so'nggi yillardagi tergov funktsiyasining tashkiliy jihatdan ajratilishi hamda raqamlashtirilishigacha — har bir bosqich o'zining tarixiy-siyosiy sharoiti bilan belgilangan.

Tarixiy tajribashuniko'rsatadiki, prokuratura-tergov institutining samaradorligi, avvalambor, uning qonuniylik va inson huquqlarini himoya qilish funktsiyalarining mutanosib uyg'unligiga, shuningdek nazorat va ijro vazifalarining institutsional jihatdan oydin ajratilishiga bog'liq. Sovet davrida kuzatilgan funktsiyalar yig'indisi (tergov, nazorat va ayblov bir tizimda) tergov mustaqilligini cheklagan va, tarixiy tajriba ko'rsatganidek, ayrim davrlarda inson huquqlarining ommaviy ravishda buzilishiga ham zamin yaratgan bo'lsa, so'nggi yillardagi islohotlar aynan shu muammoni bartaraf etishga qaratilgan.

Shu nuqtai nazardan, tergov institutining prokuraturadan tashkiliy jihatdan ajratilishi, prokuror nazoratining protsessual-huquqiy shaklda mustahkamlanishi, sud-tergov faoliyatining raqamli platformalar orqali shaffolashtirilishi hamda BMTning Gavana yo'riqnomalari kabi xalqaro standartlarga izchil moslashtirilishi — tarixiy taraqqiyotning mantiqiy davomi va zamonaviy huquqiy davlat qurish yo'lidagi muhim bosqich sifatida baholanishi lozim.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, kelgusida ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlarni quyidagi yo'nalishlarda davom ettirish maqsadga muvofiq: birinchidan, prokuror nazoratining samaradorlik mezonlarini ilmiy asosda ishlab chiqish; ikkinchidan, turli idoralar tizimidagi tergov bo'linmalarining protsessual mustaqilligi va mas'uliyatini mutanosib holda kengaytirish; uchinchidan, tergov va prokuratura faoliyatining raqamli transformatsiyasini inson huquqlarini himoya qilish kafolatlari bilan uyg'unlikda chuqurlashtirish; to'rtinchidan, milliy tajribani xalqaro-huquqiy standartlar bilan uzluksiz qiyosiy tahlil qilib borish. Mazkur yo'nalishlar prokuratura-tergov institutining navbatdagi taraqqiyot bosqichida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati manfaatlariga to'liq xizmat qiluvchi, zamonaviy va samarali tizimga aylanishiga xizmat qiladi.

²¹ Prokuror va tergov organi xodimlarining mutaxassislik tayyorgarligi va malaka oshirish tizimi, shuningdek Huquqni muhofaza qilish akademiyasining faoliyati to'g'risida: proacademy.uz rasmiy sayti, <https://proacademy.uz>

²² Tergovning uzunligi, ushlab turilganlik muddatlariga rioya etilishi va sudgacha bo'lgan bosqichda inson huquqlarini himoya qilish kafolatlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, 33-modd, 47-bob; <https://www.lex.uz/acts/106197>.

Shaxsga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra javobgarlikdan ozod qilishning mohiyati va huquqiy ahamiyati

TULYAGANOV Abdumannop Abdujabbarovich

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti direktori ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

Annotatsia: Ushbu maqolada shaxsga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra javobgarlikdan ozod qilishning mohiyati va huquqiy ahamiyati tahlil qilingan bo'lib, bu borada o'zbek va xorijiy olimlarning ilmiy yondashuvlari ham bayon etilgan. Shuningdek, davlatning jinoiy-huquqiy siyosatida javobgarlikdan ozod qilish institutining ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: jazo, jinoiy javobgarlik, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, yarashuv instituti, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyat, ixtiyoriy kelishuv, etkazilgan zarar.

Аннотация. В данной статье проанализированы сущность и правовое значение освобождения от ответственности по обстоятельствам, связанным с личностью виновного, а также изложены научные подходы узбекских и зарубежных ученых по данному вопросу. Кроме того, освещено значение института освобождения от ответственности в уголовно-правовой политике государства.

Ключевые слова: наказание, уголовная ответственность, освобождение от уголовной ответственности, институт примирения, преступление, не представляющее большой общественной опасности, и менее тяжкое преступление, добровольное соглашение, причиненный ущерб.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar davlat va jamiyat hayotining barcha sohalari qatori sud-huquq tizimini ham tubdan takomillashtirishga qaratilmoqda. Ayniqsa, sud-huquq sohasini demokratlashtirish va liberallashtirishda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiluvchi institutsional mexanizmlarni mustahkamlash ustuvor vazifalar sifatida belgilanmoqda. Bu jarayonda jinoyat va jinoyat protsessual qonunligini zamon talablariaga mos ravishda takomillashtirish fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasidagi o'zni va ahamiyatini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, globallashtirish jarayonlari, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi, zamonaviy tahdid va

xavf-xatarlarning paydo bo'lishi qonunchilikni doimiy ravishda modernizatsiya qilishni talab etmoqda. Xususan, mamlakatni barqaror rivojlantirishning strategik maqsadlari hamda huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish vazifalari jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini xalqaro standartlar asosida qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ta'kidlash joizki, jinoyat qonunchiligining aniq, izchil va samarali mexanizmlarga asoslanishi qonuniyligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish samardorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini zamon talablari asosida takomillashtirish, uning samarali va barqaror tizimini yaratish davlat siyosatining ustuvor

yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlar orqali inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, jamiyat va davlat manfaatlarini ta'minlash, shuningdek, mamlakatda tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlash uchun mustahkam huquqiy asos yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iborat¹ bo'lib, ushbu vazifalarni amalga oshirishda Jinoyat Kodeksi shu vazifalarni amalga oshirish uchun Kodeks javobgarlikning asoslari va prinsiplarini, qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligini aniqlaydi, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari belgilaydi².

O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligini takomillashtirish jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutidan oqilona va samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo, jinoyat sodir etgan shaxsni jazolash orqali emas, balki uni jamiyatdan ajratmagan holda tarbiyalash, ijtimoiy adolatni tiklash va jabrlanuvchining buzilgan huquqlarini to'liq qoplashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Buning ahamiyati shundaki, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mexanizmlarini kengaytirish orqali davlat jinoyatchilikka qarshi kurashishda repressiv usullardan ko'ra, profilaktik va restorativ yondashuvlarga ustuvor ahamiyat beriladi. Bu esa jinoyat oqibatlarini bartaraf etishda jabrlanuvchi manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish, etkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplash, aybdor shaxsning qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lishi va kelgusida qonunga itoatkor xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qiladi.

Huquqshunos olim A.Yakubovga ko'ra, "javobgarlikdan ozod qilish asoslarini imperativ va dispozitiv turlarga ajratib, ayrim holatlarda javobgarlikdan ozod qilish huquqni muhofaza qiluvchi organing majburiyati, ayrim hollarda esa huquqi ekanini ta'kidlaydi"³. Bu borada M.Akramova, "jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga oid normalarni Jinoyat kodeksining Umumiy va Maxsus qismlarida joylashganligidan kelib chiqib, ularni umumiy va maxsus asoslarga ajratishni taklif etadi"⁴. Sh.Berdiyevning fikricha, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish jinoiy-huquqiy ta'sir chorasi bo'lib, uning asosiy vazifasi aybdorni ahloqan tuzatish ekanini ta'kidlaydi⁵. M.Usmonaliyevga ko'ra, jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxs jamiyat uchun jiddiy xavf tug'dirmasa va javobgarlikka tortish maqsadga muvofiq bo'lmasa, u javobgarlikdan ozod qilinishi lozim⁶.

Jinoyat qonunchiligi nazariyasiga ko'ra, shaxsni javobgarlikdan ozod qilish asoslarini ikki turga ya'ni, shaxsga bog'liq holatlarga ko'ra hamda sodir etilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga bog'liq holda ozod etilishi mumkinligini nazarda tutadi. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, javobgarlikdan ozod qilish mazkur har ikki holatida ham insonparvarlik prinsipi nomoyon bo'ladi. Aniqroq qilib aytganda, davlatning jinoiy-huquqiy siyosatida insonparvarlik prinsipi muhim ekanligini ko'rish mumkin.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning shaxsga bog'liq holatlar asosida qo'llaniladigan turlari jinoiy-huquqiy jihatdan alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki mazkur institutni qo'llashda, avvalo, jinoyat sodir etgan shaxsning jinoyatdan keyingi xulq-atvori, uning qilmishiga nisbatan munosabati hamda tuzalishga bo'lgan intilishi asosiy mezon sifatida e'tirof etiladi. Bunda aybdor shaxsning sodir etgan qilmishiga nisbatan chin ma'noda pushaymon ekanligi, jinoyatdan keyingi harakatlari ijobiy tomonga o'zgarganligi hamda uning kelgusida qonunga xilof xatti-harakatlarni sodir etmaslikka intilayotganligi muhim huquqiy ahamiyat kasb etadi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 2-модда.

² Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 2-модда.

³ Қаранг: А.С.Якубов. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм. Дасрлик. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси. Тошкент - 2009. 351-бет.

⁴ Қаранг: М.Акрамова "Жиноий жавобгарликдан озод қилишнинг махсус асослари" мавзусидаги юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент - 2022. 14-бет.

⁵ Қаранг: Ш.Бердиев "Жиноят қонунларининг либераллаштирилиши жараёнида жиноий жавобгарликдан озод қилишни такомиллаштириш муаммолари". Дисс... юр. фан. доктори. -Тошкент.: 2011.

⁶ М.Усмоналиев. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм. Олий ўқув юртлари учун дарслик. "Янги аср авлоди", Тошкент- 2005. - Б 662.

Shaxsga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra javobgarlikdan ozod qilishning amaliyotda nisbatan ko'p qo'llaniladigan aybdor o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi xususida, M.Stadnik quyidacha fikr bildiradi, ya'ni "aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishda qonun chiqaruvchi tomonidan javobgarlikni engillashtiruvchi ikki xil jihatni nazarda tutadi: birinchidan, u jinoyat huquqiga xos bo'lgan element bo'lib, ikkinchidan, ayblanuvchi bilan yarashishni o'z ichiga oluvchi, axloqiy-psixologik element – aybiga haqiqatdan toza qalb bilan pushaymonlikni ifodalaydi"⁷.

M.Stadnik aynan "Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti sifatida aybga chin ko'ngildan pushaymon bo'lishlik" nomli tadqiqot ishida aybiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish institutini optimallashtirish va faollashtirish maqsadida quyidagi yondashuvlarni amalga oshirish lozimligini ta'kidlaydi, ya'ni:

1) adolat tamoyillarini ta'minlagan holda repressiyani kamaytirish; 2) jabrlanuvchining manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash; 3) jinoyat sodir etgan shaxsning manfaatlarini himoya qilish; 4) ijtimoiy xavfli qilmishning oqibatlarini oldini olish, kamaytirish, ogohlantirishga xizmat qiladi⁸.

D.Qurbonovga ko'ra, jinoiy javobgarlikdan aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning, sudning tergov harakatlarini o'tkazishda, aybdorning tergov harakatini amalga oshirishdagi faol ishtiroki, ya'ni uning aldamasligi, haqiqatdan ham sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatning ochishda haqiqiy yordam ko'rsatishi inobatga olinishi lozim. Lekin, bu huquqni muhofaza qiluvchi organlaridan xolisona baho berish, shu asosda, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni talab etadi⁹.

Shuningdek, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxsning o'z aybini ixtiyoriy ravishda tan olishi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga

arz bilan murojaat qilishi, sodir etilgan jinoyat yuzasidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lishi hamda jinoyatning fosh etilishiga faol ko'maklashishi mazkur institutni qo'llashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, aybdor tomonidan etkazilgan moddiy yoki ma'naviy zararining bartaraf etilishi, jabrlanuvchidan kechirim so'ralishi va jabrlanuvchining uni kechirishi kabi holatlar ham shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishda inobatga olinadigan muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur holatlarning ahamiyati shundaki, ular orqali shaxsning tuzalish yo'liga kirganligi, uning huquqiy ongi va qonunga nisbatan hurmat hissi shakllanganligi, shuningdek, kelgusida jinoyat sodir etmaslikka bo'lgan ichki intilishi namoyon bo'ladi. Ayni vaqtda, jabrlanuvchining buzilgan huquq va manfaatlarini tiklash, ijtimoiy adolatni ta'minlash hamda jamiyatda o'zaro ishonch va huquqiy barqarorlikni mustahkamlash nuqtai nazaridan ham ushbu institut muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, shaxsga bog'liq holatlarga ko'ra jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti jinoyat huquqida insonparvarlik, adolat va profilaktika tamoyillarining amaliy ifodasi sifatida baholanadi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning shaxsga bog'liq holatlarga ko'ra qo'llanilishidagi asoslari-dan yana biri va eng muhimi bu JKning 66¹-moddasida nazarda tutilgan yarashganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish instituti bo'lib, ushbu institut o'z mohiyatiga ko'ra insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda jinoyat sodir etgan shaxs va jabrlanuvchi o'rtasida ixtiyoriy kelishuvga erishish orqali nizoni bartaraf etishni nazarda tutadi. Bunda jinoyat qonunchiligining asosiy maqsadi jazolash emas, balki shaxsni o'z qilmishi noto'g'ri ekanligini anglagan holda etkazilgan zararni qoplashi orqali ijtimoiy munosabatlarni tiklanishi va taraflar o'rtasidagi nizoni murosaga keltirish orqali hal etilishiga qaratiladi.

Sh.Berdiyevga ko'ra, yarashuv deganda jinoyat sodir qilgan shaxsning jabrlanuvchi bilan jinoyat ishini tinch yo'l bilan hal qilish haqida ixtiyoriy ravishda o'zaro kelishuvi tushuniladi. Bunda asosan jabrlanuvchiga etkazilgan zararining u yoki bu

⁷ Stadnik M.A. //Нормы о деятельном раскаянии в истории российского уголовного законодательства и законодательстве зарубежных стран. Вестник. Казанского юридического института МВД России № 2(24) 2016.: -С.123

⁸ Stadnik M.A. Деятельное раскаяние как институт освобождения от уголовной ответственности. Авт.дисс...кан. юр. наук. - Санкт-Петербург 2017. -С.19.

⁹ Курбанов Д. Инсонпарварлик институти ёки жиноий жавобгарликдан озод қилиш асосларини такомиллаштириш масалалари. Мақола. <http://huquqburch.uz>.

usulda to'la qoplanganligi kabi muhim va majburiy subyektiv holat hisoblanadi¹⁰.

F.Sundurova javobgarlikdan ozod qilishda yarashuvni qo'llash borasida, boshqa huquqshunos olimlardan farqli o'laroq quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi, "yarashuv jabrlanuvchi va aybdorning o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatishini ko'zlamaydi. Jabrlanuvchining maqsadi turlicha bo'lishi mumkin: etkazilgan zararni qoplanganligi, aybdorning og'ir ahvoli yoki uning oilasining ahvoriga achinganligi, aybdorning o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymonligi kabi holatlar yuzasidan bo'lishi mumkin. Agar aybdor tomonidan jabrlanuvchiga jismoniy, ruhiy jihatdan tahdidlar bo'lib, jabrlanuvchining aybdorning javobgarlikdan ozod qilinishi to'g'risida ariza taqdim etilishiga majburlanagn bo'lsa javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin emas"¹¹. Olim o'zining bu boradagi fikrlarini davom ettirib, yarashuv institutini qo'llanilishi borasida quyidagi tavsiyalarni bayon etadi: "Arizani qabul qilish paytida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jabrlanuvchiga yoki uning qonuniy vakiliga sud yarashuvni tasdiqlasa, u mazkur ish bo'yicha ish yuritishni qayta tiklash to'g'risida iltimosnoma berish huquqini yo'qotishini tushuntirishi shart. Yarashuv asosida javobgarlikdan ozod qilishning obyektiv tomoni shundan iboratki, bir tomondan uncha og'ir bo'lmagan va ijtimoiy xavfli bo'lmagan jinoyat sodir etilgan bo'lishi, ikkinchi tomondan, aybdorning jabrlanuvchi bilan yarashishi hisoblanadi"¹².

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2002-yil 25-oktyabrdagi "Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 27-son qarorida batafsil tushuntirish berib o'tilgan bo'lib, qarorning 4-bandida, "jinoiy jazolarning liberalashtirilishi to'g'risidagi qonunning hayotga tatbiq etilishini ta'minlash, bu borada aholining huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida sudlar yarashuv to'g'risidagi ishlarni ko'rishda surishtiruv yoki dastlabki tergov davrida jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar), gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va ularning qonuniy vakillariga yarashuv institutining

mohiyatini, Jinoyat kodeksi 661-moddasida ko'zda tutilgan jinoiy javobgarlikdan ozod etish asoslari tushuntirilganligiga va bu haqda tegishli bayonnoma tuzilganligiga e'tiborlarini qaratishlari lozim"ligi, ushbu bandning ikkinchi qismida esa, yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud zimmasiga qonun bilan yuklatilgan majburiyatlardan biri, bu — yarashuv sud tomonidan tasdiqlangandan keyin kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarni jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar) yoki uning qonuniy vakiliga rioya etmaslik yarashuv to'g'risidagi ish bo'yicha chiqarilgan qarorning bekor qilinishiga asos bo'lishi mumkin"ligi bayon etiladi¹³.

Yarashuv munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish borasidagi tahlillardan kelib chiqib, ta'kidlash joizki, mazkur institutning jinoyat qonunchiligida keng qo'llanilishi o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Bunda eng muhimi jabrlanuvchini buzilgan huquqlarini tiklanishi, unga etkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda qoplab berishi, shaxsni o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lishi kabi bir qancha omillar bilan izohlash mumkin. Bu esa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarining maqsadga muvofiqligini ta'minlab, formal jazolash amaliyotidan voz kechishga, natijada, ijtimoiy adolatni tiklash mexanizmi samaraliroq ishlashiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, yarashuv instituti jabrlanuvchining protsessual maqomini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Agar an'anaviy jinoyat protsessida jabrlanuvchi ko'proq dalil manbai sifatida namoyon bo'lsa, yarashuv mexanizmi sharoitida u mustaqil huquqiy subyekt sifatida o'z manfaatlarini himoya qilish, zararni qoplashni talab qilish va ish taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, yarashuv instituti jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning boshqa turlari bilan o'zaro bog'liq holda qo'llanilib, jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini differentsiatsiya qilish imkoniyatini kengaytirdi. Sudlar tomonidan mazkur institutning qo'llanilishi huquqni qo'llash

¹⁰ Ш.Бердиев "Жиноят қонунларининг либераллаштирилиши жараёнида жиноий жавобгарликдан озод қилишни такомиллаштириш муаммолари". Дисс...юр.фан.доктори.-Тошкент.:2011.-Б.214.

¹¹ Сундуrowa Ф.Р., Тарханова И.А. Уголовное право России. Общая часть. Учебник. Москва.:2014. Казанский Государственный Университет имени В.И. Ульянова-Ленина. Электрон вариант.

¹² Сундуrowa Ф.Р., Тарханова И.А. Уголовное право России. Общая часть. Учебник. Москва.:2014. Казанский Государственный Университет имени В.И. Ульянова-Ленина. Электрон вариант.

¹³ Ўзбекистон Республикаси Олий Суди Пленумининг 2002 йил 25 октябрдаги "Ярашув тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида"ги 27-сон қарори. Манба: <https://lex.uz/docs/1453539>.

amaliyotida individual yondashuvni ta'minlashga, har bir ish holatini aniq sharoitlardan kelib chiqqan holda baholashga sharoit yaratmoqda. Shu nuqtai nazardan, yarashuv institutini jinoyat qonunchiligiga joriy etish nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy jihatdan ham samarali mexanizm sifatida baholanishi mumkin. U jinoyatchilikka qarshi kurashishda repressiv usullar bilan bir qatorda murosas, ixtiyoriylik va zararni qoplash tamoyillariga tayangan alternativ yondashuvni shakllantirdi. Natijada jinoiy-huquqiy munosabatlarni erkinlashtirish, sud organlari yuklamasini kamaytirish hamda fuqarolarning sud-huquq tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiluvchi barqaror huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, yarashuv institutining amaliyotda keng qo'llanilishi davlatning jinoyat qonunchiligi borasidagi siyosatida insonparvarlik tamoilining amaliy ifodasi bo'lib, u jabrlanuvchi huquqlarini ishonchli himoya qilish, shu bilan birga, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, fuqarolar o'rtasida o'zaro ishonch va ahillik munosabatlarini mustahkamlashda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, yarashuv instituti, etkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf etish, qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasining kamligi kabi omillar hisobga olingan holda shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish amaliyoti jinoyatchilikning takrorlanish ehtimolini pasaytirishga xizmat qilmoqda.



Oilaviy zo'rvonlikka qarshi kurashish bo'yicha xorijiy tajriba

ABDULLAYEV Akmaljon Yo'Ichiboyevich

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Dastlabki tergov va surishtiruv kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsia: Mazkur maqolada oilaviy zo'rvonlikka qarshi kurashishning milliy va xorijiy tajribasi kompleks tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlar va bolalarni zo'rvonlikdan himoya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar, normativ-huquqiy baza va amaliy mexanizmlar o'rganilgan. Shuningdek, Yevropa, AQSh va Osiyo davlatlarida qo'llanilayotgan himoya orderlari, ixtisoslashtirilgan sudlar, institutsional hamkorlik va profilaktika choralari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish va xorijiy ilg'or tajribani implementatsiya qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oila, zo'rvonlik, oilaviy zo'rvonlik, tazyiq, xotin-qizlar, himoya orderi, oila sudlari, qarshi kurashish, xorijiy tajriba.

Аннотация. В статье проведён комплексный анализ национального и зарубежного опыта противодействия домашнему насилию. Рассмотрены правовые реформы, нормативно-правовая база и практические механизмы защиты женщин и детей в Республике Узбекистан. Особое внимание уделено анализу зарубежного опыта стран Европы, США и Азии, включая применение охранных ордеров, специализированных судов, институционального взаимодействия и профилактических мер. На основе проведённого исследования сформулированы предложения по совершенствованию национального законодательства и имплементации передового зарубежного опыта.

Ключевые слова: семья, насилие, домашнее насилие, давление, женщины, охранный ордер, семейные суды, противодействие, зарубежный опыт.

Barchamizga ma'lumki, o'zbek xalqi uchun oila muqaddas sanaladi. Mana shu qadriyatlardan kelib chiqib oilani asrash va mustahkamlash, ona va bola huquqlarini muhofaza qilish, xotin-qizlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Binobarin, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekani, davlat oilaning to'liq rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratishi, onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi qat'iy belgilab qo'yilgan¹.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat taraqqiyoti va inson huquqlarini ta'minlash yuzasidan

olib borilayotgan islohotlar doirasida bolalarni va xotin-qizlarni oilaviy zo'rvonliklardan himoya qilish, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikni bartaraf etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Respublikamizdada 2024-yilning birinchi choragida 4477 nafar shaxs oiladagi zo'rvonlik moddalarini bo'yicha MJtK va JKning tegishli moddalari bilan ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortilganligi haqidagi statistik ma'lumotlar ham oilaviy zo'rvonlikka qarshi kurashish qanchalar dolzarb masala ekanligini ko'rsatmoqda².

¹Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi./ <https://lex.uz/docs/6445145> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 20.03.2026 y).

² <https://www.gazeta.uz/uz/2024/04/13/family-violence/>. Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 20.03.2026 y.

2025-yilning yanvar-avgust oylarida 8 mingga yaqin kishi oiladagi zoʻravonlik (JK va MJTK boʻyicha), 1450 kishi esa shahvoniy shilqimlik aybi bilan sudlanganligi, bu davrda, shuningdek, 37 ta oilaning nikohi zoʻravonlik sababi bilan bekor qilinganligi esa, ushbu masala yildan yilga jiddiy tus olib borayotganligidan dalolat bermoqda³.

Bu borada xalqaro huquqiy meʼyorlar, jumladan, BMTning “Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish toʻgʻrisida”gi konvensiyasi (CEDAW) va boshqa xalqaro hujjatlar muhim ahamiyatga ega. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zoʻravonlik koʻplab shakllarda namoyon boʻladi: jismoniy, ruhiy, iqtisodiy va jinsiy zoʻravonlik. Ushbu illat nafaqat ayollarning huquq va manfaatlarini poymol etadi, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikka ham jiddiy xavf tugʻdiradi. Shu sababli ham davlat organlari, nodavlat tashkilotlar, OAV va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan ushbu muammoni bartaraf etishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda⁴.

Oʻzbekiston Respublikasida ham xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilishga oid normativ-huquqiy asoslar yaratilgan. 2019-yilning 2-sentabrda “Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida”gi OʻRQ-561-son Qonuni⁵ qabul qilingani ham ushbu fikrimizga yaqqol misol boʻladi.

Mazkur qonunda xotin-qizlarning shaʼni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini himoya qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari belgilab berilgan. Shuningdek, himoya orderlari instituti joriy qilinib, tazyiq va zoʻravonlik qurbonlarini huquqiy va psixologik qoʻllab-quvvatlash choralari mustahkamlandi.

Amaliyotda ushbu qonun asosida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlar tomonidan xotin-qizlarning huquqlari himoya qilinmoqda. Hududlarda maxsus “Islohotlar markazlari”, “Ayollar maslahat markazlari” faoliyat yuritmoqda. Ularda psixologik yordam, huquqiy maslahat va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash xizmatlari yoʻlga

qoʻyilgan. Hozirda 86-87 foiz zoʻravonlik oilalarda kuzatilyapti. 2024-yilning uch oyida ayollarga 10 mingdan ziyod himoya orderi berilgan⁶.

2025-yilning 24-dekabrida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2026–2030-yillarga moʻljallangan Bolalarni zoʻravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-256-son Farmoni⁷ qabul qilingani mamlakatimizda oilaviy zoʻravonlikka qarshi kurashish boʻyicha yangi qadam boʻldi, desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Prezidentimizning 2026-yil 3-martdagi “Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zoʻravonlik holatlarining oldini olish boʻyicha qoʻshimcha tashkiliy-huquqiy choralar toʻgʻrisida” PF-33-son Farmoni⁸ bilan esa xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish, shuningdek, ularga nisbatan tazyiq va zoʻravonlik holatlarining oldini olish boʻyicha chora-tadbirlar tasdiqlandi. Unga koʻra, oila va xotin-qizlar markazlari qoshidagi “maishiy zoʻravonliksiz baxtli oilaviy hayotga tayyorlash” maxsus kurslarida nikohlanuvchilarni bepul oʻqitish bilan qamrab olish darajasini 2026-yilda 50 foizga, 2027-yilda 60 foizga va 2030 yilga kelib 100 foizga yetkazish maqsadi qoʻyilgan.

Bundan tashqari, ushbu kurslarning sifati va samaradorligini tubdan oshirish koʻzda tutilgan. 1-apreldan boshlab esa, himoya orderini olgan jabrlanuvchi ayollarning roziligi bilan ularning aloqa vositalariga (telefon, planshet va boshqa qurilmalar) Ijtimoiy himoya milliy agentligining my.ihma.uz mobil ilovasi (“SOS” tugmasi) oʻrnatiladi. Bu ilova tazyiq va zoʻravonlik holatlari haqida zudlik bilan xabar berish imkonini taʼminlaydi. Tugma bosilganda, 5 km radiusda boʻlgan ichki ishlar organlari xodimlari 10 daqiqa ichida yetib kelishlari shart boʻladi⁹.

Joriy yilning 1-noyabrdan boshlab qonunchilikka kiritiladigan oʻzgartirishlarga koʻra, Jinoyat kodeksining oltita moddasi: 118 (Nomusga te-

³ Oʻsha manba.

⁴ <https://www.uzmarkaz.uz/uzc/news/xotin-qizlarni-tazyiq-va-zoravonlikdan-himoya-qilish/> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 20.03.2026 y.).

⁵ Oʻzbekiston Respublikasining 02.09.2019 yildagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida”gi OʻRQ-561-son Qonuni/ <https://www.lex.uz/docs/4494709/> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 22.03.2026 y.).

⁶ <https://www.uzmarkaz.uz/uzc/news/xotin-qizlarni-tazyiq-va-zoravonlikdan-himoya-qilish/> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 22.03.2026 y.).

⁷ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2025 yildagi “2026 – 2030 yillarga moʻljallangan Bolalarni zoʻravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida” PF-256-son Farmoni/ <https://www.lex.uz/docs/7938806/> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 20.03.2026 y.).

⁸ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 03.03.2026 yildagi “Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zoʻravonlik holatlarining oldini olish boʻyicha qoʻshimcha tashkiliy-huquqiy choralar toʻgʻrisida” PF-33-son Farmoni/ <https://lex.uz/uz/pdfs/8070193/> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 23.03.2026 y.).

⁹ <https://president.uz/uz/lists/view/8987/> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 24.03.2026 y.).

gish); 119 (Jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy shaklda qondirish); 121 (Shaxsni jinsiy aloqa qilishga majbur etish), 128 (16 yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish); 128-1 (16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan shaxs bilan moddiy qimmatliklar yoki mulkiy yoxud boshqacha manfaatdorlik berish orqali jinsiy aloqa qilish) va 129 (16 yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish) bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov ishlari faqat prokuratura organlari tomonidan o'tkazilishi belgilanmoqda¹⁰.

Yuqoridagilardan mamlakatimizda oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha qat'iy choralar ko'rilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Biroq, jamiyatimiz, undagi ijtimoiy munosabatlar to'xtovsiz oldinga harakatlanishga mahkum. Kundan kunga hayotimizda misli ko'rilgan tezlikda o'zgarishlar yuz bermoqda. Shunga mos ravishda yangi ijtimoiy munosabatlar yuzaga kelmoqda.

Shunday ekan jamiyatning rivojlanish tezligiga mos ravishda qonunlar ham takomillashtirilib borilishi lozim. Aks holda, jamiyatdagi adolat mezonlari izdan chiqib ketadi. Immanuel Kantning ta'biri bilan aytganda, "Qonunlar va jamiyatning tartibi inson ongining rivojlanishiga muvofiq yangilanib borishi kerak"¹¹.

Oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha qonunlarimizni yanada takomillashtirishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish va tahlil qilib, ularni o'zimizning mentalitetimizga moslashtirish yo'li bilan implementatsiya qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Darhaqiqat, oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish masalasi xalqaro va milliy darajada ko'plab ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan bo'lib, mazkur muammo inson huquqlarini ta'minlash, gender tengligi va ijtimoiy barqarorlik bilan uzviy bog'liq ekanligi ta'kidlanadi.

Xususan, xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar oilaviy zo'ravonlikni inson huquqlarining jiddiy buzilishi sifatida baholaydi¹².

Ilmiy adabiyotlarda oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashishning samarali modeli sifatida kom-

pleks yondashuv (prevention-protection-prosecution) alohida qayd etiladi. Ushbu yondashuv 2011-yilda qabul qilingan Istanbul konvensiyasida o'z ifodasini topgan bo'lib, davlatlarning zo'ravonlikning oldini olish, jabrlanuvchilarni himoya qilish va aybdorlarni javobgarlikka tortish bo'yicha majburiyatlarini belgilaydi¹³.

Yevropa davlatlari tajribasi tahlil qilinganda, oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashishda maxsus sudlar va institutsional mexanizmlar muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rinadi. Masalan, Babb tadqiqotida oilaviy sudlar faoliyatini isloh qilishda integratsiyalashgan (interdisciplinary) yondashuv samarali ekanligi asoslab berilgan¹⁴.

Shuningdek, Germaniya va Shvetsiya kabi davlatlarda himoya orderlari, boshpanalar va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlik tizimi yuqori samara berishi ta'kidlanadi¹⁵.

Polshada oilaviy zo'ravonlik muammosini bartaraf etish maqsadida "Oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun qabul qilingan bo'lib, u zo'ravonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan yangi jazo choralari joriy etadi, shuningdek, jabrlanuvchilarni himoya qilish jarayonini tezlashtiradi. Xususan, ushbu qonunga muvofiq, oilada zo'ravonlik sodir etgan shaxsni birgalikda yashaydigan uy-joydan chiqarish va muayyan mablag'ga unga yaqinlashishni taqiqlash mumkin. Bunday qarorni darhol qabul qilish huquqi politsiyaga berilgan bo'lib, uning jabrlanuvchining yashash joyiga yaqinlashishni taqiqlash to'g'risidagi qarori eng ko'pi bilan 14 kun amal qiladi, biroq sud jabrlanuvchining iltimosiga ko'ra ushbu muddatni uzaytirishi mumkin¹⁶.

Oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha samarali amaliyot Amerika Qo'shma Shtatlarida shakllangan bo'lib, u yerda jabrlanuvchilarga ijtimoiy yordam va reabilitatsiya ko'rsatish tizimi ishlab chiqilgan, shuningdek, zo'ravonlik qurbonlarini himoya qilish uchun himoya orderlari yoki sud buyruqlari keng qo'llaniladi¹⁷.

AQShda himoya orderlarini qo'llash amaliyoti ijobiy natijalar bermoqda. Himoya orderlari deganda agressiv xatti-harakatlar va ta'qibni taqiqlash-

¹⁰ <https://www.gazeta.uz/uz/2026/03/04/violence/> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 20.03.2026 y)

¹¹ <https://www.researchgate.net/> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 23.03.2026 y)

¹² UN Women. (2022). Global Database on Violence against Women.

¹³ Council of Europe. (2011). Convention on Preventing and Combating Violence against Women and Domestic Violence.

¹⁴ Babb, B. A. (1998). An Interdisciplinary Approach to Family Court Reform

¹⁵ Hester, M. (2013). Who Does What to Whom? Gender and Domestic Violence Perpetrators.

¹⁶ Skuteczna ochrona ofiar ustawy antyprzemocowa obowiazujacych prawem / <https://www.gov.pl/web/sprawiedliwosc/skuteczna-ochrona-ofiarustawa-antyprzemocowaobowiazujacychprawem/> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 25.03.2026 y)

¹⁷ Селезнева Н. А. Противодействие гендерному насилию: российский и зарубежный опыт // Образование и право. 2020. № 9. С. 440.

ga, shuningdek, jabrlanuvchi va uning oilasini oilaviy zo'rvonlik sodir etgan shaxsdan himoya qilishga qaratilgan yozma sud buyruqlari tushuniladi. Himoya orderlarini bepul va advokatsiz, berilgan ariza asosida olish mumkin. Ariza (petitsiya) shaklini jabrlanuvchi doimiy yoki vaqtinchalik yashaydigan hududdagi magistrat yoki tuman sudi kotibidan yoki zo'rvonlik sodir etgan shaxs yashaydigan joydan olish mumkin, bu esa oiladagi zo'rvonlikdan ma'muriy-huquqiy himoyani amalga oshirish tartibini soddalashtiradi¹⁸.

Himoya orderlari institutidan tashqari, AQShda oilaviy zo'rvonlikka qarshi kurashish uchun boshqa mexanizmlar ham qo'llaniladi, xususan, oiladagi zo'rvonlik ishlarini ko'rib chiquvchi ixtisoslashtirilgan sudlar instituti. Bunday ixtisoslashuv mazkur toifadagi ishlarni umumiy tartibdagi sud ish yurituviga nisbatan tezroq va samaraliroq ko'rib chiqish imkonini beradi. AQShda bunday sudlarning soni 230 tadan ortiqni tashkil etadi¹⁹.

Misol uchun, AQShning Shimoliy Karolina shtatida tashkil qilingan oila sudida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar, giyohvandlik, ota-onalik huquqidan mahrum qilish, oiladagi zo'rvonlik, bolaga vasiylik qilish huquqi, bolani qo'llab-quvvatlash, aliment undirish, er-xotin o'rtasidagi mulkni taqsimlash kabi ishlar ko'rib chiqiladi²⁰.

AQShda xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish faoliyatini muvofiqlashtiruvchi asosiy vakolatli federal organ bu "Office on Violence Against Women", ya'ni xotin-qizlarga nisbatan zo'rvonlikka qarshi kurashish idorasi hisoblanadi. Zo'rvonlik, jinsiy tajovuz, uy zo'rvonligi, stalkerlik va inson savdosi kabi jinoyatlarni kamaytirish bo'yicha milliy strategiyalar ishlab chiqish, politsiya, prokuratura, sud, sog'liqni saqlash, NNT va jamoatchilik bilan hamkorlikda ishlash va ma'lumot tarqatish, treninglar o'tkazish hamda statistika yuritish uning asosiy vazifalari hisoblanadi²¹.

Osiyo davlatlari tajribasida esa oila institutini saqlash bilan bir qatorda, zo'rvonlik qurbonlarini

himoya qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Hindistonda 1984-yilda qabul qilingan qonun asosida tashkil etilgan oila sudlari nikoh, vasiylik va mulkiy nizolarni ko'rib chiqadi²².

Yaponiyada esa oila sudlari 1947-yildan boshlab faoliyat yuritib, voyaga yetmaganlar ishlari va oilaviy nizolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi²³.

E'tiborli jihati, davlatimiz rahbarining 2023-yil 21-dekabrda qabul qilingan "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 9-bandida Oliy sud, Sudyalari oliy kengashi ning ilg'or xorijiy tajriba asosida fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudlarda oilaviy nizolarni ko'rishga ixtisoslashgan sudyalari korpusini shakllantirish haqidagi taklifga rozilik berildi. Shu asosda joriy yil 1-fevraldan mavjud shtat birliklari doirasida tajriba tariqasida fuqarolik ishlari bo'yicha Samarqand shahar, Namangan va Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudlarining ikki nafardan sudyasini oilaviy nizolarni ko'rish bo'yicha ixtisoslashtirgan holda, ushbu sudlarda "Oila sudyalari" tashkil etish belgilandi²⁴.

Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, hozirgi kunda ko'plab davlatlar oilaviy zo'rvonlikni jiddiy muammo sifatida qabul qilgan va unga qarshi kurashish bo'yicha zaruriy ta'sir choralari qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqqan.

Oilaviy zo'rvonlik hech bir chegara bilmaydi va uni o'z vaqtida oldi olinmas ekan, oiladan boshlanadigan jamiyat tanazzulga yuz tutadi. Oila sog'lom bo'lmaganidan keyin undan qanday qilib yetuk va farovon jamiyat yuzaga kelishi mumkin. Shunday ekan bu borada xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini muntazam ravishda o'rganish va tahlil qilish orqali mamlakatimizda oilaviy zo'rvonlikka qarshi kurashish bo'yicha samarali mexanizmlarni yaratish ayni muddao bo'ladi. O'z navbatida, bu oilaviy zo'rvonlik darajasini kamaytirishga, shu bilan birga, huquqiy himoya choralari kengaytirishga va muammoni hal etishda ham himoyaviy, ham jazolash mexanizmlarini joriy etishga xizmat qiladi.

¹⁸ Харламов В. С. Институт охранного ордера в зарубежном законодательстве как инструмент защиты личности от внутрисемейного насилия // Криминология: вчера, сегодня, завтра. 2014. № 1 (32). С 36.

¹⁹ Specialized Domestic Violence Court Systems/ https://www.stopvaw.org/specialized_domestic_violence_court_systems (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 20.03.2026 y.).

²⁰ <https://sud.uz/news-2024-02-15-1/> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 21.03.2026 y.).

²¹ <https://www.uzmarkaz.uz/uzc/news/xotin-qizlarni-tazyiq-va-zoravonlikdan-himoya-qilish/> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 20.03.2026 y.)

²² Agnes, F. (2011). Law and Gender Inequality in India.

²³ Haley, J. O. (2002). The Japanese Judiciary.

²⁴ <https://sud.uz/news-2024-02-15-1/> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 20.03.2026 y.).

Olib qo'yish tergov harakatining huquqiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari

XOMIDOV Voxidjon Adxamovich

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Annotatsia: Ushbu maqolada olib qo'yish tergov harakatining huquqiy asoslari, protsessual tartibi va o'ziga xos xususiyatlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi normalari asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda uning jinoyat ishi bo'yicha dalillarni to'plash va mustahkamlashdagi ahamiyati, o'tkazish asoslari hamda tintuv tergov harakati bilan bog'liqligi va farqli jihatlari yoritilgan. Shuningdek, olib qo'yish va tintuvni o'tkazishning protsessual mexanizmlari, sud nazoratining o'рни hamda tergov amaliyotida uchraydigan ayrim muammolar ko'rib chiqilgan. Mazkur masalalar yuzasidan Moldova Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligi misolida qiyosiy-huquqiy tahlil amalga oshirilib, amaldagi qonunchilikni takomillashtirish hamda unga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish xususida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: olib qo'yish, tintuv, tergov harakati, dalillar, jinoyat protsessi, sud nazorati, surishtiruvchi, tergovchi, qaror, ajrim, Moldova tajribasi, Yangi O'zbekiston.

Аннотация. В данной статье на основе норм Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан проанализированы правовые основы, процессуальный порядок и особенности производства выемки. Рассмотрены её значение в собирании и закреплении доказательств по уголовному делу, основания проведения, а также взаимосвязь выемки и обыска и их отличительные особенности. Кроме того, исследованы процессуальные механизмы проведения выемки и обыска, роль судебного контроля и отдельные проблемы, возникающие в следственной практике. По данным вопросам проведён сравнительно-правовой анализ на примере уголовно-процессуального законодательства Республики Молдова. По результатам исследования сформулированы предложения по совершенствованию действующего законодательства, а также внесению в него соответствующих изменений и дополнений.

Ключевые слова: выемка, обыск, следственное действие, доказательства, уголовный процесс, судебный контроль, дознаватель, следователь, постановление, судебное определение, опыт Республики Молдова, Новый Узбекистан.

Tergov sifatini oshirish bo'yicha tizimli choralar ko'riladi. Tergov shaxsni ayblash uchun emas, jinoyatni fosh etish orqali haqiqatni aniqlash uchun ishlashi kerak. Hech kimning unutishga haqqi yo'q – qonun talablari va inson huquqlari – biz uchun oliy qadriyat¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yuqoridagi fikrlarining amaldagi ifodasi sifatida qator farmon va qarorlar qabul

qilinib, amaldagi qonunchilik hujjatlari yanada takomillashtirildi hamda huquqni qo'llash amaliyotida qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022-yil 28-noyabr kunidagi "Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-257-son farmoni qabul qilinib, mazkur farmon qabul qilinishidan ko'zlangan maqsad Yangi O'zbekiston sharoitida jinoyat-

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022 yil. Manba: <https://president.uz/uz/lists/view/5774>.

larni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash amaliyotini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, ushbu yo'nalishga ilg'or xalqaro standartlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish nazarda tutilgan².

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual qonunchiligining vazifasi ham jinoyatlarni tez va to'la ochishdan, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishdan hamda qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlashdan iboratdir³. Barchamizga ma'lumki, jinoyatlarni tez va to'la ochish, aybdorlarni fosh etishda jinoyat ishi bo'yicha olib boriladigan har bir tergov harakatining o'rni va ahamiyati muhim hisoblanadi. Jumladan, jinoyat ishi bo'yicha dalillarni to'plashda olib qo'yish tergov harakatini o'z vaqtida, qonunchilik talablariga rioya qilgan holda amalga oshirilishi jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni har tomonlama, xolisona va to'la o'tkazilishiga xizmat qiladi. Shu sababli, JPK-da Olib qo'yish va tintuv tergov harakatini tartibga soluvchi alohida 20-bob ajratilgan bo'lib, ushbu bobda olib qo'yish tergov harakatini o'tkazish asoslari va tartibi belgilab berilgan. Demak, qonunchilikka ko'ra jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik narsalarning, hujjatlarning va elektron ma'lumotlarning aynan kimda va qayerda ekanligi ma'lum bo'lib, ularni qidirishning hojati bo'lmasa, surishtiruvchi, tergovchi va sud ularni olib qo'yishga haqli hisoblanadi⁴. Olib qo'yish surishtiruvchining yoki tergovchining qarori yoxud sudning ajrimiga ko'ra o'tkaziladi, bunda ular olib qo'yishni o'tkazishni surishtiruv organiga yoki tergovchiga topshirishga haqli. Olib qo'yishni o'tkazish to'g'risidagi qarorda yoki ajrimda bu harakat qayerda va kimnikida bajarilishi zarurligi, qaysi narsalar yoki hujjatlar yoxud elektron ma'lumotlar olib qo'yilishi lozimligi ko'rsatilgan bo'lishi kerak⁵.

Demak, qonunchilik talablariga ko'ra, olib qo'yish tergov harakati o'tkazilishi uchun surishtiruvchi, tergovchi qaror yoki sud ajrim chiqargan

bo'lishi lozim. Bundan tashqari, qarorda yoki sudning ajrimida olib qo'yish tergov harakati o'tkaziladigan joy va obyekt, shuningdek, olib qo'yilishi lozim bo'lgan narsa va buyumlar ham ko'rsatilgan bo'lishi lozim hisoblanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, olib qo'yish tergov harakati bilan tintuv tergov harakati o'rtasidagi farqni to'g'ri baholash hamda ushbu tergov harakatlari o'tkazilishining protsessual tartibiga rioya qilish muhim hisoblanadi. Ushbu tergov harakatlarining protsessual jihatdan farqli tomoni shundaki, olib qo'yish tergov harakati surishtiruvchi yoki tergovchining qarori yoki sudning ajrim asosida o'tkazilishi mumkin bo'lsa, tintuv tergov harakati esa sudning ajrimi bilan ya'ni, tintuv o'tkazish uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda prokuror, tergovchi yoki surishtiruvchi tintuv o'tkazish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida qaror chiqaradi. Mazkur qarorning asosililigi sud tomonidan ko'rib chiqilib, qarorning asosililigi yoki asossizligi bo'yicha ajrim chiqariladi.

Shu o'rinda Jinoyat protsessual qonunchiligidagi olib qo'yish va tintuv o'tkazish tartibi belgilangan 161-modda talablarida mulohazaga chorlovchi jihat borligini ta'kidlash joiz. Chunonchi, JPKning 161-moddasi 4-qismida (ma'lumot o'rnida: mazkur moddaning 1-qismi O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 28-yanvardagi O'RQ-1022-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan) surishtiruvchi, tergovchi olib qo'yish chog'ida qaror yoki ajrim bilan tanishtirganidan keyin olinishi lozim bo'lgan narsalarni, hujjatlarni va elektron ma'lumotlarni ixtiyoriy ravishda berishni taklif qilishi, taklif rad etilgan taqdirda majburiy ravishda olib qo'yilishi, shuningdek, agar bu narsalar, hujjatlar va elektron ma'lumotlar olib qo'yishni amalga oshirish to'g'risidagi qarorda yoki ajrimda ko'rsatilgan joydan topilmasa, u holda tintuv o'tkazilishi belgilangan. Biroq, yuqorida bayon etilganidek, tintuv tergov harakati faqat sudning ajrimiga asosan o'tkazilishi lozimligini inobatga olinganda (kechiktirib bo'lmas holatlar mustasno), olib qo'yishdan ko'zlangan natijaga erishilmaganda va tintuv o'tkazilishi lozim bo'lganda, mazkur tintuv tergov harakati o'tkazilgandan keyingi protsessual

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-noyabr kunidagi "Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-257-son farmoni.

³ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi, 2-modda.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi, 157-modda.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi, 159-modda.

harakatlar tartibga solinmagan. Ya'ni, JPKning 161-moddasi 4-qismi talablariga ko'ra, tintuv tergov harakati o'tkazilgan taqdirda, sud va prokuror o'tkazilgan tintuv haqida yigirma to'rt soat ichida xabardor qilinishi, xabarnomada olib qo'yish tergov harakatidan ko'zlangan maqsadga erishilmaganligi va tintuv tergov harakati o'tkazilganligi ko'rsatilishi, shuningdek, xabarnomaga tergovchining yoki surishtiruvchining tintuv o'tkazish haqidagi qarorining, tintuv bayonnomasining va zarur materiallarning ko'chirma nusxalari ilova qilinishi lozimligi mazkur moddaning 5-qismi sifatida belgilanishi (mazkur moddadagi mavjud 5-8-qismlar tegishincha 6-9-qismlar sifatida qayd etilishi) lozim deb hisoblaymiz.

Ushbu fikrimizni Moldova qonunchiligi bilan izohlaymiz, ya'ni Moldova Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining "Tintuv o'tkazish yoki hujjatlar va buyumlarni olib qo'yish" deb nomlangan 128-moddasi 4-qismida "Narsalar va hujjatlarni olib qo'yishda, buyruqni taqdim etgandan so'ng, jinoyat tergov organining vakili olib qo'yilishi kerak bo'lgan narsalar yoki hujjatlarni unga topshirishni so'raydi va rad etilgan taqdirda ularni majburan olib qo'yadi. Agar olib qo'yilishi kerak bo'lgan narsalar yoki hujjatlar buyruqda ko'rsatilgan joyda yo'q bo'lsa, jinoyat tergovini olib borayotgan shaxs tintuv o'tkazish huquqiga ega. Tintuv natijasi ushbu Kodeks qoidalariga muvofiq 24 soat ichida tekshirish uchun tergov sudyasiga taqdim etiladi"⁶.

Moldova Jinoyat protsessual qonunchiligining yuqorida tahlil etilgan modda talablariga ko'ra, aynan olib qo'yish tergov harakati natijasiz bo'lganda, tintuv tergov harakati o'tkazilganda, bu haqida kodeks talablariga muvofiq 24 soat ichida tekshirish uchun tergov sudyasiga hujjatlar taqdim etilishi nazarda tutilgan. Biz yuqorida O'zbekiston Respublikasi JPKning 161-moddasi 4-qismiga kiritilishi lozim bo'lgan taklifimiz aynan shu nuqtai nazardan kelib chiqqan edi.

Olib qo'yish – bu jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan narsalar va hujjatlarni, ularning aniq joylashuvi va kimda ekanligi ma'lum bo'lgan hollar-

da tergov harakati sifatida amalga oshiriladi. Olib qo'yish ham tintuv tartibida o'tkaziladi, ammo ayrim holatlarda qonunchilik unga nisbatan alohida tartib belgilangan. Xususan, davlat siri yoki qonun bilan muhofazalanadigan boshqa sirli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlar, bank hisobvaraqlari va omonatlar to'g'risidagi ma'lumotlar, lombardga garovga qo'yilgan yoki saqlash uchun topshirilgan ashyolarni olib qo'yish faqat sud qarori asosida amalga oshirilishi lozim⁷.

Ilmiy adabiyotlarda olib qo'yish tergov harakati sifatida jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan aniq predmet yoki hujjatni muayyan shaxs yoki tashkilotdan majburiy ravishda olish jarayoni sifatida talqin etiladi. Masalan, protsessual huquq bo'yicha tadqiqotlarda ushbu harakat "dalillarni aniq maqsadli va cheklangan doirada olish usuli" sifatida baholanadi⁸.

Huquqni qo'llash amaliyoti tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, olib qo'yishning uy-joyga nisbatan qo'llanishi ayrim holatlarda ehtiyojsiz deb topilgan. Chunki, obyektning oldindan ko'chirilishi yoki yashirilishi ehtimoli tergovchi va surishtiruvchining protsessual faoliyati samaradorligiga xavf tug'dirishi mumkin. Shu sababli, uy-joydan olib qo'yish amalga oshirilishi lozim bo'lgan hollarda, dastlab muayyan narsa yoki obyektga bog'lanmagan holda uy-joyda tintuv o'tkazish uchun sudga iltimosnoma taqdim etish maqsadga muvofiqdir⁹. Tergov va surishtiruv jarayonida fuqarolarning huquqlari himoya qilinishiga e'tibor qaratish, tintuv va olib qo'yish jarayonlarining qonuniyligi va adolatli tarzda amalga oshirilishi uchun sud nazoratini kuchaytirish zarur¹⁰.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida dalillarni to'plash va mustahkamlashda barcha tergov harakatlari muhim ahamiyat kasb etadi, shu bilan birga barcha tergov harakatlari qonuniy, asosli va o'z vaqtida o'tkazilishi lozim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, olib qo'yish tergov harakatini o'tkazish asoslari va tartibi qonunchilikda mukammal tartibga solinishi zaruratini ko'rsatadi.

⁶ Moldova Respublikasi JPK, 128-modda. Manba: Moldova Bosh prokuraturasi rasmiy sayti, qonunchilik hujjatlari bazasi. <https://www.procuratura.md/despre-noi/>

⁷ Sh.Sh.Suyunov. Some aspects of qualifying drug-related crimes. Koreya Respublikasining "Digital Fashion Conference" jurnali 5.10.2022 y B. 13-15

⁸ Строгович М.С. "Курс советского уголовного процесса". – Москва, 1973.

⁹ А.Аширбоев Суриштирув ва дastlabki tergovni tuxtatiш instituti: халqaro тажриба ва Ўзбекистон қонунчилигини такомиллаштириш истиқболлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 14. – С. 37-42.

¹⁰ Sh.S.Agoev Tintuv va olib qo'yishni o'tkazishni o'ziga xos xususiyatlari. "Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar" nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konfrensiya to'plami. 163-168 b.

Procedure for registering evidence at the stage of pre-trial proceedings

NURALIEV Murod Marufovich

Independent researcher of the University
of Public Security of the Republic of Uzbekistan

Strict adherence to the norms of criminal procedure legislation requires the prompt and complete disclosure of crimes through the collection, examination, evaluation of evidence and their procedural registration based on established requirements, the imposition of a fair punishment on each person who has committed a crime, and the exposure of perpetrators, ensuring the correct application of the law so that no innocent person is convicted or held accountable.

According to Article 90¹ of the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan, data and objects may be used as evidence only after they are recorded in the minutes of the investigative action or the minutes of the court session. Responsibility for maintaining records is assigned to the investigator and the inquiry officer at the stage of inquiry and preliminary investigation, and in court - to the presiding officer and the court clerk.

It is established that the protocols include: information about the participants of the investigative or judicial action, explanations of their rights and obligations to these persons; the place and time, conditions, process and results of the investigative or judicial action, a description of the material objects found in it and their signs significant for the case; facts requested for confirmation by the participants of the investigative action or judicial proceedings; their testimony, explanations, comments on the causes of the incident; petitions, complaints, refusal filed by them; facts of viola-

tions in the course of the investigative action or judicial proceedings, as well as measures taken to eliminate and prevent these violations.

In our opinion, the recording of evidence is understood as their consolidation, that is, the reflection of accurate information in order to recognize them as evidence after such actions in the case in the manner prescribed by law.

In other literature, procedural recording is often expressed as "consolidation of evidence." In this case, the consolidation of evidence is interpreted in such forms as "reflection of factual information established by the investigator in procedural documents," "documentation and procedural confirmation of the collected evidence"². Criminalistic literature mainly emphasizes the method, means, and material origin of recording as an object of recording³.

As N.N.Lisov writes, the basis of the concept of recording evidentiary data is formed by the following important features: the immediate task of recording (the preservation of evidentiary data available in various sources); the subject of recording (information about the event: images of objects, inactive objects and subjects, the dynamics of the process of development of criminal activity, actions, etc.); methods of recording (tactical methods and scientific and technical means used by subjects engaged in the activity of detecting and solving crimes); the ultimate goal of recording (obtaining procedurally recorded factual data

¹ Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. (www.lex.uz)

² Савельева Н.В. Проблемы доказательств и доказывания в уголовном процессе: Учебное пособие / Н.В.Савельева. - Краснодар: КубГАУ, 2019. - С. 56; Колесов О.М. Письменные доказательства в уголовном процессе России: Автореф. канд. юрид. наук. - Нижний Новгород, 2006. - С. 12; Битокова М.Ж. Право собирания доказательств защитником и его осуществление в уголовном судопроизводстве: Автореф. дис... канд. юрид. наук. - М., 2008. - С. 15; Белоусов Н.В. Предмет доказывания по делам о преступлениях, совершенных в соучастии: Автореф. дис... канд. юрид. наук. - Воронеж, 2003. - С. 22

³ Попова Т.В. Криминалистические и процессуальные вопросы использования микроследов в доказывании: Автореф. дис... канд. юрид. наук. - Челябинск, 2005. - С. 15; Новик В.В. Криминалистическое обеспечение доказывания по уголовным делам: Проблемы теории и практики: Автореф. дис... д-ра. юр. наук. - М., 2009. - С. 28; Дементьев А.Ю. Криминалистическое прогнозирование в процессе собирания и фиксации доказательств по уголовному делу: Автореф. дис... канд. юрид. наук. - Екатеринбург, 2003. - С. 16.

necessary for the consideration and resolution of case documents)⁴.

Yegorov and others emphasize that the essence of recording evidence is manifested in the following: a) interpretation and transfer of factual information contained in the material representation to the means of proof; b) ensuring the preservation of evidentiary data for repeated use in the process of proof; c) as a result of the preservation of recorded evidentiary data, their collection and use in the full implementation of proof related to the case; d) the information received by the subject conducting the proof from the point of view of the subject of proof, regulated by law, is not fully formalized, but only the circumstances relevant to the case are selected and used in the process of proof; e) evidentiary data is not only recorded, but also the ways, methods, and means of obtaining information are recorded as a necessary condition for its relevance to the case⁵.

It should be noted that during the period of proof, the relevance and acceptability of factual data are primary. From a procedural point of view, the recording of evidentiary data, in turn, confirms the activity of the subject of proof. Confirmation of the activity of the subject of proof means the recording of information in the manner prescribed by law in order to ensure its evidentiary value.

The purpose of recording evidence is not only to confirm certain facts in the case, but also to record factual information. From a procedural standpoint, it should be acknowledged that the recording of evidence is formally correct, arising from its confirmation and recording in a procedural form⁶.

Here it becomes clear that evidentiary data acquire a legal form as they are recorded in the manner and manner prescribed by law. The concept of "recording factual evidence," unlike procedural ones, has a broader forensic meaning. In this case, they mainly rely on actions related to the recording of evidentiary data and the means of carrying out these actions.

In this regard, the following opinion of A.R.

Belkin can also be cited: "An analysis of the content of the concept of recording evidence requires the following characterization of this concept in the process of criminal proceedings: recording evidence is a set of actions related to the identification and consolidation of factual information using the forms, conditions, methods, and means established by law for the correct resolution of criminal cases"⁷.

In our opinion, supporting the above opinion, the following conclusion can be made: 1) recording evidence is a set of physical actions performed both with thinking and in the literal sense; 2) the object of recording is not all real information, but information collected by the subjects carrying out the proof in order to establish the truth about the circumstances that are relevant for a lawful, reasonable and fair decision in the manner specified in Article 85 of the current Criminal Procedure Code; 3) this activity is an activity aimed at reflecting the object of registration in a procedural form, which, while meeting the relevant requirements, complies with the requirements of procedural law; 4) when recording evidence, it is necessary not only to record the data in a procedural form, but also to reflect the processes related to the identification, acquisition, recording, and storage of these evidence.

From the foregoing, it can be concluded that the object of recording evidence is: a) the exact same factual data; b) the goals and methods related to their identification and recording; c) the methods and means of identifying and recording factual data.

In addition, it should be noted that recording evidence in procedural forms, in turn, requires guidance to the subjects of recording.

Evidential information, data related to their receipt and recording, is the main object of recording in the process of proof. In the process of proof, along with the main information, additional information is also used to establish the truth in the case.

This additional information include: 1) pre-

⁴ Лысов Н.Н. Фиксация доказательств в уголовном процессе. Ч. I: Методологические проблемы. - Н.Новгород: ЮИ МВД России, 1998. - С. 70.

⁵ Егоров Н.Н. Теоретические и прикладные проблемы учения о вещественных доказательствах: Автореф. дис... д-ра. юрид. наук. - Иркутск, 2005. - С. 16; Сморгунова М.Е. Теоретические основы и практика проверки досудебных доказательств в уголовном процессе: Автореф. дис... канд. юрид. наук. - Нижний Новгород, 2004. - С. 12

⁶ Татаров Л.А. Методические и методологические проблемы доказывания обстоятельств преступления: Автореферат дисс... канд. юрид. наук. - Ростов-на-Дону, 2006. - С. 19.

⁷ Белкин А.Р. Теория доказывания в уголовном судопроизводстве. - М.: Норма, 2005. - С. 192.

liminary information obtained as a result of operational-search activities by investigative bodies, as well as as a result of the investigator's actions related to organizational, technical, and search activities, or consultations with a specialist⁸;

2) auxiliary information serving comparative and search activities for forensic research, comparison, and verification⁹.

Today, the recording of factual data in the following forms is widely used in practice: 1) in oral (verbal) form; 2) in graphical form; 3) in visual form; 4) in a visual form.

The aforementioned verbal, graphic, visual, and visual forms can also have various harmonious combinations. For example, verbal and graphic, visual and verbal. At the same time, measurement, description, modeling, observation, comparison, experiment, physical, chemical, and forensic methods are used in recording evidence¹⁰.

The following can be indicated for the implementation of the above-mentioned methods: a) verbal recording – drawing up a report, recording sound (sound); b) graphic recording – reflection in graphic form (schematic and scale drawings, images, sketches, drawings, as well as drawn pictures); c) visual recording – obtaining objects in their natural state (preparing templates, making copies, preparing plans, schemes); d) visual recording – video recording, filming, photography¹¹.

In some cases, a comprehensive approach using technical forms and methods of recording is also possible¹². For example, drawing up a protocol, video or photography, copying, etc. Procedural requirements are imposed on the use of any forms of recording, the application of its methods and technical techniques, since it is precisely procedural proof that is at stake.

In criminal procedure law, there are three forms of recording evidence: drawing up a report, making a decision on attaching material evidence to the case, making a decision on attaching other documents to the case. Regarding these forms, there are primary and secondary, voluntary and

compulsory recording methods¹³. The primary method of recording evidence is to draw up a report, while secondary methods include video recording, filming, photography, making impressions, and making copies of traces. Such a division is due to the fact that the results of other forms of recording, except for the drawing up of a report, do not have the value of sources of evidence.

Criminal procedural legislation provides for the use of not scientific and technical means as evidence, but witness testimony, expert opinion, material evidence, examination reports and other written documents, as well as personal explanations of the accused, but does not prohibit the use of scientific and technical means (video recording, filming, photography, making molds and making copies of traces). The extensive discussions on this issue demonstrated the inconsistency of such views, putting the issue of eliminating existing shortcomings in the law on the agenda, and these shortcomings were eliminated in the current Criminal Procedure Code. However, in part one of Article 87 of the Criminal Procedure Code, it is indicated that the collection of evidence is carried out by conducting investigative and judicial actions, and also in part one of Article 91 of this Code, along with drawing up a record for recording evidence, sound recording, video recording, filming, photography, making templates, making copies, drawing up plans, diagrams, and other methods of reflecting information may be applied.

In our view, it is advisable to divide the methods of recording procedural evidence not into main and additional methods, but into mandatory (in accordance with the strict procedure of the law) and non-mandatory (voluntary), that is, methods applied at the discretion of the subject making the record. In particular, mandatory methods of recording evidence include recording in a report; non-mandatory methods of recording evidence include recording by means of audio and video recording, filming, photography, making templates, making copies, preparing plans, diagrams,

⁸ Котухов М.П. Перевод результатов оперативно-розыскной деятельности в доказательства: Автореф. дисс... канд. юрид. наук. - М., 2002. - С. 20.

⁹ Ялышев С.А. Криминалистическая регистрация: проблемы, тенденции, перспективы. - М., 1999. - С. 59.

¹⁰ Лопаткин Д.А. Вещественные доказательства: Процессуальные и криминалистические аспекты: Автореф. дисс... канд. юрид. наук. - Краснодар, 2003. - С. 21.

¹¹ Белкин Р.С. Криминалистика. 2001, [Электронный ресурс] URL: <https://be5.biz/pravo/k023/1l.html>; Винберг А.И. Криминалистика. Вып. 1. введение в криминалистику. - М., 1950. - С. 168.

¹² Российский С.Б. Концептуальные основы формирования результатов "невербальных" следственных и судебных действий в доказывании по уголовному делу: Автореф. дисс... д-ра. юрид. наук. - М., 2015. - С. 31.

¹³ Попова Н.А. Вещественные доказательства: Собираение, представление и использование их в доказывании: Автореферат дисс... канд. юрид. наук. - Саратов, 2007. - С. 14.

and other methods of recording information. Part four of Article 91 of the Criminal Procedure Code establishes that procedural actions in the form of a search at the scene, verification of testimony at the scene, and investigative experiment for especially grave crimes must be recorded using video recording equipment. Why is the use of video recording equipment only conditionally defined for especially serious crimes?

In order to prevent the occurrence of circumstances that serve as grounds for recognizing evidence as inadmissible, as indicated in Article 951 of the Criminal Procedure Code, to establish the truth in the case, and to ensure a thorough, comprehensive, complete, and objective verification of all circumstances subject to proof, it is advisable to introduce a mandatory rule regarding the recording of certain investigative and procedural actions using video recording devices. In general, describing the technical means of recording evidence, they can be divided into the following groups: 1) means of recording oral information (means of drawing up reports, sound recording devices); 2) means of creating models - plans, drawings, pictures, diagrams; 3) means of creating material models (quantity of molds, photo and film devices, video recording tools, a set of drawings for creating a synthetic portrait, etc.)¹⁴.

As noted above, there are several reasons why the most commonly used verbal form of recording evidence is widespread. Including:

1) imposes the obligation to carry out investigative and several other procedural actions at the request of the legislator;

2) the widespread use of verbal notation is associated with the diversity of notation objects into which the verbal definition can be introduced. These are:

- a) applications, instructions and complaints;
- b) actions and processes;
- c) material forms, their quality, condition, and

structure - people, corpses, animals, objects, documents, surroundings, vehicles, and so on¹⁵. This form of recording evidence is considered the most historically ancient and generally accepted form due to its relative simplicity. As mentioned above, the technical method of implementing this form was expressed in the compilation of a report and sound recording.

If the recording of evidence is not carried out on the basis of the requirements specified in the current Criminal Procedure Code, the evidence is recognized as inadmissible. In our society, human dignity, his legal rights and interests occupy the highest place. Article 17 of the Criminal Procedure Code¹⁶ prohibits the commission of actions or the issuance of decisions that infringe upon the honor and dignity of a person, lead to the dissemination of information related to their private life, endanger their health, or unjustifiably inflict ten physical and moral suffering. Since the purpose of the proof process is to establish the truth, great attention should be paid to the protection of the rights and legitimate interests of the individual in achieving it. Evidence is deemed inadmissible not only when obtained from non-procedural sources, but also when the rights and legitimate interests of citizens are seriously violated¹⁷.

A different approach is needed to address evidence-reinforcing deficiencies and the illegality of factual data that are not related to the violation of an individual's constitutional rights¹⁸. The rules for obtaining and recording information are aimed at ensuring the credibility of evidence, so their evaluation is an integral part of addressing this common task¹⁹. If the violations committed can be remedied through other procedural actions, they can be considered non-significant, i.e., not having affected a comprehensive, complete, and impartial investigation, and these evidence can be examined and evaluated in the future. Often this practice refers to the procedural form of recording evidence established by law.

¹⁴ Миленин Ю.Н. Аудио - и видеодокументы как доказательства в уголовном процессе: Автореф. дис... кайд. юрид. наук. - М., 2009. - С. 24; Короткий С.А. Аудио - и видеозаписи как средства доказывания в гражданском процессе: Автореф. дис... канд. юрид. наук. - М., 2010. - С. 18

¹⁵ Веселова Ю.А. Протоколирование и дополнительные методы фиксации доказательств в уголовном процессе: Дис... канд. юрид. наук. - СПб, 2005. - С. 21

¹⁶ Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. (www.lex.uz)

¹⁷ Лупинская П.А. Основания и порядок принятия решений о недопустимости доказательств // Российская юстиция, - 1994. - № 11. - С. 2-5; Лупинская П.А. Уголовно-процессуальное право Российской Федерации / отв. ред. 2-е изд., перераб. и доп. - М., 2011. - С. 32

¹⁸ Саидов Б.А. Ишни судга қадар юритишда шахсининг конституциявий ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш: Монография. - Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. - Б. 34; Умарханов А.Ш. Одил судловга қўмаклашувчи шахслар хавфсизлигини таъминлашнинг ҳуқуқий чоралари: Ўқув қўлланма. - Т., 2005. - Б.76; Булатов В.А. Обеспечение следователем прав и законных интересов и безопасности потерпевших и свидетелей: Автореф. дис... канд. юрид. наук. - Волгоград, 1999. - С. 22

¹⁹ Ўзбекистон Республикаси Конституциясига шарҳ / М.Ю.Абдусаломов, Б.Т.Акрамходжаев, Х.Р.Алимов ва бошқ. - Т., 2001. - Б. 476-477.

For example, if a witness did not sign the interrogation report due to the investigator's fault, they can confirm the correctness of their testimony in court, and a witness can confirm their participation in the case during the inspection by questioning other persons who participated in the investigative action. This practice should not be assessed as non-compliance with the procedural form of securing evidence or disregard for it. Regarding the consequences of non-compliance with the procedural form, it can be added that in such cases, the prosecutor, in accordance with the requirements of Article 385 of the Criminal Procedure Code, may return the case with his instructions to the investigator or inquiry officer for additional investigation.

Part three of Article 95 of the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan indicates compliance with the procedural form, that is, Articles 92-94 of the Criminal Procedure Code, as a condition for the admissibility of evidence²⁰. Therefore, procedural decisions and protocols must be clearly and distinctly written morphologically, stylistically, and legally, and documented in the relevant document. Since they are personal-legal documents of the application of legal norms, they must always be legal, justified, motivated, reliable, logical, literate and cultured, as well as recorded at a high level as a whole.

The requirements for procedural documents of the preliminary investigation apply equally not only to the confirming, official side of such documents, but also to their content (the conditions and procedure for the actual performance of the procedural action itself). Such requirements include the legality, validity, timeliness, comprehensiveness, completeness, and accuracy of procedural documents, as well as the high level of their compilation and literacy in recording them as documents. Both procedural actions and procedural documents must meet these requirements. However, certain requirements, depending on their direction, are of great importance for the content or form of the criminal procedural act²¹.

When collecting evidence, its procedural accuracy plays an important role in the process of proof.

The recording of factual data relevant to the case, taking into account the specifics of each type of evidence, is regulated by criminal procedure law only in the investigative action of interrogation, in particular, the procedural form in which the recording results are embodied, all the details, sequence, methods of attaching the recording results to the case, methods of their confirmation, and the procedure for their use in the process of proof.

The introduction of such rules for recording evidence serves to ensure clear reflection of evidence in case documents, obtaining reliable evidence and achieving a unified approach to recording evidence, as well as ensuring conditions for storing the obtained information. Such rules, first of all, ensure the rights and legitimate interests of individuals. Violation of the law in the process of collecting evidence leads to the loss of the legal force of the information obtained.

In our opinion, the recording of evidence is the reflection in written and electronic documents, as well as with the help of other recording means, of procedural actions aimed at collecting, verifying, and evaluating certain information about an event relevant to the case as a result of procedural and investigative actions in the process of criminal procedural activity, as well as objects and documents containing such information, in the manner prescribed by law.

In legal literature, there is a well-founded opinion regarding the tasks of criminal procedure legislation, that is, "the timely disclosure of criminal cases requires the organization of the activities of inquiry, investigation, and prosecutor's offices immediately, without leaving a trail, that is, on the basis of "hot trails"²². This contributes to the targeted and active conduct of investigative work, the fulfillment of the tasks of preventing possible crimes, eliminating the causes and conditions that contributed to their commission. The very process of solving crimes consists of a thorough analysis of the evidence collected in the case, a comprehensive examination of the circumstances related to the subject of proof, and the identification and exposure of all perpetrators.

²⁰ Иноғомжонова З.Ф., Тўлаганова Г.З. Жиноят процесси муаммолари: Ўқув қўлланма - Т., 2006. - Б. 98.

²¹ Раҳмонкулов А.Х., Миразов Д.М. Дастлабки тергов: Дарслик (тўлдирилган ва ўзгартирилган иккинчи нashри). - Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. - Б. 150.

²² Петрухин И.Л. Теоретические основы реформы уголовного процесса в России. - М.: Проспект, 2008. Ч. 2. - С. 84.

Today, the penetration of modern information technologies into every sphere of our society, in particular, into the activities of judicial and investigative bodies, requires the improvement of criminal procedure legislation. In particular, the photo and video recording of investigative and procedural actions using digital technical means, the widespread introduction of digital data and document circulation, and others.

Issues related to the legal regulation of relations related to the identification, acquisition, and recording of digital data and electronic evidence in criminal proceedings, investigative and procedural actions are causing widespread discussion²³.

One of the main problems facing judicial and investigative bodies is the emergence of a new type of evidence - "electronic evidence," as well as problems related to the identification, acquisition, and recording of these electronic evidence. Despite the widespread use of the term "electronic evidence" in current legislation, specialists have scientific views on the need to distinguish such evidence as a separate type of evidence and enshrine it in criminal procedure legislation.

According to B.A. Rajabov, citing the specific features of the concepts of "electronic information" or "electronic evidence," clarifying the terms "electronic criminal case," "electronic evidence," "digital information carrier," "electronic data," "copying electronic information," and "electronic document" in criminal procedure legislation, as well as eliminating existing gaps, will serve to improve the procedure for collecting evidence²⁴.

R.I. Okonenko, on the other hand, expressed his views on the introduction of other concepts related to "electronic information," "copying electronic information," "electronic document" and "electronic evidence"²⁵.

P.S. Pastukhov writes that in criminal procedure legislation, it is not necessary to introduce a

new type of evidence (electronic evidence) or new sources of evidence (digital information carrier), on the contrary, one of the traditional evidence indicating that "information" can be in the form of electronic information, that is, material or documentary evidence²⁶.

According to E.I. Galyapshna, when searching, identifying, receiving, recording, studying, and storing files containing digital data presented in binary form, it is necessary to adhere to the principles established by the International Organization for Standardization (IOS)²⁷.

Of course, the introduction of electronic evidence in criminal proceedings requires the development of a complete procedure for the content of this type of evidence, as well as activities related to their identification, acquisition, correct recording, and assessment.

In our opinion, in order to study the scientific views of scientists who conducted research in this area and put forward their proposals, existing problems in practice, and to find their solutions, it would be appropriate to state part two of Article 81 of the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan in the following wording:

"This information is determined by the testimony of a witness, victim, suspect, accused, defendant, expert opinion, material evidence, audio recordings, video recordings, film and photo materials, electronic data, protocols of investigative and judicial actions, and other documents."

In conclusion, it should be noted that the norm in this definition has a positive impact on working with evidence and sources of evidence during pre-investigation checks, inquiries, or preliminary investigations and court proceedings, helping to resolve many problematic situations. Moreover, their timely implementation in criminal procedure law directly benefits both practice and theory.

²³ Овсянников Д.В. Копирование электронной информации как средство уголовно-процессуального доказывания: Автореф дисс. канд. юрид. наук. - Екатеринбург, 2015. - С. 16

²⁴ Ражабов Б.А. Жиноят процессида далилларни тўплаш, текшириш ва баҳолаш: Монография. - Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2019. - Б. 246.

²⁵ Оконенко Р.И. "Электронные доказательства" и проблемы обеспечения прав граждан на защиту тайны личной жизни в уголовном процессе: сравнительный анализ законодательства Соединенных Штатов Америки и Российской Федерации: Дисс. ... канд. юрид. наук. - М., 2016. - С. 14-15; Калитин С.В. Доказательства электронные и цифровые. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://e-koncept.ru/2014/54981.htm>

²⁶ Пастухов П.С. О развитии уголовно-процессуального доказывания с использованием электронных доказательств // СПС "КонсультантПлюс", 2016. - С. 6

²⁷ Галяшина Е.И. Оценка достоверности цифровых фонограмм в уголовном процессе // Доказывание и принятие решений в современном уголовном судопроизводстве: материалы Междунар. науч.-практ. конференции, посвящ. памяти д-ра юрид. наук, проф. Полины Абрамовны Лупинской: сборник науч. трудов. - М.: Элит, 2011. - С. 140.

Odam savdosi va odam o'g'irlash jinoyatining viktimligi va jinoyatlarni sodir etuvchi shaxslarning kriminologik tavsifi

ORTIQOV Abror Nemat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Axborot-resurs markazi boshlig'i, mustaqil izlanuvchi

Annotatsia: Ushbu maqolada respublikamizda odam savdosi va odam o'g'irlash jinoyatining viktimologik tavsifi, shaxs erkinligini, daxlsizligini hamda manfaatlarini himoya qilish yuzasidan jinoyatchilikka qarshi kurashda amalga oshirilgan ishlar, qonunchilik hujjatlari qisqacha tahlil qilinib, xotin-qizlarning huquq va erkinliklar ta'minlanishi, jamiyatdagi teng huquqlilik, ayollarga nisbatan tazyiqlar mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan, soha mutaxassislari uchun jinoyatlarni jilovlash, kriminogen omillarga izchil ta'sir ko'rsatish yuzasidan taklif va mulohazalar bildirilgan, jinoyatlarning oldini olishga doir yangicha yondashuvlar ishlab chiqilgan. Aynan odam o'g'irlashning sabablari va unga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish va qay darajada muvaffaqiyatli kechishini tahlil qilish masalalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Kriminalogiya, odam savdosi, ekspluatatsiya qilish, profilaktika, ilmiy diagnoz, zo'ravonlik qurbonlari, jinoyatlarni oldini olish.

Аннотация: В статье кратко анализируется виктимологическое описание преступления торговли людьми и похищения людей в нашей республике, работа, проводимая в борьбе с этим преступлением для защиты свободы, неприкосновенности и интересов личности, законодательные документы, предоставляется информация об обеспечении прав и свобод женщин, равенства в обществе и существовании дискриминации в отношении женщин, предлагаются и комментируются для специалистов в данной области меры по пресечению преступлений, последовательному воздействию на криминогенные факторы и разрабатываются новые подходы к предотвращению преступлений. В частности, изучены вопросы устранения причин и условий, способствующих похищению людей, и проанализирована степень их успешности.

Ключевые слова: Криминология, торговля людьми, эксплуатация, профилактика, научная диагностика, жертвы насилия, предотвращение преступлений.

Hozirgi globallashuv sharoitida qonunchiligimizning eng muhim belgilari inson, uning hayoti, huquq va erkinligi, qadr-qimmati, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ozod va obod adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda demokratik huquqiy davlat qurish bilan bog'liq o'zgarishlar bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Olimlar o'rtasida hozirgi kunga qadar jinoyatlarning sabablari, unga qarshi kurash yuzasidan

aniq, yakdil fikr shakllanmagan. Yurtimizda esa so'nggi yillarda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan izchil va tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Inson manfaatlarini hamma narsadan ustun" degan oliyanob g'oyani izchillik bilan hayotga tatbiq etishni muhim vazifa sifatida belgilab berdi¹. Ammo shaxs ozodligi va erkinligining noqonuniy cheklanishi kabi

¹ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: O'zbekiston, 2018. -B.7.

jinoiy harakatlar bugungi islohotlarimizga raxna solmasdan qolmaydi. Odam savdosi, odam o'g'irlash va boshqa zo'ravonlik jinoyatlarini sodir etish sabab va shart-sharoitlarini o'rganish va tahlil qilish orqali ushbu jinoyatlarga qarshi kurash samaradorligini oshirish mumkin. Zero, jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatini ishlab chiqishda aynan jinoyatchilik sabab va unga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish bunday kurashning qay darajada muvaffaqiyatli kechishini belgilab beradi.

Kriminologiya XVII asrdan boshlab odamlarning jinoiy xulq-atvori, XIX asrning oxirlari XX asr esa – jinoyatchi shaxsi muammolari bilan shug'ullanib keladi². Jinoyatdan jabr ko'rganlar esa faqat ikkinchi jahon urushidan keyin kriminologik tadqiqotlarning obyektiga aylandi.

Shaxsning jinoiy xulq-atvorini chuqur tahlil qiladigan bo'lsak, viktimizatsiya va kriminalizatsiya ba'zan bir xil manbaga – bir xil ijtimoiy shart-sharoitlar ularni vujudga keltirishini ko'ramiz. Biroq, jinoyat sodir etilganidan so'ng jamiyatning butun e'tibori jinoyatchiga qaratiladi. Ko'pincha jabrlanuvchiga nisbatan jamiyat a'zolari ba'zan salbiy munosabatda bo'ladi, ya'ni uni qoralaydi.

Viktimologiyaga oid ma'lumotlariga ko'ra, jabr ko'rish (yoki jinoyat protsessual ma'noda jabrlanuvchi bo'lish) ehtimolining katta yo kichikligi shunchaki shaxsiy sifatlar bilan emas, eng avvalo, ular jinoyatni vujudga keltiradigan kriminologik vaziyat va viktimogen holatning tashqi omillari o'zaro ta'siri bilan belgilanadi³.

Aholining jinoyatchilikdan qo'rqishi omilini hisobga olish viktimologik tadqiqotlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Kriminologlar uning darajasini jamoatchilik fikrini o'rganishning sotsiologik usullari (so'rov o'tkazish, intervyu olish, anketa so'rovlari o'tkazish)dan foydalanish orqali aniqlashga harakat qiladilar. Bunday tadqiqotlarda respondentlarning "umumiy" jinoyatchilikni baholashini nazarda tutish kerak, zotan iqtisodiyot sohasida "oq yoqalilar" jinoyatchiligi shaxsning ongida umuman jinoyatchilik tushunchasi bilan kamdan-kam

bog'lanadi. Bu ma'noda ayollarda bunday sezgi, ayniqsa, kuchlidir.

Mazkur sohada o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari bu fikrni tasdiqlaydi. Masalan, Germaniyada ayollarning 66,7% tunda o'zini xotirjam va dadil his qiladi, hech qanday jinoiy tajovuzlardan qo'rqmaydi. Erkaklarda bu ko'rsatkich taxminan 87,6% ni tashkil etadi⁴.

Jabrlanuvchilarning ijtimoiy va psixofiziologik tavsifidan kelib chiqib, kriminal vaziyatdagi ular xulq-atvorining har xil shakllari L.V.Frank, G.A.Avanesov, D.V.Rivman, V.I.Polubinskiy, V.S.Minskaya, V.E.Kvashis va boshqa olimlarning asarlarida yoritib berilgan. Ularda yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, har qanday tarixiy davrda va barcha davlatlarda ijtimoiy va yosh guruhlari ichida ayollarga zo'ravonlik eng tipik jabrlanuvchilar deb qaraladi.

Odam savdosidan jabr ko'rgan shaxslar jabrlanuvchilarning o'ziga xos tipi hisoblanadi. Ularning real soni statistik ko'rsatkichlardan ancha ko'pdir. Bunda ayollar mutlaq ko'pchilikni tashkil etadi. Afsuski, hozirgi zamon kriminologiya fanida alohida ijtimoiy tabaqalarning viktimligini aniqlash usuli ishlab chiqilganligiga (mazkur muammo favqulodda dolzarb ahamiyatga ega ekanligiga) qaramay⁵, jinoyatlardan jabr ko'rgan shaxslarning salmog'i haqida to'g'ri va to'liq ma'lumot ega emasmiz. Buning asosiy sababi jinoyatlar tufayli jabr ko'rganlarni statistik hisobga olish va to'la tavsiflash uchun bazaning mavjud emasligidadir.

Darhaqiqat, odam savdosidan jabr ko'rganlarning ham viktimologik jihatdan o'rganish va viktimlikni oldini olish muhim ahamiyatga egadir. Jinoyatni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarni viktimologik jihatlarini uning bevosita jinoyat natijasida jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar, jabrlanuvchilarga ta'sir ko'rsatish, xususiyatlarini aniqlash, xulq-atvorini o'rganish orqali jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashdan iboratdir. Q.R.Abdurasulova "jinoyatchining jabrlanuvchini tanlashi viktimlikni belgilovchi muhim omildir. Lekin bu mazkur hodisaning birdan bir omili emas. Boshqa bir holatini, jabrlanuvchining xulq-atvori

² Rustambayev M.X. Odam savdosi: milliy qonunchilik va xorijiy tajriba. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, Monografiya. – Toshkent, 2019. – 162 b.

³ Ривман Д.В. Потерпевший от преступления: личность, поведение, оценка. –Л., 1973. С. 29

⁴ Кури Х. Исследование проблем виктимизации в Германии. Криминологические исследования в мире. –М., 1995. С. 87

⁵ Криминология. Словарь. –СПб.: "Лань", 1999. С. 16.

ham viktimlikni aniqlashda muhim ahamiyatga egadir”⁶, deb to’g’ri ta’kidlagan edi.

Aytish joizki, aynan odam savdosi va odamlarni ekspluatatsiya qilish uchun jalb qilish jinoyatida ba’zi jabrlanuvchi shaxsning o’zi ushbu jinoyat yuzaga kelishiga sabab bo’ladi yoki u ongli ravishda shunga yo’l qo’ygan bo’ladi. Yana-da aniqroq qilib aytganda, jabrlanuvchilarni aynan jinoyat jarayonida ekspluatatsiya qilinishi yoki shahvoniy maqsadlarga jalb qilinishini biladi yoxud yaxshi anglaydi, lekin ongli ravishda bunga yo’l qo’yadi. Jinoyatning sodir etilishiga ko’ra, ular faol xulq-atvorda bo’lishadi, binobarin odam savdosi va odamlarni ekspluatatsiya qilish uchun jalb qilish jinoyatini amalga oshiruvchi shaxslar bilan hamkorlik qiladi va oqibatda jinoyat jabrlanuvchisiga aylanadilar.

Ayniqsa, odam savdosidan jabr ko’rganlarning anchagina qismini bolalar tashkil etadi, ular odam savdosining ko’pgina turlaridan jabr ko’radilar. Bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli fakultativ protokol (2000-yil 25-mayda BMT Bosh Assambleyasi qarori bilan qabul qilingan)ning 8-moddasida ta’kidlanishicha, 1. Ishtirokchi davlatlar jinoyat odil sudlovning barcha bosqichlarida mazkur Protokol bilan man qilingan amaliyotda jabrdiyda bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun tegishli chora-tadbirlar qabul qilishlari lozim, xususan:

(a) jabrdiyda bolalarning zaifligini tan olish va ularning maxsus ehtiyojlarini tan olish uchun protsessual tartiblarni soddalashtirish va bola yoshiga moslashtirish, jumladan, ularning guvohlar sifatidagi ehtiyojlarini hisobga olish;

(b) jabrdiyda bolalarni ularning huquqlari, roli va hajmi, ish jarayoning vaqti va bosqichlari hamda ular ishlarining dispozitsiyasi to’g’risida xabardor qilib borish;

(c) qayerda jabrdiyda bolalarning manfaatlariga ta’sir qiladigan masalalar ko’rilsa, ish protsessida ularga o’z qarashlari, ehtiyojlari va tashvishlari bayon qilinishi va e’tiborga olinishi uchun milliy qonunning protsessual qoidalariga muvofiq tarzda imkoniyat yaratish;

(d) jabrdiyda bolalarga sud protsessining boshidan oxirigacha tegishli xizmat yordamini ko’rsatish;

(e) jabrdiyda bolalarning shaxsiy ma’lumotlarini, belgilarini tegishli himoyalash va jabrdiyda bolalarni aniqlashga olib kelishi mumkin bo’lgan ma’lumotlar noo’rin tarqalib ketishini oldini olish uchun milliy qonunga muvofiq chora-tadbirlar ko’rish;

(f) jabrdiyda bolalar hamda ularning oilalari va ular nomidan tegishli ishlarda qatnashayotgan guvohlarga nisbatan po’pisa va o’ch olish qasdidan saqlash va xavfsizliklarini ta’minlash;

(g) jabrdiyda bolalarni ishlar dispozitsiyasini zaruratsiz orqaga tashlashni oldini olish, kompensatsiya bilan ta’minlash amrnomalari yoki farmonlarning ijrosini amalga oshirish.

2. Ishtirokchi davlatlar jabrdiydalarning haqiqiy yoshining noaniqligi jinoyat tergov-surishtiruv ishlarini, jumladan, jabrdiydaning yoshini aniqlashga qaratilgan surishtiruv ishlari bo’yicha tashabbusga barham bermasligini kafolatlashlari lozim.

3. Ishtirokchi davlatlar mazkur Protokolda tasvirlangan jinoyatlarning jabrdiyda bolalarga nisbatan jinoyat odil sudlov tizimi tomonidan muomala-munosabati bolalarning oliy manafatlari xizmat qilishiga asosiy e’tiborni qaratishni kafolatlashlari lozim.

4. Ishtirokchi davlatlar mazkur Protokolga muvofiq ta’qiqlangan qilmishlarning jabrdiydalari bilan ishlaydigan shaxslar uchun tegishli o’qish, xususan, huquqiy va psixologik trening (o’qitish) bilan ta’minlash uchun chora-tadbirlar ko’rishlari lozim.

5. Ishtirokchi davlatlar tegishli ishlarga jalb qilingan shaxslar va yoki tashkilotlarning xavfsizligi va sharafiga hamda bunday qilmishlarning jabrdiydalari himoyalash va rehabilitatsiya qilish uchun chora-tadbirlar ko’rishlari lozim.

6. Mazkur modda ayblanuvchining adolatli va xolis sud protsessiga nisbatan huquqlariga putur yetkazishi yoki zid bo’lishiga yo’l qo’ymaydi⁷.

Respublikamizda odam savdosi jinoyatining oldini olish va yuqoridagi dasturning va qarorning

⁶ Абдурашулова Қ.Р. Криминология. –Т.: Адолат, 2007. Б.81-82

⁷ Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенцияга доир, Болалар савдоси, болалар фохшабозлиги ва болалар порнографиясига тааллуқли факультатив протоколига (2000 йил 25 май) қўшилиш ҳақида”ги 2008 йил 11 декабрдаги қонуни. //Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008, № 50, 492-модда.

ijrosini ta'minlash maqsadida birinchi o'rinda fuqarolarni chet ellarda ish bilan ta'minlash bilan shug'ullanuvchi litsenziyasiz tashkilotlarning faoliyati hamda jismoniy shaxslar tomonidan ish bilan ta'minlash borasidagi e'lonlarni qonuniyligi ustidan nazoratni kuchaytirish, noqonuniy bunday faoliyat bilan shug'ullangan shaxslarga jazo chorasini kuchaytirish, bunday jinoyatlarni kelib chiqishini oldini olishda aholining huquqiy madaniyati va ongini yuqori bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega ekanligini nazarda tutib, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir vazifalarni yanada jadallashtirish lozim. Bu borada huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bilan mahalla o'rtasidagi hamkorlik ijobiy samara beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollarga nisbatan zo'rvonlik jahondagi barcha mamlakatlarga, ularning siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotidan qat'iy nazar xos illat hisoblandi. Hattoki, eng rivojlangan mamlakatlarda ham shunday holatlarni kuzatish mumkin. Masalan, Yaponiyada 59 foiz, AQShda 40 foiz, Kanadada 25 foiz ayol jismoniy zo'rvonlik qurboni bo'ladi. Sotsiologlar xulosasiga ko'ra, 60 million ayol turli shakldagi diskriminatsiya qilish, tahqirlash va zo'rvonlik qurboni bo'ladi. Afrika mamlakatlari (Tanzaniya 60 foiz), Janubiy Osiyo (60 foiz), Lotin Amerikasi (57 foiz)da ayollarga nisbatan zo'rvonlik kuchayib borayotganligini ko'rish mumkin⁸.

Fikrimizcha, sud va ma'muriy protsedura(idoralar ko'p hollarda quyidagi yo'llar bilan odam savdosi jabrlanuvchilarining talablariga javob be-

rishi uchun harakat qilishi kerak:

a) ayniqsa og'ir jinoyatchilik holatlarida, shuningdek jabrlanuvchilar tomonidan ma'lumotlar so'ralganida, ularga o'zlarining roli va hajmi to'g'risidagi, sud majlisining o'tkazilish va borish muddatlari va ular ishlarining ko'rib chiqish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim qilish;


b) jinoiy odil sudlovning tegishli milliy tizimiga muvofiq va jabrlanuvchilarning shaxsiy manfaatlariga ta'sir etuvchi, ayblanuvchilarga nisbatan zarar keltirilmagan hollarda jabrlanuvchilarning fikr va istaklarini bayon qilish, ko'rib chiqish imkoniyatini sud majlisining tegishli bosqichlarida ta'minlash;

v) butun sud majlisi davomida jabrlanuvchilarga tegishli yordam ko'rsatish;

g) jabrlanuvchilar uchun ularning ma'lumotlariga ko'ra minimal noqulayliklar, zarur bo'lganda ularning shaxsiy hayotini himoya qilish va ularning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek ularning oilalari xavfsizligi hamda u tomondan va uning himoyasidagi guvohlarni qo'rqitishdan hamda qasos olishdan himoya qilishga qaratilgan choralarni ko'rish;

d) jabrlanuvchilarga kompensatsiya to'lash to'g'risidagi qarorlarni bajarish⁹.

Huquqbuzarliklardan jabrlanganlarga yetkazilgan zararni undirish va reabilitatsiya markazlariga joylashtirish choralari ko'rish. Ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat ishi bo'yicha moddiy, jismoniy yoki ma'naviy zarar ko'rgan shaxsga yetkazilgan zararni qoplash choralari ko'rilishi shart.



⁸ Бақоева Ф. Аёллар ҳуқуқлари ва эркинликлари. –Т.: Адолат, 2002. Б.100

⁹ "Инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва жиноятчиликка қарши кураш соҳасидаги халқаро келишувлар ҳамда БМТнинг тавсиялари" ҳужжатларининг тўплами. 1-нашр. – М; 1989. Б. 112-113.

Odam savdosi jinoyatining mohiyati va qonuniyatlarini to'liq ochib berish zarurati "odam savdosini sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar", "odam savdosidan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar"ning tavsifini ham yoritishni taqozo etadi.

Bir guruh olimlarning (Q.R.Abdurasulova, I. Ismailov, I.Yu.Fazilov) talqini bilan aytganda, "jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar – o'zining turmush tarzi va xatti-harakatlari bilan jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini buzayotgan yoki boshqa insonlarning erkinligi, sog'ligi va ma'naviyatini xavf ostida qoldirayotgan yoxud boshqa sabab va sharoitlar bois jinoyat sodir etishga moyil xulq-atvoriga ega bo'lgan jismoniy shaxslardir"¹⁰.

Odam savdosini sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar toifasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- fuqarolarni Davlat chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tishiga ko'maklashish bilan g'ayriqonuniy ravishda shug'ullanuvchilar;
- muqaddam sudlanganlar;
- fohishaxona, bangixona, qimorxona, ishratxona saqlovchilar va qo'shmachilar.

Odam savdosini sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarning tavsifini yoritishda quyidagi tahlillar

ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, odam savdosi bo'yicha tergov qilingan jinoyat ishlarini kompleks o'rganish natijalarining ko'rsatishicha, odam savdosini sodir etgan shaxslarning oilaviy ahvoriga ko'ra:


Ma'lumotiga ko'ra, 68% ni umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lganlar, 32% ni o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga ega bo'lganlar tashkil etmoqda¹¹.

Sudlanganlik holatiga ko'ra: muqaddam sudlanmaganlar – 56%, sudlanganlar – 44% ni tashkil etib, muqaddam sudlangan aybdorlarning 45,4 % – JK 135-moddasi (odam savdosi), 27,2% – 131-moddasi (qo'shmachilik qilish yoki fohishaxona saqlash), 9% – 223-moddasi (qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zRga kirish), 18% – JK boshqa moddalarida ko'rsatilgan jinoyatni sodir etganligi uchun ilgari javobgarlikka tortilganlardir.

Yoshiga ko'ra, odam savdosini sodir etganlarning:

- 12% ni 20-25 yoshgacha bo'lganlar;
- 16% ni 26-30 yoshgacha bo'lganlar;
- 24% ni 31-36 yoshgacha bo'lganlar;
- 20% ni 36-40 yoshgacha bo'lganlar;
- 12% ni 41-45 hamda 46-50 yoshgacha bo'lganlar tashkil etgan.

Muqaddam sudlanganlar toifasi



¹⁰ Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik I.Ismailov, Q.R.Abdurasulova, I.Yu.Fazilov. -T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. 179 b.

¹¹ Axmedov D.K. Odam savdosi jinoyatlarining barvaqt profilaktikasi. Uslubiy qo'llanma. - Toshkent.: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2025. 13 B.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, odam savdosi jinoyatini sodir etganlar – o'rta ma'lumotlilar (68%), 31-36 yoshgacha bo'lganlar (24%), oilalilar (44%), ayollar (88%) tashkil etgan.

Tahlillardan ma'lum bo'lishicha, Farg'ona viloyatida odam savdosi jinoyatini sodir etgan shaxslarning jinsiga ko'ra, 88 % ni ayollar, 12 % ni erkaklar tashkil etadi¹².

– Jamoat xavfsizligini ta'minlash, guruhiiy qonunbuzarliklar va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish bo'yicha 14 ta (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar) "Hudud metodikasi"ni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish,

– Sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklarning asl omillarini "ilmiy diagnoz" asosida aniqlash va "ilmiy diagnoz xulosasi" bilan "E-jamoat havfsizligi" axborot tizimi orqali rasmiylashtirish tartibini joriy qilish belgilab berildi.

Xulosa o'rnida aytganda, shaxs erkinligiga qarshi kurashda qonunchilik normalarga ham bir qancha o'zgartirishlar kiritish lozim: Odam o'g'irlash jinoyatlari bilan o'z maqsadlariga erisha olmagan jinoyatchilar jabrlanuvchini odam savdosi qurboniga aylantirishlari mumkinligini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 135-moddasida sanksiyasini og'irlashtirish va ushbu moddaning ikkinchi qismiga "takroran yoki xavfli residivist tomonidan yoxud ilgari ushbu kodeksning 136–137-moddalarida nazarda tutil-

gan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan sodir etilsa", "Xomilador ayolga nisbatan sodir etilsa" sifatida yangi normalarni kiritilishi hamda jinoiy jazolarni og'irlashtirilishi maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Respublikamizda shaxs ozodligi va erkinligiga qarshi jinoyatlarning sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni o'rganish, tahlil qilish va aniqlashda huquq-tartibot organlari xodimlariga yaqindan yordamlashib kelayotgan ilmiy-amaliy tadqiqot muassasalari, markazlari va alohida ishchi guruhlar faoliyat yuritib kelmoqda. Shunday ilmiy-amaliy tadqiqot va ta'lim maskanlaridan biri O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti hisoblanib, respublikamizdagi kriminogen vaziyati og'ir bo'lgan quyi bo'g'in sanalgan mahallalarda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish, sodir etilayotgan har bir jinoyatning sabablarini aniqlash, "ilmiy diagnoz" qo'yish orqali jinoyatchilik ko'rsatkichlarini prognozlash, mahalla jinoyatchiligini barvaqt oldini olish, huquqbuzarliklar profilakasi, aholining huquqiy savodxonligini mustahkamlash yo'nalishida soha vakillaridan iborat professor-o'qituvchilar ishtirokida tizimli ishlar olib borilmoqda, shuni alohida ta'kidlash joizki, kelgusi davrda ham yuqoridagi qonunchilik normalarini mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi ayovsiz kurashish orqali shaxs huquq va erkinliklarini ta'minlash Yangi O'zbekistonning bosh maqsadlaridan biri bo'lib qolishi lozim.



¹² Axmedov D.K. Odam savdosi jinoyatlarining barvaqt profilaktikasi. Uslubiy qo'llanma. - Toshkent.: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2025. 13 B.

Qizil va sariq toifadagi mahallalarda narkojinoyatlarga qarshi kurashish: muammo va yechimlar

PAYZIYEV Abbas Muhammadovich

Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra dotsenti,
y.f.b.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsia: Ushbu maqolada qizil va sariq toifaga kiruvchi mahallalarda narkojinoyatlarga qarshi kurashishning dolzarb muammolari va echimlari tahlil qilingan. Xususan, profilaktika ishlarining samaradorligi pastligi, idoralararo hamkorlik va raqamli muhit orqali jinoyatlarning kengayishi kabi omillar yoritilgan. Shuningdek, mahalla institutlari faoliyatini kuchaytirish va narkojinoyatlarga qarshi kurashish qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: mahalla, "qizil", "sariq" va "yashil" toifa, umummilliy harakat, giyohvandlik, noqonuniy, messenjer, Profilaktika, narkojinoyat, kiberjinoyat, videoanalitika.

Annotatsiya. В данной статье проанализированы актуальные проблемы и пути решения борьбы с наркопреступлениями в махаллях красной и жёлтой категорий. В частности, освещены такие факторы, как низкая эффективность профилактической работы, межведомственное сотрудничество и рост преступности через цифровую среду. Также изложены практические предложения и решения, направленные на усиление деятельности институтов махалли и повышение правового сознания среди молодёжи.

Ключевые слова: махалля, "красная", "жёлтая" и "зелёная" категории, общенациональное движение, наркомания, незаконная, мессенджер, профилактика, наркопреступность, киберпреступность, видеоаналитика.

Bugungi globallashuv sharoitida narkojinoyatlar jahon miqyosidagi eng xavfli transmilliy jinoyatlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu turdagi jinoyatlar nafaqat alohida shaxs salomatligiga, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, ma'naviy muhiti va jamoat xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi. Shu jihatdan, narkojinoyatlarga qarshi kurashish masalasi har bir davlat uchun ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda jinoyatchilikka qarshi kurashish, ayniqsa, narkojinoyatlarining oldini olish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mahallalarni xavf darajasiga ko'ra "qizil", "sariq" va "yashil" toifalarga ajratish orqali manzilli profilaktika tizimi joriy etildi. Bu esa muammoli hududlarni aniqlash, ularda huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish va

tegishli chora-tadbirlarni samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Ayniqsa, "qizil" va "sariq" toifadagi mahallalarda narkojinoyatlar xavfi yuqori bo'lib, bu erlarda ijtimoiy muhitning murakkabligi, ishsizlik darajasining yuqoriligi, yoshlar o'rtasida bo'sh vaqtni samarali tashkil etish imkoniyatlari-ning cheklanganligi va shu kabi bir qator omillar mazkur muammoni yanada keskinlashtirmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali narkotik moddalarning yashirin tarqalishi, onlayn savdo va targ'ibot usullarining kengayib borayotgani ushbu sohada yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Mazkur mavzuning dolzarbligi yana shundaki, narkojinoyatlar ko'p hollarda boshqa turdagi jinoyatlar — o'g'irlik, fribgarlik, talonchilik, zo'rvonlik va boshqa kiberjinoyalar kabi huquqbuzarliklar bilan uzviy

bog'liq holda namoyon bo'ladi. Bu esa jamiyatda kriminogen vaziyatning og'irlashuviga olib keladi. Shuning uchun ham narkojinoyatlarga qarshi kurashish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bilan cheklanib qolmasdan, balki mahalla instituti, ta'lim muassasalari, oila va keng jamoatchilikning hamkorligini talab etadi. Bu borada davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev o'zlarining 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi: "Endi narkojinoyatlarga qarshi kurashishni umummilliy harakatga aylantirib, jamiyatda bu illatga murosasiz muhit yaratamiz. Yurimizdagi har bir bola, har bir yosh – bizning farzandimiz, ularni giyohvandlik changaliga tashab qo'yishga aslo yo'l qo'ymaymiz!"

Giyohvandlikni tag-tomiri bilan butkul yoqotish, yoshlarimizda kuchli ma'naviy-ruhiy immunitetni shakllantirish bo'yicha barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar qilamiz"¹ degan edilar.

Shu nuqtai nazardan, "qizil" va "sariq" toifadagi mahallalarda narkojinoyatlarga qarshi kurashishning mavjud muammolarini aniqlash, ularni ilmiy tahlil qilish va samarali echimlar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalasi ko'payib borayotganligini quyidagi statistik ma'lumotlarning o'zi ham ko'rsatib turibdi. Jumladan, 2025 yilda respublikada huquq-tartibot idoralarning sa'y-harakatlari natijasida giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog'liq 15 412 ta jinoyat va 1 956 ta ma'muriy huquqbuzarlik aniqlangan. Eng ko'p jinoyatlarni giyohvandlik vositalarini o'z iste'moli uchun saqlash (JK 276-modda – 41 foizi yoki 6 387 tasi), qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish (JK 273-modda – 36 foizi yoki 5 577 tasi) va taqiqlangan ekinlarni etishtirish (JK 270-modda – 13 foizi yoki 1 968 tasi) holatlari tashkil etgan. Narkojinoyatlarning 53 foizi Toshkent shahri (3

986 ta), Farg'ona (2 178 ta) va Toshkent (1 954 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Tezkor tadbirlar natijasida 3 tn 413 kg narkotik, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasiga chek qo'yilib, iste'molga chiqib ketishining oldi olingan².

Giyohvandlik vositalarining eng ko'pini "ga-shish" (48 foiz yoki 1 tn 470 kg) va "opiy" (27 foiz yoki 819 kg) moddalari tashkil etgan.

2025 yilda 14 ta yashirin narkolaboratoriyalar aniqlanib, ularda saqlangan jami 75 kg giyohvandlik vositalari va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar musodara qilingan.

Narkojinoyat sodir etgan 11 049 nafar shaxslar javobgarlikka tortilgan. Achinarlisi, jinoyatchilarning 59 nafarini maktab o'quvchilari, 124 nafarini talabalar tashkil etgan³.

Qizil va sariq toifaga kiritilgan mahallalarda narkojinoyatlar sonining ortib borishi, avvalo, qator tizimli muammolarning saqlanib qolayotganligi bilan izohlanadi. Xususan:

1. Ishsizlik darajasining yuqoriligi, aholi daromadlarining pastligi ayrim shaxslarni noqonuniy daromad olish uchun narkojinoyatlarga qo'l urishiga sabab bo'lmoqda.

2. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni sport, ta'lim va kasb-hunarga jalb qilishdagi kamchiliklar ularning salbiy muhit ta'siriga tushish xavfini oshirmoqda.

3. Ayrim oilalarda farzand tarbiyasiga etarli e'tibor berilmasligi, ijtimoiy nazoratning pasayishi yoshlarning deviant xulq-atvoriga moyilligini kuchaytirmoqda.

4. Mahalla va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasidagi hamkorlikning etarli emasligi, profilaktika ishlarida tizimli yondashuvning yo'qligi, ma'lumot almashinuvining samarasizligi jinoyatlarni barvaqt aniqlash imkoniyatlarini cheklamoqda.

5. Profilaktika ishlarining formal xarakterga ega bo'lib qolayotgani, ayrim hollarda profilaktika tadbirlari chuqur tahlil va manzilli yondashuvsiz, faqat rasmiyatchilik uchun o'tkazilmoqda.

6. Messenjerlar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa onlayn kanallar orqali narkotik vositalarning ya-

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2025 йил 26 декабрдаги Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига мурожаатномаси. @president_uz.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-may kunidagi "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-73-sonli farmoni. Qonuni. <https://lex.uz>.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narkotiklar va yuqotap qurollarni nazorat qilish agentligi. www.ncdc.uz

shirin aylanmasi kengayib, jinoyatlarni aniqlash va isbotlash jarayonini murakkablashtirmoqda.

7. Jamoatchilik nazorati pastligi, aholi tomonidan huquqbuzarliklarga nisbatan befarqlik holatlari jinoyatlarning yashirinligini saqlab qolishga xizmat qilmoqda.

8. Ta'lim muassasalarida giyohvandlikning zararli oqibatlari bo'yicha targ'ibot ishlarining tizimli o'tkazilmasligi, yoshlarda huquqiy ong va immunitetni shakllantirishga to'sqinlik qilmoqda.

9. Barvaqt aniqlash va monitoring tizimlarining etarli darajada rivojlanmaganligi, risk guruhidagi shaxslarni o'z vaqtida aniqlash, ular bilan individual ishlash mexanizmlarining zaifligi jinoyatlarning oldini olish imkoniyatini kamaytirmoqda.

10. Ayrim mahallalarda "mahalla etiligi" tomonidan davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanilmayotgani ham narkojinoyatlarning oldini olishda salbiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, hududlarda o'rnatilgan kuzatuv kameralaridan asosan jinoyat sodir etilgandan keyin foydalanilayotgani, ya'ni ularning profilaktik va barvaqt ogohlantirish vositasi sifatida to'liq ishga solinmayotgani kuzatilmoqda. Bu holat esa jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlash va oldini olish imkoniyatlarini cheklab, mahallalarda, jumladan, narkojinoyatlarning sodir etilishiga sharoit yaratib bermoqda⁴.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Buning uchun, eng avvalo, mahallalar kesimida bandlikni ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kasb-hunarga o'qitish va qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish orqali mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga ega mutaxassislarni tayyorlash lozim. Bundan tashqari, ijtimoiy himoya choralari kuchaytirish, kam ta'minlangan oilalarni manzilli qo'llab-quvvatlash va ularning iqtisodiy barqarorligini oshirish ham jinoiy faoliyatga moyillikni kamaytirishga xizmat qiladi.

2. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishdagi kamchiliklarni bartaraf etish

maqsadida mahallalarda zamonaviy sport maydonlari, kutubxonalar va o'quv markazlarini kengaytirish, bepul yoki imtiyozli to'garaklar (sport, IT, kasb-hunar)ni tashkil etish, kasbga yo'naltiruvchi amaliy kurslarni joriy etish, shuningdek, "BMTning Jinoyatchilik va giyohvandlikka qarshi boshqarmasi tomonidan amalga oshirilayotgan "Line Up Live Up" dasturi yanada kengaytirish orqali yoshlarni ijobiy muhitga jalb etish va salbiy ta'sirlardan himoya qilish maqsadga muvofiqdir.

3. Oila institutini mustahkamlash, ota-onalarning tarbiyaviy mas'uliyatini oshirish hamda farzand bilan doimiy va samarali muloqotni yo'lga qo'yish. Shu bilan birga, ta'lim muassasalarida tarbiya ishlarini kuchaytirish, psixologik xizmatni rivojlantirib va mahalla-maktab-oila hamkorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

4. Mahalla va huquq-tartibot idoralari o'rtasida uzluksiz va samarali hamkorlik mexanizmlarini yo'lga qo'yish zarur. Profilaktika ishlarini yagona tizim asosida tashkil etish, mas'ul idoralar o'rtasida aniq vazifalarni belgilash va ularning ijrosini doimiy nazorat qilish muhim ahamiyatga ega.

5. Profilaktika tadbirlarini real holatini o'rganish asosida, har bir hudud va mahalla xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirish lozim. Shu bilan birga, muammolarni aniqlashda statistik ma'lumotlar, sotsiologik tahlil va amaliy monitoringdan foydalanish, faqat hisobot uchun emas, balki aniq natijaga yo'naltirilgan ish olib borish muhim ahamiyatga ega.

6. Kibermakonda nazorat va monitoring tizimlarini takomillashtirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarni zamonaviy axborot texnologiyalari va maxsus dasturlar bilan ta'minlash zarur. Shu bilan birga, raqamli dalillarni to'plash, saqlash va tahlil qilish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash ham muhim ahamiyatga ega.

7. Mahallalarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish hamda har bir insonni huquqbuzarliklarga befarq bo'lmaslikka chorlash muhim ahamiyatga ega.

8. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida targ'ibot va profilaktika ishlarini rejali, uzluksiz va samarali tashkil etish zarur. O'quvchi va talabalar qo'shimcha ravishda maxsus ma'ruzalar, seminarlar va interaktiv tadbirlar tashkil etish.

⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 05.01.2026 yildagi "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-sonli Qarori. <https://lex.uz>.

9. Mahallada xavf guruhiga kiradigan shaxslarni aniqlashga qaratilgan ishlarni tizimli tashkil etish, ushbu guruhidagi shaxslar bilan individual ishlash bo'yicha aniq dasturlar ishlab chiqish, ularga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish va reabilitatsiya mexanizmlarini takomillashtirish kerak.

10. Mahalladagi kamera tizimlaridan real vaqt rejimida aqlli videoanalitika (AI Video Analytics) tizimlari orqali monitoring olib borish, shubhali holatlarni tezkor aniqlash va tegishli choralar ko'rish mexanizmlarini joriy etish. Shu bilan birga, "mahalla ettiligi" a'zolarining mas'uliyati va malakasini oshirish, ularni zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega⁵.

Xulosa qilib aytganda, qizil va sariq toifaga kiruvchi mahallalarda narkojinoyatlarga qarshi kurashish tizimida mavjud muammolar — oilaviy nazoratning susayishi, profilaktika ishlarining formal tus olishi, idoralararo hamkorlik va axborot

almashinuvining etarli emasligi, shuningdek, raqamli muhit orqali jinoyatlarning kengayib borayotgani — ushbu sohada kompleks yondashuvni talab etayotganini ko'rsatmoqda. Shu munosabat bilan, barvaqt aniqlash va manzilli profilaktika tizimlarini joriy etish, sun'iy intellektga asoslangan zamonaviy kuzatuv va monitoring vositalaridan samarali foydalanish, "mahalla ettiligi" faoliyatini kuchaytirish hamda jamoatchilik nazoratini oshirish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Ayni paytda, yoshlar o'rtasida huquqiy ong va mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ta'lim muassasalari va oila instituti rolini mustahkamlash orqali narkojinoyatlarning ildiziga barham berish mumkin. Umuman olganda, mazkur muammoni hal etish faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas, balki jamiyatning barcha qatlamlari hamkorligi, zamonaviy texnologiyalar va samarali boshqaruv mexanizmlari uyg'unligi asosida amalga oshirilganda kutilgan natijalarga erishish mumkin.



⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 03.11.2025 yildagi "Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-207-sonli Farmoni. <https://lex.uz>.

Oilaviy zo'rvonlikka qarshi kurashish: qiyosiy-huquqiy tahlil va Markaziy Osiyo davlatlari tajribasi

SHOMIRZAEV Saxodulla Xasanboevich

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Dastlabki tergov va surishtiruv kafedrası dotsenti, yu.f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsia: Ushbu maqolada oilaviy (maishiy) zo'rvonlikka oid jinoyatlar uchun javobgarlik, bunday turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish va ularning sodir etilishining oldini olish, oilaviy zo'rvonlik uchun javobgarlik bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari qonunchiligi tahlili bilan bog'liq masalalar yoritib berilgan bo'lib, ushbu sohada qonunchilikni takomillashtirishga doir asoslangan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: zo'rvonlik, maishiy, bola huquqlari, tazyiq, yarashuv, jabrlanuvchi, himoyachi, sudlanuvchi, dalillar majmui, jinoiy javobgarlik, majburiy jamoat ishlari, ozodlikdan mahrum qilish.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы ответственности за преступления, связанные с домашним насилием, борьба с такими преступлениями и их предотвращение, анализируется законодательство стран Центральной Азии об ответственности за домашнее насилие, а также предлагаются обоснованные меры по совершенствованию законодательства в этой области.

Ключевые слова: насилие, домашнее, права ребенка, преследование, примирение, жертва, адвокат защиты, подсудимый, совокупность доказательств, уголовная ответственность, обязательные общественные работы, лишение свободы.

Respublikamizda oxirgi yillarda ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish ishlarini yanada kuchaytirish choralari ko'rilmogda, chunki yillar davomida bu zaif qatlamning ayrim vakillari huquqlari poymol bo'lishiga yo'l qo'yib kelingan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 3 martdagi "Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik holatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to'g'risida"gi PF-33-son Farmoni e'lon qilinganligi ushbu yo'nalishda olib borilayotgan siyosatning uzviy davomi va yangi huquqiy asosi sifatida namoyon bo'ldi. Unga ko'ra, mamlakatimizda ayollar va bolalar huquqlarini ishonchli ta'minlash, ularni har qanday tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish hamda jamiyatda bunday holatlar-

ga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining mazkur yo'nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtirgan holda samarali yo'lga qo'yish uchun bir qator asosiy maqsadlar belgilab olindi. Ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik holatlarining oldini olish tizimini takomillashtirish orqali ularning sonini keskin qisqartirish, shuningdek bunday holatlarga uchragan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish, oila va xotin-qizlar maskanlarida nikohlanuvchilarni "maishiy zo'rvonliksiz baxtli oilaviy hayotga tayyorlash" maxsus kurslarida bepul o'qitish bilan qamrab olish darajasini 2026 yilda 50 foizga, 2027 yilda 60 foizga va 2030 yilda 100 foizga yetkazish hamda ushbu kurslar sifat va ta'sirchanligini tubdan oshirish kabilar shular jumlasidandir.

Shu bilan birga, davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida shunday deyiladi:

“Xotin-qizlarning qadr-qimmatini joyiga qo'yish, farzandlarimizni himoya qilish – qadim-qadimdan erkaklar uchun sha'n va g'urur masalasi bo'lib kelgan. Lekin jamiyatimizda ayollar va bolalarning turli zo'rvonliklarga uchrayotgani buyuk tarix, yuksak ma'naviyat va ma'rifatga ega bo'lgan, oilani muqaddas deb biladigan xalqimizga aslo yarashmaydi.

So'nggi ikki yilda ayollar va bolalarga nisbatan oilaviy zo'rvonlik holatlari bo'yicha 2 mingdan ziyod jinoyat aniqlangan.

Hech qachon unutmaylik, oilaviy zo'rvonlik – bu faqat oilaning ichki ishi emas, bu – butun jamiyatga tegishli masala. Ayolni o'z muammosi bilan yolg'iz tashlab qo'yishga hech kimning haqqi yo'q!

Ayollar va bolalarga nisbatan zo'rvonlikning oldini olish bo'yicha respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi barcha davlat idoralari va keng jamoatchilikni safarbar qilgan holda, bunday salbiy holatlarga barham berish bo'yicha samarali ishlaydigan tizim yaratsin”¹.

Aslida ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish yuzasidan 2023 yilda qabul qilingan qonun bilan katta qadam qo'yilib, ushbu yo'nalishdagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilangan edi.

O'zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi 2023-yil 11-apreldagi 829-son Qonuniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga oilaviy (maishiy) zo'rvonlik jinoyatiga oid yangi modda (126-1) kiritildi. Oilaviy (maishiy) zo'rvonlikning jinoyat sifatida e'tirof etilishi va Jinoyat kodeksiga kiritilishi, avvalambor, BMT Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish bo'yicha qo'mitasining O'zbekiston hukumati-ga “oiladagi zo'rvonlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi, sud tomonidan jinoiy javobgarlik-

ka tortish va jinoyatning og'irlik darajasiga mos ravishda tegishli jazo choralari qo'llashni ta'minlash maqsadida amaldagi qonunchilik, jumladan, Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va “Xotin-qizlarni tazyiqlar va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi qonunga o'zgartirishlar kiritish” to'g'risidagi tavsiyasini amaliyotga joriy qilish maqsadida amalga oshirildi².

Mamlakatimizda bolalarning huquqlari, erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini oiladagi tazyiq va zo'rvonlikdan ishonchli himoya qilishning institutsiyaviy hamda huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar yana davom ettirilib, O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-oktabrdagi “Oilaviy (maishiy) zo'rvonlikdan himoya qilish choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida”gi O'RQ-978-son Qonuni bilan bolalarga nisbatan oilaviy (maishiy) zo'rvonlik tarzidagi ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoiy qilmishlar sodir etganlik uchun javobgarlik belgilandi³ hamda Jinoyat kodeksiga va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga bolalarga nisbatan oilaviy zo'rvonlik sodir etganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi, shuningdek Jinoyat-protsessual kodeksiga oilaviy (maishiy) zo'rvonlik bilan bog'liq ishlar yuzasidan yarashuv to'g'risidagi ariza faqat sud muhokamasi bosqichida berilishi mumkinligini belgilovchi o'zgartirishlar kiritildi. Albatta, qonunchilikdagi bunday ijobiy o'zgarishlar oilalardagi ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilashga, oilada bolalarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikning oldini olishga, shuningdek mamlakatimizning bolalar huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq xalqaro indekslardagi o'rnini yaxshilashga xizmat qiladi.

Ushbu yo'nalishda ayrim o'zbek tadqiqotchilari tomonidan monitoring olib borilib, unda oilaviy zo'rvonlikka qarshi kurashishda mavjud muammolar yaqqol ko'zga tashlangan, unda qayd etilgan ma'lumotlar va raqamlar qaysi jihatlariga e'tiborni kuchaytirish kerakligini ko'rsatadi.

Ushbu jamoatchilik monitoringi davomida aniqlangan ba'zi raqamlar:

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

² T.Tursunov, A.Salaev, A.E'zoxonov. Oilaviy (maishiy) zo'rvonlik jinoyatlarini sudlarda ko'rish amaliyoti. Toshkent, 2024.

³ O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 21 oktyabrdagi “Oilaviy (maishiy) zo'rvonlikdan himoya qilish choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida”gi O'RQ-978-son Qonuni. <https://www.lex.uz/docs/7165389>.

1. Har 147 ta oilaviy zoʻravonlik hodisasining bittasi jabrlanuvchining vafoti bilan tugagan.

2. Oilaviy (maishiy) zoʻravonlik jinoyati boʻyicha sudlarda koʻrib chiqilgan har ikkinchi jinoyat ishi taraflarning yarashuvi munosabati bilan tugatilgan. Garchi yarashuv instituti olijanob maqsadlarda joriy qilingan boʻlsa-da, Jinoyat protsessi nazariyasiga koʻra, “yarashganlik munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod etish uchun eng muhim asoslaridan biri sudlanuvchi yangi jinoyat sodir etmasligi uchun yetarli asoslar boʻlishi kerak”. Sudlanuvchi va jabrlanuvchi oʻrtasida yarashishga erishish jarayoni qonunchilikda tartibga solinmagan vaziyatda, jabrlanuvchi sudlanuvchiga nisbatan oʻjiz holatda boʻlganligi sababli ular oʻrtasidagi yarashuv bosim ostida erishilgan boʻlishi xavfi mavjud.

3. Har 4 ta oilaviy zoʻravonlikning 3 tasi 31-50 yoshlardagi shaxs tomonidan va har 10 ta oilaviy zoʻravonlikning 6 tasi ishsiz shaxs tomonidan sodir qilingan. Tadqiqotimiz davomida aniqlangan ushbu raqamlar oilaviy zoʻravonlik sodir etish xavfi yuqori boʻlgan aholi qatlamini va oilaviy zoʻravonlikni oldini olish boʻyicha manzilli choratadbirlarda kimlar bevosita ishtirok etishi kerakligini koʻrsatadi.

4. Har 25 ta oilaviy zoʻravonlik ishining faqat bittasida jabrlanuvchining himoyachisi ishtirok etgan. Tahlil qilingan modda boʻyicha jabrlanuvchilarning aksariyat qismi xotin-qizlar ekanligini hamda ushbu toifadagi ishlarning aksariyati yarashganlik munosabati bilan tugatilganligini inobatga olsak, xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini yetarli darajada taʼminlanmaganligini hamda ular uchun odil sudlov erishimlilik yetarli darajada emasligi namoyon boʻladi⁴.

Odil sudlovni ushbu yoʻnalishda takomillashtirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2025-yil 23-iyundagi “Oila va xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlashga oid qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilganligi munosabati bilan Oliy sud plenumining ayrim qarorlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi 15-son qarori qabul qilinib⁵, mazkur hujjat asosida sud er va xotinning yoki

ulardan birining arizasiga koʻra, yarashish uchun berilgan muhlatni jiddiy asoslar mavjud boʻlgan hollarda qisqartirishga va ishini bu muhlat tugagunga qadar koʻrishga haqli ekanligi, agar arizada shaxsning oilaviy (maishiy) zoʻravonlikdan jabrlanganligi asos sifatida koʻrsatilib, bu haqda sud hujjati taqdim etilsa, sud yarashish uchun berilgan muhlatni qisqartirishi va ishini koʻrishga tayinlashi belgilandi va bu borada Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar boʻyicha qonunchilikni qoʻllash amaliyoti toʻgʻrisida”gi 2011-yil 20-iyuldagi 06-sonli qaroriga oʻzgartirishlar kiritildi⁶. Bundan tashqari, mazkur qaror 15¹-band bilan toʻldirilib, ushbu band quyidagi tahrirdan iborat boʻldi:

Oʻzbekiston Respublikasi Oila kodeksi 40-moddasining toʻrtinchi qismiga koʻra, sud oilaviy (maishiy) zoʻravonlikdan jabrlangan shaxsning talabiga koʻra yarashish uchun muhlat tayinlamaydi. Nikoh erkak va ayolning oʻzaro birgalikda yashash va oila qurishga qaratilgan ittifoqi hisoblanishi sababli oilaviy (maishiy) zoʻravonlik holati faqatgina er yoki xotin tomonidan sodir etilgan boʻlishi lozimligi eʼtiborga olinsin. Bunda oilaning boshqa aʼzolari tomonidan zoʻravonlikka yoʻl qoʻyilganligi yarashish uchun muhlat tayinlamaslikka asos boʻlmaydi.

Yarashish uchun muhlat tayinlamasdan nikohdan ajratish haqidagi talab oilaviy (maishiy) zoʻravonlikdan jabrlangan shaxsning daʼvo arizasida, shuningdek sud muhokamasi davomida taqdim etilgan yozma arizasida koʻrsatilishi mumkin.

Bundan tashqari, mazkur bandda oilaviy (maishiy) zoʻravonlik deb — Oʻzbekiston Respublikasi Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksining 59²-moddasi va Jinoyat kodeksining 126¹-moddasida nazarda tutilgan qilmishlar tushunilishi, shaxsning oilaviy (maishiy) zoʻravonlikdan jabrlanganligi maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi yoki jinoyat ishi boʻyicha chiqarilgan sud hujjati bilan tasdiqlanishi bois, sud bunday holatni tekshirishda maʼmuriy huquqbuzarlik yoki jinoiy qilmish yuzasidan qonuniy kuchga

⁴T.Tursunov, A.Salaev, A.E'zozxonov. Oilaviy (maishiy) zoʻravonlik jinoyatlarini sudlarda koʻrish amaliyoti. Toshkent, 2024

⁵ Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2025 yil 23 iyundagi “Oila va xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlashga oid qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilganligi munosabati bilan Oliy sud plenumining ayrim qarorlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi 15-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/7615148>

⁶ Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar boʻyicha qonunchilikni qoʻllash amaliyoti toʻgʻrisida”gi 2011 yil 20 iyuldagi 06-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/2414114>.

kirgan sud hujjati mavjud yoki mavjud emasligini aniqlashi hamda uni talab qilib olishi lozimligi, muqaddam O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 59²-moddasi va Jinoyat kodeksining 126¹-moddasida nazarda tutilgan qilmish sodir etilgandan so'ng taraflar oilaviy munosabatlarni davom ettirib, keyinchalik ulardan biri sudga nikohdan ajratish haqidagi da'vo ariza bilan murojaat qilgan va oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan jabrlangan taraf muddat tayinlamasdan nikohdan ajratish talabini ilgari surgan bo'lsa, sud er-xotin birga yashagan davrida zo'ravonlik holati qayta sodir bo'lgan yoki bo'lmaganligini tekshirishi va bu holatga boshqa dalillar majmui bilan baho berishi lozimligi aks etgan.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, Jinoyat kodeksiga kiritilgan 126¹-modda (oilaviy (maishiy) zo'ravonlik) ushbu yo'nalishda muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan mulk, ta'lim olish, sog'liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qilish, mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish, xuddi shuningdek, ushbu shaxslar sog'lig'ining yomonlashuviga olib kelgan tarzda ularning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni qo'rqitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo'yish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, shuningdek basharti boshqa jinoyat alomatlari mavjud bo'lmasa, bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yuz oltmish soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi⁷.

So'nggi yillarda oilaviy (maishiy) zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlarida qonunchilik sezilarli darajada o'zgardi, chunki mintaqada bu boradagi holatlar soni oshib ketgan. Ayniqsa, O'zbekiston va Qozog'iston bu borada qat'iy qadamlar qo'yib, zo'ravonlik uchun alohida jinoiy javobgarlik belgiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 126¹-moddasining 1-2-qismlarida nazarda tutilgan "Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik" jinoyati tarkibi berishi

uchun ma'muriy preyarditsiya belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 59²-moddasi "Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik" deb nomlanib, ushbu modda bo'yicha jarima yoki 15 sutkagacha ma'muriy qamoq jazosi belgilanadi. Agar shaxs ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin takroran zo'ravonlik qilsa yoki og'irlashtiruvchi holatlar bo'lsa, bu jinoiy javobgarlikni yuzaga keltiradi va aybdorga nisbatan jarima, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilish kabi muqobil jazolar nazarda tutilgan.

2024-yil aprel oyida Qozog'istonda "Saltanat qonuni" nomi bilan mashhur bo'lgan yangi qonun qabul qilindi. Qozog'istonning sobiq milliy iqtisodiyot vaziri Kuandik Bishimbaev ustidan o'tgan shov-shuvli sud jarayonida oiladagi zo'ravonlik uchun jazoni kuchaytiruvchi qonun tasdiqlandi. U janjal paytida rafiqasi Saltanat Nukenovani vahshiylarcha o'ldirganlikda ayblangan. 2023-yilda Qozog'iston huquq-tartibot organlariga oilaviy zo'ravonlik haqida 99 mingdan ortiq xabar kelib tushgan, natijada 69 nafar ayol va 7 nafar bola halok bo'lgan⁸. Bu borada Qozog'iston qonunchiligining o'ziga xos xususiyati shundaki, oilaviy zo'ravonlik bo'yicha alohida modda kiritilmasdan, shunday harakatlar uchun jinoiy javobgarlik Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksining 108¹-modda (Salomatlikka qasddan yengil shikast yetkazish) hamda 109¹-modda (Do'pposlash) bilan kvalifikatsiya qilinadi. Endilikda Qozog'istonda oiladagi har qanday jismoniy zo'ravonlik, hatto u yengil bo'lsa ham, ma'muriy emas, balki jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Qirg'iziston esa Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib "Oilaviy zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunni 2003-yilda qabul qilgan, 2017-yilga kelib esa qonunning yangi tahriri qabul qilingan. Qirg'iziston Respublikasi Jinoyat kodeksining 177-moddasi "Oilaviy zo'ravonlik" deb nomlanib, bu modda bo'yicha tuzatish ishlari, jamoat ishlari yoki 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan. Shuningdek, ushbu yo'nalishda Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksda ham tegishli moddalar mavjud bo'lib, ko'pincha "himoya orderi" mexanizmidan keng foydalaniladi. Statistika ko'ra, Qirg'iz Res-

⁷ N.Abduraimova. Oilaviy zo'ravonlik qanday oqibatlariga olib keladi? 06.10.2025. https://uza.uz/uz/posts/oilaviy-zoravonlik-qanday-oqibatlariga-olib-keladi_767376

⁸ В Казахстане принудили закон о криминализации домашнего насилия. <https://www.gazeta.uz/ru/2024/04/13/kazakhstan/>

publikasida 2019-2023-yillarda qayd etilgan jinsiy jinoyatlar bilan bog'liq 2000 dan ortiq murojaatlar yuzasidan jinoyat ishlari qo'zg'atilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu murojaatlarning katta qismi qaysidir tomondan oilaviy zo'ravonlik bilan bog'liq⁹. 2025-yil boshidan beri Qirg'izistonda oilaviy zo'ravonlik holatlari 35 foizga oshgan. Ushbu ma'lumotlar ochiq ma'lumotlar portalida joylashtirilgan materiallarda keltirilgan. Ichki ishlar organlarining elektron jurnalida 10.164 ta oilaviy zo'ravonlik holatlari qayd etilgan, bu 2024-yilning shu davriga nisbatan 2631 taga ko'p.

Tojikistonda ham 2013-yilda "Oiladagi zo'ravonlikning oldini olish to'g'risida"gi alohida qonun qabul qilingan bo'lib, ushbu yo'nalishdagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik mavjud. Tojikiston Respublikasi Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksning

93¹-moddasi (Oiladagi zo'ravonlik to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish) ga asosan, bunday turdagi huquqbuzarliklar uchun jarima yoki ma'muriy qamoq jazosi berilishi mumkin. Lekin Tojikiston Respublikasi Jinoyat kodeksida hozircha "oilaviy zo'ravonlik" degan alohida modda yo'q. Bunday holatlar kodeksning umumiy moddalari, masalan, 110-moddasida (Salomatlikka qasddan og'ir shikast yetkazish) va 117-moddasida (Qiyinash) nazarda tutilgan jinoyatlar bilan malakalanadi.

Turkmanistonda oilaviy zo'ravonlik masalasi boshqa qo'shni davlatlarga qaraganda kamroq yoritiladi va qonunchilikda bu borada alohida maxsus moddalar mavjud emas. Oilaviy zo'ravonlik holatlari Turkmaniston Respublikasi Jinoyat kodeksining umumiy moddalari (masalan, badanga shikast yetkazish, do'pposlash yoki sog'liqqa zarar yetkazish) asosida ko'rib chiqiladi.

**Quyida oilaviy zo'ravonlik uchun javobgarlik belgilanishi yuzasidan
Markaziy Osiyo davlatlar qonunchiligi qiyosiy tahlil qilingan jadval keltirilgan:**

Davlat	Alohida moddaning mavjudligi	Kodeks va modda	Javobgarlik turi
O'zbekiston	Ha	JK 126 ¹ MJtK 59 ²	ma'muriy va jinoiy
Qozog'iston	Ha	JK 108 ¹ , 109 ¹	faqat jinoiy
Qirg'iziston	Ha	JK 177	jinoiy
Tojikiston	Qisman	MJtK 93 ¹	asosan ma'muriy
Turkmaniston	Yo'q	Umumiy moddalar	Umumiy jinoiy

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagicha xulosaga kelish mumkin. Oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish borasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari qonunchiligiga nisbatan mukammalroq bo'lsa-da, uni yanada takomillashtirish, xotin-qizlar va bolalar huquqlarini ta'minlash, oilaviy zo'ravonlikdan jabr ko'rganlar himoyasini kuchaytirish yuzasidan bir qator takliflar kiritish maqsadga muvofiq.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 51-moddasida himoyachi ishtirok etishi shart bo'lgan hollar belgilangan

bo'lib, unga 8⁵ kichik band sifatida "oilaviy zo'ravonlikka oid jinoyatlardan jabrlanganlar ishlari bo'yicha", shuningdek mazkur turdagi jabrlanuvchilarni tergov va sud jarayonlarida advokat yordamidan bepul foydalanish imkoniyati bilan ta'minlash maqsadida, ularni davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar toifasiga kiritish.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 62-bobi asosida yarashev to'g'risidagi ishlar bo'yicha ish yuritishda prokuratura, tergov (surishtiruv organlari va sud idoralari oilaviy zo'ravonlik holatlariga sinch-

⁹ A.T.Осмоналиева. Домашнее насилие в Кыргызстане как правовая и социальная проблема // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2024. №6-4 (93).

kovlik bilan qarashlari, taraflardan yarashuvning ixtiyoriyligiga, biron-bir tazyiq, ya'ni yarashuv majburiy bo'lmaganligiga, yetkazilgan zararni bartaraf etish choralarini ko'rilganligiga aniqlik kiritishlari kerak.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 126¹-moddasida xotinga, erga, sobiq xotinga, sobiq erga, bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilishi nazarda tutilgan bo'lib, bu oiladagi qaynona, qaynota,

qaynuka (qaynaka), qaynsingil (qaynopa) kabilarni qamrab olmagan. Jamiyatda esa aynan mana shu shaxslar bilan bog'liq oilaviy zo'ravonlik holatlari ham ko'plab uchraydi va ular boshqa umumiy moddalar bilan malakalanadi.

Mazkur takliflar atroflicha ko'rib chiqilib, qonunchilikni yanada takomillashtirilishi oilaviy zo'ravonlik holatlarining kamayishiga hamda jinoyat subyektlarining mazkur turdagi qilmishlarni sodir etishining oldini olish uchun zamin yaratadi, deb hisoblaymiz.



Корыстно-насильственная делинквентность несовершеннолетних в урбанизированной среде: латентность как фактор выбора жертвы

ТАЛЛИБАЕВ Умиджон Шергазиевич

Доцент кафедры “Обеспечения общественной безопасности” Университета общественной безопасности Республики Узбекистан, д.ф.ю.н. (PhD), доцент

ТУРСУНОВА Сабина Равшановна

Доцент кафедры “Обеспечения общественной безопасности” Университета общественной безопасности Республики Узбекистан, д.ф.ю.н. (PhD), доцент

Annotatsia: В статье исследуются особенности корыстно-насильственной делинквентности несовершеннолетних в условиях урбанизации и цифровизации современной городской среды. На основе статистических данных по Республике Узбекистан и городу Ташкенту обосновывается высокая криминологическая значимость урбанизированных территорий, характеризующихся концентрацией преступности, анонимностью социальных взаимодействий и ослаблением механизмов неформального социального контроля.

Ключевые слова: корыстно-насильственная преступность, несовершеннолетние, урбанизация, латентность преступности, выбор жертвы, цифровая среда, молодежная делинквентность

Annotatsiya. Maqolada urbanizatsiya va zamonaviy shahar muhitining raqamlashtirilishi sharoitida voyaga yetmaganlarning g'arazli-zo'ravonlik delinkventligiga xos xususiyatlar tadqiq etiladi. O'zbekiston Respublikasi va Toshkent shahri bo'yicha statistik ma'lumotlar asosida jinoyatchilikning yuqori darajasi, ijtimoiy munosabatlarning anonimligi hamda norasmiy ijtimoiy nazorat mexanizmlarining zaiflashuvi bilan tavsiflanadigan urbanlashgan hududlarning yuksak kriminologik ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: g'arazli-zo'ravonlik jinoyatchiligi, voyaga yetmaganlar, urbanizatsiya, jinoyatchilikning latentligi, jabrlanuvchini tanlash, raqamli muhit, yoshlar delinkventligi.

В последние десятилетия урбанизация выступает одним из ключевых факторов трансформации преступности, включая её молодежный сегмент. По состоянию на 3 февраля 2026 года уровень урбанизации в Республике Узбекистан достиг 51%¹. В Стратегии развития “Узбекистан–2030” предусмотрено повышение данного показателя до 60% к 2030 году². Согласно прогнозам Организации Объединён-

ных Наций, к 2050 году доля населения страны, проживающего в городах с численностью свыше 50 тыс. человек, увеличится с 43,8% в 2025 году до 54,6%³.

Одновременно с ростом уровня урбанизации наблюдается существенная концентрация преступности в крупных городах. Так, в городе Ташкенте в 2021 году было зарегистрировано 25 543 преступления, в 2022 году — 22 791,

¹ Further tasks in the sphere of urbanization and housing construction considered // <https://president.uz/en/lists/view/8900>.

² К 2030 году увеличится уровень урбанизации // https://uza.uz/ru/posts/k-2030-godu-uvelichitsya-uroven-urbanizacii_657107.

³ Более половины узбекистанцев к середине XXI века будут жить в больших городах – ООН // <https://uz.kursiv.media/2025-12-10/bolee-poloviny-uzbekistanczev-k-seredine-xxi-veka-budet-zhit-v-bolshih-gorodah-onn/>.

в 2023 году — 21 728, в 2024 году — 32 106, а в 2025 году — 30 600 преступлений⁴. Таким образом, на столицу приходится почти пятая часть всех преступлений, совершаемых в стране, что свидетельствует о высокой криминологической значимости урбанизированной среды и необходимости её самостоятельного научного анализа.

Концентрация населения в крупных городах сопровождается не только расширением экономических и социальных возможностей, но и формированием специфической криминогенной среды, характеризующейся анонимностью социальных контактов, высокой мобильностью, сегментацией городского пространства и ослаблением неформального социального контроля.

Указанные положения находят отражение в научных подходах P.J. Patel, который отмечает, что стремительное ослабление механизмов неформального социального контроля в условиях модернизации способно приводить к росту девиантного поведения в современном обществе⁵. Под воздействием модернизационных процессов традиционные социальные институты и структуры — семья, родственные связи, локальные сообщества — утрачивают часть своих регулятивных функций, что снижает уровень повседневного социального надзора и, как следствие, может способствовать увеличению преступности.

В таких условиях традиционные механизмы общинного надзора, присущие менее урбанизированным территориям, постепенно утрачивают регулятивную функцию, что особенно заметно в поведении несовершеннолетних и молодежи, находящихся на этапе формирования социальных норм и моделей поведения.

В городе Ташкент в 2021 году 248 в 2022 году 378, в 2023 году 414, в 2024 году 524 несовершеннолетних совершили преступления. В тоже время это в среднем больше на 36% чем в других регионах страны⁶.

Современный город создаёт парадоксальную ситуацию: при формально более развитой

системе правоохранительных институтов повседневное взаимодействие становится менее персонализированным, а вероятность социального вмешательства со стороны окружающих — ниже.

Исследователи подчёркивают, что плотность населения сама по себе не выступает однозначным фактором снижения преступности, особенно если она сопровождается пространственной фрагментацией городской среды, цифровизацией коммуникаций и расширением так называемых “полуприватных” зон — дворовых территорий, транзитных пространств, коммерческих локаций с ограниченным уровнем наблюдения. В подобных условиях увеличение численности населения не обязательно приводит к усилению социального контроля, поскольку контакты остаются эпизодическими и анонимными.

Вместе с тем эмпирические исследования демонстрируют более сложную, нелинейную зависимость между плотностью застройки и уровнем насильственной преступности. Так, в исследовании, проведённом на материале города Коламбус (США), установлено, что при низком уровне коммерческой и жилой плотности её рост ассоциируется с увеличением риска убийств и тяжких насильственных посягательств. Однако после достижения определённого порогового значения дальнейшее повышение плотности связано уже со снижением указанных форм насилия⁷. Данный эффект интерпретируется авторами как результат усиления неформального социального контроля, повышения наблюдаемости пространства и увеличения числа потенциальных “способных защитников” в городской среде.

Для молодежных групп именно такие пространства нередко становятся средой апробации девиантных практик, поскольку они сочетают доступность потенциальных жертв с относительной безопасностью для самих правонарушителей, обусловленной ограниченной наблюдаемостью и низкой вероятностью вмешательства третьих лиц. В подобных условиях

⁴ Number of registered crimes (by region) // <https://stat.uz/en/official-statistics/crime-and-justice>

⁵ Patel, P. (2020). Declining Social Control and the Rising Deviant Behaviour in India. *Sociological Bulletin*, 69, 17 - 33. <https://doi.org/10.1177/0038022919899000>.

⁶ The number of identified individuals aged 16-17 who have committed crimes // <https://stat.uz/en/official-statistics/crime-and-justice>

⁷ Browning, C., Byron, R., Calder, C., Krivo, L., Kwan, M., Lee, J., & Peterson, R. (2010). Commercial Density, Residential Concentration, and Crime: Land Use Patterns and Violence in Neighborhood Context. *Journal of Research in Crime and Delinquency*, 47, 329 - 357. <https://doi.org/10.1177/0022427810365906>.

формируется ситуация, в которой риск разоблачения воспринимается как минимальный, а возможность быстрого совершения противоправного деяния — как достаточно высокая.

Дополнительным фактором выступает трансформация процессов социализации молодежи в условиях цифровой городской среды. Коммуникация всё чаще переносится в онлайн-пространство, где формируются временные, слабо институционализированные связи, не сопровождаемые устойчивыми социальными обязательствами и механизмами контроля. Это упрощает установление контактов, в том числе с незнакомыми лицами, и потенциально снижает субъективное восприятие риска ответственности.

Согласно данным аналитических обзоров цифровой аудитории (Кериос), в Узбекистане насчитывается около 33,9 млн мобильных подключений и 33,1 млн пользователей интернета. При этом порядка 14,1 млн человек активно используют социальные сети, из которых около 33,5% составляют лица в возрасте 18–24 лет. Число пользователей Instagram оценивается примерно в 14,1 млн⁸. Дополнительно отмечается высокая популярность мессенджера Telegram: количество аккаунтов, ассоциированных с Узбекистаном, достигает около 47 млн, а доля пользователей составляет приблизительно 73,4% населения; среднее время использования приложения оценивается примерно в 67 минут в день⁹.

Указанные показатели свидетельствуют о глубокой цифровой вовлечённости молодежи и формировании коммуникационной среды, которая при определённых условиях может использоваться не только для легитимного социального взаимодействия, но и как инструмент организации и реализации противоправных действий.

Это облегчает установление контактов, которые могут быть использованы в противоправных целях, и снижает субъективное

восприятие риска наказания. В результате насильственные корыстные преступления, совершаемые молодежью, всё чаще приобретают не спонтанный, а ситуативно-сконструированный характер, отражая адаптацию делинквентного поведения к особенностям урбанизированной среды.

В существующих криминологических исследованиях подростковая корыстно-насильственная делинквентность традиционно анализируется через призму возрастной импульсивности, недостаточной социализации, группового давления и ограниченной способности несовершеннолетних к долгосрочному прогнозированию последствий своих действий. Такие ученые как Van Hoorn J., Crone E., Van Leijenhorst L.¹⁰, Siraj R., Najam B., Ghazal S.¹¹, Xu L.¹² В своих работах отмечают что в подростковом возрасте повышенная импульсивность сочетается с особенно сильной зависимостью от группы сверстников, именно данная связка делает рисковое и девиантное поведение более вероятным..

При этом значительно меньше внимания уделяется вопросу о том, каким образом молодые правонарушители осуществляют выбор конкретной жертвы и какие поведенческие критерии лежат в основе этого выбора.

На этом фоне в криминологическом поле постепенно обозначается феномен преступлений, ориентированных на предполагаемую латентность (*underreporting-driven crime*), при которых ключевым фактором становится не столько ценность имущества, сколько ожидание того, что потерпевший по различным причинам не обратится в правоохранительные органы или откажется от активного правового реагирования.

Латентность в данном случае выступает не последствием преступления, а одним из элементов его планирования, формируя своеобразную “ситуационную нишу”, в которой риск уголовного преследования воспринимается

⁸ Digital 2026: Uzbekistan \ \ <https://datareportal.com/reports/digital-2026-uzbekistan>

⁹ Рейтинг стран по количеству пользователей Телеграмм: статистика // <https://sky.pro/wiki/python/ponimaem-funktsiyu-enumerate-v-python-na-primere-koda/>

¹⁰ Van Hoorn, J., Crone, E., & Van Leijenhorst, L. (2017). Hanging Out With the Right Crowd: Peer Influence on Risk-Taking Behavior in Adolescence. *Journal of Research on Adolescence*, 27, 189–200. <https://doi.org/10.1111/jora.12265>.

¹¹ Siraj, R., Najam, B., & Ghazal, S. (2021). Sensation Seeking, Peer Influence, and Risk-Taking Behavior in Adolescents. *Education Research International*. <https://doi.org/10.1155/2021/8403024>.

¹² Xu, L. (2023). The Effect of Peer Influence on Risk-taking Behavior in Adolescents. *Lecture Notes in Education Psychology and Public Media*. <https://doi.org/10.54254/2753-7048/22/20230239>.

правонарушителями как существенно сниженный. Ученый Blakemore S. в своих работах уделяет внимание на то что “подростки ставят общественное признание выше рисков для здоровья и страха быть пойманными, поэтому склонность к риску и импульсивность становятся для них адаптивным и рациональным выбором на пути к взрослению и обретению независимости”¹³.

Несмотря на актуальность данного явления, в современной криминологии наблюдается недостаток эмпирических исследований, специально посвящённых анализу того, каким образом несовершеннолетние используют социальную, психологическую или коммуникативную уязвимость потенциальных жертв как

инструмент минимизации вероятности ответственности.

Имеющиеся работы, как правило, сосредоточены на характеристиках личности правонарушителя либо на общих показателях латентной преступности, но редко рассматривают взаимосвязь между стратегией выбора жертвы и субъективной оценкой риска разоблачения со стороны подростковых групп.

Таким образом, мы считаем, что существует устойчивая поведенческая модель насильственных корыстных преступлений, совершаемых молодежью, основанная на ожидании не обращения потерпевших в правоохранительные органы и использовании этого ожидания как фактора снижения воспринимаемого риска уголовной ответственности.



¹³ Blakemore, S. (2018). Avoiding Social Risk in Adolescence. *Current Directions in Psychological Science*, 27, 116 - 122. <https://doi.org/10.1177/0963721417738144>.

Yuqori sud bosqichida taraflar tengligini ta'minlash masalalari

KUCHKAROV Xayrulla Zikirillayevich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
"Jinoiy-huquqiy fanlar" kafedrası professori,
yuridik fanlar doktori, dotsent

Kirish. Respublikamizda sud-huquq sohasida olib borilayotgan islohotlar jarayonida sud ishini yuritishning barcha bosqichlarida tomonlarning tortishuvi prinsipining lozim darajada ishlashini tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilning 16-yanvardagi "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-11-sonli Farmonida¹ aynan sud ishlarini yuritishda tortishuv va taraflarning tengligi tamoyillarini to'laqonli ro'yobga chiqarish, sudlarning xolisligini amalda ta'minlash maqsadida prokuratura organlari tizimida Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashish bo'yicha ixtisoslashgan prokurorlar korpusi tashkil etilishi uning asosiy vazifalari sifatida belgilandi.

Prezidentimiz ta'biricha, odil sudlovni ta'minlashda himoyachiga berilgan huquqlar ham qayta ko'rib chiqilib, yetmaydigan vakolatlar beriladi. Nima uchun advokatga jinoyat ishi qo'zg'atish va tugatish haqidagi qarordan nusxa berilmaydi? Bunday holatda tenglik haqida qanday gapirish mumkin? Endi sudlarga jinoyat ishi faqat ayblov xulosasi bilan emas, balki himoyachining fikri bilan birga qabul qilinadi. Ayblanuvchining himoyachidan voz kechishi bo'yicha har bir holat prokuror, sud tomonidan sinchiklab o'rganiladigan tizim joriy qilinadi².

Asosiy qism.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 25-moddasiga asosan, birinchi instansiya sudining sud majlisida, shuningdek ishlar yuqori sudlarda ko'rilayotganda ish yuritish taraflarning o'zaro tortishuvi asosida amalga oshirilsa, mazkur kodeksning 51-moddasida apellyatsiya, kassatsiya, taftish instansiyalari sudi tomonidan ko'riladigan ishlarda himoyachining ishtirok etishi shartligi belgilab qo'yilgan³. Tadqiqot ishida sudlarda himoyachining ishtiroki bilan bog'liq amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilingan, shu bilan birga, qiyosiy-huquqiy tahlil, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llanilgan.

Jinoyat ishlarini ko'rishda birinchi instansiya sudining o'zida sudlanuvchining huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga harakat qilinadi. Biroq sud tomonidan qabul qilingan hujjat sudlanuvchining huquqlariga zid bo'lgan hollarda mazkur ish apellyatsiya, kassatsiya, taftish va takroran taftish tartibida ko'rib chiqilish mumkin. Bu o'rinda sudlangan shaxslarga yuqori malakali yuridik yordam ko'rsatishning, uning huquqlarini ro'yobga chiqarishning samarali vositalaridan biri bo'lib qonuniy kuchga kirgan hukm, qaror va ajrimlar ustida shikoyat qilish imkoniyati hisoblanadi.

Jinoyat protsessida ayblov va himoya taraflarini suddagi ishtiroki yuzasidan bir qancha fikrlar mavjud. Xususan, M.Rustambayev va bir qator olimlar jinoyat ishlarini sudda yuritishda taraflar-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilning 16-yanvardagi "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-11-sonli Farmoni (www.lex.uz)

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston xalqiga yo'llangan murojaatnomasi. <https://President.uz>

³ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. (www.lex.uz).

ning tengligi va tortishuv prinsiplariga tayanadigan odil sudlov sud hokimiyatining asosiy shakli hisoblanadi. Haqqoniylik va adolatga asoslanib, buzilgan huquqni tiklab bergan sudlovagina, odil sudlov bo'la oladi⁴-degan fikrni ilgari suradi.

D.M.Mirazov yozishicha, himoyalani sh huquqini amalga oshirishning asosiy mexanizmi bu advokatning yordamidan hech qanday cheklavlarsiz foydalanishdir, ushbu huquqni cheklash esa odil sudlov ta'minlanmasligiga tenglashtiriladi⁵.

B.S.Salomov, himoyachi, himoya qilish funksiyasini amalga oshiruvchi protsess ishtirokchisidir⁶ – deb ta'kidlaydi.

Advokat (himoyachi) – tergov va sud jarayonining barcha bosqichlarida ayblanuvchini himoya qilish, jabrlanuvchining manfaatlarini himoya qilish va maslahatlar, tavsiyalar berish orqali professional yuridik yordam ko'rsatuvchi yurist⁷.

S.A.Abduqaxxorov yozishicha, himoyachi – o'ziga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish yoxud rad etish to'g'risidagi masala qo'yilayotgan shaxs, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, mahkum, oqlangan shaxs aqli norasolik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan hamda jinoyat sodir etganidan keyin ruhiy holatini buzilishi yuzaga kelgan, shuningdek jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmagan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularga zarur yuridik yordam ko'rsatish vakolatiga ega bo'lgan shaxsdir⁸.

Shuni ta'kidlash lozimki, himoyachi sudlangan, oqlangan, uning qonuniy vakili va boshqa shaxslarning topshirig'iga muvofiq yoki sudlangan, oqlangan shaxsning roziligi bilan quyi sudning qaroriga nisbatan yuqori instansiya (apellyatsiya, kassatsiya,) sudiga shikoyat berishi mumkin. Bunda advokat bilan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuziladi. Mazkur shartnomaga muvofiq, advokatlik tuzilmasi advokatga mazkur ish yuritishda ishtirok etishi uchun order beradi.

B.Jamolovning fikricha, JPKning 25-moddasida bayon etilgan sud ayblov yoki himoya tarafida turmaydi hamda ularning biron-bir manfaatini ifodalamasligi to'g'risidagi tortishuv prinsipining shartini ta'minlash maqsadida, JPKda mavjud bo'lgan ayrim ayblovga xos bo'lgan funksiyalarni sud vakolatidan chiqarib tashlash lozim⁹.

Yuqori instansiya sudlarida beriladigan shikoyatni tayyorlashda advokat nafaqat jinoyat ishining barcha tafsilotlarini bilishi, balki uning fikricha hukm, ajrim (qarorlarning) noto'g'ri chiqarilganligini tasdiqlovchi isbot va dalillarga ega bo'lishi talab qilinadi. Chunki mazkur bosqich birmuncha murakkab hisoblanadi.

Apellyatsiya, kassatsiya, taftish shikoyatida advokat tomonidan sud chiqarilgan hukm, ajrim va qarorning qonuniyligi va asoslilikiga nisbatan munosabati to'liq ifodalanishi lozim. Demak, advokat tomonidan jinoyat ishini to'liq tahlil qilish asnosidagi mantiqiy fikrlarga, qonun buzilish holatlarini aniqlashda muayyan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Bu jihatlar esa, o'z navbatida, sudgacha va sud jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlashga hamda jinoyat ishi bo'yicha noqonuniy hukm, ajrim va qarorlar chiqarilganligini aniqlashga imkon beradi.

M.Obidov ta'biricha, sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ayblovchi hamda himoyalovchi taraflarning amaldagi tengligi asosan ta'minlangan esa-da, jinoyat ishlarini qayta ko'rish jarayonida taraflar o'rtasida biroz tengsizlik mavjudligi ko'zga tashlanadi¹⁰.

B.A.Rajabov yozishicha, himoyachi jinoyat protsessining teng huquqli tomoni sifatida himoya qilish uchun mustaqil ravishda dalillarni aniqlash va to'plash, sud jarayonida ishtirok etishga oid protsessual vakolatlaridan to'la-to'kis foydalanish lozim, buning uchun albatta JPK da bunga to'siq vazifasini o'tashi mumkin bo'lgan bo'shliqlarni to'ldirish maqsadga muvofiqdir¹¹.

Modomiki, davlat ayblovchisi, himoyachi,

⁴ Всеобщая декларация прав человека и национальная система защиты прав человека в Узбекистане. Рустамбаев М.Х., Саидов А.Х. и др. – Т.: "Узбекистан", 2009. – С. 123.

⁵ Mirazov D.M. Harbiy protsessual huquqi institutini tashkil etish va takomillashtirish muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti. 2023. – B. 18-19.

⁶ Саломов Б.С. Адвокатская деятельность, её гарантии и социальная защита адвокатов в Республике Узбекистан (опыт и проблемы). Диссертация докт. юрид. наук. – Ташкент, 2005. – Б. 219.

⁷ Синецкий О.В. Адвокатура как институт правовой помощи и защиты: Учебное пособие. – Х.: Право, 2008. – Б.16-17.

⁸ Abduqahhorov S.A. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida himoya huquqini ta'minlash. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent. 2022 y. – B. 22.

⁹ Jamolov B. Tortishuv – odil sudlovni amalga oshirish prinsipi sifatida. // O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Axborotnomasi. – Toshkent, 2007. - № 2.- 10 b.

¹⁰ Obidov M. Davlat ayblovchisi va himoyachi. // O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Axborotnomasi. – Toshkent, 2010. - № 3.- 47 b.

¹¹ Rajabov B.A. Jinoyat protsessida dalillarni to'plash, tekshirish va baholash. Monografiya. – Toshkent: IIV Akademiyasi, 2019. – B. 34.

sudlanuvchi, voyaga yetmagan sudlanuvchining qonuniy vakili, jamoat himoyachisi, shuningdek, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari sud majlisida taraflar sifatida ishtirok etadi va dalillar taqdim etish, ularni tadqiq qilishda qatnashish, shikoyatlar kiritish, ishning to'g'ri hal etilishi uchun ahamiyatga molik har qanday masala bo'yicha o'z fikrini bildirishda teng huquqlardan foydalanadi.

Biroq, jinoyat ishlarini taftish tartibida takroran ko'rishga sud raisi hamda prokuror tomonidan kiritilgan protest asos bo'ladi. Holbuki, himoyachi bunday huquqqa ega emas. Sud raisi yoki prokurorga ishni taftish tartibida takroran qayta ko'rish uchun protest kiritish vakolati berilgan. Bino-barin, ayblov va himoya o'rtasidagi bunday muammoni hal etish uchun, bizningcha, qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritish lozim.

O.M.Madaliev fikricha, albatta, sud muhokamasining teng huquqli ishtirokchilari bo'lishi lozim bo'lgan qonun bo'yicha shikoyat berish huquqiga ega bo'lgan protsess ishtirokchilarining qonun bo'yicha protest kiritish huquqiga ega bo'lgan ishtirokchilari bilan teng huquqliligini buzadi¹².

Darhaqiqat, bu notenglik aynan taftish tartibida takroran qayta ko'rish quyi turuvchi sudlarni chiqargan qarorlariga nisbatan e'tiroz bildirish va qonunga muvofiqligini ta'minlash borasida kiritiladigan shikoyat berish va uni albatta, ko'rib chiqilishi kerakligi namoyon bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, qonun yo'li bilan sud muhokamasining teng huquqli ishtirokchilari bo'lishi lozim bo'lgan, qonun bo'yicha shikoyat berish huquqiga ega bo'lgan protsess ishtirokchilarining taftish tartibida takroran ko'rish bo'yicha bergan shikoyatini yuqori turuvchi sud, xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatida taftish tartibida takroran qayta ko'rilishi shartligi qonunda imperativ tarzda belgilab qo'yilsa, ayni muddao bo'lar edi.

Advokat (himoyachi) jinoyat ishini suddan talab qilib olish va protest kiritish huquqiga ega emas. Sud qarorlariga kiritilgan protest yuqori sudning hay'at majlislarida jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi. Protsessning boshqa ishtirokchilari, jumladan, hi-

moyachi bergan shikoyatga esa, sudning hay'atida ish ko'rilmadan turib ham protest kiritish uchun asos yo'qligi haqida javob yuborilishi mumkin. Bu esa, jinoyat protsessida taraflarning teng huquqqa ega ekanligi haqidagi Jinoyat-protsessual kodeksining 25-moddasida ko'rsatilgan prinsipga zid.

Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq prokurorga ham, advokatga ham bir xilda isbotlash majburiyati yuklatilgan. Shunday bo'lsa-da, ba'zi hollarda yuqori sudga ayrim guvohlar so'roq qilinmagani ro'kach qilinib, sud qarori bekor etilishi lozimligi haqidagi prokuror protesti keltirilishi ham tomonlarning teng huquqliligiga zid. Prokuror o'zi isbotlash majburiyatiga ega bo'lgan holda, birinchi instansiya sudiga guvohni so'roq qilishga taqdim etmasdan yuqori sudga shu vajni ko'rsatib, sud qarorini bekor qilishni so'rashi tortishuv jarayonini buzadi.

Agar hukm etilgan, oqlangan va ularning himoyachilari prokurorning xulosasidan so'ng qo'shimcha tushuntirishlar bilan chiqqan bo'lsalar, prokuror ularning tushuntirishlariga tegishli baho berishi lozim va shu bilan yo o'z xulosasini tasdiqlashi yoki unga zaruriy o'zgartirishlar kiritishi kerak¹³.

Taftish shikoyati berilganidan keyin ishga kirishgan himoyachi shikoyatni o'zgartirishi yoxud yangi vajlar bilan to'ldirishi, ilgari ishda ishtirok etgan himoyachi tomonidan berilgan shikoyat va-jlariga qo'shimcha asoslar taqdim etishi mumkin.

Sud taftish tartibida chiqarilgan hukm yoki ajrimni bekor qilar ekan, birinchi, apellyatsiya, kassatsiya instansiya sudlarining hukm va ajrimlarini o'zgartirishlar bilan yoki o'zgartirishsiz o'z kuchida qoldirishga haqlidir deb ko'rsatib o'tilgan.

Yuqoridagilardan ko'rish mumkinki, jinoyat-protsessual qonunchilikda taftish tartibida prokurorlar bilan teng huquqli shartlarda birinchi instansiya, apellyatsiya, kassatsiya instansiya sudlarining chiqargan g'ayriqonuniy, asoslantirilmagan va adolatsiz qarorlariga nisbatan, yuqori turuvchi sudga ko'rib chiqish uchun shikoyat berish huquqi mustahkamlangan va amaliyotda bu huquqdan keng foydalanib kelinmoqda. Ya'ni, prokurorning apellyatsiya, kassatsiya, taftish tartibida kiritgan protesti ham jinoyat protsessining shikoyat berish huquqi berilgan taraflari tomonidan apellyatsiya,

¹² Madaliev O.M. Sudlanuvchining yuqori instansiya sudida ishtiroki hamda shikoyat qilishda taraflar tengligi ta'minlanishi zarur. // "Advokatura institutini isloh qilishning ayrim yo'nalishlari" mavzusidagi davra suhbat materiallari to'plami. - T.: TDYuI nashriyoti, 2009. - 55 b.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining sharhlari. - T.: "Adolat", 2000. - B. 632.

kassatsiya, taftish tartibida kiritilgan shikoyat bilan teng kuchga ega ekanligini ko'ramiz.

Biroq, taftish tartibida takroran qayta ko'rish quyi turuvchi sudlarning chiqargan qarorlariga nisbatan e'tiroz bildirish va qonunga muvofiqligini ta'minlash borasida kiritiladigan protest va uning albatta ko'rib chiqilishi kerakligi haqidagi zaruratda namoyon bo'ladi. Chunki, aynan yuqorida ta'kidlaganimizdek, 521²¹-moddasiga muvofiq, "taftish instansiyasi sudi jinoyat ishini O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining, Bosh prokurorining ushbu kodeksning

485-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra kiritgan protesti (xususiy protesti) bo'yicha taftish tartibida takroran ko'radi", deb belgilanishi natijasida qonun bo'yicha shikoyat berish huquqiga ega bo'lgan protsess ishtirokchilarining taftish tartibida takroran ko'rish uchun beradigan shikoyati, yuqori turuvchi sud tomonidan sud muhokamasida, albatta, ko'rib chiqilishi shartligini belgilanmaganligi, ular tomonidan ko'rilayotgan taftish tartibidagi shikoyatlarni yana bir bosqichda ko'rib, qonuniyligini ta'minlash imkoniyatidan mahrum etmoqda. Shu asnoda, apellyatsiya, kassatsiya, taftish instansiya sudlari aynan bir instansiyada, bir rahbar shaxsning nazoratidagi bir sudning o'zida sudyalarning bir-birini yo'l qo'yan xatosini o'zaro yashirish doirasida qolib ketishiga va natijada ba'zi g'ayriqonuniy, asoslantirilmagan va adolatsiz sud qarorlarning o'z kuchida qolib ketishiga sabab bo'ladi.

JKPning 515, 521²¹-moddalarida "taftish tartibida protest bildirish" hamda "Prokuratura to'g'risida"gi qonunning 36-moddasida "taftish tartibidagi protest kiritish" kabi jumlar uchrasada, aslida jinoyat ishini taftish tartibida prokuror emas, sud ko'radi.

Jinoyat-protsessual qonunchiligi normalariga ko'ra, sudlanuvchi nafaqat birinchi, apellyatsiya, kassatsiya, taftish bosqichlarida, balki, yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ish yuritish qaytadan boshlanganda ham himoyachi ishtiroki ta'minlanishi lozim. Mazkur holat himoya huquqini ta'minlashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi JPKning 25-moddasidagi sudda ishlarini yuritishda tortishuv tamoyiliga zid keladi.

F.Muhitdinov fikricha, Jinoyat-protsessual kodeksida himoyachining norozilik berish huquqi ta'minlangan holda, bu hujjat majburiy tarzda yuqori instansiya sudida ko'rib chiqilishi belgilanmagan. Bu kamchilikni bartaraf etish vaqti yetdi¹⁴.

Agar davlat tomonidan ustuvor yo'nalishlarda davlatning huquqiy kafolati mavjud bo'lsa, prokuror va advokatning taraflar sifatidagi o'zni tenglashgan bo'lar edi. Bu tenglik haqiqiy tortishuvlik jarayonini yuzaga chiqaradi¹⁵ - deydi G'.A.Yangiyev.

Yuqoridagi ilmiy mulohazalar quyidagi to'xtamga kelishimizga imkon beradi:

Birinchidan, himoyachi sudlangan, oqlangan, uning qonuniy vakili va boshqa shaxslarning topshirig'iga muvofiq yoki sudlangan, oqlangan shaxsning roziligi bilan quyi sudning qaroriga nisbatan yuqori instansiya (apellyatsiya, kassatsiya, taftish) sudiga shikoyat berishi mumkin. Bunda advokat bilan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuziladi.

Ikkinchidan, apellyatsiya, kassatsiya, taftish shikoyatida advokat tomonidan sud chiqarilgan hukm, ajrim va qarorning qonuniyligi va asosliygiga nisbatan munosabati to'liq ifodalanishi lozim.

Uchinchidan, jinoyat ishlarini taftish tartibida takroran ko'rishga sud raisi hamda prokuror tomonidan kiritilgan protest asos bo'ladi. Biroq, himoyachi bunday huquqqa ega emas. Sud raisi yoki prokurorga ishni taftish tartibida takroran qayta ko'rish uchun protest kiritish vakolati berilgan. Binobarin, ayblov va himoya o'rtasidagi bunday muammoni hal etish uchun, qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritish lozim.

To'rtinchidan, qonun yo'li bilan sud muhokamasining teng huquqli ishtirokchilari bo'lishi lozim bo'lgan, qonun bo'yicha shikoyat berish huquqiga ega bo'lgan protsess ishtirokchilarining taftish tartibida takroran ko'rish bo'yicha bergan protest (shikoyat) larini yuqori turuvchi sud, xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatida taftish tartibida takroran qayta ko'rilishi shartligi qonunda imperativ tarzda belgilab qo'yilishi lozim.

Beshinchidan, advokat (himoyachi) jinoyat ishini suddan talab qilib olish va protest kiritish

¹⁴ Muhitdinov F. Sud islohotiga oid mulohazalar. // Hayot va qonun. - Toshkent: 1999. № 6. - B. 74.

¹⁵ Yangiyev G'.A. Dalillarni baholash ishtirokchisi sifatida advokat faoliyatining tortishuvlik jarayonidagi harakatlarning umumiy tahlili. "Sudlar faoliyatini raqamlashtirish: joriy va istiqboldagi vazifalar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. // T.: TDYuU, 2022. - B. 156.

tish huquqiga ega emas. Sud qarorlariga kiritilgan protest yuqori sudning hay'at majlislarida jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi. Protsessning boshqa ishtirokchilari, jumladan, himoyachi bergan shikoyatga esa, sudning hay'atida ish ko'rilmadan turib ham protest kiritish uchun asos yo'qligi haqida javob yuborilishi mumkin. Bu esa, jinoyat protsessida taraflarning teng huquqqa ega ekanligi haqidagi Jinoyat-protsessual kodeksining 25-moddasida ko'rsatilgan prinsipga zid.

Oltinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq prokurorga ham, advokatga ham bir xilda isbotlash majburiyati yuklatilgan. Shunday bo'lsa-da, ba'zi hollarda yuqori sudga ayrim guvohlar so'roq qilinmagani ro'kach qilinib, sud qarori bekor etilishi lozimligi haqidagi prokuror protesti keltirilishi ham tomonlarning teng huquqliligi-ga zid. Prokuror o'zi isbotlash majburiyatiga ega bo'lgan holda, birinchi instansiya sudiga guvohni so'roq qilishga taqdim etmasdan yuqori sudga shu

vajni ko'rsatib, sud qarorini bekor qilishni so'rashi tortishuv jarayonini buzadi.

Xulosalar .Bizningcha, taraflarning tengligini ta'minlash maqsadida, tegishli sud raisi va prokurorning vakolatlarini sud jarayonining boshqa ishtirokchilari huquqlari singari tenglashtirish zarurdir. Binobarin, kassatsiya tartibida takroran ko'rish bo'yicha shikoyat berish huquqini belgilash lozim. Shu munosabat bilan, JPKning 510, 521-5-moddalariga "...mahkum, uning himoyachisi va qonuniy vakilining shikoyati bo'yicha" mazmundagi qo'shimchani kiritish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, qonunga mazkur qo'shimchaning kiritilishi har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, sudlarning noqonuniy, asossiz va adolatsiz qarorlari ustidan yuqori turuvchi sudga shikoyat qilish huquqini ta'minlash orqali konstitutsiyaviy normalarni amalda to'g'ri va samarali tadbiq qilishiga xizmat qilgan bo'lar edi.



Voyaga yetmaganlarning yo'l harakati sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarligi

AXMEDOV Sherzodbek Oribjon o'g'li

Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Jamoat xavfsizligini ta'minlash kafedrası o'qituvchisi

Annotatsia: Mazkur maqolada voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan yo'l harakati xavfsizligi sohasidagi huquqbuzarliklar uchun yuridik javobgarlik masalalari kompleks tarzda tahlil qilingan. Shuningdek, bu boradagi milliy va xalqaro huquqiy tartibga solish mexanizmlari o'rganilib, jinoiy, ma'muriy va fuqarolik javobgarligining qo'llanilishi tahlil qilingan. Bundan tashqari voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan tarbiyaviy-huquqiy choralarning samaradorligi baholangan. Maqolada amaldagi O'zbekiston qonunchiligi va xalqaro standartlar nuqtai nazaridan joriy etilishi lozim bo'lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, yo'l harakati xavfsizligi, ma'muriy javobgarlik, jinoiy javobgarlik, ota-onaning javobgarligi, tarbiyaviy ta'sir choralari, huquqbuzarlik subyekti, yo'l-transport hodisasi.

Аннотация. В данной статье комплексно проанализированы вопросы юридической ответственности за правонарушения в сфере безопасности дорожного движения, совершаемые несовершеннолетними. Также изучены национальные и международно-правовые механизмы регулирования данной сферы, проанализировано применение уголовной, административной и гражданско-правовой ответственности. Кроме того, дана оценка эффективности воспитательно-правовых мер, применяемых в отношении несовершеннолетних. В статье разработаны предложения и рекомендации, которые целесообразно внедрить с точки зрения действующего законодательства Республики Узбекистан и международных стандартов.

Ключевые слова: несовершеннолетние, безопасность дорожного движения, административная ответственность, уголовная ответственность, ответственность родителей, меры воспитательного воздействия, субъект правонарушения, дорожно-транспортное происшествие.

Zamonaviy jamiyatda transport infratuzilmasining jadal rivojlanishi va avtomobillashtirish sur'atlarining o'sishi bilan birga yo'l-transport hodisalari muammosi barqaror ijtimoiy xavf manbai sifatida qolmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyoda taxminan 1,35 million kishi yo'l-transport hodisalari natijasida vafot etib, ularning katta

qismini 15–29 yoshdagi yoshlar tashkil etadi¹.

O'zbekiston Respublikasida ham bu muammo alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi xizmatining 2022–2023-yillardagi statistik ma'lumotlariga ko'ra, respublikada ro'yxatga olingan yo'l-transport hodisalarining 12–15 foizi voyaga etmagan shaxslarning bevosita yoki bilvosita ishtirokida

¹ World Health Organization. Global Status Report on Road Safety 2023. Geneva: WHO, 2023. – P. 6–12.

sodir etilmoqda². Ushbu ko'rsatkich nafaqat hodisalar soni, balki ularning og'irlilik darajasi va oqibatlarining og'irligi jihatidan ham yuqori darajada qolmoqda. Bundan tashqari xizmatning ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil davomida yurtimizda voyaga yetmaganlar tomonidan 4 169 ta holatda tegishli hujjatlarsiz transport vositalarini boshqarganligi uchun ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilgan. Bu esa haydovchilik huquqiga ega bo'lmagan turib, transport vositalarini boshqarayotgan voyaga yetmaganlarning nafaqat o'zlari uchun balki yo'ldagi boshqa harakat ishtirokchilari uchun ham potensial xavf sifatida ko'rilish holatlari yildan yilga ko'payib borayotganligini anglatadi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan yo'l harakati sohasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklar muammosi bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, bu kategoriyaga mansub huquqbuzarlik subyektlari to'liq huquqiy layoqatga ega bo'lmaganligi sababli, ularga nisbatan umumiy javobgarlik qoidalarini bevosita qo'llash mumkin emas. Ikkinchidan, voyaga yetmaganlarning psixologik va ijtimoiy kamoloti ularning xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi, bu esa javobgarlikning differentsiatsiya muammosini yuzaga keltiradi. Uchinchidan, amaldagi qonunchilik voyaga yetmaganlarning yo'l harakati sohasidagi huquqbuzarliklarini tartibga solishda bir qator bo'shliqlar va ziddiyatlarni o'z ichiga oladi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni o'rganishda, avvalambor, ushbu kategoriya shaxslarning huquqiy maqomini aniqlashtirish zarur. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi nuqtai nazaridan, "voyaga etmagan" atamasi turli sohalarda har xil ta'riflanadi. Fuqarolik huquqi doirasida 18 yoshga to'lmagan shaxslar voyaga etmagan deb hisoblanadi (FKning 27-moddasi), jinoyat huquqi kontekstida esa jinoyat subyekti yoshi 14 yoshdan (alohida og'ir jinoyatlar uchun) va 16 yoshdan (umumiy holatlarda) boshlanadi (JKning 17-moddasi)³. Huquqiy layoqat nuqtai nazaridan, yo'l harakati sohasida voyaga yetmaganlarning huquqiy maqomi uch asosiy jihat bilan belgilanadi. Birinchisi, transport vositasini boshqarish

huquqi; ikkinchisi, sodir etilgan huquqbuzarlik uchun shaxsiy javobgarlik va uchinchi, uchinchi shaxslar oldidagi fuqarolik-huquqiy javobgarlik. Ushbu uch jihatning to'g'ri muvozanati – voyaga yetmaganlar huquqini muhofaza qilish va ularni tarbiyalash maqsadlarini uyg'unlashtirish imkonini beradi. Jumladan, Professor D.A. Kerimov ta'kidlanganidek, "yosh shaxs qonunni buzgan holda ham uning ijtimoiy kamolot jarayoni to'xtab qolmaydi va qonunning asosiy vazifasi jazolash emas, balki yo'l-yo'riq ko'rsatish bo'lishi kerak"⁴. Ushbu metodologik yondashuv voyaga yetmaganlar javobgarligi masalasidagi zamonaviy ilmiy tendensiyalar bilan to'liq mos keladi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 13-moddasi 16 yoshga to'lgan shaxslarni ma'muriy javobgarlik subyekti sifatida belgilaydi. Kodeksning 14-moddasiga asosan, 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etilgan yo'l harakati qoidalarini buzish holatlari bo'yicha MJtKning 125, 125¹, 126, 127, 128, 128¹, 128², 128-3, 128⁴, 128-5, 128⁶, 129, 130, 131, 132, 133, 134, 135, 135¹, 136, 138-moddalaridagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilangan, biroq sanksiyalarning hajmi va turi maxsus tartibda belgilanadi⁵. 16 yoshga to'lmagan shaxslar tomonidan yo'l harakati sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklar (masalan, mopedni yoki velosipedni noto'g'ri boshqarish, piyoda yo'lda huquqbuzarliklar) holatida esa, MJtKning 47-moddasi asosida, ota-onasi yoki ularni o'rnini bosuvchi shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, Germaniyada voyaga yetmaganlar tomonidan yo'l harakati qoidalarini buzish holatlari asosan "JugendgerichtsGESetz" (Voyaga yetmaganlar sudi to'g'risidagi qonun, 1953-y.)da belgilangan reabilitatsion yondashuv asosida ko'rib chiqiladi. Fransiya esa "Code de la route" (Yo'l harakati kodeksi) voyaga yetmaganlarga nisbatan alohida profilaktik choralar tizimini nazarda tutadi⁶.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan yo'l-transport hodisalari (YTH) o'zining og'irligi va ijtimoiy xavfliligi jihatidan alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday hodisalarda qurbonlar ko'pin-

² O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Yo'l harakati xavfsizligi xizmati. 2022-2023-yillardagi yo'l-transport hodisalari to'g'risida statistik hisobot. – Toshkent, 2024. – 47-b.

³ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 22.09.1994-yil, 2012-son. – 17-modda. (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi, lex.uz)

⁴ Керимов Д.А. Философия права. – Москва: Норма, 2014. – С. 318.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. 22.09.1994-yil, 2015-son. – 14, 37, 276-moddalar.

⁶ Albrecht H.-J. Jugendstrafrecht in Europa. Max-Planck-Institut für ausländisches und internationales Strafrecht, 2002. – S. 45-78.

cha oddiy baxtsiz tasodif qurboni bo'lmaydi, balki voyaga etmagan shaxsning huquqiy va axloqiy jihatdan etarli darajada shakllanmagan mas'uliyatsiz harakatining bevosita natijasi bo'lib qoladi. Bu holat nafaqat inson hayotining qadrsizligini, balki oilalar, jamiyat va butun huquq-tartibot tizimining chuqur iztiroblarini keltirib chiqaradi, chunki har bir halok bo'lgan yoki jarohatlangan hayot – bu butun bir oilaning umidi, kelajagi va baxtining yo'qolishi demakdir.

O'zbekiston Respublikasi hududida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan YTHlari statistikasida quyidagi xavotirli tendensiyalar ko'rinmoqda: birinchidan, bunday hodisalarning o'sish dinamikasi yildan-yilga barqaror saqlanib kelmoqda; ikkinchidan, jiddiy oqibatlar (o'lim yoki og'ir tan jarohati) ulushi nisbatan yuqori – taxminan 28–34 foizni tashkil etmoqda; uchinchidan, hodisalar ko'pincha kechki va tungi paytlarda, ota-onalar nazorati bo'lmagan hollarda yuzaga kelmoqda⁷. Bu raqamlar ortida nafaqat statistika, balki yosh avlodning hayotiy tajribasi etishmasligi va mas'uliyat hissi etarli emasligi yotadi, bu esa jamiyatni jiddiy ogohlantiruvchi signal sifatida qaralishi kerak.

Alohida og'ir holat sifatida yo'l patrul xizmati (YPX) xodimining xizmat vaqtida voyaga etmagan haydovchi tomonidan halok etilishi yoxud og'ir tan jarohatiga uchratilishi holatlari alohida ajralib turadi. Huquqiy jihatdan bu holat ikki asosiy tarkibni birlashtiradi: transport vositasini boshqarish qoidalarini qo'pol buzish natijasida o'lim yoki og'ir oqibatga olib kelish hamda maxsus jabrlanuvchi – davlat hokimiyatining vakili bo'lgan shaxs – ning ishtiroki. YPX xodimining xizmat vaqtida halok bo'lishi nafaqat alohida jinoyat tarkibi, balki butun jamiyat uchun huquq-tartibot institutiga bo'lgan ishonch va e'tiborni sustlashtiruvchi og'ir ijtimoiy fojia hisoblanadi. Bunday holatlarda inson hayotini himoya qilish va jamiyat xavfsizligini ta'minlash nuqtai nazaridan voyaga etmagan shaxsga nisbatan jinoiy javobgarlik qoidalarini qat'iy va izchil tarzda qo'llash zarurati tug'iladi.

Xalqaro tajribada bunday holatlarga nisbatan maxsus yondashuv ishlab chiqilgan. AQShning ko'pgina shtatlarida voyaga etmagan shaxs

tomonidan huquq-tartibot xodimini o'ldirish hollari "kattalar sudiga o'tkazish" (transfer to adult court) mexanizmi orqali ko'rib chiqiladi va maksimal jazolash sanksiyalari qo'llaniladi. Germaniyada "JugendgerichtsGEsetz"ning 17-paragrafida alohida og'ir holatlarda voyaga etmagan jinoyatchiga nisbatan kattalar jazosi qo'llanilishi nazarda tutilgan⁸. Ushbu tajribalar shuni ko'rsatadiki, inson hayotining eng yuqori qadriyat ekanligini ta'minlash uchun javobgarlik mexanizmi nafaqat tarbiyaviy, balki himoyaviy va oldini olish xususiyatiga ham ega bo'lishi lozim.

Yo'l harakati sohasidagi huquqbuzarliklar oqibatida odam hayotiga zarar etkazilgan yoki jiddiy jismoniy shikastlanish sodir bo'lgan hollarda, jinoiy javobgarligi masalasi ko'tariladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 266-moddasi transport vositalarini boshqarish qoidalarini buzishni jinoyat sifatida ta'riflaydi va uch yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum etish sanksiyasini nazarda tutadi. Voyaga yetmaganlar (14–16 yosh guruhida) JKning 17-moddasi asosida Kodeksning 266-moddasi bilan javobgarlikka tortilmaydi. Agar uning harakatlari qasddan odam o'ldirish deb baholansa, 97-modda bilan javobgarlikka tortilishi mumkin, yoki og'ir tan jarohati etkazish deb baholansa 104-modda orqali ham jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Biroq amaliyotda voyaga yetmaganlarning jinoiy javobgarligi masalasida bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, 266-modda bo'yicha 14 yoshga to'lmagan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilmaydi, bu esa jabrlanuvchiga etkazilgan zararni qoplash mexanizmlari muammosini yuzaga keltiradi. Ikkinchidan, voyaga yetmaganlar sudining maxsus tartib-taomillari amaldagi amaliyotda etarlicha tatbiq etilmayapti, bu esa JKning 81–86-moddalari va Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunning talablariga ziddir⁹.

Akademik O.X. Xakimovning tadqiqotida ta'kidlanganidek, "reabilitatsion adolat tamoyilini joriy etmasdan turib, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi muammosini hal etib bo'lmaydi"¹⁰. Ushbu xulosani yo'l harakati sohasidagi jinoyatlar uchun ham to'liq ma'qullash mumkin ya'ni sof repressiv yondashuv voyaga etmagan huquqbuzar

⁷ O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Yo'l harakati xavfsizligi xizmati. 2022–2023-yillardagi yo'l-transport hodisalari to'g'risida statistik hisobot. – Toshkent, 2024. – 47-b.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – 266-modda.

⁹ O'zbekiston Respublikasi "Voyaga etmaganlar huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 07.01.2008-yil, W-139-son. – 28-modda.

¹⁰ Xakimov O.X. Voyaga etmaganlar jinoyatchiligining profilaktikasi. Yuridik fanlar doktori dissertatsiyasi. – Toshkent: TDYuI, 2019. – 204-b.

uchun ijtimoiy reintegrasiya imkoniyatini yopib qo'yadi va takroriy huquqbuzarlik xavfini oshiradi. Shu bilan birga, insonparvarlik tamoyili asosida javobgarlik nafaqat jazo, balki yosh shaxsning huquqiy ongini shakllantirish va jamiyatni himoya qilish orqali muvozanatni ta'minlashi kerak.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan yo'l-transport hodisalarida uchinchi shaxslarga etkazilgan moddiy va ma'naviy zarar uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 994-moddasida O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga etmaganning zararni qoplash uchun etarli mol-mulki yoki boshqa daromad manbalari bo'lmagan taqdirda, zarar to'lig'icha yoki uning etishmagan qismi voyaga etmaganning ota-onasi (farzandlikka oluvchilari) yoki vasiyi tomonidan, agar ular zarar o'zlarining aybi bilan etkazilmaganligini isbotlay olmasalar, to'lanishi lozimligi belgilangan¹¹. Bu tartib, ayniqsa, avtohalokatlar oqibatida etkazilgan katta miqdordagi zararlarni qoplash masalasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliyotda ushbu me'yorning tatbiq etilishida bir qancha muammo ko'zga tashlanmoqda. Xususan, voyaga yetmaganlarning o'z nomiga ro'yxatdan o'tkazilgan transport vositasi bo'lgan hollarda (bu holat odatda ota-onaning haqiqiy egaligini yashirish maqsadida amalga oshiriladi), zarar uchun javobgarlik masalasi anchagina murakkablashadi. Yaqinda sud amaliyotida paydo bo'lgan "simulyasiya" to'g'risidagi nizolar FKning 114–116-moddalari asosida hal etilmoqda, biroq qonunchilikda bu masalani bevosita tartibga soluvchi maxsus norma mavjud emas.

Jahon adolatli sudlov tizimida voyaga yetmaganlar sohasidagi huquqbuzarliklarga nisbatan tarbiyaviy ta'sir choralari qo'llash tendensiyasi tobora kuchaymoqda. BMTning Pekin qoidolari (1985, 40-modda) voyaga yetmaganlar adolati tizimida jazoning oldini olish, reabilitatsiya va jamiyatga qayta integratsiya tamoyillarini ustuvor sifatida belgilaydi¹².

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida tarbiyaviy ta'sir choralari JKning 85–86-moddalari va MJtKning 22-moddasida mustahkamlangan. Yo'l harakati sohasiga nisbatan tatbiq etilishi mumkin bo'lgan asosiy tarbiyaviy choralar qatori-

ga quyidagilar kiradi: ogohlantirishdan iborat tanbeh berish; ota-onalar yoki maktab ma'muriyatiga topshirish; sport va ijtimoiy faoliyat markazlariga jalb etish; yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha maxsus trening dasturlariga yuborish. Ushbu choralarning samarali qo'llanilishi nafaqat huquqbuzarlikning takrorlanishini oldini olishga, balki voyaga etmagan shaxsda mas'uliyat hissi va yo'l harakati madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarbiyaviy ta'sir mexanizmini yanada takomillashtirish – masalan, maxsus restorativ adolat elementlarini joriy etish – yo'l harakati sohasidagi muammolarni insonparvar va samarali hal etishning muhim yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

Xalqaro huquqiy tajribani o'rganish shuni ko'rsatadiki, turli davlatlar voyaga yetmaganlar tomonidan yo'l harakati sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun javobgarlik masalasida turfa yondashuvlarni qo'llaydi. Ushbu yondashuvlarni uch asosiy modelga ajratish mumkin:

Birinchi model — "repressiv model" (Xitoy, Saudiya Arabistoni va ba'zi Osiyo davlatlarida): bu modelda voyaga etmagan huquqbuzarlar kattalar bilan deyarli teng darajada qattiq sanksiyalarga tortiladi, profilaktika va reabilitatsiyaga ozgina e'tibor qaratiladi.

Ikkinchi model — "reabilitatsion model" (Skandinaviya davlatlari, Germaniya, Fransiya, Kanada): bu modelda jazolash ikkinchi darajaga o'tadi, asosiy maqsad huquqbuzarning ijtimoiy reintegratsiyasi va takroriy huquqbuzarlikni oldini olishdan iborat. Yo'l harakati sohasida maxsus ta'lim kurslari, kuzatuv dasturlari va ijtimoiy xizmat majburiyatlari keng qo'llaniladi¹³.

Uchinchi model — "aralash model" (AQSh shtatlari, Buyuk Britaniya, Rossiya): bu modelda og'irlik darajasiga qarab repressiv yoki reabilitatsion yondashuvdan foydalaniladi. Masalan, AQShning ko'pgina shtatlarida voyaga etmagan surucü litsenziyasini avtomatik ravishda muddatidan oldin yo'qotadi va yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha majburiy ta'lim kursini o'tashi shart bo'ladi.

O'zbekiston qonunchiligi tahlili shuni ko'rsatadiki, u amalda ikkinchi va uchinchi modellarning elementlarini o'z ichiga oladi, biroq tarbiyaviy choralarni tatbiq etish mexanizmi etarlicha tartibga solinmagan va amalda samarali ishlaydigan tizim shakllantirilmagan.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 29.08.1996-yil, 256-son. – 994–997-moddalar.

¹² United Nations. United Nations Standard Minimum Rules for the Administration of Juvenile Justice (The Beijing Rules). GA Resolution 40/33, 29 November 1985. – Rule 11, 18.

¹³ Dünkel F. Juvenile Justice Systems in Europe. Vol. 2. Freiburg: Forum Verlag Godesberg, 2011. – P. 671–720.

Tadqiqot natijalari asosida amaldagi O'zbekiston qonunchiligida voyaga yetmaganlar tomonidan yo'l harakati sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun javobgarlik Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun o'rtasida voyaga yetmaganlarning javobgarlik yoshi, tarbiyaviy choralar ro'yxati va ularni qo'llash tartibi bo'yicha bir qator nomuvofiqliklar mavjud. Bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xilma-xil talqinlariga va adolatli huquqni qo'llashga to'siq bo'lmoqda.

Ikkinchi muammo: tarbiyaviy choralar tizimining etarlicha ishlab chiqilmaganligi. Amaldagi qonunchilikda yo'l harakati sohasiga xos tarbiyaviy choralar — masalan, majburiy haydovchilik mahoratini baholash testlari, yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha ta'lim kurslari, ijtimoiy xizmat majburiyatlari — nazarda tutilmagan. Bu bo'shliq voyaga etmagan huquqbuzarlarning reabilitatsion imkoniyatini sezilarli darajada cheklaydi.

Uchinchi muammo: ota-onalar va maktab ma'muriyatini javobgarlikka tortish mexanizmining zaifligi. FKning 994–997-moddalari asosidagi fuqarolik-huquqiy javobgarlik ko'pincha amalda samarali ishlamaydi, chunki ko'pgina hollarda ota-onalarning ham moliyaviy imkoniyati cheklangan, zarar esa katta bo'ladi. Ixtiyoriy sug'urta yoki davlat zararini qoplash fondlari haqida qonunchilikda hech qanday tartibga solish mavjud emas.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi islohot tavsiyalari ishlab chiqildi:

1. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga "Voyaga yetmaganlar tomonidan yo'l harakati sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklar" deb nomlangan alohida bobni kiritish lozim. Ushbu bob voyaga etmagan toifalariga muvofiq muqobil tarbiyaviy choralar, xususan: yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha 24 soatlik majburiy ta'lim kursi, ijtimoiy xizmat majburiyatlari (50 soatdan kam bo'lmagan muddatda), kuzatuv muddatini belgilash kerak.

2. Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunga yo'l harakati sohasidagi huquqbuzarliklar bo'yicha restorativ adolat tartib-taomillarini nazarda tutuvchi modda qo'shilishi lozim. Ushbu tartib-taomil voyaga etmagan huquqbuzar va jabrlanuvchi o'rtasida vositachi yordamida muloqotni, hamda ixtiyoriy kelishuv tuzishni o'z ichiga olishi kerak.

3. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonunga transport vositasini voyaga etmagan shaxsga boshqarish uchun topshirgan hollar uchun transport vositasi egasining qo'shimcha (korrespondent) javobgarligini belgilovchi maxsus norma kiritilishi zarur.

4. Yo'l harakati to'g'risidagi qonunga voyaga yetmaganlar uchun "bosqichli haydovchilik litsenziyasi" tizimini (graduated driver licensing system) joriy etish bo'yicha qoidalar kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu tizim 16 yoshdan boshlab bosqichli ravishda haydovchilik huquqlari hajmini oshirishni, hamda rivojlanish davrida muayyan cheklovlar (tungi soatlarda haydash taqiqi, yo'lovchilar soni cheklovi va b.) joriy etishni ko'zda tutadi.

Mazkur ilmiy tadqiqot shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar tomonidan yo'l harakati sohasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar uchun javobgarlik instituti O'zbekiston qonunchiligida kompleks, izchil va muvofiq tartibga solinishni talab etadi. Amaldagi qonunchilik bir qator muhim bo'shliqlar va ziddiyatlarni o'z ichiga olganligi sababli, huquqni qo'llovchi organlar ko'pincha nomuvofiq yondashuvlardan foydalanishga majbur bo'lmoqda. Xalqaro tajriba va qiyosiy huquqiy tahlil shuni tasdiqlaydi: voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan yo'l harakati huquqbuzarliklarini faqat repressiv choralar orqali hal etib bo'lmaydi. Tarbiyaviy ta'sir choralari, restorativ adolat va bosqichli javobgarlik modeli mavjud qonunchilik asosiga mos ravishda singdirilishi lozim.

Tavsiya etilgan islohot yo'nalishlari — MJtKga maxsus bobning kiritilishi, bosqichli haydovchilik litsenziyasi tizimining joriy etilishi, ota-onalar va transport vositasi egasining qo'shimcha javobgarligini mustahkamlash, hamda restorativ adolat tartib-taomillarini qonunchilikka kiritish — mazkur sohadagi huquqiy tartibga solishni xalqaro standartlar darajasiga etkazish va voyaga yetmaganlar orasida yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, voyaga yetmaganlar adolati tamoyili nafaqat ularning huquqlarini himoya qilishni, balki o'z xatti-harakatlari oqibatlarini anglab etishlarini ta'minlashni ham ko'zda tutadi. Bu ikki maqsad o'rtasidagi muvozanat zamonaviy huquqiy davlatning ijtimoiy siyosatidagi eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Misrdagi turizmning o'ziga xos xususiyatlari

BARATOV Mirodiljon Xomudjonovich

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Davlat va huquq instituti bo'lim boshlig'i,
yuridik fanlar doktori, professor

Annotatsia: mualliflar Misrda turizmning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib, turizmni Misrga va uning iqtisodiyotiga nisbatan bo'lgan ta'sirini, turizm maskanlarining xilma-hilligini, tarix beshigi bo'lgan bu mamlakatning barcha uchun ma'lum bo'lgan ehromlari va fir'avnlarning hokimligi, hozirgi davrdagi turistik marshrutlarning ham rivojlanish uchun, ham dam olish uchun bo'lgan holatini yoritganlar. Shu bilan birga, Tourizm-UN rahbariyati tarkibida bo'lgan o'zgarishlar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: Misr, turizm, Xurgada, Giza piramidalari, Qizil dengiz, Sharm-al-Sheyx, Buyuk Sfinks.

Аннотация: Авторы освещают специфические особенности туризма в Египте, влияние туризма на Египет и его экономику, разнообразие туристических достопримечательностей, пирамиды и правление фараонов этой страны, колыбель истории, известные всем, а также текущее состояние туристических маршрутов как для развития, так и для отдыха. Одновременно представлены изменения в составе руководства по туризму ООН.

Ключевые слова: Египет, туризм, Хургада, пирамиды Гизы, Красное море, Шарм-эль-Шейх, Большой Сфинкс.

Xalqaro turizmda tobora ortib borayotgan beqarorlikka qaramay, uning global iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanishi kuzatilmoqda. Jahon turizm tashkiloti (Tourism-UN) ma'lumotlariga ko'ra, 1950-yilda butun dunyo bo'ylab sayyohlar soni 25 millionni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda u 1,5 milliardga yetdi, sanoat daromadi esa, 1340 milliard dollardan oshdi. 2025-yil oxiriga kelib, butun dunyo bo'ylab taxminan 1,52 milliard xalqaro sayyohlar tashrif buyurdi, bu 2024-yilga nisbatan 4 % (yoki deyarli 60 million kishi) ga ko'pdir. BMTning birinchi Jahon turizm barometriga asoslangan ushbu ma'lumotlar sanoatning to'liq tiklanishini va pandemiyadan oldingi o'sish sur'atlariga qaytishini tasdiqlaydi. 70 yil ichida xalqaro sayyohlarning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 7 % ni tashkil etdi va xalqaro turizm hozirda global eksportda (yoqilg'i va kimyoviy moddalardan keyin) uchinchi o'rinda

turadi. Shu bilan birga, XXI asrda xalqaro turizmning rivojlanishi o'rganish va asoslashni talab qiladigan yangi tendensiyalar va hodisalarni keltirib chiqardi.

Misr tarixi bir necha ming yilliklarni qamrab oladi. Uning ulug'vor piramidalari va yodgorliklari sayohatchilar, savdogarlar va bosqinchilarni milledan avvalgi davrdan ancha oldin hayratda qoldirgan.

Yunonlar va rimliklar Misr bo'ylab sayohat qilib, nafaqat Luksoarning ulkan haykallariga grafiti, balki qadimgi misrliklarning an'analari, urf-odatlar, e'tiqodlari va diniy amaliyotlari haqida yozuvlar ham qoldirganlar. Ular orasida miloddan avvalgi 450–440-yillarda bu mamlakatga tashrif buyurgan yunon tarixchisi Gerodot ham bor edi. U shunday deb yozgan: "Nil Osirisning sovg'asi, ammo Misr Nilning sovg'asidir".

Gerodot Misr bayramlari va urf-odatlar haqi-

da tavsiflar qoldirib, u yozib olgan narsalarning aksariyati unga ruhoniylar yoki mahalliy yo'lboshchilar tomonidan yetkazilganligini, shuningdek mumiyalashning batafsil tavsifini ta'kidlagan. Gerodot to'plagan ma'lumotlar keyinchalik Yevropaning Misr madaniyati haqidagi tasavvurini shakllantirdi.

Boshqa qadimgi yunon va rim tarixchilari va geograflari ham ko'rganlari, eshitganlari va mahalliy aholi tomonidan aytilganlari haqida turli xil ma'lumotlarni yozib olishgan. Tarixchi va geograf Strabon o'zining ko'p jildli "Geografiya" asarida butun bir jildni Misrga bag'ishlagan va uning hayoti davomida qum bilan qoplangan yodgorliklar haqida qoldirgan ma'lumotlari shunchalik aniq bo'lganki, XIX asr o'rtalarida yashagan misrshunos Ogyust Mariet qazishmalar paytida ulardan qo'llanma sifatida foydalangan.

Miloddan avvalgi 30-yilda Kleopatroning vaftidan so'ng, Misr Rimning bir viloyatiga, keyinchalik Vizantiyaga aylandi. U xristianlikka aylandi, keyin esa 642-yilda arablar uni bosib olganlarida musulmon bo'ldilar. Arablar istilosi Misr qadimiy yodgorliklariga bo'lgan munosabatni o'zgartirdi. Yozuvlarda endi shunchaki guvohlarning hikoyalari yo'q edi; endi sayohatchilar bilimiga chanqoqlik va artefaktlarni sotib olishga moyil edilar.

Garchi, butparast ibodatxonalari va stelalari xristianlikning, keyin esa islomning dastlabki davrlarida vayron qilingan bo'lsa-da, ko'pchilik qadimgi misrliklarning o'zlaridagi yashirin sirlarini ochishga harakat qilishdi, bu esa oshkor qilinishi kerak edi. Buyuk Sfinks va Giza piramidalari bunday sirlarning markazi hisoblangan.

VIII asrning o'rtalarida Quddus yepiskopi Kosmas piramidalarni Muqaddas Kitobdagi Yusufning omborlari deb e'lon qildi. IX asrda Antioxiya patriarxi Dionisiy ombor nazariyasini rad etdi va ularni, shubhasiz, shohlarning qabrlari deb e'lon qildi, chunki u o'zi piramidalariga tushib, hamma narsani o'z ko'zi bilan ko'rgan edi.

Misr cho'lida ko'tarilayotgan piramidalar va ular saqlagan sirlarga bo'lgan qiziqish asrlar davomida saqlanib qolgan. XII asrning boshlarida Misrga tashrif buyurgan arab shifokori Abdullatif shunday deb yozgan edi: "Vaqt piramidalardan qo'rqadi. Tan olish kerakki, geometriyaning mashhur qoidalari bu mo'jizalarda insonning ajoyib qobiliyatlarini ochib beradi".

Misrning turizmbop hududlari to'g'risida gapiradigan bo'lsak, Hurghada to'g'risida alohida to'xtalish lozim. Hurghada – Misrdagi jonli kurort bo'lib, u yerda sovuq qishda ham quyosh va go'zal plyajlardan bahramand bo'lish mumkin. Hurghadaga so'nggi daqiqadagi takliflar "yozga uchib ketish"ni istaganlar uchun eng zo'r tanlovdir. Quyoshli Hurghada har doim mehmonlarni saxovatli "barcha narsani o'z ichiga olgan" paketlar, iliq quyosh nuri va qiziqarli o'yin-kulgi bilan kutib olishga tayyor.

Mijoz "Biz bilan boraylik" onlayn sayohat xizmatidan foydalanib, Misrga sayohatni tez va oson topishi mumkin. Ishonchli turoperatorlardan yuqori sifatli sayohat mahsulotlarini taklif etilishi ko'p uchraydigan holdir. Paketlarga to'g'ridan-to'g'ri reyslar, mehmonxonada joylashish, transferlar va sug'urta kiradi.

Dam olish maskani haqida.

Bir vaqtlar Qizil dengiz bo'yidagi kichik baliq ovlash qishlog'i bo'lgan Hurghada hozirda Misrdagi eng mashhur sayyohlik maskani hisoblanadi. Plyaj bo'yidagi va ikkinchi darajali mehmonxonalar, tinch ko'rfaz, akvapark, 18+ yoshdagilar uchun dam olish maskani va xususiy laguna, hashamatli besh yulduzli mehmonxonalar va budjetli to'rt yulduzli mehmonxonalar bilan Hurghada har bir sayohatchiga mehmonxona taklif qiladi. Hurghadaga so'nggi daqiqadagi barcha imkoniyatlar mijozga tashvishsiz ta'til, mazali taomlar va a'lo darajadagi xizmatdan bahramand bo'lish imkonini beradi.

Hurghada Misrning dunyoga mashhur diqqatga sazovor joylari: Giza piramidalari joylashgan Qohira, Aleksandriya va Luksorga tashrif buyurishni orzu qilganlar uchun qulay boshlang'ich nuqtadir. Dam olish maskani Misrning materik qismida, Qohiradan 465 kilometr uzoqlikda joylashgan.

Hurghada plyajlari asosan qumli. Bu ularni bolali oilalar uchun ajoyib tanlovga aylantiradi, chunki ko'pgina plyajlarda suvga kirish sayoz va yumshoq.

Hurghadadagi ob-havo: borish uchun eng yaxshi vaqt qachon?

Hurghadada plyaj ta'tilini yilning istalgan vaqtida xavfsiz rejalashtirish mumkin. Dam olish maskani subtropik cho'l iqlimiga ega. Dekabrdan fevralgacha ob-havo iliq va quyoshli bo'ladi. Harorat kunduzi 25°C dan – kechqurun 18...20°C gacha

o'zgarib turadi. Bu ob-havo Qohiraning gavjum ko'chalarini o'rganish, cho'ldagi piramidalarni ziyorat qilish yoki plyajda dam olish uchun bir xil darajada qulaydir.

Eng issiq davr apreldan oktabrgacha bo'lgan davr hisoblanadi, bu davrda simob hech qachon 33°C dan pastga tushmaydi va dengiz qulay 26-28°C gacha qiziydi. Yozda Hurghadaga so'nggi daqiqadagi takliflarni katta chegirmalar bilan sotib olish mumkin. Sohil bo'yidagi yuqori harorat shahar ko'chalariga qaraganda unchalik kuchli emas. Mehmonxonalardagi kuchli konditsioner tizimlari qulay yashashni ta'minlaydi.

Zerikishga vaqt yo'q: Hurghadaning eng yaxshi diqqatga sazovor joylari va mashg'ulotlari O'zbekistondan Xurghadaga eng arzon turlar ham nafaqat Qizil dengizning iliq suvlariga, balki ko'ngilochar dengizga ham sho'ng'ish uchun ajoyib imkoniyat yaratadi. Va bu mashhur kurort har qanday did va budjetga mos keladigan ko'plab narzalarni taklif etadi:

Fir'avnlr sirlarini va qadimgi davr xazinalarini ochishni istaganlar uchun Giza piramidalari va Buyuk Sfinks, "Tiriklar shahri" va "O'liklar shahri"ga ega afsonaviy Luksorga, Asvan to'g'oni-ga va Nubiyadagi Ramses ibodatxonasiga ekskursiyalar kun tartibiga aylangan.

Sho'ng'in turlari. Dam olish maskani yaqinida nihoyatda go'zal marjon riflari bilan mashhur bo'lgan ajoyib sho'ng'in joylari mavjud. G'avvoslar va Snorkeling ishqibozlari Hurghadada eng yaxshi ta'tilni topadilar, ular go'zal uy riflari bo'lgan mehmonxonalarda qolishadi.

Yaxtalarda va shaffof tubli suv osti vannaxonalarida dengiz ekskursiyalari arzon va barcha yoshdagi sayohatchilar uchun ochiq.

Qizil dengizning eng boy flora va fauna to'plamiga ega bo'lgan Grand Akvarium Jungle Aqua Park bolalar va kattalar uchun ajoyib dam olish maskanidir.

4WD transport vositalarida cho'l safari turlari (tuyalarda sayohat)

Sharq bozorlarida xarid qilish bobida an'anaviy suvenirler orasida mushuk haykalchalari, papi-ruslar va tumorlar bor. Ehtiyotkor sayohatchilar dori-darmonlar va kosmetika vositalarining arzon narxlarini qadrlashadi.

Xalqaro turizmning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, YaIM, eksport, investitsiyalar (shu jumladan, xorijiy investitsiyalar) va bandlikning o'sishiga erishish, shu bilan birga, xususiy tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirishdagi ahamiyati va roli ortib bormoqda. Ko'pgina mamlakatlar uchun xalqaro turizm nafaqat muhim omil va davlat daromadlarining manbai, balki mamlakatlar, mintaqalar va biznes hamjamiyatlari o'rtasidagi bog'liqlik, shuningdek ular haqida xorijda ma'lumot manbai bo'lib, bu o'z navbatida mamlakatning ijobiy imidjini shakllantirishga hissa qo'shadi.

Shunga ko'ra, xalqaro turizm Misr Arab Respublikasida iqtisodiy o'sishning omili, valyuta tushumlari manbai, tashqi savdo balansini yaxshilash va bandlikni ta'minlash katalizatori hisoblanadi. 2019-yilda ushbu sohada 2,5 million kishi ish bilan band bo'lgan, bu milliy iqtisodiyotdagi umumiy bandlikning 9,5 % ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, yana 2,2 million kishi turizm bilan bog'liq sohalarda ish topdi. Natijada, sanoat milliy yalpi ichki mahsulotning 11,9 % ini tashkil etdi va ko'rsatilgan xizmatlar qiymati 2,2 milliard dollarga yetdi, bu umumiy eksportning 27 % ini tashkil etadi. Shu sababli, hozirgi bosqichda rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega mamlakat sifatida Misr uchun ijtimoiy rivojlanish darajasini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratilishini ta'minlash va mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashga imkon beradigan xalqaro turizm holatiga alohida e'tibor qaratish muhimdir¹.

Ta'kidlash joizki, Misrning sayyohlik mahsuloti boy tarixiy, madaniy va diniy merosi, qulay iqlimi va qulay geografik joylashuvi tufayli ancha raqobatbardosh bo'lib qolmoqda. Biroq so'nggi yillarda global iqtisodiyot notinchlik davriga kirganligi sababli, Misrda xalqaro turizm ma'lum o'zgarishlarga uchraganini tan olish kerak. Turizm sohasidagi salbiy tendensiyalar darhol milliy iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatdi va uning samaradorligini pasaytirdi. Shuning uchun, ayniqsa, turizm sohasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan global muam-molarga qaramay, Misr uchun turizm sohasini va uning tashqi tarkibiy qismini rivojlantirish uchun yangi yondashuvlar va strategiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

¹Селим Мухаммед Салах Эль Дин. Египет на рынке международного туризма: современное состояние и перспективы: Автореф. дисс. на соиск. уч. степени канд. эконом. наук. – М., 2021. – С.3-4.

Turizmning iqtisodiy mohiyati ko'p qirrali bo'lib, bu to'plangan iqtisodiy tadqiqotlardan dalolat beradi. Masalan, N.Leiperning asarlarida² turizmni o'rganishda tizimli yondashuv qo'llanilgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, turizm tizim sifatida uchta elementning o'zaro ta'siriga asoslangan: geografik, shaxsiy (turistik) va iqtisodiy (turizm sanoati).

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ilmiy adabiyotlar "xalqaro turizm" toifasini aniqlashga keng yondashuvlarni taklif qiladi. Shunga ko'ra, xalqaro turizmning iqtisodiy mohiyatini aniqlash uchun muayyan metodologik usullarni izchil qo'llashni talab qiladigan integratsiyalashgan yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq ko'rinadi.

Umuman olganda, biz xalqaro turizmning rivojlanishini ifodalash uchun ikkita nuqtai nazardan foydalanishning to'g'riligini qabul qilamiz: birinchi yondashuv – milliy bozor ichidagi turizmni, ikkinchi yondashuv esa – xalqaro bozor ichidagi turizmni ko'rib chiqadi.

BMT Turizm Ijroiya Kengashi so'nggi sakkiz yil davomidagi faoliyatini sarhisob qilish uchun yubiley sessiyasiga qayta yig'ildi. Kengash o'zining 123-sessiyasida innovatsiya, investitsiya va ta'lim kabi ustuvor sohalarni amalga oshirishdagi yutuqlarni baholadi va Shayxa Al Novaysni 2026-yildan boshlab yangi Bosh kotib etib tayinladi. BMT Turizm Bosh Assambleyasi tomonidan tasdiqlangandan so'ng, Shayxa Al Novays ushbu lavozimni egallagan birinchi ayol bo'ladi³.

Ijroiya kengashining vazifasi Bosh kotib bilan maslahatlashgan holda Assambleya qarorlari va tavsiyalarini amalga oshirish uchun barcha zarur choralarni ko'rish va uning bajarilishi haqida Assambleyaga hisobot berishdan iborat. Kengash yiliga kamida ikki marta yig'iladi.

Misr nafaqat tarixiy yodgorliklari va plyajlari, balki noyob sog'lomlashtirish imkoniyatlari bilan ham mashhur. Yumshoq iqlimi va dengiz suvi va mineral buloqlarining shifobaxsh xususiyatlari tufayli Misr kurortlari Misrga sog'lomlashtirish va hordiq chiqarish sayohatlarini istaganlar orasida tobora ommalashib bormoqda.

Mijoz agar stressni engillashtirmoqchi, sog'lig'ini va umumiy farovonligini yaxshilamoqchi

bo'lsa, istalgan Misr kurortida ta'til paytida spa muolajalaridan bahramand bo'lishi mumkin. Masalan, massaj, talassoterapiya yoki loy terapiyasi kursi taklif etilmoqda. Termal va mineral suvlar, shuningdek dengiz havosi sog'liqni yaxshilaydi va kuchni tiklaydi. Mahalliy sog'lomlashtirish markazlarida davolanish sayyohlarga turli kasalliklarni yengishga yordam beradi.

Sayohat bo'yicha maslahatlar.

Aeroportga yetib borilganida immigratsiya kartasini ingliz tilida to'ldirish uchun sayyoh o'zi bilan ruchka olib kelishi lozim. Uni shaxsan o'zi to'ldira olmaydiganlar uchun 5 dollarga to'ldirish xizmati mavjud.

Piramidalarni ko'rish uchun Qohiraga yoki Luksorga sayohat qilish rejalashtirilgan bo'lsa, mamlakatga kirishda faqat bepul Sinay vizasini tanlamaslik kerak.

Qishki ta'til uchun shamoldan himoyalangan Makadi ko'rfazida joylashgan va isitiladigan basseymlari bo'lgan mehmonxonalarni tanlash tavsiya etiladi.

Ishonchli dam olish maskanlarini eng yaxshi narxlarda tanlash lozim. Sayyohlik agentliklari Hurghada shahriga tez, qulay, xavfsiz va arzon sayohat paketlarini taklif etadi. "Biz bilan boraylik" ofislaridan biriga tashrif buyurish tavsiya etiladi.

Tibbiy ta'tillar uchun eng yaxshi mehmonxonalar.

Agar sayohatda Misrga tibbiy turlar bilan qiziqilsa, spa va sog'lomlashtirish dasturlari bilan mehmonxona majmualarini ko'rib chiqish lozim. Mana ba'zi mashhur variantlar:

- Menaville Safaga – Safagadagi "uch yulduzli" mehmonxona, dam olish va sog'lomlashtirish uchun ideal. Mehmonxonada zamonaviy talassoterapiya markazi mavjud bo'lib, u yerda massaj, elektroterapiya va boshqa sog'lomlashtirish muolajalaridan bahramand bo'lish mumkin.

- Amwaj Beach Club Abu Soma – Hurghadadagi 4 yulduzli mehmonxona, Misrda tibbiy ta'tilni oilaviy ta'til bilan birlashtirmoqchi bo'lganlar uchun sevimli tanlovdir. Bu yerda bo'g'imlar, teri va nafas olish yo'llari kasalliklarini yengillashtirishga yordam beradigan sog'lomlashtirish muolajalaridan bahramand bo'lish mumkin.

² Leiper N. The framework of tourism: towards a definition of tourism, tourist, and the tourist Industry // Annals of Tourism Research. 1979. Vol. 6(4). – P.390-407.

³ <https://en.unwto-ap.org/topslider/123rd-executive-council>.

• Imperial Shams Abu Soma – Soma ko'rfazida joylashgan dengiz bo'yidagi shinam 4 yulduzli spa mehmonxonasi. Bu yerda mehmonlar oltita suzish havzasi, fitness markazi va sog'liq muammolarini yengillashtirishga yordam beradigan turli xil muolajalarni taklif qiluvchi sog'lomlashtirish markazidan foydalanishlari mumkin. Misrga sog'liqni saqlash paketlari biznesni zavq bilan birlashtirish – sog'lomlashtirish va dam olish imkonini beradi. Ko'pgina mehmonxonalar mehmonlar uchun umumiy farovonlikni yaxshilash va stressni yengillashtirish uchun mo'ljallangan shaxsiylashtirilgan davolash dasturlarini taklif qiladi.

Sharm El-Shayxdagi mashhur mehmonxonalar

Ta'tilni rejalashtirishda dam olish maskanini tanlash muhim jihatdir. "Poehali S Nami" sayyohlik agentliklari qulaylik va a'lo darajadagi xizmatni uyg'unlashtirgan bir nechta mehmonxonalarni tanladilar:

- Park Regency Sharm El-Shayx, 5★;
- Safir Sharm Waterfalls Resort, 5★;
- Grand Oasis Resort, 4★;
- Regency Plaza Aqua Park & Spa, 5★;
- Jaz Sharm Dreams Resort, 5★;
- Nubian Village, 5★;

Xonalar to'liq jihozlangan. Agar go'dak bilan

sayohat qilinsa, xonada so'rov bo'yicha beshik berilishi mumkin. Sayohatni bron qilishda buni hisobga olish muhim va menejer sayyoh xonasini bron qilishda ushbu qo'shimcha xizmat haqida alohida eslatma qo'yadi.

Ko'pgina dam olish maskanlarida suzish havzalari, jihozlangan plyajlar, spa markazlari, konferensiya xonalari va maxfiy o'yin-kulgi mavjud. Bolalar mini-klublari mavjud bo'lib, ularda tajribali xodimlar nazorati ostida boshqa bolalar bilan qiziqarli mashg'ulotlardan bahramand bo'lishlari mumkin. Mehmonxonalar hamma narsani o'z ichiga olgan tizimni taklif qiladi, shuning uchun sayyohning ovqatlanish uchun qo'shimcha xarajatlar haqida qayg'urishi shart emas. Biroq alla carte restoranlari oldindan buyurtma berishni talab qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, jahon iqtisodiyotining asosi bo'lgan turizm nafaqat Misrda, balki boshqa mamlakatlarda ham iqtisodiy o'sishning asosiy omili bo'lib, ish o'rinlari yaratishni rag'batlantiradi, infratuzilmani rivojlantirishga hissa qo'shadi va dunyo mamlakatlari uchun katta daromad keltiradi⁴. Ushbu chiqishda biz Misrning turizm iqtisodiyotini, uning mahalliy jamoalarga, milliy iqtisodiyotga va xalqaro savdoga ta'sirini ko'rib chiqdik.



⁴ Балабанов И. Т., Балабанов А. И. Экономика туризма. – М., Финансы и статистика, 2003. 176-с.; Квартальнов В. А. Теория и практика туризма. – М., Финансы и статистика, 2003.

Migratsiya huquqida diplomatik va konsullik himoyasining zamonaviy ahamiyati

ISOQOV Luqmonjon Xolboyevich

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Xalqaro huquq va inson huquqlarini himoya qilish kafedrasida boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

Annotatsia: Mazkur ilmiy maqolada zamonaviy xalqaro huquq tizimida diplomatik va konsullik himoyasi institutlarining nazariy-huquqiy tabiati, evolyusiyasi va amaliy ahamiyati kompleks tahlil qilinadi. Globallashuv va transmilliy migratsiya jarayonlarining jadallashuvi sharoitida inson huquqlari va davlat suvereniteti o'rtasidagi muvozanat muammosi markaziy ilmiy masala sifatida o'rganiladi. Muallif tomonidan diplomatik va konsullik himoyasi institutlarining tarixiy shakllanishi, ularning xususiy repressiyalardan davlat tomonidan amalga oshiriladigan xalqaro-huquqiy mexanizmga aylanish jarayoni hamda Vena konvensiyalari doirasidagi huquqiy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro inson huquqlari huquqining institutsionallashuvi va investitsiyaviy nizolarni hal qilish mexanizmlarining rivojlanishi mazkur klassik institutlarga bo'lgan munosabatni o'zgartirgani ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, migratsiya huquqi, diplomatik himoya, konsullik himoyasi, davlat suvereniteti, xalqaro huquq, migrantlar huquqlari, subsidiar himoya, xalqaro mexanizmlar.

Аннотация. В данной научной статье всесторонне анализируются теоретико-правовая природа, эволюция и практическое значение институтов дипломатической и консульской защиты в современной международно-правовой системе. В качестве центральной научной проблемы рассматривается проблема баланса между правами человека и государственным суверенитетом в контексте глобализации и ускорения транснациональных миграционных процессов. Автор анализирует историческое формирование институтов дипломатической и консульской защиты, процесс их трансформации из частных репрессий в международно-правовой механизм, реализуемый государством, и их правовую основу в рамках Венских конвенций. Также научно обосновывается, что институционализация международного права прав человека и развитие механизмов разрешения инвестиционных споров изменили отношение к этим классическим институтам.

Ключевые слова: права человека, миграционное право, дипломатическая защита, консульская защита, государственный суверенитет, международное право, права мигрантов, дополнительная защита, международные механизмы.

Zamonaviy globallashuv sharoitida inson huquqlarini ta'minlash masalasi xalqaro huquqshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, transmilliy migratsiya

jarayonlarining keskin kuchayishi davlat suvereniteti va inson huquqlari o'rtasidagi murakkab muvozanat muammosini yanada chuqurlashtirdi. Ushbu sharoitda diplomatik va konsullik himoya-

si institutlari tarixiy jihatdan shakllangan klassik mexanizmlar sifatida qayta baholanib, ularning migrantlar huquqlarini ta'minlashdagi zamonaviy ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan qayta ko'rib chiqish zarurati tug'ilmoqda. Mazkur tadqiqot aynan shu institutsional mexanizmlarning inson huquqlarini himoya qilish tizimidagi o'rni, ularning evolyusiyasi hamda zamonaviy xalqaro huquqiy paradigmadagi transformatsiyasini tahlil qilishga qaratilgan.

Inson huquqlari zamonaviy huquqshunoslikning eng muhim va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu huquqlar insonning qadr-qimmati, erkinligi va tengligini ta'minlashga qaratilgan universal huquqiy tamoyillar sifatida e'tirof etiladi. Akademik A.X.Saidovning ta'biri bilan aytganda, inson huquqlari, bu insonning huquqiy layoqati va huquq subyektlarining e'tirof etilishi bo'lganligi bois, fuqaro huquqlari mamlakatlarda ma'lum davlat tomonidan insonga qonunan mustahkamlangan holda rasman beriladigan huquqlar sanaladi¹.

Zamonaviy huquqshunoslikda migratsiya huquqi o'zining fanlararo tabiati va murakkab institutsional tuzilmasi bilan ajralib turadi. So'nggi o'n yilliklardagi jadal global demografik harakatlar mazkur huquq tarmog'ining ikki xil, ya'ni regulativ va gumanitar xususiyatini yaqqol namoyon qildi. Bir tomondan, migratsiya huquqi "xavfsizlik huquqi" sifatida davlatning o'z chegaralarini nazorat qilish va ruxsat etilmagan migratsiyani cheklashdek suveren jihatlarini namoyon qilsa, ikkinchi tomondan, "himoya huquqi" sifatida migrantlarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlashi lozim bo'lgan insonparvarlik vazifasidir.

Biroq bugungi xalqaro voqelik ushbu ikki tayanch element o'rtasidagi muvozanatning jiddiy buzilishini, ya'ni davlat manfaatlarini ta'minlash inson huquqlarini amalga oshirishdan muntazam ravishda ustun kelayotganini ko'rsatmoqda. Ushbu huquqiy beqarorlik sharoitida shaxsning xorijiy yurisdiksiya hududidagi kafolatli himoyasi masalasi keskinlashadi. Mazkur muammoning tarixiy va yuridik yechimi sifatida shakllangan

diplomatik va konsullik himoyasi institutlari aynan shu nuqtada o'zining ahamiyatini ko'rsatadi².

O'rta asrlardagi "xususiy qasos" ("représailles privées") amaliyotidan boshlanib, XVI-XVII asrlarda davlat suvereniteti konsepsiyasining birlashuvi natijasida o'zgargan mazkur institutlar bugungi kunda xalqaro ommaviy huquqning eng asosiy ustunlariga aylangan. Shveysariyalik mashhur huquqshunos Emmerix de Vattelning "fuqaroga nisbatan qilingan har qanday noqonuniy tajovuz, bevosita uni himoya qilishga mas'ul bo'lgan davlat manfaatlariga yetkazilgan zarardir" degan konseptual g'oyani davlatlarning o'z fuqarolarini himoya qilish majburiyatini falsafiy va huquqiy jihatdan mustahkamlaydi³.

Diplomatik himoya institutining ildizlari o'rta asrlardagi xususiy repressaliyalar amaliyotiga borib taqaladi. Dastlab shaxs o'z huquqlari buzilgan taqdirda zararni mustaqil ravishda qoplash huquqiga ega bo'lgan bo'lsa, XVI-XVII asrlarga kelib davlat suvereniteti g'oyasining kuchayishi natijasida mazkur huquq davlat ixtiyoriga o'tib, diplomatik himoya instituti shakllandi⁴. Shu tariqa, individual himoyadan davlat tomonidan amalga oshiriladigan xalqaro-huquqiy himoya tizimiga o'tish kuzatildi. Biroq ushbu institut uzoq vaqt davomida xalqaro munosabatlarda kuchli davlatlarning siyosiy va iqtisodiy jihatdan zaif davlatlar ustidan ustunligini namoyon etuvchi vosita sifatida baholangan. Ana shu salbiy qarashlarni bartaraf etish va uni huquqiy jihatdan tartibga solish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashabbusi bilan 1961-yilda Vena shahrida diplomatik munosabatlar to'g'risidagi konvensiya qabul qilindi.

Shu bilan birga, konsullik himoyasi instituti ham qadimgi davrlardan davlatlararo savdo va siyosiy aloqalarni ta'minlash vositasi sifatida shakllangan bo'lib, ayniqsa Rim imperiyasi qulaganidan keyin Vizantiya davrida keng rivoj topgan. Keyinchalik Yevropa shahar-davlatlari tomonidan konsullar tayinlanishi amaliyoti kengayib, milliy qonunchiliklar orqali tartibga solina boshladi va nihoyat, 1963 yilgi Vena konvensiyasi bilan xalqaro huquq doirasida kodifikatsiya qilindi.

¹ Саидов А.Х. Общая теория права человека. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2021. – С.21.

² Мирзаев Х. Т. Ўзбекистон Республикаси консуллик хизматлари фаолиятининг такомиллашуви хусусида //Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2025. – Т. 1. – №. 4. – С. 117-123.

³ De Vattel E. Le droit des gens: ou Principes de la loi naturelle, appliqués à la conduite et aux affaires des nations et des souverains. – Carnegie institution of Washington, 1916. – №. 4.

⁴ Bauchot, Bertrand. La protection diplomatique des individus en droit international. Université de Lille II, droit et santé, Faculté des sciences juridiques, politiques et sociales, 2001.

Umuman olganda, diplomatik va konsullik himoyasi institutlari tarixiy jihatdan barqaror tizim sifatida shakllangan bo'lsa-da, ular inson jamiyatidagi doimiy ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, xususan, Ikkinchi jahon urushidan keyingi global xalqaro-huquqiy tartibotdagi ikki yirik institutsional burilish ushbu klassik mexanizmlarning an'anaviy qo'llanish ko'lamiga ulkan ta'sir ko'rsatdi⁵.

Birinchidan, transmilliy kapital harakatini himoya qilish maqsadida 1965 yilda Investitsiyalarga oid nizolarni hal qilish to'g'risidagi konvensiyaning (ICSID) qabul qilinishi va ikki tomonlama sarmoyaviy shartnomalar tarmog'ining kengayishi mulkiy va xususiy-huquqiy nizolarda diplomatik himoyaga murojaat qilishning obyektiv zaruratini keskin kamaytirdi.

Ikkinchidan, xalqaro inson huquqlari huquqining jadal institutsionallashuvi natijasida shaxs xalqaro munosabatlarning qisman subyekt darajasiga ko'tarildi hamda o'z manfaatlarini milliy davlatining vositachiligi yoki aralashuvizisiz ham bevosita himoya qilishdek mustaqil yuridik maqomga (jus standi⁶) ega bo'ldi. Binobarin, mazkur ikki konseptual omil tarixan shakllangan diplomatik va konsullik himoyasi tushunchalarini ma'lum darajada munozara mavzusiga aylantirgan bo'lsa-da, zamonaviy migratsiya huquqi kontekstida bu jarayon ushbu institutlarning yo'q bo'lishi emas, balki inson huquqlarini ta'minlashning yangicha, subsidiar (qo'shimcha) va eng oliy kafolat mexanizmi sifatida qayta shakllanishini anglatadi⁷.

BMT Xalqaro sudining "Barcelona Traction" ishi bo'yicha chiqargan tarixiy qarorida mustahkamlangan klassik davlatlararo munosabatlar ta'limotiga muvofiq, xorijda huquqlari buzilgan fuqarolarga nisbatan himoya taqdim etish, uning ko'lamini va muddatini belgilash davlatning ekskluziv suveren va diskresion (ixtiyoriy) huquqi hisoblanib, mazkur institutsional vakolatning amalga oshirilishi muayyan huquqiy kazusdan tashqarida bo'lgan pragmatik siyosiy mulohazalarga bevosita tobe etiladi⁸.

To'g'ri, keyingi o'n yilliklarda inson huquqlarining global ko'lamda baynalminallashuvi hamda tegishli deklaratsiya va konvensiyalarning qabul qilinishi natijasida, shaxs manfaatlarini himoya qiluvchi qator yangi yurisdiksiyaviy va kvazi-yurisdiksiyaviy xalqaro mexanizmlar ham institutsionallashdi. Biroq, mazkur evolyutsion jarayonni shaxslarning huquqiy himoyasi avtomatik ravishda oliy darajaga ko'tarildi, deb talqin qilish hamda shunga asoslanib, an'anaviy diplomatik va konsullik himoyasi institutlarining amaliy samaradorligini yoki yuridik legitimligini shubha ostiga oluvchi har qanday nazariy yondashuvlar qat'ian rad etilishi lozim, deb hisoblaymiz. Zero, yangi mexanizmlar klassik himoya vositalarini inkor etmaydi, balki mavjud xalqaro-huquqiy voqelikda ularni faqat to'ldiruvchi subsidiar vosita sifatida xizmat qiladi⁹.

Inson huquqlariga oid xalqaro huquqning zamonaviy mexanizmlari shaxslarga davlatga nisbatan bevosita da'vo qo'zg'atish imkonini bersa-da, o'z genetik tabiatiga ko'ra qat'iy geografik va yuridik-moddiy cheklovlar bilan tavsiflanadiki, ushbu prezumpsiya, nazarimizda, mazkur yurisdiktsion tizimlarni global miqyosda universalashtirishga obyektiv to'sqinlik qiladi. Bu esa, o'z navbatida, ko'plab murakkab kazuslarda shaxslarning xalqaro huquq tartibotidan kelib chiquvchi asosiy huquq va erkinliklarini bevosita realizatsiya qilishdagi yuridik imkoniyatsizligini (incapacité juridique) keltirib chiqaradi va ularni faqatgina xorijiy davlatning milliy yurisdiksiyasi (ichki sud instansiyalari) doirasidagi cheklangan himoya vositalariga tobe qilib qo'yadi.

Binobarin, Iv Madiot, Jan Dide Bukugu, Mari Bese va Daniel Kolar kabi yetakchi xalqaro huquqshunos olimlarning konseptual xulosalariga tayangan holda, davlatlarning xalqaro-huquqiy javobgarligini ta'minlashga qaratilgan mazkur yangi institutsional mexanizmlarning qamrov doirasi va amaliy samaradorligini mutloqlashtirmasdan, balki ularning cheklangan va subsidiar (qo'shimcha) xarakterini e'tirof etgan holda, il-

⁵ Ghérari H. L'institution consulaire entre tradition et modernité // La protection consulaire. – Pedone, 2005. – P.17.

⁶ Jus standi (лотинчадан "турар жой ҳуқуқи") – юридик термин бўлиб, шахснинг судга мурожаат қилиш ёки суд жараёнида иштирок этиш учун қонуний ҳуқуқи (ваколати) борлигини англатади. Ўзбекистон ҳуқуқ тизимида бу тушунча кўпинча "судга мурожаат қилиш ҳуқуқи" ёки "манфаатдор шахс" мақоми орқали ифодаланади. Масалан, фуқаролик ишида фақат ҳуқуқи бузилган шахс ёки унинг вакили даъвогар бўла олади.

⁷ Dugard J. Articles sur la protection diplomatique. – 2014.

⁸ Martín Sánchez S., Jordà Clavaguera R. Estudio de caso sobre las condiciones de trabajo de la Barcelona Traction, Light and Power Company Limited (1911-1950). – 2022.

⁹ Touzé, Sébastien. La protection des droits des nationaux à l'étranger: recherches sur la protection diplomatique. Diss. Paris 2, 2006.

miy-nazariy jihatdan nisbiylashtirish maqsadga muvofiqdir¹⁰.

Migrantlarning huquqiy maqomini kafolatlovchi ta'sirchan mexanizmlarni institutsionallashtirishga qaratilgan global obyektiv ehtiyoj sharoitida, diplomatik va konsullik himoyasining real himoya salohiyati va qamrov darajasini aniqlash hozirgi zamon migratsiya huquqining markaziy ilmiy muammosi sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, inson huquqlarining umume'tirof etilgan ustuvorligiga asoslangan zamonaviy xalqaro-huquqiy paradigma sharoitida mazkur ikki klassik institut o'zining ekzistensial mohiyatini hamon saqlab qolganmi yoki ular allaqachon tarix sahifalaridan joy olgan "eskirgan konsepsiyalar arxivi"ga kiritilishi lozimmi, degan fundamental dilemma yuzaga keladi¹¹.

Nazarimizda, ushbu masalaning ilmiy-nazariy dolzarbligi shundaki, bugungi kunda inson huquqlariga bag'ishlangan aksariyat xalqaro doktrinal manbalar va akademik adabiyotlar diplomatik va konsullik himoyasining yuridik ahamiyatini yoki mutlaqo e'tibordan chetda qoldirmoqda, yoki uning inson huquqlari g'oyasiga yot ekanligiga ishora qilish orqali, ushbu hayotiy muhim subsidiar institutlarni ilmiy muomaladan asossiz ravishda chetlashtirmoqda¹².

Migratsiya va transmilliy mobillik fenomeni ming yillikning eng murakkab global tahdidlaridan biriga aylangan bugungi sharoitda, mazkur muammo o'zining fundamental ilmiy va pragmatik-amaliy ahamiyati bilan ajralib turadi. Maqsadimiz inson huquqlarining global evolyusiyasi fonida o'zining klassik ta'sir kuchini yo'qotgandek tuyulgan diplomatik va konsullik himoyasi institutlarining aslida zamonaviy doktrinal va yurisprudensial rivojlanish orqali konseptual "uyg'ornish" davrini boshdan kechirayotganini isbotlashdan iboratdir. Bunda tadqiqotning asosiy ilmiy yangiligi davlatning eksklyuziv suverenitetiga asoslangan "klassik", shaxsning xalqaro-huquqiy maqomini e'tirof etuvchi "zamonaviy" hamda

mazkur ikki yondashuvni sintez qiluvchi "aralash" nazariyalarini o'zaro qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, ularning inson huquqlarini himoya qiluvchi boshqa xalqaro mexanizmlar bilan o'zaro ta'sirini yoritish orqali namoyon bo'ladi¹³.

Amaliy nuqtai nazardan esa, ushbu izlanish migrantlarning zaiflashgan huquqiy maqomini tiklashga qaratilgan o'ziga xos ilmiy-huquqiy vazifani o'tab, umume'tirof etilgan inson huquqlarni kafolatlash amaliyotiga qo'shilgan salmoqli hissa sifatida xizmat qiladi¹⁴.

Mazkur tadqiqotimizning o'ziga xos amaliy ahamiyati shundaki, u 2018 yilgi Global paktlar kabi nufuzli xalqaro normalarda e'tirof etilgan migrantlarning obyektiv zaifligi va ularni himoya qilish zaruratini inobatga olgan holda, diplomatik va konsullik himoyasi institutlari hamda boshqa inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni konseptual asoslab beradi. Shu bilan birga, ushbu ilmiy izlanish mazkur ikki turdosh institutni o'zaro qiyosiy paradigmada tahlil qilib, diplomatik himoyaning o'ziga xosligini, konsullik himoyasi esa, aksincha, uzluksiz, kundalik va bevosita amaliy xarakterga egaligini, binobarin, ularning migrantlar huquqlarini ta'minlashdagi ta'sir doirasi turlicha ekanligini ochib beradi¹⁵.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur institutlarning zamonaviy huquq tizimidagi o'ziga xos maqomi ularning sof mustaqil vakolati, individual yoki asosiy inson huquqlari toifasiga mansubligi hamda boshqa xalqaro mexanizmlarga nisbatan raqobatchi yoki to'ldiruvchi ekanligi kabi qator fundamental masalalarni o'rta tashlaydi. Bunday keng qamrovli tadqiqotning gnoseologik chegaralarini belgilash esa, Konfutsiyning "dastlab so'zlarning ma'nosini qat'iylashtirish" haqidagi hikmatini eslatadi¹⁶.

Mazkur tadqiqotimizning terminologik va konseptual apparatini shakllantirishda, eng avvalo, "diplomatik himoya" institutining yuridik ta'rifini aniqlashtirish talab etiladi. BMT Xalqaro

¹⁰ Bercet, Jean-Marie et Colard, Daniel Les droits de l'Homme, Tome I : Diversions nationales et internationales. Paris, Éditions Economica, 1982, 301 p.

¹¹ Condorelli L. L'évolution du champ d'application de la protection diplomatique. – Bruxelles, Bruylant, 2003. – P.3.

¹² Батафсил қаранг: Раҳманов Ш. Международные договорно-правовые источники дипломатического права международных организаций и их роль в защите персонала международных организаций // Uzbek law review / Обзор законодательства Узбекистана. – 2018. – Т. 2018. – №. 4. – С. 64-71.

¹³ Суропов А. Ф. Инсон ҳуқуқлари ва миграция тушунчаларининг ўзаро боғлиқлиги //Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 28-31.

¹⁴ Sudre F. Droit international et européen des droits de l'homme. – Paris, PUF, 2001. p.27

¹⁵ Smolinska, A. M., Boutros, M., Lozanorios, F., & Lunca, M. (2015). Droit international des relations diplomatiques et consulaires. Primento, Bruxelles, Bruylant, 2015, p. 154.

¹⁶ Bernard P. La notion d'ordre public en droit administratif, LGDJ, Paris, 1962.

sudining yuridik lug'ati¹⁷, Xalqaro huquq komissiyasining Diplomatik himoya bo'yicha moddalar loyihasi hamda Inson huquqlari lug'ati¹⁸ o'rtasidagi doktrinal konsensusga muvofiq, mazkur konsepsiya "A" suveren davlatining o'z milliy mansubligiga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxsga nisbatan "V" davlati tomonidan sodir etilgan xalqaro-huquqiy g'ayriqonuniy qilmish oqibatida yetkazilgan zarar uchun "V" davlatining xalqaro javobgarligini keltirib chiqarish jarayoni sifatida talqin etiladi.

Yuridik pragmatika nuqtai nazaridan, ushbu mexanizm davlatning o'z fuqarosiga tegishli bo'lgan xususiy da'voni yuridik jihatdan to'liq o'zlashtirishini va uni o'z nomidan ilgari surishini anglatadi, ya'ni buning natijasida submilliy darajadagi nizo diplomatik kanallar yoki xalqaro yurisdiksiyaviy instansiyalar vositasida bevosita davlatlararo maqomga ega bo'lib, xalqaro omma-viy huquq doirasida o'zgaradi¹⁹.

Ushbu konseptual arxitekturaning mantiqiy davomi sifatida, "konsullik himoyasi" yuboruvchi davlatning bevosita o'zining konsullik vakillari faoliyati orqali, qabul qiluvchi davlat hududidagi o'z fuqarolariga (xorijliklarga) nisbatan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari bilan kafolatlangan munosabat ko'rsatilishini ta'minlashga qaratilgan yuridik-institutsional nazorat mexanizmidir²⁰.

Garchi diplomatik va konsullik himoyasi o'z qamrovi va qo'llanish miqyosiga ko'ra obyektiv ravishda farqlansa-da, mazkur tadqiqotning epistemologik doirasida ular yagona va o'zaro uzviy bog'liq konsepsiya sifatida birgalikda tadqiq etiladi. Ushbu metodologik va terminologik integratsiya ularning umumiy jihatlari bilan asoslanadi. Mazkur himoya mexanizmlari an'anaviy tarzda o'zaro raqobatlashuvchi ikki fundamental paradigma, ya'ni bir tomondan, xorijliklarning asosiy huquqlarini ta'minlashga qaratilgan gumanitar vakolat hamda ikkinchi tomondan, davlat suverenitetining daxlsizligi o'rtasidagi murakkab institutsional kompromiss mahsuli sifatida namoyon

bo'ladi. Binobarin, aynan mana shu mantiqiy-gnoseologik asosga tayanib, garchi tadqiqot davomida har ikki mexanizmning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinsa-da, "diplomatik va konsullik himoyasi" atamasi yaxlit bir konseptual kategoriya sifatida qo'llaniladi.

Mazkur tadqiqotning konseptual apparatini shakllantirishda "inson huquqlari" va ularni "himoya qilish" tushunchalarining fundamental yuridik tabiatini ochib berish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tarixiy nuqtai nazardan, 1945-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'sis etilishi inson huquqlarini rag'batlantirish va yuridik himoya qilish g'oyasini universal darajadagi amaliy voqelikka aylantirdi. "Himoya" tushunchasi inson huquqlariga oid tamoyil yoki normalar buzilgan taqdirda, manfaatdor shaxs yoki guruhga mustaqil ravishda da'vo qo'zg'atish, qonunbuzarlikka chek qo'yuvchi choralarni amalga oshirish hamda jabrlanuvchilarga adolatli restitutsiyani (qoplab berishni) kafolatlovchi yaxlit yurisdiksiyon-protessual tizim sifatida talqin qilinadi²¹.

O'z navbatida, ushbu ilmiy izlanish doirasida "inson huquqlari" hodisasi amaldagi ijobiy huquq cheklovlar yoki etnik kelib chiqish, fuqarolik va diniy e'tiqod kabi mahalliy belgilardan qat'i nazar, har bir shaxs, xususan, zaif maqomdagi migrantlar uchun tabiatan xos bo'lgan universal va ajralmas vakolatlarni o'zida mujassam etuvchi murakkab falsafiy, huquqiy va siyosiy konsepsiya sifatida e'tirof etiladi. Ushbu paradigmal yondashuv inson huquqlarini milliy qonunchilik, konstitutsiyaviy normalar va xalqaro konvensiyalar vositasida qonuniylashtirilgan oliy qadriyat sifatida tadqiq etishni metodologik jihatdan taqozo qiladi.

Mazkur tadqiqotning konseptual-terminologik apparatini shakllantirishda Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilotining (IOM) doktrinal yondashuvlariga muvofiq, global miqyosda "migrant" tushunchasining yagona universal ta'rifi mavjud emasligi e'tirof etilgan holda, mazkur tushuncha, eng avvalo, tashqi majburlov omillarizatsiya, individual ijtimoiy-moddiy farovonlikni oshirish maq-

¹⁷ Kdhir, M., Dictionnaire juridique de la Cour internationale de justice, Bruxelles, Bruylant, 2000, p. 227.

¹⁸ Andriantsimbazovina J. Dictionnaire des droits de l'homme. – 2008.

¹⁹ Dănoi I. Association "Henri Capitant" des amis de la culture juridique française //Studia Universitatis Babes Bolyai-Jurisprudentia. – 2010. – T. 55. – №. 3. – C. 99-106.

²⁰ Fils, François-Xavier Elong. La protection diplomatique des étrangers. Essai sur ses interactions avec la souveraineté des Etats et les droits de l'homme. Diss. Lyon 3, 2011.

²¹ Mbaye K. L'Afrique et les droits de l'homme //Revue juridique et politique: indépendance et coopération. – 1994. – T. 48. – №. 1. – C. 1-16.

sadida mustaqil va ixtiyoriy qaror asosida transchegaraviy harakatni amalga oshiruvchi subyekt-larga nisbatan tatbiq etiladi. Binobarin, mazkur ilmiy izlanishning bevosita obyekti sifatida davlatlararo chegaralarni kesib o'tuvchi "xalqaro migrantlar" belgilanib, shaxsning emigratsion niyatidan yurisdiksiya almashinuvigacha bo'lgan yaxlit tranzit jarayonini to'liq qamrab olish maqsadida, matnda "xorijliklar", "boshqa davlat fuqarolari" va "ajnabiylar" kabi yuridik sinonimlardan foydalaniladi²².

Shuningdek, Jerar Kornyuning klassik yuridik lug'ati²³ va Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilotining (IOM) tasnifiga tayangan holda, xalqaro migratsiyaning tipologik xilma-xilligidan kelib chiqib, huquqiy maqomi va tartibga solish kontekstining xususiyatligiga qaramay, "qochoqlar" instituti ham xalqaro migrantlarning uzviy toifa-

si sifatida tadqiqotning muayyan doktrinal tahlil doirasiga kiritilishi metodologik jihatdan kafolatlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, diplomatik va konsullik himoyasi institutlari zamonaviy xalqaro huquq tizimida o'z ahamiyatini yo'qotmagan, balki inson huquqlarini ta'minlashning subsidiar va samarali mexanizmlari sifatida qayta shakllangan. Xalqaro inson huquqlari mexanizmlarining rivojlanishi mazkur institutlarning amaliy ahamiyatini kamaytirmagan, aksincha, ularni to'ldiruvchi va ayrim hollarda yagona samarali himoya vositasiga aylantirgan. Shu bois, migrantlarning huquqiy maqomini kafolatlashda davlatlar tomonidan amalga oshiriladigan diplomatik va konsullik himoyasi inson huquqlarini ta'minlash tizimining ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim.



²² Perruchoud R. Glossaire de la migration, n. 9 // Droit international de la migration. – 2007.

²³ Cornu G. Vocabulaire juridique. – Puf, 2024.

O'zbekistonning demokratik rivojlanishida bola huquqlarini ta'minlash masalalari

Har bir bola – kelajagimiz poydevori. Ularning xavfsizligi va huquqlari ta'minlanmasdan turib, barqaror rivojlanish haqida gapirib bo'lmaydi. Ushbu masala nafaqat inson huquqlari, balki jamiyatning ma'naviy va ruhiy sog'lomligi uchun ham dolzarb ahamiyatga ega¹.

Sh.M.Mirziyoyev

XUJANOV Tillabek Keldibekovich

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Davlat va huquq instituti katta ilmiy xodimi

Annotatsia: Mazkur maqolada O'zbekistonning demokratik rivojlanishida bola huquqlarini ta'minlash masalalari, bu boradagi qonunchilik hujjatlari va ularning ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, bola huquqlarini ta'minlash mexanizmi borasidagi ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasi ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: demokratik rivojlanish, bola huquqlari, strategiya, qaror, farmon, konvensiya, protokol.

Аннотация. В данной статье освещаются вопросы обеспечения прав ребёнка в процессе демократического развития Узбекистана, рассматриваются законодательные акты в данной сфере и их значение. Кроме того, проанализирован опыт некоторых зарубежных стран в области механизмов обеспечения прав ребёнка.

Ключевые слова: демократическое развитие, права ребёнка, стратегия, постановление, указ, конвенция, протокол.

Bola huquqlarini ta'minlash, ular uchun munosib sharoit yaratish, masalasi dunyo hamjamiyati va xalqaro tashkilotlarning doimiy diqqat e'tiboridagi dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Xususan, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 20.11.1989-yilda qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya²ning 2-moddasiga ko'ra, "ishtirokchi-davlatlar ushbu Konvensiyada bola uchun ko'zda tutilgan barcha huquqlarni, hech qanday kamsitishlarsiz, irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, bola-

ning sog'lig'i va tug'ilishi, uning ota-onasi yoki qonuniy vasiysi yoki biror-bir boshqa holatlardan qat'iy nazar, hurmat qilishi hamda shu huquqlarni ta'minlab berishi zarur"ligi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng eng dastlab ratifikatsiya qilgan xalqaro hujjatlardan biri bu "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya bo'lib, keyingi yillarda ushbu konvensiyada talablari bajarilishi va mamlakatimizda bola huquqlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. Ayniqsa bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг парламент сайловидан кейинги 2024 йил 19 ноябрь кундаги биринчи мажлисида сўзлаган нутқи. URL.: <https://president.uz/uz/lists/view/7714>.

² Манба: http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/juveniles_deinquency_prevention.shtml.

keng ko'lamli islohotlarni alohida e'tirof etish joiz.

Xususan, O'zbekistonning demokratik rivojlanishi sharoitida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 78-moddasi 2-qismida "bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyati"³ sifatida belgilab qo'yilganligi ushbu sohadagi islohotlarning bosh mezoniga aylandi.

Bundan tashqari, muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan bola huquqlarini ta'minlash, ularni farovon yashashi va kelajagi uchun barcha shart-sharoit hamda imkoniyatlarni yaratish maqsadida bir qancha Farmon va Qarorlar qabul qilinmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari tomonidan 22.04.2019 yilda "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4296-son Qarorning qabul qilinishi, bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya talablarini har tomonlama hayotga tatbiq etish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida nazarda tutilgan bolalarining huquqlarini amalda kafolatlash, ularning jismoniy, intellektual, ruhiy va ma'naviy barkamol avlod bo'lib yetishishini ta'minlash borasidagi vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuni alohida qayd etish joizki, ushbu PQ-4296-son qarorning 3-bandida "oilada bolaning manfaatlariga taalluqli har qanday masala hal qilinayotganda, shuningdek, har qanday sud muhokamasi yoki ma'muriy muhokama davrida bola o'z fikrini ifoda qilishga haqli ekanligi, bunda qaror qabul qilishga vakolatli organlar (shaxslar) bolaning manfaatiga taalluqli masalani hal qilishda oqilona va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bolaning fikrini, uning yoshidan qat'i nazar, jiddiy omil sifatida ko'rib chiqishi hamda bolaning eng ustun manfaatlarini nazarda tutuvchi qarorni qabul qilishi shart"⁴ligi belgilab qo'yildi. Mazkur Qarordagi ushbu bandni alohida e'tirof etishimizning boi-

si shuki, "bolani fikrini inobatga olish (ya'ni, uni eshitish va tinglash), qabul qilinayotgan qarorlar uning "eng yaxshi manfaatlaridan kelib chiqqan holda qabul qilinishi kabi qoidalar xalqaro normalarda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyotida o'zining ijobiy samarasini berib kelmoqda.

Jumladan, "bolaning eng yaxshi manfaatlarini" tamoyiliga asoslanish lozimligi "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya⁵ning 18-moddasida o'z aksini topgan bo'lib unga ko'ra, "ota-ona yoki tegishli holatlarda qonuniy vasiylar bolaning tarbiyalanishi va rivojlanishi uchun asosiy javobgar bo'lib, "bolaning eng yaxshi manfaatlarini" ular ko'rsatadigan asosiy g'amxo'rlikning predmeti hisoblanishli, 40-moddasida "vakolatli organlar tomonidan ishni adolatli ko'rib chiqishda, "bolaning eng yaxshi manfaatlarini"ni hisobga olgan holda qisqa fursatlarda qaror qabul qilishi lozim"ligi ko'rsatib o'tilgan.

"Bolaning eng yaxshi manfaatlarini" tushunchasi Finlandiyaning "Bolalar farovonligi to'g'risida"gi Qonunida, Buyuk Britaniyaning "Bolalar to'g'risida"gi Qonunida va boshqa bir qator rivojlangan xorijiy mamlakatlar milliy qonunchiligida o'z aksini topgan. Masalan, Finlandiya Parlamenti (Oliy qonun chiqaruvchi organi (Eduskunta) tomonidan 2007 yil 13 aprel kuni "Bolalar farovonligi to'g'risidagi qonun" ("Child Welfare Act") qabul qilindi va ushbu qonun 2008-yil 1-yanvardan kuchga kirdi. Mazkur Qonun mamlakatda bolalar farovonligini ta'minlashga oid barcha masalalarni qamrab olgan bo'lib, 17 ta bob 95 bo'limdan iborat⁶.

Ushbu "Bolalar farovonligi to'g'risidagi qonun" amalda "bolaning eng yaxshi manfaatlarini" ta'minlanishiga xizmat qiladi va bu qonunning 1-bob 4-bo'limida har qanday qaror va amalda bolalarining manfaatlarini birinchi o'rinda bo'lishi kerakligi qayd etadi.

Bundan tashqari, Finlyandiyada jamiyatning barcha sohalarida bola huquqlarini va ularning farovonligini ta'minlash maqsadida parlament komissiyasi tomonidan "Bolalar Milliy strategi-

³ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // 2023 йил 30 апрель куни ўтказилган Ўзбекистон Республикаси референдумида умумхалқ овоз бериш орқали қабул қилинган. <https://lex.uz/docs/6445145#6446164>

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 22.04.2019 йилда қабул қилинган ПҚ-4296-сон қарори.

⁵ БМТ Бosh Ассамблеясининг 20.11.1989 йилдаги 44/25-сон резолюцияси билан қабул қилинган "Бола ҳуқуқлари тўғрисида"ги Конвенцияси.

⁶ Финляндиянинг "Болалар фаровонлиги тўғрисидаги қонуни". 13.04.2007 йилда қабул қилинган. Манбага кириш: <https://www.finlex.fi/fi/lainsaadanto/saadaskokoelma/2007/417>.

yasi” ishlab chiqildi va 2021 yil 23 fevralda qabul qilindi. Ushbu Bolalar Milliy strategiyasida bolalar farovonligini ta’minlash, ijtimoiy tenglik va boshqa huquqlarni himoya qilish hamda ularni jamiyatda o’z o’rinlarini ta’minlash kabi maqsadlariga erishishni, bola huquqlariga oid har qanday masalada “bolalarning eng yaxshi manfaati” inobatga olinishi nazarda tutadi. Mazkur strategiyani amalga oshirish rejalarini nazorat qilish uchun esa maxsus bo’lim tashkil etiladi va Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik dasturlari qabul qilinadi.

Germaniya Federativ Respublikasida bola huquqlari Konstitutsiyasi darajasida kafolatlangan bo’lib, Asosiy qonunning “Nikoh-oila-bolalar” – deb nomlangan 6-moddasiga ko’ra nikoh va oila davlatning alohida himoyasidan foydalanishligi, bolalarga g’amxo’rlik qilish va ularni tarbiyalash ota-onalarning tabiiy huquqi va birinchi navbatda ularning burchi ekanligi, davlat bu vazifani bajarishda ularni nazorat qilishligi, bolalar ota-onalari yoki vasiylarining irodasiga qarshi faqat qonunga muvofiq va faqat ota-onalar yoki vasiylar o’z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki bolalar jiddiy e’tiborsizlik xavfi ostida bo’lgan taqdirdagina oilasidan ajratilishi mumkin⁷.

GFRda ijtimoiy adolat va ijtimoiy ta’minotga erishish uchun ijtimoiy imtiyozlar, shu jumladan ijtimoiy va ta’lim yordamini taqdim etishga qaratilgan hamda munosib mavjudlikni ta’minlash, ayniqsa, yoshlar uchun shaxsning erkin rivojlaniishi uchun teng shart-sharoitlar yaratish, oilani himoya qilish va targ’ib qilish, erkin tanlangan faoliyat orqali yashashlariga imkon berish va hayotning alohida yuklarini oldini olish yoki qoplash, shuningdek, odamlarning o’zlariga yordam berish maqsadida Ijtimoiy kodeks⁸ qabul qilingan.

Mazkur Ijtimoiy kodeksning sakkizinchi kiti bi “Bolalar va yoshlar xizmatlari” deb nomlanib, unda bola huquqlari va uning kafolatlari, o’smirlar va yoshlar farovonligi hamda ularning ijtimoiy himoyasiga oid barcha masalalarni qamrab olgan 11 ta bob, 106 ta bo’limni o’z ichiga oladi.

GFR qonunchiligining yana bir o’ziga xos jihati shundaki, bolalarga nisbatan himoya choralarini

to’liq ta’minlash maqsadida, alohida “Yoshlarni himoya qilish to’g’risida”⁹gi qonun qabul qilingan.

Mazkur qonun 30 ta kichik bo’limni qamrab olgan 7 bo’limdan iborat bo’lib, unda voyaga yetmaganlarni jamoat joylarida va ommaviy axborot vositalarida himoya qilish kabi masalalarni ham o’z ichiga olgan. Qonunning amalga oshirish mexanizmi sifatida esa OAVda bolalar va yoshlarni himoya qilish Federal markazi tashkil etilgan.

Germaniyada bola huquqlari sohasidagi qonunchilikni amalga oshirish mexanizmi sifatida mahalliy boshqaruv tarkibida Yoshlar farovonligi idorasi tashkil etilgan. Ushbu idorani mahalliy boshqaruv tarkibida tashkil etilganligini sababi shuki, mamlakatda mahalliy boshqaruv – bu shahar, munitsipal va tuman ma’muriyati, shuningdek, hokimiyat yoki ma’muriy organ sifatidagi maxsus maqsadli birlashma sifatida, asosiy huquqqa o’xshash huquq kabi munitsipal suverenitetni amalga oshiradigan davlat boshqaruvining bir qismi hisoblanadi.

Shu o’rinda o’rinda ta’kidlash joizki, bola huquqlarini ta’minlashda xalqaro tajriba va rivojlangan mamlakatlar kelib chiqib, bolani fikrini tinglash (eshitish)ni nafaqat sud jarayonida, balki jamiyat hayotining barcha jabhalarida yo’lga qo’yish lozim deb hisoblaymiz. Chunki bolalar nafaqat kelajak, balki hozirgi kunning hamkorlari hisoblanadi. Shu sababli, ularga dahldor bo’lgan har qanday masala va qarorlarda ularning ovozi hamda xohishini inobatga olish lozim deb hisoblaymiz.

Zero, N.Dusmuxamedova “O’zbekistonda bola huquqlari to’g’risidagi qonunchilikning rivojlaniishi va takomillashtirish” mavzusida olib borgan tadqiqotlari tahlili natijasiga ko’ra, quyidagi fikrlarni ilgari suradi ya’ni: “Bola huquqlarini himoya qilish va ta’minlanishida aynan bolalarning o’zlarini ushbu masalalarda faolliklarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi, ya’ni bolalarning o’z huquqlarini bilishlari, unga oila, ta’lim va mehnat muassasalarida rioya qilinishini talab qila olishlari bola huquqlariga oid qonunchilik ijrosida samarali vositalardan biridir”¹⁰.

⁷ Германия Федератив Республикасининг Конституцияси. Манбга кириш: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_gg/englisch_gg.html#p0039

⁸ Германия Федератив Республикасининг Ижтимоий кодекси. Манба кириш: https://www.sozialgesetzbuch-sgb.de/sgbviii/1.html?utm_source

⁹ Германия Федератив Республикасининг “Ёшларни ҳимоя қилиш тўғрисида” ги қонуни. Манбга кириш: <https://www.gesetze-im-internet.de/juschg/>

¹⁰ Н.Н.Дусмухамедова “Ўзбекистонда бола ҳуқуқлари тўғрисидаги қонунчиликнинг ривожланиши ва такомиллаштириш” мавзусидаги юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент - 2021. 21-бет.

Bolalarni tinglash va ularga eng munosibini o'zlaridan eshitgan holda taqdim etish hamda jamiyatdagi muammolar haqida bolalarning fikrini inobatga olish, bolalar tashabbusini rag'batlantirish maqsadida shuningdek, bolalarning siyosiy ovozini qo'llab-quvvatlash va yoshlarning o'z fikrlarini hukumatga yetkazish imkoniyatini yaratish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzurida "Bolalar parlamenti"ni tashkil etilishi lozim. Mazkur tizimni yo'lga qo'yilishi bilan jamiyatda bolalar ovoziga kattalarniki kabi munosabatda bo'lishni nazarda tutish bilan birga bolalar uchun qonunchilik darajasida o'z taklif va mulohazalari bilan chiqishlari uchun imkoniyatlar yaratiladi. Zero, bolalar

nafaqat kelajak, balki hozirgi kunning hamkorlari hisoblanadi. Shu sababli, ularga dahldor bo'lgan har qanday masala va qarorlarda ularning ovozi hamda xohishini inobatga olish lozim deb hisoblaymiz. Xususan Yaponiya, Ozarbayjon, Germaniya va Finlandiya kabi rivojlangan mamlakatlarda "Bolalar parlamenti" tashkil etilgan bo'lib, o'z faoliyatini yuritib kelmoqda. Shu bilan birga mazkur tuzilma bolalarning fikrini qonun ijodkorligi jarayoniga jalb qilish, ularning huquq va manfaatlariga daxldor masalalar bo'yicha eng maqbulini ularni o'zlaridan eshitish imkoniyati yaratiladi hamda BMTning bolalar ishtirokini ta'minlashga oid standartlarini milliy amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiladi.



Zamonaviy xalqaro huquqda migratsiya jarayonlarini boshqarish: shartnomaviy va institutsional yondashuvlar

ESEMURATOV Alisher Izbasarovich

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Xalqaro huquq va inson huquqlarini himoya qilish kafedrasida dotsenti, (PhD)

Annotatsia: Maqolada migratsiyani xalqaro-huquqiy tartibga solishning zamonaviy mexanizmlari, ularning inson huquqlari bilan o'zaro bog'liqligi va milliy qonunchilikka ta'siri tahlil qilingan. Qochoqlar, mehnat migrantlari va ekologik migratsiyaga oid huquqiy muammolarga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: migratsiya, xalqaro huquq, inson huquqlari, qochoqlar, mehnat migrantlari, XMT, xalqaro shartnomalar.

Аннотация: В статье рассматриваются современные международно-правовые механизмы регулирования миграции, их связь с защитой прав человека и влияние на национальное законодательство. Особое внимание уделено правовому статусу беженцев, трудовых мигрантов и экологических мигрантов.

Ключевые слова: миграция, международное право, права человека, беженцы, трудовые мигранты, МОТ, международные договоры.

Kirish: Globallashuv sharoitida migratsiya jarayonlarining jadallashuvi xalqaro huquq oldiga yangi va murakkab vazifalarni qo'yimoqda. Migratsiyani tartibga solish masalasi faqat davlatlarning ichki siyosati doirasida emas, balki xalqaro hamjamiyatning umumiy mas'uliyati sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Shu bois, migratsiyani xalqaro-huquqiy tartibga solishning zamonaviy mexanizmlarini tahlil qilish, ularning inson huquqlari bilan bog'liq jihatlarini ochib berish hamda milliy huquq tizimlariga ta'sirini baholash ilmiy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotda dialektik, tizimli va kompleks yondashuvlar qo'llanildi. Shuningdek, qiyosiy-huquqiy, formal-yuridik va tarixiy tahlil usullari orqali xalqaro shartnomalar, deklaratsiyalar hamda XMT hujjatlarining mazmun-mohiyati o'rga-

nildi. Ilmiy tadqiqot jarayonida xalqaro va milliy huquq normalari o'zaro bog'liq holda tahlil qilinib, migratsiyani tartibga solishdagi huquqiy mexanizmlarning samaradorligi baholandi.

Migratsiyani tartibga solishning zamonaviy xalqaro-huquqiy mexanizmlari davlatlar o'rtasidagi hamkorlikka tayanadi va insonlarning harakatlanishini boshqarishning turli shakllarini qamrab olgan tizimni tashkil qiladi.

Yu.A. Tixomirovning ta'kidlashicha, bu tizim migratsiya bilan bog'liq murakkab jarayonlarni aks ettirib, ko'p qirrali xususiyatga ega. Tartibga solishning asosiy qismini xalqaro huquq prinsiplari va normalari tashkil etadi. Ular xalqaro tashkilotlar, davlatlararo ittifoqlar va migratsiyaga oid xalqaro institutlar tomonidan qabul qilingan hujjatlarga asoslanadi¹.

¹ Тихомиров Ю.А. Правовое положение мигрантов: доклад на XVII Конгрессе Междунар. академии сравнительного права // Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения. 2006. № 6. Вып. 3. С. 16.

Bugungi kunda migratsiyani tartibga solishning asosiy huquqiy vositasi xalqaro shartnomalar bo'lib, ular subyektlar uchun majburiy xususiyatga ega hamda xulq-atvorning aniq qoidalarini belgilaydi. Shartnomaviy tartibga solishning afzalligi haqida so'z yuritir ekan, I.V. Akifeva xalqaro huquqda shartnomalarning ustuvor rolini qayd etadi².

Boshqa olimlar esa, zamonaviy nazariy va huquqiy yondashuvlar manbalarini kengroq tushunib, ularni huquqiy tizimga kiritilgan yangiliklar sifatida ko'rishlarini bildirishgan. V.N.Kartashev klassik pozitivizm g'oyasini sharhlab, majburiy buyruqlar ma'lum ko'rsatmalarda ifodalanib, rasmiy huquqiy manbalarda mustahkamlanadi, deb aytadi³. Huquqshunoslar orasida huquqiy ta'sir mexanizmlari kengroq bo'lib, ularning bir qismi huquqiy tartibga solish mexanizmini o'z ichiga oladi, degan fikr mavjud⁴.

Bizningcha, migratsiyani tartibga solishning xalqaro-huquqiy mexanizmi, davlatlar ixtiyoriy ravishda qabul qilgan majburiyatlarga asoslangan, milliy qonunchilikka ta'sir ko'rsatuvchi barqaror tizimdir. Bu mexanizm quyidagi elementlarni o'z ichiga olishi lozim: davlatlar uchun majburiy bo'lgan xalqaro shartnomalar va boshqa hujjatlar; migratsiya sohasida xalqaro huquq subyektlari tomonidan umumiy qoida sifatida tan olingan xalqaro odatlar; tavsiyaviy xususiyatga ega xalqaro hujjatlar, masalan, deklaratsiyalar va yo'riqnomalar; davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus xalqaro-huquqiy prinsiplar; migratsiya sohasidagi xalqaro-huquqiy institutlar, ular migrantlarning turli toifalarini qabul qilish va ular uchun tegishli huquqiy rejimlarni belgilash bilan shug'ullanadi.

Migratsiya jarayonlarini xalqaro-huquqiy tartibga solishning universal mexanizmlari yaxlit bir model sifatida ko'riladi. Ayrim huquqshunoslar bu modelni davlat migratsiya siyosati va migratsiya

tushunchalari bilan boyitish lozim, deb hisoblashadi⁵. Bular, xususan, "migrant" va "qabul qiluvchi davlat", "migrant" va "ish beruvchi" hamda "migrant" va "qabul qiluvchi davlat fuqarolari" o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq A.Yastrebovaning fikriga ko'ra, bu elementlarni xalqaro-huquqiy tartibga solishning universal mexanizmiga kiritish mumkin emas, chunki ular davlatlarning ichki masalalariga tegishlidir⁶.

Bizningcha, migratsiya jarayonlarini tartibga solish va migratsiya siyosatini shakllantirish mexanizmlarini ijtimoiy va tarixiy kontekstda aniq ajratish zarur, deb hisoblaymiz. Migratsiyani tartibga solishda umumiy prinsiplarni birlashtirish masalasi esa hali ham hal etilmagan.

R.A.Kalamkaryanning ta'kidlashicha, davlatlar olgan xalqaro majburiyatlar ichki huquq sohaslariga o'tib, xalqaro-huquqiy va ma'muriy-huquqiy funksiyalarni qamrab oladi. Uning fikricha, ma'muriy-huquqiy komponent xalqaro majburiyatlarning davlat ichki qonunchiligiga muvofiqlashtirilishini ta'minlaydi. Shu tarzda, xalqaro va ma'muriy-huquqiy tizimlar birgalikda xalqaro huquqning bajarilishini ta'minlashga xizmat qiladi⁷.

Migratsiya amaliyoti xalqaro majburiyatlarni bajarish bilan birga, milliy qonunchilikni qamrab olib, siyosiy boshpana berish, vatandoshlarni qaytarish va oilalarni birlashtirish kabi sohalarni o'z ichiga oladi. Migratsiyani xalqaro tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan qator universal va mintaqaviy shartnomalar mavjud bo'lib, ular milliy qonunchilikka hamda huquqni qo'llash amaliyotiga yo'nalishni ko'rsatib beradi. Masalan, 1990-yilda qabul qilingan BMTning Mehnatkash migrantlar va ularning oila a'zolarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyasi migrantlarning jamoat hayotida qatnashish huquqini (41-modda) va qator siyosiy huquqlarini kafolatlaydi (3-bo'lim)⁸.

¹ Тихомиров Ю.А. Правовое положение мигрантов: доклад на XVII Конгрессе Междунар. академии сравнительного права // Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения. 2006. № 6. Вып. 3. С. 16

² Акифьева И.В. Нормативно-правовая и индивидуально-правовая природа договора // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение: научно-теоретический и прикладной журнал. Тамбов, 2011. № 5 (11), ч. I. С. 11

³ Карташов В.Н. О соотношении понятий "правовая система общества", "система права", "структура права", "система законодательства" и "форма права" // Система права в Российской Федерации: проблемы теории и практики: материалы V междунар. науч. конф. М.: РАП, 2011. С. 103-104

⁴ Нехаичик В.К. Перспективы взаимодействия теории права и государства и отраслевой науки административного права в исследовании механизмов административно-правового воздействия // Современное правоведение: поиск методологических оснований. Жидковские чтения: материалы Всерос. науч. конф. М.: РУДН, 2011. С. 451

⁵ Куличенко Н.А. Конституционное право на свободу передвижения в России и Германии: автореф. дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.02. М., 2011. С. 15-18.

⁶ Ястребова А.Ю. Международно-правовые механизмы регулирования миграции: доктринальные подходы и опыт Российской Федерации: дисс. ... д.ю.н.: 12.00.10. М.: Дипл. академия министерства иностранных дел РФ, 2017. 580 с

⁷ Каламкрян Р.А. Имплементация норм международного права в правовой системе Российской Федерации как административно-правовой процесс правоприменительной практики государства // Международное право и международные организации. 2011. № 3 (7). С. 100.

⁸ Сафаров Б.А. К вопросу о понятии и сущности международных стандартов в области прав человека // Права человека в международном и национальном праве: сб. науч. ст. / науч. ред. Е.М.Павленко. М., 2015.

1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 13-moddasi har bir insonning o'z davlati ichida va tashqarisida harakatlanish hamda vataniga qaytish huquqini kafolatlaydi. 14-modda esa, ta'qibdan boshpana izlash va undan foydalanish huquqini o'z ichiga oladi. Biroq, boshpana huquqi xalqaro huquqda hali ham tavsiyaviy normalardan biri bo'lib qolmoqda.

BMTning 1967-yil 14-dekabrda Hududiy boshpana to'g'risidagi deklaratsiyasi boshpana izlovchi shaxslarni himoya qilishga qaratilgan muhim xalqaro-huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi⁹. Ushbu deklaratsiya davlatlarga siyosiy ta'qib yoki zo'rvonlikdan qochgan shaxslarga boshpana berishdagi asosiy prinsiplarni belgilaydi va inson huquqlarini himoya qilishda muhim qadam bo'ldi.

Bu deklaratsiya davlatlarga boshpana berish huquqini xalqaro majburiyat sifatida belgilamaydi, ammo shu bilan birga davlatlarni boshpana izlovchilarga nisbatan insonparvarlik qoidalariga amal qilishga chaqirib, ularning huquq va erkinliklarini himoya qiladi.

Qochoqlar maqomi to'g'risidagi 1951-yilgi Konvensiya migratsiya sohasidagi asosiy xalqaro shartnoma hisoblanadi va unga asoslangan mintaqaviy shartnomalar, odatda, qochoq tushunchasini qo'llashda ushbu Konvensiyaga tayanaadi¹⁰. Biroq Konvensiya zamonaviy muammolar yoki qurolli mojarolar davrida qochoq maqomini qanday amalga oshirish kerakligini inobatga olmaydi. 1992-yilda BMT Qochoqlar bo'yicha Oliy komissarligi tomonidan qabul qilingan qo'llanma qurolli mojarolar natijasida o'z vatanini tark etgan shaxslar qochoq maqomini ololmasliklarini belgilab qo'ydi¹¹.

Tabiiy yoki texnogen xususiyatga favqulodda vaziyatlar migratsiyaga olib keluvchi omillardan hisoblanadi. D.J. Bulesheva "ekologik migratsiya" tushunchasini kiritishni taklif qilib, unga tabiiy va texnogen omillar tufayli aholi yashash joyidan majburan ko'chishini kiritadi, bu holatda ularning hayoti va sog'lig'iga tahdidlar mavjud bo'ladi¹².

Shuningdek, xalqaro huquqda majburiy migratsiyaning bu turlari uchun alohida normalar ko'zda tutilmagan, biroq BMT Bosh Assambleyasining 1987-yil 11-dekabrda 42/186-sonli rezolyutsiyasida atrof-muhit yomonlashishi sababli migrantlarning yangi toifasi — "ekologik qochoqlar" kiritilgan. Ushbu hujjatda ba'zi mamlakatlarda aholining o'sishi va atrof-muhitning buzilishi jiddiy ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarayotgani ta'kidlangan.

D.K. Bekyashev va D.V. Ivanov BMTning migrantlarni himoya qilishdagi rolini qayd etib, ushbu konsepsiyani kengaytirish "muhtoj shaxslar" deb ataladigan yangi guruhning paydo bo'lishiga zamin yaratganini ta'kidlashadi¹³. Ularning fikricha, migrantlarni himoya qilishdagi asosiy omil milliy qonunchilikda uning aniq qayd etilishi emas, balki ushbu mexanizmning prinsipial mavjudligi hisoblanadi.

Fikrimizcha, migratsiyani xalqaro-huquqiy tartibga solishning universal mexanizmlarini takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlarni rivojlantirish lozim:

1. "Qochoq" tushunchasining kengaytirilishi va unga ta'qib qilish va inson huquqlarining omamaviy buzilishlarini qo'shish.

2. Qabul qiluvchi davlat majburiyatlari va xalqaro hamjamiyatning imkoniyatlari o'rtasida aniq bog'liqlik o'rnatish.

3. "Boshpana izlovchi" tushunchasi va tegishli huquqiy maqomni qochoqlar bo'yicha kelgusidagi xalqaro shartnomalarda aks ettirish.

4. Tabiiy yoki texnogen ofatlar tufayli majburiy ko'chgan migrantlar uchun maxsus qoidalar ishlab chiqish.

Xalqaro huquqda 1966-yildagi Inson huquqlari to'g'risidagi ikkita paktda barcha shaxslar uchun bir xil normalar belgilangan bo'lib, bu inson huquqlariga umuminsoniy va majburiy xususiyat bergan. Ammo inson huquqlarini amalda qo'llash davrlar, madaniyatlar va mamlakatlar o'rtasida o'zgarib turadi¹⁴.

1966-yildagi Inson huquqlari to'g'risidagi paktlar va BMTning 1985-yil 13-dekabrda Isti-

⁹ BMTning 1967-yil 14-dekabrda Hududiy boshpana to'g'risidagi deklaratsiyasi // https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/territorial_asylum.shtml

¹⁰ BMTning 1951-yil 28-iyuldagi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi konvensiya va 1967 yildagi unga qo'shimcha protokoli. // <https://www.unhcr.org/centralasia/wp-content/uploads/sites/75/2021/11/UNHCR-Refugee-conventions-2021-A5-v2-screen.pdf>

¹¹ Руководство по процедурам и критериям определения статуса беженцев (согласно Конвенции 1951 г. и Протоколу 1967 г., касающихся статуса беженцев). Женева: УВКБ ООН, 1992. С. 39

¹² Булешева Д.Дж. Экологическая миграция сегодня: проблемы и возможные решения // Управление персоналом. 2007. № 15.

¹³ Бекашев Д.К., Иванов Д.В. Международно-правовое регулирование вынужденной и трудовой миграции. – М., 2013. С. 10.

¹⁴ Витрук Н.В. Право, демократия и личность в конституционном измерении (история, доктрина и практика): избранные труды (1991–2012 гг.). М., 2012. С. 125.

qomat qilayotgan mamlakat fuqarosi bo'lmagan shaxslarning inson huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya chet elliklarning huquqlarini belgilaydi. Ularning ko'pincha huquqlari mahalliy fuqarolarniki bilan tenglashtiriladi¹⁵. Bunday huquqlar to'plami davlatning ixtiyoriga qarab belgilanadi, bu esa, migratsiyani huquqiy tartibga solish xalqaro va konstitutsiyaviy prinsiplarga asoslanadi.

Odamlarning mehnat harakatining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq huquqlar, erkinliklar va majburiyatlarning qo'shimcha ro'yxati talab qilinadi, deb hisoblaymiz. R.Sh.Davletgildeev mehnat migratsiyasini xalqaro-huquqiy tartibga solishdagi asosiy e'tiborni mehnat migrantlari huquqlari kompleksini rivojlantirish va himoya qilish jihatlariga o'tkazish nuqtai nazaridan insonparvarlashtirish va xalqaro-huquqiy hujjatlar mazmunida aks ettirish kabi tendensiyalarga e'tibor qaratadi¹⁶.

N.L. Lyutov va P.E. Morozov mehnatga oid xalqaro-huquqiy hujjatlarni BMT, XMT va mintaqaviy tashkilotlar tomonidan qabul qilingan hujjatlarga shartli ravishda tasniflashni taklif qilishadi¹⁷.

Xalqaro huquq mehnat migrantlarining maqomini ularning kasbiy huquq va erkinliklari bilan bog'lab, ish bilan ta'minlashda muayyan huquqiy rejimni nazarda tutadi. Shu bilan birga, migrantlarning huquqiy maqomining boshqa jihatlarini aralash xususiyatga ega. Migratsiyani tartibga solish chet ellik ishchilarning mamlakatga kirishi, ularning yashashi va mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini ro'yxatga olish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu xalqaro huquqda mehnat migrantlari uchun universal tartibga solish shaklini yaqqol namoyon etadi.

XMT 1998-yil 19-iyunda qabul qilgan "Mehnati sohasidagi asosiy prinsiplar va huquqlar to'g'risidagi deklaratsiya" xalqaro mehnat huquqining quyidagi maxsus prinsiplarini o'z ichiga oladi: kasaba uyushmalariga a'zo bo'lish va jamoaviy muzokaralar o'tkazish erkinligi; majburiy mehnatning barcha shakllarini taqiqlash; mehnat va kasbiy sohada kamsitishlarga qarshi kurashish¹⁸.

Ushbu prinsiplar mehnat migrantlarining kasbiy huquqlarini qabul qiluvchi davlat hududida amalga oshirish uchun asos bo'ladi. XMT konvensiyalarining bajarilishini nazorat qilish tizimi XMT Ma'muriy kengashi tomonidan amalga oshiriladi, u a'zo davlatlardagi milliy qonunchilik va amaliyotning ushbu normalarga mosligini baholaydi. Shu tariqa, mehnat migrantlariga nisbatan diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik faqat ishga joylashtirishning turli huquqiy shakllarida qo'llaniladi. XMTning 143-sonli konvensiyasida mehnat migrantlari uchun milliy tartibga oid aniq xalqaro-huquqiy normalar mavjud emas.

Bizning fikrimizcha, inson huquqlari, ayniqsa, mehnat migrantlarining huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlar a'zo davlatlarning milliy qonunlarida amaliy shaklda hayotga tatbiq qilinishi lozim. Shuningdek, davlatlar tegishli nazorat mexanizmlarini joriy etish imkoniyatini ko'rib chiqishi mumkin. XMT konvensiyalari asosidagi xalqaro-huquqiy tartib mehnat migrantlarini qabul qilishda universal standartlarni, shu jumladan, mezbon davlat fuqarolari bilan teng huquq va erkinliklarni ta'minlashga qaratilgan. Bu sohada maxsus nazorat vazifalarini joriy qilish ehtimoli esa aslida kam bo'ladi.

Yuqorida qayd etilganidek, mehnat migrantlarining kasbiy huquqlarini ta'minlash bo'yicha ko'plab XMT standartlari qabul qiluvchi davlatlarda amalga oshirilishiga qaramay, ular ko'pincha maslahat tavsiyalari ko'rinishida qolmoqda.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, migratsiyani xalqaro-huquqiy tartibga solishning zamonaviy mexanizmlari inson huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan bo'lsa-da, qator konseptual va normativ bo'shliqlar saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, ekologik migratsiya, boshpana izlovchilar va mehnat migrantlarining huquqiy maqomini aniq belgilash zarurati mavjud. Xalqaro majburiyatlarni milliy qonunchilikka samarali implementatsiya qilish va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish migratsiya sohasida barqaror huquqiy tizimni shakllantirishning asosiy sharti hisoblanadi.

¹⁵ BMTning 1985-yil 13-dekabrda qabul qilayotgan mamlakat fuqarosi bo'lmagan shaxslarning inson huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya // https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/not_nationals_rights.shtml

¹⁶ Давлетгильдеев Р.Ш. Международно-правовое сотрудничество государств-участников СНГ в области трудовой миграции на современном этапе // Международное право: вызовы современности / отв. ред. А.И.Абдуллин, Л.Х.Мингазов, Г.Р.Шайхутдинова. Казань: Казанский ун-т, 2013. С. 36

¹⁷ Лютов Н.Л., Морозов П.Е. Международное трудовое право: учеб. пособие / под науч. ред. К.Н.Гусова. М.: Проспект, 2011

¹⁸ Устав Международной организации труда и тексты отдельных актов // Международная организация труда: официальный сайт. - 16 декабря 2022 г. - URL: <https://www.ilo.org/sites/default/files/2024-05/ILO%20Constitution-2021-%5BJUR-221020-002%5D-Web-RU.pdf>.

Saudiya Arabistoni: turizm sohasiga oid ayrim ma'lumotlar

AKRAMXODJAYEV Bori Toxtaxodjayevich

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti katta ilmiy xodimi, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Annotatsia: maqola mualliflari Saudiya Arabistoni Qirolligining turistik salohiyatini namoyon qilib, uning geografiyasi, ma'muriy tuzilishi, ishlar infratuzilmasi va yangi qurilish loyihalari hamda transport, havo va avtomobil transporti to'g'risida ma'lumot berib, turistik infratuzilmaga kiruvchi obyektlar va mehmonhonalar to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirganlar.

Kalit so'zlar: Er-Riyad, Jidda, Makka, Madina, Muqaddas Masjid, Zamzam

Аннотация: Авторы статьи демонстрируют туристический потенциал Королевства Саудовская Аравия, предоставляют информацию о его географии, административной структуре, инфраструктуре и новых строительных проектах, а также о транспорте, воздушном и автомобильном транспорте, и дают подробные сведения об объектах и гостиницах, составляющих туристическую инфраструктуру.

Ключевые слова: Эр-Рияд, Джидда, Мекка, Медина, Священная мечеть, Замзам.

Poytaxti – Ar-Riyod (rasmiy poytaxt) va Jidda (ma'muriy poytaxt). Saudiya Arabistoni Qirolligi (arabcha: Al-Mamlaka al-Arabiya al-Saudiyya) – Janubi-g'arbiy Osiyoda, Arabiston yarim orolida joylashgan davlat. Shimolda Iordaniya, Iroq va Quvayt; sharqda Fors ko'rfazi va Qatar hamda Birlashgan Arab Amirliklari; janubi-sharqda Ummon; janubda Yaman; G'arbda esa Qizil dengiz va Aqaba ko'rfazi bilan chegaradosh.

Ma'muriy bo'linish.

Saudiya Arabistoni 13 ta viloyatga bo'lingan (mintaqat, yakka: mintaqat): Al-Baha; Al-Hudud ash-Shamaliyya; Al-Javf; Al-Madina; Al-Qossim; Ar-Riyod; Ash Sharqiyya; Asir; Ha'il; Jizan; Makka; Najron; Tabu.

Saudiya Arabistoni sayyohlik mehmonxonasi Geografiyasi.

Saudiya Arabistoni Arabiston yarim orolining taxminan 80 foizini egallaydi. Uning milliy chegaralari aniq belgilanmaganligi sababli, uning aniq maydoni noma'lum. Rasmiy hisob-kitoblarga ko'ra, u 2 217 949 km² ni tashkil qiladi, boshqa hisob-kitoblarga ko'ra esa, 1 960 582 km² dan 2 240 000 km² gacha. Shunga qaramay, Saudiya Arabistoni dunyodagi 14-eng katta davlatdir.

Mamlakat g'arbida, Qizil dengiz qirg'og'i bo'ylab Hijoz tog' tizmasi cho'zilgan. Janubi-g'arbiy qismida tog'lar 3000 metrgacha balandlikka yetadi. Ko'kalamzorligi va yumshoq iqlimi bilan sayyohlarni o'ziga jalb qiladigan Asir kurort mintaqasi ham shu yerda joylashgan. Sharq asosan cho'ldan iborat. Yaman va Ummon bilan chegaradosh Rub al-Xali cho'li Saudiya Arabistonining deyarli butun janubi va janubi-sharqini egallaydi. Saudiya Arabistoni hududining katta qismini ko'chmanchi badaviy qabilalar yashaydigan cho'llar va yarim cho'llar egallaydi. Aholi bir nechta yirik shaharlar atrofida, odatda g'arbda yoki sharqda qirg'oq bo'ylab joylashgan.

Din.

Saudiya Arabistonining rasmiy va yagona dini Islomdir. Aholining aksariyati Qur'on va Muhammad payg'ambarning sunnatiga qat'iy amal qiladi. Shialarning o'n foizi mamlakatning sharqiy viloyatlarida to'plangan. Saudiya hukumati boshqa din vakillarining mamlakatga kirishiga ruxsat beradi, ammo ularga o'z dinlarini amalda qo'llashni taqiqlaydi. Mamlakatda diniy politsiya kuchlari (mutava) mavjud. Shariat qo'riqchilari askarlari Islom qonunlarini buzishga urinishlarning oldini

olish uchun ko'chalar va jamoat joylarida doimiy ravishda patrullik qilishadi. Agar qonunbuzarlik aniqlansa, jinoyatchi tegishli jazoga tortiladi (jirimadan tortib boshini kesishgacha). Xalqaro xristian xayriya tashkiloti Open Doors tomonidan 2010-yilda o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, Saudiya Arabistoni xristianlarga nisbatan eng keng tarqalgan ta'qiblar bo'lgan mamlakatlar ro'yxatida uchinchi o'rinda turadi.

Saudiya Arabistonidagi asosiy bayramlar qatoriga kiradi Iyd al-Fitr (Ramazonning tugashiga bag'ishlangan bayram), Iyd al-Adha (Haj ziyoratiga to'g'ri keladi) va Milliy kun 23 sentyabrda. Bu vaqtlarda davlat idoralari va maktablar yopiladi¹.

Bundan tashqari, Saudiya Arabistonida 13 ta xalqaro aeroport mavjud. Agar sayyoh Saudiya Arabistoniga kelishni rejalashtirayotgan bo'lsa, anketani to'ldirishdan oldin barcha sayohat qo'llanmalari va bilimlardan xabardor bo'lishi lozim.

Mehmonxonalar.

Zamzam Grand Suites

5 yulduzli Zamzam Grand Suites Al-Bayt Towers majmuasida joylashgan. Unda sun'iy yo'ldosh televideniyesi va Muqaddas Masjid manzarasiga ega hashamatli studiyalar va kvartiralar mavjud.

Zamzam Grand Suites studiyalari va kvartiralar Muqaddas Masjiddan azon va ibodatlarini uzatuvchi ovoz tizimi bilan jihozlangan. Har bir xonada hashamatli hammom, dam olish maydoni va to'liq jihozlangan oshxona mavjud.

Zamzam Grand Suites apartmeni biznes markazi, 24 soatlik qabulxona va 70 000 m² savdo markaziga ega. Mehmonxona bo'ylab bepul Wi-Fi mavjud.

Mehmonxona Qirol Abdulaziz darvozasidan bir necha daqiqalik piyoda masofada joylashgan. Yer osti avtoturargohi 1400 ta mashinaga mo'ljallangan.

Dar Al Hijra Inter Continental

Ushbu 5 yulduzli mehmonxona Madina markazida qulay joylashgan. Mehmonlar Osiyo va xalqaro oshxonalarni taklif qiluvchi restorandan bahramand bo'lishlari mumkin. Mehmonxona Muhammad S.A.V. payg'ambarning Muqaddas Masjididan 500 metr uzoqlikda joylashgan.

Daj Al Hijra Inter Continental klassik uslubda bezatilgan keng xonalarni taklif etadi. Ba'zi xonalardan Uhud tog'larining manzarasi ochiladi. Har bir xonada hashamatli hojatxona buyumlari bilan jihozlangan marmar hammom mavjud.

Al Safa restorani har kuni nonushta, tushlik va kechki ovqat uchun ochiq. Mehmonlar dam olish kunlari turli xil arab taomlari va tematik kechki ovqat bufetidan bahramand bo'lishlari mumkin.

Sport zalida mashq qilgandan so'ng, Dar Al Hijra mehmonlari mehmonxonaning gazeta do'konidan sevimli gazetalarini olishlari mumkin. Mehmonxonada aviachiptalar sotiladigan turistik stol ham mavjud.

Mehmonxonalar tarmog'i: Intercontinental Hotels & Resorts

Al Faisaliah Hotel, A Rosewood Hotel

Ushbu hashamatli mehmonxona Ar-Riyodning nufuzli biznes va turar-joy tumani Olayada joylashgan. U ajoyib Al Faisaliah markazi va uning 250 metrlik osmono'par binosining bir qismidir.

Al Faisaliah Hotel 224 ta keng lyuks xonalar va lyukslarni taklif etadi. Mehmonlar, shuningdek yuqori darajadagi shaxsiylashtirilgan xizmatdan bahramand bo'lishadi. Barcha mehmonlar 24 soatlik xizmatkor xizmatidan foydalanadilar.

Boshqa dam olish maskanlari qulayliklariga sog'lomlashtirish klubi kiradi. Unda 20 metrli yopiq basseyn (faqat erkaklar uchun), sport zali, sauna va bug' xonalari mavjud.

Al Faisaliah mehmonxonasi mehmonlari qo'shni Al Faisaliah markazining hashamatli savdo va ko'ngilochar imkoniyatlaridan ham bahramand bo'lishadi. Diplomatik tuman, shuningdek savdo va biznes markazlari ham osonlikcha yetib borish mumkin.

Mehmonxona tarmoqlari.

Ramada mehmonxona tarmog'i

Xalqaro mehmonxona tarmog'i Ramada Saudiya Arabistonining Makka shahrida o'zining eng katta mehmonxonasini ochdi. Endi butun dunyodan ko'plab ziyoratchilar Muqaddas Masjidga yaqin joyda qolishlari mumkin bo'ladi.

Mehmonxona Haram tumanida, har yili millionlab dindorlar ziyorat qiladigan Musulmonlar Muqaddas Masjididan chorak mil uzoqlikda joylashgan. 29 qavatli mehmonxonada 998 ta xona mavjud. Unda yer osti avtoturargohi va to'rtta restoran mavjud. Har bir xonada internet, telefon, televizor va seyf mavjud.

Mehmonxona Riyadh International Hotels and Resorts ga tegishli va Al Massa Hotels tomonidan boshqariladi. Bu Ramadaning Makkadagi ikkinchi va Saudiya Arabistonidagi 11-mehmonxonasi.

¹ <https://www.visasaudia.org/uz/quick-facts-and-information-about-saudi-arabia>.

Inter Continental Hotels Group

Inter Continental Hotels Group Al Xobar-da yangi mehmonxona ochilishini e'lon qildi. Bu mashhur mehmonxona tarmog'ining Saudiya Arabistonidagi 20-mehmonxonasi.

Ushbu hashamatli mehmonxona shahar markazida joylashgan bo'lib, uni ham ishbilarmonlar, ham dam olish uchun kelgan sayohatchilar uchun jozibador qiladi. Inter Continental Al Khobar mehmonxonasi plazma televizorlar, sun'iy yo'ldosh televideniyesi va Wi-Fi bilan jihozlangan 120 ta chiroyli jihozlangan xona va lyukslarni taklif etadi. Mehmonlar shuningdek, isitiladigan tom-dagi basseyn, spa va zamonaviy mashq uskunalar bilan jihozlangan sport zalidan bahramand bo'lishlari mumkin.

Inter Continental Hotels Group butun dunyo bo'ylab 150 ta mehmonxonaga egalik qiladi va tez orada yana 53 ta mehmonxona ochishni rejalashtirmoqda.

Transport va Temir yo'llar.

Saudiya Arabistoni nisbatan rivojlanmagan temir yo'l tarmog'iga ega. Hozirda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish Riyod va Dammam o'rtasidagi liniya bilan cheklangan. Yo'nalish bo'ylab boshqa stansiyalar qatoriga Harad va Hafuf kiradi. Biroq poyezdlar qulaylik va xizmat ko'rsatish bo'yicha Yevropa standartlariga javob beradi. Chiptalar stansiyalardan sotib olinadi.

Mamlakatning chekka hududlariga yangi temir yo'l liniyalari qurilmoqda: Abu Ajram (Iordaniya chegarasidan 200 km janubi-sharqda), Makka va Jidda orqali Makka va Madina o'rtasida. Ushbu yangi yo'nalishlar 2010-yilda ochilishi rejalashtirilgan.

Yo'llar.

Yo'llarning umumiy uzunligi 152 044 km. Ulardan:

- Asfaltlangan yo'llar – 45 461 km.
- Asfaltlanmagan yo'llar – 106 583 km.

Saudiya Arabistonida ayollarga (har qanday millatga mansub) mashina haydash taqiqlangan. Ushbu qoida 1932-yilda Qur'onning konservativ talqini natijasida qabul qilingan.

Avtomobil transporti Qirollikda asosiy transport vositasi hisoblanadi. Mamlakat o'ng qo'l qoidasiga amal qiladi, transport odatda bir tomonlama, yo'l belgilari standart va aholi punktlarida tezlik chegarasi soatiga 40 km. Tezlikni oshirganlik uchun jarimalar joyida qo'llaniladi.

Jahonning 56 foiz aholisi ayni paytda shaharlarda istiqomat qiladi. Shaharlardagi barqarorlik va jamoatchilik farovonligi jahondagi barcha davlatlar hukumatlari uchun jiddiy muammo bo'lmoqda. Bu muammoni yechish uchun Saudiya Arabistoni gorizonttal osmono'par binolar ko'rinishidagi 170 km uzunlikdagi "The Line" ("Chiziq") futuristik shahar qurishga ahd qildi.

Loyihaning ishlab chiqaruvchisi Saudiya Arabistonining valiahd shahzodasi Muhammad ibn Salmon boshqaruvidagi mashhur NEOM texnoparkidir.

"The Line" nima o'zi?

"Chiziq" – NEOM tomonidan yaratilgan, inson uchun mo'ljallangan futuristik shahar konsepsiyasi bo'lib, loyiha an'anaviy shahar hayoti va urbanizm uchun o'ziga xos inqilob bo'lishi kutilmoqda. NEOM so'zi qadimiy yunoncha neos (yangi) so'zini bildiradi, yoki arabcha mustaqbal, yangi kelajak degani. Kelajak shahri "The Line"ning ilk rejasi 2021 yilning yanvarida NEOM direktorlar kengashi raisi Muhammad ibn Salmon tomonidan e'lon qilingan edi.

"The Line" Saudiya Arabistonida shahar rivojlanishi va tabiatni asrab qolish uchun uyg'unlikka erishishga qaratilgan².

Havo transporti.

208 ta aeroport mavjud, ulardan 73 tasi beton uchish-qo'nish yo'laklariga ega va uchasi xalqaro.

Saudiya Arabistonining havo transporti juda rivojlangan bo'lib, neft daromadlari hisobiga modernizatsiya qilingan. Asosiy aviatashuvchilar Saudia va Flynas bo'lib, ular xalqaro va ichki yo'nalishlarni ta'minlaydi. Yirik aeroportlar, jumladan, Jidda va Ar-Riyod, asosan Haj va Umra ziyoratchilarini tashiydi.

Asosiy aviakompaniyalar: "Saudi Arabian Airlines" (Saudia) – milliy aviatashuvchi, hamda arzon aviachiptalar taklif etuvchi "Flynas" va "Flyadeal".

Yirik havo bandargohlari: Qirol Abdulaziz xalqaro aeroporti (Jidda), Qirol Xolid xalqaro aeroporti (Ar-Riyod), Qirol Fahd xalqaro aeroporti (Dammam).

Haj va Umra: havo transporti ziyoratchilarni tashishda muhim o'rin tutadi, ayniqsa, Jidda aeroporti orqali millionlab insonlar o'tadi.

Xalqaro aloqalar: O'zbekiston va Saudiya Arabistoni havo qatnovi to'g'risidagi yangi huku-

² <https://kun.uz/45545175>.

matlararo bitim imzolagan bo'lib, bu ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi.

Rivojlanish: havo qatnovi infratuzilmasi "Vision 2030" dasturi doirasida kengaytirilmoqda, maqsad – mamlakatni global logistika markaziga aylantirish.

Saudiya Arabistoni havo transporti nafaqat yo'lovchi, balki yuk tashishda ham yetakchi hisoblanadi³.

Saudi Arabian Airlines milliy aviakompaniyasi keng ichki tarmoqqa ega. Mamlakatning barcha yirik shaharlari o'rtasida parvozlar amalga oshiriladi va samolyotlar odatda a'lo darajada. Qulaylik va xizmat ko'rsatish darajasi Yevropa standartlariga javob beradi. Poytaxt Ar-Riyod mamlakatning markazi bo'lib, ko'pgina mintaqalararo reyslar poytaxt orqali amalga oshiriladi. Kundalik reyslar quyidagi shaharlar o'rtasida amalga oshiriladi: Ar-Riyod, Dammam, Madina, Jidda va Tabuk. Reyslar haftasiga 2-4 marta boshqa, unchalik ahamiyatsiz yo'nalishlarga ham amalga oshiriladi.

Reyslar narxi manzilga qarab bir tomonlama 120 dollardan 150 dollargacha.

Portlar:

Qizil dengiz;	Farasan;
Jidda;	Fors ko'rfazi;
Yanbu al-Bahr;	Dammam;
Duba;	Jubail;
Rabih;	Xafji;
Jizan;	Al-Xubar.

Bojxona nazorati va turistik rasmiyatchiliklar.

Viza, chegara bojxonasi, sanitariya va veterinariya nazorati

Turistik vizalar quyidagi cheklavlarga bo'ysunadi: sayyohlar faqat guruhlarda va Saudiya Arabistoni sayyohlik agentliklari orqali sayohat qilishlari shart, ular mamlakatdan jo'nab ketgunga qadar ularga hamrohlik qiladilar.

Saudiya Arabistoni nisbatan qat'iy viza siyosatini yurgizadi. Faqatgina bir nechta qo'shni davlatlar (Bahrayn, Kuvayt, Ummon, Birlashgan Arab Amirliklari) fuqarolari mamlakatga vizasiz kirish huquqiga ega. Ushbu mamlakat fuqarolari faqat shaxsiy guvohnomasini ko'rsatish orqali Saudiya Arabistoni hududiga kirishi mumkin.

Saudiya Arabistoni eViza tizimini joriy etganidan so'ng qirqdan ortiq davlat fuqarolari mamlakat vizasiga onlayn ariza topshirish imkoniyati-

ga ega bo'ldi, ammo O'zbekiston ushbu mamlakatlardan qatoriga kirmaydi.

Shu sababdan ham mamlakatimiz fuqarolari Saudiya Qirolligi vizasining har qanday turiga o'z arizalarini faqatgina Saudiya Arabistonining Respublikamizdagi rasmiy diplomatik vakolatxonalarida topshirishlari mumkin.

Vizaga ariza topshirish usullari

Saudiya Arabistoniga viza olish jarayoni sizning fuqarolingizga bog'liq bo'lib, quyidagi ikki usul orqali amalga oshiriladi:

Onlayn tarzda yoki mamlakatga kelgach viza olish (faqat eViza olish huquqiga ega mamlakat fuqarolari);

Mamlakatingizdagi Saudiya Arabistoni elchixonasiga murojaat qilish.

Saudiya Arabistoni vizasiga Elchixona / Konsullikka murojaat qilish

Elchixona yoki konsullikka murojaat qilganingizda, konsullik xodimlarining talabiga binoan bir nechta tasdiqlovchi hujjatlarni topshirishingiz kerak bo'ladi. Ba'zan vizaga murojaat uchun shaxsan borishingizga to'g'ri keladi, garchi ba'zi idoralar viza olish uchun arizalarni pochta orqali yoki vakolatli sayyohlik agentligi orqali qabul qilishlari mumkin.

To'ldirilgan ariza topshirilgach, arizani ko'rib chiqilishini 1-2 kun kutish kerak. Bu muddat ma'lum bir elchixona/konsullik faoliyatiga qarab ko'proq vaqt talab etishi mumkin. Ariza ko'rib chiqilganidan so'ng, vizani qabul soatlari davomida olsa bo'ladi⁴.

Chegarani kesib o'tayotganda sayyoh kirish vizasi bilan pasport va ingliz tilida to'liq ism-sharifi, tug'ilgan sanasi va joyi, fuqaroligi, millati, kasbi, pasport berilgan sana va joy, pasport raqami va vizani homiylik qiluvchi muassasa yoki shaxsni ko'rsatuvchi to'ldirilgan anketani taqdim etish kerak.

Quyidagi toifadagi fuqarolar Saudiya Arabistoniga kirishi taqiqlanadi: Isroil pasportiga ega bo'lgan shaxslar; pasportida Isroil vizasiga ega bo'lgan shaxslar; va yahudiy dinini ko'rsatuvchi muhrga ega bo'lgan shaxslar.

Shaxsiy foydalanish uchun Saudiya Arabistoniga jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan buyumlar bojxona bojiga tortilmaydi. Istisnalar orasida foto, radio va video uskunlari, yozuv mashinalari va kompyuterlar mavjud.

³ <https://www.mintrans.uz/uz/news/o-zbekiston-va-saudiya-arabistoni-havo-qatnovi-to-g-risidagi-yangi-hukumatlararo-bitimni-imzoladi>.

⁴ <https://kun.uz/news/2021/07/11/viza-turlari-va-tolovlari-saudiya-arabistoni-viza-tartibi-haqida>.

Shaxsiy foydalanish uchun yetarli miqdorda 1600 ta sigaret, atirlar va kundalik iste'mol uchun yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlarini bojsiz olib kirishga ruxsat beriladi.

Alkogolli ichimliklar, tarkibida cho'chqa go'shti bo'lgan mahsulotlar, o'qotar qurollar, pichoqli qurollar va tarkibida giyohvand moddalar bo'lgan dori-darmonlar (tibbiy ma'lumotnoma bilan tasdiqlanishi kerak bo'lgan shaxsiy foydalanish uchun bundan mustasno) import qilinishi taqiqlanadi.

Saudiya Arabistonidan eksport qilishda mamlakatda sotib olingan oltin buyumlar, antiqa buyumlar va san'at buyumlari uchun kvitansiyalar yoki schyot-fakturalar taqdim etilishi shart.

Mamlakatdagi sanitariya-epidemiologik vaziyat davlat idoralari tomonidan doimiy ravishda kuzatib boriladi. Sog'liqni saqlashning yaxshilanishi tufayli xavfli infeksiyalar tarqalishi sezilarli darajada kamaydi. Yosh bolalar mamlakatga kirishda poliomieli, ko'kyo'tal va qoqsholga qarshi emlashlar olishlari shart. Saudiya Arabistoni Qirolligiga kirish uchun tibbiy ma'lumotnoma talab qilinmaydi.

Haj (Makka va Madina muqaddas joylariga musulmonlarning ziyorat qilish) paytida mamlakatda sanitariya holatining yomonlashishi ehtimoli hisobga olinib, ziyoratchilar uchun profilaktika choralari alohida e'tibor qaratilmoqda. Chegarada qat'iy tibbiy kuzatuvdan tashqari, Haj hududida karantin lagerlari tashkil etilmoqda.

Hajga kelganlarning barchasi quyidagi emlashlardan o'tishlari va tegishli sertifikatlarini taqdim etishlari shart: sariq isitmaga qarshi emlash (epidemiya ro'yxatga olingan mamlakatlardan kelganlar uchun), virusli meningitga qarshi emlash (har qanday mamlakatdan kelganlar uchun), difteriyaga qarshi emlash.

Musulmon bo'lmaganlarning tashrif buyurishi taqiqlangan muqaddas Makka va Madina shaharlaridan tashqari, mamlakat ichida harakatlanishga hech qanday cheklovlar yo'q. Spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni iste'mol qilish taqiqlangan va qonun bilan qat'iy jazolanadi.

Chet elliklar uchun birinchi tibbiy yordam va davolanish pullik. Xususiy tibbiyot muassasalari naqd yoki naqd pulsiz to'lovlarni qabul qiladi. Tibbiy yordam uchun keng qamrovli xalqaro tibbiy sug'urta qat'iy tavsiya etiladi.

Saudiya Arabistonining davlat dini sunniy islomdir. Mamlakatda boshqa dinlar taqiqlangan.

Diniy buyumlarni, boshqa dinlarning ibodatxonalari va marosimlarini tasvirlaydigan rasmlarni, Rojdestvo tabriknomalari va boshqalarni import qilish taqiqlangan. Mamlakatga kirishda va yashash uchun ruxsatnoma olish uchun murojaat qilishda din deklaratsiyasi majburiydir.

Tashrif buyurgan chet elliklarga kamtarona kiyinish tavsiya etiladi: erkaklar, issiq ob-havoga qaramay, shim va ko'ylak kiyishlari kerak, ayollar esa bo'yinbog'siz keng, uzun kiyim kiyishlari kerak. Sochlarni yopish uchun bosh ro'moli majburiydir. Ayollar oyoqlari va qo'llarini bilaklarigacha yopishlari kerak. Mahalliy abaya, keng ro'mol, bu maqsad uchun idealdir. Diniy politsiya (mutavva) jamoat axloqining buzilishini, jumladan, kiyim-kechak bilan bog'liq holatlarni diqqat bilan kuzatib boradi. Umuman olganda, ushbu qoidalar e'tibor bermaslik ba'zi hollarda jiddiy oqibatlar olib kelishi mumkin.

2025-yilda 366 mingdan ortiq O'zbekiston fuqarolari Saudiya Arabistoniga tashrif buyurishdi, bu 2024-yilga nisbatan 71 foizga ko'p.

2025-yilda Saudiya Arabistonining turizm sektori yangi rekordlarni o'rnatdi va 122 milliondan ortiq mahalliy va xorijiy sayyohlarni qabul qildi. Turizm vazirligi ushbu statistika uning o'sishi va milliy iqtisodiyotga qo'shgan hissasi ortib borayotganini ko'rsatayotganini tasdiqladi.

Hukumat turizmga investitsiyalarni ko'paytirishga qaratilgan keng ko'lamli qonunchilik va tartibga solish islohotlarini amalga oshirdi. Shuningdek, u turizm mahsulotlarining sifati va miqdorini yaxshilashga hamda ilgari o'rganilmagan yo'nalishlarni ochishga e'tibor qaratdi. Shunday qilib, hukumat dam olish, madaniy, tabiiy va biznes bilan bog'liq turizmni rivojlantirishga, shuningdek yirik tadbirlarni o'tkazishga e'tibor qaratdi. Turizm vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda turizmga sarflanadigan umumiy xarajatlar 300 milliard CHF (80 milliard AQSh dollari) ga yetadi, bu 2024-yilga nisbatan 6 % ga oshadi. Bundan tashqari, sayyohlar sonining ko'payishi 2025-yilda o'tgan yilga nisbatan 5 % ga oshganini anglatadi. Natijada bu sektorni Saudiya Arabistonining 2030-yilga mo'ljallangan yillik 150 million sayyohni jalb qilish maqsadiga yaqinlashtiradi. So'nggi yillarda infratuzilma va xizmatlar sohasidagi hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi tufayli sektor sezilarli darajada o'sdi⁵.

⁵ <https://sgcpi.com/saudis-122m-tourists-spent-300b-2025#:~:text=Saudi%20Arabia's%20tourism%20sector%20set,contribution%20to%20the%20national%20economy.>

Globallashuv sharoitida barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlari tamoyillarining o'zaro uyg'unligi

SAIDOV A.A.

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti masul xodimi, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

AZIZOV Sh.

Barqaror rivojlanish markazi Toshkent viloyati bo'linmasi mas'ul xodimi, mustaqil izlanuvchi

Annotatsia: Mazkur maqolada barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning nazariy-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Barqaror rivojlanish konsepsiyasining vujudga kelishi, uning asosiy tamoyillari, inson huquqlari tizimi bilan uyg'un jihatlari hamda mazkur sohada milliy va xorijiy olimlar tomonidan bildirilgan ilmiy qarashlar tadqiq etilgan. Shuningdek, O'zbekistonda barqaror rivojlanish va inson huquqlarini ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari ochib berilgan. Maqola yakunida sohaga doir qonunchilik va institutsional mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, inson huquqlari, ekologik huquqlar, 2030 kun tartibi, ijtimoiy adolat, avlodlar o'rtasidagi adolat, fuqarolik jamiyati, ekologik xavfsizlik.

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретико-правовые основы взаимосвязи между Целями устойчивого развития и правами человека. Исследованы возникновение концепции устойчивого развития, её основные принципы, аспекты, согласующиеся с системой прав человека, а также научные взгляды, высказанные отечественными и зарубежными учёными в данной сфере. Кроме того, раскрыты конституционно-правовые основы обеспечения устойчивого развития и прав человека в Узбекистане. В заключительной части статьи выдвинуты предложения, направленные на совершенствование законодательства и институциональных механизмов в данной области.

Ключевые слова: устойчивое развитие, права человека, экологические права, Повестка дня на период до 2030 года, социальная справедливость, межпоколенческая справедливость, гражданское общество, экологическая безопасность.

Jahonda globallashuv jarayonlarining jadal-lashuvi davlatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytirib, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy taraqqiyot va ekologik xavfsizlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash masalasini dolzarb qilib qo'ydi. Ushbu sharoitda barqaror rivojlanish konsepsiyasi jahon hamjamiyati oldida turgan murakkab muammolarga tizimli yondashuv sifatida shakllandi¹.

Barqaror rivojlanish tushunchasi ilmiy va

siyosiy muomalaga keng miqyosda Brundtland komissiyasining "Our Common Future" ma'ruzasi orqali kirib kelgan bo'lib, unda mazkur tushuncha hozirgi avlod ehtiyojlarini kelajak avlodlar ehtiyojlariga zarar yetkazmagan holda qondirish sifatida ta'riflangan². Keyinchalik ushbu yondashuv 2015-yilda qabul qilingan "2030-yilgacha barqaror rivojlanish kun tartibi"da xalqaro miqyosda mustahkamlandi. Maz-

¹ <https://sdgs.un.org/2030agenda>.

² <https://sdgs.un.org/sites/default/files/documents/5987our-common-future.pdf>.

kur hujjatda 17 ta barqaror rivojlanish maqsadi va 169 ta vazifa belgilangan bo'lib, ularning o'zaro bog'liq va ajralmas ekanligi alohida ta'kidlangan³.

Inson huquqlari zamonaviy xalqaro huquqning asosiy institutlaridan biri hisoblanadi. 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi barcha insonlar uchun tenglik, qadr-qimmat va erkinlik tamoyillarini umume'tirof etilgan huquqiy standart sifatida belgilab berdi⁴. Shu nuqtai nazardan, barqaror rivojlanish va inson huquqlari bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro bog'liq huquqiy va ijtimoiy hodisalar sifatida baholanishi lozim⁵.

Barqaror rivojlanish faqat iqtisodiy o'sish tushunchasi bilan cheklanmaydi. U iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy tenglik va ekologik muvozanatning uyg'unligini ifoda etuvchi kompleks kategoriya hisoblanadi⁶. Mazkur yondashuvda inson manfaatlari ustuvor o'rin egallaydi, chunki taraqqiyotning haqiqiy maqsadi iqtisodiy ko'rsatkichlarni oshirish emas, balki inson uchun munosib va xavfsiz hayot sharoitini yaratishdan iborat.

Xorijiy olim Amartya Sen rivojlanishni inson erkinliklari va imkoniyatlarining kengayishi sifatida talqin qiladi⁷. Uning fikricha, jamiyat taraqqiyotini baholashda faqat daromad yoki ishlab chiqarish hajmi emas, balki shaxsning ta'lim olish, sog'lig'ini saqlash, ijtimoiy hayotda ishtirok etish va o'z salohiyatini namoyon etish imkoniyatlari asosiy mezon hisoblanadi⁸. Mazkur yondashuv barqaror rivojlanishni inson huquqlarining amaliy ifodasi sifatida anglash imkonini beradi.

Edit Braun Vayssning avlodlar o'rtasidagi adolat to'g'risidagi konsepsiyasi barqaror rivojlanishning yana bir muhim nazariy tayanchini tashkil etadi. Uning qarashiga ko'ra, har bir avlod tabiiy resurslardan foydalanishda kelajak avlodlar manfaatlarini ham hisobga olishi shart. Shu bois barqaror rivojlanish faqat bugungi kun manfaat-

larini emas, balki kelajak avlodlar huquqlarini ham muhofaza qilishga qaratilgan huquqiy va axloqiy majburiyat sifatida namoyon bo'ladi⁹.

Inson huquqlari barqaror rivojlanishning mazmuniy asosini tashkil etadi. Chunki qashshoqlikka barham berish, ochlikni kamaytirish, sifatli ta'lim, tibbiy xizmat, gender tengligi, toza suv va sog'lom atrof-muhit kabi yo'nalishlar inson huquqlarining asosiy tarkibiy qismlari bilan bevosita bog'liqdir¹⁰.

BMTning Inson huquqlari bo'yicha oliy komissari boshqarmasi 2030 kun tartibini inson huquqlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan global dastur sifatida baholaydi¹¹. Unda "hech kimni chetda qoldirmaslik" tamoyili alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur tamoyil tenglik, kamsitmaslik va ijtimoiy adolat g'oyalarini mustahkamlab, barqaror rivojlanishning insonparvarlik mohiyatini ochib beradi¹².

Barqaror rivojlanish maqsadlari mazmunan inson huquqlarining amaliy ko'rinishi hisoblanadi. Masalan, qashshoqlikni kamaytirish insonning munosib turmush darajasiga bo'lgan huquqi bilan, sifatli ta'lim ta'lim olish huquqi bilan, gender tenglik esa tenglik va kamsitmaslik prinsiplari bilan bog'liqdir¹³. Shuningdek, toza va sog'lom atrof-muhitda yashash huquqi zamonaviy sharoitda inson huquqlarining yangi avlod huquqlari doirasidagi muhim tarkibiy qismi sifatida baholanmoqda¹⁴.

Jon Noks va BMTning tegishli maxsus ma'ruzalarida atrof-muhitning buzilishi insonning hayot, sog'liq, suv va oziq-ovqatga bo'lgan huquqlariga bevosita tahdid solishi qayd etilgan¹⁵. BMT Bosh Assambleyasi 2022-yilda toza, sog'lom va barqaror atrof-muhitni inson huquqi sifatida e'tirof etdi¹⁶. Bu esa ekologik huquqlarni barqaror rivojlanishning markaziy elementlaridan biriga aylantirdi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda barqaror rivojlanish va inson huquqlari o'rtasidagi aloqadorlik

³ <https://sdgs.un.org/2030agenda>

⁴ <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>

⁵ <https://sdgs.un.org/2030agenda>

⁶ <https://sdgs.un.org/sites/default/files/documents/5987our-common-future.pdf>

⁷ <https://academic.oup.com/book/5560/chapter/148532484>

⁸ <https://academic.oup.com/book/5560/chapter/148532484>

⁹ <https://www.jstor.org/stable/2203020>

¹⁰ <https://sdgs.un.org/2030agenda>

¹¹ <https://sdgs.un.org/2030agenda>

¹² <https://sdgs.un.org/2030agenda>

¹³ <https://sdgs.un.org/2030agenda>

¹⁴ https://digitallibrary.un.org/record/3983329/files/A_RES_76_300-EN.pdf

¹⁵ <https://www.ohchr.org/en/statements-and-speeches/2017/05/statement-united-nations-special-rapporteur-john-h-knox-conclusion>

¹⁶ https://digitallibrary.un.org/record/3983329/files/A_RES_76_300-EN.pdf

keng tadqiq etilgan. Amartya Senning rivojlantirishni erkinliklar kengayishi sifatida anglatuvchi nazariyasi mazkur masalani inson qadr-qimmatini nuqtai nazaridan talqin qiladi¹⁷. Edit Braun Vayssa ekologik muvozanat va kelajak avlodlar manfaatlarini xalqaro huquqning asosiy tamoyillaridan biri sifatida baholaydi¹⁸.

Sakiko Fukuda-Parr fikricha, Barqaror rivojlanish maqsadlari avvalgi global rivojlanish dasturlariga nisbatan ancha keng qamrovli va transformativ xususiyatga ega bo'lib, ular tengsizlik, ishtirok, gender adolati va hisobdorlik kabi masalalarni ham qamrab oladi¹⁹. Bu qarashdan kelib chiqib, SDGlar faqat iqtisodiy yoki ijtimoiy emas, balki huquqiy va institutsional islohotlarni ham taqozo etishi anglashiladi.

Milliy ilmiy adabiyotlarda ham mazkur masalaga alohida e'tibor qaratilgan. M.Sh. Usmanov barqaror rivojlanish maqsadlarini o'zaro bog'liq, bir-birini mustahkamlovchi va to'ldiruvchi tizim sifatida baholaydi, hamda ularni inson huquqlarini ta'minlash bilan uyg'un ravishda tahlil qiladi²⁰. Ushbu yondashuv SDGlarining faqat iqtisodiy dastur emas, balki inson manfaatlariga yo'naltirilgan keng qamrovli ijtimoiy-huquqiy platforma ekanini ko'rsatadi.

B.A. Narimanov nodavlat notijorat tashkilotlarini jamiyat hayotidagi ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va madaniy-ma'rifiy muammolarni hal qilishda, shuningdek, BMTning 2030-yilgacha belgilangan 17 ta maqsad va 169 ta vazifalarini amalga oshirishda davlatning muhim hamkori sifatida baholaydi²¹. Mazkur fikr barqaror rivojlanish va inson huquqlarini ta'minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining o'рни nihoyatda muhim ekanini anglatadi.

Shu ma'noda, milliy va xorijiy olimlar qarashlarini umumlashtirgan holda shunday xulosa ga kelish mumkinki, barqaror rivojlanish inson huquqlarining amaliy mexanizmi, inson huquqlari esa barqaror rivojlanishning huquqiy va axloqiy poydevori hisoblanadi.

O'zbekistonda barqaror rivojlanish va inson huquqlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21 fevraldagi 83-son qarori bilan 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar, ularni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi, shuningdek muvofiqlashtiruvchi va ekspert guruhlarini tizimi belgilangan²².

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham inson kapitalini rivojlantirish, sifatli ta'lim, aholi salomatligini muhofaza qilish, kambag'allikni qisqartirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash kabi vazifalar davlat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan²³. Bu holat milliy islohotlarning SDGlar va inson huquqlari bilan uyg'un ravishda amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham inson huquqlari va barqaror rivojlanish tamoyillari o'zaro bog'liq holda mustahkamlangan. Xususan, Konstitutsiyaga muvofiq har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega, har kim qulay atrof-muhitga hamda uning holati to'g'risida ishonchli axborot olish huquqiga ega, har kim ta'lim olish huquqiga ega. Shuningdek, yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylik ekani, ulardan oqilona foydalanish zarurligi va ular davlat muhofazasida ekani belgilab qo'yilgan²⁴.

Mazkur konstitutsiyaviy normalar barqaror rivojlanishni huquqiy jihatdan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Zero, inson huquqlarini ta'minlash faqat deklarativ tamoyil emas, balki aniq huquqiy majburiyatlar tizimiga tayanadi.

Amaldagi islohotlarga qaramasdan, mazkur sohada qator vazifalar dolzarb bo'lib qolmoqda. Birinchidan, barqaror rivojlanish va inson huquqlari o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi yagona milliy konseptual hujjat qabul qilinishi maqsadga muvofiq. Bunday hujjat sohaviy islohotlarni umumiy huquqiy yondashuv asosida muvofiqlashtirish imkonini beradi.

¹⁷ <https://academic.oup.com/book/5560/chapter/148532484>

¹⁸ <https://www.jstor.org/stable/2203020>.

¹⁹ <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/13552074.2016.1145895>

²⁰ <https://cyberleninka.ru/article/n/bar-aror-rivojlanish-ma-sadlari-va-inson-u-u-larini-taminlash/pdf>

²¹ https://tsul.uz/files/avtoreferat/narimanov_bekzod_abduvalievich.pdf

²² <https://lex.uz/uz/docs/5870397>

²³ <https://lex.uz/docs/6600413>

²⁴ <https://lex.uz/docs/6445145>.

Ikkinchidan, ekologik huquqlarning amaliy kafolatlarini kuchaytirish zarur. Bu borada atrof-muhit to'g'risidagi axborotdan foydalanish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish va ekologik odil sudlov mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi²⁵⁻²⁶.

Uchinchidan, ta'lim tizimiga barqaror rivojlanish va inson huquqlari masalalariga bag'ishlangan maxsus o'quv kurslarini keng joriy etish lozim. Chunki mazkur sohadagi huquqiy madaniyat va ijtimoiy mas'uliyat darajasi ko'p jihatdan ta'lim orqali shakllanadi.

To'rtinchidan, davlat organlari faoliyatida hisobdorlik va ochiqlikni kuchaytirish, ayniqsa BRMLar ijrosini inson huquqlari indikatorlari bilan bog'liq holda baholash mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi. Bunda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining ishtiroki muhim ahamiyatga ega²⁷⁻²⁸.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlari zamonaviy huquqiy taraqqiyotning o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tarkibiy qismlaridir. Barqaror rivojlanish inson huquqlarining amaliy ro'yobiga xizmat qiladi, inson huquqlari esa barqaror rivojlanishning huquqiy va axloqiy poydevorini tashkil etadi.

Milliy va xorijiy olimlar qarashlari mazkur munosabatning nazariy asoslarini mustahkamlaydi. Amartya Sen rivojlanishni inson erkinliklari bilan, Edit Braun Vayss esa kelajak avlodlar manfaatlari bilan bog'lasa, milliy tadqiqotchilar barqaror rivojlanishni inson huquqlari, ijtimoiy tenglik va fuqarolik jamiyati ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmasligini ta'kidlaydilar.

Shu bois, barqaror rivojlanishni faqat iqtisodiy o'sish dasturi sifatida emas, balki inson qadri, ijtimoiy adolat, ekologik xavfsizlik va huquqiy davlatchilikni ta'minlashga qaratilgan kompleks huquqiy model sifatida baholash maqsadga muvofiq.



²⁵ https://digitallibrary.un.org/record/3983329/files/A_RES_76_300-EN.pdf

²⁶ <https://www.ohchr.org/en/statements-and-speeches/2017/05/statement-united-nations-special-rapporteur-john-h-knox-conclusion>

²⁷ https://tsul.uz/files/avtoreferat/narimanov_bekzod_abduvalievich.pdf

²⁸ <https://lex.uz/uz/docs/5870397>

Sun'iy intellekt orqali sodir etilayotgan jinoyatlar: zamonaviy tahdidlar, huquqiy muammolar va ularga qarshi kurash masalalari

TESHABOYEV Akbarshoh Adxamjon o'g'li

O'z FA Davlat va huquq instituti bo'lim boshlig'i,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsia: Mazkur ilmiy maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan yangi turdagi jinoyatlar, ularning sodir etilish mexanizmlari, ijtimoiy xavflilik darajasi hamda milliy va xalqaro huquq tizimlari oldida paydo bo'layotgan muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, deepfake texnologiyalari, kiberfiribgarlik, avtomatlashtirilgan phishing tizimlari, AI yordamida shaxsga doir ma'lumotlarni noqonuniy yig'ish kabi jinoyatlarning o'ziga xos jihatlari ochib beriladi. Maqolada O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ham ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, kiberjinoyat, deepfake, AI, raqamli xavfsizlik, kiberfiribgarlik, algoritmik jinoyatlar, axborot xavfsizligi.

Аннотация. В данной научной статье анализируются новые виды преступлений, возникающих в результате стремительного развития технологий искусственного интеллекта, механизмы их совершения, степень общественной опасности, а также проблемы, встающие перед национальными и международными правовыми системами. Кроме того, раскрываются особенности таких преступлений, как мошенничество с применением технологии deepfake, кибермошенничество, автоматизированные системы фишинга и незаконный сбор персональных данных с помощью ИИ. В статье также выдвигаются научно-практические предложения по совершенствованию законодательства Республики Узбекистан.

Ключевые слова: искусственный интеллект, киберпреступность, deepfake, ИИ, цифровая безопасность, кибермошенничество, алгоритмические преступления, информационная безопасность.

Kirish: Bugungi kunda sun'iy intellekt insoniyat taraqqiyotining eng muhim texnologik omillaridan biriga aylanmoqda. Tibbiyot, iqtisodiyot, ta'lim, huquqni muhofaza qilish va davlat boshqaruvi kabi ko'plab sohalarida AI texnologiyalari samaradorlikni oshirmoqda. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalarning jinoiy maqsadlarda qo'llanilishi ham global xavfsizlikka jiddiy tahdid tug'dirmoqda.

Avvallari kiberjinoyatlar asosan oddiy zararli dasturlar yoki xakerlik harakatlari orqali amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi kunda sun'iy intellekt

yordamida jinoyatlar yanada murakkab, yashirin va aniqlanishi qiyin shaklga kirmoqda. AI yordamida ovoz va video qalbakilashtirish, avtomatik phishing xabarlarini yaratish, moliyaviy firibgarliklar, biometrik ma'lumotlarni buzish hamda ommaviy manipulyatsiya qilish holatlari ko'paymoqda.

Natijada "sun'iy intellekt jinoyat sodir etish vositasiga aylanmoqdam?" degan masala xalqaro huquq va kriminologiyaning eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda deyarli har

ikkinchi jinoyat axborot texnologiyalaridan foydalanish holda sodir etiladi¹.

Asosiy qism: Bugungi kundagi xalqaro amaliyotni kuzatishlar va qonunchilik tahliliga tayanish holda sun'iy intellekt orqali sodir etilayotgan jinoyatlarning quyidagi asosiy turlarini shakllantirsak maqsadga muvofiq bo'ladi:

Birinchisi, Deepfake texnologiyalari orqali firibgarlik sodir etish

Deepfake – bu sun'iy intellekt yordamida insonning ovozi, yuzi yoki videolarini sun'iy ravishda o'zgartirish texnologiyasidir². Mazkur texnologiya dastlab ko'ngilochar maqsadlarda yaratilgan bo'lsa-da, hozirda jinoyatchilar undan firibgarlik va manipulyatsiya vositasi sifatida foydalanmoqda.

Keling oddiy tilda tushuntirsak:
rahbar nomidan soxta audiolar yuborish;
davlat amaldori ishtirokidagi yolg'on videolar tayyorlash;

qarindoshingiz ovozini nusxalab pul talab qilish;

saylov jarayonlariga noqonuniy ta'sir o'tkazish va boshqa shu kabi holatlarni bunga misol qilib keltirsak bo'ladi

Ayrim davlatlarda millionlab dollar mablag' aynan AI-generated ovozlar orqali o'g'irlab ketilgan holatlar qayd etilgan.

Deepfake texnologiyalarining eng xavfli jihati shundaki, ular jamiyatda ishonch inqirozini yuzaga keltiradi. Kelajakda insonlar haqiqiy video va sun'iy yaratilgan tasvirni ajrata olmay qolishi mumkin.

Ikkinchisi, Sun'iy intellekt yordamidagi kiberfiribgarlik va phishing

An'anaviy phishing xabarlarini ko'pincha grammatik xatolari bilan ajralib turgan bo'lsa, sun'iy intellekt orqali yaratilayotgan zamonaviy phishing matnlari inson tiliga juda yaqin shaklda tayyorlanmoqda.

Bugungi kunda, AI quyidagilarni avtomatlashtirmoqda:

minglab phishing xatlarini yaratish;
shaxsiy ma'lumotlarga mos individual matn yozish;
foydalanuvchi psixologiyasini tahlil qilish;
real vaqt rejimida javob qaytarish.

Natijada firibgarlikning samaradorligi oshmoqda va oddiy foydalanuvchilar bunday hujumlarni aniqlashda qiynalishmoqda.

Uchinchisi, shaxsga doir ma'lumotlarni noqonuniy yig'ish

Sun'iy intellekt katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatiga ega. Ayni vaqtda jinoyatchilar sun'iy intellekt yordamida:

ijtimoiy tarmoqlardan ma'lumot yig'ish;
biometrik identifikatsiyani buzish;
yuzni aniqlash tizimlaridan noqonuniy foydalanish;

fuqarolar profilini shakllantirish kabi harakatlarni amalga oshirmoqda.

Bu esa insonning shaxsiy hayoti daxlsizligi va konstitutsiyaviy huquqlariga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin.

To'rtinchidan, zararli dasturlarni tarqatish orqali jinoiy niyatlarni amalga oshirish.

Sun'iy intellekt asosidagi zararli dasturlar mustaqil ravishda:

zaif tizimlarni qidirishi;
himoya mexanizmlarini o'rganishi;
antiviruslardan yashirinishi;
o'z kodini o'zgartirishi mumkin.

Bu esa an'anaviy kiberxavfsizlik choralarining samarasini pasaytiradi. AI-powered malware kelajakda global infratuzilmalar uchun katta xavf bo'lishi mumkin.

Sun'iy intellekt jinoyatlarining kriminologik xususiyatlari

Tadqiqot davomida sun'iy intellekt jinoyatlarining kriminologik xususiyatlarini ochishga harakat qilamiz. O'rganishlarga asoslangan holda, mazkur jinoyatlar quyidagi jihatlari bilan ajralib turishini aytishimiz kerak:

birinchisi, yuqori yashirinlik darajasi;
ikkinchisi, AI orqali sodir etilgan jinoyatni aniqlash murakkab. Chunki ko'plab harakatlar avtomatlashtirilgan va raqamli izlar yashirilgan bo'ladi;

uchinchisi, transmilliy xarakterga ega bo'ladi;
to'rtinchisi, bunday jinoyatlar bir davlat hududi bilan cheklanmaydi. Jinoyatchi boshqa davlatda turib ham hujum uyushtirishi mumkin;

beshtinchi, juda tezkorlik bilan amalga oshiriladi;

¹ O'zbekistonda kiberjinoyatlar umumiy jinoyatlarning salkam yarmini tashkil qilyapti. IIV ularning sodir etilish usullarini ochiqdadi // <https://www.gazeta.uz/oz/2025/11/05/cybercrime/>

² Chesney, R., Citron, D. Deep Fakes: A Looming Challenge for Privacy, Democracy, and National Security. California Law Review, Vol. 107, 2019.

oltinchi, sun'iy intellekt minglab operatsiyalarni bir necha soniyada bajaradi;
yettinchi, ommaviy zarar yetkazish ehtimoli mavjud.

Bu dagani birgina AI dasturi millionlab foydalanuvchilarga zarar yetkazishi mumkin.

Sun'iy intellekt jinoyatlarining kriminologik xususiyatlari haqida ilmiy jamoatchilikning munosabatlari

Ilmiy adabiyotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'plab olimlar sun'iy intellekt orqali sodir etilgan jinoyatalarning xususiyatlari haqida ilmiy mushohadalar yuritishganining guvohi bo'lamiz. Keling ularni birma-bir ko'rib chiqamiz.

Amerikalik kriminolog Thomas J. Holt kiberjinoyatlar, jumladan AI yordamidagi jinoyatlar:

hudud bilan cheklanmasligi;

anonimlik yuqoriligi;

jinoyatchi va jabrlanuvchi o'rtasida masofa mavjudligi bilan an'anaviy jinoyatlardan farq qilishini ta'kidlaydi³.

Unga ko'ra, sun'iy intellekt jinoyat sodir etish tezligini va miqyosini keskin oshiradi. Ayniqsa avtomatlashtirilgan phishing va moliyaviy firibgarliklar "industrial scale crime"ga aylanishini qayd etadi.

Britaniyalik olim Majid Yar raqamli makonda sodir etilayotgan jinoyatlar uchun klassik kriminologiya yetarli emasligini aytadi.

U "digital criminology" tushunchasini ilgari surib, AI jinoyatlarining asosiy xususiyatlari sifatida:

virtual muhit;

identifikatsiyaning murakkabligi;

algoritmik vositachilik;

global ta'sir doirasini ko'rsatadi⁴.

Yarning fikricha, sun'iy intellekt jinoyatchilikning yangi "raqamli deviantlik" shaklini yuzaga keltirmoqda.

Professor Kathleen Richardson sun'iy intellekt bilan bog'liq eng katta muammo:

javobgarlikning noaniqligi;

inson va algoritm o'rtasidagi nazorat chegarasining yo'qolishi ekanligini ta'kidlaydi.

Uning fikricha, AI vositasida sodir etilgan jinoyatlarda:

dasturchi,

foydalanuvchi,

platforma,

algoritm egasi o'rtasidagi javobgarlik chegarasi murakkablashadi⁵.

Mashhur faylasuf Nick Bostrom sun'iy intellektning nazoratsiz rivojlanishi insoniyat uchun global xavf tug'dirishini ta'kidlaydi.

U AI bilan bog'liq jinoyatlar kelajakda:

avtonom qaror qabul qiluvchi tizimlar;

mustaqil zararli algoritmlar;

ommaviy manipulyatsiya ko'rinishida namoyon bo'lishini bashorat qiladi⁶.

David Wall esa AI yordamidagi jinoyatlarni kiberjinoyatlarning yangi evolyutsion bosqichi deb hisoblaydi.

U uchta asosiy belgini ajratadi:

avtomatlashtirish;

yuqori moslashuvchanlik;

aniqlash qiyinligi.

Wallning fikricha, AI jinoyatchilikni "low risk, high profit crime" modeliga aylantirmoqda⁷.

Italiyalik olim Luciano Floridi sun'iy intellekt bilan bog'liq jinoyatlar:

axborot manipulyatsiyasi;

algoritmik diskriminatsiya;

raqamli nazorat orqali inson huquqlariga tahdid solishini ko'rsatadi⁸.

U AI jinoyatlarida "informational harm" tushunchasini ilgari suradi.

BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik boshqarmasi hisobotlariga ko'ra, AI jinoyatlarining asosiy kriminologik xususiyatlari:

transmilliylilik;

anonimlik;

yuqori latentlik;

tez moslashuvchanlik;

masshtablilik hisoblanadi.

Hisobotlarda ayniqsa:

deepfake;

AI phishing;

biometrik firibgarlik;

³ Holt, T.J. *Cybercrime Through an Interdisciplinary Lens*. Routledge, 2020.

⁴ Yar, M., Steinmetz, K.F. *Cybercrime and Society*. Sage Publications, 2019.

⁵ Richardson, K. "The asymmetrical 'relationship'". *SIGCAS Computers and Society*, 2016.

⁶ Bostrom, N. *Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies*. Oxford University Press, 2014.

⁷ Wall, D.S. *Cybercrime: The Transformation of Crime in the Information Age*. Polity Press, 2007.

⁸ Floridi, L., Cowlis, J. "A Unified Framework of Five Principles for AI". *Harvard Data Science Review*, 2019.

avtomatlashtirilgan kiberhujumlar global xavf sifatida baholanadi⁹.

INTERPOL ekspertlari AI jinoyatlarining quvidagi belgilarini ko'rsatadi:

- jinoyat sodir etish xarajatining kamayishi;
- jinoyat tezligining oshishi;
- deepfake orqali ishonch manipulyatsiyasi;
- kiberhujumlarning avtomatlashtirilishi¹⁰.

Markaziy Osiyoda AIning huquqiy va xavfsizlik jihatlarini o'rgangan tadqiqotchilardan biri Sumeyye Temirov hisoblanadi.

Uning fikricha, Markaziy Osiyo davlatlarida AI texnologiyalari:

birinchi navbatda nazorat va kuzatuv vositasi sifatida;

- yuzni tanish tizimlari;
- biometrik bazalar;
- algoritmik monitoring orqali qo'llanilmoqda¹¹.

Temirov AI orqali shaxsiy hayot daxlsizligi buzilishi; ommaviy raqamli kuzatuv; algoritmik diskriminatsiya; shaffoflik yetishmasligi kabi xavflar ortib borayotganini ta'kidlaydi.

Bir guruh olimlar tomonidan amalga oshirilgan "Digitalization and Artificial Intelligence in Central Asia" tadqiqotida mintaqa ekspertlari AI sohasidagi asosiy xavflar sifatida:

- huquqiy tartibga solishning sustligi;
- raqamli savodxonlik pastligi;
- kiberjinoyatlarga tayyor emaslik;
- ma'lumotlar xavfsizligi muammolarini ko'rsatadi¹².

Sun'iy intellekt texnologiyalari orqali sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ilmiy taklif va tavsiyalar

Birinchi taklif: O'zbekiston Respublikasi-ning "Sun'iy intellekt to'g'risida"gi alohida qonun qabul qilish kerak. Mazkur qonunda:

- AI tizimlarining huquqiy maqomini belgilash;
- xavf darajalarining toifalari va zararlarni aniqlashning usullarini belgilash;

- ishlab chiquvchining javobgarligi aniq ifoda etish;

- foydalanuvchi majburiyatlarini aniq belgilanishi lozim.

Ikkinchi taklif: Deepfake bo'yicha alohida javobgarlikni joriy etish maqsadga muvofiq.

Bunda soxta audio va videolar orqali:

- firibgarlik;
- shaxsni obro'sizlantirish;
- manipulyatsiya uchun javobgarlik kuchaytirilishi kerak.

Uchinchi taklif: O'zbekistonda AI xavfini baholash tizimini yaratish zarur.

Shu maqsadda, xorijiy davlatlar tajribasi asosida davlat organlari va yirik platformalar uchun majburiy "Algorithmic Impact Assessment" joriy etilishi maqsadga muvofiq.

To'rtinchi taklif: raqamli savodxonlikni oshirish uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rish kerak.

Bunda fuqarolar:

- deepfake'ni aniqlash;
- phishing'dan himoyalani;
- ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha mun-tazam o'qitilishi kerak.

Beshinchi taklif: maxsus kiberxavfsizlik markazlarini rivojlantirish

AI asosidagi tahdidlarni monitoring qiluvchi milliy markazlar tashkil etilishi zarur. Mavjudlari-ning faoliyati esa yanada rivojlantirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday markazlar:

- AI yordamida sodir etilayotgan kiberjinoyat-larni erta aniqlash;

- deepfake audio va videolarni verifikatsiya qi-lish;

- davlat axborot tizimlariga nisbatan avtomat-lashtirilgan hujumlarni monitoring qilish;

- shubhali algoritmik faollikni real vaqt rejimida kuzatish;

- raqamli firibgarliklarning yangi shakllarini prognozlash kabi funksiyalarni bajarishi lozim.

Ayniqsa, generativ sun'iy intellekt texnologi-yalarining ommalashuvi natijasida soxta ovoz, video va hujjatlar orqali sodir etilayotgan firib-garlik holatlari keskin ortmoqda. Bu esa nafaqat fuqarolarning mol-mulkiga, balki davlat organlari, moliya tizimi va jamoatchilik ishonchiga ham jid-diy xavf tug'diradi. Shu nuqtai nazardan, maxsus

⁹ UNODC. Artificial Intelligence and Crime: Challenges and Responses, 2024.

¹⁰ INTERPOL & UNICRI. Toolkit for Responsible AI Innovation in Law Enforcement, 2023.

¹¹ Temirov, S. Human Rights Risks in AI Adoption in Central Asia. University of Tartu, 2025.

¹² www.klover.ai/tech_advancement_ai_central_asia_analysis_kazakhstan_kyrgyzstan_tajikistan_turkmenistan_uzbekistan_indepth_analysis_2026.

markazlar huzurida AI-forensika laboratoriyalarini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur laboratoriyalar:

AI-generated kontentni aniqlash;

raqamli izlarni tahlil qilish;

algoritmik manipulyatsiyalarni ekspertiza qilish;

elektron dalillarni verifikatsiyadan o'tkazish bo'yicha faoliyat yuritishi zarur.

Xalqaro tajribada ham AI xavfsizligi bo'yicha maxsus institutlar shakllantirilmoqda. Jumladan, Yevropa Ittifoqida algoritmik xavflarni monitoring qilish tizimlari, AQSHda AI Safety Institute, Buyuk Britaniyada AI Security Institute kabi tuzilmalar tashkil etilgan. Mazkur institutlar sun'iy intellektning jinoiy maqsadlarda qo'llanilishi bilan bog'liq xavflarni baholash, prognozlash va oldini olish bilan shug'ullanmoqda.

O'zbekiston sharoitida esa bunday markazlar:

Ichki ishlar organlari;

DXX;

Raqamli texnologiyalar vazirligi;

Kiberxavfsizlik markazi;

bank-moliya sektori o'rtasidagi tezkor axborot almashinuvini ta'minlovchi yagona koordinatsion platforma sifatida faoliyat yuritishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, mazkur markazlar huzurida:

AI tahdidlari reyestri;

deepfake holatlari bazasi;

kiberjinoyatlar bo'yicha milliy analitik platforma yaratilishi zarur.

Eng muhimi, AI asosidagi tahdidlar doimiy ravishda evolyutsiyalashib borayotganligi sababli, mavjud kiberxavfsizlik markazlari faoliyatini faqat texnik himoya bilan cheklab bo'lmaydi. Ularning faoliyatiga:

kriminologik tahlil;

algoritmik audit;

raqamli ekspertiza;

texnologik risklarni baholash;

AI etikasi va huquqiy monitoring mexanizmlarini ham integratsiya qilish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-229-son qarori asosida Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tarkibida Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilgan.

Institut raqamli kriminalistika, kiberjinoyatlarni tergov qilish usullari, internet tarmog'idan ma'lumot yig'ish, maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanish sohalarida ta'lim, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va sud-ekspertiza faoliyatini amalga oshiradi¹³.

Shundagina davlat sun'iy intellekt asosidagi yangi avlod jinoyatlariga nisbatan proaktiv va kompleks himoya tizimini shakllantira oladi.

Xulosa: Sun'iy intellekt insoniyat taraqqiyoti uchun ulkan imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq ushbu texnologiyalarning nazoratsiz rivojlanishi yangi avlod jinoyatlarining paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa deepfake, AI-assisted fraud, avtomatlashtirilgan kiberhujumlar va shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy qayta ishlash global xavfsizlikka jiddiy tahdid tug'dirmoqda.

Kelajakda sun'iy intellekt bilan bog'liq jinoyatlar soni va murakkabligi ortishi ehtimoli yuqori. Shu sababli davlatlar nafaqat texnologik rivojlanishga, balki huquqiy va institutsional himoya mexanizmlarini yaratishga ham ustuvor ahamiyat qaratishi zarur.

Ayniqsa O'zbekiston sharoitida AI texnologiyalarini huquqiy tartibga solish, algoritmik shaffoflikni ta'minlash va kiberxavfsizlikni kuchaytirish yaqin istiqboldagi eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi.



¹³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 21 июндаги "Рақамли криминалистика соҳасида илмий-тадқиқот фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-229-сон қарори // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. // <https://lex.uz/ru/docs/-6977736>.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikni huquqiy tartibga solish va iqtisodiy rivojlantirish istiqbollar

RUSTAMOV Erkin Erkamovich

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsia: Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish va iqtisodiy rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari tahlil qilingan. Raqamli transformatsiyaning tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, soliq hisobotlarini taqdim etish, elektron hisob-kitoblarni amalga oshirish, shartnomalar tuzish hamda davlat xizmatlaridan foydalanish jarayonlariga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, raqamli platformalar, elektron hamyonlar, moliyaviy texnologiyalar, elektron tijorat, startup loyihalar, venchur moliyalashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarining tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o'rnini ochib berilgan. Raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida yuzaga kelayotgan huquqiy noaniqlik, raqamli tengsizlik, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolar aniqlangan. Xorijiy davlatlarning raqamli tadbirkorlikni tartibga solish tajribasi umumlashtirilib, ilg'or mexanizmlarni O'zbekistonning milliy huquqiy va iqtisodiy sharoitlariga moslashtirish zarurati asoslangan. Tadqiqot natijasida tadbirkorlik uchun yagona raqamli ekotizimni rivojlantirish, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, raqamli xizmatlar xavfsizligini ta'minlash hamda qonunchilikni zamonaviy texnologik o'zgarishlarga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, tadbirkorlik faoliyati, huquqiy tartibga solish, raqamli transformatsiya, raqamli platforma, elektron tijorat, elektron hamyon, moliyaviy texnologiyalar, startup loyiha, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, innovatsion ekotizim.

Аннотация: В статье проанализированы современные направления правового регулирования и экономического развития предпринимательской деятельности в условиях цифровой экономики. Раскрыто влияние цифровой трансформации на процессы государственной регистрации субъектов предпринимательства, представления налоговой отчетности, осуществления электронных расчетов, заключения договоров и получения государственных услуг. Рассмотрена роль цифровых платформ, электронных кошельков, финансовых технологий, электронной коммерции, стартап-проектов, венчурного финансирования и технологий искусственного интеллекта в развитии предпринимательства. Выявлены проблемы, связанные с правовой неопределённостью, цифровым неравенством, защитой персональных данных и обеспечением кибербезопасности. Обобщён зарубежный опыт правового регулирования цифрового предпринимательства и обоснована необходимость адаптации передовых механизмов к национальным правовым и экономическим условиям Узбекистана. По результатам исследования сформулированы выводы о необходимости развития единой цифровой экосистемы предпринимательства, поддержки инновационных проектов, обеспечения безопасности цифровых услуг и последовательной адаптации законодательства к современным технологическим изменениям.

Ключевые слова: цифровая экономика, предпринимательская деятельность, правовое регулирование, цифровая трансформация, цифровая платформа, электронная коммерция, электронный кошелёк, финансовые технологии, стартап, искусственный интеллект, кибербезопасность, инновационная экосистема.

Jahon iqtisodiyotida soʻnggi oʻn yillikda roʻy berayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, boshqarish va rivojlantirishning anʼanaviy shakllariga tubdan oʻzgarishlar olib kirmoqda. Raqamli iqtisodiyot – bu maʼlumotlar, onlayn platformalar, sunʼiy intellekt tizimlari va avtomatlashtirilgan jarayonlar asosida ishlovchi iqtisodiy tizim boʻlib, u tadbirkorlik subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, mavjud huquqiy tartibga solish mexanizmlarini ham tubdan qayta koʻrib chiqishni taqozo etadi. Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan belgilangan “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida mamlakatni mintaqaviy IT-markazga aylantirish ustuvor maqsadlardan biri sifatida belgilanganligi bejiz emas, zero raqamli iqtisodiyot mamlakatning global raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylangan¹. Oʻzbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish strategik ustuvor yoʻnalish sifatida belgilangan boʻlib, bu soha iqtisodiy oʻsishni taʼminlash, aholi bandligini oshirish, aholi daromadlarini koʻpaytirish va hayot sifatini yaxshilashda muhim rol oʻynaydi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning taʼkidlashicha, “har bir soha va har bir hudud raqamli texnologiyalar bilan hamohang rivojlanmasa, mamlakat taraqqiy etmaydi”². Shu sababli, tadbirkorlikni tartibga solish tizimi tobora soddalashtirilmoqda, mavjud qulayliklar doimiy ravishda kengaytirilmoqda va bu jarayonda raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim yordamchi vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari uning erkin va ochiq amalga oshirilishini kafolatlovchi muhim omil hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq, tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati) – iqtisodiy foyda olish maqsadida, oʻz tavakkalchiligi ostida amalga oshiriladigan, mulkka egalik qilish, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar koʻrsatishdan muntazam ravishda daromad olishga qaratilgan mustaqil faoliyat sifatida talqin etiladi³. Ushbu

taʼrif tadbirkorlikning mustaqillik, xavf-xatarni oʻz zimmasiga olish va tizimli daromad olish kabi asosiy belgilarini oʻzida mujassamlashtirgan. “Tadbirkor” tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari XVIII asr irland-fransuz iqtisodchisi Richard Kantillonning faoliyatiga borib taqaladi. U “tadbirkor” atamasini “mahsulot uchun maʼlum bir narxni toʻlaydigan hamda uni belgilanmagan narxda qayta sotadigan, resurslarni olish va ulardan foydalanish toʻgʻrisida qaror qabul qiluvchi, shu bilan birga korxonaning xavf-xatarini oʻz zimmasiga oluvchi shaxs” deb taʼriflagan. Ushbu yondashuv zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida ham oʻz dolzarbligini yoʻqotmagan boʻlsa-da, bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatining texnologik jihatlari uning huquqiy tartibga solinishiga ham yangi talablar qoʻymoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikning huquqiy asoslari quyidagi tarkibiy elementlarni oʻz ichiga oladi: birinchidan, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Fuqarolik kodeksi kabi umumiy normativ-huquqiy hujjatlar; ikkinchidan, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari toʻgʻrisida”gi Qonun⁴, makrofirma va kichik korxonalarni rivojlantirishni ragʻbatlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisidagi Prezident farmonlari kabi sohaga oid maxsus hujjatlar. Ushbu ikki darajadagi hujjatlar raqamli texnologiyalarni joriy etish sharoitida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishning asosiy yoʻnalishlarini belgilaydi. Prezident Shavkat Mirziyoyev raqamli transformatsiya sohasidagi saʼy-harakatlarni yuqori baholab, “Oʻzbekistonda inson kapitalini rivojlantirish, IT-parklar tashkil etish, dasturchilar tayyorlash, davlat xizmatlarini onlayn koʻrsatish boʻyicha qilinayotgan ishlar”ni alohida taʼkidlagan⁵. Bu esa tadbirkorlik muhitini raqamlashtirishda davlat rahbarining bevosita eʼtibori va qoʻllab-quvvatlashi muhim omil ekanligini koʻrsatadi.

Raqamli transformatsiya tadbirkorlik faoliyatining barcha jihatlariga – roʻyxatdan oʻtkazishdan tortib hisobot topshirishga qadar boʻlgan

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning “Raqamli hukumat ofisi bilan tanishish” chora-tadbirlari doirasidagi nutqi, 2025-yil 10-noyabr. “Xalq soʻzi” gazetasi, <https://xs.uz/uz/post/>.

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Cyber University” faoliyati bilan tanishuv chogʻidagi nutqi – Yangi Oʻzbekiston, 2026-yil 22-iyul. <https://yuz.uz/uz/news/>.

³ Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. <https://lex.uz/docs/-180552>.

⁴ Oʻzbekiston Respublikasining 28.10.2021 yildagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari toʻgʻrisida”gi OʻRQ-718-son qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-5708501>.

⁵ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 20 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/7233>.

jarayonlarga ta'sir ko'rsatmoqda. Bu borada O'zbekistonda qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2025-yil 11-avgustda Prezident tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalalari bo'yicha taqdimot ko'rib chiqilgan bo'lib, unda raqamli platformalarni joriy etish orqali tadbirkorlik faoliyatini yanada soddalashtirish choralari belgilandi. Raqamli iqtisodiyotning muhim elementlaridan biri – barcha asosiy xizmatlarni birlashtiruvchi integratsiyalashgan raqamli platformalarni yaratishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yildagi qaroriga ko'ra, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun raqamli platformalarda ochilgan elektron hamyon tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan va daromadlarni qabul qilish, xodimlar va kontragentlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash uchun mo'ljallangan bankda ochilgan hisobvaraqa tenglashtiriladi⁶. Bunda elektron hamyonga ega bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun bank hisobvaraqlarini ochish ixtiyoriy bo'ladi. Ushbu platformalar orqali foydalanuvchilar faoliyatni ro'yxatdan o'tkazish, bank hisobvaraqlarini ochish va boshqarish, soliqlarni hisoblash va to'lash, operatsiyalarni amalga oshirish hamda fiskal cheklarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu qadam tadbirkorlar uchun ma'muriy to'siqlarni sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "elektron hamyon tizimi nafaqat tadbirkorlar, balki umumiy aholi uchun ham katta qulaylik yaratadi va iqtisodiy faollikni oshiradi"⁷. Raqamli iqtisodiyot sharoitida hujjat aylanishini raqamlashtirish ham muhim ahamiyatga ega. 2025 yil 1 noyabrdan boshlab raqamli platformalar orqali masofaviy biometriya vositasi yordamida identifikatsiya qilish va mobil telefon raqamiga SMS-xabar yuborish yo'li bilan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish

imkoniyati yaratildi⁸. Shuningdek, shartnomalar, to'lov bo'yicha farmoyishlar, elektron hisobvaraqa-fakturalar va qabul qilish-topshirish daloletnomalarini raqamli platformalarda masofaviy biometriya vositasi orqali identifikatsiya qilish va SMS-xabar orqali tasdiqlash usuli yordamida elektron raqamli imzodan foydalanmasdan imzolashga ruxsat etildi hamda bunday tarzda imzolangan hujjatlar qog'oz nusxadagi hujjatlar bilan teng yuridik kuchga ega deb topildi. Bu qadam tadbirkorlik subyektlari uchun ma'muriy to'siqlarni sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi. Prezidentimizning "davlat xizmatlari sohasiga sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish, har bir hayotiy vaziyatni tahlil qilib, odamlarga qulaylik yaratish muhimligi" haqidagi fikrlari hujjat aylanishini raqamlashtirishda ham innovatsion yondashuvlarni qo'llash zaruratini ko'rsatadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq solish tizimi ham yangilanib bormoqda. Soliq organlari tomonidan elektron platformalar orqali tadbirkorlik faoliyatini monitoring qilish, soliq hisobotini onlayn topshirish va soliq to'lovlarini avtomatlashtirilgan tartibda hisoblash imkoniyati yaratilmoqda. Bu jarayonlar Prezidentning "raqamli texnologiyalarni keng joriy etish" bo'yicha ko'rsatmalariga muvofiq amalga oshirilmoqda⁹. Bu borada alohida e'tiborga loyiq jihat shundaki, raqamli soliq ma'muriyatchiligi nafaqat davlat uchun, balki tadbirkorlar uchun ham qulaylik yaratadi. Soliq hisobotini onlayn topshirish, soliq to'lovlarini avtomatlashtirilgan tartibda amalga oshirish va soliq organlari bilan elektron muloqot qilish imkoniyati tadbirkorlarning vaqt va mablag' sarflarini kamaytiradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida startap-loyihalarni qo'llab-quvvatlash alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda startap-loyihalar uchun quyidagi huquqiy mexanizmlar yaratilgan: birinchidan, innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun davlat grantlari va subsidiyalar ajratish; ikkinchidan, IT-park rezidentlari uchun soliq va bojxona imtiyozlari belgilash; uchinchidan, venchur investitsiyalarini jalb qilish uchun huquqiy sharoitlar yaratish. O'zbekiston Respublikasi Preziden-

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 12 avgustdagi "Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-247-son qarori. <https://president.uz/uz/lists/view/8249>

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025 yil 11 avgustdagi "Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish" taqdimotdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/8249>

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5598-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-4090485>

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4699-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-4800657>

ting “Cyber University” davlat universitetini tashkil etish haqidagi qarori¹⁰ raqamli kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan muhim qadamdir. Ushbu universitetda “axborot va kiberxavfsizlik, sun’iy intellekt va robototexnika, kiberhuquq, raqamli kriminalistika hamda kiberiqtisodiyot” sohaları uchun xalqaro talablarga javob beradigan mutaxassislar tayyorlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Kelajakda sizdek mutaxassislariga ehtiyoj yanada oshadi. Har bir soha va har bir hudud raqamli texnologiyalar bilan hamohang rivojlanmasa, mamlakat taraqqiy etmaydi”¹¹ degan fikrlari raqamli iqtisodiyotning kadrlar tayyorlash tizimiga bo‘lgan talabini yaqqol ifodalaydi va startap-loyihalarni qo‘llab-quvvatlashda inson kapitalini rivojlantirish muhim ekanligini ko‘rsatadi. Moliyaviy texnologiyalar (fintex) raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘zbekistonda fintex sohasini rivojlantirish uchun quyidagi huquqiy asoslar yaratilgan: birinchidan, to‘lov tizimlari to‘g‘risidagi qonunchilik takomillashtirildi; ikkinchidan, kraudfanding va kraudinvesting mexanizmlari joriy etilmoqda; uchinchi-dan, blokcheyn texnologiyalari va kriptoaktivlarni tartibga solish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Prezidentimizning “mamlakatimizda moliya sohasini raqamlashtirish, aholi va tadbirkorlarga zamonaviy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish” bo‘yicha ko‘rsatmalari fintex rivojlanishining davlat siyosati darajasidagi ustuvor yo‘nalish ekanligini ko‘rsatadi. Elektron tijorat raqamli iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda elektron tijorat faoliyatini tartibga solish bo‘yicha quyidagi huquqiy normalar belgilangan: birinchidan, elektron shartnomalarni tuzish va imzolash tartibi; ikkinchidan, onlayn to‘lovlarni amalga oshirish qoidalari; uchinchi-dan, iste‘molchilarning onlayn xaridlardagi huquqlarini himoya qilish mexanizmlari. Ushbu normalar elektron tijorat subyektlari uchun ishonchli va xavfsiz muhit yaratishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, elektron tijoratni kengaytirish” bo‘yicha ko‘rsatmalari elektron tijorat sohasini rivojlantirish davlat tomonidan doimiy qo‘llab-quvvatlanayotganligini ko‘rsatadi.

Raqamli iqtisodiyotning eng muhim tendensiyalaridan biri tadbirkorlikning platformalashuvi hisoblanadi. Bu jarayonda an‘anaviy tadbirkorlik modellari o‘rnini platformali biznes modellari egallamoqda. Platformali biznes modellarida tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi munosabatlar raqamli platformalar orqali amalga oshiriladi, bu esa tranzaksion xarajatlarni kamaytirish, bozorlarga kirish to‘siqlarini pasaytirish va ko‘lamni tez kengaytirish imkonini beradi. Prezidentimizning “raqamli platformalar orqali tadbirkorlik faoliyatini yanada soddalashtirish, barcha zarur xizmatlarni bir tizimga birlashtirish” bo‘yicha ko‘rsatmalari platformali tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik ekotizimi o‘ziga xos shaklda rivojlanmoqda. Mazkur ekotizimga quyidagilar kiradi: birinchidan, raqamli platformalar va marketpleyslar; ikkinchidan, fintex va to‘lov tizimlari; uchinchi-dan, startap-akseleratorlar va venchur fondlari; to‘rtinchidan, raqamli kadrlar tayyorlash tizimi; beshinchidan, normativ-huquqiy baza va tartibga solish mexanizmlari. Prezidentning “innovatsiyalar va aerokosmik sanoat sohalaridagi loyihalar”ni qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishidagi ishlar innovatsion ekotizimni rivojlantirishda davlat rahbarining bevosita e‘tibori muhim ekanligini ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalar tadbirkorlik uchun ma‘muriy to‘siqlarni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Davlat xizmatlarini onlayn ko‘rsatish, elektron hujjat aylanishini joriy etish, masofaviy biometriya tizimlarini qo‘llash orqali tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari bilan munosabatlari soddalashtirilmoqda. Prezidentning “davlat xizmatlarini raqamlashtirish, ularni onlayn ko‘rsatishni kengaytirish” bo‘yicha ko‘rsatmalari bu jarayonlarning strategik ahamiyatini belgilaydi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikni tartibga solish bo‘yicha xorijiy mamlakatlarda turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, Yevropa Ittifoqida Yagona raqamli bozor strategiyasi doirasida tadbirkorlik uchun yagona raqamli qoidalar ishlab chiqilmoqda. AQShda esa raqamli platformalar va startap-loyihalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus dasturlar amalga oshirilmoqda. Xitoyda esa raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strate-

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 22 iyuldagi “Cyber University davlat universitetini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7332592>.

gik ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Buyuk Britaniya va Singapur kabi davlatlar esa raqamli tadbirkorlikni tartibga solishda eng ilg'or qonunchilik tizimlarini yaratgan bo'lib, ularda "sandbox" (qum qutisi) rejimi orqali innovatsion loyihalarni sinovdan o'tkazish mexanizmlari keng qo'llanilmoqda. O'zbekiston raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikni tartibga solish bo'yicha xorijiy tajribani milliy xususiyatlarga moslashtirgan holda joriy etmoqda. Bu jarayonda quyidagi jihatlar e'tibor qaratilmoqda: birinchidan, mahalliy iqtisodiy sharoitlar va ijtimoiy omillar; ikkinchidan, milliy qonunchilik va huquqiy an'analar; uchinchi, mavjud texnologik infratuzilma va kadrlar salohiyati. O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotda tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha milliy modeli quyidagi asosiy xususiyatlarga ega: birinchidan, davlat rag'batlantirishi va qo'llab-quvvatlashining yuqori darajasi; ikkinchidan, ma'muriy to'siqlarni bosqichma-bosqich kamaytirish; uchinchi, innovatsion ekotizimni shakllantirish va rivojlantirish; to'rtinchidan, xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribani inobatga olish.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim muammolaridan biri raqamli tengsizlik hisoblanadi. Aholining turli qatlamlari va mintaqalari o'rtasida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasidagi farqlar tadbirkorlik imkoniyatlarining notekis taqsimlanishiga olib keladi. Bu muammoni hal qilish uchun raqamli savodxonlikni oshirish, internet infratuzilmasini rivojlantirish va raqamli xizmatlardan foydalanishni qulaylashtirish choralari ko'rilmoqda. Raqamli iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish yuqori darajadagi raqamli xavfsizlikni talab etadi. Kiberhujumlar, shaxsiy ma'lumotlarning oshkor bo'lishi, firibgarlik va boshqa raqamli tahdidlar tadbirkorlik subyektlari uchun jiddiy xavf tug'diradi. Shu sababli, raqamli xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha quyidagi choralar ko'rilmoqda: birinchidan, kiberxavfsizlik standartlarini joriy etish; ikkinchidan, ma'lumotlarni himoya qilish qonunchiligini takomillashtirish; uchinchi, raqamli xavfsizlik bo'yicha xabardorlikni oshirish. Axborot xavfsizligi va raqamli texnologiyalarga ixtisoslashgan "Cyber University"ning tashkil etilishi raqamli xavfsizlik masalasiga davlat miqyosida ahamiyat berilayotganligini ko'rsatadi. Ushbu universitetda "kiberxavfsizlik, sun'iy intellekt va robototexnika, kiberhuquq, raqamli kriminalisti-

ka" kabi yo'nalishlarda kadrlar tayyorlanishi kibertahdidlarga qarshi kurashda muhim omil bo'ladi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi huquqiy tartibga solish tizimining mazkur o'zgarishlarga moslashuvida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Yangi raqamli biznes modellari, kriptoaktivlar, blokcheyn texnologiyalari, sun'iy intellekt tizimlari kabi innovatsion hodisalarning huquqiy tartibga solinishi ko'pincha amaliyotdan kechikkan holda amalga oshirilmoqda. Bu esa tadbirkorlik subyektlari uchun huquqiy noaniqlikni keltirib chiqaradi va investitsion muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Sun'iy intellekt texnologiyalari raqamli iqtisodiyotda tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Sun'iy intellekt tizimlari tadbirkorlik faoliyatini avtomatlashtirish, bozor tahlilini amalga oshirish, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish va yangi biznes modellarni yaratishda keng qo'llanilmoqda. Sun'iy intellekt yordamida tadbirkorlar ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, prognozlash, individual takliflar ishlab chiqish va operatsion jarayonlarni optimizatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Raqamli iqtisodiyotda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun innovatsion ekotizimni shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu ekotizimga quyidagi elementlar kiradi: birinchidan, texnologik parklar va akseleratorlar; ikkinchidan, venchur fondlari va biznes farishtalari (angel investorlar); uchinchi, startup-loyihalarni qo'llab-quvvatlash dasturlari; to'rtinchidan, raqamli kadrlar tayyorlash tizimi. Prezident tomonidan "innovatsiyalar va aerokosmik sanoat sohasidagi loyihalar"ni qo'llab-quvvatlash yo'nalishidagi ishlar innovatsion ekotizimni rivojlantirishdagi sa'y-harakatlarni yanada kuchaytiradi. "Cyber University" davlat universitetining tashkil etilishi esa innovatsion kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yaxshilaydi. Raqamli iqtisodiyotda tadbirkorlikni rivojlantirish xalqaro hamkorlikni kengaytirishni taqozo etadi. Bu jarayonda O'zbekiston raqamli texnologiyalar sohasidagi xalqaro loyihalarda ishtirok etish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, raqamli mahsulotlar eksportini oshirish va xalqaro standartlarga moslashish yo'nalishlarida faol ish olib bormoqda. Shuningdek, Prezidentning "xalqaro moliya institutlari va xorijiy investitsiya fondlari bilan hamkorlikni kengaytirish, zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv tajribasini jalb qilish" bo'yicha

ko'rsatmalari xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirishning strategik ahamiyatini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikning huquqiy-iqtisodiy rivojlanishi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u raqamli platformalar va elektron xizmatlarni joriy etish, huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, innovatsion ekotizimni rivojlantirish, ma'muriy to'siqlarni kamaytirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish kabi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi tadbirkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, raqamli tengsizlik, kiberxavfsizlik, huquqiy tartibga solishning ortda qolishi kabi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Ushbu muammolarni kompleks hal etish, Prezidentning "har bir soha va har bir hudud raqamli texnologiyalar bilan hamohang rivojlanmasa, mamlakat taraqqiy etmaydi" degan fikriga muvofiq, raqamli transformatsiya jarayonlarini barcha soha va hududlarni qamrab oladigan tarzda amalga oshirish zarur. Kelgusida raqamli iqtisodiyotda tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy istiqbolli yo'nalishlari sifatida sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish, innovatsion ekotizimni mustahkamlash, raqamli xavfsizlik tizimini takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirishni ko'rsatish mumkin. Bu yo'nalishlardagi tizimli ishlar O'zbekistonni mintaqaviy raqamli markazga aylantirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish va aholi bandligini ta'minlash kabi strategik maqsadlarga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "Kelajakda sizdek mutaxassislar ehtiyoj yanada oshadi. Har bir soha va har bir hudud raqamli texnologiyalar bilan hamohang rivojlanmasa, mamlakat taraqqiy etmaydi. Shuning uchun sizlar o'z ustingizda tinimsiz ishlab, eng zamonaviy bilimlarni egallashingiz kerak". Ushbu fikr raqamli iqtisodiyotda tadbirkorlikni rivojlantirishning muvaffaqiyati, avvalo, raqamli savodxonlik va innovatsion fikrlashga ega bo'lgan yuksak malakali kadrlar tayyorlash tizimiga bog'liq ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikning huquqiy-iqtisodiy rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki ijtimoiy adolatni mustahkamlash, aholi turmush darajasini oshirish va mamlakatning global raqo-

batbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuning uchun raqamli texnologiyalarni tadbirkorlikka integratsiyalash, ularning huquqiy asoslarini takomillashtirish va innovatsion muhitni shakllantirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qolishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Raqamli hukumat ofisi bilan tanishish" chora-tadbirlari doirasidagi nutqi // "Xalq so'zi" gazetasi. — 2025-yil 10-noyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Cyber University" davlat universiteti faoliyati bilan tanishuv chog'idagi nutqi // "Yangi O'zbekiston" gazetasi. — 2026-yil 22-iyul.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Ikkinchi qism. — 1996-yil 29-avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-328-son Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning raqamli transformatsiya, inson kapitalini rivojlantirish, IT-parklar tashkil etish, dasturchilar tayyorlash va davlat xizmatlarini onlayn ko'rsatishga oid nutqi. — Elektron manba.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-avgustdagi "Yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-247-son qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish" masalalari bo'yicha taqdimotdagi nutqi. — 2025-yil 11-avgust.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5598-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-son qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-yanvardagi "Cyber University" davlat universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-14-son qarori.

Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarni huquqiy himoya qilishga oid qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratini ta'minlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish

(Yaponiya va Janubiy Koreya davlatlari tajribasi asosida)

XUDOYBERDIEV Bahodir Karimberdievich

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi katta o'qituvchisi
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsia: Maqolada Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarini huquqiy himoya qilishga oid qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratini ta'minlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari tahlil qilinib, shuningdek xorijiy tajriba sifatida Yaponiya va Janubiy Koreya davlatlarida Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari huquqlarini himoya qilish hamda nazorat instituti (fuqarolik prokuraturasi, mustaqil etika kengashlari, ombudsman mexanizmlari va harbiy huquq himoyachilari) o'rganilib, uni milliy tizimga moslashtirish bo'yicha konseptual takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Qurolli Kuchlar, davlat, harbiy xizmatchi, huquqiy himoya, ijtimoiy himoya, qonunlar ijrosi, prokuror nazorati, harbiy prokuratura, O'zbekiston, Yaponiya, Janubiy Koreya.

Аннотация: В статье анализируются вопросы совершенствования нормативно-правовой базы обеспечения прокурорского надзора за исполнением законов, связанных с правовой защитой военнослужащих Вооруженных Сил, а также защитой прав военнослужащих Вооруженных сил в государствах Японии и Южной Кореи как зарубежный опыт, а также вопросы обеспечения прокурорского надзора за исполнением законов, связанных с правовой защитой военнослужащих Вооруженных сил.

Ключевые слова: Вооруженные силы, государство, военнослужащие, правовая защита, социальная защищенность, исполнение законов, прокурорский надзор, военная прокуратура, Узбекистан, Япония, Южная Корея.

Vatan himoyasi – sharaflı va mas'uliyatli burch.

Shavkat Mirziyoev

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Olii Bosh Qo'mondoni**

Har qanday davlatning mustahkamligi, uning suverenligi va hududiy daxlsizligi avvalo aynan shu davlatda qonun ustuvorligiga, samarali ishlaydigan davlat institutlariga hamda milliy xavfsizlikni ta'minlovchi tizimlarning ishonchli faoliyatiga

bevosita bog'liq hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Qurolli Kuchlar davlatning strategik xavfsizligini ta'minlovchi asosiy ustunlardan biri hisoblanadi. Bu tizim faoliyatining markazida esa inson harbiy xizmatchi turadi. U alohida huquqiy maqomga ega

bo'lgan shaxs sifatida davlat oldidagi muhim vazifalarni bajaradi, ko'pincha xavfli va yuqori tavakkalchilik sharoitida xizmat qiladi hamda qat'iy intizom va buyruqqa bo'ysinish tamoyillari asosida faoliyat yuritadi.

Harbiy xizmatning huquqiy maqomi konstitutsiyaviy norma darajasida quyidagicha mustahkamlab qo'yilgan: "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburlardir"¹. Huquqiy himoya tushunchasi faqatgina huquqlar mavjudligi bilan cheklanib qolmasdan, u huquqlarning amalda ta'minlanishi, ular buzilgan taqdirda samarali ravishda tiklanishi, shuningdek, aybdor shaxslarga nisbatan javobgarlik choralari-ning qo'llanilishi kabi omillarni ham qamrab oladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, aynan qonun normalarining ijrosi ko'p hollarda eng zaif bo'g'in sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, qonunlar ijrosi us-tidan prokuror nazorati harbiy sohada qonuniylikni ta'minlashning eng muhim kafolatlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash lozim, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatchilarning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan mustahkam normativ-huquqiy baza shakllangan. Xususan, so'nggi yillarda qabul qilingan qator qarorlar va me'yoriy hujjatlar ushbu sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Jumladan, 2025-yilning 24-fevral kungi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 71-sonli Prezident qarori² orqali harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar belgilandi. Shuningdek, 2005 yilning 19 avgust kungi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 158-sonli qarorida³ harbiy xizmatchilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning muhim mexanizmlari mustahkamlab qo'yilgan.

Qayd etilgan Prezident qarorlariga muvofiq, mamlakatimiz Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchi-

lari uchun uy-joy ijarasi bo'yicha kompensatsiyalar miqdori oshirildi, uy-joy sotib olish yoki qurish uchun ajratiladigan ipoteka kreditlarida boshlang'ich badal 35 foiz etib belgilandi. Bundan tashqari, ularni turar-joy bilan ta'minlash tartiblari soddalashtirildi, tibbiy xizmat, moddiy ta'minot va turli kompensatsiya mexanizmlari yanada takomillashtirildi. Bu chora-tadbirlar harbiy xizmatchilarning ijtimoiy barqarorligini ta'minlash, ularning xizmatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Biroq qonun normalarining o'z vaqtida va to'liq ta'minlanishi ustidan nazoratni tashkil etish prokuratura, ayniqsa harbiy prokuraturaning asosiy vazifasi hisoblanadi⁴.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — milliy qonunchilik doirasida harbiy xizmatchilar huquqiy himoyasining nazariy va amaliy asoslarini yoritish, prokuror nazoratining ijtimoiy-huquqiy ahamiyatini chuqur tahlil qilish hamda xorijiy tajribani o'rganish orqali milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Xususan, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda shakllangan mustaqil nazorat institutlari faoliyati tahlil qilinib, ularning ilg'or jihatlarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqola ilmiy-nazariy ahamiyati bilan bir qatorda, amaliy jihatdan ham muhim bo'lib, harbiy sohada qonuniylikni ta'minlashning zamonaviy yondashuvlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Harbiy xizmatchi — bu qonun hujjatlariga muvofiq ravishda harbiy xizmatni o'tayotgan va davlatning mudofaa hamda xavfsizlik vazifalarini bajarayotgan shaxsdir. Uning huquqiy maqomi o'ziga xos bo'lib, u bir vaqtning o'zida ikki xil tabiatni mujassam etadi. Bir tomondan, u davlat hokimiyati nomidan harakat qiluvchi, ommaviy-huquqiy funksiyalarni amalga oshiruvchi subyekt hisoblanadi. Ikkinchi tomondan esa, u barcha fuqarolar kabi konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarga ega bo'lgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Harbiy xizmatchining huquqiy maqomi aynan shu ikki jihat o'rtasidagi muvozanatga asoslanadi. Xizmat manfaatlaridan kelib chiqqan holda ayrim huquq va erkinliklarga cheklovlar qo'yilishi mumkin. Biroq bunday cheklovlar mutlaqo asosli, qonun bilan belgilangan, maqsadga muvofiq

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent - 2023 yil.

² <https://lex.uz/docs/7399907>.

³ <https://lex.uz/docs/755019>.

⁴ O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 29 avgustdagi "Prokuratura to'g'risida"gi 257-II-sonli Qonuni.

va mutanosib bo'lishi shart. Eng muhimi, ular insonning sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazmasligi lozim. Bu tamoyillar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 va 20-moddalarida⁵ mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomini belgilashda asosiy mezon sifatida xizmat qiladi.

Shu tariqa, harbiy xizmatchi nafaqat davlat xavfsizligini ta'minlovchi asosiy kuch, balki huquqiy davlat tamoyillarining amalda namoyon bo'lishini ta'minlovchi muhim ijtimoiy subyekt sifatida ham katta ahamiyatga ega. Uning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish esa davlat barqarorligining ajralmas sharti hisoblanadi.

Yaponiya davlatida Self-Defense Forces Act⁶ (1954) bo'yicha JSDF xizmatchilari "maxsus davlat xizmatchilari" sifatida qaraladi, fuqarolik huquqlarining ayrim cheklovlari qonun bilan belgilangan. Janubiy Koreyada Framework Act on Military Status and Service⁷ (2016, №13631) harbiy xizmatchining huquqlarini kafolatlaydi.

Huquqiy himoya — huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, buzilishning oldini olish, buzilganda tiklash, javobgarlik qo'llash, zararni qoplash, sud va boshqa himoya vositalaridan foydalanish imkonini beruvchi mexanizmlar tizimi. Huquqiy himoyaning muhim mezon — "amaliy natija".

Yaponiyada Prosecutorial Review Commissions (fuqarolik prokuraturasi nazoratining mustaqil komissiyasi) prokuror qarorlarini qayta ko'rib chiqadi. Janubiy Koreyada esa ACRC National Defense Ombudsman shikoyatlarni mustaqil tekshiradi.

Ijtimoiy himoya — davlatning harbiy xizmatchining xizmat sharoiti bilan bog'liq xavf va cheklovlarni kompensatsiya qilishga qaratilgan kafolatlar tizimi. U quyidagilarni qamrab oladi: moddiy ta'minot, uy-joy, tibbiy xizmat, ta'lim, reabilitatsiya, oila kafolatlari.

Janubiy Koreya Framework Act (Article 3-10) uy-joy, sog'liqni saqlash, ta'lim kafolatlarini batafsil belgilaydi.

Ta'kidlash lozim, qonunlar ijrosi — normativ talablarning amalda bajarilishi. Ijro sohasidagi uzilishlar huquq buzilishiga olib keladi.

Prokuror nazorati — qonunlarning bir xilda ijro etilishi ustidan davlat nazoratining maxsus shakli bo'lib, harbiy sohada bu nazoratning alohida ahamiyati bor, chunki harbiy tizim har bir suveren, mustaqil, demokratik davlatning ajralmas, muhim tayanchi bo'lib hisoblanadi.

Yaponiya harbiy xizmatchilarining huquqiy maqomi, umumiy tavsif. Yaponiyada harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomi Self-Defense Forces Act (1954, Act No. 165) orqali tartibga solinadi. JSDF xizmatchilari "maxsus davlat xizmatchilari" sifatida qaraladi. Harbiy sud tizimi yo'q — barcha jinoyat ishlari fuqarolik sudlari tomonidan ko'rib chiqiladi (Code of Criminal Procedure). Bu model inson huquqlariga ustuvor yondashuvni ta'minlaydi.

Yaponiyada harbiy xizmatchilar huquqlarini himoya qilishning institutsional mexanizmi shikoyatlar ichki tartibda (qo'mondonlikka, Mudo-faa vazirligiga) va ma'muriy apellyatsiya orqali amalga oshiriladi. Ethics Board (Article 10) tizimi aynan shu mavzuda mustaqil tekshiruv tartibida o'tkazadi.

Self-Defense Forces Personnel Ethics Board⁸ va Prosecutorial Review Commissions Ethics Board (Ministry of Defense ichida) — mustaqil organ hisoblanadi. Self-Defense Forces Personnel Ethics Act qonunning 11-moddasida: shikoyatlarni tekshirish, o'rganish disciplinary standards, 12-moddasida esa: Vazir Board fikrini eshitib jazo qo'llash tartib-taomillari haqida batafsil malumotlar keltirib o'tilgan.

Prosecutorial Review Commissions (11 a'zodan iborat, fuqarolardan) — prokuror qarorlarini qayta ko'rib chiqadi (non-indictment holatlari). Bu mexanizm harbiy xizmatchilar huquqlarini himoya qilishda shaffoflikni ta'minlaydi.

Yaponiya O'zini o'zi himoya qilish kuchlari xodimlari uchun imtiyozlar boshqa yirik sanoatlashgan mamlakatlardagi faol harbiy xizmatchilar uchun imtiyozlar bilan taqqoslanmaydi. Tibbiy yordam Yaponiya O'zini o'zi himoya qilish kuchlari umumiy kasalxonasida, o'n to'rtta mintaqaviy kasalxonada va harbiy inshootlar hamda bort kemalaridagi 165 ta klinikada ko'rsatiladi, ammo bu qamrov faqat xizmat paytida olingan kasalliklar

⁵ <https://lex.uz/docs/6445145#6445659>.

⁶ <https://www.japaneselawtranslation.go.jp>.

⁷ https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=68494.

⁸ <https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/3800/en>.

va jarohatlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish va davolashni qamrab oladi⁹.

Yaponiyada prokuror nazorati va harbiy adliya tizimi prokurorlar (Ministry of Justice) JSDF xizmatchilariga nisbatan jinoyat ishlarini qo'zg'atadi. Prokurorlar harbiy ierarxiyadan mustaqil tarzda faoliyat olib borishadi. Harbiy politsiya tergov o'tkazadi, lekin ishni prokurorga topshiradi.

Yaponiya tajribasining ijtimoiy-huquqiy ahamiyati Model fuqarolik nazorati, mustaqil etika kengashi va PRC orqali ishonchni oshiradi. 2020-yillar statistikasiga ko'ra, JSDFda huquqbuzarliklar kamaygan.

Xorijiy mamlakatlardan Janubiy Koreya qonunchiligi o'rganilganida, bu mamlakatda harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomi Framework Act on Military Status and Service (2016, №13631) orqali amamlga oshirilib, harbiy xizmatchilarning fundamental huquqlarini kafolatlaydi (Article 1-10: huquqlar, ijtimoiy himoya).

Military Prosecutors Harbiy prokurorlar Mudo-faa vazirining nazoratida o'z xizmat faoliyatlarini olib boradilar, lekin 2021-yildan apellyatsiyalar fuqarolik sudlari tartibida amalga oshirilishi joriy qilingan.

ACRC National Defense Ombudsman¹⁰ va NHRCK Military Human Rights Protector ACRC Ombudsman tuzilmasi harbiy sohadagi shikoyatlarni mustaqil tekshirish bilan shug'ullanadi. NHRCK 2025 Military Human Rights Monitoring¹¹da shikoyat, huquqbuzarliklarning kamayishi qayd etilgan.

Harbiy xizmatchilar huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirishda ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o'rganish va uni milliy qonunchilikka moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, Yaponiyada faoliyat yurituvchi Ethics Board hamda Janubiy Koreyadagi ACRC Ombudsman institutlari namuna sifatida e'tiborga loyiqdir. Bu tuzilmalar mustaqillik, xolislik va ochiqlik tamoyillari asosida faoliyat yuritib, davlat xizmatchilari, jumladan harbiy xizmatchilar faoliyatida qonuniylikni ta'minlashda samarali mexanizm sifatida xizmat qilmoqda. M a z k u r modellardan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda harbiy sohada ixtisoslashgan, nisbatan mustaqil nazorat organini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunday tuzilma Qurolli Kuchlar harbiy

xizmatchilarining murojaatlarini mustaqil ko'rib chiqish, ularning huquqlari buzilgan holatlar-da tezkor chora ko'rish va tizimli kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi. Shu orqali prokuror nazoratini qo'llab-quvvatlovchi qo'shimcha institutsional kafolatlar yaratiladi.

Zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalardan foydalanish harbiy xizmatchilar huquqiy himoyasini ta'minlash samaradorligini yanada oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shu maqsadda "Harbiy xizmatchining ijtimoiy maqomi" nomli yagona elektron platformani joriy etish taklif etiladi. Bu tizim orqali harbiy xizmatchilarning ijtimoiy ta'minoti, uy-joy masalalari, kompensatsiyalar va boshqa kafolatlar holati monitoring qilinishi mumkin bo'ladi.

Harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasini kuchaytirishda nafaqat institutsional va tashkiliy choralar, balki inson omili — huquqiy ong va madaniyat ham hal qiluvchi ahamiyatga ega sanaladi. Shu bois, harbiy xizmatchilar va mas'ul mansabdor shaxslar uchun muntazam ravishda o'quv kurslari, seminarlar va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish zarur. Bu tadbirlar orqali harbiy xizmatchilar o'z huquq va majburiyatlarini chuqurroq anglab yetadi, huquqbuzarlik holatlarining oldi olinadi hamda qonun ustuvorligiga nisbatan hurmat shakllanadi. Shuningdek, rahbar kadrlar uchun alohida o'quv dasturlarini joriy etish orqali boshqaruv qarorlarida qonuniylik va inson huquqlariga rioya qilish darajasi oshiriladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, harbiy xizmatchilarni huquqiy himoya qilishga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati davlatning ijtimoiy-huquqiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yaponiya va Janubiy Koreya davlatlari tajribasi shuni tasdiqlaydiki, mustaqil nazorat institutlari, shaffof va qulay shikoyat mexanizmlari hamda inson huquqlariga ustuvor yondashuv — Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari huquqlarini ishonchli himoya qilishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Bu ilg'or tajribalarni O'zbekiston milliy qonunchiligi tizimiga bosqichma-bosqich joriy etish harbiy xizmatchilarning huquqiy va ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirishga, Qurolli Kuchlarda qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

⁹ Nakaya Kazuhiro. Improving "Medical Readiness" of the Japan Ground Self-Defense Force: Drawing on the Lessons from the United States Army // Originally published in Japanese in Boei Kenkyusho Kiyo [NIDS Journal of Defense and Security]. – 2019. – Vol. 22, No. 1. – P. 1-22.

¹⁰ <https://www.acrc.go.kr>

¹¹ <https://www.humanrights.go.kr>.

Yo'l-transport hodisalarini oldini olishda "avariya o'choqlari" ning o'rne va ahamiyati

XADJAYEV Murodjon Abdulhamidovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jamoat xavfsizligini ta'minlash kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsia: Mazkur maqolada yo'l-transport hodisalarini oldini olish tizimida "avariya o'choqlari"ni aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish masalasi, avariya o'choqlarining shakllanish sabablari, ularni statistik va geoaxborot usullarida baholash mexanizmlari hamda muhandislik, tashkiliy va profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligi yoritilgan. Xalqaro tajriba va ilmiy yondashuvlar asosida kompleks profilaktika modeli taklif etiladi.

Tayanch so'zlar: yo'l-transport hodisasi, avariya o'choqi, xavfli hudud, profilaktika, yo'l infratuzilmasi, transport xavfsizligi

Аннотация: В данной статье освещены вопросы выявления, анализа и ликвидации "очагов аварий" в системе предупреждения дорожно-транспортных происшествий, причины формирования очагов аварий, механизмы их оценки статистическими и геоинформационными методами, а также эффективность инженерных, организационных и профилактических мероприятий. На основе международного опыта и научных подходов предлагается модель комплексной профилактики.

Ключевые слова: дорожно-транспортное происшествие, очаг аварии, опасная зона, профилактика, дорожная инфраструктура, транспортная безопасность.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish sohasida keng qamrovli tashkiliy-amaliy ishlar amalga oshirildi. Hududlarda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda piyodalarning huquqiy madaniyatini shakllantirish bilan bir qatorda jamoat xavfsizligi sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish hamda ushbu yo'nalishdagi ishlarni "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida tashkil etish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, o'limga olib kelgan yo'l-transport hodisalarining soni hali ham yuqori bo'lib, avtomobil yo'llarida xavfsizlikni ta'minlash tizimini tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "biz bugun xalqchil va demokratik tamoyillarga asoslangan yangi O'zbekiston davlatini, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etmoqdamiz. Shu maqsadda avvalo bebaho boyligimiz bo'lgan tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga eng muhim vazifa sifatida ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz. Bugun dunyoda va mintaqamizda, chegaralarimizda keskinlik, turli tahdid va xatarlar kuchayib borayotgan bir sharoitda bu masalaning qanday beqiyos ahamiyatga ega ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz"¹.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining 16-maq-sadi doirasida "yo'l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish

¹ M.Sh.Mirziyoev, Vatanimiz mustaqilligi – biz uchun kuch-qudrat va ilhom manbai, taraqqiyot va farovonlik asosi // Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi / [Elektron manba]. – URL: <https://president.uz/uz/lists/view/4596>.

orqali yo'llarda avariya va o'lim holatlarini qisqartirish, shu jumladan harakatni boshqarish tizimini to'liq raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta'minlash"² bo'yicha bir qator muhim vazifalar belgilangan. Shunday muhim vazifalardan biri xalqaro ahamiyatga ega avtomobil yo'llarining infratuzilmasini takomillashtirish va ularda xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish hisoblanadi.

Yo'l-transport hodisalari dunyo bo'ylab eng jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, har yili yo'l-transport hodisalari oqibatida 1.35 mlndan ortiq odam halok bo'ladi va 50 millionga yaqin kishi jarohatlanadi³. O'zbekistonda ham bu muammo dolzarb bo'lib qolmoqda.

2025-yilda O'zbekistonda 9226 ta YTH qayd etilgan, ular oqibatida 2188 nafar inson halok bo'lgan va 8901 nafar tan jarohati olgan. Bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan mos ravishda 1.5 foizga (9364 tadan 9226 taga), 0.5 foizga (2199 tadan 2188 taga), 0.3 foizga (8931 tadan 8901 taga) kamaygan⁴.

Bu raqamlar faqat oqibatlarini emas, balki sabablarni o'rganish va profilaktikaning muhimligini ko'rsatadi. Aynan shu yerda avariya o'choqlari konsepsiyasi muhim o'rin tutadi.

Qayd etish joizki, ommaviy axborot vositalarida, xususan Ichki ishlar organlari yo'l harakati xavfsizligi xizmatlari faoliyatida keng qo'llanilayotgan iboralardan biri "Avariya o'chog'i" hisoblansa-da, amalda mazkur tushunchaning huquqiy ta'rifi biron bir normativ-huquqiy hujjat bilan belgilab berilmagan. Bu esa, amaliyotda mutaxassislar tomonidan ushbu iborani turlicha talqin etish va undan turlicha mazmunda foydalanishni keltirib chiqarmoqda.

Alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 4-apreldagi PQ-190-son qaroriga⁵ muvofiq 29 ta indikator asosida har chorak yakuniga ko'ra tuman (shahar)lar bo'yicha "Xavfsiz yo'l" indeksi doirasida yo'l infratuzilmasi va

yo'l harakati qoidalariga rioya qilinishining holatini baholab borilishi va natijalari asosida yo'llarda harakat xavfsizligi ta'minlanganligi holati yuzasidan tuman (shahar)larni "yashil", "sariq" va "qizil" toifalarga ajratilishi belgilangan. Bunda indikator ko'rsatkichida "Avariya o'chog'i" ham ko'rsatilgan. Lekin yo'l-transport hodisasi qachon "avariya o'chog'i" deb atalishi hech qaysi me'yoriy hujjatlarda belgilanmagan.

Avariya o'choqlari deganda aksariyat insonlar – bu yo'lning biror qismi, chorraha, ko'cha yoki uchastkasida sodir bo'lgan YTH soni boshqa shunga o'xshash uchastkalarga nisbatan ko'proq bo'lishini nazarda tutishadi.

Avariya o'choqlariga xavf konsentratsiyasi yuzaga kelgan hudud sifatida ham qaralsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ularning shakllanishi yo'l infratuzilmasining kamchiliklari, transport oqimi intensivligining yuqoriligi, inson omili (qoidabuzarlik, malaka yetishmasligi), tabiiy-iqlim sharoitlari kabi omillarga bog'liq.

Bu joylarda hodisalar ko'pincha yo'l infratuzilmasidagi nuqsonlar (masalan, yetarlicha ko'rinish ta'minlanmaganligi, xavfli burilishlar, yetarlicha yo'l belgilari va jihozlari bilan ta'minlanmaganligi), Yo'l harakati qoidalarining qo'pol ravishda tez-tez buzilishi, tezlikni oshirish yoki piyodalarning qatnov qismini noqonuniy o'tishlari kabi sabablar tufayli yuzaga keladi.

Xalqaro tajribada ularni "crash hotspots" deb ham atashadi. Masalan, Avstraliyada bir uchastkada 5 yil ichida 3 ta og'ir hodisa bo'lsa, uni "avariya o'chog'i" deb hisoblashadi va bu yerda ko'rilgan choralarning natijasida hodisalar 85%gacha kamaygan misollar mavjud⁶.

Qaynoq nuqtalarni aniqlash – bu qabul qilib bo'lmaydigan darajada yuqori avariya xavfiga duchor bo'lgan yo'l uchastkalarini aniqlashning tizimli jarayoni. Bu arzon yo'l harakati xavfsizligini boshqarish strategiyasi bo'lib, unda ma'lum muammolarni yanada aniqroq aniqlash, tejamkor qarshi choralarni tanlash va aralashuv joylariga ustuvorlik berish uchun ko'proq atribut orasidan yo'l tarmog'i xususiyatlarining kichik guruhi tanlanadi. Ushbu aniqlangan xususiyatlar ko'pincha

² Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 05 (2023) / ISSN 2181-1415 331

³ World Health Organization. Global Status Report on Road Safety 2023. Geneva: WHO, 2023. – P. 6-12.

⁴ IIV JXD YHXX rasmiy hisoboti.

⁵ <https://lex.uz/5937573>

⁶ Xalqaro yo'l xavfsizligi tadqiqotlari, JSST va iRAP hisobotlari.

adabiyotlarda xavfli joylar, qaynoq nuqtalar, qora nuqtalar, investitsiya ustuvor joylari, to'qnashuvga moyil joylar yoki xavfli joylar kabi turli atamalar bilan ataladi⁷.

William Haddon Jr. ishlab chiqqan "Haddon Matrix" modeliga ko'ra, YTHlarni tahlil qilishda uch omil (inson, transport vositasi, muhit) va uch bosqich (hodisagacha, hodisa vaqtida, hodisadan keyin) hisobga olinishi lozim⁸. Avariya o'choqlarini baholashda aynan ushbu tizimli yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Rossiya Federatsiyasining "Yo'l harakati to'g'risida"gi Qonunida avariya o'chog'iga alohida atama berilgan. Xususan, aholi yashash punktidan tashqari 1 km.gacha bo'lgan yoxud aholi yashash joyida 200 m.dan ko'p bo'lmagan masofada 1 yil ichida 3 ta bir turdagi yoki 5 va undan ortiq turli xildagi yo'l-transport hodisasi sodir etilgan joy – avariya o'chog'i deyiladi⁹.

Avariya o'choqlarini aniqlash – ilmiy va statistik asosga qurilgan jarayon hisoblanadi. Bunda hodisalar soni va darajasi bo'yicha tahlil, hodisalar chastotasi va intensivligini, shuningdek geografik axborot tizimlari (GIS) va raqamli xaritadan foydalanish usullariga e'tibor qaratish lozim.

Statistik tahlil olib borilganda ma'lum davr mobaynida (odatda 1-3 yil) muayyan yo'l qismida qayd etilgan YTHlar soni tahlil qilinishi lozim. Bunda 1 km yo'lga to'g'ri keladigan hodisalar koefitsienti hisoblanadi.

Geoaxborot tizimlari (GIS) usulidan foydalanishda zamonaviy raqamli kartografiya orqali YTHlar joylashuvi aniqlanib, "issiq nuqtalar" xaritasi shakllantiriladi.

Transport intensivligi, tezlik, chorraha turi va piyodalar harakati kabi omillar asosida xavf darajasi indeksi hisoblanadi.

Avariya o'choqlariga e'tibor qaratish orqali resurslarni samarali taqsimlash mumkin bo'ladi, xususan butun yo'l tarmog'ini emas, balki eng xavfli joylarni yaxshilash choralari belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Asosiy e'tiborni muhandislik choralari, ya'ni yo'l belgilari va chiziqlarini o'rnatish, svetoforlar

qo'yish, tezlikni cheklovchi to'siqlar, yer osti o'tish joylarini qurish, yo'l qoplamasini yaxshilashga;

huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish maqsadida nazorat-profilaktik choralarni kuchaytirishga, foto-video qayd etish kameralarini o'rnatishga;

haydovchilar va piyodalar o'rtasida xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga qaratish natijasida hodisalar soni va oqibatlarini keskin kamayishiga erishish mumkin bo'ladi.

Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, avariya o'choqlarini bartaraf etish yo'l xavfsizligini umumiy darajada 20-50%ga oshiradi¹⁰.

Yo'llarda avariya o'choqlarini aniqlashning ahamiyati juda katta hisoblanadi, birinchidan inson hayotini saqlashda muhim rol o'ynaydi – har bir hodisaning oldini olish minglab oilalarning fojiasining oldini oladi;

ikkinchidan, davlatga iqtisodiy foyda (tibbiy xarajalar, transport ta'miri, moddiy zarar, ishchi kuchining yo'qotilishi) – BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi ma'lumotlariga ko'ra, YTHlar oqibatidagi iqtisodiy yo'qotishlar Markaziy Osiyo davlatlarida yalpi ichki mahsulotning 0.4 foizidan 4.1 foizigacha bo'lishi mumkin¹¹;

uchinchidan, ijtimoiy barqarorlik ta'minlanadi – yo'l xavfsizligini oshirish orqali jamiyatda ishonch va tartib mustahkamlanadi.

Yo'l-transport hodisalarini oldini olishda avariya o'choqlarining o'рни va ahamiyati beqiyosdir. Ularni aniqlash va bartaraf etish faqat statistika uchun emas, balki hayotni saqlash strategiyasi deb qarash lozim bo'ladi. O'zbekistonda qabul qilingan qonun va qarorlar bu yo'nalishdagi ishlarning samaradorligini oshirmoqda. Biroq bu faqat davlatning ishi emas. Har bir haydovchi, piyoda va mas'ul shaxs o'z hissasini qo'shishi kerak: qoidalarga rioya qilish, xavfli joylarda ehtiyotkor bo'lish va muammolar haqida xabar berish.

Yo'l xavfsizligi – umumiy mas'uliyat. Agar har bir fuqaro o'zidan boshlasa, avariya o'choqlari kamayib, hayot saqlanib qoladi. Kelajak avlod uchun xavfsiz yo'llarni yaratish – bizning umumiy vazifamiz bo'lib qoladi.

⁷ Identification of crash hot spots using kernel density estimation and K-means methods: a comparison. Lalita Thakali, Jae J. Kwon, Liping Fu // J. Mod. Transport. – 2015. – Vol. 23, No. 2. – P. 93-106. – P. 93.

⁸ <https://en.wikipedia.org>.

⁹ <https://Rg.ru> 17.09.2025 "Аварийные очаги будут определять по новым правилам".

¹⁰ iRAP va JCCT йўл хавфсизлиги ҳисоботлари.

¹¹ <https://zamin.uz>, 3.11.2025.

Sun'iy intellekt tushunchasi, turlari va huquqiy tabiati

XASANOV Muxriddin O'roqboy o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Davlat va huquq institutining katta ilmiy xodimi

Annotatsia: Mazkur maqolada sun'iy intellektning nazariy-huquqiy asoslari, uning texnologik turlari hamda zamonaviy huquqiy munosabatlardagi o'rne kompleks tarzda tadqiq etiladi. Sun'iy intellektning huquqiy tabiati, avtonom qaror qabul qilish, algoritmik javobgarlik va tushuntiriladigan sun'iy intellekt konsepsiyasi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada Alan Tyuring, Jon Makkarti, Styuart Rassell, Piter Norvig, Rayan Kalo, Lourens Solumning ilmiy yondashuvlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning pozitsiyalari va sun'iy intellektni tartibga solish bo'yicha xorijiy amaliyot tahlil qilinadi. Yevropa Ittifoqi, AQSh va Xitoyning sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish borasidagi yondashuvlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning milliy huquqiy asoslari alohida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot yakunida inson huquqlarini himoya qilish, shaffoflik, xavfsizlik, adolat, inson nazorati va yuridik javobgarlik tamoyillariga asoslangan sun'iy intellektni samarali huquqiy tartibga solish tizimini shakllantirish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, sun'iy intellektning huquqiy tabiati, algoritmik javobgarlik, tushuntiriladigan sun'iy intellekt, avtonom qarorlar, raqamli transformatsiya, inson huquqlari, huquqiy tartibga solish, yuqori xavfli sun'iy intellekt tizimlari, raqamli davlat.

Аннотация: В данной статье комплексно исследуются теоретико-правовые основы искусственного интеллекта, его технологические виды и место в современных правовых отношениях. Особое внимание уделяется вопросам правовой природы искусственного интеллекта, автономного принятия решений, алгоритмической ответственности и концепции объяснимого искусственного интеллекта. В статье анализируются научные подходы Алана Тьюринга, Джона Маккарти, Стюарта Рассела, Питера Норвига, Райана Кало, Лоуренса Солнума, а также позиции международных организаций и зарубежная практика регулирования искусственного интеллекта. Отдельно рассмотрены подходы Европейского союза, США и Китая к правовому регулированию искусственного интеллекта, а также национальные правовые основы внедрения технологий искусственного интеллекта в Республике Узбекистан. По итогам исследования обоснована необходимость формирования эффективной системы правового регулирования искусственного интеллекта, основанной на принципах защиты прав человека, прозрачности, безопасности, справедливости, человеческого контроля и юридической ответственности.

Ключевые слова: искусственный интеллект, правовая природа искусственного интеллекта, алгоритмическая ответственность, объяснимый искусственный интеллект, автономные решения, цифровая трансформация, права человека, правовое регулирование, высокорисковые системы искусственного интеллекта, цифровое государство.

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson sivilizatsiyasi taraqqiyotining yangi bosqichini shakllantirdi. Raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida sun'iy intellekt (Artificial Intelligence – AI) iqtisodiyot, dav-

lat boshqaruvi, tibbiyot, transport, ta'lim va huquq sohalarida keng qo'llanila boshladi. Sun'iy intellekt texnologiyalari inson mehnatini avtomatlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, ma'lum darajada mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lgan algo-

ritmik tizimlarni yaratishga ham xizmat qilmoqda. Shu bois sun'iy intellektning huquqiy tabiati, uning turlari va huquqiy munosabatlardagi o'rnini ilmiy jihatdan tahlil qilish zamonaviy huquqshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Sun'iy intellekt tushunchasining ilmiy shakllanishi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy muomalaga kiritilgan. Ushbu sohaning ilmiy asoslari britaniyalik matematik va kompyuter fanlari bo'yicha tadqiqotchi Alan Turing tomonidan yaratilgan. U 1950-yilda e'lon qilgan "Computing Machinery and Intelligence" nomli maqolasida mashinalar inson kabi fikr yuritishi mumkinligi haqidagi nazariyani ilgari surgan¹. Tyuring tomonidan taklif etilgan "Turing Test" konsepsiyasi mashinalarning intellektual qobiliyatini baholashning ilk nazariy modellaridan biri hisoblanadi.

1956-yilda o'tkazilgan Dartmut konferensiyasi sun'iy intellekt fanining shakllanishida muhim bosqich bo'ldi. Ushbu konferensiyada amerikalik olim Djon Makkarti (John McCarthy) "artificial intelligence" (sun'iy intellekt) atamasini ilmiy muomalaga kiritgan². Keyinchalik mazkur tushuncha turli olimlar tomonidan yanada rivojlantirildi.

Masalan, sun'iy intellekt sohasidagi mashhur tadqiqotchilar Styuart Rassel (Stuart Russell) va Piter Norvig (Peter Norvig) sun'iy intellektni "atrof muhitni idrok etadigan va belgilangan maqsadlarga erishish uchun mustaqil harakat qiladigan intellektual agentlar tizimi" sifatida ta'riflaydilar³.

Xalqaro tashkilotlar ham sun'iy intellektga institutsional ta'riflar bergan. Masalan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD)) sun'iy intellektni "ma'lumotlarni tahlil qilish va belgilangan maqsadlarga erishish uchun prognozlar, qarorlar yoki tavsiyalar ishlab chiqishga qodir mashinali tizim" sifatida ta'riflaydi⁴.

Shuningdek, Yevropa komissiyasi (European Commission) tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar-da sun'iy intellekt tizimi ma'lum darajada avtonomlikka ega bo'lgan va inson tomonidan belgilangan maqsadlar asosida qarorlar qabul qilishga qodir al-

goritmik tizim sifatida ta'riflangan⁵.

Zamonaviy sun'iy intellekt texnologiyalari bir nechta asosiy yo'nalishlarga bo'linadi. Ilmiy adabiyotlarda ularning texnologik tasnifi quyidagi guruhlarga ajratiladi.

Mashinali o'rganish (Machine Learning) sun'iy intellektning eng keng tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi. U katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali algoritmlarni mustaqil ravishda o'rganish imkoniyatini beradi. Mashinali o'rganish usullari nazoratli o'rganish, nazoratsiz o'rganish va mustahkamlovchi o'rganish kabi turlarga bo'linadi⁶.

So'nggi yillarda generativ sun'iy intellekt texnologiyalari jadal rivojlanmoqda. Bunday modellar matn, tasvir, video va audio kabi raqamli kontentlarni avtomatik ravishda yaratish imkoniyatiga ega. Generativ AI neyron tarmoqlar va katta ma'lumotlar bazasi asosida ishlaydi⁷.

Ekspert tizimlar inson mutaxassislarining bilimlarini algoritmlar orqali modellashtirishga asoslandi. Ular tibbiyot, huquq va moliya sohalarida qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi⁸.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining muhim xususiyatlaridan biri ularning avtonom qaror qabul qilish qobiliyatidir. Avtonom algoritmlar inson aralashuvisiz ma'lumotlarni tahlil qilish, prognozlar ishlab chiqish va qarorlar qabul qilishga qodir.

Bunday tizimlar moliyaviy bozorlarda algoritmik savdo, tibbiyotda diagnostika, transport sohasida esa avtonom transport vositalari orqali keng qo'llanilmoqda⁹.

Biroq avtonom qarorlar huquqiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Xususan, algoritm tomonidan qabul qilingan qaror natijasida inson huquqlari buzilgan taqdirda javobgarlik kimga yuklanishi masalasi dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy sun'iy intellekt tizimlarining asosiy huquqiy muammolaridan biri — algoritmlar tomonidan qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlikning belgilanishi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushuncha algorithmic accountability (algoritmik mas'uliyat) sifatida ma'nolanadi¹⁰.

¹ <https://www.hec.edu/sites/default/files/documents/Computing%20Machinery%20and%20Intelligence%20by%20Alan%20Turing.pdf>

² <https://www.uco.es/users/maifegan/Comunes/assignaturas/pd/1959-McCarthy.pdf>

³ http://lib.ysu.am/disciplines_bk/efdd4d1d4c2087fe1cbe03d9ced67f34.pdf

⁴ <https://www.oecd.org/en/topics/ai-principles.html>

⁵ https://eubudget.europa.eu/en/?&at_campaign=2025 - Economy&at_medium=Google_Ads&at_platform=Search&at_goal=TR_G&at_advertiser=Webcomm&at_topic=MFF&at_location=NL&gad_source=1&gad_campaignid=23095725251&gbraid=0AAAAABBTtHUmVM_70RPi - DZsD1mTi wG1Zu&gclid=CjwKCAjwpcTNBhA5EiwAdO1S9ub2BLlik2PzZQeGtjOmWH-HE-Lut5-XC19ugAGRO4211gsbyZK5YhoCuzEQAvD_BwE

⁶ <https://aikosh.indiaai.gov.in/static/Deep+Learning+lan+Goodfellow.pdf>

⁷ <https://global.oup.com/academic/product/the - ethics - of - artificial - intelligence - 9780198883098?cc=uz&lang=en&>

⁸ <https://www.scrip.org/reference/referencespapers?referenceid=2673460>

⁹ https://lawreview.law.ucdavis.edu/sites/g/files/dgvnsk15026/files/media/documents/51-2_Calo.pdf

¹⁰ <https://www.scrip.org/reference/referencespapers?referenceid=3614762>

Algoritmik mas'uliyat konsepsiyasiga ko'ra, sun'iy intellekt tizimlari orqali amalga oshirilayotgan qarorlar natijasida yuzaga kelgan oqibatlar uchun mas'uliyatni aniq suyektlarga yuklash zarur. Bu sohada uch asosiy yo'nalishni ajratish mumkin:

- Texnologiya yaratuvchilarining mas'uliyati – algoritmlarni ishlab chiqishda qoida va etika me'yorlariga amal qilish.
- Tizimdan foydalanuvchilarning mas'uliyati – AI texnologiyasidan samarali va xavfsiz foydalanish.
- Regulyator va davlat organlari mas'uliyati – sun'iy intellekt sohasida huquqiy bazani yaratish va nazoratni ta'minlash.

Ilmiy tadqiqotlarda shuningdek tushuntiriladigan sun'iy intellekt (Explainable AI (XAI)) konsepsiyasi ham keng muhokama qilinadi. XAI asosiy maqsad — AI qarorlarining shaffofligini ta'minlash, insonlar uchun algoritmning qanday qaror qabul qilganini tushunarli qilish¹¹. Bu, ayniqsa, tibbiyot, moliya va huquq sohalarida ahamiyatli. Masalan, kredit reytingini baholash yoki kasallik diagnostikasini avtomatlashtirishda foydalanuvchi algoritmning natijasini tushunmasligi huquqiy va etik muammolarga olib kelishi mumkin.

Xalqaro tashkilotlar OECD va European Commission sun'iy intellektni tartibga solish va algoritmik mas'uliyatni ta'minlash bo'yicha muhim hujjatlar qabul qilgan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti sun'iy intellekt prinsiplari (OECD AI Principles) (2019) asosiy tamoyillarini quyidagicha belgilaydi¹²:

- AI inson markazida bo'lishi va inson huquqlariga muvofiq ishlashi;
- shaffof va tushunarli algoritmlardan foydalanish;
- xavf va oqibatlarni baholash va nazorat qilish mexanizmlari;
- AI tizimlari uchun javobgarlik va nazoratni ta'minlash.

European Commission 2021-yilda AI Act qonun-

chiligini taklif qildi. Ushbu hujjat AI tizimlarini xavf darajasiga qarab to'rt toifaga ajratadi:

- Qabul qilib bo'lmaydigan xavf (prohibited AI);
- Yuqori xavf (high-risk AI);
- Cheklangan xavf (limited-risk AI);
- Minimal xavf (minimal-risk AI)¹³.

Ushbu kategoriyalar asosida algoritmlar uchun talablar belgilab berilgan, masalan, yuqori xavfli AI tizimlari uchun shaffoflik, inson nazorati va kafolatlangan audit talab etiladi.

O'zbekistonda sun'iy intellektni tartibga solishda raqamli davlat konsepsiyasi va "Elektron hukumat" islohotlari asosiy hujjatlar hisoblanadi. 2019-yilda qabul qilingan "Raqamli transformatsiya strategiyasi" AI texnologiyalarini ishlab chiqish va foydalanishda huquqiy, etik va texnik talablarni belgilaydi¹⁴.

Shuningdek, 2023-yilda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan "AI va raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha milliy strategiya"da algoritmik mas'uliyat, ma'lumotlarni muhofaza qilish va xavf-xatarlarni baholash masalalari alohida qayd etilgan.

Xalqaro tajriba asosida AQSh – AI texnologiyalari uchun faqat etika va samarali foydalanish yo'riqnomalari qabul qilingan, huquqiy status mavjud emas¹⁵.

Yevropa Ittifoqi – AI Act orqali yuridik va etik kafolatlar, avtonom qarorlar uchun nazorat va algoritm auditini belgilaydi¹⁶.

Xitoy – "Ethical Guidelines for AI" va milliy AI qonunchiligi orqali inson huquqlari va xavfsizlik kafolatlanadi¹⁷.

AI etikasida asosiy prinsiplar: inson qadri, shaffoflik, adolat, xavfsizlik va mas'uliyatdir¹⁸. Bu prinsiplar algoritmlar ishlashini nazorat qilish va avtonom qarorlarning oqibatlari uchun javobgarlikni belgilashda muhim hisoblanadi.

Sun'iy intellektning huquqiy tabiati bevosita uning huquqiy maqomi bilan bog'liq. Ilmiy adabiyotlarda bu masala ikki asosiy yondashuv orqali muhokama qilinadi:

¹¹ <https://ir.lawnet.fordham.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=5569&context=flr>

¹² <https://nsarchive.gwu.edu/sites/default/files/documents/5794867/National-Security-Archive-David-Gunning-DARPA.pdf>

¹³ <https://www.oecd.org/en/topics/ai-principles.html>

¹⁴ https://business.gov.nl/regulations/ai-act/?gad_source=1&gad_campaignid=23285156368&gbraid=OAAAAADAUIc9IXki3BqSu3216Uf8d11-r&gclid=CjwKCAjwpcTNBhA5EiwAd01S9jArIUSvaM8nHoHSpOVTUcwOND0FDYII-RpKiB77u0U6jRwIoVgNBoc4tUQAvD_BwE

¹⁵ <https://lex.uz/docs/4349327>

¹⁶ https://www.theepochtimes.com/tech/white-house-unveils-artificial-intelligence-bill-of-rights-4774854?utm_medium=DigitalMkt&utm_source=google&utm_campaign=PM_max_July4th_20250629&gad_source=1&gad_campaignid=22667720534&gbraid=OAAAAACvurP_f5gBuTWsMSO37CmjKD6KZK&gclid=CjwKCAjwpcTNBhA5EiwAd01S9g1sPTyX1-dsx22wsFHp-TUznX6WvouShJGnGkKQAMab1542wyNvRhoCcUUQAvD_BwE

¹⁷ <https://cset.georgetown.edu/publication/ethical-norms-for-new-generation-artificial-intelligence-released/>

¹⁸ https://www.tandfonline.com/journals/uaai20/?utm_source=google&utm_medium=cpc&utm_campaign=S10634565103_EMENAC&creative=788652320282&keyword=artificial%20intelligence%20journal&matchtype=b&network=g&device=c&utm_source=google&utm_medium=cpc&utm_campaign=S10634565103_EMENAC&cid=23369106221&agid=189561872585&gad_source=1&gad_campaignid=23369106221&gbraid=OAAAAADA Vp8FOLXqegM9Gt5GFbHv9WTmqr&gclid=CjwKCAjwpcTNBhA5EiwAd01S9mrK36ndJIKia_g5vu0AexTq7lHtIH0eNFXDMf1AldapiGXShFrghoCdL8QAvD_BwE

– AI — huquq obyekti. Ko'pchilik huquqshunos olimlar sun'iy intellektni mustaqil subyekt sifatida ko'rmaydi. Bu holda AI turli huquqiy mexanizmlar, masalan, intellektual mulk obyekti yoki dasturiy ta'minot sifatida baholanadi. Masalan, Rayan Kalo (Ryan Calo) ta'kidlaydiki, AI o'z-o'zidan huquqiy shaxs sifatida e'tirof etilishi mumkin emas, ammo uning yaratilishi va foydalanishi uchun mas'uliyat insonga yuklanadi¹⁹.

– AI — cheklangan huquq subyekti. Ayrim olimlar kelajakda yuqori darajada avtonom bo'lgan AI tizimlari uchun maxsus huquqiy maqom berish mumkinligini muhokama qilgan. Masalan, Lourens Solum (Lawrence Solum) o'z ishida AIning cheklangan huquqiy shaxs sifatida tan olinishi va ularning faoliyati uchun konkret mas'uliyat belgilanishini taklif qiladi²⁰.

Amalda esa Yevropa Ittifoqi AI Act orqali AI tizimlarini "high-risk AI" va "autonomous decision-making tools" sifatida tartibga soladi, lekin ularga to'liq huquqiy subyektlik berilmaydi. Shunday qilib, AI o'z-o'zidan huquqiy shaxs hisoblanmaydi, ammo uning faoliyati uchun inson va tashkilotlar javobgar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi raqamli transformatsiya va "Elektron hukumat" konsepsiyalari orqali AI texnologiyalarini joriy etishda huquqiy asoslarni belgilagan²¹. Shuningdek:

2019-yilda Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan "AI va raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha milliy strategiya"da²² algoritmik mas'uliyat va inson nazorati, xavf-xatarlarni baholash masalalari alohida qayd etilgan;

AI tizimlari ma'lumotlarni muhofaza qilish va inson huquqlari prinsiplariga muvofiq ishlashi kerak;

Yuqori xavfli AI tizimlari uchun audit va shaffoflik talablari joriy qilingan.

Shu bilan birga, O'zbekistonda AIning huquqiy maqomi va avtonom qarorlar uchun javobgarlik masalasi amalda hamon diskussiyaga muhtoj.

AI etikasida asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

Inson qadri – AI inson huquqlariga hurmat bilan ishlashi kerak;

Shaffoflik va tushunarlilik – Explainable AI yordamida qarorlar asosi foydalanuvchiga tushunarli

bo'lishi lozim;

Adolat va xavfsizlik – algoritmlar qonuniy va xavfsiz bo'lishi shart;

Mas'uliyat – AI faoliyati natijasidagi oqibatlar uchun javobgarlik belgilash.

Xalqaro tajribalar shularni tasdiqlaydi:

Yevropa Ittifoqi – AI Act, avtonom qarorlar uchun auditi va shaffoflik talablari;

Amerika Qo'shma Shtatlari – etika va samarali foydalanish bo'yicha qoidalar, huquqiy status mavjud emas;

Xitoy – etik qoidalar va milliy AI qonunchiligi orqali inson huquqlari va xavfsizlik kafolatlanadi.

O'zbekistonda ham raqamli davlat va AI strategiyalari shu prinsiplarni joriy etishga qaratilgan.

Sun'iy intellekt zamonaviy huquq va texnologiya sohasida muhim transformatsiya vositasi hisoblanadi.

AIning huquqiy tabiati asosan obyekt sifatida qaraladi, ammo avtonomlik darajasi yuqori bo'lgan tizimlar uchun cheklangan subyektlik konsepsiyasi ilmiy muhokamalarda mavjud.

Algorithmic accountability va Explainable AI tushunchalari AI faoliyati uchun huquqiy va etik kafolatlarni ta'minlaydi. Shu bilan birga, sun'iy intellektidan foydalanishning ba'zi bir xatarli tomonlari ham inobatga olish zarur. Bunday xavflar ichida: tarfakashlik; kiberxavfsizlikning buzilishi; shaxsga oid ma'lumotlarni sir saqlanishining buzilishi; ekologik zarar yetkazishi; odamning hayoti uchun xavfli harakatlarni sodir etilishi; intellektual mulk huquqining buzilishi; ish o'rinlarining qisqarishi; hisobotlarni taqdim etish holatining tobora kamayib borishi; shaffoflikning va AI tomonidan o'z harakatlari tushuntirish berish holatining tobora susayib borishi; aldash va SI manfaatlarini asosida manipulyativ harakatlarning oshib borishi mavjuddir. Shunga asosanib, har qanday xavfga uni oldini oluvchi omilni ishlab chiqish zarur bo'ladi²³.

O'zbekistonda AIning huquqiy tartibi xalqaro tajribalarga muvofiq shakllantirilishi va davlat nazorati mexanizmi yo'lga qo'yilishi zarur.

Huquqshunos olimlar va xalqaro tashkilotlar tavsiya qiladi: AI tizimlarini ishlab chiqishda inson huquqlari, xavfsizlik, shaffoflik va etika prinsiplariga qat'iy amal qilish kerak.

¹⁹ <https://digitalcommons.law.uw.edu/faculty-articles/640/>

²⁰ <https://scholarship.law.unc.edu/nclr/vol70/iss4/4/>

²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. // <https://lex.uz/ru/docs/5030957>

²² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20 maydagi 421-son "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish hisobidan aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. // <https://lex.uz/docs/4349327>

²³ О опасностях и рисках, связанных с ИИ, и способы их преодоления // IBM. – URL: <https://www.ibm.com/think/insights/10-ai-dangers-and-risks-and-how-to-manage-them#2.+Cybersecurity+threats>.

Новый этап системы махалли в послании президента Олий Мажлису и народу Узбекистана

УСАРОВА Ф.Х.

кандидат политических наук,
директор Центра новейшей истории Узбекистана
при Академии наук Республики Узбекистан

Annotatsia: В статье исследуется значение института махалли в условиях нового этапа реформ, обозначенного в Послании Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису и народу Узбекистана от 26 декабря 2025 года. На основе анализа конституционно-правовых норм, действующего законодательства и программных документов 2026 года раскрывается трансформация махалли из традиционной формы общественной самоорганизации в устойчивый локальный институт взаимодействия государства и общества. Особое внимание уделено вопросам адресной социальной поддержки, развития инфраструктуры, занятости, профилактики социальных рисков, воспитания молодежи, а также внедрения комплексного подхода к решению проблем на уровне махалли. Обосновывается, что укрепление института махалли является не только социально-политическим, но и управленческим приоритетом, направленным на повышение доверия граждан к государственным институтам и обеспечение устойчивого развития территорий.

Ключевые слова: махалля, самоуправление граждан, гражданское общество, Послание Президента, Олий Мажлис, социальная политика, децентрализация, махаллинская семерка, местное управление, Узбекистан.

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga 2025-yil 26-dekabrda Murojaatnomasida belgilangan islohotlar doirasida mahalla institutining yangi bosqichdagi o'rni tahlil qilinadi. Konstitutsiyaviy-huquqiy normalar, amaldagi qonunchilik va 2026-yilga mo'ljallangan dasturiy hujjatlar asosida mahallaning an'anaviy jamoaviy o'zini o'zi tashkil etish shaklidan davlat va jamiyat o'rtasidagi barqaror lokal institutga aylanish jarayoni ochib beriladi. Maqolada manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirish, bandlikni ta'minlash, ijtimoiy xavflarning oldini olish, yoshlarni tarbiyalash hamda mahalla darajasida muammolarni kompleks hal etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Введение

В Послании Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана от 26 декабря 2025 года институт махалли был представлен как одна из ключевых опор социального единства, общественного согласия и устойчивого развития

страны. Предложение объявить 2026 год “Годом развития махалли и всего общества” придало данной теме особую политико-правовую и научно-теоретическую актуальность¹.

Актуальность исследования определяется тем, что махалля в современном Узбекистане выступает не только традиционной формой

¹ Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана от 26 декабря 2025 г. // Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан. URL: <https://president.uz/ru/lists/view/8834> (дата обращения: 13.06.2026).

соседской взаимопомощи, но и важным механизмом локального управления, адресной социальной поддержки, профилактики правонарушений, развития занятости и общественного участия. При этом развитие института махалли требует научного осмысления баланса между государственной поддержкой, самостоятельностью органов самоуправления граждан и активностью населения.

Цель статьи состоит в раскрытии содержания нового этапа развития института махалли, обозначенного в Послании Президента, а также в определении его конституционно-правового, социально-экономического и управленческого значения. Для достижения цели поставлены следующие задачи: проанализировать правовую природу махалли; выявить основные направления ее развития в 2026 году; оценить значение комплексного подхода к решению проблем на местах; сформулировать практические выводы и рекомендации по дальнейшему укреплению данного института.

Материалы и методы

Методологическую основу исследования составили общенаучные и специальные методы анализа. Контент-анализ применен для выявления смысловых акцентов Послания Президента, касающихся развития махалли, укрепления социальной солидарности и расширения роли гражданского участия. Нормативно-правовой анализ позволил рассмотреть положения Конституции Республики Узбекистан, Закона “Об органах самоуправления граждан”, Указа Президента № УП-22 от 16 февраля 2026 года и иных актов, связанных с деятельностью махаллей².

Сравнительно-правовой метод использован для сопоставления традиционной природы махалли с современными принципами децентрализации и местного самоуправления. Структурно-функциональный подход позво-

лил раскрыть махаллю как социальный институт, выполняющий управленческие, социальные, воспитательные, профилактические и коммуникативные функции. Системный метод применен для оценки взаимодействия махалли с государственными органами, институтами гражданского общества, населением и механизмами стратегического планирования.

Результаты и обсуждение

1. Конституционно-правовая природа института махалли

Конституция Республики Узбекистан закрепляет органы самоуправления граждан как самостоятельный элемент общественно-политической системы. Согласно статье 127 Конституции, органами самоуправления являются сходы граждан в поселках, кишлаках и аулах, а также в махаллях городов, поселков, кишлаков и аулов, избирающие председателя³. Это положение имеет принципиальное значение, поскольку оно выводит махаллю за рамки исключительно бытового или культурного явления и определяет ее как правовой институт.

Закон Республики Узбекистан “Об органах самоуправления граждан” конкретизирует конституционное право граждан на самоуправление и подчеркивает, что органы самоуправления граждан не входят в систему органов государственной власти, действуя в пределах закона и исходя из интересов населения, исторических особенностей, национальных ценностей, местных обычаев и традиций⁴. Следовательно, махалля занимает промежуточное, но самостоятельное место между государственным управлением и гражданской самоорганизацией.

В этом смысле Послание Президента не создает новый институт, а задает новый этап развития уже имеющегося конституционного механизма. Его смысл состоит в том, чтобы усилить практическую роль махалли в реше-

² Внедрить регулярные механизмы общественного обсуждения локальных программ: собрания жителей, консультативные группы, электронные опросы, платформы предложений и публичные отчеты о ходе реализации проектов в махаллях. // Усилить прозрачность расходования средств, направляемых на развитие махаллей, путем публикации доступной информации о проектах, сроках, ответственных исполнителях и достигнутых результатах. // Развивать экономическую функцию махалли через поддержку семейного предпринимательства, самозанятости, профессионального обучения молодежи и женщин, а также через создание производственных и сервисных проектов на местах. // Закрепить в практической деятельности принцип разграничения полномочий: махалля должна выявлять потребности, координировать общественное участие и осуществлять обратную связь, а государственные органы – обеспечивать ресурсную, правовую и организационную поддержку.

³ Конституция Республики Узбекистан: принята на всенародном референдуме 30 апреля 2023 г. // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. URL: <https://lex.uz/docs/6445147> (дата обращения: 13.06.2026).

⁴ Закон Республики Узбекистан “Об органах самоуправления граждан” от 22 апреля 2013 г. № ЗРУ-350 // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. URL: <https://lex.uz/ru/docs/2156897> (дата обращения: 13.06.2026).

нии повседневных вопросов граждан, не сводя ее деятельность к формальному исполнению поручений. Такая постановка вопроса соответствует современным подходам к публичному управлению, где эффективность государства определяется способностью слышать население и оперативно реагировать на локальные потребности.

2. Махалля как источник социальной солидарности и доверия

В Послании Президента особое внимание уделено социальной природе махалли. Отмечено, что более 90 процентов участников социологических опросов, проведенных в стране, считают себя частью махаллинского сообщества⁵. Данный показатель позволяет рассматривать махаллю не только как территориальную единицу, но и как пространство доверия, взаимной ответственности и гражданской идентичности.

Социальная значимость махалли проявляется прежде всего в ее способности объединять жителей вокруг общих интересов. В условиях ускоренных реформ, урбанизации и демографического роста потребность в таких локальных механизмах особенно возрастает. Махалля обеспечивает непосредственный контакт между человеком, семьей, соседским сообществом и публичной властью. Именно поэтому через махаллю возможно более точное выявление социальных проблем, потребностей семей, молодежи, женщин, пожилых граждан и малообеспеченных слоев населения.

С научной точки зрения махаллю можно рассматривать как форму социального капитала. В работах Р. Патнэма подчеркивается, что доверие, горизонтальные связи и гражданское участие повышают устойчивость институтов и качество управления⁶. В узбекском контексте махалля исторически выполняет аналогичную функцию: она создает среду, в которой взаимопомощь, общественный контроль, уважение к старшим и ответственность перед соседями превращаются в практические социальные механизмы.

3. Переход к комплексному развитию махалли

Одним из ключевых результатов Послания стало закрепление комплексного подхода к развитию махалли. В отличие от прежней практики, когда отдельные инфраструктурные, социальные или экономические проблемы решались разрозненно, новая логика предполагает системное решение вопросов дорог, водоснабжения, электроэнергетики, социальных учреждений, занятости, предпринимательства и благоустройства.

Указ Президента Республики Узбекистан от 16 февраля 2026 года № УП-22 “О программах реформ по приоритетным направлениям и Государственной программе по реализации Стратегии “Узбекистан – 2030” в “Год развития махалли и всего общества”” закрепил основные направления практической реализации этой политики. В частности, предусмотрено создание дополнительно 100 тысяч новых рабочих мест путем запуска более 10 тысяч проектов по производству и оказанию услуг в махаллях, а также направление 20 триллионов сумов на совершенствование инфраструктуры махаллей и придание им облика Нового Узбекистана⁷.

Таким образом, махалля начинает выступать не только адресатом государственной помощи, но и активной площадкой экономического развития. Проекты по развитию промышленности и услуг в махаллях, поддержка самозанятости, семейного предпринимательства и профессионального обучения молодежи позволяют соединить социальную поддержку с расширением экономических возможностей населения. Это особенно важно для предотвращения бедности, миграционных рисков и социальной пассивности.

Комплексный подход также усиливает управленческую ответственность. Если развитие махалли связывается с конкретными показателями занятости, инфраструктуры, социальной защиты и качества жизни, то деятельность соответствующих государственных органов должна оцениваться не по формаль-

⁵ Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана от 26 декабря 2025 г. // Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан. URL: <https://president.uz/ru/lists/view/8834> (дата обращения: 13.06.2026).

⁶ Putnam R.D. Making Democracy Work: Civic Traditions in Modern Italy. Princeton: Princeton University Press, 1993. 258 p.

⁷ Указ Президента Республики Узбекистан от 16 февраля 2026 г. № УП-22 “О программах реформ по приоритетным направлениям и Государственной программе по реализации Стратегии “Узбекистан – 2030” в “Год развития махалли и всего общества”” // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. URL: <https://lex.uz/ru/docs/8050793> (дата обращения: 13.06.2026).

ным отчетам, а по реальным изменениям на местах. В этом проявляется переход от административной модели управления к модели, ориентированной на результат и потребности человека.

4. “Махаллинская семерка” и институциональная координация

Важным механизмом нового этапа является деятельность “махаллинской семерки” — системы взаимодействия представителей различных сфер на уровне махалли. Указ Президента № УП-209 от 21 декабря 2023 года и последующие правительственные решения направлены на повышение эффективности работы лиц, ответственных за деятельность “махаллабай”, а также на внедрение показателей результативности и межведомственной координации⁸.

Данный механизм имеет практическую ценность, поскольку большинство проблем населения носит комплексный характер. Например, вопрос занятости молодежи может быть связан с профессиональным обучением, предпринимательством, семейным положением, профилактикой правонарушений и доступом к цифровым услугам. Раздельное рассмотрение таких проблем снижает эффективность государственной политики. Напротив, совместная работа председателя махалли, помощника хохима, молодежного лидера, женской активистки, инспектора профилактики, социального работника и налогового инспектора позволяет формировать более целостные решения.

В то же время институциональная координация требует четкого разграничения полномочий. Расширение функций махалли не должно приводить к перегрузке ее аппарата или подмене полномочий государственных органов. Научно обоснованный подход предполагает, что махалля должна выполнять роль первичного канала выявления проблем, общественного участия и локальной координации, тогда как принятие ресурсных и правоприме-

нительных решений должно оставаться в компетенции соответствующих органов власти.

5. Основные вызовы и направления дальнейшего совершенствования

Несмотря на значительный потенциал, развитие института махалли сопровождается рядом вызовов. Во-первых, существует риск формализации общественного участия, когда собрания, отчеты и обсуждения проводятся без реального влияния жителей на принятие решений. Во-вторых, кадровый потенциал махалли не всегда соответствует расширяющемуся объему задач. В-третьих, цифровизация деятельности махалли требует не только технических платформ, но и навыков работы с данными, защиты персональной информации и прозрачного обмена сведениями между ведомствами.

Еще одним важным вызовом является сохранение баланса между традиционными ценностями и современными требованиями управления. Махалля должна оставаться пространством взаимопомощи, добрососедства и общественного согласия, но одновременно действовать на основе законности, открытости, подотчетности и уважения прав человека. В этой связи особенно актуальны механизмы общественного контроля, обратной связи, регулярного мониторинга потребностей населения и публичной отчетности.

В рамках теории местного самоуправления устойчивость локальных институтов зависит от того, насколько они способны объединять правила, ресурсы и участие самих граждан. Э. Остром указывала, что эффективное управление общими ресурсами требует понятных правил, участия заинтересованных лиц и механизмов контроля⁹. Применительно к махалле этот подход означает необходимость сочетания государственной программы, местной инициативы и ответственности жителей за развитие своей территории.

Заключение

Проведенное исследование показывает, что

⁸ Указ Президента Республики Узбекистан от 16 февраля 2026 г. № УП-22 “О программах реформ по приоритетным направлениям и Государственной программе по реализации Стратегии “Узбекистан – 2030” в “Год развития махалли и всего общества” // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. URL: <https://lex.uz/ru/docs/8050793> (дата обращения: 13.06.2026). // Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 15 марта 2024 г. № 137 “О мерах по эффективной организации деятельности и обеспечения взаимодействия лиц, ответственных за работу “махаллабай”, а также организации деятельности “Махаллинской семерки” // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. URL: <https://lex.uz/uz/docs/6840783> (дата обращения: 13.06.2026).

⁹ Ostrom E. Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action. Cambridge: Cambridge University Press, 1990. 280 p.

Послание Президента Республики Узбекистан от 26 декабря 2025 года обозначило качественно новый этап развития института махалли. Махалля рассматривается не только как традиционная форма общественной самоорганизации, но и как важный локальный институт, обеспечивающий связь между государством и населением, выявление проблем на местах и реализацию социально ориентированных реформ.

Во-первых, конституционно-правовая основа деятельности махалли создает возможность для ее дальнейшего институционального укрепления. Закрепление органов самоуправления граждан в Конституции и специальном законодательстве позволяет рассматривать махаллю как самостоятельный элемент публичной жизни, не входящий в систему государственной власти, но тесно взаимодействующий с ней.

Во-вторых, Послание Президента усиливает социальную миссию махалли как пространства доверия, солидарности и гражданского участия. Высокий уровень самоидентификации граждан с махаллинским сообществом свидетельствует о том, что данный институт обладает значительным потенциалом для укрепления общественного согласия и устойчивости общества.

В-третьих, переход к комплексному развитию махалли означает соединение инфраструктурной модернизации, социальной поддержки, занятости, предпринимательства, воспитания молодежи и профилактики социальных рисков в единую систему. Такой подход повышает результативность реформ и делает их более ощутимыми для граждан.

В-четвертых, эффективность нового этапа будет зависеть от качества кадров, прозрачности распределения ресурсов, цифровой грамотности, межведомственного взаимодействия и реального участия жителей в принятии решений. Поэтому дальнейшее развитие махалли должно строиться на сочетании традиционных ценностей, правовой определенности и современных методов управления.

Практические рекомендации

1. Организовать системное повышение квалификации председателей махаллей и членов “махаллинской семерки” по направлениям

проектного управления, финансового планирования, коммуникации с населением, цифровой грамотности и правовых основ деятельности органов самоуправления граждан.

2. Внедрить регулярные механизмы общественного обсуждения локальных программ: собрания жителей, консультативные группы, электронные опросы, платформы предложений и публичные отчеты о ходе реализации проектов в махаллях.

3. Усилить прозрачность расходования средств, направляемых на развитие махаллей, путем публикации доступной информации о проектах, сроках, ответственных исполнителях и достигнутых результатах.

4. Развивать экономическую функцию махалли через поддержку семейного предпринимательства, самозанятости, профессионального обучения молодежи и женщин, а также через создание производственных и сервисных проектов на местах.

5. Закрепить в практической деятельности принцип разграничения полномочий: махалля должна выявлять потребности, координировать общественное участие и осуществлять обратную связь, а государственные органы — обеспечивать ресурсную, правовую и организационную поддержку.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана от 26 декабря 2025 г. // Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан. URL: <https://president.uz/ru/lists/view/8834> (дата обращения: 13.06.2026).

2. Конституция Республики Узбекистан: принята на всенародном референдуме 30 апреля 2023 г. // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. URL: <https://lex.uz/docs/6445147> (дата обращения: 13.06.2026).

3. Закон Республики Узбекистан “Об органах самоуправления граждан” от 22 апреля 2013 г. № ЗРУ-350 // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. URL: <https://lex.uz/ru/docs/2156897> (дата обращения: 13.06.2026).

4. Указ Президента Республики Узбекистан от 16 февраля 2026 г. № УП-22 “О программах

реформ по приоритетным направлениям и Государственной программе по реализации Стратегии “Узбекистан – 2030” в “Год развития махалли и всего общества”” // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. URL: <https://lex.uz/ru/docs/8050793> (дата обращения: 13.06.2026).

5. Указ Президента Республики Узбекистан от 16 февраля 2026 г. № УП-22 “О программах реформ по приоритетным направлениям и Государственной программе по реализации Стратегии “Узбекистан – 2030” в “Год развития махалли и всего общества”” // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. URL: <https://lex.uz/ru/docs/8050793> (дата обращения: 13.06.2026).

6. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 15 марта 2024 г. № 137 “О мерах по эффективной организации деятельности и обеспечения взаимодействия лиц, ответственных за работу “махаллабай”, а также организации деятельности “Махаллинской семерки”” // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. URL: <https://lex.uz/uz/docs/6840783> (дата обращения: 13.06.2026).

7. Закон Республики Узбекистан от 15 октября 2018 г. № ЗРУ-499 “О выборах председателя схода граждан” // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. URL: <https://lex.uz/docs/3988402> (дата обращения: 13.06.2026).

8. Представлены программы реформ на 2026 год и государственная программа реализации Стратегии “Узбекистан – 2030” // Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан. 16.02.2026. URL: <https://president.uz/ru/lists/view/8943> (дата обращения: 13.06.2026).

9. Султанов В. 2026 год объявлен “Годом развития махалли и всего общества” // Kun.uz. URL: <https://kun.uz/ru/88038433> (дата обращения: 13.06.2026).

10. Турсунмуродов Р. Развитие страны начинается с махалли // УзА. URL: https://uza.uz/ru/posts/razvitie-strany-nachinaetsya-s-mahalli_805337 (дата обращения: 13.06.2026).

11. Putnam R.D. Making Democracy Work: Civic Traditions in Modern Italy. Princeton: Princeton University Press, 1993. 258 p.

12. Ostrom E. Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action. Cambridge: Cambridge University Press, 1990. 280 p.



DAVLAT VA HUQUQ – ГОСУДАРСТВО И ПРАВО – STATE AND LAW

ilmiy jurnal

1/(01) 2026

Jurnal 2025-yil 5-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida Litsenziya reestri bo'yicha S-5669744 tartib raqami bilan ro'yxatdan o'tgan. Guvohnoma raqami 650249.

Materiallar "Davlat va huquq – Государство и право – State and Law" jurnalidan ko'chirib olinganda jurnal nomi ko'rsatilishi shart.

E'lon qilingan materiallarda keltirilgan fakt va raqamlar, ko'chirmalar, iqtisodiy-statistik ma'lumotlar rostligi va aniqligi uchun mualliflar javob beradi.

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma taqriz qilinmaydi va qaytarilmaydi.

Tahririyat manzili:

100029, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 81-uy. Telefon: (+998) 71 200 00 36

Veb sayt: islas.academy.uz

Elektron pochta: info@islas.uz

2026-yil 6-iyulda chop etishga ruxsat berildi.

Bichimi: 60 x 84 1/8. Bosma taboq: _____. Shartli bosma taboq: _____.

Jami _____ nusxa. Bahosi shartnoma asosida.

Buyurtma № _____.